Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

Урганч давлат университети

Фалсафа фанидан

Маърузалар матни

Тузувчи: Жуманиёзов Б, Искандарова З



1. Ma’ruza. Mavzu: Falsafaning predmeti, asosiy mavzulari va falsafiy dunyoqarash (2 soat)

Reja:

1. Falsafaning mavzulari va muammolari
2. Falsafiy dunyoqarash, uning xususiyatlari va asosiy tamoyillari
3. Falsafiy bilimlar tizimi, uning yo`nalishlari va vazifalari
4. Istiqlol va falsafiy dunyoqarashning yangilanish masalalari

1. Falsafaning mavzulari va muammolari

Falsafa insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan biridir. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash inson tabiatiga xos, demak, uning o`zi kabi qadimiydir. U olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo`klik kabi ko`plab muammolar haqida bahs yuritadigan fandir.

Falsafa» atamasi qadimgi yunon tilidagi **filosofiya** so`zidan olingan va u lug`aviy ma’noda donishmandlikni sevish "filo" - sevaman, "sofiya" - donolik) degan mazmunni anglatadi. Asrlar davomida "filosofiya" so`zining ma’no-mazmuniga xilma-xil qarashlar, uning jamiyat, inson va fanlar tizimidagi o`rniga nisbatan turlicha munosabat va yondashuvlar bo`lgan, bu atamaning moxiyat-mazmuni ham o`zgarib borgan.

"Filosofiya" atamasi va u ifoda etadigan bilimlar majmui qadimgi YUnoniston va Rimda eramizdan avvalgi VII - III asrlarda yuz bergan buyuk yuksalish natijasi sifatida yuzaga kelgan edi. O`sha davrda endigina shakllanib kelayotgan nazariy fikrning ifodasi bo`lmish falsafiy tafakkur olamni yaxlit va bir butun holda tushunish mujassamiga aylangan edi.

Qadimgi YUnonistonda "filosofiya" atamasini dastlab matematika fani orqali barchamizga yaxshi ma’lum bo`lgan, alloma Pifagor ishlatgan. Evropa madaniyatiga esa u atoqli yunon faylasufi Aflotun asarlari orqali kirib kelgan. SHu tariqa, u avvalo, qadimgi YUnonistonda alohida bilim sohasiga, to`g`rirog`i, "fanlarning otasi", ya’ni asosiy fanga aylangan.

Qadimgi dunyoda fanlarning barchasini, ular qanday ilmiy masalalar bilan shug`ullanishidan qati nazar, filosofiya deb ataganlar. U ham ijtimoiy borlik, ham tabiat to`g`risidagi ilm hisoblanar edi. SHu ma’noda, dastlabki filosofiya olam va unda insonning tutgan o`rni haqidagi qarashlar tizimi bo`lib, dunyoni ilmiy bilish zaruratidan vujudga kelgan edi. Bundan tashqari, qadimgi YUnonistonda yuz bergan buyuk uyg`onish davri o`ziga xos falsafiy mafkurani ham yaratganligi shubhasiz. Uning eng asosiy qadriyati erkinlik tushunchasi bo`lgan va ana shu erkin hayot to`g`risidagi qarashlar buyuk madaniy yuksalishga asos solgan. Falsafa SHarq xalqlari ijtimoiy tafakkurida "donishmandlikii sevish" degan mazmun bilan birga, olam sirlarini bilish, hayot, insonni qadrlash, umr mazmuni haqidagi qarash va hikmatlarni e’zozlash ma’nosida ishlatilgan. Masalan, "Ikkinchi Arastu", "Ikkinchi muallim" deya e’tirof etilgan mutafakkir Abu Nasr Forobiy "filosofiya" so`zini "Hikmatni qadrlash" deb tal$_{Q}$in etgan.

Hayot qonuniyatlarini yaxshi biladigan, umrning o`tkinchi ekani. Abadiyat insonga emas, olamga xosligini yaxshi anglab etgan, o`zi va o`zgalar qadrini to`g`ri tushunadigan kishi hech qachon "Men - donishmandman" deya ochiq e'tirof etmaydi. Ayniqsa, SHarq xalqlari hayotida bu hol yaqqol ko`zga tashlanadi. Ammo, Forobiy ta'kidlaganidek, hikmatni qadrlash, olam va odam hamda hayotning qadriga etish - boshqa gap. SHu ma'noda, bizda qadim zamonlarda faylasuf deganda, ko`pdan-ko`p ilm sohalarini egallagan, ustoz va muallim sifatida shuhrat qozongan alloma hamda mutafakkir kishilar tushunilgan.

XIX asr nemis qadriyatshunosi I. Rikkert ham shunga o`xshash fikrni quyidagicha bayon qilgan: "Odamzod olam va odam hamda hayotning qadrini anglab, ular omonat bir narsa ekanini tushuna boshlagan davrlardan falsafiy fikrlashga kirishgan. Binobarin, birinchi faylasuf, kim bo`lganidan qat'i nazar, hayotni qadrlay-digan kishi bo`lgani shubhasiz".

Falsafa, avvalo, muayyan ilmiy bilimlar tizimidir. U, bir tomondan, insonning voqelikni aql vositasida idrok etishi, ikkinchi tomondan, ongning afsona va rivoyatlar asosidagi shakllardan uzil-kesil ajralish jarayoni natijasidir. Bu ikki jihat bir-biri bilan uzviy bog`liq. CHunki behuda xayolparastlik, havoyi va afsonaviy fikrlash tarzidan xalos bo`lish ilmiy bilimlarni egallash orqali ro`y beradi. Eng muhimi, falsafa kundalik turmushda uchrab turadigan eskilik asoratlari, bid'at va cheklanishlarga muxolif bo`lgan hurfikrliliqdir. Falsafa aynan ana shunday yangi dunyoqarashning shakllanishi uchun asos bo`ldi.

"Falsafa" atamasi "filosofiya"ning SHarq ijtimoiy tafakkuridagi shaklidir. Odatda u tushuncha sifatida tor va keng ma'nolarda qo`llanadi. Xususan, keng ma'noda uni antik - qadimiy falsafada "donishmandlikni sevish" deb tushunilganini aytib o`tdik. Airim faylasuflar va falsafiy oqimlar, chunonchi, ingliz faylasufi T. Gobbs (1588—1679) uni "to`g`ri fikrlash orqali bilishga erishish", nemis faylasufi Gegel "umuman predmetlarga fikriy yondashish", Lyudvig Feyerbax "bor narsani bilish", pragmatizm ta'limoti namoyandalari esa "foydali narsalarni bilish jarayoni" deya talqin etganlar.

"Falsafa" tushunchasi tor ma'noda madaniyat, san'at, aqliy yoki hissiy bilish usuli, vositasi tarzida ta'riflanadi. Falsafaga bo`lgan munosabatning xilma-xilligiga asoslangan holda, unga yaxlit, umumlashgan ta'riflar ham berilgan. Falsafaga ijtimoiy ong shakli bo`lgan madaniyat, san'at, qadriyat nuqtai nazaridan qaraydigan bo`lsak, uning milliyligini aks etgirish imkoniyati tug`iladi. Ammo ontologiya, gnoseologiya, naturfilosofiya, antropologiya kabi fan sohalari nuqtai nazaridan qaralsa, ushbu ta'rifda umuminsoniylik va universallik falsafaning asosiy xususiyati ekanligi namoyon bo`ladi.

Haqiqiy falsafa tafakkur mahsuli bo`lgan narsalarni oliy darajadagi haqiqat sifatida mutlaklashtirmaydi. Bu borada Suqrotning "Men hech narsani bilmasligimni bilaman", degan e'tirofi haqiqat mezonidir. Holbuki, Suqrot qadimgi YUnonistonning eng bilimli faylasufi bo`lgan. U bahs-munozara chog`ida har qanday suhbatdoshni qam mot qilib qo`ya olgani haqida tarixda misollar ko`p.

Falsafiy bilimlar rivoji uzluksiz jarayon bo`lib, u insoniyatning tafakkur bodida ilgari erishgan yutuqlarini tanqidiy baholashni taqozo etadi. Biroq bu – ularni tamoman rad etish, ko`r-ko`rona tanqid qilish lozim degani emas, balki ularga xos barcha xato va kamchiliklarni anglab, yaxshi va ijobiy jixatlaridan foydalanish demakdir. Ana shunday tanqidiy yondashuv va vorislik falsafaning muhim xususiyatlaridan biridir.

Bu fanning oldiga qo`yilgan vazifalarga va uning hayotdagi o`rniga qarab, ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida unga bo`lgan munosabat ham o`zgarib borgan. Bu munosabatlar dastlabki fanlar paydo bo`lib va ularning ba'zilari falsafadan ajralib, alohida mustaqil fan sohasiga aylana boshlagan davrlardayoq shakllana boshlagan.

Falsafaning ijtimoiy ong tizimida tutgan o`rni, jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyati nimadan iborat, degan masala xamma davrlarda x.am dolzarb bo`lgan. Ayniqsa, tarixiy taraqqiyotningtub bu-rilish davrlarida falsafaning asl mohiyatini bilish, uning usul va g`oyalari kuchidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan.

Falsafa, sirasini aytganda, ijtimoiy tafakkur va insoniyat ma'naviy taraqqiyoti mahsulidir. U kishilarning olamni bilish, o`zlashtirish, farovon hayot kechirish va o`z insoniy salohiyatlarini namoyon etish ehtiyojlari bilan uzviy bog`liqdir. Falsafiy ta'li-motlar hamma davrlarda ham insoniyatning ilg`or tajribalarini o`zida mujassamlashtirgan va insoniyat madaniyatini yanada yuksak-roq bosqichga ko`tarishga xizmat qilgan.

Xar bir falsafiy g`oya, mafkura, bilimlar tizimi asosan o`z davri xususiyatlarini aks ettirgan. Ular zamon ruhi va ma'naviyatini o`zida mujassamlashtirgan, davr muammolarini hal etishda qo`l kelgan. SHuning uchun Aflotun, Forobiy, Beruniy, Navoiy va Gegelning asar hamda ta'limotlarida ular yashab o`tgan davr g`oyalari aks etgan.

Kishilik jamiyati hech qachon bir tekis va silliq rivojlanmagan. Taraqqiyot ortidan inqirozlar, yutuqlar ketidan mag`lubiyatlar, farovonliklar izidan zavolga yuz tutishlar ta'qib etgan. Muayyan jamiyat iqtisodiy-siyosiy, axloqiy-diniy, badiiy - estetik taraqqiyot borasida inqirozga duch kelar ekan, undan chiqib ketish uchun ilg`or falsafiy ta'limotlarga ehtiyoj sezadi.

SHuning uchun ham buyuk falsafiy ta'limotlarni, bir tomondan, madaniy-intellektual rivojlanish samarasi, ikkinchi tomondan, tub ijtimoiy o`zgarishlar taqozosi deyish mumkin. Muayyan tarixiy burilish davrida "Falsafa nima o`zi?" degan masala dolzarb ahamiyat kasb etishi ham shundan. Ana shunday davrlarda kishi-lar falsafaning mohiyati, uning maqsad va vazifalarini yangicha idrok etganlar.

Qadimgi YUnoniston va Rim davridan buyon o`tgan ikki ming yildan ziyodroq vaqt mobaynida "Falsafa endi yo`q bo`ldi, uni o`rganishning hech bir zarurati qolmadi", qabilidagi gaplar ko`p bo`lgan. Lekin zamonlar o`tishi bilan odamzod baribir falsafaga ehtiyoj sezgan va u insonning ma'naviy kamolotida beqiyos ahamiyat kasb etishiga qayta-qayta ishonch hosil qilgan.

Bu jihatdan quyidagi rivoyat juda ibratlidir. Miloddan oldingi birinchi asrda yashab o`tgan buyuk faylasuf Lukretsiyning shogirdlaridan biri unga qarab, "Ustoz, fanning boshqa sohalariga oid ilmlar juda ko`payib ketdi. Endi falsafani o`rganishning hojati bormikan?", debdi. SHunda ulug` faylasuf: "Falsafani Suqrot, Aflotun, Arastu kabi buyuk allomalar yaratgan. Lekin endi-likda insoniyatning ana shunday buyuk mutafakkirlari yaratgan bu fanni o`rganmaslik har qaysi nodonning ham qo`lidan keladigan ish bo`lib qoldi", degan ekan.

Falsafa kishilarga olam to`g`risida yaxlit tasavvur beradi, boshqa fanlar esa, uning ayrim jihatlarini o`rganadi. Masalan, biologiya o`simlik va hayvonot dunyosini, turlarining kelib chiqishi, O`zgarishi va takomillashib borishi kabi masalalarni o`rganadi. Bu sohaga oid fanlar ushbu yo`nalishdagi jarayonlarning ba'zi xususiyat va jihatlarini chuqurroq tadqiq etishga harakat qiladi. Bi-nobarin, biolog har qanday

rivojlanish jarayoni bilan emas, balki faqat jonli tanadagi rivojlanish jarayoni bilan qiziqa-di. Umuman, rivojlanish jarayonining o`zi nima, uning mohiyati qanday? Masalaning aynan shu taxlitda qo`yilishi ilmiy muammolarni falsafiy masalaga aylantiradi. YA’ni, shu tariqa muayyan mavzu oddiy ilm sohasidagi yo`nalishdan falsafiy muammo tusini oladi.

Endi faylasuf kim, degan savolga javob beraylik. Filosof so`zini, yuqorida aytganimizdek, ilk bor atoqli matematik va mutafakkir Pifagor qo`llagan. Bu tushunchaning ma’nosini u Olimpiya o`yinlari misolida quyidagicha tushuntirib bergan: anjumanga keladigan bir guruh kishilar bellashish, kuch sinashish, ya’ni o`zi va o`zligini namoyon etish uchun, ikkinchi bir guruh - savdo-sotiq qilish, boyligini ko`paytirish uchun, uchinchisi esa, o`yindan ma’naviy oziq olish, haqiqatni bilish va aniklashni maqsad qilib oladi. Ana shu uchinchi guruhga mansub kishilar, Pifagor talqiniga ko`ra, faylasuflar edi.

Bu, bir qarashda, oddiy va jo`n misolga o`xshaydi. Ammo uning ma’nosi nihoyatda teran. CHunki, inson umrining o`zi ham shunday. "Dunyo teatrga o`xshaydi, unga kelgan har bir kishi sahnaga chiqadi va o`z rolini o`ynab dunyoni tark etadi", degan fikr bejiz aytil-magan. Kimdir bu dunyoga uning sir-asrorlari to`g`risida bosh ham qotirmasdan kelib ketadi, umrini eyish-ichish, uy-ro`zg`or tashvishlari bilan o`tkazadi. Boshqasi - nafs balosiga berilib, mol-mulkka ruju qo`yadi. Uchinchisi esa, olam hikmatlarini o`rganadi, umrini xayrli va savob ishlarga sarflaydi, boshqalar uchun ibrat bo`larli hayot kechiradi.

Qadimgi SHarq va YUnonistonda har tomonlama chuqur bilim hamda katta hayotiy tajribaga ega bo`lgan, inson ma’naviyatini boyitish va haqiqatni bilishga intiluvchi kishilarni faylasuf deb ataganlar. Fozil va komil insonlargina falsafa bilan shug`ullanganlar. Aslida, o`sha davrlarda falsafani o`rganish deyilganda, ilmning asoslarini egallash ko`zda tutilgan. Grek mutafakkiri Gerak-lit (eramizdan avvalgi 520 - 460 yillarda yashagan) shogirdlariga murojaat qilib, "Do`stim, sen hali yoshsan, umringni bekor o`tkazmay desang, falsafani o`rgan", deganda aynan ana shu haqiqatni nazarda tutgan.

Boshqa bir buyuk grek faylasufi Epikur (eramizdan avvalgi 470 - 399 yillarda yashagan) bu haqiqatni quyidagicha ifoda etgan: "O`z-o`zingni erga urish, tubanlashish nodonlikdan boshqa narsa emas, o`zligingdan yuqori turish esa - faylasuflikdir".

Lev Tolstoy donishmand kishilarning uch xislatini alohida ta’kidlab, shunday yozgan: "Ular, avvalo, boshqalarga bergan maslahatlariga o`zlari amal qiladilar; ikkinchidan, hech qachon haqiqatga qarshi bormaydilar; uchinchidan, atrofidagi kishilarning nuqsonlariga sabr-toqat bilan chidaydilar".

Xuddi shuningdek, SHarkda ham Konfutsiy va Moniy, Xorazmiy va Forobiy, imom Buxoriy va imom Termiziy, Beruniy va ibn Sino, Naqshband va Navoiy kabi donishmand bobolarimiz o`z hayotiy kuzatishlari hamda tajribalarini umumlashtirish, insonga xos xato va kamchiliklardan saboq chiqarish, bashariyat tomonidan to`plangan bilim, tajribalarni o`zlashtirish orqali faylasuf da-rajasiga ko`tarilganlar.

Umuman olganda, bilimdon kishilarning barchasini ham donishmand yoki mutafakkir deb bo`lmaydi. Haqiqiy faylasuflar hayotda nihoyatda kam bo`ladi. Ular o`z davri va millatining farzandi sifatida insoniyat tarixiga katta ta’sir ko`rsatadi. Xudoning o`zi aql-zakovat, iste’dod, kuch-quvvat ato etgan, yorqin tafakkurga ega bo`lgan bunday buyuk shaxslar umumbashariy taraqqiyot miqyosida tanilgan, teran insoniy g`oyalar,

ma’naviy boyliklarning qadr-qimmatini chuqur anglaydigan donishmand odamlar bo`lgan.

Kezi kelganda shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirgi davrda bizda falsafa ixtisosligi bo`yicha ma’lumot olgan mutaxassisni faylasuf deyish odat tusiga kirib qoldi. Aslida, faylasuf so`zi ana shu tarzda ishlatilganida ushbu sohaning zamonaviy mutaxassisi, uning asoslarini egallagan, mazkur yo`nalishda tadqiqot olib boradigan yoki ilmiy darajaga ega bo`lgan kishilar tushuniladi, xolos.

Falsafa fanining muammolari, o`z xususiyatlariga ko`ra, umumiy yoki xususiy, azaliy yoki o`tkinchi bo`lishi mumkin. Azaliy muammolar insoniyat paydo bo`lgan davrdayoq vujudga kelgan bo`lib, toki odamzod mavjud ekan, yashayveradi. CHunki insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida ushbu muammolar yangidan kun tartibiga qo`yilaveradi. Ularni o`rganish jarayonida ilm-fan, falsafa taraqqiy etib boradi.

Olam va odam munosabatlari, dunyoning mavjudligi, undagi o`zaro aloqadorlik va taraqqiy etish, insoniyat hayotidagi adolat va haqiqat, yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, umrning mazmuni, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy tamoyillari bilan bog`liq ko`pdan-ko`p masalalar falsafa va falsafiy bilim sohalarining umumiy va azaliy muammolari sirasiga kiradi.

Falsafada olamning asosida nima yotadi, uni voqe etib turgan narsaning mohiyati nimadan iborat, degan masalalar nihoyatda uzoq tarixga ega. Qadimgi YUnoniston va Rimda bu masala **"substantsiya"** tushunchasi va uning mazmuni qanday tushunilishiga qarab o`ziga xos ifodalangan. "Substantsiya" deganda olam va dunyodagi narsalarning mohiyati to`g`risidagi fikr tushunilgan. YUnoniston faylasufi va matematigi Pifagor, hamma narsa sonlardan tashkil topgan, degan bo`lsa, Aflotun substantsiya - g`oyalardir, degan, Demokrit esa, olamning asosida atomlar (atom tushunchasi o`sha davrda bo`linmas zarracha ma’nosida ishlatilgan) yotadi, deb tushuntirgan.

Bu masalalarning qay tarzda hal qilinishiga qarab farqlanadigan falsafiy oqim va yo`nalishlar ham yo`q emas. Masalan, olamning asosida nima yotadi, uning mohiyati nimadan iborat, degan masalada monizm, dualizm, plyuralizm, materializm va idealizm kabi qator falsafiy qarashlar shakllangan.

Monizm (yunoncha - monos, ya’ni yakka ma’nosini anglatadi) - olamning asosi yakkayu yagona sababga, bitta asosga ega, deb ta’lim beradigan falsafiy ta’limotdir.

Dualizm (lotin tilida dua, ya’ni ikki degan ma’noni ifodalaydi) - olamning asosida ikkita asos, ya’ni modda va materiya bilan birga ruh va g`oya, ya’ni ideya yotadi deyuvchi qarash.

Plyuralizm (lotin tilida plyural, ya’ni ko`plik degan ma’noni anglatadi) - olamning asosida ko`p narsa va ideyalar yotadi, deb e’tirof etadigan ta’limot.

Materializm - olamning asosida materiya, ya’ni moddiy narsalar yotishini e’tirof etadigan, moddiylikni ustuvor, deb biladigan ta’limot.

Idealizm - olamning asosida ruh yoki g`oyalar (ideyalar) yotadi, dunyo voqeligi va rivojida ideyalarni ustuvor, deb ta’lim beradigan falsafiy ta’limot.

Falsafada dunyoni anglash, uning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bog`liq masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalalar bilan falsafaning gnoseologiya (gnosis - bilish, logos - ta’limot) degan sohasi shug`ullanadi. Dunyoni bilish mumkin deb hisoblaydigan faylasuflarni - **gnostiklar;** olamni bilish mum-kin emas, bilimlarimiz to`g`ri va aniq xaqiqat darajasiga ko`tarila olmaydi deyuvchilarni esa - **agnostiklar** (yunoncha - bilib bo`lmaydi degan ma’noni anglatadi) deb yuritiladi.

Olamdagi o`zgarish, rivojlanish, umumiy aloqadorlik va taraqqiyotning qay tarzda amalga oshishi, qanday sodir bo`lishi kabi masalalar ham falsafaning azaliy muammolari qatoriga kiradi.

Falsafaning umumbashariy fan ekani uning bahs mavzulari va asosiy muammolarini belgilab beradi. SHu ma’noda odam va olam, ularning ibtidosi va intihosi, hayoti va o`zaro munosabatlari, inson tafakkuri, tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari falsafa uchun azaliy muammolardir. SHu bilan birga, muayyan davrda tug`iladigan va hal etiladigan o`tkinchi muammolar ham bo`ladi. Ular abadiy muammolar darajasiga ko`tarilmasada, o`z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqani uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafa yangi g`oyalarning tug`ilishiga imkon beradi, hayot, ijtimoiy tajriba bilan uzviy bog`liq holda rivojlanadi. U tarixiy davr bilan mustahkam aloqadorlikda taraqqiy etadi. Har bir tarixiy davr uning oldiga yangi masala va muammolarni qo`yadi. Falsafiy muammolar bevosita hayot zaruratidan tug`iladi. Aynan ular orqali falsafada davrning taraqqiyot tamoyillari va o`ziga xos xusu-siyatlari aks etadi. Masalan, hozirgi davrda istiqlol mafkurasi falsafiy asoslarini izohlash zarurati bilan belgilanadi.

Falsafiy ta’limotlarda jamiyat hayotining barcha sohalari, tarixiy jarayonga xos tamoyillar, ijtimoiy guruxlarning manfaat va kayfiyatlari, tafakkur usullari o`z aksini topadi. SHuning uchun ham muayyan ijtimoiy kuch, sinf, guruh, partiya va oqimlar o`z maqsad-muddaolari va g`oyalarini ilmiy asoslashda falsafadan foydalanadi. Falsafadagi ustuvor qarash va qoidalar davr mahsuli bo`lgani uchun zamonning taraqqiyot tamoyillari va muammolari unda o`z ifodasini topadi.

2. Falsafiy dunyoqarash, uning xususiyatlari va asosiy tamoyillari

Har bir kishining dunyoga nisbatan o`z qarashi, o`zi va o`zgalar, hayot va olam to`g`risidagi tasavvurlari, xulosalari bo`ladi. Ana shu tasavvurlar, tushuichalar, qarash ea xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. SHu ma’noda, dunyoqarash - insonning tevarak-atrofini qurshab turgan voqelik to`g`risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o`zining undagi o`rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimyaar tizimidir. Dunyoqarash olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir.

Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Gurux, partiya, millat yoki butun jamiyatga xos dunyoqarashlar majmuasi esa ijtimoiy dunyoqarash deb yuritiladi. Ijtimoiy dunyoqarash individual dunyoqarashlar yig`indisidan dunyoga keladi, deyish mumkin. Bunda ijtimoiy dunyoqarashning umumiy va xususiy shakllarini xisobga olish lozim.

Kundalik hayotiy tajribalar asosida jamiyatda, odamlarda oddiy, o`z-o`zicha rivojlanuvchi (stixiyali) mohiyatga ega bo`lgan qarashlar, tushunchalar, g`oyalar shakllanadi. Bu - dunyoqarashning o`z-o`zicha rivojlanuvchi (stixiyali) shakli hisoblanadi. Uni ko`pincha hayotiy falsafa, deb ham ataydilar.

Hayotiy falsafaning doirasi juda keng bo`lib, ongning sodda namoyon bo`lish shakllarini ham, oqilona va sog`lom fikrlarni ham o`z ichiga oladi. Xayotiy falsafa yoki oddiy amaliy dunyoqarashniyg o`ziga xos turini inson faoliyatining turli sohalaridagi bilim va tajribalar ta’sirida shakllanayotgan qarashlar tashkil etadi. "Har kimning o`z falsafasi bor" deyilganida ana shu qol anglashiladi. Demak, dunyoqarash o`zining

kundalik ommaviy shakllarida chuqur va etarli darajada asoslanmagan stixiyali xarakterga ega. SHuning uchun ham ko`p hollarda kundalik tafakkur muhim masalalarnk to`g`ri tushuntirish va baholatlga ojizlik qiladi. Buiing uchun olamni ilmiy tahlil qilish va bilish zarur.

Dunyoqarash muayyan davrda shakllanadi. SHu ma’noda, har qa.chday dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy mohiyatga ega bo`lib, kishilarning umri, amalip faoliyati, hayoti, tabiatga tasiri va mehnati jarayonida vujudga keladi. Har bir davrda ijtimoiy gurux, jamiyat va avlodning o`z dunyoqarashi mavjudligi ham bu tushunchaning tarixiy mohiyatga zga ekanini ko`rsatadi.

Dunyoqarashning tarixiyligi yana shundaki, u ma’lum dialektik jarayonda tokomillashib boradi. Uniig shakllari o`zgaradi, tarixiy finishlari muttasil yangilanib turadi.

Ma’lumki, insoniyat taraqqiyotiiing ilk bosqichlarida duiyoqalash nihoyatda oddiy bo`lgan. Agar shunday bo`lmaganida, xar qanday jism o`z hajmiga teng suyuqlik miqdorini siqib chiqarish xossasiga ega ekanini kashf etgan qadimgi zamonning buyuk olimi Arximed hammomdan yalong`och holda chiqib, "Evrika!", ya’ni "Topdim!", deya qichqirmagan bo`lar odi.

Dunyoqarash jamiyat rivojiga mos ravishda asta-sekin takomillashib borgaya. Taraqqiyotning keyingi davrlarida fan sohasida qilingan kashfiyotlar inson dunyoqarashi naqadar chuqurlashib, uning bilimlar doirasi kengayib ketganini ko`rsatadi. Bunda vorislik an’anasi yaqqol ko`zg`a tashlanadi: har bir davrning` dunyoqarashi, g`oyasi o`tmishda yaratilgan ma’naviy qadriyatlarning eng yaxshilarini, ilg`or va ijobiylarini o`zida saqlab qoladi. SHu asosda yangi tamoyillarga ega bo`lgan dunyoqarash ham takomillashib boradi. Oddiy bug` mashinasidan kosmik raketalargacha bo`lgan fan-texnika taraqqiyoti bunga yaqqol misol bo`la oladi.

Bu tushunchaning mazmuni insonning olamga, voqea va hodisa-larga, o`zgalarga va ularning faoliyatiga, o`z umri va uning mazmuni kabi ko`pdan-ko`p tushunchalarga munosabati, ularni angla-shi, tushunishi, qadrlashida namoyon bo`ladi.

Dunyoqarashning tarixiy shakllari insoniyat taraqqiyotining qonunni natijasi bo`lib, jamiyat rivojlanishining ma’naviy mezoni sifatida namoyon bo`lgan. Taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida kishilarning tabiatga, o`zlarining ijtimoiy hayotga bo`lgan munosabati turli rivoyat va afsonalarda o`z ifodasini topgan. Ular shu tariqa mifologik dunyoqarashni shakllantirgan. YOvuzlik va ezgulik o`rtasidagi kurashda yaxshilikning mudom tantana qilishi mifologik dunyoqarashning gumanistik mazmunidan dalolat beradi. Xususan, o`zbek xalqi tsivilizatsiyasi jarayonida yaratilgan rivoyat, afsona va boshqa janrlardagi og`zaki ijod namunalari millatimiz tarixda qanday ma’naviy qiyofaga ega bo`lganini hanuz ko`rsatib turadi. Ular bugungi kunda jahon axlini hayratga solmoqda. Masalan, qadimiy merosimiz namunasi "Avesto"da yaxshilik ramzi - Axuramazda va yomonlik timsoli - Axriman o`rtasidagi kurash tarixi misolida oxir-oqibatda ezgulik baribir g`alaba qozonadi, ya’ni yorug`lik zulmat ustidan g`alaba qiladi, degan g`oya asosiy o`rinni egallaydi va hayotbaxsh g`oyalar ilgari suriladi.

Mifologik dunyoqarash qadimgi zamon kishilarining o`zlariga Unosib hayot sharoitlarini yaratish ehtiyojlaridan kelib chiqqan.

Ezgulik va haqiqat uchun kurash g`oyalarining ifodasi bo`lgan afsona va rivoyatlarda millatning muayyan ruhiy holati, kelajakka ishonchi, vatanga muhabbati, insoniy kamolotga intilishi badiiy vositalar, afsonaviy qahramonlar timsolida ifoda

etilgan.

Dunyoqarashning mifologik mohiyati bugungi fan-texnika taraqqiyoti, insonning akdiy salohiyati bag`oyat yuksalib ketgan davr-da juda jo`n va ibtidoiy bo`lib ko`rinadi. Ammo afsona va rivoyat-lar o`zining kuchli jozibasi, insonparvarlik g`oyalari bilan hozirgi kunda ham kishilarni ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalashning ta’-sirchan va samarali omili bo`lib qolmoqda.

Muayyan dunyoqarash tarkibida diniy-ilohiy qarashlar o`ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ular insonning ilohga bo`lgan e’tiqodi bilan bog`liq bo`lib, vujudga kelishiga ko`ra, boshqa dunyoqarash shakllari kabi, muayyan asoslarga ega.

Mifologik dunyoqarash afsonaviy kuchlarni e’tirof etish bilan bog`liq bo`lsa, diniy dunyoqarash ilohiy qudratlarga e’tiqod qo`yish bilan bog`liq. SHuning uchun ham bu dunyoqarash shaklini inson qalbidagi quyidagi xolatlar belgilaydi:

— emotsional-ruhiy holatlar;

— e’tiqod;

— e’tiqodning xatti-harakatlarda ifoda etilishi.

Bular ayni paytda diniy dunyoqarashning asosiy tamoyillarini ham tashkil qiladi. Diniy dunyoqarash har bir davrda muayyan ijtimoiy vazifalarni bajarib kelgan. "Din, shu jumladan islom dini ham, ming yillar davomida barqaror mavjud bo`lib kelganining o`ziyoq u inson tabiatida chuqur ildiz otganidan, uning o`ziga xos bo`lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi. Eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma’naviy hayotining muayyan sohasi bo`lgan din, umuminsoniy axloq me’yorlarini o`ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan.

Jamiyat hayotida har qanday, shu jumladan, diniy dunyoqarashning o`rni va ahamiyatini ham sun’iy ravishda mutlaqiashtirish, salbiy oqibatlarni keltirib chiqarish mumkin. Bu hol ayniqsa, diniy fundamentalizm va ekstremizm insoniyat uchun jiddiy xavfga aylangan hozirgi davrda yaqqol namoyon bo`lmoqda.

Hozirgi davrda fan. texnika, dunyoviy ilmlarning kuchayib ketishi bilan "Diniy dunyoqarash, tafakkurning, insonni o`rab turgan dunyoga, o`zi kabi odamlarga munosabatning yagona usuli bo`lmaganligini ham ta’kidlash zarurdir. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham u bilan yonma-yon va u bilan teng yashash huquqiga ega bo`lgan holda rivojlanib kelgan.

Diniy dunyoqarashni teologiya deb ataladigan fan o`rganadi. **Teologiya** olam va odam munosabati, umrning mazmuni, hayot va o`lim muammosi kabi masalalarni ilohiyot, diniy e’tiqod tushunchalari bilan bog`lab tahlil qilishning o`ziga xos mukammal tizimini yaratgan. Bugungi kunda diniy dunyoqarashning bir talay asosiy va-zifalari orasida, uning hayot ziddiyatlarini bartaraf qilish bilan bog`liq regulyativ faoliyati nihoyatda muhimdir. Umuman, dinning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o`rni va ahamiyati benihoyat ulkandir.

Falsafiy dunyoqarash kundalik faoliyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy kuzatishlar va ijtimoiy tarbiya ta’sirida shakllanadi hamda rivojlanadi. Fanda ijtimoiy borliqning barcha jihatlari aks etadi. Dunyoqarashning shakllanishida his-tuyg`u, aql-idrok va tafakkur ham muhim o`rin tutishi tabiiy. Uning shakllanishi kishilarning hissiy kechinma va kayfiyatlariga ham bog`lik, bo`lib, inson kayfiyatida uning hayot sharoitlari, ijtimoiy ahvoli, milliy xususiyati, madaniy saviyasi, shaxsiy taqdiri, yoshi va hokazolar aks etadi. Muayyan davr dunyoqarashida zamon ruhi,

ijtimoiy kuchlarning kayfiyati, intilishi ham o`z ifodasini topadi. Masalan, bugungi O`zbekiston mustaqilligini mustahkamlash zarurati istiqlol dunyoqarashini shakllantirishga ulkan ta’sir ko`rsatmoqda.

Falsafiy dunyoqarash murakkab tuzilishga ega. U muayyan bilim-lar, kelajakka qaratilgan g`oya va maqsadlar, tabiiy va ijtimoly fan yutuqlari, diniy tasavvurlar, qadriyatlar, ishonch, e’tiqod, fikr, hissiyot kabi tarkibiy qismlardan iborat.

Bularning ichida e’tiqod muhim ahamiyat kasb etadi. U dunyoqa-rashning mazmunini tashkil etadigan asoslardan biridir. E’tiqod insonning o`z qarashlari va g`oyalari to`g`riligiga, orzu-umidlarining asosli ekaniga, faoliyati hamda xatti-harakatining umumiy maqsad va talablarga mosligiga bo`lgan chuqur ishonchidan paydo bo`ladi. *U* insonning hissiyoti, irodasi va faoliyatini belgilaydi, ularni ooshqaradi, shaxsni omilkorlikka, samarali faoliyatga undaydi.

Falsafiy dunyoqarash tarkibida hissiyot va aql muhim o`rin tuzladi. Xissiyot dunyoqarashning emotsional-ruhiy jihati bo`lib, dunyoni tushunish esa dunyoqarashning aqliy shaklidir. Hissiyot - quvonch, shodlik, zavqlanish, hayot va kasb-kordan mamnunlik yoki norozilik, hayratlanish, xavotirlanish, asabiylashish, yolg`izlik, zaiflik, ruhiy tushkunlik. g`am-g`ussa, nadomat, o`z yaqinlari va vatani taqdirini o`ylash kabi xilma-xil shakllarda namoyon bo`ladi. Ana shular barchasining uyg`unligi dunyoni his etishga olib keladi. Dunyoni his qilish esa uni aqliy tushunishga, muayyan dunyoqarashning shakllanishiga asos bo`ladi.

Inson akli unga xos hissiyot va tasavvurlar asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi va takomillashtiradi. Har bir kishiga xos hissiyot va fikr, bilim va e’tiqod, intilish va kayfiyat, orzu-umid va qadriyatlar dunyoqarash tarkibida yaxlitlashadi hamda olamni bir butun holda aks ettiradi. Bir butun, yaxlit dunyoqarashning shakllanishi bolalikdan boshlanib, inson hayotining oxirigacha davom etadi. Bu holat individual dunyoqarashning asosiy tamoyillaridan birini ifodalaydi.

Falsafiy dunyoqarashning shakllanishida bilim g`oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bilimda dunyoqarashning barcha belgilari mavjud. Lekin bilim va dunyoqarash aynan bir narsa emas. Olamni tushunish bilimlar paydo bo`lishi uchun asosdir. Bilim inson ongida hissiy va aqliy bilish jarayonida hosil bo`ladi, u dunyoqarashning asosi, uning uzviy qismidir.

Bilim muayyan sharoitda biron bir hodisa yoki narsani baxolashda qo`l keladi va aynan ana shu jarayonda dunyoqarashga aylanadi. Bunday baho berish jarayonida mudom muayyan manfaatlar asos qilib olinadi. SHuning uchun ham ijtimoiy dunyoqarash turli ijtimoiy guruxdar manfaatlarini ifoda etadi, gohida ularni amalga oshirish uchun kurash maydoni bo`lib qoladi.

Biror partiya yoki guruh o`z maqsadlariga etishish yo`lida butun jamiyat uchun xos bo`lgan umumiy ijtimoiy dunyoqarash tarkibida ko`proq va salmoqliroq joy egallashga yoki uni o`z manfaatlari foydasiga o`zgartirishga harakat qiladi. Umuman, hayotda maqsadga erishishning eng oson va qulay yo`li o`zgalar dunyoqarashini jamiyat foydasiga o`zgartira olishdir.

Falsafa azal-azaldan dunyoqarash bo`lgan. CHunki. uning o`zi hayot nima uchun berilgan, dunyoga kelishdan maqsad nima, umrni mazmunli o`tkazishning qanday yo`llari bor, degan talay savollarga javob topish zarurati tufayli vujudga kelgan. Falsafiy dunyoqarash o`zining nazariy asoslangani va puxta ishlangani bilan ajralib turadi. SHu ma’noda, u boshqa fan yoki faoliyat sohasi uchun umumiy uslub vazifasini ham

bajaradi.

Agar nazariya bilish jarayonining natijasi bo`lsa, usul (metod) shu bilimga erishish yoki uni amalga oshirish yo`lini anglatadi. Falsafiy nazariya esa, bir vaqtning o`zida usul vazifasini ham bajara oladi. Tarixning burilish davrlarida o`zgarishlarning asosiy yo`nalishlari va maqsadlari nechog`li to`g`ri ekani falsafiy dunyoqarash tamoyillariga solishtirib aniqlanadi. Bunda muayyan falsafiy nazariya umumiy usul (metod) sifatida qabul qilinadi. SHu sababdan ham bunday davrlarda falsafiy nazariyalarga e'tibor kuchayadi, taraqqiyot yo`llaridan borish falsafiy modellarining ahamiyati ortadi.

Masalan, bizning mamlakatimiz jahon hamjamiyatiga qo`shilish, demokratik davlat qurish borasida Islom Karimov tomopidap asoslab berilgan taraqqiyot yo`li - "O`zbek modeyai "ni amalga oshirmoqda. Bu yo`lniig asosiy mohiyati islohotlarni inqilobiy torzda emas, balki tadrijiy ravishda olib borishni nazarda tutadi. Prezidentimiz aynan shu yo`lni taklif etar ekan, asosiy e'tiborni uning mohiyat-mazmuni, tarixda qanday iatijalar bergani kabi masalalarga qaratgan. Bunda taraqqiyotning mazkur yo`li aniq tarzda tasavvur etilgan. YA'ni, uning tarixiy va zatonaviy jihatlari, umum-bashariy va mintaqaviy xususiyatlari, mamlakatimizning buguni va kelajagi uchun naqadar ahamiyati xar tomonlama o`rganishgan. Ana shu asosda kerakli xulosalar chiqarilgan va ularni hayotga tatbiq etishning asosiy yo`l-yo`riqlari ko`rsatib berilgan.

Biz ana shu nazariyani, bir tomondan, taraqqiyotimiziing o`zimizga xos va mos modeli deb ataymiz. Ikkinchi tomondan esa, uii mamlakatimiz hayotini tubdan o`zgartiradigan va uning kelajagini belgilab beradigan, milliy dunyoqarash, ong va tafakkur rivojida muhim o`rin tutadigan umumfalsafiy tayanch - metodologiya deb bilamiz. CHunki, uning tamoyilaari taraqqiyotimizning asosiy yo`nalishlarini belgilaydi va shu bilan birga, bu jarayonga kuchli ta'sir ko`rsatadigan metodologik asos bo`lib xizmat qiladi.

Inson ongli ijti.moiy mavjudot bo`lgani bois, uning dunyoqarashi muayyan ehtiyoj va manfaatlarga asoslanadi. Demak, har qanday dunyoqarash muayyan inson, ijtimoiy guruh yoki tabaqaning o`z ehtiyoj, manfaatlaridan kelib chiqqan holda borliqqa munosabatini ifodalovchi g`oyalar, nazariyalar, bilimlar majmuasi, ruhiy holat va e'tiqod mujassami hamda ularning namoyon bo`lishidir.

Falsafiy dunyoqarash, mohiyat-mazmuniga ko`ra, ma'naviy faoliyat bo`lgani bois, u borliqqa bo`lgan ongli, insoniy munosabatning muayyan yo`nalishlarini vujudga keltirgan. Masalan, kishilarning jamiyatdagi axloqiy munosabatlari - axloqiy dunyoqarashlarida, huquqiy munosabatlari - huquqiy, siyosiy munosabatlari - siyosiy, diniy munosabatlari - diniy, ekologik munosabatlari - ekologik dunyoqarash shakllarida o`z ifodasini topgan.

Bu tizimni tashkil qilgan nisbatan mustaqil dunyoqarash shakllari o`zaro bog`liqlikda, aloqadorlikda harakat qiladi.

Dunyoqarash tizimining rivojlanish darajasi jamiyat taraqqiyotiga mos keladi va uni ifodalab turadi. Bundan tashqari, har bir tarixiy davrda millatning rivojlanishi, uning mentaliteti va dunyoqarashida namoyon bo`ladi. Boshqacha qilib aytganda. dunyoqarash tizimi va ularning xususiyatlari muayyan inson, ijtimoiy guruh, tabaqa va butun millatning ma'naviy qiyofasini belgilab beradi.

"Dunyoqarash" tushunchasi o`zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g`urur, tarixiy xotira, ma'naviy barkamollik kabi tuyg`u va tushunchalar bilan uzviy bog`liq holda shakllanadi. CHunki, dunyoqarash aynan ana shu ruhiy-ijtimoiy hodisalar orqali oydinlashadi, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy bir bo`lagiga aylanadi.

Dunyoqarash tizimi va unga xos nisbatan mustaqil yo`nalishlarning har birini falsafiy mulohazaning oydinlashgan (konkretlashgan) shakli sifatida qarash mumkin. Falsafiy dunyoqarash, sodda qilib aytadigan bo`lsak, insonning olam, odam va borliqqa munosabatini ifodalovchi bilimlar tizimidir. Unga inson borlig`ining mohiyati nuqtai nazaridan yon-dashiladigan bo`lsa. moddiy yoki ma’naviy jihatlari nechog`li mutlaqlashtirilishiga qarab, uning tarkibida materialistik va idealistik dunyoqarash yo`nalishlari mavjudligini ko`ramiz.

Agar borliq va uning xossalariga mavjudlik, bog`liqlik, o`zgarish va taraqqiyot nuqtai nazaridan bildirilgan munosabatlarni umumlashtiradigan bo`lsak, uning tarkibida metafizik va dialektik, sofistik va sinergetik kabi qator dunyoqarashlar mavjudligini ko`ramiz. Bular sof nazariy-falsafiy masalalar bo`lib, ular to`g`risida keyinroq maxsus to`xtalib o`tamiz.

Falsafiy dunyoqarash borliq haqidagi ilmiy qarashlar tizimining o`z-o`zicha shakllangan (mexanik) yig`indisi emas, balki ularning umumiy qonuniyatlar asosidagi tizimidir. Falsafiy dunyoqarash tarkibida quyidagi tamoyillar namoyon bo`ladi:

- ilmiylik; - tarixiylik: - mantiqiylik; - universallik; - maqsadlilik;
- g`oyaviylik; - nazariya va amaliyotning birligi.

1. *Falsafiy dunyoqarash ilmiydir,* chunki u narsa va hodisalar o`rtasidagi bog`lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi. Har qanday falsafiy dunyoqarash shakli ob’ektiv olamdagi narsa va hodisalarning konkret munosabatlarini aks ettiradi.

2. *Falsafip dunyoqarashning tarixiylik tamoyili* jamiyatning o`tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligini va uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi.

3. *Falsafiy dunyoqarashning mantiqiy izchilligi tamoyili* har qanday dunyoqarash shakli va darajasining mantiqiy birikmalar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi. Agar mantiqiy izchillik buzilsa, dunyoqarashning tashqi olamni xolis, ilmiy, aniq-ravshan va izchil aks ettirishiga putur etadi.

4. *Falsafiy dunyoqarashning universalligi* boshqa dunyoqarash shakllarining mazmunini tashkil qilishi bilan sifatlanadi, ya’ni har qanday dunyoqarash shakli o`ziga xos falsafiy xususiyatga ega.

5. *Falsafiy dunyoqarash maqsadga muvofiq* bo`lib, inson manfaatlariga mos keladi. CHunki, inson muayyan maqsad, orzu-umidlar bilan yashaydi, ularni o`z dunyoqarashida aks etgiradi.

6. *Falsafiy dunyoqarashning g`oyaviylik tamoyili* uning asosida muayyan g`oya yotgani bilan ifodalanadi. Xususan, bugungi o`zbek milliy falsafiy dunyoqarashi milliy mustaqillik, o`zlikni anglash, millatimiz kelajagini belgilaydigan istiqlol g`oyasiga tayanishi
bilan xarakterlidir. Falsafiy dunyoqarash shu g`oyani e’tiqodga aylantirish va uning amalga oshishi uchun xizmat qiladi.

7. Falsafiy dunyoqarashning eng muhim tamoyillaridan biri *nazariya va amaliyot birligidir.* Dunyoqarashning nazariya sifatida mavjudligi ijtimoiy amaliyot tajribalarini ijodiy umumlashtirib, istiqbol rejalarini belgilashda qo`l kelishi bilan izohlanadi. SHuningdek, dunyoqarashning amaliyotga joriy etilish jarayonida uning usul va vositalari muhim ahamiyatga ega.

Falsafiy dunyoqarashning zikr etilgan tamoyillari uning vazifalarini belgilab beradi. YA’ni, bu vazifalar jamiyatning umumbashariy ruxdagi maqsad-

muddaolaridan, manfaatlaridan kelib chiqadi hamda boshqa dunyoqarash shakllari uchun uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoqarash, avvalo, insoniy munosabatlar ifodasidir. SHu nuqtai nazardan, u insonning borliqqa munosabatida, dastlab uning bahosi tarzida ko`zga tashlanadi.

Bu - falsafiy dunyoqarashning *baholash* vazifasini anglatadi. YA'ni, inson, o`z extiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib, narsa-hodisalarni yaxshi-yomon, foydali-zararli, savob-gunoh, oriyat-benomuslik kabi qarama-qarshi mezonlarga ajratadi.

Inson narsa-hodisalarga baho berar ekan, buning zamirida uning ijtimoiy hayoti, ya'ni ongli munosabatlari yotadi. Bunda inson yoki amiyat munosabatlari dunyoqarashning o`zi tayanadigan omillarga

(ideallarga) moslashtiriladi. Orzu-havaslarga erishishning usullari, vositalari, amaliy yo`nalishlari belgilanadi.

Dunyoqarash inson faoliyatini axloqiy me'yor, diniy Qadriyat, huquqiy hujjat va siyosiy mexanizmlar kabi usul-vositalar orqali *boshqarish* vazifasini ham ado etadi. Bunda falsafiy dunyoqarashning o`zicha nisbatan mustaqil bo`lgan har bir yo`nalishi o`ziga xos boshqarish usuliga ega bo`ladi. Masalan. insonni ezgulikka yo`naltirish uchun axloq uning aql-zakovatiga; din - iymon-e'tiqodiga; huquq - qonunlarga, jazo idoralariga; siyosat davlat funktsiyalariga tayanadi va o`ziga xos ta'sir yo`nalishlariga ega bo`ladi.

Falsafiy dunyoqarashning inson faoliyatini *nazorat qilish* vazifasi ham bor. Bunda dunyoqarashning jamoatchilik fikri tarzidagi ko`rinishi nazarda tutiladi. Masalan, o`zbek xalqining tarixiy rivojlanishi va ma'naviy hayot tarzida mahalla ijtimoiy nazoratning muhim instituti tarzida faoliyat ko`rsatgan.

Darhaqiqat, o`zbek mahallalarida bag`rikenglik, o`zaro mehr-oqibat, hamdardlik kabi noyob fazilatlar kamol topadi. SHuning uchun ham Islom Karimov uni "O`zini o`zi boshqarish maktabi, demokratiya darsxonasi", deb ta'riflaydi.

Falsafiy dunyoqarashning *birlashtirish* (kommunikativ) vazifasi turli dunyoqarash yo`nalishlarini milliy va umuminsoniy g`oyalar atrofida uyg`unlashtirishi bilan xarakterlanadi. Turli manfaatlar bilan bog`liq bo`lgani bois dunyoqarashlar o`rtasida muayyan ziddiyatlar ro`y berishi tabiiy. Bunday sharoitda falsafiy dunyoqarash ularni murosaga keltirishga xizmat qiladi.

Falsafiy dunyoqarash, o`z mohiyatiga ko`ra, ijtimoiy-tarixiy tajribani umumlashtirish. jamiyat istiqbolini ko`rsatish imkoniyatiga ega bo`lganligi uchun ham xalqni muayyan g`oya atrofida birlashtiradi.

Masalan, tarixga nazar tashlaydigan bo`lsak, muayyan davrlarda falsafiy dunyoqarash inson tub manfaatlari bilan bog`liq bo`lganligini, millat kelajagini belgilaydigan ozodlik g`oyasi atrofida kishilarni birlashtirganini ko`ramiz. Bu hol mo`g`ul bosqinchilariga qarshi kurash davrida yaqqol namoyon bo`lgan. Ushbu g`oya (ozodlik falsafasi) dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida millatning turli tabaqalarini, e'tiqodi, iqtisodiy ahvoli va siyosiy mavqeidan qat'i nazar, birlashtirgan va umumiy kurashga safarbar qilgan.

Har qanday dunyoqarash inson ehtiyojlaridan kelib chiqadi, uning manfaatlariga mos keladi. SHu bilan birga, bir tomondan, dunyoqarash o`z-o`zidan, ya'ni stixiyali ravishda shakllanib qolmaydi. Aksincha, u turli ta'lim-tarbiya vositalarining maqsadga muvofiq holdagi faoliyati natijasida vujudga keladi. Ikkinchi tomoydan esa, falsafiy dunyoqarash, umuminsoniy tamaddun (tsivilizatsiya) ta'siri o`laroq shakllangan bo`lsa,

muayyan inson, ijtimoiy guruh yoki millatni tarbiyalashning turli imkoniyatlari va vositalarining mushtaraklashgan shaklidir.

Binobarin, falsafiy dunyoqarashning *tarbiyaviy* vazifasini yuqorida zikr etilgan boshqa vazifalarning asosi sifatida qarash kerak. Bu - kishilarda keng va teran fikrlash qobiliyatini vujudga keltirish asosida bag`rikenglik, murosa, har qanday ziddiyatlarni madaniy yo`l bilan hal qilish, kelajakka umid va ishonch ruhini shakllantirishdan iborat.

3. Falsafiy bilimlar tizimi, uning yo`nalishlari va vazifalari

Dunyoda xilma-xil fanlar bor. Muayyan sohaga oid ilmiy bilimlar tizimi fan deb ataladi, Ular "Tabiiy fanlar", "Ijtimoiy Fanlar ", "Anik fanlar ", "Texnika fanlari " kabi bir qator sohalarga bo`linadi. Jamiyat va insonni o`rganuvchi, ular to`g`risidagi turli bilim sohalarini qamrab oladigan tarix, falsafa, adabiyotshunoslik, tilshunoslik kabilar yagona fan sohasi - ijtimoiy fanlar sohasiga kiradi. Fizika, ximiya, biologiya, matematika kabi fanlar esa tabiiy fanlar sohasiga mansub. ("Fan falsafasi " bo`limida bu masalaga atroflicha to`xtalamiz.)

Ma’lumki, inson o`z qiziqishi va ehtiyojlarini qondirish maqsadida qadim zamonlardan boshlab dunyoni bilishga harakat qilgan. Jamiyat taraqqiyoti yuksalib borishi bilan kishilarning bilim doirasi kengayib, tafakkuri rivojlanib borgan. Boshqacha aytganda, bilimlar tizimi insoniyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi mexanizmga aylangan.

Qadimgi dunyo tarixidan xabardor bo`lgan kishilar miloddan oldingi VII - II asrlarda YUnoniston, Rimda fan va madaniyat tarakqiy etganini yaxshi biladi, albatta. O`sha davr boshlarida qariyib barcha bilimlar falsafa fani doirasida rivojlanib kelgan edi. Ammo ana shu davrning o`rtalariga kelib "Ritorika " (notiqlik san’ati) va "Politika " (siyosat) kabi fanlar falsafadan ajralib chiqdi. Iisoniyat tarixining keyiigi bosqichlarida falsafa tarkibidan matematika, fizika kabi aniq fanlarning ajralish jarayoni boshlandi. Qolaversa, keyingi asrlarda ijtimoiy va anik fanlar tizimi shakllandi, ba’zi qadimiy aniq fanlarning o`zi ham (matematika, fizika kabi) muayyan sohalarga (arifmetika, algebra va boshqalar) bo`linib ketdi.

Iisonniig tashqi olamii bilishga bo`lgan intilishi muayyan davrga kelib, fshgsafiy-nazariy bilimni tarixiy zaruratga aylantirdi. Buning natijasida aqliy va jismoniy mehnat taqsimotshshng dastlabki shakli vujudga keldi va fanning nazariy jihatlarini o`rganuvchi kishilar toifasi paydo bo`ldi.

Avvalgi mavzuda ta’kidlab o`tganimizdek, olam va odamning yaralishi, mavjudlik va rivojlanish qonuniyatlarini afsona va rivoyatlar asosida tushuntirishni maqsad qilib olgan dunyoqarash soxasi **"Mifologiya"** (mif - afsona, logos - ta’limot) deb ataladigan bo`ladi. Ilohiy va ruhiy qarashlarning o`rni va ahamiyatini mutloqlashtiradigan tafakkurning bir yo`nalishi **"Teologiya"** (teo - Xudo. logos - ta’limot) degan nom oldi.

SHunday qilib, insonning bilish jarayoni takomillashib borgani sari mustaqil fanlar tizimi ham shakllanaverdi. Jamiyat rivojining muayyan bosqichlariga kelib, mifologik, diniy qarashlar olamni bilish talablariga javob bermay qoldi. Falsafadan fanlarning ajralib chiqishi, uning qashshoqlanishini emas, balki rivojlanish xususiyatini ko`rsatuvchi alomatga ay-landi.

Taraqqiyot jarayonida falsafadan tabiatshunoslik fanlari bilan birga psixologiya, etika, estetika kabi ijtimoiy fanlar ham ajralib chiqdi. Keyinchalik madaniyat, qadriyatlar va huquq kabi sohalarni o`rganadigan alohida yo`nalishlar ham paydo bo`ldi.

Ular olamni o`z predmeti doirasida yaxlit bilish, uning xususiy qonuniyatlarini o`rganishga yordam beradi.

Falsafiy yo`nalishlar, tadqiqot olib boradigan sohasiga ko`ra, o`ziga xos bo`lib, asosiylari quyidagilardir:

Ontologiya - olam, inson va jamiyatning ob'ektiv-universal mohiyati to`g`risidagi falsafiy ta'limot. Boshqacha aytganda, u borliq to`g`risidagi, insonning olamga bo`lgan munosabati haqidagi falsafiy bilim sohasidir.

Gnoseologiya - bilish falsafasi bo`lib, olamni anglash, bilish nazariyasi, bilishning shakli, usullari va imkoniyatlari to`g`risidagi ta'limot.

Aksiologiya - qadriyatshunoslik yoki qadriyatlar to`g`risidagi falsafiy ta'limot.

Praksiologiya - insonning predmetli-o`zgartiruvchan, amaliy faoliyati to`g`risidagi falsafiy ta'limot.

Metodologiya - bilish va o`zgaruvchan faoliyat usullari to`g`risidagi ta'limot.

Logika - tafakkur shakllari (tushuncha, hukm, xulosa) va tafakkur vositalarini (ta'rif, krida, muhokama, tafakkur qonuniyatlari), ularning mazmunidan qat'i nazar, xolis o`rganuvchi ta'-limot.

Etika - axloq falsafasi, insoniyatning axloqiy tamoyillari, talab va tartib-qoidalari to`g`risidagi fan.

Estetika - nafosat falsafasi, jamiyat va inson hayotida go`zallikning o`rni, qonun-qoidalari to`g`risidagi qarashlar majmui.

Bundan tashqari, inson falsafasi (antropologiya), ijtimoiy falsafa, tabiat falsafasi, madaniyat falsafasi (kulturologiya), san'at falsafasi, mafkura falsafasi (ideologiya), din falsafasi (teologiya), siyosat falsafasi (politologiya), huquqfalsafasi. texnika falsafasi kabi sohalar ham mavjudki, ular bir so`z bilan ijtimoiy-falsafiy fanlar tizimi deyiladi.

Ikkinchi xil klassifikatsiya falsafiy fanlar tasnifida olam va odam, borliqning asosi bilan bog`liq masalalar qanday usulda Hal qilinishiga qarab belgilanadi. Bunday tasniflash natijasida monizm, dualizm, plyuralizm, materializm, idealizm, teizm, ateizm kabi ko`plab yo`nalishlar ko`zga tashlanadi. Falsafani o`rganish jarayonida bu tushunchalarga hali ko`p duch kelamiz va o`rni kelganda. Ularga zarur izoh va ta'rif berishga harakat qilamiz.

Bu tizimda **falsafa tarixi** bilimning muhim tarmog`i hisoblanadi. Bunda tadrijiy taraqqiyot tamoyili asosida falsafiy tizimlar o`rtasidagi tarixiy izchillikka tayaniladi. Mazkur qo`llanmada falsafa tarixi ana shunday tamoyil asosida o`rganilgan.

Falsafiy bilimlar tizimining o`zgarishi va mazmunan boyib borishi ob'ektiv ijtimoiy-tarixiy jarayon mahsuli bo`lib, u jamiyatning rivojlanish darajasiga mos keladi va uni o`zida ifoda etadi. Falsafiy bilimlar tizimidagi alohida yo`nalish har bir tarixiy davrda o`ziga xos qonuniyatlar asosida rivojlansa ham, ularning umumiy tamoyillari mavjud. YA'ni, birinchidan, har bir falsafiy bilim yo`nalishi jamiyat rivojlanishida o`ziga xos determinant (sabab) vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, falsafiy bilimlar jamiyat taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi sub'ektiv omil bo`lsa ham vujudga kelish asosi - genezisi nuqtai nazaridan ob'ektiv hodisadir. Uchinchidan, falsafiy bilim yo`nalishlarining uzaro bog`liqlik, aloqadorlik munosabati ularning dunyoni bilishdagi yaxlitligini ta'minlaydi.

Insoniyatning yashashi, rivojlanish istiqbollari, orzu-havaslari, intilishlari, umidlari, turmush tarzi g`oyaviy qarashlarda ham o`z ifodasini topadi. Falsafiy g`oyalar, obrazli qilib ayt-ganda, inson hayot tarzining ko`zgusidir. Har qanday falsafiy bilim

dastlab g`oya tarzida shakllanadi.

Falsafiy g`oya insoniyat oldida turgan muayyan muammoni anglash va uni hal qilish maqsadi, uslub va vositalarining ifodasidir. Kishilarning narsa va hodisadarga o`z ehtiyoj va manfaatlari nuqtai nazaridan yondashishi natijasida muammoga munosabat va uni hal qilishga qaratilgan amaliy, nazariy harakat paydo bo`ladi. Masalan, inson ongli mavjudot ekani bois o`zini muqarrar xalokatga olib borishi mumkin bo`lgan g`ayriinsoniy g`oyalarga asoslangan xatti-harakatlarni chegaralashga, taqiqlashga qodir. Umumiyroq qilib aytsak, kishilarning yashash, avlod qoldirish, hayotni davom ettirish mayli (instinkti) dunyoda nisbatan barqaror ijtimoiy vaziyatni ta’minlab turadi.

Bugungi kunda tinchlik g`oyasi umuminsoniy maqsadlarni birlashtiruvchi falsafiy g`oyaga aylandi. SHu bilan birga, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblarila aytilganidek: "... Odamning qalbida ikkita kuch - bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o`zaro kurashadi. Afsus bilan ta’kidlashimiz lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko`ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, ya’ni xatti-harakatlarini qo`zg`atish osonroq.

Bunda ikki xil jihdtta e’tibor berish lozim. Birinchisi - tor doiradagi mutaassib kuchlarning g`ayriinsoniy g`oyalarni yoshlar ongiga, turmush tarziga singdirish yo`li bilan o`zlarining muayyan maqsadlariga erishishni ko`zlagan xatti-harakatining oldini olish uchun ehtiyot va hushyor bo`lmoq kerak. Ikkinchisi esa, sog`lom kuchlarning ularga qarshi insonni inson degan nomga munosib qilib tarbiyalash va tsivilizatsiyani saklab qolish hamda rivojlantirish manfaatlari uchun kurashidir.

Falsafiy nazariyalarning "yaxshi" yoki "yomon", "foydali" yoki "zararli" ekanini tarixiy tajriba asosida faqat bitta mezon - umuminsoniy manfaatlarga mos keladimi yoki yo`qmi, degan xulosa asosida bax.olash mumkin. SHuning uchun biz falsafiy g`oya va nazariyalarni baxrlashda o`z sub’ektiv fikrlarimizni mutlaqlashtirishdan yiroq bo`lishimiz lozim.

Falsafiy nazariyalar tizimida "faqat men haqman, boshqalar nohaq" degan tarzda mutlaq haqiqatga da’vogarlik qiladigan g`oya va nazariyalar o`rtasidagi kurash og`ir oqibatlarga olib kelishiii tarixiy tajriba qayta-qayta isbotlab bergan.

Har qanday manfaat shakllari va darajalari muayyan falsafiy g`oya va nazariyalarda o`z ifodasini topadi. SHu nuqtai nazardan qaraganda, g`oya va nazariyalar o`rtasida doimiy kurash borishi tabiiy hol. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, "Xayotning o`zi turli-tuman g`oyalar kurashidan, bahsu munozaralardan iborat. Taraqqiyotning ma’no-mazmuni, kerak bo`lsa, falsafasi ha.m shunda... O`z mustaqil fikriga ega bo`lgan, o`z kuchiga, o`zi tanlagan yo`lning to`g`riligiga ishongan inson doimo kelajakka ishonch bilan qaraydi. Jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligidan cho`chimaydi, balki zamonaviy bilim va falsafiy qarashlarga, hayot haqiqatiga suyangan holda xar qanday g`arazli niyat taxdid va intilishlarni fosh qilishga qodir bo`ladi.

Falsafaning muayyan ijtimoiy qatlamlar siyosiy manfaatlari bilan bog`lanib ketishi, ularning mafkurasi tarzida namoyon bo`lishi masalasi ham nihoyatda muhim. SHuning uchun milliy falsafamizni rivojlantirish asosida istiqlol mafkurasini yaratish kun tartibidagi eng dolzarb vazifa bo`lib qolmoqda.

Insonning ongli faoliyati ijtimoiy munosabatlar majmuidan iborat. Bu munosabatlarning eng umumiy qonuniyatlarini o`rganuvchi falsafiy bilimlar o`z tarixiga

ega. Haqqoniy yoritilgan tarix "illiy falsafani, mafkurani shakllantirishdagi asosiy manba Ulib xizmat qiladi. "Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab bo`lmaydi. CHunki mafkuraning falsafiy asoslari o`z davrida tarixiy xdqiqat tufayli tug`ilgan... Tarix va falsafa mantiqiy ravishda bir-birini taqozo etadigan, kerak bo`lsa, to`ldiradigan, taraqqiyot jarayonlari haqida yaxlit tasavvur beradigan, oq-qorani farqlashda asos bo`ladigan fanlardir. Afsuski, ko`pgina qo`llanmalarda u yoki bu faylasufningta'limotiga aloxida e'tibor beriladi, u hakda chuqur fikr yuritiladi. Ammo o`sha davr qanday edi, nima sababdan muayyan olim aynan shu g`oyani ilgari surgan, nega umrini biror-bir ta'limotni targ`ib etish bilan o`tkazgan, degan masalalarga kam e'tibor beriladi. Aslida, davr olim va faylasuf kamolotida muhim o`rin tutadi. Uning g`oyalari tug`ilishi uchun asos bo`ladi va bu g`oyalar qo`llanadigan ijtimoiy amaliyot bo`lib hisoblanadi.

Agar masala bu tarzda quyilmasa, falsafiy ta'limotning o`z davrini aks ettiradigan mohiyat-mazmuniga putur etadi. ayniqsa o`sha davr muammolarini ijtimoiy makon vatarixiy zamondan ajratib tahlil qilish natijasida falsafaning milliylik ruhi, xususiyatlari xiralashadi.

Albatta, biz har bir falsafiy bilimlar o`ziga xos muammolari va ularni hal qilishning nazariy-amaliy usul va vositalari borligini inkor etmaymiz. Lekin, falsafaning o`rni, ahamiyati va vazifasiga milliy mafkurani shakllantirish nuqtai nazaridan yondashadigan bo`lsak, unga ta'sir qiladig`an omillarni mushtarak-mujassam tarzda olib qarash zarurati paydo bo`ladi. SHuning uchun, bir tomondan, har bir falsafiy bilim yo`nalishlari tarixini millatningumumiy tarixi bilan birgalikda olib tahlil qilganda, yaxlit falsafiy dunyoqarash vujudga keladts. Ikkinchi tomondan, bu jarayonni millat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, istiqbol manfaatlariga mos bo`lgan milliy istikdol g`oyasidan ajratish mumkin emas.

XXI asrga kelib, insoniyat g`oyat murakkab, olamshumul muammolar qarshisida turganligini anglay boshladi. Xususan, yadro urushi xavfi, keskinlashayotgan ekologik muammolar, xom ashyo va energetika resurslari, Er shari aholisining shiddat bilan o`sib borayotgani, ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash. sog`liqni saqlash, maorif va madaniyatni, fan-texnika va texnologiyani rivojlantirish muammolari yangicha tafakkurni taqozo qilmoqda. Bu masalani milliy va umuminsoniy falsafiy g`oyalarni, nazariyalarni ishlab chiqmasdan xal qilish mumkin emasligi esa tobora aniq bo`lib bormokda.

Falsafa ijtimoiy xayotda insonning mohiyati, yashashdan ko`zlagan maqsadi, oliy qadriyat ekani, ma'naviy omillari (ideallari), borliqdagi o`rni, munosabatlari sabablari, ruhiy va moddiy ehtiyojlarini qondirish usul va vositalari - barcha-barchasini ko`rsatib beradi.

Jamiyat taraqqiyoti va falsafaning rivojlanish dialektikasi ana shu xususiyatlarga asoslanib, o`ziga xos tarzda namoyon bo`ladi. Bir tomondan, jamiyatning o`zgarib borish tamoyili falsafiy g`oya, nazariya va ta'limotlar o`zgarishini taqozo qiladi. Ikkinchi tomondan, o`zgarayotgan falsafa jamiyat moddiy-ma'naviy hayot tarzini ilg`ab olib, uning istiqbollarini belgilash, mafkurasini shakllantirishda nazariy, uslubiy asos bo`lib xizmat qiladi. Ayniqsa, mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o`tayotgan bugungi kunda kishilar tafakkuri va ongida saqlanib qolayotgan eskicha fikrlash qoliplarini bartaraf etish. yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni rag`batlantirish, milliy o`zlikni anglash, istiqlol mafkurasini shakllantirishda

shoshilmay, behuda xis-hayajon-larga berilmasdan, akl-zakovat bilan ish tutishda falsafaning o`rni va ahamiyati g`oyatda ulkandir.

Falsafa har qanday murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyatda ham kishilarni yuksak g`oyaviylik, mustahkam e'tiqod, kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash bilan birga, ularga murosa va hamkorlik qilish, chigal muammolarni ham umummilliy, umuminsoniy manfaatlarni nazarda tutgan holda madaniy va ma'rifiy hal etish imkoniyatlarini topishga yordam beradi. Bu fanning ijtimoiy fanlar tizimida. Falsafiy o`rni va ahamiyati uning dunyoqarashni fanlarning shakllantirish, uslubiy, gnoseologik, evristik, pedagogik-didaktik, prakseologik vazifalari bilan belgilanadi.

Bundan avvalgi mavzuda falsafiy dunyoqarashning genezisi, va-zifasi va ahamiyati haqida ancha batafsil to`xtalib o`tgan edik. Ushbu mavzuda esa. unga qo`shimcha qilib, falsafa fan sifatida dunyoqa-rashni shakllantirish borasida qanday vazifeni bajaradi, degan savolga javob topishga harakat qilamiz.

Falsafa fanining dunyoqarashni shakllantirish borasidagi va-zifasi quyidagilarda namoyon bo`ladi:

- birinchidan. inson qarashlarining shakllanish imkoniyatla-ri, usul va vositalarini, ularning kundalik ong darajasidan nazariy g`oyalar darajasiga ko`tarilish jarayonini, mifologik dunyoqrashdan farqlarini aniqlash;
- ikkinchidan, milliy dunyoqarashni shakllantirishdagi turli fan yo`nalishlarining muayyan vazifalarini, ularning bir – biri bilan g`oyaviy hamkorlik qilish va uyg`unlashuv tamoyilini ko`rsatish;
- uchinchidan, ilmiy dunyoqarashning milliy va umuminsoniy manfaatlarga mos kelishini aniqlash;

Falsafa faninikg uslubiy vazifasini izohlash uchun, avvalo, uslub (metodologiya) tushunchasini bilib olish lozim. Metodolo-giya falsafa fanining tadqiqot ob'ektini o`rganishga yo`nalti-rilgan eng umumiy tamoyillar, usul va vositalar tizimidir. Me-todologiya so`zining mantiqiy mazmuni ham borliqni bilishning usul va vositalari haqidagi ta'limot, degan ma'noni anglatadi. SHu ma'noda falsafa boshqa fanlar uchun metodologiyadir.

Falsafaning gnoseologik vazifasi, uning borliqni bilish uchun umumiy metodlar tizimini yaratishi bilan bog`liq. Bunda bilim-larning haqiqiyligi masalasi asosiy o`rin tutadi. Falsafaning gnoseologik vazifasi, ong va dunyoni bilish masalasiga bag`ishlan-gan ma'ruzalarimizda ancha batafsil ma'lumotlar berish ko`zda tu-tilgan.

Falsafaning evristik vazifasi ("evrika" grekcha so`z bo`lib, kashf etish, degan ma'noni anglatadi) gnoseologik vazifasi bi-lan bog`liq bo`lib, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojla-nishining umumiy yangi qonuniyatlarini kashf etishni xarakterlaydi. SHu bilan birgalikda, bu vazifaga o`zini o`zi anglashni, milliy o`zlikni anglashni ham kiritish maqsadga muvofiq. Zero, inson va millatning o`zligini anglashi o`z tarixining haqqoniy qirralarini va kelajak istiqbollarini kashf etish bilan bel-gilanadi.

Falsafa tarbiyaviy vazifani bajaradi. Insonning ma'na-viy barkamollikka etishishida falsafaning o`rni va ahamiyati kattadir. Xususan, "Axloq falsafasi" kishida yuksak axloqiy me'yorlar - vatanparvarlik, mshnatsevarlik, g`oyaviylik. e'tiqod, ijtimoiy-siyosiy faollik va mas'uliyatni his etish tuyg`u-larini tarbiyalaydi. "Huquq falsafasi" huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni, ijtimoiy nazoratning boshqa huquqiy usul va vo-sitalarini nazariy-amaliy jihatdan ishlab chiqadi. "Tabiatshunoslik falsafasi" ta'lim-tarbiya sohasida o`ziga xos ahamiyatga ega. Insonningtabiatni bilish

borasidagi intilishlari moxiyatini yoritadi, tabiatga nisbatan oqilona munosabatni shakllantirib, uni muhofaza qilishning nazariy asoslarini belgilab beradi.

Falsafaning praksiologik vazifasi falsafiy g`oya va nazariyaning ijtimoiy hayotga amaliy tatbiq etilishi bilan izoxlanadi.

Har qanday amaliy faoliyat mustahkam ilmiy nazariyaga asoslanmasa, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Falsafaning bu vazifasi nazariyani amaliyotga joriy etish uslub va vositalarini aniqlashni ham o`z ichiga oladi.

YUqorida ko`rsatilgan vazifalarning o`zaro ichki bog`liqligi falsafaning mushtarak umumnazariy va uslubiy ahamiyatini belgilab beradi. Ularning o`ziga xos xususiyatlari hamda ahamiyatini har tomonlama o`rganish inson va jamiyatning ma'naviy kamolotiga nihoyatda katta ta'sir ko`rsatadi. Bu esa, o`z navbatida, falsafiy bilimlar tizimini takomillashtirish yo`llarini topish imkonini beradi. Masalaning bu tarzda hal etilishi umuminsoniy tsivi-lizatsiya tamoyillariga ham mos keladi.

4. Istiqlol va falsafiy dunyoqarashning yangilanish masalalari

Falsafiy tafakkur rivoji insoniyat ta raqqiyoti bilan uzviy bog`liq jarayondir.

Ma'lumki, hayotdagi voqea-hodisalarning barchasi ijtimoiy ongda aks etadi. Taraqqiyot jarayonida davrlar. ¡zgarishi bilan unga xos ma'naviy, huquqiy, siyosiy va falsafiy mezonlar ham shakllana boshlaydi. Ammo bu o`z-o`zidan yuz bermaydi. Ayniqsa, inson tafakkurining o`zgarishi, dunyoqarashning yangicha tamoyillarga ega bo`lishi uzoq davom etadigan murakkab jara-yondir. Bu hol bizning kunlarimizda ham yaqqol namoyon bo`lmoqda. dozirgi kunda jamiyatimizda istiqlol g`oyalariga asoslanadi yangi dunyoqarashni shakllantirish asosiy vazifa bo`lib turibdi. inson dunyoqarashini, uning asosiy tamoyillarini o`zgartirdan, yangi jamiyatni qurish qiyin. Bu jarayonning qonuniyatlari va o`ziga xos xususiyatlari Prezident Islom Karimovning asarlarida asoslab berilgan.

Istiklol talablari darajasida falsafiy tafakkurni yangilash vazifalarini bajarish g`oyat murakkab bo`lib, quyidagi qator muammolarni hal qilishni taqozo etmoqda:

— mustabid tuzum mafkurasining ijtimoiy, ma'naviy va falsafiy sohalardagi asoratlarini bartaraf etish;

— kishilar ongi va turmush tarzidan sobiq tuzumga xos g`ayriinsoniy tamoyillarni siqib chiqarish;

— O`zbekiston falsafasida jahon falsafiy tafakkuri yutuklaridan yanada kengroq foydalanish;

— bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o`tish jarayonida nafaqat oddiy fuqaro, balki ziyoli va falsafa mutaxassislarining ongida hamon saqlanib kelayotgan loqaydlik va mutelik kabi kayfiyatlarga barham berish;

— ma'naviy merosimizni qayta tiklash va ijodiy rivojlantirish jarayonida buyuk ajdodlarimiz falsafiy merosini yanada keng va chuqurroq o`rganish;

— falsafiy adabiyotlarni milliy manfaatlarimizga yanada ko`proq moslash, qo`llanma va darsliklarimizda milliy g`oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini aks ettirish;

— istiklol talablariga mos keluvchi sog`lom g`oyali ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash zaruratiga mos tadqiqotlar olib borish, ular asosida ta'lim-tarbiyaning samarali usul va imkoniyatlarini izlab topish;

— jahon, SHarq xalqlari falsafiy merosini puxta va chuqur o`rg`anish, bu jarayonda turli g`oya, mafkuralarning davlatlar hamda xalqlar taqdiriga ta’sirini aniq ko`rsatish va shu asosda istiqlol mafkurasining tamoyillarini kishilar ongiga singdirish.

Ana shu masalalarni uyg`un holda hal qilish falsafiy dunyoqarashimizni yangilashga yordam beradi.

Istiqlolga erishganimizdan buyon tarixan qisqa davr o`tgan bo`lsada, mustaqil taraqqiyot mamlakatdagi ulkan imkoniyatlarni ro`yobga chiqarishning yagona va muhim omili ekani o`zining to`liq isbotini topdi. Zero, faqat mustaqillikkina har bir xalqqa o`z falsafasini erkin rivojlantirish, takomillashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda mustaqillikni muotahqamlash jarayoni mohiyatini va falsafiy asoslarini o`rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda asosiy masala shundan iboratki, mustaqillik odamlar dunyoqarashining mazmun-mohiyati va asosiy yo`nalishlariga yangicha nuqtai nazardan qarashni taqozo etali. Ularni yangi mazmun bilan boyitishni, istiklol talablari asosida o`rganishni zaruratga aylantiradi.

Bunda, ayniqsa, Prezidentimizning quyidagi fikri nihoyatda muhim: "Bizning tushunishimizcha, qotib qolgan eski aqidalardan oz kechish - o`z tarixiy o`tmishimizdan voz kechish degani emas. Bu bir yoqlama va tor fikrlashdan voz kechish demakdir". Aynan bir yoqlamalikdan qutulgan keng qamrovli duiyoqarash asosida bugungi yangilanishni to`g`ri anglash mumkin. SHu sababdan ham, bu-gungi kunda ko`p qirrali va murakkab hodisa bo`lgan falsafiy dunyoqarashning milliy davlatchilik hamda kishilarning g`oyaviy etukligini ta’minlash extiyojiga xizmat qiladigan jihatlariga e’tibor kuchaymoqda.

SHu bilan birga, mustabidlik zamonidagi tafakkur qulligi, doimiy tazyiq. Xalqning o`z tarixiy ildizlaridan ajratib qo`yilgani bilan bog`liq holatlarning hozirgi dunyoqarashdagi o`zgarishlar jarayonlarig`a ta’siriga ham e’tibor berish lozim. Ilm-fan sohasidagi tub o`zgarish va yangilanishlar jarayoni to`g`risida ham shunday deyish mumkin. Aynan mustaqillik dunyoqarashimizni mustabidlik sirtmoklaridan xalos etdi. Aslini olganda, ushbu mavzuni o`rganish ham istiklol sharofatidir.

Mustaqil taraqqiyot ma’naviy yangilanish borasidagi asosiy omil ekani xar qanday mamlakat, jumladan, O`zbekiston uchun ham tarixiy qonuniyatdir. SHu bilan birga, istiqlolning ma’no-mohiyatini kishilarga to`g`ri anglatish, ularni mustaqillik bergan imkoniyatlarni amalga oshirishga jalb etish bilan bog`liq nazariy va amaliy faoliyat ham nihoyatda muhim.

Mustaqillik yillarida **falsafaning yangilanishi uchun zarur asoslar** shakllandi.

Moddiy-iqtisodiy asoslar. Eski, sobiq ittifoq davridagi iqtisodiyot yangi mazmundagi falsafani shakllantirish uchun asos bo`la olmas edi. Istiqlol yillarida bu sohada nihoyatda katta o`zgarish ro`y berdi, mulkchilikning xilma-xil shakllari vujudga keldi. Iqtisodiy plyuralizm va bozor munosabatlari bunda bosh yo`nalish qilib olingan bo`lsada, aholini ijtimoiy himoyalash ustuvor jihat sifatida belgilandi. Ana shularning barchasi mamlakatimizda ma’naviy, jumladan falsafiy yangilanish borasida ham tub o`zgarishlarning iqtisod bilan bog`liq asoslarini yaratish imkonini berdi.

Ijtimoiy-siyosiy asoslar. Falsafaning siyosiy asoslari mustaham bo`lishi zarurligi tarixiy taraqqiyot jarayonida ko`p bor isotlangan ijtimoiy haqiqatdir. Har qanday jamiyat va mamlakatda davlat xalqning turli qatlamlari, partiyalar, milliy-etnik birliklarning ijtimoiy ongini o`zgartira olmasa, o`zining pirovard maqsadlarini amalga oshirishi qiyin. Bugungi kunda jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosiga aylangan

O`zbekistonda yangi mazmun va shakldagi siyosiy tizim hamda tuzilmalar vujudga keldi. Ana shularning barchasi yangi mazmundagi falsafani shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy asoslarini yaratish imkoniyatini ochdi.

Ma’naviy asoslar falsafaning yangilanishida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki bunday falsafaning shakllanishi mamlakatda amalga oshayotgan ma’naviy sohadagi o`zgarishlarning tarkibiy qismidir. Bu borada O`zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xalq ma’naviyatining tozalanishi, asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelajakka etkazish bilan bog`liq sa’y-harakatlar katta ahamiyatga ega. Bunda, ayniqsa, tarix falsafasi, xalqimizning xotirasi, o`tmishdagi avlodlar yaratgan boy madaniy merosdan to`la-to`kis foydalanish imkoniyati yaratilganini alohida ta’kidlash lozim.

Falsafiy tafakkur yangilanishining mamlakatimiz hayotida ro`y berayotgan tub o`zgarishlar bilan chambarchas bog`liqligi quyidagi masalalarni falsafiy taxlil etishni zaruratga aylantiradi:

— bugungi kunda ro`y berayotgan dunyoqarashni yangilash jarayonining tarixiy ildizlarini o`rganish va falsafiy taxlil etish;

— sobiq ittifoqdagi ijtimoiy tanazzul va uning xalqimiz tafakkuridagi oqibatlarini tugatish;

— istiklolning falsafiy tafakkurni o`zgartirish uchun yangi davrni boshlab bergani;

— mamlakat mustaqilligini mustahkamlash jarayonida dunyoqarashning o`zgarishida qanday asosiy tamoyil va yo`nalishlar ko`zga tashlangani;

— bugungi kunda falsafiy dunyoqarashning yangilanishiga ta’sir ko`rsatayotgan zamonaviy omillar va ularning o`ziga xos xususiyatlari.

Falsafiy ongning yangilanishi - serqirra jarayon. U juda keng ijtimoiy mazmunga ega bo`lib, jamiyat ma’naviy hayoti, mafkura-si, madaniyati va ta’limi tizimidagi yan-gilanish, odamlarning ruhiy poklanishi, sobiq ittifoqdan qol-gan qaramlik kayfiyatidan xalos bo`lish jarayonining tarkibiy qis-midir.

Falsafiy dunyoqarash o`zgarishining muxim jihatlari quyida-gilarda namoyon bo`ladi:

Birinchidan, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi ijtimoiy jarayondir. YA’ni u, avvalo, taraqqiyotning bir bosqichidan ikkin-chisiga o`tayotgan mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlardagi uzluk-siz o`zgarishning tarkibiy qismidir. Falsafadagi yangilanish jamiyatdan, O`z davridan, ro`y berayotgan ijtimoiy jarayonlardan tash-karida sodir bo`ladigan hodisalar yig`indisi emas. Balki u o`zida ana shu ijtimoiy jarayonlarning barcha asosiy xususiyatlarini aks ettiradi.

Ikkinchidan, mustaqillikka erishgan va uni mustahkamlashga xarakat qilayotgan mamlakatimiz uchun bu tarixiy zaruratdir. YA’ni, u tasodifiy namoyon bo`ladigan o`tkinchi hodisa emas. Balki o`tish davrining zaruriyati, jamiyatni tubdan isloh qilish, odamlarda yangicha tafakkurni shakllantirishdagi asosiy yo`nalishlardan biridir.

Uchinchidan, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi nafaqat umu-miy ma’naviy muhitning, balki har bir jamiyat a’zosining ijti-moiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o`zgarishi hamdir. SHu ma’noda, u buyuk alloma bobomiz Abu Nasr Forobiy orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantiradigan va takomillashtiradigan jarayondir. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, u g`oyat murakkab ruhiy o`zgarishlar, odamlarning qullik psixologiyasi va mustabid tuzumga xos mafkuraviy asorat-lardan xalos bo`lish jarayoni hamdir.

To`rtinchidan, falsafiy ongningyangilanishi muayyan birdavr-da amalga oshadi. Bu jarayon bizning mamlakatda o`tish davriga to`g`ri kelmoqda. Ana shu davrda ijtimoiy muhitda yangi jixdtlar vujudga keladi, odamlarningruhiyati, qarashlarida tub o`zgarishlar ro`y be-radi.

Beshinchidan, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi inkor va vorislik jarayoni hamdir. Unda, bir tomondan, o`zbek falsafasida azaldan mavjud bo`lgan, hatto sobiq mustabid tuzum ham yo`qota olmagan ko`p jihatlarning saklanib qolishi kuzatiladi. Ikkinchi tomondan, yaqinginada ustuvor bo`lgan ko`pgina sinfiy-partiyaviy tamoyillar o`tmishga aylanadi, inkor etiladi. Uchinchi tomondan esa, falsafiy tafakkurda yangi yo`nalishlar o`z o`rnini topadi.

Falsafa yangilanish xususiyatlari o`ziga xos namoyon bo`ladi. Dunyoqarashning yangilanishi keng qamrovli tushuncha sifatida xilma-xil xususiyat va yo`nalishlarga ega. Avvalo, uning har bir kishiga xos individual ong bilan uzviy aloqadorligi va unga tayanishini alohida ta’kidlash lozim. Bu jihatdan u insonning insoniylik bilan bog`liq xususiyatlarini takomillashtirishni anglatuvchi kuch va imkoniyatni belgilaydi.

Sirasini aytganda, dunyoqarash ijtimoiy kuch darajasiga ko`ta-rilishi uchun muayyan faoliyat orqali amaliyotga aylanishi lozim.

CHunki dunyoqarash hayot tajribalari tufayli e’tiqodga aylanadi va faoliyat mezoni bo`lishi mumkin.

Bir tomondan, odamzod uchun tug`ma, nasliy xususiyat bo`lgan dunyoqarash irsiyat asosida avloddan avlodga o`tadi. SHu bilan birga, u ijtimoiy muhit ta’sirida rivojlanadi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishgan kishilar esa, bir-biridan ma’naviy mezonlarni o`rganadi, ularning ta’sirida o`sib-ulg`ayadi.

Ammo, aynan ana shu jarayonda ular sub’ektiv omil sifatida taraqqiyotga ta’sir ko`rsatadilar, muayyan maqsadga qaratilgan fao-liyatlari orqali bu borada biror natijaga erishadilar. Falsafiy tafakkur yangilanishini harakatlantiruvchi kuch nima, degan savolga javob izlar ekanmiz, shaxsning jamiyatdagi o`rni va faoliyatiga e’tibor bermaslik mumkii emas. Bu jarayonning umumiy hamda xususiy jihatlariga e’tibor qaratganda, uning alohida shaxs va jamiyat a’zosi, ya’ni oddiy fuqaro hayotidagi ana shunday xususiyatla-rini hisobga olgan holda talqin qilgan ma’kul.

Masalan, eng umumiy ma’noda, falsafiy dunyoqarashning yangi-lanishi, asosan, jamiyatdagi maka shu sohada ro`y bergan o`zgarish-larni ifodalaydi hamda o`z xususiyati va axdmiyati kengligi bilan ajralib turadi. Bunda ham bir qancha jihatlarga e’tiborni qara-tishga to`g`ri keladi.

Mustaqillik odimlari va falsafaning yangilanishi uzviy bog`-liqjarayondir. Mamlakatning rivojlanish sur’ati yangicha, musta-qil fikrlaydigan, ijtimoiy faol, ma’naviy-axloqiy jihatdan etuk mutaxassislarga bo`lgan talabni alohida bosqichga olib chikdi. Mulk shaklining xilma-xilligi, huquqiy madaniyatni yuksalti-rishga ehtiyoj, bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikning kuchayishi, ishlab chiqarishga yangidan-yangi texnologiyalarning ki-rib kelishi jarayoni yuqori darajada tarbiyalangan va yuksak mala-kaga ega bo`lgan mutaxassisni taqozo etayapti. Zero, yuksak malaka ayni paytda aqliy-ruhiy va jismoniy salohiyatlar uyg`unlashgan takdirdagina ko`ngildagidek samara beradi.

Mustaqil davlatning oliy maqsadlarini amalga oshira oladi-gan mutaxassislarni shakllantirish uchun ularning shaxsiyati ijti-moiy talablarga javob bera oladigan tarzda kamolga etgan bo`lishi lozim. To`g`ri, inson jamiyatdagi o`z o`rni, Olloh ravo ko`rgan

taq-diri haqida o`ylashi, o`z Vatanini sevishi, o`z millati sha’nini ulug`lash uchun elib-yugurishi mumkin. Biroq ular aniq natija be-radigan faoliyatga aylansagina ijtimoiy mazmun kasb etadi.

Muayyan kishi jamiyatdagi o`z o`rni haqida o`ylasa-yu, jamiyat oldidagi burchini anglab etmasa, amalda burchiga sodiq ekanini namoyon etmasa yoki Vatanni sevish bilan cheklanib, uning ravnaqi uchun kurashmasa, millatiga munosib bo`lish haqida o`ylasa, elib - yugursa-yu, milliy g`urur va iftixor tuyg`ularining amaldagi isbo-tini namoyon eta olmasa, bundan na jamiyat, na Vatan, na millat naf topadi. Bunday kishining shaxsiyatida ijtimoiy burch, vatan-parvarlik, milliy g`urur va iftixor tuyg`ulari zaif hamda faoli-yatsiz bo`lib qolaveradi.

Bunday shaxslar mustaqillik talablariga hozirjavoblik bi-lan maydonga chiqa olmaydi. Ma’naviy-axloqiy, ruhiy-jismoniy etuk va faol shaxsgina jamiyat taraqqiyoti mazmunini, davlat-ning istiqbol yo`lini, shaxs — jamiyat — davlat manfaatlarining uyg`unligini to`g`ri tushunadi, shu yo`lda hormay-tolmay mehnat qiladi.

Albatta, ma’naviy-axloqiy, ruhiy-jismoniy sog`lom va etuk kishilarni voyaga etkazish oson emas. Buning uchun yillar mobayni-da ter to`kishga to`g`ri keladi. Bunda, avvalo, odamlar tafakkurini yangilash, ularda istiqlol dunyoqarashini shakllantirish zarur. Bi-nobarin, davr taqozo etayotgan keng qamrovli bilimga ega bo`lish milliy va umuminsoniy madaniyatlardan, boy tarixdan, bugungi kundagi ulug`vor bunyodkorlik ishlaridan bahramandlik ularning qalbida Vatanga sadoqat va iftixor tuyg`ulari kamol topishiga xizmat qiladi. Bu esa, o`z navbatida, ijtimoiy fan sohasidagi islohotlarning tezkor amalga oshirilishini talab etishi shubha-siz.

Tafakkuri istikdol talablari darajasida yangilangan inson kim? U qanday ezgu va olijanob xususiyatlar bilan ajralib tura-di? Istikdol talablariga javob bera oladigan barkamol avlod qachon shakllanadi? Bu savollar — oddiy savollar emas. Ularning to`g`ri echimini topish uchun bir necha yillar davomida yangi avlodni shakl-lantirish lozim bo`ladi. Lekin hozirgi davrdagi tub o`zgarishlar jarayonining taxlili aoosida ham bu jarayonning ba’zi xususiyatla-rini ko`rsatib o`tish mumkin.

Mamlakatimiz bozor munosabatlari sari qadam qo`yyayotgan bu-gungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzimizda yuz berayotgan salmoqli o`zgarishlar, shubhasizki, malakali, etuk ma’naviyatli, fidoyi mutaxassis kadrlarni tayyorlashni talab etmoqda. Taraqqi-etimiz taqtsirini ana shunday kadrlar hal etadi.

Falsafaning yangilanishi va g`oyaviy jara**yangilanishida g`oyaviy** yonlar uzviy bog`liq Falsafiy dunyoqarash **«Jarayonlarning o`rni** ijtimoiy «ngdan ajralmasdir. Mafkura ja-miyatdagi ma’naviy muhit qanday ekanini ko`satib turadigan eng asosiy mezonlardan biri bo`lsa, falsafa Uchi shakllantiradigan omillar sirasiga kiradi. Ammo eski qolip-[a]Rga o`ralgan falsafiy dunyoqarash asosida yangi zamonning mafkuraviy talablariga javob berib bo`ladimi? Yo`q, albatta.

Har qanday mafkura jamiyatsiz paydo bo`lmaganidek, ijtimoiy-siyosiy hayotni ham g`oyasiz, mafkurasiz tasavvur etib bo`lmaydi. Mafkura o`z mohiyati, maqsadi, harakat yo`nalishlari bilan jamiyat g`oyalariga xizmat qiladi. U — jamiyat hayotining tarkibiy qismi, binobarin, uning bag`rida shakllanadi, madaniy meros va qadriyat-lar zaminida faoliyat ko`rsatadi.

Aslida tarixda mafkuradan mutlaqo xoli davrlar kam bo`lgan. SHunday davrlar bo`lgan takdirda ham, ulardan so`ng albatta har safar mamlakatning o`ziga xos va o`ziga mos mafkuraviy muhitini qayta tiklash hamda yangilash jarayoni boshlangan.

Vatanimizda ke-chayotgan bugungi mafkuraviy yangilanishni sohibqiron Amir Temur davrida mo`g`ullar imperiyasi istilosiga barham berib, mustaqil-lik uchun, milliy davlatchilik asoslarini qayta tiklash uchun ku-rash yillariga qiyoslash mumkin.

Mamlakatimizda milliy istiqlol g`oyasini aholi ongi va qal-biga singdirish borasida ishlar amalga oshirilmokda. Bugun sobiq mustabid tuzum mafkurasi butunlay o`tmishga aylandi. Diyorimizda milliy davlatchilik an’analari qayta tiklandi, ma’naviyat, mada-niyat va ma’rifat yanada yuksaklikka ko`tarilmokda. "Ana shujara-yonning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?", "U hayotimizni qaysi tomonga eltadi?", "Biz bu jarayonda qanday ishtirok etishi-miz lozim?" degan savollarga javob topish zarurati ijtimoiy ta-fakkurni tubdan o`zgartirishni talab qiladi.

Mustaqillik milliy manfaatlarimizga mos mafkurani shakl-lantirishni kun tartibiga qo`ygan edi. Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning aza-liy an’analari, udumlari, tili, dili va ruhiyatiga asoslanib, ongimizga kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, ado-lat, ma’rifat tuyg`ularini singdirishga xizmat qilmoqda.

SHu bilan birga, bu "Mafkura xalqimizda, o`zining qudrati va himoyasiga suyangan holda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng huqukdi o`laroq munosib o`rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiya-lamog`i kerak"[1]. Davlatimiz rahbarining ushbu fikrlarida milliy istikdol g`oyasining dasturiy vazifalari o`z ifodasini topgan. G`oya dunyoqarashning asosini tashkil etadi, jamiyat va xalqningtaraq-qiyot yo`lini belgilab beradi, jamiyat va millat rivojlanishidagi etakchi maqsadlarni ilgari suradi. SHu goyalar asosida insonlar faoliyati, orzu-intilishlari, istiqbol rejalari aniqlab olinadi.

Mafkura esa muayyan shaxs. jamiyat, millat, davlat yoki ijti-moiy guruh manfaatlariga xizmat qiluvchi qarashlar, g`oyalar, ta’-limotlarni amalga oshirish tizimi sifatida namoyon bo`ladi. U dav-lat, jamiyat yoki partiyalarning ijtimoiy barqarorligini, yashovchanligini g`oyaviy jihatdan ta’minlashga ham xizmat qiladi. SHu o`rinda mafkura o`zi mansub bo`lgan jamiyat, millat yoki ijtimoiy guruhning harakat dasturiga yo`nalish berishga qaratilgan targ`i-botlar majmuini ham qamrab oladi.

Falsafiy dunyoqarashning yangilanishi uchun istibdod va eski mustabid siyosat tufayli YAkgimizga singib ketg`an mutelik, loqayd-lik, boqimandalik, sustkashlik, mas’uliyatdan qochish kabi aso-ratlardan xalos bo`lish darkor. Bu asoratlar ham osonlikcha barta-raf etilmaydi. Bunda, avvalo, jamiyatning siyosiy-huquqiy, iqti-sodiy-ijtimoiy xayotida yuz beradigan ijobiy o`zgarishlar uni xarakatdantiruvchi, taraqqiy ettiruvchi asosiy omil — inson ta-fakkuri, ruhiyati, his-tuyg`ulariga samarali ta’sir etadi. SHu bi-lan bog`liq ravishda, Vatan vaxalqtarixi, ma’naviy-madaniy me-ros, onatili, din, milliy turmush tarzi, milliy urf-odatlarni yangi davrning mohiyat-mazmunidan kelib chiqqan holda tiklash, boyitish va milliy g`urur-iftixorning yuksalishida juda ulkan o`rin tutadi.

Dunyoqarashni Dunyoqarashni yangilash zarurati bir qator yo`nalishlarda namoyon bo`ladi:

1. Avvalo, bu kelajagi buyukdavlatni bar-po etish bilan bog`liq. Bunda ana shu yaratilajak yang`i jamiyat haqida, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o`tish jarayoni, yangi ijti-moiy-iqtisodiy munosabatlarning qaror topa borishi, islohot-larning inson manfaatlariga xizmat qilishi, milliy uyg`onish ijtimoiy taraqqiyot taqozosi, komil insonni voyaga etkazish davr talabi ekani kabi dasturiy vazifalarning hayotiyligi

to`g`risidagi g`oyalarni odamlar dunyoqarashida qaror toptirish zarur.

2.Falsafiy ongning yangilanishi mohiyat e'tibori bilan mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro nufuzi va aloqalarining o`sib borishi, tinchlik, osoyishtalik, milliy totuvlik, bahamjihatlikka xizmat qiluvchi g`oyalargatayanadi. Uning hayotiyligi xalq irodasiga, ruhiyatiga, milliy tuyg`ulari, orzuintilishlariga mosligi bilan belgilanadi.

3.Albagga, falsafadagi yangilanish millat va Vatan manfaatlari, istiqbol rejalari, milliy qadriyatlarimiz ruxiga mos holda kechadi. Bu esa, o`z navbatida, yurtimizda kechayotgan islohotlar jarayoni, davlatimizning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayotidagi ijobiy o`zg`arishlar to`g`risida xalqimizda to`g`ri tasavvur va tushunchalarni hosil qilib borish lozimligini ko`rsatadi.

4.Falsafiy tafakkur yangilanishi taqozo etadigan eng muhim vazifa poklanish jarayoni odamlar ruhiyati va tafakkurida amaliy tus olishi uchun O`zbekiston Konstitutsiyasida mujassam etilgan maqsad va g`oyalarni amalga oshirish yo`lida xizmat qilishdir. Bu maqsad va g`oyalar omma manfaatlarini aks ettirgani bois ularni ma'naviy hayot tarzining tarkibiy qismiga aylantirish muhim ahamiyatga ega. SHu o`rinda O`zbekistonda qabul qilinayotgan qonun va boshqa hujjatlarning asl mohiyatini, ularda bayon qilingan g`oya, xulosalar, takliflarni kengxalqommasi ongigaetkazish benihoya muxim va dolzarb ekanini ta'kidlash joiz. CHunki huquqiy jamiyat va ma'rifatli, barkamol inson tushunchalari o`zaro bog`liqtsir. Madaniy bozorni ham, ma'naviy sog`lom jamiyatni ham ana shunday kishilar yarata oladi. Ularni voyaga etkazmay turib, jamiyatdagi yangilanishning asosiy yo`nalishlarini amalga oshirish tug`risida fikr yuritish qiyin.

5.Mamlakatimiz mustaqilligi, tinchligi, uning fuqarolari totuvligi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning qadriga etish, jamiyatimiz hayot tarziga xavf solishi mumkin bo`lgan tahdidlarga qarshi ogohlikni kuchaytirishda falsafa va umuman, ijtimoiy fanlarning ahamiyati beqiyos. SHu bois, o`z xalqi tarixini, o`z milliy madaniyatini, urf-odat va an'analarini yaxshi biladigan, milliy g`ururi yuksak avlodni tarbiyalash falsafaning muhim vazifasidir. Bu esa jamiyat a'zolarida fikr erkinligini tarbiyalashni taqozo qiladi.

6.Falsafiy dunyoqarashning yangilanishi, mohiyat e'tiboriga ko`ra, insondan, uning ijtimoiy xususiyatlari takomillashuvidan chetda kechadigan jarayon emas. U nafaqat umumjamiyat miqyosidagi, balki har bir inson kamoloti uchun ham zarur shart-sharoit yaratadigan jaraendir. SHu ma'noda, u ham, jamiyatdagi boshqa o`zgarishlar kabi, avvalo, inson uchun, uning kamoli va hayot farovonligi-ni ta'minlaydigan islohotdir.

Mamlakatimizda bu borada juda keng ko`lamli ishlar boshlab yuborildi. Bugun ijtimoiy fanlar rivojini zamon talablari darajasiga etkazish borasida davlat va jamoat tashkilotlari, olim va ziyolilar oldida g`oyatda mas'uliyatli vazifalar turibdi. Birgi-na "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirishning` o`zi uzoq yillarga mo`ljallangan keng ko`lamli faoliyat yo`nalishlari-ni nazarda tutadi. Bugungi kunda siyosiy. mafkuraviy va ma'na-viy soxalardagi taraqqiyot vazifalari o`zaro uyg`unlashib bormoq-da, ta'sir doirasi kengaymoqda. Ayniqsa. milliy istiqlol g`oyasi borasidagi nazariy faoliyat, targ`ibot va tashviqotni har tomon-lama kuchaytirishga alohida

ahamiyat berish zaruratga aylanib bor-moqda.

Galdagi vazifalar esa, bu boradagi imkoniyatlarni amaliy ishga aylantirishda har birimiz o`z mas'ulligimizni qay darajada sezi-shimiz va qanday faoliyat yuritishimizga bog`liq.

Asosiy tushunchalar

Falsafa, dunyoqarash, monizm, plyuralizm, dualizm, metodologiya, milliy falsafa, falsafada umuminsoniylik.

Takrorlash uchun savollar

1. "Falsafa" tushunchasining mohiyatini siz qanday tushunasiz?
2. Falsafaning bahs mavzulari nimalardan iborat?
3.Falsafa milliy bo`lishi mumkinlik
4. Falsafaning umuminsoniyligi deganda nimani tushunasiz?
5. "Dunyoqarash" tushunchasi, uning mohiyati va tarixiy shakllari.
6. Falsafiy bilimlar tizimi va uning xususiyatlari.
7. Istiqlol va falsafiy tafakkurni yangilash zarurati.

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T. O`zbekiston 1992
2. Karimov I. A. YAngicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – T: O`zbekiston 5 – j, 1997
3. Karimov I. A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat,
4. Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo`lida – T, O`zbekiston 1999
5. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T, O`zbekiston 2000
6. M. Ahmedova Falsafa darslik O`z. fay. jam. T., 2006.
7. K. Nazarov Falsafa asoslari «O`zbekiston» T., 2005.
8. K. Nazarov Falsafa O`AJBIT T., 2004.
9. E. YUsupov Falsafa «SHarq» T., 1999.
10. K. Nazarov Falsafa «SHarq» T., 2004.
11. M. Ahmedova Osnovы filosofii «Uzbekistan» T., 1998.
12. I. Saifnazarov Kurs lektsii po filosofii «SHarq» T., 2004.
13. M. Safarboev, Z. Iskandarova Falsafa UrGU U., 2004.
14. B. To`ychiev Falsafa DITAF T., 2004.
15. K. Nazarov Falsafa (Ma'ruzalar matni) O`AJBIT T., 2000.
16. M. M. Xayrullaev Filosofiya lug`ati «O`zbekiston» T., 1976.
17. M. M Xayrullaev, K. Nazarov Falsafa: komusiy lug`at «SHarq» T., 2004.
18. I. Karimov Falsafadan va'zlar TDPU T., 2003.
19. J. Tulenov, Z. G`ofurov Falsafa TDPU T., 1997.

Katta o`qituvchi Jumaniyozov B.

2. Ma’ruza. Mavzu: Markaziy Osiyo falsafasi, uning jahon madaniyatidagi o`rni.
(2 soat)

Reja:

1. Vatanimiz hududidagi eng qadimgi falsafiy qarashlar
2. O`zbekistondagi ilk o`rta asrlar falsafasi
3. Temuriylar davri va o`rta asrlar falsafasi
4. XVI asrdan to XX asr boshlarigacha O`zbekistonda ijtimoiy – falsafiy tafakkur

1. Vatanimiz hududidagi eng qadimgi falsafiy qarashlar

Tarixni bilish, undan to`g`ri va xolis xulosalar chiqara olish inson ma’paviy kamoloti uchun nihoyatda muhim. Tarix — buyuk muallim, o`tmishdan sabok, beradigan tarbiyachidir. Gap eng qadimgi davr falsa-fasi haqida borar ekan, buhaqiqat yanada katta ahamiyat kasbeta-di. Ayrimlar "Bizga ming pillar qa’rida yotgan madaiiyat va falsafadan nima foyda, yaxshisi, buguining gapidan gapiring?", "O`tmish qa’ridan tashbeh izlagandan ko`ra, bugungi muammolar ustida bosh qotirganma’qulemasmi?", deganxayollargaborishimumkin. Birqarash-da ularning gapida xam jon borga o`xshaydi. Ammo bir narsa anik,: o`tmishni bilmasdan turib, kelajakii to`g`ri tasavvur etish mumkin emas. Zero, o`tmishsiz kelajak yo`q.

SHu ma’noda, biz falsafa tarixini azbaroyi o`tmishga qiziqqani-miz uchun o`rgaimayapmiz. Biz uni turli zamoilarda ro`y bergan xilma-xil voqea, hodisalarning falsafiy fikr va ongda qanday aks etgani, ular qanday g`oyalarning tug`ilishiga sabab bo`lgani, qaysi ta’limot-lar insoniyat taraqqiyotiga qanday ta’sir ko`rsatgani, qaysi maf-kura odamzodni ko`proq rivojlanish yoki tanazzul tomon etaklagani kabi haqiqatlarni bilib olish uchun o`rganamiz. Tarixni o`rganmoq va undan sabok, olmoq har bir inson uchun zarurdir. Bu — falsafa bilan shug`ullaiayotgan mutaxassis uchu/g xam, uni o`rganayotgan

talaba uchun ham birdek muhim ahamiyatga ega. Tarixni falsafasiz to`g`ri tushunib bo`lmagani kabi, falsafani ham tarix haqiqatisiz /po`g`ri anglab bo`lmaydi.

SHularni nazarda tutib, quyida biz mamlakatimiz tarixida muayyan iz qoldirgan ayrim falsafiy qarashlar va ta’limotlar haqida qisqacha to`xtalib o`tamiz.

Eramizdan avvalgi X asrdan eramizning **VII** asrlarigacha bo`lgan davr mahsuli bo`lgan diniy-falsafiy ta’limotlardan biri zardo`sh-tiylikdir. Bu ta’limotga Zardo`sht asos solgan bo`lib, SHarq va G`arbda Zaratushtra, Zaroastr nomlari bilan mashhurdir. Manbalar-ga ko`ra, Zardo`sht eramizdan avvalgi VI asrning birinchi yarmida yashagan. Lekin uning tarixiy yoki afsonaviy shaxs ekanligi haqida aniq bir to`xtamga kelingani yo`q. U o`zini payg`ambar deb e’lon qilgan. Lekin uning payg`ambarligi ilohiy asosga ega emas. YA’ni, bu haqiqat ilohiy kitoblarda o`z tasdig`ini topmagan.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuniTo`rsatmoq-daki, bu ta’limot Vatanimiz hududida, xususan, Xorazm zaminida paydo bo`lgan. U o`z davrida xalqni ezgulik va adolat g`oyalariga da’vat etish. hayotbaxsh an’analarni shakllantirish, dehqonchilik va shahar madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo`lgan, uning g`oyalari bilan bog`liq qadriyatlar bugungi kungacha yashab kel-moqda va xalqimiz turmush tarzining o`ziga xos xususiyatlarini belgilashda ulkan qimmat kasb etmokda.

Zardo`shtiylikning bosh kitobi "Avesto"dir. Unda qadimgi xalk,-larning dunyo to`g`risiyaagi tasavvurlari, o`ziga xos qadriyat va urf-odatlari aks etgan. Unda olamning azaliy qarama-qarshi kuchlari — yaxshilik va yomonlik, yorug`lik va zulmat, issikdik va sovuk^chik, hayot va o`lim borasidagi qarashlar o`z ifodasini topgan. "Avesto"da, shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tibbiyotga oid ma’lu-motlar ham berilgan.

Falsafa tarixida makedoniyalik Aleksandr (eski o`zbek tilida Iskandar deyilgan) istilosi va Grek-Baqtriya da&ri falsafasi ham xalqimizning taratsqiyot tarixida muhim o`rin tutgan. Manbalarda Aleksandr tso`shini mahalliy xalqlarning qattik, qarshiligiga uchra-gani, u Avesto "ning ko`pgina qismshsh yondirib yuborgani haqida ma’-lumotlar bor. Bugungi kungacha ham ayrim tarixchilar Aleksandr "Aves-to "ning tiliii bilmagani, uni o`qiy olmagani sababli bu kitobning qadr-qimmatini tushunmagan va uni yoqish to`g`risida ko`rsatma ber-gan, degan fikrlarni bayon etadilar. Aslida upday emas. Bu — tari-xiy xaqiqatni, garchand u kimlar uchundir achchiq va kimlar uchundir ibratli bo`lsa-da, xaspo`shlashga urinishdan boshqa narsa emas. Nega-ki, Aleksandr o`z zamonida fanlarning otasi dvb nom olgan falsa-fani fan darajasiga ko`targan, buyuk donishmand sifatida etti iqlimda tan olingan Arastudan ta’lim olgan edi. Binobarin, SHoh Filippning o`g`li Aleksandrni savodsiz, kitobniig qadrini tushun-maydigan bir kimsa deb ta’riflash tarix hakiqatiga to`g`ri kelmaydi.

To`g`ri, u "Avesto "ni o`tda kuydirgan. Lekin buni kitobning qad-rini tushunmagani uchunmas, balki erli xalqlarni birlashishga da’-vat etib turuvchi, ular e’tiqod qo`ygan milliy g`oyalar timsoli bo`lgan va o`z saltanatiga qarshi muttasil kurash olib boruvchi vatanpar-varlarni pgarbiyalaydigan manba ekaiini iazarda tutib, shu ishii amalga oshirgan. Qolaversa, o`ziii duiyodagi eng rivojlangan hudud lshdaniyatini jahonga yoyish uchun mas’ul deb bilgan, to`g`rirot, o`sha madaniyatdan boshqasini tan olmagan mashhur jaxongir uchun zabt etilgan xalqning "Avesto "dek buyuk kitobi bo`lishi kutilmagan hol edi. U, yuqorida ta’kidlanganidek, mazkur kitob omon tursa, u ushbu zamin farzandlari uchun o`zlikni aiglash, binobarin, kuch-qudrat manbai bo`lib qolaverishini nihoyatda yaxshi tushungan. Aleksandrdan keyin yashagan Rim imperatorlari ham Misr va

Vizantiyaga qarshi urush tsilib, ularning erini bosib olganida tub aholining madaniy boyliklarini yo`q qilgani, "Zabur " va "Tavrot "ning qadimgi nusxa-larini kuydirib yuborgani yuqoridagi misolning tasodifiy emasli-gidan dalolat beradi.

Umuman, har qanday sharoitda ham istilochilariing birinchi ishi xalq va millatlarni zo`rlik bilan bosib olish, boyliklarshsh talash bo`lsa, keyingi asosiy faoliyati — millatni o`z tarixi va ananala-ridan uzib qo`yish, madapiy merosini talon-taroj qilish, uningma'-naeiyatini yo`qotishdan iborat bo`ladi. Tarixning bu achchiq sabog`i mustamlakadan ozod bo`lgan, o`z mustaqilligini sa/rtb qolish va mus-tahkamlashga intiladigan har qanday xalq taraqqiyoti uchun eng mu-him xulosa bo`lib xizmat qiladi.

Iskandarga tsarshi kurashda xalqymizning milliy qaxramoni Spe-tamen beqiyos mardlik va jasorat ko`rsatadi. U Iskandarga qarshi ayovsiz qarshilik ko`rsatgan eatanparvar lashkarboshilardan biridir. Aslida, uning qahramoshshgi mshishtimizniig o`sha davrdagi o`z davlat-chiligini, o`zi yashaydigan hudud daxlsizligini saqlab qolish uchun olib borilgan kurashning yaqqol timsolidir. Albatta, bu lashkarboish or-tidan xalk, ergashsa, elning ozodlik va mustatsillikka intilish tuy-g`usi kuchli bo`lmasa, Spetameniipg nomi bu qadar mashhur bo`lib ket-mas edi. Negaki, insop naqadar kuchli, tadbirkor va omadli bo`lma-sin, agar xalk, bilan birga bo`lib, uning dardlariga darmon izlamasa, hurriyat g`oyalarini baprok, qshshb ko`tarmasa, haqiqiy milliy qahra-mop bo`lolmaydi. Spetamen esa o`sha xalqimizning ruhi, orzu-umidla-ri, mustamlakachilarga qarshi matopati ramzi sifatida tariximiz qatiga mangu muhrlanibtsolgan.

Markaziy Osiyoda buddaviylik ham o`z o`rniga ega. U diniy-falsafiy ta'limot sifatida qadimgi Hindistonda eramizdan avvalgi VI asrning oxiri va V asr boshlarida vujudga kelgan. U jahonda keng tarqalgan dinlardan biridir. Bu ta'limotga asos solgan donishmand sidxarta urug`idan chiqqan Gautama hisoblanadi. Keyinchalik u "Budda", ya'ni nurlan-gan degan laqabga ega bo`lgan. Buddaviylik islomga qadar O`rta Osiyoda tarqalgan qadimgi dinlar orasida mavqe jihatidan juda katta o`rin tutadi. Bu ta'limot O`rta Osiyoga eramizdan avvalgi II—I asrlarda kirib kelgan. Tarixiy manbalarga ko`ra, uni Toxaristonga balxlik savdogarlar olib kelishgan. Kushonlar davrida buddaviylik dini hukmron dinga aylangan edi. Xalqchil bo`lgashshgi uchun O`rta Osiyoga keng yoyilgan. Buddaviylikning O`rta Osiyoga yoyilishi quyidagi to`rt bosqichdan iborat:

Birinchi bosqich. Kushonlardan oldingi davr. Bu eramizdan avval-gi I asrga to`g`ri keladi. Bu davrga oid yozma manbalar*bizgacha etib kelmagan.

Ikkinchi bosqich. Kushonlar davri (eramizning II—1Uasrlari), Bu davrda buddaviylik O`rta Osiyoga keng tarqalgan edi. Ayniqsa, uning axloqqa oid masalalar, xalq ommasini sabr-qanoat va bar-doshga da'vat etuvchi g`oyalarni ilgari surganligi muhim ahamiyat kasb etgan.

Uchinchi bosqich. Bu davrda O`rta Osiyoda buddaviylik ta'limoti-ning manbalari yoyilgan.

*To`rtinchi bosqich.* (IX—XIV asrlar) Islom O`rta Osiyoda hukmron dinga aylanishi bilan bu din siqib chiqarilgan va juda zaifla-shib ketgan.

Buddaviylikning O`zbekiston va Hindiston xalqlari o`rtasida o`z davrida ma'naviy ko`prik bo`lib xizmat qilganligi aniq. Xalqlarimiz orasidagi do`stlik va birodarlikning ildizlari xam o`sha davrga borib taqaladi va bugungi kunda aksariyat kishilar, ayniqsa, yoshlarimizning hind xalqi, uninpmadaniyati va san'atiga qiziqishitasodifiy emas.

Moniy ta'limoti yurtimizda buddaviylikdan keyin keng tarqalgan edi. U zardo`shtiy-lik va xristianlikning sintezlashuvi na-tijasida vujudga kelgan. Moniy fors va arab

tillarida bir necha risolalar yozgan. Lekin ular bizgacha etib kelmagan. Monyay hatgo "Moniylik yozuvi" nomli alifbo ham tuzgan. Uning ta’limoticha, hayotda dastavval nur dunyosi — yaxshilik va zulmat dunyosi — yovuzlik bo`lgan. Ular o`rtasida abadiy kurash boradi, inson ikki unsurdan (RUH — nur farzandi, jism — zulmat mahsuli) iborat. Moniylik xalq ommasi manfaatlarini himoya qiluvchi ta’limot bo`lgani sa-babli hukmron mafkura qarshiligiga duch kelgan.

Moniylik ta’limoti asosida Mazdak ta’limoti yuzaga kelgan. U eramizning V—VI asrlarida kengtarqalgan edi. Uningasoschisi Mazdak (470—529 yillar) bo`lgan. Mazdak va uning maslakdoshlari o`z qarash-larida xalq ommasiga suyangan. Xalqning ozodlik, erkinlik, hurlik ko`lida olib borgan harakatlariga rahnamolik qilgani uchun tez fur-satda ularning maslakdoshlari, izdoshlari ko`payib ketgan. Mazda-kiilik ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish yo`lida kurashga da’vat etuvchi mafkura sifatida xizmat qilgan. Unda asosiy yovuzlik —boy-likka hirs qo`yish va o`ta kambag`allik qoralanadi. Bu insonparvar harakatdan cho`chigan shoh Mazdakni turli hiylalar bilan o`limga mahkum etadi. Mazdakiylar harakati eramizning VI asrida bostirilganiga qaramay, turli mamlakatlarda muayyan darajada davom etgan. O`rta Osiyoda Muqanna. Ozarbayjonda Bobak boshliq dehqonlar va shahar kambag`allarining zulmga qarshi kurashlari bunga misol bo`ladi.

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan qadimgi falsafiy talimot-lar, ular ilgari surgan g`oyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Sanabo`tilgan qadimgi diniy-falsafiy ta’limotlar, ya’ni zar-do`shtiylik, uning bosh kitobi — "Avesto ", Moniy ta’limoti, "Mo-niy yozuvi ", mazdakiylik harakati jamiyatda adolat, erkinlik, teig huquqlilik tamoyillarini qaror toptirishga a’vat ztgan. Vatan ozodligi yo`lida jon fido etgan Muqanna boshchiligidagi harakat nafaqat O`rta Osiyoda, balki jahoniing boshqa o`lkalarida ham aks-sado bergan. Vatanimizning o`sha davrda shakllongan va rivojlangan boy madaniyati, milliy ma’naviyatimiz, falsafamiz jahon tsivili-zatsiyasiga katta ta’sir ko`rsatgan.

Sirasini aytganda, mamlakatimiz tarixi islom dini yurtimiz-ga kirib kelgan davrdan boshlanmaydi. U islomga qadar ham ming yillar mobaynia rivojlanib kelgan shonli tarixiga ega. Lekin, af-suski, Vatanimizning aia shu daer tarixi iihoyatda kamo`rganilgan. Bu davrga oid manbalarning aksariyati esa yo`q qilib yuborilgan. Bu vayronkorlikning boshida miloddan avval makedoniyalik Aleksandr turgan bo`lsa, mamlakatimizni zabt etgan keyingi bosqinchilar ham ana shu yo`ldan borgan. Ular xalq ongidan mustaqillik va erkin hayot to`g`risidagi maqsad-muddaolarni butunlay yo`qotib yuborishga uri-iishgan. Buning natijasida ma’naviy qashshoq va tarixiy xotirasiz kishilar tarbiyalanishi lozim edi. Bosqinchilar Movarounnahrda ni-hoyatda boy madaniyat shakllanganini e’tirof etgan. Ammo uning bosqinchilik g`oyalariga mos kelmaydigan juda ko`p namunalarini ayov-siz yo`q qshshshgan. Ayniqsa, ma’naviy qadriyat va madaniy boyliklar-ni shafqatsizlarcha g`orat qilish asosiy o`rinda turgan. YUrtimizda arablar istilosiga qadar ustuvor bo`lgan manaviy va madaniy durdo-nalar qadrini yaxshi anglaydigan va ularning ahamiyatini to`g`ri tu-shunadigan kishilar birinchi iavbatda yo`q qshgib yuborilgan. Bu to`g`ri-da Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar "asa-rida quyidagilarni yozgan: "Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o`rgangan va bilimini boshqalarga o`rga-tadigan kishilarni halok etib va butkul yo`q qilib yuborgan edi. SHuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin haqiqatni bilib bo`lmaydigan darajada yashirin qoldi "[1]. Ushbu asarning boshqa sahifasida ulug` vatanparvar olim yuqoridagiga o`xshash yana bir fikr-ni quyidagicha ifoda etgan: "Qutayba xorazmliklarning kotiblarini halok etib, bilimdonlarini o`ldirib, kitob va daftarlarini kuydirani sababli ular

savodsiz bo`lib, o`z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga suyaiadigan bo`ldilar "'.

Beruniy zamonida islom yagona hukmron diniy mafkura bo`lib tur-ganini e'tiborga olsak, zikr etilgan asar va undagi teran fikrlarni bundoy o`ktamlik bilan aytish g`oyat ulkan jasoratii talab etgani ayon bo`ladi. Istilochilarning bunday vayronkor siyosati keyin ham davom etgan. Xususan, mustabid sho`rolar mafkurasi hukmronlik qil-gan davrda xam ana shunday hol ro`y bergan. Nihoyatda boy qadriyatla-rimiz, falsafiy ta'limotlarimiz, umuman o`z merosimizdan bebahra bo`libqoldik.

Istiqlol tufayli ajdodlarimiz yaratgan boy va o`lmas madaniy merosni o`rganish imkoni tug`ildi. Tarixiy xotirani tiklash, xalqi-miz qalbida milliy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik. tuyg`u-larini shakllantirish hozirgi kunda ma'naviy hayotning ustueor yo`na-lishiga aylandi.

2. O`zbekistondagi ilk o`rta asrlar falsafasi

Mazkur mavzuga asos bo`lgan davr falsafasi arab istilosi va mamlakatimizda islom dinining taraqqiy etishi bilan uzviy bog`liqdir. Bu falsafa, ba'zi chet ellik mutaxassislar aytgani kabi, faqat arablar madaniyatining bir qismi emas. Balki bizning Vatanimiz farzandlari ulug` bobokalonlarimizning islom diniga, islom falsafasiga, butun arab dunyosi va johon tsivilizatsiyasiga katta ta'sir ko`rsatgan talimotlari dunyoga kelgan davr falsafosi hamdir.

SHu bilan birga, bu ajdodlarimizning ozodlik uchun kurashini aks ettirgan, xalqimiz madaniyati va ma'naviyati nihoyat darajada ri-vojlanganini butun jahonga yaqqol namoyon qilgan davr falsafasidir.

Bu Muqanna kabi milliy qahramonlarimiz keng xalq, ommasiga bosh bo`lib ozodlik kurashini olib borgan paytlarda elning ruhini ko`tarib, ilhomlantiruvchi ezgu g`oyalar shakllangan davr falsafasidir.

Bu Amu va Sirdaryo bo`ylarida yashagan xalqning dahosi eng yuksak darajaga ko`tarilgan, uning atoqli namoyandalari jahon madaniyati sahifalariga o`zlarining o`chmas nomlarini muhrlab ketgan davr falsafosidir. Bu falsafaning xususiyatlari o`sha daerda kechgan ijtimo-iy-siyosiy jarayonlarning o`ziga xosligi bilan belgilanadi.

Mazkur mavzuni o`rganishdan maqsad, Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, yosh avlod qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, "YOshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o`z mustaqil fikriga ega bo`lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o`zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish" dan iborat.

Bu davrda Markaziy Osiyo hududi Xorazm, Sug`d, Farg`ona, Ustrushana, CHag`oniyon kabi o`lkalardan tashkil topgan bo`lib, gavjum SHarq bilan G`arb mamlakatlarini bog`lab turuvchi "Ipak yo`li" markazida joylashgan va madaniy jihatdan ancha rivojlangan, qishloq xo`jaligi, hunarmandchiligi serqirra, yaqin va uzoq mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalari avj olgan miitaqalardan iborat edi.

Zabt etilgan o`lkalarni idora qilish maqsadida arab davlati - arab xalifaligi tashkil etildi. VII - VSH asrlarda Markaziy Osiyo ham Qutayba ibn Muslim boshchiligida arablar tomonidan bosib olinib, xalifalikka bo`ysundirildi. VIII asrning oxirlarida Atlantika okeanidan Tyan-SHangacha, Hind okeanidan tortib Kavkazgacha bo`lgan ulkan hududda turli xalq va elatlarni o`ziga birlashtirgan yagona Arab imleriyasi vujudga keldi. Lekin bu jarayon osonlikcha amapga oshmadi. Arablar zabt etilgan

mamlakatlarda yuksak darajada rivojlangan qadimgi ilm-fan, madaniyat, diniy an’-analarga duch keldilar. Ular bu an’analarga qarshi kurashni avj oldirdilar, qadimgi yozuvlarii yo`q qildirdilar, ulardan xabar-dor kishilarni qirg`in qildilar. Bunga javoban Abu Muslim, Hamza al-Xorij, Muqanna, Rofi ibn Layz boshchiligida xalq qo`zg`olon-lari bo`lib o`tdi. Ayniqsa, Muqanna boshchiligida "Oq kiyimlilar" qo`zg`oloni Arab xalifaligini larzaga keltirdi. VIII asrning oxiriga kelib, Osiyoda Arab xalifaligi o`z hukmronligini o`rnatishga muvaffaq bo`ldi.

Movarounnahrga arablar bosqini bilan birga islom dini ham kirib keldi. Islom so`zi arabcha so`z bo`lib tangriga o`zini topshirish, itoat, bo`ysunish, tinchlik kabi ma’nolarni anglatadi. Islom dini bayrog`i ostida keng hududda arab qabilalari birlashgan, mavjud tarqoqlikka chek qo`yilgan, yagona markazlashgan arab xalifaligi tashkil topgan.

Qur’on va hadislarda islomiy ta’limotning asosi bayon qilingan. Qur’on - muqaddas kitob. Unda islom qonun-qoidalari, iymon-e’tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me’yorlar o`z ifodasini topgan. V 114 sura va ular tarkibidagi oyatlardan tashkil topgan. "Sunna" esa hadislar majmui bo`lib, Qur’ondan keyin turadi va uni to`ldiradi. Unda Muxammad payg`ambarning so`zlari xatti-harakatlari naqllar va hadis shaklida jamlangan.

Qur’on va sunnadan keyingi muhim manba - shariatdir. SHariat (to`g`ri yo`l, ilohiy yo`l demakdir) islomda huquqiy, axloqiy me’yor va amaliy talablar tizimidir. Islomdagi asosiy yo`nalishlar - sunniylik, shialik va xorijiylik. Ular diniy ta’limot, marosimchilik, axloqiy-huquqiy me’yorlarga oid masalalarda o`zaro farkdanib turadi.

Islomda ilk oqim tarafdorlari sifatida xorijiylar (arab. - isyonchi ajralib chiqqan) harakati vujudga kelgan. Ular taxt uchun kurashda xalifa Ali ibn Abu Tolib (661 yilda o`ldirilgan) ning Muoviya tarafdorlari (ummaviylar) bilan muzokaralar olib borishga ko`nganligini qoralab chiqqanlar. Ali qo`l ostidagi qo`shinning bir qismi (12 ming kishi) uni kelishuvchilikda ayblab, undan ajralib chiqqan hamda bir vaqtning o`zida Ali va Muoviya tarafdorlariga qarshi keskin kurash olib borgan.

Xorijiylar yo`nalishi o`rta asrlar davrida ko`pgina oqimlarga bo`linib, keyinchalik yo`qolib ketgan. Faqat ibodiylar (abodiylar) oqimi saqlanib qolgan.

Sunniylik va shialik hokimiyat masalasida (sunniylik xalifalik hokimiyati, shialik esa imomat hokimiyati tarafdori), ayrim diniy marosim va an’analarda bir-biridan farq qiladi.

Islomdagi oqimlar aqidaviy ta’limot va marosimchilik masalalarida bir-biridan ajralib turadigan diniy guruxlardir. SHialikdan qarmatlar, ismoiliylar, zaydiylar, nusayriylar, aliilohiylar va boshqalar ajralib chiqqan. SHialar sunniylar kabi Qur’-onni ilohiy deb e’tirof etadilar, lekin xalifalar davrida uning ayrim qismlari tushirib qoldirilgan, deb hisoblaydilar. Ular Qur’onning mazmunini majoziy talqin qiladilar. sunnada esa, faqat Ali nomi bilan bog`liq bo`lgan hadislarni tan oladilar, imomlar hokimiyatini (imomat) e’tirof etadilar. Dastlabki xalifalardan Abu Bakr, Umar va Usmonni hokimiyatni zo`ravonlik bilan qo`lga olgan shaxslar sifatida qoralaydilar, Makka va Madina bilan birgalikda Karbalo va Najaf shaharlarini muqaddas ziyoratgohlar deb biladilar. imom Husaynga motam tutadilar. SHialar jahonda musulmonlarning taxminan 10 foizini tashkil etadilar.

Sunniylik jahonda keng tarqalgan mazhab bo`lib, musulmonlarning 90 foizini tashkil etadi. U tavhid (Ollohning yagonaligi), adl (uning odil ekanligi), nubuvvat (payg`ambarlik), qiyomat yoki ma’od (oxirat kunining kelishi va o`lganlarning

tirilishi), ilk xalifalar - choriyorlarni "Xulafo ar-Roshidin" ("to`g`ri yo`ldan borgan xalifalar"), Qur'onni muqaddas kitob, Makka va Madinani muqaddas sajdagohlar deb hisoblaydilar.

Sunniylikdan ravshaniylar, ahmadiya, jangari vahhobiylar, maxdiylar ajralib chiqqan. Mazhabchilik ilohiyot masalalari bo`yicha yuzaga kelgan o`zaro kelishmovchiliklar natijasidir.

Islomda hanafiylik ash'ariylar, jabariylar, qadariylar, sifatiylar, murji'iylar, mu'taziliylar kabi mazhablar mavjud. Qadariylar inson iroda erkinligini yoqlab chiqib, uni tan olmagan jabariylarga qarshi chiqqan. Mutakallimlar aristotelchilik falsafasi usul va vositalaridan foydalanib, islomning diniy-aqidaviy ta'limotini asoslab berishga uringan.

Abu Mansur Moturidiy (milodiy 944 yilda vafot etgan) kalom ilmining akl maqomiga alohida e'tibor qaratgan. Samarqandda Moturidiya maktabini yaratgan. Uning Qur'onning tafsiriga bagishlangan "Kitob at-tavhid" va "Kitob ta'vilot al-Qur'on" sarlari ulamolar orasida katta e'tibor qozongan. Moturidiy karashlarida Olloh, inson, imon, olam, ilm va aql masalalari etakchi maqom kasb etadi. Ilohiyot sohasini talqin etishda u tabiati keng, beg`araz mutafakkir bo`lib, mo`'tadil yo`nalishga amal /kilib kelgan. Doimo har xil masalalar, jumladan, ilohiy vahiy/ va aql, Olloh va olam o`zaro munosabatlari muammolarida ham ilohiyot an'analari va aql uyg`unligini o`zida mujassamlashtirgan tafakkur talab-tamoyillarini qo`llab-quvvatlagan. Uning ta'-kidlashicha, aqliy va nafsiy quvvatlar buyuk ne'matlardir. Olloh ularni behuda yaratmagan. Odamlar bu ne'matlar orqali yaratganning qudrati, odilligi va donishmandligini ayon dunyoni bilish bilan anglab oladilar. Lekin aql naqadar muhim va e'tiborli bo`lmasin, ba'zi hollarda uning tirqishidan shubha kirib ke-lishga urinadi. Bu esa imon-e'tiqodga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Aynan shunday vaziyatda ilohiy ilmlarning ahamiyati oshib boradi. Olloh bandalariga ular bajara olmaydigan vazifalarni yuklamaydi. Ularni bajarishda odamlarning faollik ko`rsatish erkinligi butunlay chegaralab qo`yilmagan. Ular o`zlariiing ezgu amallari uchun Olloh rizoligiga erishadilar, badfe'l qilmishlari uchun esa jazolanadilar. Bandalar imon-e'tiqodiga baho berish odamlarning zimmasida bo`lmasdan, balki Ollohning ixtiyorida, deydi Moturidiy.

Mu'taziliylar (ajralib chiqqanlar) yakka xudolikning adolatli ekanini, Qur'onning tangri tomonidan yaratilganligini, iroda erkinligini yoqlab chiqqan. Uning asoschisi Vosil ibn Ato (699-748 yillar) dir. Uning oxirgi vakillaridan biri Zamahshariydir.

Kalom islom ilohiyotining o`ziga xos falsafiy ta'limotidir. U diniy aqidalarni asoslab berishga uringan. U Qur'onga tayanib, jannat va do`zaxning azaliy ekanligini, insonda iroda erkinligining yo`qligini, lekin insonning Olloh oldida o`z qilmishlari uchun mas'ul ekanligini asoslab berishga harakat qilgan.

Bunday ma'naviy jarayonlar bilan yonma-yon islomda **mashshoiyunlar va tabbiiyunlarning** (Arastu falsafasi va tabiatni o`rganishga axd qilganlarning) falsafiy qarashlari shakllana borgan. Bu islomiy ma'naviyatning dunyoviy va diniy masalalarda, jahon falsafiy tafakkurida ro`y berayotgan jarayonlarga nisbatan tashabbuskor bir kuch ekanini ko`rsatib turibdi.

Kadimgi yunon falsafasi an'analarida siyosiy faoliyat va donishmandlik ko`p hollarda bir-biriga qarama-qarshi qo`yilgan bo`lsa, islom falsafasida oiyosatga,

aksincha, inson faoliyatining yuksak bir shakli sifatida qaraladi. Islomda davlatni boshqarish - san’at, ammo u ijtimoiy adolat taomiliga amal qilmog`i zarur, ijtimoiy adolat esa teng huquqiylikka amal qilish tufayli barqaror bo`la oladi, deb hisoblanadi.

Islom falsafasiga ko`ra, insoniyat istiqboli komil insonni shakllantirish orqali yuzaga keladi, axloq-odob esa inson tafakkurining ajralmas tarkibiy qismidir. Musulmon SHarqi mutafakkirlarini aql maqomi, mantiqilmi avvaldan qiziqtirib keladi, chunki mantiqqa tayanmagan har qanday bilim ishonchli va samarali bo`la olmaydi. Bu masala ham islom falsafasida o`z o`rniga ega.

Tasavvuf falsafiy oqim va diniy-ma’naviy xodisa sifatida islom dini doirasida (ko`pgina ichki sabablar va ba’zi tashqi unsurlar - buddaviylik va hindiylikning ilk diniy tasavvurlari, sharqiy xristian tarkidunyochiligi, neoplatonizm kabilarning ta’siri ostida) paydo bo`ldi. Tasavvuf uchun vaxdoniyat - Ollohning birligi, Olloh va olamning porlab turishi, fano bo`lish, orif shaxsining tangri taolo bilan ruxan birlashib ketishi kabi mushohadalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu oqim namoyandalari va tarafdorlarini so`fiylar deb ataganlar va "so`fizm" atamasi shundan paydo bo`lgan. Ilk so`fiylar aholining kambag`al toifasi orasida shakllangan. Ularning qarashlari istilochilar zulmi, adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlikka qarshi norozilik belgisi sifatida ham yuzaga kelgan.

Tasavvufning muhim jihatlari yirik musulmon ilohiyotchisi Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G`azzoliyning (1059—1111) "Diniy ilmlarning tiriltirilishi" asarida bayon etilgan. Ul zot dunyo qonuniyatlarini aql orqali bilishni e’tirof etgan, lekin Ollohni akl bilan anglash mumkin emasligini ta’kidlaganlar. U faqat qalb, maxsus ruhiy harakatlar - iltijo-ibodatlar ko`magida bilib boriladi. Mantiq, tabiatni bilish Ollohni tanishga xalal bermasa, ular ahamiyatlidir, agar aksincha bo`lsa, ularning maqomi chegaralanadi.

Rasmiyatchilik, aqidachilikni tasavvuf ahli qabul qilmagan. Ularning fikricha, iymon-e’tikodning mohiyati Ollohdan boshqa narsaga muhtoj bo`lmaslik, hech qanday mulkning quliga aylanmaslik. boriga sabr-qanoat qilib yashashdir. Ollohga etishish uchun qalbni poklash, nafs balosidan ozod bo`lish darkor. Ana shundagina inson dili nur bilan to`ladi, nuqsonlarni boshqalardan emas, o`zidan izlaydigan darajaga ko`tariladi, Haq sari yaqinlashadi bema’ni qarash va tushunchalarning qullik kishanidan o`zini ozod qiladi, chunki inson qalbi hurdir. Tasavvufda **kubraviya, yassaviya, naqshbandiya** tariqat-suluklari keng tarqalgan.

YAssaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad YAssaviydir (1166 yilda vafot etgan). U Turkistonning Sayram muzofotida tug`ilgan, mashhur mutasavvif YUsuf Hamadoniyning (1140 yilda vafot etgan) ta’lim-tarbiyasi bilan voyaga etgan, orif maqomiga erishgan. YAssaviy ustozining vafotidan keyin muayyan bir muddat uning maqomida turgan, so`ng esa bu maqomni Abduxoliq G`ijduvoniyga / qoldirib, YAssi - Turkiston shahriga qaytadi va o`z tariqati,/ yo`l-yo`riklarini tashviqetish bilan mashg`ul bo`ladi.

YAssaviy tanlagan yo`l o`ziga xosdir. Bu yo`l insonning o`z gunohlarini, axloqiy nuqson va qusurlarini, jumladan, shaxsiyatparastlik, ta’magirlik, boriga qanoat qilmaslik kabi illatlarini ayovsiz ochib tashlash va ulardan xalos bo`lish uchun kurashdir. Uning fikricha, bu yo`l yagona to`g`ri yo`l bo`lib, u aslida "Xudo yo`li"dir. Har bir inson o`zining axloqiy kamolotida, komil inson bo`lib etishishida "shayton vasvasasi" dan qutulish uchun, o`z jonini ham, molu mulkini ham ayamasligi lozim.

Bu tasavvuf uchun umumiy yo`ldir, chunki u Ollohni anglash, insonning o`zini bilishi orqa-li ro`y beradi, deb ta’kidlandi. Mutafakkirning diniy-axloqiy falsafasida dunyodan butunlay yuz o`girilmaydi. CHunki inson hayoti uchun noz-ne’matlar, kiyim-kechaklar, turarjoy kabilarning zarur ekanligini mutafakkir tushunmaydi, deyish soddadillik bo`lardi. YAssaviyda nodonlik, jaholat, badnafslik, molu dunyoga hirs qo`yish illatlari va ularni shakllantiradigan omillar qoralanadi, ulardan uzoqlashishga da’vat qilimadi. Mutafakkir "tolib men", deb hammaga jar solib, aslida esa nomaxramlarga yomon ko`z bilan boquvchilarni, o`zgalar molini tap tortmasdan eyuvchilarni, harom - xarishdan qaytmaydiganlarni, "ko`zlarida nami yo`q" - vijdonlari qiynalmaydiganlarni qattiq qoralaydi. U uylarini naqsh qilish bilan band notavon "oxirgi zamon ummatlaridan", ularning shonu shavkatlar izidan quvish, dunyo mehmonlarining bir zum qo`nib o`tadigan "eski rabot" ekanligidan bexabarligidan, "bebaqo dunyo"-dan ko`z yumganlardan loaqal ibrat olmasliklari, o`lmayman deb o`ylashlaridan, manmanlikka behad darajada berilishlaridan noliydi.

YAssaviyning "gunox dardi"ni doimo jonu dili bilan his qilib turish falsafasini talqin qilishda yuzaki qaraganda, unga har xil sifatlar berish bilan kifoyalanish mumkin. Agar unga mohiyat nuqtai nazaridan turib e’tibor bersak, uning imon-e’tiqodi is-lomga amal qiluvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, har bir inson u qanday dinga imon keltirishi yoki keltirmasligidan qat’i nazar, o`zini vijdon dardidan forig`man deb faraz qilmasligi lozim. Bijdonning osudaligi yaxshi fazilatmi? Agar bu holat butun jamiyat uchun xotirjamlik, boqibeg`amlik sifatida qaror topsachi? Insondagi vijdon osudaligi, uning sustkashligi bunday kimsani vahshiy hayvondar bilan yaqinlashtirsa, uning jamiyat hayotida barqaror hodisa sifatida amal qilishi uning umumiy inqirozining haqiqiy alomatidir.

YAssaviyning oddiy xalqtushunadigan uslubda yozilgan, tasavvufiy qarashlarini aks ettirgan hikmatlari devonida ilohiy ishq, haq vasliga etishish, uning ishqida parvona bo`lish, undan boshqa narsaga ko`ngil qo`ymaslik haqida fikr yuritilgan. YAssaviy riyozat, chilla, zikrga alohida ahamiyat berib, hayotining aksariyatini chillaxonada o`tkazgan. YAssaviy tariqati Turkiston o`lkasi, Ozarbayjon, Turkiya, SHimolda - Qozongacha, G`arbda - Bolqongacha keng tarqalgan.

Kubraviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubro (1154 - 1226) dir. Xivada tug`ilgan, yozgan asarlari orasida "SHarhus-sunna val-masolih», "Usuli ashara", "Favoihul-jamol" kabilar mashhurdir. Kubraviya tariqatining mohiyati o`nta usulda mujassamlashgan. Bular - tangriga o`z xohishi bilan yuzlashish, zuxd fi dunyo - har qanday lazzatdan o`zini tiyish, tavakkul - Ollohga e’tiqodi pokligi uchun barcha narsalardan voz kechish, qanoat, uzlat - xilvatni ixtiyor qilish, mulozamat azzikr - uzluksiz zikr, tavajjuh - Haqqa muhabbat qo`yish, sabr - nafs balosidan ozod bo`lish, muroqaba - tafakkurga g`arq bo`lish, rizo - tangri xushnudligini qozonishdan iborat.

Kubro mo`g`ullar bilan bo`lgan jaiglarda jasorat ko`rsatgan va shahid bo`lgan. Mo`g`ullar Kubroning nomi ulug`ligi, obro`si balandligini hisobga olib, unga ozod bo`lishi, omon qolishi mumkinligini, buning uchun esa qamal qilingan qal’adan chiqib ketishi kifoya ekanini bil-dirgan. Ammo Kubro bunday jon saqlagandan ko`ra, o`z xalqi bilan birga yurt himoyasi yo`lida jon berishni afzal ko`rgai. Rivoyat qilishlaricha, ul zot tartayib qolganiga qaramay, jangchilarga faol ko`mak bergan. Buni ko`rgan shogirdlaridan biri "Ustoz, anchadan beri bayroq ko`tarib charchadingiz, uni menga bering ", deganida, u "Agar kuchim bo`lganida qilich yoki kamon olgan bo`lar edim. Bayroqni bizga qo`yingda, siz

qilich yoki nayza bilan yog`iyga qarshi kurashing ", degan ekan. U bayroqni shunchalik maxkam ushlagan ekanki, xalok bo`lganidan keyin ko`lidan bayroqni olishning iloji bo`lmaganidan, bir mo`g`ul Kubroning ko`lini kesib olgan ekan.

Baqouddin Naqshband (1318 - 1389 yillar) naqshbandiya tariqatining asoschisidir. Bu
ta’limotning mohiyati "Dil ba yoru dast ba kor" shiorida yaqqol ifodasini topgan. Inson Olloh inoyati natijaoi bo`lib, bu dunyoni unutib qo`ymasligi lozim, uning qalbi doimo Ollohda, qo`li esa mehnatda bo`lmog`i lozim. U tasavvufning barcha tariqatlari singari shariat, tariqat, ma’rifat va hakiqat maqomlarini e’tirof etadi.

Naqshbandiya ta’limotining asosida ixtiyoriy faqirlik yotadi. Mazkur ta’limotning peshvolari ortiqcha dabdaba, isrofgarchilikni qoralab, o`z mehnati bilan kun ko`rishga, beva-bechora muhtojlarga yordam berishga boylikka ruju qo`ymaslikka da’vat etganlar. SHuningdek, muayyan bir hunarni egallash va uning orqasidan kun ko`rish mazkur ta’limotning asosiy shartlaridan biri edi. SHu sababdan. naqshbandiya ta’limoti o`rta asrlar ijtimoiy hayoti taraqqiyotida ijobiy rol o`ynadi, deyishga asosimiz bor. Naqshbandning ta’kidlashicha, shariat - axdga vafo, islomning beshta asosiy talabiga rioya qilish, dil va til birligi. Tariqat esa o`zidan kechish, fano bo`lishdir. Xaqiqat - behuda ishlardan uzoqlashish, haq ishlarga bog`lanish. Demak. shariat - qonun, tariqat - yo`l. Qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi. Yo`l esa ko`ngilni poklab, ruhni ilohiy kuvvatdan baxramand qiladi.

Kubraviya, yassaviya va naqshbandiya ta’limotlari ma’naviyatimiz tarixida juda katga o`rin tutgan. Ular ma’naviy taraqqiyotda muhim ahamiyatga molik bo`lib, o`z ta’sirini haligacha yo`qotmagan.

Vatanimiz tsivilizatsiyasining sharq xalqlari, arab madaniyati va islom falsafasi rivojiga ta’siri nihoyatda katta bo`lgan. Uning hududida arab xalifaligidan nisbiy mustaqillikka erishgan davlatlarning tashkil topishi, xalqimizning bag`rikengligi tufayli yangi marralarga erishildi. Dunyoviy va diniy sohalardagi madaniy-ma’naviy yuksalish mazkur uyg`onish davrining yorqin timsolidir. "Avesto " an’analari, tabiatni o`rganishdagi yutuqlar, gumanitar sohadagi ijobiy siljishlar, SHark, xalqlari, arabmadaniyati va islom falsafasi rivojiga samarali ta’sir ko`rsatdi. O`sha davrda jahon miqyosida Vatanimizning ma’naviy-intellektual nufuzi ortib bordi. U jahondagi yirik madaniyat va ilm-fan markaziga aylandi.

Musulmon SHarqi, jumladan islom joriy etilganidan keyin Vatanimiz hududidan etishib chiqqan buyuk mutafakkirlar ijodida Olloh, inson va tabiat masalalari ilohiyot va dunyoviy falsafaning muhim muammolaridan biri bo`lib kelgan. Bironta buyuk alloma va mutafakkir islomiy qadriyatlar mavzuini chetlab o`tmagan.

Diniy ilmlar sohalarida imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Abu Hanifa, imom Moturidiy va imom Burhoniddin Marg`inoniylar peshqadamlik qilganlar.

Imom Buxoriy (810 - 870) yirik ilohiyotchi, muhaddis sifatida 60 mingga yaqin hadis to`plagan, ulardan ishonchli deb topganlarini maxsus to`plam holiga keltirgan. Bu to`plam "Sahihi Buxoriy" nomi bilan mashhurdir.

Imom Iso Termiziy (824 - 892)dan "Payg`ambarning alohida fazilatlari", "Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola", "Tarix" va boshqa asarlar meros bo`lib qolgan. Imom Termiziy hadislarni muntazam ravishda to`plab. muayyan tartibga solgan va yaxlit bir kitob shakliga keltirgan.

Muhammad al-Xorazmiy (783—850) va Ahmad al-Farg`oniy (taxm. 797-865) butun musulmon SHarqi va jaxonda tabiiy va aniq fanlar rivojiga salmoqli xissa qo`shgan buyuk allomalardir. Muhammad al-Xorazmiy arab xalifaligining poytaxti Bashodda "Donishmandlik maskani" ("Bayt ul-hikma")ga rahbarlik qilgan. Uning "Astronomiya jadvali", "Hind hisobi to`g`risida risola", "Quyosh soati to`g`risida risola", "Musiqa haqida risola", "Tiklash va qarshi qo`yish hisobiga oid muxtasar kitob" kabi asarlarida algebra sohasiga asos solindi.

SHarq xalqlari orasida "Buyuk maxematik" unvoniga sazovor bo`lgan Ahmad al-Farg`oniy astronomiya va matematika sohalarida nom taratdi. Uning "Samoviy jismlar harakati va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob", "Astronomiya asoslari" asarlarida koinot xaritasi tuzilgan. Er va fazoviy sayyoralar hajmi. iqlimlar, jo`g`rofiy kengliklar to`g`risida kuzatuvchilar orqali asoslangan yangi ma’lumotlar berilgan, ilm-fanning yangi yo`nalishlariga asos solingan. Qo`lga kiritilgan ma’lumotlarni umumlashtirish, tadqiqotda hissiy va aqliy mushohada mushtarakligi allomaga xos xususiyatlar sifatida dunyoqarashni shakllantirishning muhim omil-lari bo`lib keldi va undan keyin yashagan ilm ahliga ta’siri sezilib turdi.

Falsafa, tabiatshunoslik va tibbiyot tarixini Forobiy. Beruniy va Ibn Sinosiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Abu Nasr Forobiy (873-950) - musulmon SHarqida Arastudan keyin "Ikkinchi ustoz" unvoniga muyassar bo`lgan yirik mutafakkir va alloma. Uning qalamiga 160 dan ziyod asar mansub bo`lib, ular asosan tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolarni sharxlash hamda bu sohalarning dolzarb masalalarini tahlil qilishga bag`ishlangan. U birinchilardan bo`lib o`z davri ilmlarining tasnifini beradi. Musiqa, matematika, tibbiyot, arabtili grammatikasi, alximiya, mantiq ilmlariga oid qimmatli asarlar yaratish bilan birga falsafiy muammolarga bag`ishlab bir qator ilg`or fikrlarni bayon qilgan. Mutafakkir olamni ikki ko`rinishda: "Vujudu vojib" (olloq) va "vujudi mumkin" (barcha moddiy va ruhiy narsalar) misolida talqin qiladi, barcha narsalar "vujudi vojib" tufayli yashash huquqiga ega bo`ladi. Ular o`zaro bir-biri bilan sababiy tarzda bog`lanadi. Sababsiz oqibat bo`lmaganidek, oqibatsiz sabab ham bo`lmaydi, deydi Forobiy.

Vujudi vojib birinchi sabab sifatida o`zga sabab yoki turtkiga muhtoj emas. U mutlaq borliq va donishmandlikning ifodasidir. Vujudi mumkin esa yaratiladi, lekin o`zi yaralmaydi. U doimiy o`zgarishda, ziddiyatli munosabatlarda, unda barcha narsalar kamolotga qarab rivojlanadi. Vujudi vojib yaratgan narsalardan birinchisi aql al-faol yoxud birinchi aqldir. Birinchi akl har bir sayyoraga xos aqllarni vujudga keltiradi. Eng so`nggi falakiy aql natijasida zamindagi aql-ruh va barcha moddiy jismlar paydo bo`ladi. Olam sifat, miqdor, javhar, aktsidentsiya (muxim bo`lmagan xossa). imkoniyat, zaruriyat va tasodifiyat, makon va zamon, harakat va rivojlanish kabi tushunchalarda ifodalanadi. Ular fazoviy jismlar, aqlli maxluq (inson), aqlsiz jonivorlar, o`simliklar, minerallar va to`rtta unsur – suv, olov, havo va tuproq kabi oltita ko`rinishda namoyon bo`ladi.

Bilish jarayoni aql va sezgilar orqali yuzaga keladi. Bilish jarayoni cheksiz bo`lib, u inson jonli mushohada va tafakkurining noaniq narsani bilmaslikdan bilishgacha bo`lgan murakkab yo`lni bosib o`tadi. Bu yo`nalish hodisalar oqibatini bilishdan ularning sababini anglash aktsidentsiyadan substantsiyaga etib borishni maqsad qilib qo`yadi. Bilishda aql va mantiq ilmining maqomi beqiyosdir. Mutafakkir talqinida aqliy bilish ikki jihatga ega: birinchidan, u konkretdan uzoqlashish va undan umumiy

tomon va jihatlarni ajratib olishni, ikkinchi tomondan esa, ushbu umumiylik ko`magida konkret jihatlarning mohiyatiga chuqurlashishni taqozo etadi. Aql vositasida inson ilm-fanni yaratadi. Fan tufayli hodisalar mohiyati ochib b.eriladi. Har bir fan insonning muayyan ehtiyojlarini qondirishga xizmat Qiladi. Bundan tashqari, Forobiy bilish ta'limotining boshqa jihatlarini ham o`rgangan. U ilmiy tadqiqotda kuzatuv, bahs-munozara, bilish metodlari, jonli mushohadaning cheklanganligi to`g`risida qiziqarli g`oyalarni ilgari surgan. Forobiy tufayli musulmon SHarqi falsafiy tafakkurida mantiq ilmi chuqur iz qoldirdi.

Mutafakkir o`z asarlarida komil inson, fozil fuqaro, odil hukmdor, baxt-saodat, unga erishish yo`llari, davlatning xususiyatlari, axloqiy va akliy tarbiya, ijtimoiy istiqbol to`g`risida ilg`or g`oyalarni ilgari surgan. Forobiyning SHarq xalklari falsafiy tafakkuri rivojiga bo`lgan ta'siri sezilarli bo`lgan.

Abu Rayhon Beruniy (973—1048) deyarli barcha fan sohalarida ijod etgan buyuk qomusiy alloma va mashxur mutafakkirdir. U yaratgan 152 ta asardan 28 tasi bizgacha etib kelgan. Uning tabiatni o`rganishdagi xizmati kattadir. Alloma jismlarning o`zaro tortishuvi, Quyosh va Oyniig tutilishi, zarra, inertsiya va sun'iy tanlanish, rivojlanish anomaliyasi, Er qa'rida ro`y beradigan geotektonik siljishlar, Er qiyofasining tadrijiy tarzda o`zgarib turishi, xilma-xil olamlar to`g`risida ilmiy bashoratlarni ilgari surgan. Uning falsafiy qarashlari tabiiy-ilmiy qarashlari ta'sirida shakllandi. U modda va zamon, qonuniyat, zaruriyat va tasodifiyat, harakat va rivojlanish, ziddiyat, sabab va oqibat kabi falsafiy muammolarga katta e'tibor bergan.

Beruniy "Oddiy javharlar paydo bo`lish va yo`q bo`lishni bilmaydi" degan g`oyani ilgari surgan. U olamning Olloh tomonidan yaratilganligini e'tirof etadi. Abadiylik birinchi sabab bilan bog`liqdir, chunki u yaratuvchi umrini anglatadi. Mutafakkirning taraqqiyot, qonuniyat, zaruriyat va tasodifiyat to`g`risidagi mulohazalari alohida ahamiyatga molikdir. Qat'iy zaruriyat va tamoyillariga bo`ysunadigan hodisalarga tsiklik tarzda hosil bo`ladigan jarayonlar (xayvonlarning urchishi, o`simliklarning changlanishi, ekinlarning ekilishi va boshqalar) kiradi. Lekin zaruriyat va qonuniyat tasodifiyat bilan uzviy aloqada bo`ladi, chunki hamma narsalar ham muayyan tartibda ro`y beravermaydi.

Beruniyning asarlarida bilish masalalari mux,im maqomga egadir. Bilishga bo`lgan qiziqishning ikkita sababi bor. Birinchidan, bu o`ziga xos lazzatdir. Ikkinchidan, bilishdan maqsad odamlar ehtiyojlarini qondirishdir. Bilish sezgilar etkazib bergan ma'lumotlardan boshlanadi. Ular bilishning yuqori bosqichi aqliy bilish uchun o`ziga xos ko`makchi va asos bo`lib xizmat qiladi. Bilimning chinligi kuzatuv va sinov-tajriba orqali belgilanadi. Ular tufayli ashyolarning muhim jihatlari o`rganiladi, ularning miqdoriy tomonlari aniqlanadi. bilish jarayonining samaradorligi oshib boradi. Inson tabiat hodisalarini bilishga bo`lgan intilishda ikki narsadan ilhomlanadi. Ulardan biri azaldan berilgan tabiiy qiziqish, barcha narsalar mazmun-mohiyatiga etib borishga intilishdir. Ikkinchisi esa, bilish tufayli qo`lga kiritilgan yutuqlardan manfaatdorlikdir. Uning fikricha, "Agar fanga asoslanib bo`lmasa, undan voz kechish lozim".

Beruniyga ko`ra, inson qiyofasi tabiat ta'sirining natijasidir. Uning ichki qiyofasiga kelsak, uni inson cheksiz sa'y-harakatlar oqibatida tubdan o`zgartirishi mumkin. Har bir kishi o`z xulq-atvorining sohibidir. Jamiyat tadrijiy o`zgarishlar orqali rivojlanib boradi. Adolat, fuqaro uchun g`amxo`rlik, zulmni bartaraf etish, jamiyatni aql va adolat tug`i ostida boshqarish mutafakkirning idealidir.

Abu Ali Ibn Sino (980 - 1037) – bukyu alloma va mutafakkir u Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog`ida tug`ilib, Xamadon shahrida vofot etgan. Ibn Sinodan qolgan ma’naviy meros taxminan 280 jilddan ziyodroqdir. Ular tibbiyot, falsafa, mantiq, psixologiya, axloq, musiqa, farmakologiya va boshqa sohalarga bag`ishlangan. Olimning "SHifo kitobi", "Tib qonunlari", "Bilimlar kitobi", "Tabiat durdonasi" kabi asarlari mashhurdir. Borliqni talqin etishda Ibn Sino Forobiy izidan borib, uni "vujudi vojib" va "vujudi mumkin"dan iborat, deb e’tirof etadi. "Vujudi vojib" birinchi sabab vazifasiki bajaradi. "Vujudi mumkin" esa uning oqibatidir. Vujudi vojib va vujudi mumkin vaqt nuqtai nazaridan farklanmaydi. Ular o`rtasidagi farq, aslida, nafislik darajasi bilan belgilanadi. Harakat - vujudi mumkinning ichki mohiyatidan kelib chiqadi. Harakat osoyishtalik bilan birga mavjud bo`lib, jismlarning o`zaro o`rin almashinuvigina emas, balki keng ma’noda ularning o`zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o`tishidir. Ibn Sinoning fikricha, harakat quyidagi uchta ko`rinishda namoyon bo`ladi:

1. Aktsidental harakat. Bu harakatda jism boshka jism tarkibida bo`lib, o`sha jism harakati bilan birga harakat qiladi, bir o`rindan boshqa o`ringa ko`chadi, lekin bu jism o`z o`rnini o`zgartirmaydi.

2. Majburiy harakat. U jismning o`z harakati emas, balki uning asosiy sababi jism mohiyatidan tashqarida mavjuddir. Masalan, ot aravani tortadi, suv tashiydi, odam olov yoqadi, toshni otadi va h.k.

3. Tabiiy harakat. U jismg`gang o`z-o`zidan kelib chiqadigan harakatini anglatadi. Olovning ko`tarilishi, shamolning sodir bo`lishi, toshning pastga tushishi kabilar bunga misol bo`ladi. Bu harakat o`z navbatida doira va to`g`ri chiziq bo`ylab harakatdan iborat

bo`ladi. Harakat fazo va vaqt bilan uzviy aloqadadir. YAratilishning intihosi va ibtidosi bo`lmagani kabi, harakat, fazo hamda vaqtning ham boshlanish va oxirgi nuqtasi bo`lmaydi.

Olimning sababiyatga oid mulohazalari e’tiborga molikdir. Unga ko`ra, sabablar moddiy (muayyan holatni keltirib chiqaruvchi sabab), faol (muayyan holatni o`zgartiruvchi sabab), shakliy (turli xil quvvatlar bilan bog`langan sabab) va tugallovchi (barcha sabablarning pirovard maqsadi) sabablardan iboratdir.

Ibn Sino Zakariyo ar-Roziy va Beruniy kabi jahon falsafiy tafakkuri tarixida birinchilardan bo`lib kuzatuv va tajribaga muhim e’tibor qaratdi. Masalan, alloma ular ko`magida xastaning holati, kelajakda kutilayotgan kayfiyati, dori-darmonlar tarkibi, insoi va atrof-muhit o`zaro munosabati muammolarini hal etishga urinadi.

Ibn Sino barcha faloafiy fanlarni nazariy va amaliy falsafaga bo`ladi. Nazariy fan metafizika (yuqori darajali fan), matematika (o`rta bosqichdagi fan) va fizika (fanning pastki qatlami)dan iborat. Amaliy falsafa siyosat, hukuq, iqtisod, axloq-odobni qamrab oladi. Olim mantiqni o`zining ilmlar tasnifiga kiritmaydi, uni bilishning vositasi deb hisoblaydi.

Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy qarashlari serqirradir. U jismlarning o`zaro bir-biriga ta’siri, aloqadorlik, zaruriy va tasodifiy bog`lanish to`g`risida muqim ma’lumotlar qoldirgan. Olim o`zining "Tabiat durdonasi" ("Qurozayi tabiat") asarida sarob, jismlarning solishtirma og`irligi, chaqmoq, momaqaldiroq, nur, yomg`ir, tog` jinslarining emirilishi va boshqalar haqida qimmat-li ma’lumotlar beradi.

Mutafakkir o`z asarlarida ilm va axloq-odob uyg`unligi, inson kamoloti, baxt-saodat. ijtimoiy adolat, kishilarning o`zaro hamkorligi, hukmdorning burchi to`g`risida

qiziqarli g`oyalarni ilgari surgan. Uning ta’kidlashicha, barchani bir xil ijtimoiy mavqega erishtirib bo`lmaydi. Aslida ular uchun muayyan sharoit yaratib bermoq lozim. Barchaning boy va mansabdor bo`lishi yoki hammaning qashshoq bo`lishi jamiyatning tanazzuli hamda inqirozidir. Lekin inson o`zgalarga mehr-oqibatli, g`amxo`r bo`lmog`i, kerak vaqtda sa-xovat va muruvvat qo`lini nochorlarga uzatishi zarurdir. Inson tug`ilishidan boshlab, axloqli yoki axloqsiz bo`lavermaydi. U hayotda shaxsiy va o`zgalar tajribasi, ajdodlar an’analari, ta’lim-tarbiya natijasida shakllanadi va muayyan ijtimoiy mavqega erishadi.

Markaziy Osiyoda ilk o`rta asrlar davrida keng tarqalgan tasavvuf ta’limotidagi komil inson maqomi, nafsni tiyish, bag`rikenglik, diniy donishmandlik, Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg`oniy tadqiqotlarida ilgari surilgan tabiiy-ilmiy g`oyalar, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari, fandagi yangi yo`nalishlar birinchi galda musulmon SHarqi, qolaversa, butun jahon tabiiy-ilmiy va falsafiy tafak-kurining ravnaqiga hayotbaxsh ta’sir o`tkazib keldi.

Afsuski, bu madaniy uyg`onish mo`g`ul bosqini tufayli tanazzulga yuz tutdi. Amir va sultoplar o`rtasidagi o`zaro ixtiloflar, noahillik CHingizxon bosqiniga qo`l keldi. Bu bosqin mo`g`ullarning 1218 yilda O`tror shahrini bosib olishi, uning hokimi, Xorazmshohning qayno-g`asi Inolchiqni bandi qilishi va qulog`iga qaynab turgan kumushni quyib yuborishdek xunrezlikdan boshlandi. Mo`g`ullarning xukmronligi davrida ana shunday qonxo`rlik tinimsiz davom etdi. Ko`rkam shahar va qishloqlar vayronaga aylaidi, iqtisodiyot taiazzulga yuz tutdi. Ilm-fan, madaniyat, jumladan, falsafa shmiham inqirozga uchradi.

Xalqimiz mo`g`ul bosqinini qattiq qarshilik bilan kutib oldi. Garchand uquvsiz hukmdor Muhammad Xorazmshoh saltanatni saqlab qola olmagan bo`lsada, xalqimizning bosqinchilarga qarshi kurashi aslo to`xtagani yo`q. Ba’zi tarixiy manbalarga ko`ra, o`sha davrda nihoyatda katta xududdan 600 mingga yaqin qo`shin to`plash mumkin edi. Bu qo`shin to`planganida va tajribali lashkarboshiga topshirilganida CHingizxon saltanatni bosib olishi gumon edi. Insoniyatning o`tmishini yaxshi biladigan ba’zi olim va mutaxassislarning fikricha, agar shoh o`zining yovqur o`g`li Jaloliddinni avval boshdanoq taxt vorisi etib tayinlaganida va qo`shinning ixtiyorini unga topshirganida, nafaqat Osiyo tarixi, balki jahon tarixi boshqacharoq yo`ldan ketishi mumkin edi.

Afsuski, tarix "Agar unday bo`lmaganida zdi... " qabilidagi tamoyillarni tan olmaydi. CHingiziylar bosqini Vatanimiz madaniy taraqqiyotiii bir necha asrlar orqaga surib yubordi. O`sha davrda bosqinchilarga qarshi kurashning eng atoqli vakili Jaloliddin Manguberdi esa millatimiz ozodligi uchun olib borgan kurashning timsoli sifatida tariximiz saxifalarida abadiy qoldi. Bu mimiy qaxramonimizning tavallud kuni 1999 yilda keng nishonlangani uning ruhini shod qilish va Jaloliddin Manguberdini kurashga otlantirgan ezgu g`oyalar bizning kunlarimizda amalga oshganligining ramzidir.

Alohida ta’kidlash lozimki, Prezidentimizning "Olloh qalbimizda, yuragimizda" tamoyili o`rta asrlar falsafasini o`rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk ajdodlarimizning bag`rikengligi, mazxabparastlikka berilmaganligi, ular dunyoqarashida dunyoviy va diniy ilmlarning mushtarakligi, sabr-qanoatliligi barchamizga namuna - ibratdir. Bu boy ma’naviy xazina yoshlar ongiga milliy g`oya va istiklol mafkurasini singdirishga xizmat qiladi, Ularni mustaqil fikrlash, do`stni dushmandan farq qilishga undaydi, yurgim deb, elim deb yashashga chorlaydi.

3. Temuriylar davri va o`rta asrlar falsafasi

Insoniyat tarixida shunday davrlar borki, unda buyuk ishlarga tayyor millatlar, o`zining yo`lboshchilari etakchiligida, tarixning muayyan qisqa bosqichlarida ming yillarda qo`lga kiritish mumkin bo`lgan natijalarga erishganlar. Aynan ana shunday davrlar insoniyat tarixiga shu millatga mansub buyuk shshilarning o`chmas nomini bitadi, jahon madaniyatini boyitadi, umumbashariy taraqqiyotga katta hissa bo`lib qo`shiladi.

Amir Temur va temuriylar davri xuddi ana shunday, mo`g`ul bosqinchilaridan ozod bo`lgan xalqimiziing milliy dahosi eng yuksak cho`qqiga ko`tarilgan davrdir. Bu davr falsafasi xalqimizning sohibqiron Amir Temur boshchiligida ozodlikka erishgan va mustaqillikni saqlash hamda mustahkamlash uchun amalga oshirgan buyuk ishlarining ifodasidir. Bu xalqimizning markazlashgan davlat tuzish, milliy davlatchiligini tiklash va barqaror qilish, mustaqil yashash orzularining ushalgan davridir. Uning falsafasida ham aia shu jihatlar yaqqol ko`zga tash-lanadi va bu meros bugungi milliy ong va istiqlol mafkurasining falsafiy negizlari orasida alohida o`rin tutadi.

Tarixdan ma’lumki, O`rta Osiyoning mo`g`ullar tolgonidan bosib olinishi mamlakatni g`orat qildi, iqtisod, madaniyat, san’at va ilm-fan sohasida tanazzul ro`y berdi. Jabr, zulm, zo`ravonlik natijasida xalqning turmushi keskin yomonlashdi.

Mo`g`ullar zulmiga chek qo`yishda xayaq ommasining noroziligi, sarbadorlar boshchiligidagi ommaviy qo`zg`olonlar, ayniqsa, sohibqiron Amir Temurning faoliyapsh muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Mo`g`ullar o`rnatgan mustabid tuzumning Amir Temur dunyoga kelgan davrida erli aholi o`rtasida chuqur ijtimoiy va ma’naviy uyg`onish jarayoni borayotgan edi. Bu jarayon, "Tarixi, o`sha davrdayoq,, ming yilliklar qariga ketgan buyuk xaaq mustamlakachilik azobida yotaveradimi?"— degan asosiy masala atrofida ro`y berayotgan edi.

Mo`g`ullar mamlakatimizni siyosiy va harbiy jihatdan istilo qilgan bo`lsalarda, ammo uni ma’naviy bo`ysundirish, madaniy jixatdan mo`g`ullarning ustunligi to`g`risida gap ham bo`lishi mumshn emas edi. Ko`chmanchilik va shaharlarni g`orat qilishdan boshqasiga yaramaydigan, o`troq hayotga mensimay qaraydigan CHingiz avlodlari ma’naviy va madaniy jihatdan o`zlaridan ustun bo`lgan xalqqa nima xam bera olar edilar? Ular o`z hukmronligining oxirigacha ham Vatanimizda birorta tuzukroq yashash mumkin bo`lgan yangi shahar barpo etmadilar, madaniyat o`choqlarining yuksalishi uchun imkon bermadilar, aksincha, erli aholi orasidan chiqqan barkamol kishilarni qilichdai o`tkazib turdilar. Ammo xalq irodasini buka olmadilar, uning ozodlik va mustaqillikka intilishini to`xtatib qo`ya olmadilar. Amir Temur ana shu harakatning natijasi, xalqining milliy g`oyalarini ro`yobga chiqarish uchun tarixiy shakllangan zaruriyat, o`sha paytda harbiy uyushqoqlik, siyosiy xushyorlik, g`alabalar uchun fidokorlik jihatidan jahonda tengi yo`q millatga aylangan xalq dahosi yaratgan buyuk jahongir edi. Xalq jahongirga aylangaiida o`zining jahongirini yaratadi. Bu esa tarixning muayyan hududdagi eng burilish nuqtalariga to`g`ri keladi.

Ba’zilar Temur falsafiy asarlar yozmagan-ku, uning falsafaga aloqasi bormi, deb o`ylaydi. Aslida Temurning hayoti va faoliyati falsafadan iborat emasmi? U falsafiy xulosalar chiqarish uchun boshqa kishilarning hayoti va asarlaridan ham mazmunliroq hayot emasmi? Falsafani faqat kitoblardangina o`rganish mumkinmi?Aslida, falsafani to`la-to`kis kitobga tushirib bo`lmaydi. Kitobga tushirilgan falsafa muayyan tizimga

keltirilgan falsafiy bilimlar sistemasi, xodos. Temur va temuriylar davrini pgarix falsafasi va falsafa tarixini uyg`un tarzda yozish orqali nisbatan to`g`ri ifodalash mumkin. Amir Temurning hayoti, uning faoliyati, temuriylar davridagi madaniy jarayonlar, ilm-fan rivoji kabi masalalar esa bir necha falsafiy kitoblar, o`nlab tadqiqotlar uchun mavzu ekanligi aniq,. Qolaversa, Temur va temuriylar kabi ilm-fan, madaniyat va san'atni, falsafa va adabiyotni nozikta'b tushungan, o`zlari ham bu sohalarda ajoyib yutuqlarga erishgan siyosiy sulolalarni jahon tarixidan topish qiyii. Bu sulola vakillari orasida she'r yozmagan, adabiy mashqlar qilmagan, fan-madaniyatga qiziqmagan biror temuriyzoda bo`lmasa kerak. Tarix shundan dayaolat beradiki, yurt boshliqlari fan va madaniyatga qiziqqan, ma'naviyatni yuksaklikka ko`tarish uchun kurashgan o`lkada bu sohalarda haqiqiy yuksalish bo`ladi. Siyosiy ta'minlanganlik, boshqa sohalar bilan birgalikda, madaniy taraqqiyotning eng asosiy omili ekanligini rad qilish unchalik o`rinli emas. Madaniyatparvar, ma'rifatparvar Amir Temur va temuriyzodalar o`sha davr ma'naviy taraqqiyoti uchun siyosiy-iqtisodiy asoslarni to`la-to`kis yaratgan arboblar edi. Xalqimizning asrlar osha ular ruhiga minnatdorlik tuyg`usi bilan yondashuvi, haligacha o`z farzandlariga bu sulola vakillari nomlarini qo`pib yurishi, bugungi kunlarda ham o`sha zamondan tashbehlar izlayotganining sabablaridan biri ham ana shunda.

Amir Temur ibn Tarag`ay Bahodir (1336 - Amir Temur ibn 1405) Kesh (SHahrisabz) shahri yaqinidagi **Tarag`ay Bahodir** Xo`jailg`or qishlog`ida dunyoga keldi. Uning eng asosiy tarixiy xizmatlari shundan iboratki, u mo`g`ullarning bosqinchilik va vayronkorliklariga qarshi kurashib, O`rta Osiyoni ulardan xalos etdi. Mayda feodal va mulkdorlarning o`zaro nizolariga barham berib, kuchli markazlashgan davlat barpo qildi. Mamlakatda tartib-intizom va qonun ustuvorligini ta'minladi. Uning davrida "Kuch - adolatda" tamoyili amalga oshdi, iqtisod va madaniyat yuksaldi, o`zga mamlakatlar bilan mustahkam aloqalar o`rnatildi.

Amir Temur mohir harbiy sarkarda sifatida nom qozondi. U o`z hayotini Movarounnaxr xalqining farovonligi, yurt obodonchiligi uchun sarfladi, uning davrida hashamatli binolar, qurilish inshootlari, go`zal bog`lar bunyod qilindi, maktab va madrasalar, masjidlar qurildi, mamlakatimiz SHarqning go`zal hududiga aylandi.

Temurning yana bir ulkan xizmati shuki, u madaniyat va ilm-fan homiysi sifatida mashxur bo`ldi, o`z saroyiga olimu fuzalo va din arboblarini to`pladi. Xoja Afzal, Jalol Xokiy, Mavlono Xorazmiy, Mavlono Munshiy va boshqalar uning saroyida ilm-fan va badiiy ijod bilan mashg`ul bo`ldilar. Bobur Mirzoning xabar berishicha, o`sha davrda Samarqand eng go`zal shahar edi. Ispan sayyohi R. G. Klavixo Samarqandning go`zalligiga qoyil qolgan edi. Temur hukmronligi davrida ichki va tashqi savdo kuchaydi. Ayniqsa, Hin-diston, Xitoy, Rusiya, arab mamlakatlari bilan aloqalarning kuchayishi Temur saltanati iqtisodiy qudratini oshirdi. Temur va temuriylar davrida islom dini va tasavvufga katta e'tibor berildi Islom dini o`sha davrda asosiy mafkura bo`lib, markazlashgan davlat barpo etishda, iqtisod, madaniyat va ilm-fan sohasidagi maqsad-vazifalarni amalga oshirishda nazariy asos bo`lib xizmat qildi. Temur o`z faoliyatida unga tayanib ish ko`rdi.

Temuriylar davrida tasavvuf ta'limoti keng quloch yoydi. Sohibqiron tasavvuf qoidalaridan mamlakatdagi salbiy illatlarni yo`qotishda, turli janjal va nizolarni bartaraf qilishda, haqiqat va adolat o`rnatishda, insonparvarlik g`oyalarini tarqatishda foy-dalangan. Temur tasavvufdag`i poklanish, to`g`ri va sofdil bo`lish, zino va fahsh ishlar bilan shug`ullanmaslik, harom-xarish ishlardan qochish, halol mehnat qilish, biror

kasbni egallash, muhtojlarga mehr-shafqat ko`rsatish kabi g`oyalarni xalqqa singdirish uchun kurash olib bordi. Naqshbandlik tariqatining yirik shayxlari bo`lmish Sayyid Amir Kulol, SHayx Abu Bakr Tayobodiy, Mir Sayyid Barakalar Temurning pirlari bo`lib, sohibqiron ular bilan tez-tez muloqot qilib turgan.

Temuriylardan SHohruh, Ulug`bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzolar davlatmi boshqarishda, din va tasavvuf qoidalariga amal qilishda. ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda uning an'analarini izchil ravishda davom ettirdilar. Bu davrda me'morchilik san'ati yuksak darajaga ko`tarildi. Amir Temur Ko`ksaroy masjidi, SHohizinda, Bibixonim madrasasini qurdirdi. Keshda (SHahrisabz) Oqsaroy barpo qila boshladi. Mirzo Ulug`bek davrida, 1417-1420 yillarda Registonda, keyinchalik Buxoroda, 1432-1433 yillarda G`ijduvonda madrasalar qurildi, Bibixonim masjidi, Go`ri Amir maqbarasi qurib bitkazildi. 1429 yili esa Ulug`bekning falakiyot rasadxonasi nihoyasiga etdi. Hirotda ham ko`plab me'morchilik binolari barpo qilindi. Ular jumlasiga masjid, madrasa va xonaqoxlardan iborat bo`lgan Gumbazi sabz, Alisher Navoiy qurdirgan "Ixlosiya", "Nizomiya", "SHifoiya" madrasalari, Marv shahridagi "Xusraviya" madrasasi va boshqalar kiradi. Navoiy yashagan zamonda Hirotda "SHarq Rafaeli" deb nom olgan Kamoliddin Behzod (1456-1535) va shoh Muzaffar kabi dunyoga mashhur rassomlar ijod qildi. Behzod "Zafarnoma" kitobiga, Xusrav Dehlaviyning "Xamsa", Sa'diyning "Bo`ston" asarlariga naqsh bergan va Husayn Boyqaro, Xotifiy, Jomiy va boshqalarning rasmini chizgan, xalqning mehnatini, tabiat manzaralarini Haqqoniy tasvirlagan.

XIV-XV asrlarda Movarounnaxr va Xurosonda ilm-fanning ko`p sohalarida yuksalish yuz berdi. Jahonga mashhur olimlar, tabiatshunoslar va shoirlar etishib chiqdi. Tibbiyot, riyoziyot, handasi, tarix, adabiyot, jug`rofiya, pedagogika, mantiq, falsafa, axloqshunoslik va boshqalarga e'tibor berildi. Ayniqsa, badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik tez rivoj topa boshladi, ularda o`sha davrning muhim ijtimoiy muammolari va insonparvarlik g`oyalari olg`a su-rildi. "Gul va Navro`z" muallifi Lutfiy (1366-1465), "Behro`z va Bahrom" asarini yozgan Binoiy (1453-1512), "Tazkirat ush-shuaro" ("SHoirlar haqida tazkira")ning muallifi Davlatshoh Samarqandiy, "YUsuf va Zulayho", "Mahzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi") asarlarining mualliflari Durbek (XIV-XV asrlar), Haydar Xorazmiy hamda Kamol Xo`jandiy (1402 yilda vafot etgan), Hofiz Xorazmiy (XIV-XUasrlar), Ismat Buxoriy (1365-1436), YAqiniy (XV asr), Hiloliy (XV asr), Atoiy (XV asr) va boshqalar o`sha davrda yashab, ijod etdilar.

Bu davrda tarix faniga e'tibor kuchaydi, yirik tarixnavislar paydo bo`ldi. Temuriylar davrida Abdurazzoq Samarqandiy (1413 - 1482) ning "Matlaa as-sa'dayn va majma' al-bahrayn" ("Ikki dengizning qo`shilishi"), Hofizi Abru (1361 - 1430)ning "Zubdat at-tavorix" ("Tarixlarning sarasi"), Muyiniddin Isfizoriy (1494 yilda vafot etgan)ning "Ravzat al - jannat fi avsof madinat", Fosih Xavofiy (1375—1442)ning "Mujmali fosihiy", SHarafiddin Ali YAzdiy (1454 yilda vafot etgan)ning "Zafarnoma"si. Ni-zomiddin SHomiyning (XIV asr oxiri XV asrning boshi) "Zafarnoma"si va boshqalar mashhur edi.

O`sha zamonning eng mashhur tarixchilari Mirxond (1433-1498) va Xondamir (1475- 1535) edilar. Mirxond Hirotda tavallud topib, shu erda ijod qilgan. Uning asosiy tarixiy asari 7 jilddan iborat "Nabiralar, podshoxlar va xalifalar tarjimai hollari haqida poklik bog`lari" deb ataladi. U olti jildini yozib, vafot etadi, egtinchisini nabirasi

Xondamir yozib tugatadi.

Xondamir ham Hirotda tug`ilib, yoshligidan tarixnavislikka havas qo`yadi. U Agrada vafot etadi. Uning muhim risolalari "Makorim ul-axloq", "Habib us-siyar", "Vazirlar uchun qo`llanma" va boshqalardir. Muarrixning eng yirik asari "Habib us-siyar"da qadim zamondan XVI asrgacha Markaziy Osiyo, Eron va Afg`onistondagi tarixiy shaxslar, voqealar, davlatlar tarixi, davlatni boshqarish yo`llari batafsil bayon qilingan. "Makorim ul-axloq" asarida ulug` Alisher Navoiyning bunyodkorlik ishlari, insoniy fazilatlari, Vatan ravnaqi yo`lida ko`rsatgak jonbozliklari to`g`risida hikoya qilinadi. Xondamirning ilmiy-tarixiy merosi XV—XVI asrlar iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti to`g`risida hikoya qiluvchi qimmatli manba hisoblanadi.

XIV-XV asrlarda mantiq, tabiiy-ilmiy fanlar. Ayniqsa, falakiyot, falsafa va axloqshunoslikka katta e’tibor berildi. Mantiq ilmining yirik vakillaridan biri Sa’diddin Taftazoniy (322-1392) dir. U Niso viloyatiga qarashli Taftazon qishlog`ida dunega keladi. YOshligidan ilohiyot fanlari, arab tili, nutq san’ati va mantiq bilan shug`ullanadi. Taftazoniy madrasalarda mudarrislik qildi. Turkiston, Hirot, Jom, G`ijduvon madrasalarida talabalarga dars berdi. Taftazoniy shuhrati, ilmiy ishlari YAqin va O`rta SHarq mamlakatlariga keng tarqaldi. Temurning taklifi bilan alloma Samarqandga kelib, shu erda umrining oxirigacha yashadi.

Taftazoniy 40 dan ortiqrisolalarning muallifidir. Muhimlari: "Tahzib al-mantiq val-kalom" ("Mantiq va kalomga sayqal berish"), ritorikaga oid "Muxtasar al-maoniy" ("Qisqacha ma’no-lar"), arab tili grammatikasiga oid "Al-irshod al-hodiy"("Yo`l boshlovchi rahbar"), falsafa va kalomga oid "Al-maqosid at-toli-bin" ("Tolibi ilmlarning maqsadlari") va boshqalar. Taftazoniy o`tmish olimlarining juda ko`p asarlariga sharhlar xam bitgan.

Alloma sabab va oqibat, iroda erkinligi, bilish, ong, mantiq fani va uning vazifalari haqida o`z fikrini bayon qilgan. Masalan, u tabiatda sabab va oqibat munosabatlarining mavjudligini e’tirof etadi. Taftazoniy iroda erkinligiga to`xtalib, har qanday ezgu ishlar xudoning mohiyatidan kelib chiqadi. Xudo yaratuvchi sifatida insonlarni yomon xatti-harakatlar qilishdan saqlaydi, insonni ko`proqxayrli ishlar qilishga chorlaydi, gunoh ishlardan qochishga da’vat etadi, deb aytadi.

Taftazonvy fikricha, bilish jarayoni uch bosqichni o`z ichiga oladi: ■ 1) his-tuyg`u a’zolari va ashyolar o`rtasidagi o`zaro ta’sir; 2) bu omil-larning inson ruhi tomonidan qabul etilishi; 3) akliy bilish.

Olim his-tuyg`uni tashqi hissiyot deb ataydi, ichki his-tuyg`u ham tashqi hissiyot asosida paydo bo`ladi. Akdiy yoki mantiqiy bilish esa moddiy asosdan ancha uzoqda bo`lib, hissiy bilimlarga nisbatan yuqoriroq bosqichda namoyon bo`ladi.

Mantiqyangi bilimlar hosil qilish uchun zamin yaratadi. Tasav-vur va tasdiq mantiqiy bilish shakllaridandir. Biror narsa to`g`risida hukm chiqarishda til muhim o`rinni egallaydi. Mantiqshunoslik mavhum mantiqiy ong bilan bog`langan bo`lib, tushuncha va hukmni ifodalovchi so`z va iboralarni tahlil qiladi.

Taftazoniy falsafasining ahamiyati shundan iboratki, u kalom falsafasini rivojlantirib, unga mantiqiy qonunlarni tatbiq etdi, Ulug`bek ilmiy maktabining vujudga kelishiga zamin yaratdi.

O`sha davrning yana bir atoqli allomasi Mir Sayyid SHarif Jurjoniy Astrobod shahri yaqinida tug`ilgan. Jurjoniy Istambul, Qohira, Hirot. SHeroz shaharlarida bo`lib, ulardagi olimlardan ilm sirlarini o`rganadi. 1387 yildan boshlab Samarqand

madrasalarida mantiq, falsafa, falakiyot, fiqh va adabiyot, munozara ilmi va boshqalardan dars beradi.

Jurjoniy 50 dan ortiqrisolalarning muallifi bo`lib, ularning aksariyati mantiq, fiqh, falsafa va tabiatshunoslikning muhim muammolariga bag`ishlangan. Olimning "At-ta'rifot" ("Ta'riflar"), "Odob ul-munozara" ("Munozara olib borishning qoidalari xaqida risola"), "Sug`ro" ("Kichik dalil bo`la oladigan hukm"), "Kubro" ("Katta dalil bo`la oladigan hukm"), "Avsatdar mantiq", ("Mantiqda o`rta xulosa"), "Risolayi vujudiya" ("Borliqhaqida risola") va boshqa asarlari mavjud. Bulardan tashqari, Jurjoniyning Ibn Sino, CHag`miniy va Nasriddin Tusiylarning asarlariga sharhlar yozganligi ma'lum.

Mutafakkir risolalarida borliq, modda va uning shakllari, jismoniy va ruhiy munosabatlar, mantiqiy fikrlash, til va tafakkurning o`zaro aloqasi, koinot, inson, aql va bilish masalalari yoritiladi. Jurjoniy, xuddi Taftazoniy singari, hamma narsa va jismlar bir-biriga sabab-oqibat nisbatida bo`ladi, deb hisobladi. Oddiy narsalar asosida to`rt unsur. ya'ni suv, olov, havo va tuproq yotadi. Metall, o`simliklar va hayvonot dunyosi to`rt unsurning qorishishi natijasida paydo bo`ladi.

Jurjoniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari borlik, koinot, modda va uning shakllari, jismoniy va ruhiy munosabatlar, bilish, mantiqiy fikrlash kabi masalalarni qamrab oladi. Olim vojib ul-vujud va mumkin al-vujud mohiyatini sharhlashga intiladi. Uningcha, yo`q bo`lishi mumkin bo`lmagan, bor bo`lishi zarur bo`lgan narsa vojib ul-vujud deb ataladi. Borlig`i ham, yo`qligi ham zarur bo`lmagan narsa esa mumkin ul-vujud deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, vojib ul-vujud borliqning birinchi sababi bo`lmish Xudodir, mumkin ul-vujud esa moddiy olamdir.

Jurjoniy mantiq fani bilan falsafani o`zaro bog`liqlikda tahlil qiladi. Uningcha, xulosa uch turga bo`linadi: sillogizm, induktsiya va analogiya. Sillogizm (qiyos) nazariy bilimlar hosil qilishining asosiy vositasi hisoblanadi. Jurjoniy fikricha, induktiv yo`l bilan olingan bilimlar hamma vaqt ham haqiqatga to`g`ri kelmaydi, zeroki inson tajribasi doimo mukammal va har tomonlama to`g`ri emas. Mir Sayyid SHarif Jurjoniy mantiq ilmi sohasida ham o`z fikrlarini bayon qilgan. O`zining qarashlarida man-tiq ilmini falsafadan ajratmay, ayni bir vaqtda uning huquq va til bilan ham chambarchas bog`liq ekanligini isbotlab beradi. SHuning uchun ham XIV—XV asrdan boshlab islom madrasalarida mantik, ilmini o`qitish huquq va tilshunoslik fanlari bilan bog`liq holda olib borildi. Jurjoniy xulosaning uch turi: qiyos (sillogizm), induktsiya va analogiyaning har qaysisiga ta'rif beradi, ularning bir birini taxlil qilib chiqadi. Umuman olganda, Taftazoniy va Jurjoniyning falsafiy va mantiqiy qarashlari ilm-fan rivojida katta hissa bo`lib qo`shildi va keyingi davrlarda yashagan mutafakkirlarning dunyoqarashiga samarali ta'sir ko`rsatdi.

Jaxon ilm-fani taraqqiyotiga katta ulush qo`shgan buyuk falakiyotchi olim va davlat arbobi Muhammad Tarag`ay Ulug`bek (1394-1449) matematika va falakiyot sohasida barkamol ijod qilgan. Uning otasi Amir Temurning o`g`li SHohruh Mirzo edi. Ulug`bek yoshligidan ilm bilan qiziqdi. Unga taniqli olimlar G`ozizoda Rumiy va G`iyosiddin Jamshid ustozlik qildilar. U garchi davlat arbobi bo`lsa ham, madaniyat va ilm-fan ravnaqiga ko`p kuchini sarfladi, matematika, astronomiya, geometriya, tarix, kimyo va boshqa sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Olimning dunyoqarashida Aflotun, Arastu, Ptolemey, Muhammad Xorazmiy, al-Farg`oniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqalarning asarlari muhim o`rin egalladi.

Ulug`bekning ulkan ishlaridan biri uning Samarqandda, Ko`hak tepaligida, Obi

Rahmat arig`ining bo`yida rasadxona barpo etganligidir. Ushbu rasadxona qurilishi 1424 yilda boshlanib, 1429 yilda tugallandi. Olimning eng muhim asari "Ziji jadidi Ko`ragoniy" deb ataladi. Undan tashqari, Ulug`bek matematikaga oid "Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola", astronomiyaga bag`ishlangan "Ri-solayi Ulug`bek" va tarixga oid "To`rt ulus tarixi" kitoblarini yozdi. Ulug`bek mantiq ilmi, fiqhshunoslik, musiqa va adabiyot nazariyasini yaxshi bilar edi. Olimning "Ziji" ikki qism, muqaddima va 1118 yulduzning o`rni hamda holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.

Ulug`bek sayyoralarni o`rganishda turli uslublarni qo`llaydi, bular kuzatish, eksperiment, jonli mushohada, isbotlash, qiyoslash, induktsiya, deduktsiya va boshqalardir. SHuni aytish lozimki, Ulug`bek kuzatish va o`lchash asboblari takomillashmagan bo`lsa ham, quyosh va oy harakatlarini, ularning tutilishi va vaqtlarini to`g`ri hisoblab chiqdi. U o`z atrofiga qobiliyatli olimlarni to`pladi, o`zga mamlakatlardan iqtidorli olimlarni taklif etdi.

Ulug`bekning "Ziji jadidi Ko`ragoniy" asari dunyo ahamiyatiga molik. Uning birinchi maqolasi "Tarix (xronologiya)ning ma’rifati" deb nomlanib, eralar va taqvim masalalari to`g`risidadir. Ikkinchi maqolada matematika va sferik astronomiya haqida so`z ketadi. Uchinchi maqola to`liq astronomiya fani muammolariga bag`ishlangan bo`lib, unda samoviy jismlarning harakatlari haqida bahs yuritiladi. Ulug`bek boshchiligida tuzilgan taqvim o`rta asrlarning eng mukammal jadvali hisoblanadi. Ulug`bekning mazkur asari o`rta asrlardayoq ingliz, polyak, frantsuz va boshqa tillarga tarjima qilingan.

O`tmishning atoqli olimlaridan biri G`iyosiddin Jamshid al-Koshiy (1430 yilda vafot etgan) bo`lib, u yirik riyoziyotchi va falakiyotchidir. Uning asarlari "Miftohul-hisob" ("Hisob kalidi"), "Risola al-muhitiya" ("Doira haqida risola") va boshqalardir. XVI asrdan boshlab Evropa mamlakatlarida uning kashfiyotidan foydalana boshladilar.

Tarixda Ali Qushchi nomi bilan mashhur bo`lgan Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi (1403 - 1474) Ulug`bekning shogirdidir. U ilmiy ishlarini falakiyot va riyoziyot sohasida olib bordi. "Arifmetika ilmi haqidarisola", "Mantiqrisolasi", "Astronomiyaga oid risola" kabi 23 dan ortiq risolalar muallifidir.

Ali Qushchi "Astronomiyaga oid risola"sida Oy va Quyosh tutilishi qonuniyatlarini ilmiy asoslab berdi. Olim tabiat sirlari va uning qonuniyatlarini o`rgandi, jismlar harakati, ularning oddiydan murakkabga o`tishi to`g`risida o`z fikrini ilgari surdi. Mazkur risola 1968 yilda o`zbek tiliga o`girilib, akademik I. Mo`minov tomonidan chop etilgan.

Umuman shuni ta’kidlash lozimki, Ulug`bek va u asos solgan astronomiya maktabi koinotdagi hodisalarni o`rganishda muhim rol o`ynadi, o`sha vaqtgacha fanga ma’lum bo`lmagan hodisalarni idrok qilib, inson aql-zakovatining bilish imkoniyatlarini kengaytirdi, keyingi davrlarda yashagan olimlarga samarali ta’sir ko`rsatdi. Ulug`bekning astronomiya sohasidagi g`oyalarini Evropada XVI asrdan boshlab Kopernik, Galiley va boshqalar rivojlantirdilar.

Ulug`bek islom diniga chuqur e’tiqod qo`ygan, ilohiyot rivojiga munosib qissa qo`shgan, maktab va madrasalar qurishga e’tibor bergan jahonga mashhur olim edi. Lekin sobiq sho`rolar davrida uning tabiiy-ilmiy qarashlari islom diniga qarshi qaratildi, hatto uni ateist darajasiga ko`tarishga urinishlar ham bo`ldi. "Ulug`bek Mirzo - deb ta’kidlagan edi Alisher Navoiy, - donishmand podshoh edi. Kamoloti bag`oyat ko`p erdi".

XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Hirot madaniy va ilmiy markazga aylandi. Ayniqsa, Temuriylardan Husayn Boyqaro hukmronligi davrida bu erda ilm-fan, adabiyot sohasida yuksalish yuz berdi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi jahonga mashhur mutafakkirlar etishib chikdi.

O`rta asr mumtoz adabiyotining vakili, ulug` shoir va mutafakkir Abdurahmon Jomiy (1414-1492) dir. Jomiyni Navoiy ustoz deb hisoblar edi. Uning qalamiga mansub asarlar "Nafahot uls", "Hujjat ul-asror", "Musiqa haqida risola", "Naqshi fusus". "Vohid atamasi haqida risola", "Haj qilish yo`llari xdqida pisola". "Baxrriston" va boshqalardir.

Jomiyning eng yirik asari "Haft avrang" bo`lib, unga "Tuhfat ul-ahror", "Suhbat ul-abror", "YUsuf va Zulayho", "Suhbat ul-asror", "Layli va Majnun", "Salamon va Absol", "Xiradno-mayi Iskandariy" dostonlari kiradi.

Barcha musulmon mutafakkirlari kabi Jomiy ham Xudo abadiy, mutlaq va dunyodagi hamma narsalarning sababchisidir, Xudo mavjud bo`lganda, borliq yo`q edi, dunyo o`zining boshlang`ichini Ollohdan olgan, demak, Xudo hamma narsaning yaratuvchisidir, deb xisoblaydi. Jomiyning falsafiy qarashlari uning insog`sharvarlik g`oyalari bilan chambarchas bog`lanib ketadi. Mutafakkirningko`pgina asarla-rida inson, adolat, muhabbat, ezgulik g`oyalari tasvirlanadi.

Jomiy naqshbandiylik ta’limotiga e’tiqod qilib, uning nazariy va amaliy jixatlarini rivojlantiradi. So`fiy, uningcha, halol va pok bo`lishi, biror kasb-hunarni egallashi, qanoatli va olijanob bo`lishi, tamagirlikdan uzoq yurishi, nafsini jilovlashi lozim. Jomiy xudoni "go`zal ma’shuqa" sifatidatasvirlab, insonning maqsadi uning vasliga etishdir, deydi.

Jomiy o`zining ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarida mukammal jamiyat, adolatli shoh to`g`risidagi orzu-umidlarini ilgari surdi, tenglik, erkinlik, insof va diyokatga asoslangan davlat tuzumi to`g`risida so`z yuritdi. "Haft avrang"ga kirgan "YUsuf va Zulayho", "Layli va Majnun". "Xiradnomayi Iskandariy" dostonlarida ishq va muhabbat do`stlik va birodarlik, mexr-shafqat, o`zaro yordam, bilimdonlik va boshqa insoniy qadriyatlarni tasvirladi.

Jomiy adabiy asarlardan tashqari din va tasavvuf ta’limoti masalalariga bag`ishlangan "Haj qilish yo`llari haqida risola", "Zikr shartlari haqida risola", "SHavohid an-nubuvvat" ("Payg`ambarlikning dalillari") kabi qator asarlar muallifidir. Jo-miyning falsafasi Ibn al-Arabiy ta’limoti ta’sirida shakllangan bo`lib, u vahdat ul-vujud falsafasini naqshbandiylik ta’limotiga moslashtirgan. Aytish mumkinki, Jomiy din va falsafani uyg`unlashirish, shu yo`l orqali falsafiy fikrlar rivojlanishiga zamin yaratishda xizmatlari katta. Jomiyning "Nafohot ul-uns" asari 616 mashhur so`fiylar hayotiga bag`ishlangan bo`lib, bu asar so`fiylarning falsafiy-irfoniy va axloqiy qarashlarini o`rganishda muxim manba bo`lib xizmat qiladi.

Jahon madaniyati ravnaqiga ulkan hissa qo`shgan siymolardan biri, ulug` o`zbek shoir va mutafakkiri Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (1441- 1501)dir. U Temuriylar xonadoniga taalluqli bo`lib, otasi G`iyosiddin kichkina SHahrisabzdan Qobulga borib qolgan barlos beklaridan edi. Navoiy Hirotda Husayn Boyqaro saroyida turli lavozimlarda ishladi, 1472 yildan boshlab vazir etib tayinlandi. SHoir mamlakat obodonchiligi, ravnaqi va osoyishtaligi yo`lida ko`p ishlar qildi. Maktab, madrasa, masjid va xonaqolar, ko`prik, rabotlar, shifoxonalar qurdirdi, muhtoj va kambag`allarga yordam berdi, olimu shoirlarga homiylik qildi.

Navoiy ijodi boy bo`lib, asarlari turli mavzularga bag`ishlangan. "Hamsa", ya’ni "Hayratul abror", "Farhod va SHirin", "Layli va Majnun", "Sab’ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlari hamda "Lison ut-tayr", "Majolisun nafois", "Mahbubul qulub", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Mezon ul-avzon", "Muhokamatul-lug`atayn" va boshqalar. Bulardan tashqari, Navoiy "Xazoyinul ma-oniy" ("Ma’nolar xazinasi") nomli she’riy to`plam yaratgan bo`lib, u 45 ming misraga yaqin g`azal, ruboiy, qit’a va fardlardan tashkil topgan.

Navoiyning ijodi falsafiy fikrlarga boy bo`lib, unda jamiyat va inson munosabati, insonning baxt-saodati, komil inson va fozil jamoa, ta’lim-tarbiya haqidagi fikr-o`ylari o`z ifodasini topgan.

SHoir ijtimoiy-falsafiy qarashlarining muhim xususiyati shundan iboratki, unda falsafiy fikrlar majoziy tarzda, badiiy o`xshatish va ramziy iboralar yordamida, zohiriy va botiniy ma’no-larda bayon qilinadi.

O`zining qarashlarida Navoiy Xudo, tabiat va insonni umumiy birlikda ko`radi. Inson tabiatning gultoji, mavjudotlar ichida eng aziz va mukarramdir. U boshqa mavjudotlardan akl va bilim jihatidan yuqori turadi. Inson sezgilar orqali narsa va ashyolar, hodisalarning tashqi tomonini idrok qiladi. Lekin sezgilar orqali hosil bo`lgan bilim mukammal emas. Navoiy tabiat sirlarini insoniy tafakkur anglab olishga qodir deb hisoblaydi. Uning fikricha, borliq doimiy o`zgarishda, o`zaro aloqada bo`lib. tabiat doimo rivojlanishda va bir-biri bilan sababiy bog`langandir.

Navoiy ijodida tarannum etilgan ishq o`zaro bog`liq hamda bir-birini to`ldiruvchi majoziy ishq va haqiqiy ishqdan iboratdir. Ishq insonni axloqiy poklanishi, haqiqatni anglashi, dunyoga xudo nuri jilvasi natijasida xosil bo`lgan go`zallik sifatida qarashga xizmat qiladi. Navoiyning ijodiy merosida insonparvarlik va komil inson g`oyasi muhim o`rin egallaydi. SHoirning "Xamsa"siga kirgan "Farhod va SHirin", "Layli va Majnun", "Saddi Iskan-dariy" kabi dostonlariningasosiy qaxramonlari Iskandar, Far-hod, SHirin, Layli, Majnun va boshqalar komil inson sifatida talqin qilinadi. Ular mehnatsevar, o`z kasbining ustasi, doimo o`zgalarga yordam beruvchi, shijoatkor va jasur, aqlli va bilimdon, saxovatli, to`g`ri so`z, sofdil, kamtar, o`zida xulq-odob, adolat, sabr-toqat, nafsni tiyish, olijanoblik kabi fazilatlarni mujassamlashtirgan shaxslardir.

Navoiy xalq orasida insonparvarlik g`oyalarini yoydi, turli millat va elatlar o`rtasidagi do`stlikni ulug`ladi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqalar singari mukammal jamiyat haqida fikr yuritdi. Xalqni farovonlikka, baxt-saodatga eltuvchi, hamma teng, zulm-istibdoddan xoli bo`lgan davlat tuzumini orzu qildi. U ilm-fan egallashni afzal bildi, mol-mulkka, boylikka hirs qo`yishni, tamagirlikni qoraladi. Navoiyniig yaxshilik, ezgulik, muhabbat, do`stlkk, adolat, tinchlik, osoyishtalik va boshqa go`zal fazilatlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar to`g`risidagi qimmatli fikrlari respublikamiz mustaqillikka erishgandan so`ng ham barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qilmokda.

O`sha davrning ko`zga ko`ringan mutafakkirlaridan biri Kamoladdin Husayn Voiz Koshifiy (taxm. 1440 – 1450 - 1505 yillarda yashagan) bo`lib, O`rta Osiyo va Xurosonda axloq falsafasi rivojiga hissa qo`shgan.

Koshifiy Sabzavor shaxrida tavallud topadi, keyinchalik Abdurahmon Jomiyning taklifi bilan Hirotga ko`chib keladi. U qolgan umrini Hirotda o`tkazadi va shu erda vafot etadi. Koshifiy katta olim va mudarris bo`lib etishadi, butun umrini ilm-fan hamda nasru nazm ravnaqiga bag`ishlaydi. U Navoiy va Jomiy bilan do`stona aloqada

bo`ladi. "Mavlono Husayn Voiz Koshifiy taxallus qilur, sabzavorlikdur. Yigirma yilga yaqin borkim, shahardadur va mavlono zufundun va rangin va purkor voqe’ bo`lubtur. Oz fan bo`lg`aykim, daxli bo`lmag`ay. Xususan, va’z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysida mashhur ishlari bor..."- degan edi Navoiy u haqda.

Voiz Koshifiy ilmning ko`p sohalarida ijod qilgan. U voizlik san’atini puxta egallagan, insho, ilohiyot, falakiyot, adabiyot, falsafa. axloq va pedagog`ika sohalarida faoliyat yuritgan. Olimning muhim risolalari "Axloqi muhsiniy". "Futuvvatnomayi sultoniy", "Anvari Suhayli", "Maxzanul-insho", "Risolayi Hotamiya" va boshqalardir. Ushbu asarlarda mo`tafakkir davlatni oqilona boshqarish, insonga go`zal xulq-odob qoidalarini singdirish, ilm-fan va kasb-hunarni egallash, tijoratchi va savdogarlar xulq-odobi, umuman ta’lim-tarbiya haqida qimmatli fikrlarni ilgari suradi. Mutafakkir adolat masalasiga to`xtalar ekan, uni kishilar o`rtasidagi tenglikni anglatuvchi tushuncha sifatida talqin qiladi. Bu tushunchaning axloqiy jihati shundan iboratki, bir toifa ikkinchi toifaga zug`um o`tkazmasligi, kishilar o`zaro munosabatda bir-birining izzat-nafsiga tegmasliklari lozim. Adolat siyosiy tushuncha sifatida davlatni oqilona boshqarishda, hukmdorlarning faoliyatiga baho berishda namoyon bo`ladi. U adolatni mamlakat barqarorligining muhim sharti sifatida baholaydi. Olim o`z asarlarida hukmronlardan xalqqa g`amxo`rlik qilishni, uni haqsizlik va o`zboshimchalikdan muhofaza qilishni talab qiladi. Uning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g`oyalari hozir ham o`z tarbiyaviy qimmatini yo`qotmay kelmokda.

XV asrning oxiridan boshlab Temuriylar davlati sekin-asta inqirozga yuz tuta boshladi. Bunga temuriy shahzodalarning o`zaro urush-janjallari, nizolari, tarqoqlikning kuchayishi, taxt uchun kurashlar natijasida mamlakatning bo`linib ketishi, iqtisodning tushkunlikkauchrashi sabab bo`ldi. Natijada Movarounnahr SHayboniyxon tomonidan bosib olindi.

Temur avlodidan bo`lgan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483—1530) o`sha davrning eng ma’rifatli podsholaridan biri edi. Andijonda Umarshayx Mirzo xonadonida tug`ilgan Bobur keyinchalik Hindistonda ulkan saltanatga asos soldi. Bobur davrida hind diyori gullab-yashnadi, undagi madaniyat yuksak darajaga ko`tarildi. Hindistonning XX asrdagi eng atoqli kishilari Mahatma Gandi va Javoharla’l Neru ham Bobur va boburiylar - SHohJahon, Avrangzeb va Akbar kabi temuriyzodalarga juda katta baho berganlar.

Ichki kelishmovchiliklar natijasida o`z yurtini tashlab ketishga majbur bo`lgan Bobur avval Qobulda, so`ngra esa 1526 yilgi Panipat jangida Ibrohim Lo`di ustidan g`alaba qozonib, Hindis-tonda o`z hukmronligini o`rnatdi. "Boburiylar sulolasi" Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qilib, temuriylar davlati va madaniyatining davomchisi sifatida mashhur bo`ldi.

Boburning xizmati shundaki, u Hindistonni markazlashgan davlatga aylantirdi, mamlakatda tinchlik o`rnatdi, obodonlashtirish va qurilish ishlarini rivojlantirdi. karvonsaroylar, me’moriy yodgorliklar, bog`chalar, kutubxonalar barpo qildi, madaniyat san’-at, adabiyot va ilm-fanni yuksaltirdi. Bobur ilm-fan, san’atga katta qiziqish bilan qaragan, yuksak aql egasi, qomusiy bilimga ega bo`lgan davlat arbobi, olim va shoirdir.

Boburiylarning ko`pchiligi ma’rifatchilik bilan mashg`ul bo`ldilar, olimu fuzalolar bilan maslahatlashib turdilar. Ularning yana bir xizmati islom va budda diniga e’tiqod qiluvchi musulmon va hindularni kelishtirishga, ahil yashashga chaqirish-dan iborat bo`ldi.

Boburning mashxur tarixiy asari "Boburnoma"dir. Bulardan tashkari, U huquqshunoslikka oid "Mubayyin", aruz ilmiga oid "Mufassal", musiqa bo`yicha "Musiqiy", harbiy ishlarga oid "Harb ishi" risolalarini yozgan. "Boburnoma" o`shadavrdagi Markaziy Osiyo, Xindiston, Afg`oniston, Eronning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotini, savdo munosabatlari, jug`rofiyasi, hayvonot va nabotot ochamini, iqlimi, qabila va elatlarning urf-odatlari, marosimlari, turmush tarzi va marosimlarini aks ettirgan asardir.

Bobur o`zining lirik she'rlarida ishq, muhabbat, Vatan sog`inchi mehr, vafo, insoniylik, do`stlik, yaxshilik va mehr-oqibatni kuylgdi.

Javoharla'l Neru Boburning Hindistondagi faoliyatiga katta baho bergan edi. Neru Boburning dilbar shaxs ekanligi, mard va tadbirkorligini, san'atni sevganini va umuman, Hindiston uchun ko`p ish qilganligini ta'kidlagan edi. Bobur va boburiylarning siyosiy, madaniy faoliyatlari Hindiston va O`zbekiston o`rtasidagi do`stlik rishtalarini mustahkamlashda hozir ham muhim rol o`ynamoqda.

SHunday qilib, XIV-XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda madaniy yuksalish yuz berdi. Buni olimlar Renessans davri ham deb atamoqdalar. Ba'zi olimlar esa bu atamaning SHarq mamlakatlariga to`g`ri kelmasligi to`g`risida o`z fikrlarini aytmokdalar. Nima bo`lganda ham Evropada XV-XVI asrlardagi ko`tarinkilik, Renessansning muhim xususiyatlari Markaziy Osiyoda ro`y bergan madaniy yuksalish bir-biriga ko`p tomonlari bilan o`xshab ketadi. Bular orasida mushtarakliklar ko`p.

XIV-XV asrlar moddiy va ma'naviy yuksalishiniig muhim xususiyati yana shundan iboratki, bu davrda ishlab chiqarish o`sdi, ichki va tashqi savdo, hunarmandchilik, dexqonchilik rivojlandi, xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik va madaniy aloqalar o`rna-tildi. inson akl-zakovati va uning eng yaxshi fazilatlariga e'tibor kuchaydi, ilm-fan va san'at rivoj topdi, qomusiy olimlar etishib chiqdi, madaniy merosni o`rganishga qiziqish ortdi. Temur va temuriylar davridagi madaniy yuksalish hozir xam o`z ahamiyatini yo`qotgani yo`q. Ular mustaqil davlatimizni mustahkamlashda, madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda, milliy g`oya va mafkurani shakllantirishda ma'naviy ozuqa va-zifasini o`tamoqda.

4. XVI asrdan to XX asr boshlarigacha O`zbekistonda ijtimoiy – falsafiy tafakkur

XVI asrdan boshlab Movarounnahrda o`zaro urushlar, nizolar avjga chiqdi, Temuriylar davlati inqirozga yuz tutib, mayda davlatlarga bo`linib ketdi. Natijada SHayboniylar davlati tuzildi, 1510 yilda SHayboniyxon Ismoil Safaviy lashkarlari tomonidan o`ldirilganidan so`ng markazlashgan davlat inqirozga yuz tutdi.

SHayboniylardan Abdullaxon va uning o`g`li Abdulmo`min vafotidan so`ng, XVI asr oxirida bu davlat barham topib, hokimiyat ashtarxoniylar sulolasiga o`tdi. Imomqulixon (1611 —1642) davrida davlat birmuncha mustahkamlangan bo`lsada, keyingi davrlarda taxt uchun kurashlar davom etdi. Bu esa iqtisod, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at ravnaqiga o`z ta'sirini ko`rsatdi. Ayniqsa, tabiiy-ilmiy fanlar rivoji zaiflashdi. dunyoviy bilimda tanazzul ro`y berdi.

XVI-XVII asrlarda falsafiy va axloqiy fikr sohasida Poshoxo`ja, Mirzajon ash-SHeroziy al-Bog`naviy, ibn Muhammadjon YUsuf al-Krrabog`iy, Muhammad SHarif

al-Buxoriy va boshqalarning asarlarini ko`rsatish mumkin. Poshoxo`ja (1480-1547) Niso shaxrida tug`ilib, Buxoroda vafot etadi. U "Miftoh ul-adl" ("Adolat kaliti") va "Gulzor" hikoyalar to`plamini yaratgan bo`lib, ularda insof, adolat, diyonat, saxovat, donolik va aql-zakovat, rostgo`ylik, ruhiy komillik, halollik, mehr-oqibat, kamtarlik va boshqa ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tahlil qiladi, salbiy illatlar, insoniylikka zid xatti-harakatlarni qoralaydi. Uning fikricha, inson o`z millati. boyligi, husni, mansabi bilan emas, balki odamiyligi, to`g`riligi, insonparvarligi, iymoni, vijdoni, diyonati bilan boshqalardan afzalroq bo`la oladi.

XVII asrning mashhur mutafakkiri, faylasufi YUsuf al-Qorabog`iy (1563-1647) asli Ozarbayjondan bo`lib, keyinchalik Buxoroga keladi. U yoshligidan fikx, falsafa, tasavvuf bilan shug`ullanadi. Uning muhim risolalari "Risolayi botiniya", "Risolayi xilva-tiya", "Fi ta'rifi ilm" va boshqalardir. Bulardan tashqari u Davoniy, Taftazoniy, SHahobiddin Suxravardiylarning kitoblariga sharhlar bitgan.

Qorabog`iy o`z salaflari singari dunyonk, butun olamni bir-biri bilan chambarchas bog`liq bo`lgan yagona jism deb biladi. Uningcha, Olam yagona jism. undagi barcha mavjud narsalar uning a'zolaridir. Olamdagi butun narsalarni Xudo yaratgan, u birinchi sababdir. Borlikdagi hamma narsalar sabab-oqibat orqali bir-biri bilan bog`langan. SHuningdek, olim harakat va uning turlari, to`rt unsur haqida ham o`z fikrini bildiradi. Uningcha, to`rt unsur borliqning` asosini tashkil etib, ular dialektik birlikda namoyon bo`ladi. Ruh ham moddiy asosga ega bo`lib, boshqa tana a'zolari kabi muayyan vazifaga ega. Qorabog`iy SHarq falsafasida keng tarqalgan "tanosux" nazariyasi (reinkarnatsiya), ya'ni ruhning bir tanadan ikkinchisiga ko`chib yurishi to`g`risidagi ta'limotga qarshi chiqadi. Uningcha, ruh yaratilgan bo`lgani sababli moddaga muhtojdir. Ruh moddasi jism hisoblanadi va uning mahv bo`lishi jismning yo`q bo`lishi bilan bog`likdir.

Bu davrda Boborahim Mashrab, So`fi Olloyor, Turdi Farog`iy va boshqalarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari muhim o`rinni egalladi. Bular orasida Mashrabning hurfikrlik ruhi bilan sug`orilgan ijtimoiy-falsafiy va axloqiy fikrlari e'tiborga sazovordir.

Boborahim Mashrab (1640 - 1711) Namanganda tavallud topadi. U Mulla Bozor Oxunddan diniy-tasavvufiy ta'limot sirlarini o`rganadi. Keyinchalik esa, qoshg`arlik Ofoq Xojaga muridlik qiladi, 1675 yilda Namanganga qaytadi. Mashrab o`zining keyingi xayotida YAqin va O`rta SHarq mamlakatlarining ko`p joylarida, xususan, Toshkent, Turkiston, Samarqand, Buxoro, Andijon, Xo`jand, Badaxshon va boshqa erlarda bo`ladi. U umrining oxirida Balxda bo`lib, Qunduzda Mahmud Qatag`on tomonidan qatl qilinadi.

Mashrab g`azal va ruboiylarida ilohiy sevgi, ya'ni Ollohga muhabbatni tasvirlaydi. Mashrab tasavvufning qalandarlik tariqatini tanlaydi, xalqni ezgulikka, insof va diyonatga, to`g`rilikka chaqiradi. Umuman olganda, shoir islom aqidalarini inkor etmagani holda, uning ba'zi qoidalari muqaddasligiga gumonsirab qaraydi. Bular ayniqsa, Mashrabning ro`za, jannat, do`zax, namoz, Makka, Ka'ba to`g`risidagi she'rlarida namoyon bo`ladi.

Mashrabning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarida hukmdorlarni insofga, xalqqa yordam berishga da'vat etish yotadi. Insoniylik, pok muhabbatni kuylash, kishilarni do`stlikka, vafodorlikka chaqirish, takabburlik va yolg`on so`zlashdan saqlanish, nasl-nasabga ishonmaslik, imon-e'tiqodini sotmaslik, ota-onani hurmat

qilish kabi g`oyalar Mashrab dunyoqarashining mag`zini tashkil qiladi.

Mashrab borliqning asosi, hayotning mazmuni, insonni Xudoga bog`lovchi asosiy vosita deb ishqni tushunadi. Uningcha, Xudoning dunyoni yaratishiga asosiy sabab bo`lg`an narsa muhabbatdir. SHu sababdan, inson xirsu ochko`zlik, hayvoniy sifatlar, manmanlik, xudbinlik kabi xislatlardan poklanish uchun o`z asli - ilohiy ishqqa yuz tutishi lozim. Aks holda, u insoniyligini yo`qotib. tubanlashib ketishi muqarrar.

Mashrab murakkab, qarama-qarshiliklarga boy davrda yashadi. Bu hol uning dunyoqarashida ham bilinib turadi. U, bir tarafdan, adolatli jamiyat, insonning go`zal fazilatlari haqida fikr yuritsa, ikkinchi tomondan, yaxshi jamiyatga erishib bo`lmasligi haqida gapirib, umidsizlikka, tarkidunyochilikka beriladi. Bulardan qat'i nazar, uning ajoyib she'rlari va undagi g`oyalar hozir ham o`z qimmatini yo`qotgani yo`q.

O`zining ijtimoiy-falsafiy fikrlari bilan Markaziy Osiyo madaniyatiga katta ta'sir ko`rsatgan shoir va faylasuf Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1721)dir. Mirzo Bedil ilmning ko`p sohalari, xususan falsafa, adabiyot, san'atshunoslik bo`yicha ijod qil-di. U hind, arab, eron, ko`plab Osiyo xalqlarining ilmiy merosini chuqur o`zlashtirgan etuk olimdir. Bulardan tashqari, Mirzo Bedil Sa'diy, Attor, Jomiy, Hofiz, Navoiylarning she'riyati, dunyoqarashini puxta bilgan.

Uning muhim asarlari "CHor unsur", "Irfon", "Ruboiyot", "G`azaliyot" va boshqalardir. Vahdati-vujud oqimi tarafdorlari tabiatning abadiyligini, materiya va ruhning birligini tan olib, Xudoni olamning o`zida deb biladilar. Mirzo Bedil ana shu ta'limot tarafdori edi. Bedil o`zining "CHor unsur", "Ir-fon" asarlarida hamma narsalarning asosida havo yotadi, deb hisobladi.

Uningcha, havo abadiy, mutlaq, harakatchan, o`zgaruvchan, rangsiz va engildir. U yuqori va quyi tomon harakat qiladi. U ruxlar to`g`risida so`z yuritib, nozik bug`-buxori latif havodan kelib chiqib, tabiiy ruh, nabotot ruhi, inson ruhi, hayvoniy ruhni paydo qiladi, deydi. Xullas, u tabiatni ruxlantiradi, ruxlar moddiy dunyo-dan tashqarida emasligini alohida ta'kidlaydi.

Mirzo Bedil bilish haqida fikr yuritar ekan, bilishning bi-rinchi bosqichi his-tuyg`ular bilan bog`liqligini, bilishda inson tafakkurining qudrati kuchli ekanligini yozadi. Bedil inson o`z qilmishlari, xatti-xarakatida erkindir, degan qoidani hayotiy misollar orqali asoslab berishga intiladi, mehnat va hunarni, ilm va kasb egallashni ulug`laydi.

Ma'lumki, tanosux - ruhning ko`chib yurishiga ishonish o`sha davrda Hindistonda keng tarqalgan edi. "Hindlarning tasavvuricha, - deydi Bedil, - ruh butunlay mustaqil holatda mavjuddir va har bir narsaga, jismlarga o`tish - ko`chish qobiliyatiga ega". SHuni alohida ta'kidlash joizki, Bedil tanosux nazariyasining haqiqiy mohiyatini ochib, mazkur nazariya haqiqatga muvofiq kelmasligini falsafiy jihatdan asoslab bergan.

Mirzo Bedil ijtimoiy-siyosiy qarashlarida jamiyat, inson, davlat va uning kelib chiqishi, uni boshqarish yo`llari, dehqonchilik va uning foydasi haqida fikr yuritdi. Ayniqsa, u insonni yuksak darajaga ko`tardi, uning irqi, dini va millatidan qat'i nazar hurmatga sazovor ekanligini uqtirdi. U odamlardagi vatanparvarlik, mehnatsevarlik, vafodorlik, saxiylik, samimiylikni qadrladi, dangasalik, takabburlik, ochko`zlik, yolg`onchilik, makkorlikni qoraladi.

Xullas, Mirzo Bedilning insonparvarlik ruhi bilan sug`orilgan ijtimoiy va falsafiy g`oyalari o`sha davrda muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Olim o`zining falsafiy qarashlari

bilan O`zbekiston va Xindiston o`rtasidagi madaniy, ilmiy hamda do`stlik aloqalarini mustahkamlashga katta hissa qo`shdi.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida Markaziy Osiyoda uch davlat - Qo`qon va Xiva xonligi hamda Buxoro amirligi paydo bo`ldi. Ular davrida ilm-fan, adabiyot va san'atni rivojlantirgan ba'zi mutafakkirlar etishib chiqdi. Qo`qon xonligi hududida yashab ijod etgan shoiralar Nodira (1792-1843), Uvaysiy (1789-1850), Dilshod Barno (1800-1906) va boshqalar ijtimoiy-falsafiy fikr rivojiga munosib hissa qo`shdilar.

Bular orasida Nodira (Mohlaroyim) alohida o`rinni egallaydi. SHoira o`n ming misradan ortiq g`azallarning muallifi bo`lib, ularda zamonasining muhim muammolarini ko`tarib chiqadi. Nodira mamlakatni boshqarishda faollik ko`rsatadi, davlatni tadbir va adolat asosida boshqarishga intiladi, bu borada o`z o`g`liga ko`makdosh bo`ladi, unga xomiylik qiladi. SHoira ijodida inson va uning fazilatlarini kuylash asosiy o`rinni egallaydi: sevgi, muhabbat, himmat, sabr-qanoat, hayo kabi insoniy qadriyatlar tahlil qilinadi. U o`z ijodida dunyoviylik bilan bir qatorda tasavvufning naqshbandiya yo`nalishiga asoslangan bir butunlik bilak insonningjamiyat va tabiatga munosabatini ham, ilohiy muhabbat yo`lidagi ruhiy dunyosini ham juda go`zal, jonli misralarda ifodalab beradi.

Mustakillik sharofati bilan Nodira va boshqa shoiralarning ijodiy merosi yana ham chuqur o`rganila boshlandi, she'riy to`plamlari chop etilib, xalqning ma'naviy mulkiga aylandi.

Bu davrda Xorazmda Komil Xorazmiy, Ogahiy va Munis kabi shoirlar ijod qildilar.

Ogahiy - Muhammadrizo Erniyozbek o`g`li 1809 yilda G`iyot qishlog`ida tug`ilib, 1874 yilda vafot etgan. SHoirning muhim asarlari "Gulshani davlat", Riyoz ud-davla", "Jome' ul voqeoti Sultoni". "Zubdat ut-tavorix", "SHohidi iqbol". "Bayozi mutafarriqai forsiy", "Firdavs ul-iqbol" va boshqalardir. Bulardan tashqari, Ogahiy, Sa'diy SHeroziy, Nizomiy, Kaykovus, Jomiy va Koshifiyning badiiy, tarixiy, falsafiy, axloqiy-didaktik asarlarini o`zbek tiliga tarjima qilgan.

Ogahiy o`zining "Qasidai nasihat" nomli asari va boshqalarda Davlatni boshqarish yo`llarini ko`rsatadi, Xiva xoni Feruzga mam-lakatni odilona boshqarishning yo`l-yo`riqlarini aytadi. Ogahiy o`zining ijtimoiy qarashlarida insonparvarlik g`oyalarini ilgari surdi, odamlarni yaxshilik va ezgulikka, xayrli ishlar bilan shug`ullanishga, ma'rifatparvarlikka da'vat etdi. Uning tarixiy risolalari haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Mutafakkir Xiva xonligining 1813—1873 yillar tarixini yozib qoldirgan. Hozirgi vaqtda, tariximizni xolisona yaratishga intilish kuchaygan bir sharoitda, Ogahiy asarlarining ahamiyati oshib bormoqda.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistoi rus chorizmi tomonidan bosib olindi. O`tgan asrning 60-70 yillarida xalqning qatgiq qarshiligiga qaramay, Rusiya askarlari zo`ravonlik, qurol ishlatish yo`li bilan Turkiston shahar va qishloklarini ishg`ol qildi-lar. Bundan asosiy maqsad bu o`lkani xomashyo bazasiga aylantirish, mahalliy boyliklarni talon-taroj qilish, ularni xorijiy mam-lakatlarga sotiig va o`z sanoatini rivojlantirishda foydalanish edi. Rus burjuaziyasi erli amaldorlar bilan kelishib ish yuritdi. Bu esa xalqning ikki tomonlama ezilishiga olib keldi. Rus sanoatining kirib kelishi, ko`plab rus aholisining Turkistonga ko`chib kelishi, aholini "ruslashtirish" siyosati - bularning hammasi Evropa va rus madaniyatining tarqalishiga sabab bo`ldi.

Pochta, telegraf, telefon, elektr, temir yo`llar qurilishi yo`lga qo`yila boshlangani, banklar ochilgani, aslida, erli xalqni ezish, uni o`zligidan judo qilish orqali amalga oshirildi.

Erli xalqlar orasida mustamlakachilikka qarshi ma’rifatchilik g`oyalari tarqala boshladi, yangi ta’lim-tarbiya shoxobchalari, maktab, maorif, madaniy targ`ibot, jadidchilik harakati rivoj topdi. Mana shunday sharoitda Turkistonda ko`plab ma’rifatchilar etishib chikdi.

Ma’rifatparvarlik mafkurasining ko`zga ko`ringan vakillaridan biri Ahmad Donish (1827-1897) bo`lib, u falsafa, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, tarix sohasida asarlar yozgan. U mamlakatni odilona boshqarish uchun islohot zarurligini uqtiradi. Davlat, olimning nuqtai nazaricha, xalqning manfaatini himoya qilishi, hukmdor esa bilimdon, aqlli bo`lib, o`z atrofidagilar bilan kengashib davlatni idora qilishi lozim. Bunday fikrlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar olimning "Navodirul-vaqoe" va boshqa risolalarida o`z ifodasini topgan. Ahmad Donish o`z ijtimoiy-siyosiy qarashlarini real faktlar o`z davrining hukmdorlari faoliyatidan olingan tarixiy dalillar asosida bayon qilgan. "Risola dar ilmi kurra" ("Globus haqida risola"), "Manozir al-kavo-kib" ("YUlduzlarni kuzatish") kabi asarlarida o`zining astronomiya va geografiya fanlariga oid qarashlarini yoritib berishga harakat qilgan. "Tarixiy risola" asarida Buxoro amirligidagi inqirozning sabablarini taxlil qilib, jamiyat taraqqiyotining asosiy shartini tadrijiy, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan islohotlarni hayotga joriy qilish ekanligini ilmiy-nazariy jixatdan asoslab berishga harakat qiladi. Donishmandning bu fikri hamon o`z axamiyatini yo`qotgan emas. Oliining asarlari o`z tadqiqotchilarini kutmoqda.

XIX asrning ikkinchi yarmida ijod etgan qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Berdaq (1827-1900) "Omongeldi", "Xalq uchun", "Ahmoq podiyu", "YAxshiroq", "Bo`lgan emas", "Ernazarbiy" kabi asarlarning muallifidir. Ushbu asarlarda mutafakkir qoraqalpoq xalqining turmush tarzini, o`sha zamondagi hayotini mohirona tasvirlaydi. Berdaq asar-larida axloq, xulq-odob, nafosat va go`zallik, vatanparvarlik, insoiparvarlik, tenglik, qaxramonlik va mardlik, mustaqillik, haqiqat uchun kurash kabi milliy, umuminsoniy qadriyatlar keng o`rin olgan.

Uning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari yoshlar ongida ma’naviyat hamda milliy mafkurani shakllantirishda muhim tarbiyaviy kuchga ega.

Ma’rifatparvarlik harakatining yirik namoyandalaridan biri Furqat (1859-1909) dir. Zokirjon Xolmuhammad o`g`li Furqat Qo`qonda dunyoga keladi. U "Ilm xosiyati", "Akt majlisi xususida", "Toshkent shahrida bo`lg`on nag`ma bazmi xususida", "Vistavka xususida", "SHoir ahvoli va she’r mubolag`asi xususida" va boshqa ko`plab asarlarida ma’rifat-parvarlik g`oyalarini ilgari suradi.

Furqat o`ta murakkab davrning ziddiyatli tomonlarini, mamlakat qoloqligining tub sabablarini haqqoniy idrok qiladi. Bu qoloqlikning asl sababi jaholatda, urush-janjallarda deb bildi. Xon va beklarning o`zaro nizolari, ularning savodsizligi va jo-hilligi, ochko`z va tamagirligi, tekinxo`rligi mamlakat va xalqqa ofat va kulfat keltirayotganini ko`ra bildi.

Furqat jamiyatdagi salbiy illatlar va adolatsizliklarni bartaraf etishda, ma’rifat, ilm-fan, ta’lim-tarbiya muhim ahamiyat-ga ega ekanligini chuqur tushunib etdi. "Ilm xosiyati". "Vistavka xususida" kabi she’rlarida vatandoshlarini zamonaviy bilimlar va taraqqiy etgan mamlakatlarning madaniyatini o`zlashtirishga da’vat qilgan.

O`sha davr ma’rifatparvarlik harakatining yirik namoyandalari Muqimiy (1850-1903), Zavqiy (1853—1921), Anbar Otin (1870-1914), Hamza (1889-1929) ijtimoiy ziddiyatlar kuchaygan davrda yashadilar. Ular jamiyatdagi illatlarii tanqid qilish bilan ajralib turadilar.

Muqimiy o`z dunyoqarashida erkin jamiyat, insof va adolat, insoniylik, iymon-e’tiqod, erk, barkamol inson haqida fikr yuritdi, adolatsizlik, zo`ravonlikka asoslangan jamiyatni qoraladi.

U "Veksel", "Urug`", "Asrorqul", "Dodxohim", "To`y", "Tanobchilar", "Moskovchi boy" kabi hajviy asarlarida ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, o`zboshimchalik va zo`ravonlik, og`ir soliqlarni haqqoniy ravishda tasvirlaydi.

O`zbek adabiyoti va madaniyatining yirik vakili Hamza Hakimzoda Niyoziy dunyoqarashining shakllanishida Fuzuliy, Navoiy, Hofiz, Furqat va Muqimiylarning adabiy merosi muhim rol o`ynadi. Hamza "Maysaraning ishi", "Istibdod qurbonlari", "Za-harli xayot yoxud ishq qurbonlari" va boshqa ko`plab asarlarning muallifidir. U ma’rifat bilim egallash, baxtli va farovon hayotga intilish g`oyalarini ilgari suradi. Hamza jaholat, bilimsizlik, firibgarlikni qoraladi, rus amaldorlarining yaramas xatti-harakatlarini fosh etdi.

Hamza maktab va maorif ishlarida faol qatnashib, bolalarping bilim egallashi uchun jonbozlik ko`rsatdi, doimo haqiqat uchun kurash olib bordi. Uning ma’rifatchilik g`oyalari ijtimoiy-falsafiy fikr va ma’naviyat rivojiga muhim hissa bo`lib qo`shildi.

Turkistonda ma’rifatchilik harakatining avj olishi jadidchilik g`oyalarining vujudga kelishida muhim o`rin egalladi. Lekin SHo`rolar davrida jadidchilik ko`pincha bir tomonlama talqin qilindi, uning g`oya va maqsadlarini soxtalashtirish, hatgo uni millatchilik harakati, deb baholash hollari ham bo`ldi. Mustaqillikka erishilgandan so`ng bu harakatni xolisona va ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qilish imkoniyati tug`ildi. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib bordilar. Jadidchilik harakatining muhim xususiyati uning milliy-ozodlik harakati va Turkistonda milliy burjuaziyaning vujudga kelishi bilan chambarchas bog`likligi edi.

O`sha davrda jadidchilik harakatining qator vakillari etishib chikdi. Bular Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Behbudiy, Fitrat, CHo`lpon va boshqalardir.

Mahmudxo`ja Behbudiy (1875-1919) jadidchilik harakatining asoschilaridan biri bo`lib, yangi maktablar qurish, yosh avlodni mo`staqillik ruhida tarbiyalash, ularni ilmli qilish, ma’rifat va taraqqiyot uchun kurashga katta hissa qo`shgan mutafakkirdir.

Behbudiy yangi maktablar uchun "Risolayi asbobi savod", "Risolayi jug`rofiyai umroniy", "Kitobatul-atfol", "Amaliyoti islom", "Risolai jug`rofiyai rusiy" va boshqa darsliklarni yozadi. Uning asosiy asari "Padarkush" dramasidir. Bulardan tashqari, Behbudiy ko`plab publitsistik maqolalar yozdi, matbuotda xizmat qildi, nashr ishlari bilan mashg`ul bo`ldi. Uning maqolalarida millat va Vatan taqtsiri, mo`staqillik g`oyasi, axloq va ta’lim-tarbiya kabi boshqa masalalar ham o`rin olgan.

Jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy (1878-1934)dir. U pedagogik faoliyat va badiiy ijodni qo`shib olib bordi. Avloniy ochgan maktablarda dunyoviy fanlar-ni o`qitish yo`lga qo`yildi. Mutafakkir "Ikkinchi muallim", "Birinchi muallim", "Alifbedan so`nggi o`quv kitobi" kabi darsliklarni yaratdi.

Ayniqsa, olimning "Turkiy guliston yoxud axloq" darsligi bolalar dunyoqarashi, milliy ongi va mafkurasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Unda

bolalarga ilm-fan sirlarini o`rgatish, yaxshi xulqodob qoidalarini singdirish, Turkiston xalqini asriy qoloqlikdan qutqarish yo`llari, iqtisod, tadbirkorlikni rivojlantirish, mamlakatni xom ashyo qaramligidan xalos etish, ma’rifat va ma’naviyatni yuksaltirish masalalari yoritilgan. Uning "har narsada o`rta iqtisod yo`lini tutmoq lozimdir", degan fikri hozirda xdm o`z ahamiyatini yo`qotgani yo`q. Uning fikricha, mamlakat boyligi va qudratini oshirish uchun barcha sohada "ilm va ma’rifat ila barobar iqtisod, insof, tuganmas sa’y, bitmas g`ayrat" talab qilinadi.

A. Avloniy "Advokatlik osonmi", "Biz va Siz", "Portugaliya inqilobi", "Ikki sevgi" va boshqa dramatik asarlar yozib, o`zbek teatri hamda dramaturgiyasi rivojiga munosib hissa qo`shdi.

Jadidchilik harakatining yana bir yorqin vakili Abdurauf Fitrat (1884-1939) bo`lib, ilmning ko`p sohalarida ijod qilgan mutafakkirdir. Olim "Sayha" ("Bong"), "Hind sayyohining qissasi", "Uchqun" to`plami, "CHin sevish", "Hind istilochilari", "O`zbek tili grammatikasi", "CHig`atoy adabiyoti" va boshqa ko`plab asarlar yozdi.

Fitratning asarlarida xalqni jaholat va nodonlikdan qutqazish, ilm-ma’rifatga chorlash, milliy mustaqillikka erishish xalqning o`zligini tanishi, ongining o`sishi, kuchli va rivojlangan davlat tuzish, xalqning bilimdon bo`lib, tijorat va tadbirkorlik bilan shug`ullanishi, Evropaning fan va texnika yutuqlarini o`rganish kabi g`oyalar ilgari suriladi. "CHin sevish" asarida bir qator dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalarni ko`tarib chiqdi. Bulardan tashqari, tasavvuf ta’limotining mohiyati, yassaviylik, naqshbandiylik, kubraviylik ta’limoti to`g`risida qator ilmiy maqolalar e’lon qildi. Mumtoz qo`shiqchilik san’ati hamda "SHashmaqom"dek noyob durdonaning bizning davrimizgacha omon-eson etib kelishida Fitratning hissasi beqiyos. Uning rahbarligida "SHashmaqom" musiqa tarixida ilk bora notaga tushirildi. Fitrat adabiyotshunoslikda ham ulkan xizmatlarni bajardi, navoiyshunoslikning birinchi namoyandalaridan biri sifatida e’tirof etildi.

Uning yuqoridagi millatparvarlik va vatanparvarlik ruhi bilan sug`orilgan g`oyalari hozir ham tadbirkorlik, ma’naviyat va ma’rifatni ravnaq toptirishda, milliy g`oya va mafkurani shakllantirishda, xalqning o`zligini anglashida muhim ahamiyatga ega.

Xullas, O`zbekiston hududidagi temuriylardan keyingi ijtimoiy-falsafiy fikr tarixini qisqa yoritish shundan dalolat boradiki, u bizning davrimizgacha uzluksiz ravishda madaniyat, inson tafakkuri va aql-zakovatining yuksalishida muhim ahamiyatga ega bo`lgan. Lekin mustabid tuzum davrida ijtimoiy-falsafiy fikr tarixiga bir tomoshama, sinfiy nuqtai nazardan yondashildi, faqat kommunistik partiya mafkurasi talablariga to`g`ri keladigan g`oya va fikrlarga e’tibor berildi. 1917 yildagi Oktabr to`ntarishidan so`ng asta-sekin o`tmish ma’naviyati, falsafiy fikr o`rnini markscha-lenincha mafkura egallay boshladi. Oliy o`quv yurtlari, keng xalq ommasi orasida dialektik va tarixiy materializm va ilmiy ateizm targ`ib qilindi, ularga to`g`ri kelmaydigan ta’limotlar qattits tanqid ostiga olindi. Eig achinarlisi shuki, o`z milliy madaniyati, urf-odati va an’analariga sodiq bo`lgan, ularni saqlab qolishga intilgan ziyolilar, shoir va yozuvchilar quvg`inga uchrab, qatag`on qilindi.

Lekin yuqoridan bo`lgan tazyiqlarga qaramay, madaniy-ma’naviy va ijtimoiy-falsafiy merosimizni o`rganish, tadqiq qilish tamoman to`xtab qolmadi. 60-70-yillarda I.M. Mo`minov, V. Zohidovlarning ijtimoiy-falsafiy fikr tarixi bo`yicha tadqiqotlari katta aqamiyatga ega bo`ldi. Ular Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ali Qushchi, Mirzo Bedil va boshqalarning falsafiy dunyoqarashini tadqiq qildilar.

O`zbekistonning mustaqillikka erishuvi madaniy merosimizni xolisona, haqqoniy va yangicha tafakkur asosida tadqiq qilish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Endigi vazifa - sobiq mafkuraning asoratlarini bartaraf qilib, milliy mafkuramizga tayanib, boy ma'naviy va madaniy qadriyatlarni, ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixini chuqur va har tomonlama o`rganishdir.

Asosiy tushunchalar

Qadimgi Xorazm, Avesto, SHosh madaniyati, Zardushtiylik, Afrosiyob, Moniylik, Mazdakiylik, Temur tuzuklar, Ogohiy, Mafkuraviy maydon.

Takrorlash uchun savollar

1. Zardo`shtiylikning mohiyati nimadan iborat?
2. Moniy va Mazdak ta'limoti nimaga da'vat etadi?
3. Tasavvufda komil inson taomilini Siz qanday tasavvur qilasiz?
4. Temur tuzuklari"ni o`qiganmisiz, u to`g`rida iimalarni bilasiz?
5. Mirzo Ulug`bek va uning "Ziji jadidi Ko`ragoniy" asari to`g`risida nimalarii bilasiz?
6. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy do`stligi to`g`risida so`zlab bering.
7. Mashrab va Bedil ijtimoiy qarashlarining xususiyatlari nimada?
8. Ahmad Donishning "Navodirul-vaqoe" asarida qanday ijtimoiy- falsafiy g`oyalar ilg`ari surilgan?
9. Abdulla Avloniyning "Turkiy g`uliston yoxud axloq" asari to`g`risida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T. O`zbekiston 1992
2. Karimov I. A. YAngicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – T: O`zbekiston 5 – j, 1997
3. Karimov I. A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat,
4. Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo`lida – T, O`zbekiston 1999
5. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T, O`zbekiston 2000
6. M. Ahmedova Falsafa darslik O`z. fay. jam. T., 2006.
7. K. Nazarov Falsafa asoslari «O`zbekiston» T., 2005.
8. K. Nazarov Falsafa O`AJBIT T., 2004.
9. E. YUsupov Falsafa «SHarq» T., 1999.
10. K. Nazarov Falsafa «SHarq» T., 2004.
11. M. Ahmedova Osnovы filosofii «Uzbekistan» T., 1998.
12. I. Saifnazarov Kurs lektsii po filosofii «SHarq» T., 2004.
13. M. Safarboev, Z. Iskandarova Falsafa UrGU U., 2004.
14. B. To`ychiev Falsafa DITAF T., 2004.
15. K. Nazarov Falsafa (Ma'ruzalar matni) O`AJBIT T., 2000.
16. M. M. Xayrullaev Filosofiya lug`ati «O`zbekiston» T., 1976.

17. M. M Xayrullaev, K. Nazarov Falsafa: komusiy lug`at «SHarq» T., 2004.
18. I. Karimov Falsafadan va’zlar TDPU T., 2003.
19. J. Tulenov, Z. G`ofurov Falsafa TDPU T., 1997.

Katta o`qituvchi Jumaniyozov B.

3. Ma’ruza. Mavzu: Hozirgi zamon jahon falsafasi (2 soat)

Reja:

1. Xozirgi zamon falsafasidagi vorislik va yangilanish, uning XIX asrdagi ildizlari.
2. Pozitivizm falsafasi.
3. Ekzistentsializm falsafasi.
4. G`arb mamlakatlarida jamiyat falsafasi.

1. Xozirgi zamon falsafasidagi vorislik va yangilanish, uning XIX asrdagi ildizlari.

Ma’lumki, hamma zamosharda xam falsafa o`z davrining dolzarb muammolarini hal etish yo`llarini topishga harakat qilgan. XXasrga kelib insoniyat fan va texnika taraqqiyoti sohasida ulkan yutuqlarni qo`lga kiritdi. Lekin shu bilan birga, aynan ushbu asr ijtishoiy silsilalar, ikkala jahon urushi, ekologik inqiroz, og`ir yo`qotishlar davri ham bo`ldi. Bu esa falsafiy fikr taraqqiyotida o`z aksini topdi, uning turli yo`nalish ea oqimlari shug`ullangan muammolarning salmog`i, maqsad-muddaosini aniq belgiladi. Buning natijasi sifatida, hozirgi davr falsafasida nihoyatda xshma-xil oqim va yo`nalishlar mavjud. O`z navbatida, bu ilm-fan va amaliyotning hamda XIX asrning ikkinchi yarmi ea hozirgacha bo`lgan falsafa ilmi rivojining asosiy xususiyatlarini belgilaydi.

Xozirgi zamon falsafasining eng asosiy tamoyillari umuminsoniylikning ustuvorligi, uning milliylik bilan uyg`unligi, demokratik erkinliklar, inson qadri, biror ta’limotni mutlaqlashtirmaslikdir. Bag`rikenglik va tolerantlik hozirgi falsafiy ta’limotlar rang-barangligini ta’minlaydi.

An’anaviy falsafada, turli g`oyaviy tizimlarga bo`linishiga Qaramay, muhim muammolarni xal etishda ma’lum bir umumiylik mavjud edi. Hozirgi zamon falsafasida aksincha, falsafiy muammolarning ko`p xilligi va o`ziga xosligi, turli-tumanligi, ular asosida falsafiy oqimlarning mustaqil yo`nalish sifatida shakl-langanligi yaqqol ko`zga tashlanadi.

An’anaviy falsafada aql - inson mohiyatiningbelgilovchisi, Deb talqin etilgan bo`lsa, endi ratsionalizmga qarshi insonning mavjudligi (ekzistentsializm) muammolari hamda uning noratsional mohiyati ilgari surila boshladi. YA’ni, ilgari ma’rifatparvarlik g`oyasi ustuvor bo`lsa, endilikda ko`proq inson huquqlariga etibor kuchayib ketdi. Falsafa go`yoki, mavhumlikdan aniqlik tomon bordi, umumiy emas, aniq-ravshan masalalarni hal qilish boshlandi.

An’anaviy falsafada hodisalar mexanika qonunlari asosida tushuntirishga xarakat qilingan bo`lsa, endi bunday tahlil doioa-sidan chetda qolgan muammolar o`rganila boshlandi.

Bugungi kunga kelib ko`pgina falsafiy oqimlar o`zlarining an’anaviy falsafaga alokador ekanliklarini hamda ulardan farq qilishlarini ta’kidlash maqsadida, nomlariga "neo", ya’ni yangi, zamonaviylashgan degan ma’noni anglatuvchi qo`shimchani qo`shganlar. Masalan, neopozitivizm, neotomizm va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Fanning jamiyat hayotidagi o`rnini belgilash va unga nisbatan munosabatga

qarab, zamonaviy falsafiy ta’limotlarni asosan ikki yo`nalishga ajratish mumkin. Ulardan biri - stsientizm (lot scientia - fan) ya’ni, fan mavjud barcha ijtimoiy muammolarni hal etishi mumkinligini, ilm-fan taraqqiyotining doimiy ijobiyligini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Stsientizm g`oyalari neopozitivizm, texnologik determinizm kabi ta’limotlarning asosini tashkil etadi.

Ikkinchisi — **antistsientizm,** ya’ni fan taraqqiyoti jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko`rsatishini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Bunday dunyoqarash ekzistentsializm, Frankfurt ijtimoiy-falsafiy maktabi, Rim Klubining bir qator tarmoqlarini, ba’zi diniy-falsafiy oqimlarning fanga munosabatini ifodalaydi. Antistsientizm ilm-fan taraqqiyotining natijalarini nazorat ostiga olish, bu masalada jamiyat hayotini xavf ostiga qo`ymaslik talabi bilan bog`liqdir.

Antistsientizmiing ayrim o`ta ashaddiy namoyandalari fan-texnika taraqqiyotini tamoman to`xtatib qo`yish g`oyasini ham ilgari suradilar. Umuman olganda, XX asr falsafasida bir-biriga muqobil bo`lgan yo`nalishlar ratsionalizm va irratsionalizm, antropo-logizm va naturalizm, stsientizm va antistsientizm, materializm va idealizm o`z o`rniga ega bo`lmokda.

YAngicha falsafiy tafakkurga asos solgan olimlar orasida ko`pchilik nemis olimi Artur SHopengauer (1788-1860) qarashlarini tilga oladi. SHopengauer olamdagi barcha mavjud narsalarni irodaning namoyon bo`lishi, irodani esa ongsiz ko`r-ko`rona intilish tarzida tushunadi. Maxluqotlarning instinktlari, xatti-harakatlari - irodaning namoyon bo`lishidir. Inson faoliyati ham aqldan begona bo`lgan irodaning natijasidir. SHuning uchun inson mohiyati irratsional asosga ega. Aql esa tasodifiydir. Inson hayoti doimo aylanib turgan iroda g`ildiragiga bog`likdir.

SHopengauer ta’limotini davom ettirgan nemis faylasufi Fridrix Nitsshe (1844-1900) fikricha, "borliqning eng chuqur mohiyati hokimiyatga erishish uchun bo`lgan irodadir." Nitsshe inson borlig`ida maxluqlik va xoliqlikning birlashib ketganini asoslab berishga harakat qildi. Uning diyorimizda bundan ikki yarim ming yil muqaddam shakllangan zardushtiylik ta’limotini o`rganib yaratgan "Zardusht tavallosi" asarida kuchli shaxslarni tarbiyalash g`oyasi ilgari surilgan. U o`z ortidan irodasiz kishilar ommasini etaklashga qodir bo`lgan irodasi kuchli shaxslarni tarbiyalash tarafdori bo`lgan. Nitsshening tsivilizatsiya va madaniyatning so`nishi va barham topishi to`g`risidagi g`oyasiga asoslanib, 1918 yilda G. SHpengler "Evropaning so`nishi" degan asarini yozadi.

O`tgan asr oxiri olimlari ijtimoiy inqiroz va ma’naviy turg`unlikdan chiqishning yo`lini G`arbda mumtoz falsafiy merosga murojaat etishda va uni qayta tiklashda ko`rdilar. SHu zaylda "Orqaga, Kantga" shiori ostida neokantchilik, "Orqaga, Gegelga" shiori ostida esa neogegelchilik paydo bo`ldi.

SHu bilan birga, falsafaning mumtoz ildizlarini saqlab qolishni diniy oqim bo`lgan neotomizm ham yoklab chiqdi. Neotomizm shu bugunga qadar ham o`z mavqeini yo`qotmagan bo`lib, katolik cherkovi tomonidan qo`llab-quvvatlanadi, Bunda, ayniqsa, Rim papasi rah-barlik qiladigan Vatikanning faoliyati muhim o`rin tutadi.

Neotomizm - XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo`lib, u o`rta asrlardagi (XIII asr) Foma Akvinskiyning ta’limotini qaytadan tikladi. U (neo - yangi, tomizm — "foma", transkriptsiyada "toma" bo`lib o`zgargan) Foma Akvinskiyning yangi, zamonaviy ta’limoti, demakdir. Bu ta’limotga ko`ra, ilm va e’tiqod o`rtasida to`la muvofiqlik, uyg`unlik bor. Ular bir-birini to`ldirib turadi, har ikkisi ham Xudo

tomonidan berilgan haqiqat.

Neotomizm vakillari fikricha, ilm etmagan joyda e’tiqod qo`llanishi kerak. Lekin bu e’tiqod ko`r-ko`rona, shunchaki ishonch bo`lmay, balki mantiqan teran anglangan e’tiqod bo`lishi kerak. Xudoning mavjudligini falsafa turli mantiqiy usullar orqali isbot qilishi lozim. SHunday qilib, falsafaning vazifasi dinga xizmat qilishdan iboratdir.

Neotomistlar dunyoni, jamiyatni Xudo yaratgan, jamiyat taraqqiyoti Xudoning rejasi asosida boradi, deydilar. Diniy teologiya oqimi bo`lganligidan neotomizm albatta, ilohiy qadriyatlarni ustuvor qo`yadi. Ammo u din va uning jamiyatdagi o`rniga, o`zining nomi kelib chiqishiga sabab bo`lgan Foma Akvinskiy zamonidan farqli yondashadi. Fomadan keyingi davr Evropada xristianlikning sofligini saqlash g`oyasi, asta-sekin mutlaqlashib, o`rta asr aqidaparastligining ma’lum ko`rinishlaridan biri - inkvizitsiyaga olib kelgan edi. Bu esa hurfikrlilik, ilm-fandagi yangilikka qarshi kurashga aylanib ketgan edi. Lekin inson huquqlari, fikr erkinligi demokratiya belgisiga aylangan XX asrda bundak o`ta ketgan aqidaparastlikka o`rin yo`q. Neotomizm hozirgi tsivilizatsiyali dunyoda tsivilizatsiyalashgan ta’limot sifatida maydonga chiqmoqda. O`z navbatida bu demokratiya ustuvor bo`lgan hayot tarziga muayyan darajada mos keladi.

Neokantchilik XIX asr o`rtalarida shakllangan va XX asr boshlarida rivojlangan edi. Uning vakillari I. Kant o`z davrida qo`ygan ilmiy bilishning umumiyligi va zaruriyati haqidagi hamda tajribaviy aql haqidagi muammolarni tahlil etadilar. Bu ta’limotga ko`ra, inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun har bir insonning hayoti o`zi uchun eng oliy maqsaddir. SHunday ekan, inson hayotidan kimdir o`z maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita sifatida foydalanishi mumkin emas. Erkin mavjudot deganda, Kant izdoshlari o`zi xohlagan ishlarni qiluvchi kishini emas, balki jamoatchilik manfaatiga qarshi yurmaydigan, unga zid ish qilmaydigan, ammo o`z haq-hukuklarini yaxshi biladigan insonni nazarda tutadilar.

2. Pozitivizm falsafasi.

XX asrga kelib, fan-texnika taraqqiyoti bilan ilmiy tafakkur va til muammolarini falsafiy tahlil qilishga qiziqish nihoyatda ortdi. Bu yo`nalishda ishlayotgan eng yirik oqimlarga neopozitivizm, strukturalizm va germenevtika kabi falsafiy qarash namoyandalari misol bo`ladi.

Neopozitivizm oqimining yirik namoyandalari Karnap, Ayer, Rassel, Vitgenshteyn va boshqalardir. Neo - yangi, **pozitiv** - ijobiy, degan ma’noni anglatadi. Neopozitivizm G`arbda XIX asrning 20-yillarida paydo bo`lgan, asoschisi XIX asrda yashagan Ogyust Kontdir. Uning fikricha, falsafa aniq fanlar taraqqiyotisiz mavjud bo`la olmaydi. Falsafa - ob’ektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilayotgan ilmiy, ya’ni ijobiy (pozitiv) xulosalarni o`rganib, taxdil qilib, ularni mantiqan bir tartibga, sistemaga solishi kerak.

Kont falsafaning o`zi mustaqil ravishda ob’ektiv dunyo to`g`risida hech qanday aniq bilimlar berishi mumkin emas. u shu paytgacha yig`ilgan bilimlarni formal logika qonunlari asosida taxdil etishi va qayta baholashi, uni "absolyut g`oya, ruh" to`g`risidagi ortiqcha fikrlardan tozalashi hamda yangi falsafani yaratishi kerak, deb

ta’lim bergan.

Neopozitivistlar **verifikatsiya printsipini** ilgari suradilar (lot. veritas - haqiqat). Ularning fikricha, faqat tajribada o`z tasdig`ini topgan bilimgina haqiqiydir. Lekin nazariy, mavhum bilimning hammasini ham tajribada ekvivalentini topish, aynan munday ekanligini isbot qilish mumkin emasligi tufayli bu printsil keyinchalik inkor etildi.

SHundan so`ng **postpozitivizm** (ya’ni, keyingi pozitivizm) vakili K. Popper **falsifikatsiyalash metodnni** ilgari surdi. Bunga ko`ra, inson ba’zi nazariy bilimlarning haqiqatligini emas, xato ekanligini isbotlashi kerak. Oxir-oqibatda neopozitivizm vakillari falsafa bilimlarning haqiqiyligini mantiqiy - lingvistik usul orqali isbotlashi va sistemalashtirishi kerak, degan xulosaga keldilar. XX asrning 60—70 yillariga kelib, neopoziti-vizmning mavqei kamayib, asosiy o`ringa strukturalizm va germenevtika chiqdi.

Strukturalizn (asosiy vakillari Levi - Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va hodisaning strukturasini bilish uning ob’ektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblaydilar. Masalan, Levi-Stross mifologik tafakkurni taxdil etib, turli joylarda yashagan qadimgi qabilalar va xalkdar yaratgan afsonalarning umumiy strukturaga ega ekanligini isbot qildi. Uning fikricha. bu afsonalarning asosiy mazmuni bir-biriga to`la muvofiq keladi. Insoniyatning ilmiy tafakkuri ham bu ta’limotga ko`ra shunday printsipga, umumiy mantiqqa ega.

Germenevtika - qadimgi yunon afsonalaridagi Xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun erga yuborilgan elchisi - Germes nomi bilan ataladi. Demak, germenevtika - tushunish. tushunti-rish, tahlil etish g`oyalariga asosiy diqqatini qaratadi.

Jamiyat, bu ta’limotga ko`ra, kishilar o`rtasidagi muloqotga asoslanadi. Muloqot jarayonida madaniy, tarixiy va ilmiy qadri-yatlar yaratiladi. SHuning uchun falsafaning asosiy vazifasi hayotning ma’nosini, mohiyatini kishilar o`rtasidagi muloqotdan qidirishdan iborat.

Bu oqim vakillari SHleyermaxer va Diltey fikricha, biror bir tarixiy manbaning to`g`ri tahlil etilishi tadqiqotchining davr xususiyatlarini to`la his etishi, tushunishi bilan bog`liq. Hozirgi Davrda bu ta’limotning ko`plab tarafdorlari mavjud.

3. Ekzistentsializm falsafasi.

XX asrning 30-yillariga kelib "ekzistentsial falsafa" rivojlandi. Ekzistentsiya - tom ma’noda mavjud bo`lmoq, demaqdir. Ekzistentsializm nihoyatda xilma-xil yo`nalishdagi ta’limotlarni insonning ma’naviy dunyosi, inson takdiri, erkinligi g`oyalari asosida umumlashtirdi.

Bu muammolarning talqini. ayniqsa, ijodkor ziyolilar o`rtasida ommaviy tus oldi. SHuning uchun ekzistentsial falsafa bu davrda eng keng tarqalgan oqim bo`lib qoldi.

Ekzistentsializm vakillari asosan ikki yo`nalishga bo`linadilar. Biri - dunyoviy (Xaydeger, Sartr, Kamyu) va ikkinchisi diniy (YAspers, Marsel) bo`lib bo`nday bo`linish nisbiydir.

Xaydeger, Sartr. Kamyularning ta’limotiga ko`ra, inson o`zining yaratish jarayonini o`zi erkin amalga oshiradi. Insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar mavjud

bo`lib, ulardan qaysi birini tanlashda u erkindir. Demak, inson o`z mohiyatini o`zi erkin belgilaydi, uning kim bo`lib etishishi faqat uning o`ziga bog`liq. SHu ma’noda, inson doimo rivojlanib boradigan, tugallanmagan loyihaga o`xshatiladi. Erkinlik insonning o`zi tomonidan yaratiladigan ichki ruhiy holati tarzida talqin etiladi. Insonga berilgan imkoniyatlarni tanlash nihoyatda mas’uliyatlidir, chunki bunda inson o`zi, boshqalarni hamda uni o`rab turgan olamni ham qayta yaratadi.

Diniy ekzistentsializm vakillari YAspers va Marsel fikricha, inson o`z erkin faoliyati davomida Xudoga qarab unga etishish uchun, kayaolot tomon harakat qiladi. Haqiqiy erkinlik insonga taxlikali onlarda, tashvishda, yolg`izlikda namoyon bo`ladi. "Tahlika, mas’uliyat sof erkinlikning o`zidir, faqat shunday sharoitda inson o`zini to`laligicha anglaydi. Hayot va o`lim, qo`rqinch, dahshat tushunchalari bu ta’limotning markaziy tushunchalaridir. Ekzistentsialistlar fikricha, olam ma’nosiz va uni bilib bo`lmasligi
abadiy, inson umri o`tkinchi bo`lganligi uchun ham dahshatlidir. YAngi zamon falsafasining yana bir oqimi pragmatizm AQSH da keng tarqalgan. Umuman olganda, "pragmatizm" foydali faoliyatga undovchi, "foydaga" qanday qilib erishish yo`llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta’limotdir. Bunda "foyda" tushunchasi "tajriba", "haqiqat" tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.
Pragmatizm ta’limotining yirik namoyandalari CH. Pirs, U. Djems, J. Dyui va boshqalardir. Ularning ta’limotida olamning o`zgaruvchanligi o`z ifodasini topgan. Ular tajribani turli tasodif va kutilmagan vaziyatlarni o`zida mujassamlashtirgan, ongimizdan tezkor qarorlarni qabul qilishni talab etuvchi hodisalar majmui sifatida ta’riflaydilar.

4. G`arb mamlakatlarida jamiyat falsafasi.

Insonning xatosiz faoliyat ko`rsatishi uchun uning xatti-harakatlarini boshqarib turuvchi vosita - intellektdir. J. Dyui fikricha, intellekt insonni o`rab turgan olamdan nusxa oladi hamda unga muhitga moslashishga yordam beradi. Pragmatizm falsafasining maqsadi insonga olamda o`z o`rnini topishga yordam berishdan iborat. Dyui tajriba natijasining "foydali" tomoniga e’tiborini qaratadi. Djems fikricha. haqiqat foydali bo`lgan narsa yoki hodisadir.

Pragmatizm AQSH ijtimoiy-madaniy hayotining kadriyatlarini ifoda etib, u erdagi ishbilarmonlar, menedjerlar, siyosatchilar va davlat arboblari o`rtasida keng tarqalgan. Amerikaliklar bu ta’limotning nazariyotchilarini xalqning dunyoqarashi o`zgarishida, hozirgi amerikacha hayot tamoyimarini keng ommaga singdirishda katta xizmat qtslgan faylasuflar sifatida qadrlaydilar. Masalan, J.Dyuini "Amerikaning Arastusi " deya hurmat bilan tilga oladilar.

Jamiyat tarakqiyotigp oid g`oyalar tahlili falsafada antik davrlardan, Suqrot va Aflotun zamonlaridan boshlab shakllana boshlagan. Bu g`oyalarning rivojida XVII-XVIII asrlarda yashagan italiyalik faylasuf Dj.Viko, XVIIIasrda yashagan I.G. Gerder va ayniqsa, nemis falsafasining yirik namoyandasi Gegel’ katta hissa qo`shganlar. Jamiyat taraqqiyoti to`g`risidagi ta’limotlar orasida tadrijiy tarakqiyot va inqilobiy sakrashlar yo`lidan borishni ilgari suradigan ta’limotlar talaygina. Ko`pchilik tadrijiy yo`lni maqul ko`rydi va biz yuqorida tilga olgan faylasuflarning aksariyati ana shunday qarash tarafdori.

YAngi davr falsafasida tarqalgan okimlardan biri **marksizm** bo`lib, uning asoschisi nemis iktisodchisi va failasufi K. Marks (1818 - 1883)dir. Uning ijtimoiy falsafasi

kapitalizmda sinfiy kurashning mutlak antogonizm darajasiga ko`tarilishi, oxir-oqibat proletariat diktaturasining o`rnatilishi va shu yo`l bilan sinfsiz jamiyatga o`tishni targ`ib qiladigan, real hayotni aks ettirmaydigan nazariyadir.

Keyinchalik sobiq ittifoqda hukmron mafkuraga aylangan bu ta'limot dastlab K. Marks va F. Engels yozgan "Kommunistik partiya manifesti "da bayon qilingan, Uning nazariy asoslari K. Marksning "Kapital " F. Engel'sning "Anti-Dyuring " va "Tabiat dialektikasi " asarlarida ta'riflab berilgan bo`lib, ijtimoiy hayotda salbiy oqibatlarga olib keldi. U borliq tushunchasini materiya bilan aynanlashtirgan, ruhni butunlay inkor qilgan, materializm va ateizmni mutlaqlashtirgan.

Bu ta'limotning K. Kautskiy, V. Plexanov boshliq mo`'tadil jarafdorlari keyinchalik sotsial-demokratiyaga ko`proq, moyil bo`lishi. Rossiyada V.Lenin boshchiligidagi tarafdorlari esa sinfiy kurash va proletariat diktaturasini mutlaqlashtirish yo`lidan bordilar. Bu, o`z navbatida, inqilobiy sakrash yo`lini tanlashga olib keldi va Rossiyani terror yo`liga boshladi. Oqibatda esa bu tipdagi dunyoqarash jamiyat va xalqlar taqdirida g`oyat salbiy o`rin tutishi ma'lum Uldi. G`arbda Marksning hozirgi davrdagi tarafdorlari **"neomarksizm"** oqimini tashkil etadilar. Ko`pgina neomarksistlar sinfiy kurashni mutlaqlashtirmaslik, inqilobiy emas, tadrijiy sakrash yo`lidan borish ustuvor bo`lishi lozimligini e'tirof eta boshladilar. Ammo ularning asl qarashlarini jamiyat, millat emas, sinf va ular o`rtasidagi kurash taraqqiyoti belgshshydi, degan o`sha ta'limotga bog`liqligicha qolmoqda.

Alohida tatidlash lozimki, yatsingacha sobik ittifoq va uning shptifoqchilari hududida mutlaq hukmron bo`lgan mafkuraning taqdirini o`rganish, uning tarixidan xolisona xulosa chikarish, bu ta'limotning qandpy ayanchli natijalorga olib kelganini bilib qo`yish ham foydadan xoli emas. Bu borada lom-mim dvmaslik foyda bermaydi. Zero, talimotlar tarixi insonlar, ularning taqdiri, yuksalishi yoki tanazzuli tarixidir. Bu yuksalish yoki tanazzul ko`p hollarda muayyan g`oyalar, mafkuralar ta'sirida ro`y beradi. Gohida minglab, millionlab kishilarni maftun qilgan ba'zi g`oyalar yoki mafkuralar oxir-oqibat ana shu millionlarning zavoliga sabab bo`lishi ham mumkin. Biz qisqa tahlil qilgan marksizm va keyinroq u paydo bo`lgan hududda shakllangan natsional sotsializm (fashizm) nazariyalari ana shu tarixiy haqiqatni isbotlaydi. Bu haqiqatning ostida esa biror ta'limot qadriyatlarini mutlaqlashtirish, albatta, muayyan "izm "ga, aqidaparastlikka olib keladi bu, o`z navbatida, jahon va qabohatga eltuvchi yo`ldir, degan umuminsoniy tamoyil yotadi

XX asrga kelib jamiyat tarixiy taraqqiyotiga oid ta'limotlarni umumlashtirish natijasida ijtimoiy taraqqiyotning plyuralistik modeli, "lokal madaniyatlar" hamda "tsivilizatsiyalarning xilma-xilligi" kontseptsiyalari shakllandi. Ularga ko`ra, jamiyat tari-xi - o`ziga xos madaniyatlarning birligi emas, xilma-xilligidan iborat. SHu ma'noda u organik tabiatyaagi hayot shakllarining rang-barangligiga qiyoslanadi. Demak, tabiat qanday xilma-xillikning birligi bo`lsa, jamiyat ham ana shunday rang-baranglikning uyg`unligidir. Jamiyatda ham hamma va har bir narsaning o`z o`rni bor.

Bu g`oyalar nemis faylasufi va sotsiologi O. SHpengler (1880-1936) hamda ingliz tarixchisi A. Toynbi (1889-1975) ta'limotlarida har tomonlama asoslab berishga harakat qilindi. O. SHpengler o`zining "Evropaning so`nishi" nomli asarida tarixni bir-biridan mustasno bo`lgan madaniyatlar majmuidan iborat. deb hisoblaydi hamda mukammal rivojlangan 8 xil madaniyatni ko`rsatadi. Bular: arab, hind, vavilon, xitoy, yunon-rim, vizantiya-arab madaniyatlari, mayya va russ-sibir madaniyatlaridir.

Madaniyatlar o`ziga xos diniy asosga ega bo`lib, ularning har biri qatiy biologik maromga (ritmga) bo`ysunadi. Va quyidagi asosiy davrlarni bosib o`tadi: tug`ilish va bolalik, yoshlik va kamolot, karilik va so`nish. Buning asosida madaniyatlar rivojining ikki bosqichi mavjud, deb ko`rsatiladi. Birinchi bosqich - madaniyat ravnaqi (sof madaniyat) va ikkinchisi - uning tanazzuli ("tsivilizatsiya") O. SHpengler evropoitsentrizmga, ya'ni barcha madaniyatlarni evropalashtirish g`oyasiga qarshi chiqdi. Har bir madaniyatning o`ziga xosligi, bir-biridan mustasno holda rivojlanish g`oyasini mutlaklashtirdi. Ular o`rtasidagi o`zaro aloqadorlik ham mavjudligiga kam e'tibor qaratdi.

YAna bir olim A. Toynbi esa o`zining 12 jildlik "Tarixni o`rganish" asarida madaniyatlarning lokal rivojlanish g`oyasini davom ettirdi. Biroq uning ta'limoti SHpengler kontseptsiyasidan o`zining ikki jihati bilan farklanadi. Birinchidan, insonda o`z hayotini erkin belgilash imkoniyati mavjudligini, tarixiy taraqqiyot zaruriyat va erkinlikning o`zaro birligidan iborat ekanligini nazarda tutsa, ikkinchidan, tarixiy taraqqiyotning davriy modeli dunyoviy dinlar (buddizm, xristianlik, islom) ning barcha xalklarni yaqinlashtiruvchi va jipslashtiruvchi bosh omil g`oyasi bilan boyitilgan.

Toynbi g`arb xristian tsivilizatsiyasining tanazzulga qarab borayotganligini ko`rsatib, uning oldini olish yo`lini ma'naviy birlikda, jaqon xalqlarining yagona dinni qabul qilishlarida, deb hisoblaydi.

Umuman olganda, hozirgi paytda jamiyat taraqqiyotining tsivilizatsion kontseptsiyasi ko`pchilik faylasuflar tomonidan tan olinmokda. Xususan, industrial va postindustrial jamiyat g`oyalari, ayniqsa, ommaviylashib bormoqda. Unga ko`ra, jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni sanoatning rivojlanish darajasidir.

SHunday qilib, XX asrga kelib rang-barang falsafiy ta'limotlar shakllandi. Ularning barchasini mazkur mavzuda ko`rib chi-qish imkoniyati bo`lmasada, yuqorida bayon etilgan ma'lumotlardan falsafiy plyuralizm haqida, falsafa zamon va makon bilan bog`liq murakkab fan ekanligi to`g`risida muayyan xulosaga kelish mumkin. Bu sohadagi bilimlarimiz, o`z navbatida, bizning milliy g`oya va mafkuramizni shakllantirishga, ma'naviyatimizning boyib, mustahkamlanib borishiga, intellektual kamolotimizga xizmat qiladi.

Asosiy tushunchalar

Vorislik, Pozetivizm, O.Kont, D.S.Mill, G.Spenserning, Neopozitivizm, Postpozitivizm, F.Nitsshening, A.Bergson, O.SHpengler, Pragmatizm, Ekzistentsializm, P.Sorokin.

Takrorlash uchun savollar

1. XX asr falsafasining xarakterli xususiyatlari nimalarda ko`rinadi
2. Ekzistentsial falsafaning moxiyati nimadap iborat?
3. Neopozitivizmning asosiy xususiyatlari qaiday?
4. Strukturalizmning mohiyati pima?
5. Germenevtika nima?

Stsientizm va antistsientizm nima?

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T. O`zbekiston 1992
2. Karimov I. A. YAngicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – T: O`zbekiston 5 – j, 1997
3. Karimov I. A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat,
4. Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo`lida – T, O`zbekiston 1999
5. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T, O`zbekiston 2000
6. M. Ahmedova Falsafa darslik O`z. fay. jam. T., 2006.
7. K. Nazarov Falsafa asoslari «O`zbekiston» T., 2005.
8. K. Nazarov Falsafa O`AJBIT T., 2004.
9. E. YUsupov Falsafa «SHarq» T., 1999.
10. K. Nazarov Falsafa «SHarq» T., 2004.
11. M. Ahmedova Osnovы filosofii «Uzbekistan» T., 1998.
12. I. Saifnazarov Kurs lektsii po filosofii «SHarq» T., 2004.
13. M. Safarboev, Z. Iskandarova Falsafa UrGU U., 2004.
14. B. To`ychiev Falsafa DITAF T., 2004.
15. K. Nazarov Falsafa (Ma'ruzalar matni) O`AJBIT T., 2000.
16. M. M. Xayrullaev Filosofiya lug`ati «O`zbekiston» T., 1976.
17. M. M Xayrullaev, K. Nazarov Falsafa: komusiy lug`at «SHarq» T., 2004.
18. I. Karimov Falsafadan va'zlar TDPU T., 2003.
19. J. Tulenov, Z. G`ofurov Falsafa TDPU T., 1997.

Katta o`qituvchi Jumaniyozov B.

4. Ma’ruza. Mavzu: Ontologiya: Dunyoni falsafiy tushunish (2 soat)

Reja:

1. Olam va odam: falsafiy ta’limi
2. Borliq falsafasi
3. Tabiat falsafasi

1. Olam va odam: falsafiy ta’limi

Bu mavzuga oid masalalar olamda odamning mavjudligi va yashashi, hayoti va faoliyati bilan bog`liqholda shakllangan. Olam to`g`risidagi qarashlar odamzodning tarixi qanchalik qadimiy bo`lsa, shunchalik qadimiydir.

Siz bilan biz yashayotgan shu dunyo o`zining barcha murakkabligi va muammolari, jozibadorligi, butun go`zalligi bilan yagona olamni tashkil etadi. Olam tushunchasi, eng avvalo, odam va uning faoliyati kechadigan makonni aks ettiradi. Agar odam bo`lmaganida edi, bu olam haqidagi tasavvurlar ham bo`lmas edi. Demak, olam odam bilan mazmundordir. Olam uni tashkil etuvchi narsalar bilan birgalikda namoyon bo`ladi. Hech narsasi yo`q olam yo`qlikdir. U mavhum tushuncha, ya’ni abstraktsiyadir.

Qadimgi davrlardan buyon odam o`zini anglagach, olamning tarkibiy qismi ekanligini tushuna boshladi. Dastlab, uning hayotini ta’minlovchi tirikchilik vositalarining ahamiyatini tushunib etdi va ularni e’zozlash, avaylab-asrash tuyg`usi shakllana boshladi.

SHu tufayli olam asosida yotuvchi to`rt unsurni: havoni, suvni, tuproqni va olovni muqaddaslashtirish singari g`oyalar vujudga keldi hamda olam to`g`risidagi sodda kosmologik qarashlar paydo bo`lgan. Ayrim kishilar odamning tirikchiligini ta’minlovchi narsalarni odam uchun, uning yashashi uchun xudo tomonidan yaratilgan ne’matlar deb bildi. Bunday qarashdan olam odam uchun yaratilgan, degan ma’no kelib chiqadi. Aslida qanday? Bu falsafiy muammodir.

Olamda odam yashashi uchun qulay bo`lgan sharoit bo`lmasachi? Odamlar qahraton sovuq hukmronlik qiladigan doimiy muzliklar bag`rida ham, har doim issiklik taftidan qovjirab yotuvchi issiq O`lkalarda ham yashashadiku. Xar bir joyda odam o`ziga qulay sharoit yaratib olishga intiladi.

Odam hayvonlardek tabiatdagi bor narsalardan oziqlanish bilangina chegaralanib qolmasdan, ularni o`ziga moslashtirishga, sovuq bo`lsa - isitishga, xom bo`lsa - pishirishga, issiq bo`lsa - sovutishga intiladi. Bu esa odamning olamga moslashishga intilishi oqibatidir. YA’ni, olamni odam o`ziga, o`z ehtiyojlariga moslashtirishga intilib kelgan. SHu tarzda odam ham, olam ham takomillashib, er yuzi o`ta "xonakilashtirilgan" olamga aylangan.

Olam, eng avvalo, tor ma’noda odam yashaydigan joy. Aslida odamzod va hayvonot olami, o`simlik va hasharotlar dunyosi, jismoniy, ruhiy, ma’naviy olam va shu singari boshqa ko`plab tushunchalar bor. Ular dunyoda mavjud bo`lgan narsa va hodisalar nomi bilan ataladi. Masalan, odamning ruhiy olami uning bilim, tajriba va xayolotini o`z ichiga oluvchi o`ta keng qamrovli tushunchadir. Bunda olam odam

yashaydigan joy, degan ma’noga qaraganda yanada kengroq mazmunga ega bo`lamiz.

Nimaiki mavjud bo`lsa, ularning hammasi birgalikda siz bilan biz mansub bo`lgan dunyoni ifodalaydi. Ammo tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosida yotuvchi va ularni birlashtiruvchi shunday bir umumlashtiruvchi tushuncha ham borki, u ob’ektiv olamning mazmunini ifoda etadi. Bunday tushuncha haqidagi tasavvurlar butun fan tarixi mobaynida rivojlanib kelgan. Dastlab, bu umumlashtiruvchi tushuncha, narsalarning asosida nima yotadi, degan nuqtai nazardan kelib chiqib, substantsiya (lotincha, substantia - nimaningdir asosida yotuvchi mohiyat, degan ma’noni beradi) deb ataldi.

Substantsiya - muayyan narsalar, hodisalar, voqealar va jarayonlarning xilma-xil ko`rinishlari ichki birligini ifoda etuvchi va ular orqali namoyon bo`luvchi mohiyatdir. Olamning asosida bitta mohiyat - substantsiya yotadi, deb hisoblovchi ta’limotni monizm deb atashadi. Faylasuflar substantsiya sifatida biror jismni, xodisani, materiyani, g`oyani yoki ruhni olishgan. Substantsiya sifatida moddiy jismlarni, materiyani oluvchilar - materialistik monizm tarafdorlari. G`oyani, ruhni oluvchilar esa - idealistik monizm tarafdorlari hisoblanadilar. SHuningdek, olamning asosida ham moddiy jism yoki materiya, ham g`oya yoki ruh yotadi deb hisoblovchi faylasuflar dualistlar (dualizm lotincha, dualis - ikkilangan degan tushunchani anglatadi) deb hisoblanadi. Arastu, Moniy, R. Dekart va boshqalar dualistlardir. Olamning asosida ko`p substantsiyalar yotadi. deb hisoblovchilarni esa plyuralizm (lotincha pluralis ko`pchilik so`zidan olingan) tarafdorlari deb atashadi.

Olamning asosida yotuvchi mohiyatni axtarish tarixi ham fanning uzoq o`tmishiga borib taqaladi. Masalan, qadimgi Hindiston va Xitoyda. Misr va Bobilda, qadimgi O`rta Osiyo va YUnonistonda ba’zi faylasuflar olamning asosida qandaydir modda yoki muayyan unsur yotadya, deb hisoblashgan. Ularning ba’zilari bu unsurni olov, boshqalari suv yoki havo, ayrimlari esa tuproqdan iborat deb hisoblashgan. Ba’zi bir falsafiy ta’limotlarda esa, olamning asosida - olov, havo, suv va tuproq yotadi, barcha narsalar ana shu to`rtta unsurning birikishidan hosil bo`lgan, deyilgan.

Olamning asosida yotuvchi substantsiyani axtarishning yana bir yo`chi narsalarning tarkibidagi bo`linmas eng kichik unsurni, ya’ni narsalarning tarkibidagi umumiy substrat (lotincha substratum - asos ma’nosini anglatadi) ni axtarishdir. Bunday yo`nalishga mansub oqimlardan biri atomistik oqim hisoblanadi. Masalan, qadimgi YUnon faylasuflari Levkipp, Epikur, Demokrit va Lukretsiylar narsalarning va butun olamning asosida eng kichik bo`linmas unsurlar - atomlar yotadi, ular o`zlarining shakli, harakatlanishi va vaznlari bilan bir-birlaridan farq qiladi, deb hisoblashgan.

Olamni anglash to`g`risida turlicha, hatto bir-biriga qarama-qarshi qarashlar mavjud. Bunday qarashlar odamlarning olamga o`z o`lchovlari bilan qarashlari oqibatida paydo bo`ladi. Birov uchun olam yaxshi va yomon, oppoq va qora ranglardan tashkil topgan, boshqa ranglarning bo`lishini u tasavvuriga ham sig`dira olmasligi mumkin. Boshqalar esa olamni xilma-xil rangda, qirralarda ko`radi. Ular oqbilan qora oralig`ida oqimtirroq yoki qoraroq ranglar ham bo`lishi mumkinligiga e’tibor qilishadi.

Olam tushunchasi keng qamrovli va keng yo`nalishli tushuncha bo`lib, ma’lum ma’noda voqelikka tizimli, ya’ni sistemali yondashishni talab qiladi. Masalan, elementar zarrachalar olami tushunchasi odamga ma’lum bo`lgan va hali ma’lum bo`lmagan barcha elementar zarrachalarni qamrab oladi.

Agar biz yashayotgan butun koinotni elementar zarrachalardan tashkil topgan deb

hisoblasak, bu tushuncha butun koinotni xam aks ettirishi mumkin. YOki o`simliklar olami tushunchasini olaylik. Bu tushunchaga faqatgina o`simliklar kiradi, hayvonlar va odamlar bu olamdan chetda qoladi.

SHu nuqtai nazardan olam tushunchasi nisbiy mohiyatga ega. Ba'zi kishilar olam deganda barcha narsalarni, jismlarni, xodisalarni qamrab oluvchi universal sistemani tushunadi. Bu ma'noda olam kosmologik koinot tushunchasiga mos keladi. Ayrimlar uni cheksiz va chegarasiz, boshqalar esa koinot ma'nosidagi olamni cheklakgan ob'ekt sifatida talkden etadi. CHeksizlik va chegarasizlik tushuncha-lari nisbiy ma'noga ega, bir sistemada cheksiz hisoblangan ob'ekt ooshqa sistemada chekli bo`lishi mumkin va aksincha.

Diniy-kosmologik qarashlarda olam ilohiy qudrat kuchi bilan yaratilgan, deb talqin etiladi. Bu olamning vaqtda boshlanishi mavjudligiga, ya'ni uning chekli ekanligiga ishoradir. Islom dinidagi kosmologik qarashlarda o`n sakkiz ming olam haqida gapiriladi va mazkur qarash bo`yicha biz yashayotgan moddiy olamdan tashqari, undan mustaqil bo`lgan ko`plab boshqa olamlar ham mavjuddir, deyiladi.

Hozirgi zamon kosmologiyasida ham fanga asoslangan bir qancha kontseptsiyalarda olam o`tkinchi, tabiiy ravishda paydo bo`lgan, degan g`oya ilgari suriladi. Bu nuqtai nazarlarda olamning paydo bo`lishidan oldingi holati "hech nima" va "yo`qlik" tushunchalari bilan izoxlanadi. Angliyalik olim Stiven Loking "Olam vujudga kelmasdan ilgari nima bo`lgan?" degan savolning mantiqsizligini vaqtning faqatgina kelajakka yo`nalgan oqimini ifodalovchi modeli vositasida asoslashga harakat qilgan. Uning fikricha, bu shimoliy qutb nuqtasidan turib qaraganda, hamma nuqtalar faqat janubga olib boradigan holatni eslatadi. Bunday holat olamning bosh-lang`ich holatidir. Vaqtning kelajakka olib boruvchi yo`nalishigina mavjud bo`lgan holati olamning boshlanishidir. Bu xolatda o`tmish yo`q, faqat kelajak mavjud.

Olam haqidagi diniy tasavvurlar uning kelajagi, yaratilishi yoki o`tmishiga oid murakkab masalalarni, asosan, ilohiy qudratning hosilasi sifatida talqin etadi. Dinda olamni "bu dunyo" - o`tkinchi olam va "narigi dunyo" - abadiy olamga ajratib tushuntirishadi. Bu dunyodagi mashaqqatlari evaziga odam narigi dunyoda rohat-farog`atga muyassar bo`ladi, degan g`oyaga asoslaniladi.

Fan olam to`g`risida o`ziga xos fikr yuritadi. Unda olamga oid murakkab masalalarni amaliy tajribalardan kelib chiquvchi mantiqiy dalillar asosida isbotlashga uriniladi. Mavjud ilmiy mantiq doirasidan chetga chiquvchi hodisalar esa izoxlanmaydi. Ayrim ajoyibot hodisalarining fan tadqiqot ob'ektiga kiritilmaganining sababi ana shunda.

Falsafa olamni izohlashda fanning. dinning, san'at va adabiyotning, xullas, fan bilan birgalikda boshqa xilma-xil bilimlarga tayanib, umumlashgan xulosalar chiqaradi. Demak, falsafadagi olam tushunchasi kosmologiyadagi, dindagi va boshqa bilim sohalaridagi olam tushunchalariga nisbatan boyroq, sermazmunroq va kengroqdir.

Olamning namoyon bo`lish shakllari xilma - xildir. Faqat moddiy jismlarnigina o`ziga qamrab oluvchi olamni moddiy olam deyishadi. Ayrim kishilar uni jismoniy, ya'ni fizik olam deb atashadi. Odamning ma'naviy, ruhiy dunyosini qamrab oluvchi olamni ma'naviy olam deyishadi. Aynan shu paytda biz bilan birgalikda mavjud bo`lgan olam aktual olam deyiladi. Kelajakda mavjud bo`lish imkoniyati bor va bo`lishi mumkin bo`lgan olam potentsial olam deyiladi. Masalan, sizning bugungi kundagi talabaligingiz aktual olamga mansub bo`lsa, kelajakda mutaxassis bo`lib etishishingiz esa potentsial

olamga mansubdir.

Olamning mavjudligi shubhasiz bo`lgan va barcha e'tirof etadigan qismi real olam deyiladi. Kelajakda mavjud bo`lishi extimoli bo`lgan olam virtual olam deb ataladi (virtual so`zi lotincha virtualis - ehtimoldagi degan ma'noni beradi). Aniq ma'lum bo`lgan olam konkret olam deyiladi, xayoldagi, tasavvurdagi, idealdagi olam obrazi abstrakt olam deyiladi.

Odamning kundalik hayotidagi hammaga ma'lum bo`lgan, tan olingan hayoti real olamga mansub bo`lsa, uning xayoliy rejalari virtual olamga, uning o`zi va atrofidagilar konkret olamga, kelajakka yo`nalgan orzu-umidlari esa abstrakt olamga mansubdir. Odam o`z rejalarini real olamga asoslanib tuzsa, potentsial olamning konkret reallikka aylanish ehtimolligi oshadi.

Odam olamda boshqalardan ajralib, yakkayu yagona bo`lib emas, balki ijtimoiy hayot kechiradi va jamoa bo`lib yashaydi. Odamlar jamoasi jamiyatni tashkil etadi. Odamlar jamiyatdagi o`zaro munosabatlari, faoliyatlari, o`y-xayollari, ideallari, maqsad va mas-laklari bilan birgalikda ijtimoiy olamni tashkil etishadi. Odamning jamiyatdag`i boshqalar bilan birgalikdagi ijtimoiy faoliyati, ularning har biriga xos bo`lgan takrorlanmas individual olamlariga bog`liqtsir. Individual olam, ayni paytdatashqi olamni ham, ijtimoiy olamni ham aks ettiradi, o`zida ifodalaydi. Bular bir-birlari bilan chambarchas bog`liqdir.

Xullas, olam haqidagi xilma-xil tasavvurlar mavjudlikning eng umumiy falsafiy tushunchasi shakllanishiga asos bo`lib keldi. Bunday tushuncha borliq haqidagi tushunchadir

2. Borliq falsafasi

Faylasuflar qadim zamonlardan buyon "borliq" va "yo`qlik" haqida bahs yuritishgan. Ular borliqning vujudga kelishi, mohiyati, xususiyatlari va shakllari haqida ko`plab asarlar yozishgan. Xo`sh, borliq nima? Bu savod bir qarashda juda oddiy ko`ringani bilan unga shu choqqacha barcha kishilarni birday qanoatlantiradigan javob topilgani yo`q. Bu holat borliqqa turlicha nuqtai nazarlardan qarashlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, ayrim faylasuflar borliqni moddiylik, moddiy jismlar bilan bog`lab tushuntirishadi. Ularning nuqtai nazarlaricha, borliq - ob'ektiv reallniginа qamrab oluvchi tushunchadir. U holda fikr, inson tafakkuri, o`y-xayollarimiz bor-liq tushunchasidan chetda qolar ekanda, degan savolga ular, bunday tushunchalar ob'ektiv reallikning hosilasidir, deb javob berisha-di.

Falsafaning borliq haqidagi ta'limotni izohlaydigan qismi - **ontologiya** deb ataladi. (Bu tushunchani falsafada birinchi bor X. Volf qo`llagan). Olam va borliq masalalarini falsafaning ana shu sohasi o`rganadi.

**Yo`klik** hech nima demakdir. Hamma narsani hech narsaga aylanti-ruvchi, hamma narsaning ibtidosi ham, intihosi ham yo`qlikdir. Bu ma'noda yo`qlik cheksizlik. nihoyasizlik va mangulik bilan birdir. Yo`qlik chekingan joyda borliq paydo bo`ladi. Demak, borliqning bunyodkori ham, kushandasi ham yo`qlikdir. Borliq yo`klikdan yo`klikkacha bo`lgan mavjudlikdir. Yo`klikni hech narsa bilan qiyoslab bo`lmaydi. Fanda yo`qlik nima, degan savolga javob yo`q.

Tarixdan ma'lumki, faylasuflar borliq haqida turlicha g`oyalarni ilgari surishgan. Markaziy Osiyo tuprog`ida vujudga kelgan zardo`shtiylik ta'limotida borliq quyosh va

olovning hosilasidir, alangalanib turgan olov borliqning asosiy mohiyatini tashkil etadi, deb hisoblangan. CHunki bu g`oya bo`yicha, har qanday o`zgarish va harakatning asosida olov yotadi va u borliqqa mavjudlik baxsh etadi.

Qadimgi yunon faylasufi Suqrot borliqni bilim bilan qiyoslaydi va uningcha, biror narsa, biz uni bilsakkina bor bo`ladi, insonning bilimi qakcha keng bo`lsa, u shuncha keng borliqni qamrab oladi, deb hisoblaydi.

Qadimgi dunyoning atomist olimi Demokrit borliq atomlar maj-muasidan iborat, deb tushuntirgan. Uning fikricha, borliqning mohiyati uning mavjudligidadir. Mavjud bo`lmagan narsa yo`kliqdir.

Islom ta’limotida borliq ilohky voqelikdir. YA’ni, u Olloh gan mavjudlikdir. Bu borada vaxdati vujud va vahdati mavjud talimotlari bo`lgan.

Islom diniga mansub mutafakkirlar borliq haqidagi ta’limoti har taraflama rivojlantirganlar. Masalan, Forobiy fik-richa ilk borliq azaliy Olloxning o`zidir. Beruniy fikricha, borliq shunday umumiylikki, u hamma narsaning asosida yotadi, demak borliq hamma narsaning asosidir. Evropada o`tgan olimlar David YUm va Jorj Berkli borliqni sezgilarimiz majmuasi, deb talqin etishgan.

Gegel esa borliqni mavhumlik, mutlaq ruhning namoyon bo`lishi, deb ta’riflaydi. Ko`pgina naturfalsafiy qarashlarda borliqni hozirgi zamon bilgn, ya’ni shu aktual olamga bog`lab tushuntirdilar.

Aslida, borliq keng falsafiy tushuncha bo`lib o`ziga butun mavjudlikni, uning o`tmishi, hozir va kelajagini ham qamrab oladi. Faylasuflar borliqni tushuntirish uchun yo`kdik tushunchasini unga antipod qilib olishgan va shu asosda borliqning zaruriy mohiyatini ochishga intilganlar. Materialistik adabiyotlarda borliqni ob’ektiv reallik bilan, materiya bilan aynanlashtirib tushuntirishadi.

Borliq o`ziga ob’ektiv va sub’ektiv reallikni, mavjud bo`lgan va mavjud bo`ladigan olamlarni, moddiylik va ma’naviylikni, o`tmish va kelajakni, o`lim va hayotni, ruh va jismni qamrab oluvchi umumiy tushunchadir.

Atrofimizdagi odam, olam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g`oyalar, o`y-xayollarimiz barchasi birday mavjuddir, ular turli tarzda va shakllarda namoyon bo`lib, hammasi mavjudlik belgisi ostida umumlashib, borliq tushunchasiga kiradi.

Materialistik mazmundagi borliq tushunchasi ta’rifiga faqat ob’ektiv real olam, ongdan tashqaridagi, unga bog`liq bo`lmagan jismoniy mohiyatga ega bo`lgan narsalargina kiritiladi. Borliqning ideal, virtual, potentsial, abstrakt, ma’naviy shakllari bu ta’rkfdan tashqarida qoladi.

Aslida esa, borliq kategoriyasi umumiy abstraktsiya bo`lib, mavjudlik belgisi bilan barcha narsa va hodisalarni o`ziga qamrab oluvchi o`ta keng tushunchadir. U o`ziga nafaqat ob’ektiv reallikni, balki sub’ektiv reallikni ham qamrab oladi.

Borliq mavjudlik va reallik tushunchalariga qaraganda ham kengroq tushunchadir. Mavjudlik - borliqning hozirgi paytda namoyon oulib turgan qismi bo`lib, o`tgan va mavjud bo`ladigan narsa va hodisalar ham borliq tushunchasiga kiradi. Reallik esa, mavjudlikning hammaga ayon bo`lgan, ular tomonidan tan olingan qismi. Borliq o`ziga reallikni ham, mavjudlikni xam qamrab oladi. An’anaviy falsafiy qarashlarda borliqning uchta sohasi ajratib ko`rsatiladi. Ularga: tabiat borlig`i, jamiyat borlig`i, ong borlig`i kiradi. Bular uchun eng umumiy belgi, ularning mavjudligidir.

SHuningdek, falsafiy adabiyotlarda tabiat borlig`i va jamiyat borlig`ining quyidagi shakllari ham farqlanadi. **Tabiat borligi** odatda tabiatdagi narsalar (jismlar), jarayonlar,

holatlar borlig`i sifatida tushuniladi. U ikkiga bo`linadi: azaliy tabiat borlig`i (yoki tabiiy tabiat borlig`i, u insondan ilgari va uning ishtirokisiz ham mavjud bo`lgan) va odam mehnati bilan ishlab chiqarilgan narsalar borlig`i ("ikkinchi tabiat" borlig`i, ya'ni madaniyat). Ikkinchi tabiat borlig`i esa, o`z navbatida, quyidagi ko`rinishlarda uchraydi:

— **inson borlig`i** (insonning narsalar olamidagi borlig`i va odamning o`ziga xos bo`lgan insoniy borlig`i);

— **ma'naviy borliq** (individuallashgan va ob'ektivlashgan ma'naviy borliq);

— **sotsial borliq** (ayrim odamning tarixiy jarayondagi borlig`i va jamiyat borlig`i) ijtimoiy borliqdeb ham ataladi.

Borlikning shakllari

Borliqning moddiy shakli materiya o`ziga barcha jismlarni, xodisalarni, jarayonlarni va ularning xususiyatlarini qamrab oladi. Bundan tashqari, u tafakkurni ham, olamda mavjud bo`lgan barcha aloqadorliklarni va munosabatlarni ham qamrab oluvchi umumiy falsafiy tushunchadir. Borliqning moddiy shakliga xos umumiylikni axtarishning bir yo`nalishi moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish yo`li bo`lib, yuqorida qayd etganimizdek, substaniiyani aniklash yo`lidir. Ikkinchi yo`l esa - moddiy olamning asosiy tarkibiga kiruvchi "qurilish elementlari"ni - substratni axtarish yo`li. Uchinchi yo`l - hamma narsani vujudga keltiruvchi bosh sababchisini, ota moddani, ya'ni pramateriyani axtarish yo`li. Mana shu yo`l haqida maxsus to`xtab o`taylik.

Olamning substantsiyasini axtarishning bu usuli go`yoki meva iste'mol qilayotgan kishi, uning kelib chiqishini axtarib, dastlab daraxtga, so`ngra uning guliga, bargiga, ko`chatiga va urug`iga nazar solganidek, atrofimizdagi moddiy olamning o`zagida dastlabki yaratuvchi modda sifatida nima yotishini, ya'ni ilk materiyani, azaliy materiyaning "bobokoloni"ni, "pramateriya"ni axtarish usulidir.

Moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish falsafada materiya haqidagi tasavvurlarning maydonga kelishiga va rivojlanishiga sababchi bo`ldi. Materiya tushunchasi moddiy unsurga nisbatan ham, atomga nisbatan ham, pramateriyaga nisbatan umumiyroq bo`lgan tushunchadir. Materiya olamdagi barcha moddiy ob'ektlarni, butun ob'ektiv reallikni ifoda etuvchi eng umumiy tushunchadir. Faylasuflar "Tom ma'nodagi materiya faqat fikring mahsuli va abstraktsiyasidir", deb yozishadi. Faylasuflar barcha moddiy ob'ektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash ko`llaydigan tushuncha materiya, deb ataladi. Demak, materiya moddiy ob'ektlarga xos eng umumiy tushuncha, falsafiy kategoriyadir.

Albatta, bu ta'riflarni bir yoqlama mutlakdashtirib tushunmaslik lozim. Bu ta'riflarda ko`proq sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi mumkin bo`lgan reallik nazarda tutilgan.

XX asrning o`rtalariga kelib, kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi va hozirgi zamon kosmologiyasi sohalaridagi ilmiy yutuqlar kishilarning ob'ektiv olam haqidagi tasavvurlarini tubdan o`zgartirib yubordi. Natijada, tabiatshunos olimlar sezgilarimizga bevosita ta'sir etishining imkoni bo`lmaydigan realliklar haqida ham tadqiqotlar olib bora boshlashdi.

Olamning klassik mexanika nuqtai nazaridan kelib chiqib, nisbatan kichik tezlikda harakatlanuvchi sistemalar haqidagi il-miy manzarasi o`rnini yangicha ilmiy manzaralar egallay boshladi. Bu esa materiya haqidagi tasavvurlarning yanada rivojlanishiga sharoit tug`dirdi. Bu o`zgarishlarni hisobga olib, marksist-faylasuflar buta'rifga sezgilarimizga

bevosita yoki bilvosita (ya’ni, turli asboblar, qurilmalar vositasida) ta’sir etuvchi, degan qo`shimcha kiritishdi. SHunday qilib, bu ta’rif go`yo materiyaning moddaviy va nomoddaviy shakllarini, ya’ni modda va antimodda ko`rinishlarini qamrab oluvchi ta’rifga aylandi.

Materialistlar materiyani ob’ektiv reallik, deb ta’riflashadi. Ob’ektiv reallik inson sezgilariga bog`liq bo`lmagan holda, undan tashqarida mavjud bo`lgan voqelikdir. Bu butun mavjudlikning sub’ektiv reallikdan tashqaridagi qismi hisoblanadi. Ob’ektiv reallikning mavjudligi qaiday namoyon bo`ladi? Bu savolga javob topishda, borliqning ajralmas xususiyatlarini o`rganishga to`g`ri keladi. Har qanday jismning ajralmas xususiyati lotincha "atribut" so`zi bilan ataladi.

Muayyan jismning aynan shu jism ekanligini belgilovchi xususiyatlari uning atributlari bo`ladi. Borliqning ham bir qancha atributlari mavjuddir. Ular: harakat, fazo, vaqt, in’ikos, ong va boshqalar. Borliq o`zining xossalari, xususiyatlari orqali namoyon - qiladi. Endi borliqning atributlari, ya’ni ajralmas tub xususi-yatlari haqida to`xtab o`taylik.

Borliqning atributlari ichida uning asosiy mavjudlik usulini ifoda etuvchi xu-susiyati harakat hisoblanadi. CHunki borliq xarakatsiz o`zining strukturaviy yaxlitligini saqlay olmaydi.

Buni moddiy borliq misolida qarab chiqaylik. Faraz qiling qarshimizda biror jism turibdi. Agar harakat bo`lmaganida edi, yorug`lik nurlari shu jismga urilib bizga qaytmagan bo`lar edi, ya’ni biz uni ko`rmagan bo`lar edik. SHuningdek, bu jismning yax-litligini saqlab turgan molekulalar, atomlar, elementar zarrachalar o`rtasidagi o`zaro ta’sirlar ham bo`lmasdi. Natijada bu jismning strukturaviy birligiga putur etgan bo`lar edi. Tevarak-atro-fimizdagi predmetlar va hodisalar harakat tufayli o`zining muayyan tartibini va birligini saqlab turadi, shu tufayli, o`sish, ulg`ayish, ravnaqtopish, rivojlanish mavjuddir.

Harakat, bir tomondan, moddiy jismlar o`rtasidagi va ularni tashkil etuvchi elementlar o`rtasidagi aloqadorliklarning natijasi, boshqa tomondan esa, ulardagi o`zgarishlar sifatida sodir bo`ladi. SHu nuqtai nazardan ham falsafaning xarakat - umuman har qanday o`zgarishdir, deyilgan ta’rifi juda o`rinlidir. Harakatning manbai haqida gap ketganda, ana shu o`zgarishlarning asosida yotuvchi o`zaro ta’sirlar va ular orasidagi munosabatlar nazarda tutiladi.

Demak, har qanday harakatning manbai shu sistemadagi ichki o`zaro ta’sirlar ekan, har qanday jismning mavjudligini, eng avvalo, uning ichki aloqadorliklari ta’minlaydi.

Harakatning turlari haqidagi mulohdza, asosan, o`zgarishlarning xususiyatiga asoslangan. O`zgarishlar oddiy fazoviy siljishdan tortib, murakkab ijtimoiy o`zgarishlargacha takomillashib borgan. SHu tufayli harakatga faqatgina fazoviy siljish, deb qaramaslik lozim. Bunday qarash olamdagi barcha jarayonlarga mexanik harakat nuqtai nazaridan yondashishni vujudga keltiradi. Aslida olamda o`zgarishning xilma-xil ko`rinishlari mavjud bo`lib, ular bir-biridan sifatiy farq qiladi.

Mexanik, ximiyaviy, biologik, fizik o`zgarishlar bilan ijtimoiy o`zgarishlarni aslo taqqoslab bo`lmaydi. To`g`ri, bu o`zgarishlar uchun umumiy bo`lgan fazoviy siljishlar harakat shakllarining hammasida ham u yoki bu ko`rinishda namoyon bo`lishi mumkin. Lekin hamma o`zgarishni ham faqatgina fazoviy siljishdan iborat, deb bo`lmaydi. Masalan, Erning Quyosh atrofidagi, Oyning Er atrofidagi harakatini fazoviy siljishning

yaqqol ko`rinishi de-yishimiz mumkin. Lekin Er bag`rida ro`y berayotgan murakkab geologik jarayonlarni, Er sirtidagi biosferaningyashash usulini birgina mexanik siljish bilan izohlab bo`lmaydi. Harakatning shakli qanchalik murakkab bo`lsa, u bilan bog`liq bo`lgan o`zgarishlar ham kadar murakkab bo`ladi. Materiyaning tashkiliy struktura darajasi kanchalik yuqori darajada bo`lsa, unda fazoviy siljish ham shu qadar kam seziladi.

O`zgarishlarning shunday bir shakli borki, uni falsafada rivojlanish deb ataladi. Rivojlanish - muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgarilanma yo`nalishga zga bo`lgan, miqdoriy va sifatiy o`zgarishidir.

SHu jihatdan harakatning ikki xil turi bir-biridan farq qilinadi. Harakatning birinchi turi jismda uning sifati va turg`unligini saklagan holda ro`y beradigan ichki o`zgarishlarni o`z ichiga oladi. YA’ni, har qanday jismda beto`xtov ichki o`zgarishlar ro`y berib turadi, lekin bu o`zgarishlar shu jismning tashqi sifatiga jiddiy ta’sir ko`rsatmaydi.

Atrofimizni qurshab turgan har bir jism molekulalardan, molekulalar esa atomlar va elementar zarrachalardan tashkil topgan ekan. bu jismlarning molekular va atom tuzilish darajasida ham beto`xtov o`zgarishlar ro`y berib turadi. SHuningdek, xar bir jism o`zining atrofidagi boshqa jismlarning va ulardan tarqalayotgan nurlanishlarning ta’siriga ham uchrab turadi. Bunday tashqi ta’sirlarni o`zida in’ikos ettirish jarayonida ro`y beradigan o`zgarishlar ham bu jismning sifatiy o`zgarib ketishiga olib kelmasligi, uning turg`unligi va asosiy sifati saqlanib qolishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Biz yuqorida qayd etgan ichki va tashqi ta’sirlar oqibatida ro`y beruvchi o`zgarishlar asta-sekin to`planib, keyinchalik jismda keskin sifatiy o`zgarishning vujudga kelishiga ham sabab bo`lishi mumkin. Mana shunday o`zgarish, ya’ni jismning sifatini o`zgartiruvchi harakat ikkinchi turdagi harakatga kiradi va u rivojlanish deb ataladi.

Rivojlanish jarayoni ham ikki turda bo`ladi. Birinchi turdagi rivojlanish bo`yicha, jismda har qanday sifatiy o`zgarish ro`y berishiga qaramasdan, uni tashkil etgan materiyaning sifatiy tuzilish darajasi o`zgarmasdan qolaveradi.

Masalan, notirik tabiatga mansub bo`lgan Quyoshdagi ravojlanishni olib qaraylik. Olimlarning taxminlariga ko`ra, hozir sirtida 6 ming, ichida esa bir necha million darajali haroratga ega ulkan Quyosh borib-borib soviydi va qizil gigantga aylanadi, ya’ni Quyoshning markazidagi termoyadro energiyasi so`ngach, ichki zichligi pasayadi va markazdagi tortishish quvvati susayadi. Oqibatda quyosh shisha boshlaydi va Er orbitasini ham o`z ichiga olgan ulkan qizil yulduz vujudga keladi, u asta-sekin sovib, qizil karlikka, so`ngra esa "qora karlikka", keyin bo`lsa neytron yulduzga aylanadi. Bunday o`zgarishlar natijasida borliqning tashkiliy struktura darajasi o`zgarmaydi, ya’ni jonsiz tabiat shaklidagi darajasi saklanadi.

Jonli tabiatning vujudga kelishi, o`simliklar va hayvonot olamining paydo bo`lishi, odamning shakllanishi, jamiyatning vu judga kelishi singari sifatiy o`zgarishlar esa rivojlanishning ikkinchi turiga kiradi.

Falsafa fanida harakatning bir-biridan sifatiy farq qiluvchi bir qancha boshqa shakllari ham o`rganiladi.

Materialist bo`lgan faylasuflar harakat shakllarini turkumlaganida quyidagi mulohazalarga tayanib ish yuritadilar:

1) harakat shakllari bir-birlari bilan sifat jihatidan farq qilib. Ularning har biri materiyaning tashkiliy tuzilishi darajalarining muayyan bosqichida namoyon bo`ladi;

2) materiyaningharakat shakllari bir-biri bilan genetik jihatidan, kelib chiqishi jihatidan ketma-ket bog`langan, ya’ni harakatning murakkabroq shakllari uning nisbatan soddaroq shakllaridan kelib chiqqandir;

3) harakatning yuqori shakllari tarkibidagi quyi shakllari uning yuqori shakllariga ham mansubdir, ammo harakatning yuqori shakli o`zidan quyi shakldagi harakatga mansub emasdir. SHu muloxazalarga tayangan holda harakatning beshta shaklini ajratib olksh

mumkin. Ular - mexanik, fizik, ximiyavik, biologik va ijtimoiy harakatlardir.

Falsafada harakat shakllarini turkumlashning bir qancha boshqa ko`rinishlari ham bor. Ayrim olimlar harakat shakllarini har bir fanning nomi bilan bog`lash kerak, deb hisoblashadi. Bunday qarashning xatoligi shundaki, fanlarning ko`pchiligi harakat shaklini emas, balki miqdoriy munosabatlar va holatlarni aks ettiradi. Masalan, geodeziya yoki geometriya, trigonometriya yoki topografiya, chiziqli algebra qanday harakat shaklini o`rganadi? Kibernetika esa ham tabiatda, ham jamiyatda amal qiluvchi boshqarish jarayonlarini o`rganadi, ya’ni bu fan bitta emas, balki bir qancha harakat shakllarini qamrab oladi.

Harakat shakllarini turlash bo`yicha quyidagi tabiiy-ilmiy kontseptsiya ham diqkatga sazovordir. Mazkur kontseptsiya bo`yicha harakat shakllari quyidagicha turlanadi: fizik harakat (elementar zarrachalar, maydon va atomlarning harakati), ximiyaviy harakat (atomlar va molekulalarning harakati) va bunda harakatning rivojlanishi ikki yo`nalishga ajraladi: 1) harakat rivojlanishining yuqori yo`nalishida biologik harakat shakllanadi; 2) harakat rivojlanishining quyi yo`nalishida esa geologik harakat shakllanadi, biologik harakatning taraqqiyoti ijtimoiy harakatga olib boradi.

YAna bir boshqa kontseptsiyada esa harakat borliqning tashkiliy tuzilish darajalariga mos ravishda turlangan. Bu kontseptsiyada harakat shakllari uchta sinfga ajratiladi: notirik tabiatda - elementar zarrachalar va maydon harakati, tirik tabiatda - hayotning naoyon bo`lishi, jamiyatda - odamning faoliyati.

Ijtimoiy harakat bizga ma’lum bo`lgan harakat shakllari ichida eng murakkabi bo`lib, unda insonning ongli faoliyati, inson tafakkuri, ijtimoiy guruxlarning faoliyati, o`zaro munosabatlari jamiyat miqyosidagi ijtimoiy fikr birgalikda harakatga keladi. Bu harakatni chizikli, batartib harakatlar bilan mutlaqo taqqoslab bo`lmaydi. Uning kelajagini bashorat qilish ham o`ta murakkabdir.

Fazo va vaqt

Borliqning asosiy yashash shakllariga fazo va vaqt kiradi. Fazo iarsalarning ko`lamini, hajmini, o`zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa, vaqt hodisalarning ketma-ketligi. Jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi.

Ma’lumki, har qanday moddiy jism joyga, ko`lamga, hajmga ega. Fazo - vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o`zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa fazoning muayyan nuqtasida ro`y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi.

Fazo va vaqt tushunchalari, ko`p hollarda, forsiy til ta’sirida yozilgan adabiyotlarda makon va zamon deb ham ataladi. Bu tushunchalar fazo va vaqtning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina aks ettiradi, xolos. Fazo narsalar joylashadigan joy ma’nosida, vaqt esa hodisalar bo`lib o`tadigan muddat ma’nosida ishlatiladi.

Fazo va vaqtni tushunish bo`yicha substantsial va relyatsion yondashishlar mavjud. Substantsial kontseptsiya tarafdorlari fazoni narsalar joylashadigan idish, bo`shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o`ziga narsalarni sig`diruvchi substaniiya. Hech narsasi yo`q, ya'ni narsalar solinmagan fazo ham bo`lishi mumkin, deyiladi. Relyatsion konieptsiya tarafdorlari esa, narsalar fazoviy o`lchamga ega, deyishadi.

Hech narsasiz fazoning bo`lishi mumkin emas. Bu farqni relyativistik fizika asoschisi Albert Eynshteyn shunday tushuntirgan edi. Faraz qilib, bir kazarma soldatlarni ko`z oldingizga keltiring. Nyuton fizikasiga ko`ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma bo`sh qoladi, ana shu substantsial kontseptsiyadagi fazodir. YAngi fizikaga ko`ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma ham yo`qoladi. Bu relyatsion kontseptsiyadagi fazodir.

Fazo va vaqt borliq miqdoriy va sifatiy jihatlarni ifodalashiga qarab, metrik va topologik xususiyatlarga ega. Fazo va vaqtning metrik xususiyatlari borliqning miqdoriy munosabatlarini aks ettirib, o`lchanadigan, ko`zga tashlanadigan va nisbiy tabiatli xususiyatlaridir. Ularga ko`lam, bir jinslilik, izotroplik (anizotroplik) kabi xususiyatlar kiradi.

Fazo va vaqtning topologik xususiyatlari esa borliqning tub sifatiy jihatlarini ifodalaydi. Bunday xususiyatlarga uzluksizlik, bog`langanlik, o`lchamlilik, kompaktlik, tartiblanganlik singari xususiyatlar kiradi. Vaqtning topologik xususiyatlariga orqaga qaytmaslik, bir o`lchamlilik kabi xususiyatlar qo`shiladi.

Fazo (vaqt) ning metrik o`zgarishlari borliq strukturasini jiddiy o`zgartira olmaydi, toggologik o`zgarishlar esa borliqning sifatiy o`zgarishiga sababchi bo`ladi. Masalan, bir bog`langan sistemaning ko`p bog`langan sistemaga o`tishi fazo topologiyasini tubdan o`zgartiradi, ya'ni fazoning ikki nuqtasini tutashtiruvchi turlicha yo`llar paydo bo`ladi. Bunday fazoda katta idishning ichiga kichik idishni sig`dirish mumkin bo`ladi. O`lcham darajasi ko`p bo`lgan sistema o`lchov darajasi kam bo`lgan sistemaga nisbatan ko`rinmas va murakkab bo`ladi. SHuningdek, fazo va vaqtning metrik xususiyatlari kuchli o`zgarishi topologik xususiyatlarining o`zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, fazoning egrilik darajasi kuchli o`zgarsa, bir bog`langan fazo ko`p bog`langan fazoga aylanishi mumkin.

3. Tabiat falsafasi

Tabiat va jamiyat haqidagi konkret fanlar borliqning o`z predmetlariga mos keluvchi muayyan xususiyatlarinigina o`rganadi. Borliqning umumiy xossalari haqida esa falsafa fani tadqiqot olib boradi.

Bizning tevarak-atrofimizni xilma-xil ko`rinishdagi, shakldagi turli-tuman moddiy ob'ektlar o`rab olgan. Ular turli xil xossshgarga va xususiyatlarga eg`adir. Bir payt xamma jismlar materiyaning bo`linmas shakli atomlardan tashkil topgandir, degan tasavvur hukmron edi. Atomlarning murakkab xuzilganligi haqidagi farazlar bizning asrimizga kelib uzil-kesil tasdiqlandi.

Hozirgi zamon fanlarining xulosalariga ko`ra, atrofimizdagi qanday jism molekulalardan tashkil topgan, molekulalar esa atomlardan tuzilgan. Atomlar murakkab tuzilgan yadro va elektron kobiqlardan iborat. Atomning elektron qavatlari bir-biridan va atom yadrosidan muayyan uzoqpikda joylashgan bo`ladi. Eng sodda

atom hisoblanuvchi vodorod atomining yadrosi bitta protondan, murakkabroq atomlarning yadrosi esa proton va neytronlardan tashkil topadi. proton va neytronlar kvarklar va ularni tutashtirib turuvchi glyuonlar (glyuon-yopishtiruvchi degan ma’noni beradi)dan tashkil topgandir.

Proton va neytron nuklonlar (lot. nucleus - yadro, o`zak) hisoblanadi, nuklonlar va hiperon (yun.hiper ustida, yuqoridan tashqari) lar, barionlar (yun. barus-og`ir) deyiladi. Bular og`ir zarrachalar sifatida kuchli o`zaro ta’sirlar maydonida bo`lib, adronlar (yun. adros-kuchli) gruppasiga mansub.

Organik va anorganik moddalar molekula tuzilishi bilan bir-biridan farq qiladi. Jonli organizmlar organik modtsalardan tashkil topgan bo`ladi. Jonli organizmlarning tarkibi asosida hujayralar va hujayra sistemalari yotadi. Er shari atrofini qurshab turuvchi biosferani bir butun jonli sistema deb olish mumkin. Mikroorganizmlar, o`simlik dunyosi, hayvonot dunyosi va inson-ning o`zaro aloqadorliklari bu biosferaning mavjudligini ta’minlab turadi.

Er shari va o`z atrofida harakatlanuvchi Oy bilan birga yilda bir marta Quyosh atrofini aylanib chiqadi. Bu sistema ham biosferaga o`z ta’sirini o`tkazadi. Er yuzida mintaqalarning farq qilishi, fasllarning almashinuvi ana shu sistema harakati bilan bog`-langandir. Quyosh va uning atrofida harakatlanuvchi sayyoralar, ularning yo`ldoshlari, asteroidlar, meteoritlar, kometalar va kichik planetalar birgalikda Quyosh sistemasini tashkil etadi. Quyoshdan eng uzokda joylashgan planeta Pluton uning atrofini 247 yarim yilda bir marta to`liq aylanib chiqadi, ya’ni Er yili - 365,25 kunga teng bo`lsa - Pluton yili 247 ta Er yiliga tengdir.

Quyosh sistemasi millionlab yulduzlarni o`z ichiga oluvchi Galaktika (Somon yo`li) tarkibiga kiradi. Uning diametri 94,6 mln. yorug`lik yiliga teng. Undan keyingi sistema galaktikalar to`pi bo`lib uning diametri 1 megaparsekka teng, u 30 tagacha galaktikani o`z ichiga oladi (1 parsek 3,26 yo. y). Keyingi sistema - galaktikalarning mahalliy to`pi, unga 2 ta gipergalaktika va 27 ta mitti galaktikalar kiradi. Majmuada 500 tagacha galaktika bo`ladi, uning diametri - 5 megaparsek. Galaktikalar majmuasi galaktikalarning o`ta majmuasiga birlashadi, uning diametri 40 megaparsek bo`lib o`zida 10 mingdan ziyod galaktikani birlashtiradi. O`ta yirik majmualar koinotning boshqa strukturaviy birliklariga kiradi. Koinotning radiusi esa 15-20 mlrd. yo.y. tengdir.

Bu sistemalarni falsafiy jihatdan umumlashtirib, borliqning moddiy ko`rinishlarini turli xil struktura darajalariga ajratish mumkin.

Sifatiy jihatdan materiya ikki xil shaklda, ko`rinishda uchraydi: moddasimon va nomodda ko`rinishida. Materiyaning moddasimon ko`rinishdagi shakllari ikkiga, modda va antimoddaga ajraladi. Bular bir-biri bilan chambarchas bog`langan bo`lib, ular to`qnashganda keskin sifatiy o`zgarish ro`y beradi, ya’ni moddaning moddaviy ko`rinishi nomoddaviy ko`rinishga aylanadi. Materiyaning nomoddaviy ko`rinishi ham ikki xil shaklda uchraydi: maydon va nurlanish. Muayyan maydondagi nurlanishlar fizik vakuumda (fizik vakuum fizik jismlardan xoli bo`lgan joy) moddiy zarrachalarning hosil bo`lishiga imkon beradi. Xullas, bular ham bir-biri bilan chambarchas bog`langandir. Materiyaning biz yuqorida qayd etgan ko`ri-nishlaridan boshqacha ko`rinishdagi turlari ham bo`lishi mumkin. Ularning tabiati hali fanga ma’lum emas. Agar biz borliqning moddiy ko`rinishlarini tuzilishi jihatidan turkumlashtirsak, borliqning struktura darajalari haqidagi xulosa hosil bo`ladi.

Biz tevarak-atrofimizga nazar tashlasak, umuman borliqqa emas, balki

muaiyan jismlarga, narsa va hodisalarga ko`zimiz tushadi. Siz bilan biz inson sifatida Er sharida istiqomat qilamiz, o`zimizga mos keluvchi o`lchovlar bilan ish yuritamiz. Biz odatlangan o`lchovdagi kattaliklarni makroskopik kaggaliklar, deb hisoblaymiz va bu **makrodunyoni** tashkil qiladi.

SHu nuqtai nazardan borliqning struktura darajalarini miqesiy struktura va tashkiliy-struktura darajalariga ajratamiz. Borliqdagi ob'ektlar miqyosi bilan farq qiluvchi uchta miqyosiy struktura darajalariga ajraladi. Ular: mikrodunyo, makrodunyo va mega-dunyo. **Mikrodunyo** atom miqyosidan kichik bo`lgan dunyodir. Bu dunyoga atom strukturasi va elementar zarrachalar, atom yadrosi, kvarklar, kernlar kiradi. Bu dunyoning yaxlitligini va turg`unligini saqlab turuvchi ikkita fundamental kuch mavjuddir, ular kuchli va kuchsiz yadroviy o`zaro ta'sirlardir.

Kuchli o`zaro ta'sirlar atom yadrosining strukturaviy yaxlitligini saqlab tursa, kuchsiz o`zaro ta'sirlar atom strukturasining yaxlitligini ta'minlaydi. Molekulalar tuzilishidan tortib, Er sharining yaxlitligini saklashgacha xizmat qiluvchi kuch elektromagnit o`zaro ta'sirlaridir.

Elektromagnit o`zaro ta'sirlari tufayli molekulali birikmalar va Erdagi barcha hayotiy jarayonlar o`zining strukturaviy birliklarini saqlaydi. Agar elektromagnit o`zaro ta'sirlari bo`lmaganda edi. Quyosh nurlari (ya'ni, elektromagnit nurlanishlari) Erga etib kelmagan va Erda hayotiy jarayonlar shakllanmagan bo`lar edi.

Er, uning tabiiy yo`ldoshi Oy va boshqa sayyoralar Quyosh atrofida harakatlanadi. Bu sistemaning va umuman butun Koinotning strukturaviy yaxlitligi esa gravitatsion o`zaro ta'sirlari tufayli saklanadi. Gravitatsion o`zaro ta'sirlari biriktirib turgan dunyo **megadunyo** deb ataladi.

Ular bir-biri bilan chambarchas bog`langandir, shuningdek, ular bir-biriga almashinishi ham mumkin. Xozir megadunyo hisoblangan koinotimiz bundan 15-20 mlrd. yil muhaddam o`ta kichik mikroskopik ob'ekt bo`lgan, degan taxmiilar bor. SHuningdek, biz mikro-ob'ekt deb hisoblayotgan elementar zarracha neytron o`zining ichida milliardlab yulduz va galaktikalariga ega bo`lgan butun boshli Koinot bo`lishi va aksincha, diametri bir necha milliard yorug`lik yiliga teng bo`lgan ulkan Koinotimiz ham chetdan kuzatayotgan kishiga o`ta kichik elementar zarracha hisoblanishi ham mumkin. Borliqning strukturaviy tuzilishini uning sifatiy rivojlanishi nuqtai nazaridan olib qarasak, moddiy olam bu holda ham uchta darajaga ajraladi. Uning tashkiliy struktura darajalarini: anorganikdunyo (notiriktabiat), organikdunyo (tirik tabiat) va ijtimoiy dunyo (jamiyat)ga ajratiladi. Ular bir-biridan xilma-xilligi, ugoshganligi, nisbiy mustaqilligi va faolligi bilan farq qiladi.

Anorganik dunyo yoki motirik tabiatda fizikaviy va ximiyaviy aloqadorliklar hukmronlik qiladi, shu tufayli notirik tabiatdagi qonuniyatlar shu tabiat fanlari doirasida cheklangan bo`lib, tirik dunyoga nisbatan passiv va tashkiliy uyushganligi past darajada bo`ladi.

Tirik tabiatda, ya'ni organik dunyoda esa biologik aloqadorliklar ham qatnashganligi sababli uning uyushganlik darajasi yuqoriroq, faolroq va murakkabroq tuzilgan bo`ladi.

Ijtimoiy dunyo darajasida esa yuqorida aytilgan aloqadorliklardan tashqari, jamiyatga xos bo`lgan ijtimoiy aloqadorliklar hamm ishtirok etadi. Bunday dunyoning tuzilishi nixryatda murakkab bo`lib, borliq bu darajada o`zining o`ta uyushganligini, nisbiy mustaqilligini va yuqori darajada faolligini namoyish qiladi Bu dunyoning

strukturaviy elementi bo`lgan har bir inson jamiyatga xos bo`lgan barcha aloqadorliklarni o`zida aks ettiradi va ijtimoiy munosabatlarda, aloqadorliklarda ongli ravishda, maqsadga binoan, muayyan mo`ljallarni oldindan belgilagan holda harakat qiladi.

Bu borada oddiy bir misol keltiraylik. Masalan, qo`lingizdagi kitobni ham har xil, bir-biriga o`xshamaydigan, ammo bir kasbdagts mutaxassislar yozishgan. Agar siz, masalaga ijtimoiy dunyoning tuzilishi nuqtai nazaridan baho bermoqchi bo`lsangiz, unda mazkur ki-tobning qaysi qismi qanday yozilgani, kimning qanday fikrlashi, mavzuni sodda va xalqchil tushuntira olishi yoki murakkab tilda bayon qilishiga e'tibor bering. SHunda masala bir oz oydinlashadi. Xuddi shunday holni sizga turli fanlardan dars beraetgan o`qituvchilar misolida ham kuzatishingiz mumkin. Keyin esa, o`zingiz va o`rtoqlaringizning darslarga, kitoblarga, ularni o`zlashtirib, o`qib va o`qib olishga, hayotga munosabatingizga vijdonan baho bera olsangiz, bu borodagi murakkab jarayonlarni muayyan darajada to`g`ri anglab olishingiz mumkin. Holbuki, bu - bor-yo`g`i siz, o`qituvchilaringiz va mazkur kitobni yozgan kishilar hayotining kichik bir qismidagi jarayonlar, xolos. Hayot esa nihoyatda murakkab, unda bir vaqt-ning o`zida, birvarakayiga qanchadan-qancha voqea va hodisalar kechadi. Masalan, siz hozir ana shu satrlarni o`qiyapsiz, jismingiz va xayolingizda, atrofingizda, siz bilan birga yashayotgan, siz biladigan va bilmapdigan odamlar jismi, ongi va qalbida ne-ne o`zgarishlar, jarayonlar kechmoqda... Demak, tabiat doimiy o`zgarishda va harakatda, bir holatdan ikkinchi holatga o`tishda, rivojlanishda va taraqqiyotda. Siz va bizning umrimiz esa ana shu cheksizlikning bir lahzasi, jismimiz va jonimiz ham azaliy va abadiy o`zgarishlar jarayonidagi olamning mo`'jizasidir. Bu olamda aynan siz va bizning dunyoga kelganimiz ham ana shunday mo`'jizadir. Biz esa mana shu yorug` olamda o`tganlarning kelajakdagi avlodlar bilan bog`lani-shida bir halqamiz, xolos vo aynan ana shunday bo`lganligi uchun xam tabiat, jamiyat, rivojlanish va taraqqiyot qarshisida doimiy qarzdormiz. Bu qarzdorlik dunyoga bizgacha kelganlar va ketganlar, keladiganlar va kelmaydiganlar, kela olganlar va kela olmaganlar ruxi qarshisidagi chuqur masuliyat hissidir.

Inson tomonidan nom qo`yilgan dunyolar hech qachon bir-biridan ajralib, alohida holda mavjud bo`lmagan. Ular ham bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda bo`ladi va ularning biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Odatda, kamroq aloqadorliklarga ega bo`lgan sistema unga nisbatan ko`proq aloqadorliklarga ega bo`lgan sistemaga qaraganda murakkabroq va tashkiliy jihatdan uyushganroq bo`ladi. Bu erda ham yana shu qoida amal qiladi.

Anorganik dunyoda in'ikosning eng sodda va quyi shakli - mexanik in'ikos faoliyat ko`rsatsa, organik dunyoda unga nisbatan murakkabroq ko`rinishdagi biologik in'ikos namoyon bo`ladi. Bunday in'ikosning o`ziga xos bo`lgan tomoni tanlovchanlik, seskanuvchanlik va maqsadga muvofiq harakat qilishdir, jamiyatda esa, in'ikosning eng oliy shakli sotsial in'ikos faoliyat ko`rsatadi. Bu in'ikos o`zida in'ikosning boshqa shakllarini ham qamrab olgan bo`ladi. Ongli va yuqori doirada uyushgan faol in'ikos, aloqadorlik, xatti-harakatlar ijtimoiy dunyoga xosdir.

Borliq shakliy struktura darajalarining balki biz hali bilmaydigan yanada murakkabroq turlari xam bordir, lekin ular hali bizning tushunchalarimiz doirasiga sig`maydi. Xullas, borliqning tashkiliy struktura darajalari bir-biridan aloqadorliklarining soni va sifati jihatidan, energiya va informatsiya almashish xususiyati bilan. faolligi va uyushganligi darajasi bilan farq qiladi.

Borliqning eng murakkab shakllaridan biri hayot va uning mohiyati haqida

to`xtalaylik.

Biz hayot ekanmiz, olamni bilamiz. Hayotning xilma-xil turlari, shakllari borki, ular borliqning moddiy shaklini harakatga keltirishda, boshqarishda asosiy o`rin tutadi. Hayotning eng murakkab shakli inson hayotidir. Bu inson ruhiyati, ongi, tafakkuri bilan chambarchas bog`langan. Har bir odamga bir marotabagina hayot kechi-rish imkoniyati berilgan. Insonning qadr-qimmati shu hayotni qanday o`tkazganligi bilan o`lchanadi.

Odamning tabiati va hayoti u yashayotgan jamiyatdagi ijtimoiy muhitga ham bog`liq. Farovon jamiyatda insonlar ham farovon hayot kechirishadi. Qashshoq jamiyatda esa qashshoqlik tomir otadi. Demak, jamiyatimizni qanchalik farovon qilsak, unda yashaydigan insoilarning, kelgusi avlodlarimizning hayoti ham shunchalik baxtli va farovon bo`ladi.

Hayotning vujudga kelishi va mohiyati haqida hanuzgacha olimlar bir nuqtai nazarga kelishmagan. Har bir insonning hayoti takrorlanmas va o`ziga xosdir. Balki stanoqning bir detali o`rniga boshqa detalni qo`yish bilan natija o`zgarmas yoki bir ishchining o`rniga boshqa ishchini qo`yish bilan stanok to`xtab qolmas. Ammo bir ota-ning o`rnini boshqa ota. bir do`stning o`rnini boshqa do`st bosa olarmikin? SHunday ekan, har bir odam takrorlanmas va o`z o`rnida qadrli. Insonni, uninghayotini qadrlash muhim ijtimoiy vazifadir.

Insonning yaxshi hayot kechirishi, bir tomondan, u yashayotgan jamiyatga bog`liqbo`lsa, ikkinchi tomondan. tabiiy muhitga bog`liq.

Butun tarixiy taraqqiyot davomida inson bilan tabiat O`rtasidagi munosabat takomillashib borgan. Inson tabiiy muhitsiz, suv. havo quyosh va tuproqsiz yashay olmaydi. Bu unsurlar uning tirikchiligini ta’minlaydi. Bunday qulay sharoit inson uchun faqat Er sharida mavjuddir.

Erning hayot tarqalgan qismi biosfera deb ataladi. Biosfera tirik organizmlarning hayot kechirish muhitidir. Agar Er shari Kuyoshga yaqinroq joylashganida, er yuzasidagi harorat ko`tarilib ketgan bo`lar edi va oqibatdd erdagi namlik, suv yo`qolar edi. Agar u Quyoshdan uzokda joylashganida, er yuzasidagi harorat pasayib, hamma joy mangu muzlik bilan qoplanar edi. Xullas, har ikkala holatda ham er yuzasida hayotning paydo bo`lishiga imkoniyat yo`qolgan bo`lardi. YAna boshqa holni olaylik: Quyosh sistemasi Galaktika markaziga yanada yaqinroq joylashganda edi, er yuzasida kuchli gravitatsiya ta’sirida narsalarning vazni og`irlashib, insondek murakkab jonzodning, balki umuman hayotning paydo bo`lishiga sharoit bo`lmagan bo`lar edi. Aksincha, Quyosh sistemasi Galaktikamiz markazidan hozirgiga nisbatan chetda joylashganda ham, gravitatsiya kuchining zaifligi ayrim ximiyaviy va biologik jarayonlarning ro`y berishiga xalaqit bergan bo`lar edi. Buning oqibatida er yuzasida hayot paydo bo`lmas edi. Demak, inson o`zi uchun eng qulay bo`lgan joyda yashaydi va bunga shukur qilsa arziydi.

Insonning tabiiy muhitga ta’siri qadimgi davrlarda o`ta kuch-siz bo`lgan. Davrlar o`tishi bilan inson qo`lida qudratli kuch va quvvat manbalari to`plangach, uning tabiatga ta’siri sezilarli da-rajada o`zgara boshladi. Inson atrof-muhitni ifloslantirib, bio-sferadagi tabiiy muvozanatni izdan chiqara boshladi.

Bu masalaning echilishi insonning aql-idrok kuchi bilan bog`langandir. Inson aql-idrokining olamga ta’sir ko`rsatish chegarasi noosfera deb ataladi. Inson o`zligini anglamas ekan, uning sayyoramizga halokatli ta’siri kuchaygandan kuchayib, oxir-oqibatda uning o`zini xam halokatga olib borishi mumkin, degan ilmiy bashoratlar bor. Haqiqatan ham inson faoliyati aql-idrok bilan oqilona boshqarilmas ekan, u er yuzining

halokatini tezlashtirishi muqarrardir.

Xozirgi zamondagi ekologik muammolardan biri ham inson faoliyati tomonidan atrof-muxit ifloslanishining oldini olish va bu halokatni to`xtatib qolishdan iborat. Bu olamni qay darajada yaxshi bilib olishimiz va uning hayotiga nisbatan mas'uliyatni anglashimizga bog`liqair. Inson jamiyatda va tabiatda tutgan o`z o`rni-ni to`g`ri anglasa, atrof-muhitni ham avaylab-asraydi, er yuzini gullatib-yashnatadi.

Asosiy tushunchalar

Olam, evolutsiya, borliq, yo`qlik, mavjudlik, moddiylik, ruhiylik, ontologiya, mikrodunyo, makrodunyo, megadunyo, voqelik, materiya, makon, zamon, naturfilosofiya, hayot, ekologik muammolar.

Takrorlash uchun savollar

1. Olam tushunchasiiing mohiyati va mazmunini aytib bering.
2. Real, konkret va virtual olamning o`ziga xos xususiyatlarini tushuntirib beriig?
3. Borliq va yo`qlik tushupchalari to`g`risida nimalarni bilasiz?
4. Mavjudlik va reallik nima?
5. Harakat va uning asosiy shakllari to`g`risida so`zlab bering.
6. Fazo va vaqt. makon va zamoi qanday ma'nolarni anglatadi?
7. Tabiat deganda nimani tushunasiz?
8. Jonli va jonsiz tabiat tushunchalarining ma'nosini tushuntirib beriig.
9. Tabiat va jamiyat aloqalari deganda iimalar nazarda tutiladi?
10. Biosfera va noosfera nima?

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T. O`zbekiston 1992
2. Karimov I. A. YAngicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – T: O`zbekiston 5 – j, 1997
3. Karimov I. A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat,
4. Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo`lida – T, O`zbekiston 1999
5. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T, O`zbekiston 2000
6. M. Ahmedova Falsafa darslik O`z. fay. jam. T., 2006.
7. K. Nazarov Falsafa asoslari «O`zbekiston» T., 2005.
8. K. Nazarov Falsafa O`AJBIT T., 2004.
9. E. YUsupov Falsafa «SHarq» T., 1999.
10. K. Nazarov Falsafa «SHarq» T., 2004.
11. M. Ahmedova Osnovы filosofii «Uzbekistan» T., 1998.
12. I. Saifnazarov Kurs lektsii po filosofii «SHarq» T., 2004.
13. M. Safarboev, Z. Iskandarova Falsafa UrGU U., 2004.
14. B. To`ychiev Falsafa DITAF T., 2004.
15. K. Nazarov Falsafa (Ma'ruzalar matni) O`AJBIT T., 2000.
16. M. M. Xayrullaev Filosofiya lug`ati «O`zbekiston» T., 1976.

17. M. M Xayrullaev, K. Nazarov Falsafa: komusiy lug`at «SHarq» T., 2004.
18. I. Karimov Falsafadan va’zlar TDPU T., 2003.
19. J. Tulenov, Z. G`ofurov Falsafa TDPU T., 1997.

Katta o`qituvchi Jumaniyozov B.

5. Ma’ruza. Mavzu: Falsafiy metodlar, qonunlar va kategoriyalar (2 soat)

Reja:

1. Falsafada usul va usul muammosi
2. Falsafiy qonunlar
3. Falsafiy kategoriyalar

1. Falsafada usul va usul muammosi

Falsafa va har bir faylasufning ijodida metod va metodologiya muammosi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Fan tarixida nom qoldirgan olim va faylasuflarning ilmiy merosini ko`p jixatdan ularning qaysi uslublarga tayanganiga qarab baholash ham mumkin.

Metod (yunon. metods - usul) keng ma’noda yo`l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma’nolarni anglatadi. **Metodologiya** tushunchasi ikki asosiy mazmunga ega - faoliyatda qo`llaniladigan ma’lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san’atda va h.k.); tizim haqidagi ta’limot yoki metod nazariyasi.

Fan metodologiyasi uning strukturasi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo`llari, bilimni tajribaga tatbiq qilish mexanizmlari va shakllarini o`rganadi. SHuningdek, metodologiya metodlar yig`indisi va fao-liyat turi haqidagi ta’limotdir.

Metod muammosi doimo falsafiy va ilmiy olamning diqqat markazida bo`lgan. Ayniqsa, hozirgi davrda metodologiyadan turli va oqimlar, jumladan, fan, falsafa, fenomenologiya, strukturalizm va poststrukturalizm, postpozitivizm va shu kabilarda keng ko`lamda foydalanshshokda. Ijtimoiy metodologiya hozirgi zamon germenevtikasida mavzularni taxdil qilish nazariyasi va falsafiy kontseptsiyalarni o`rganishda qo`llanilmokda (G. Gadamer, P Rikker va boshqalar). CHunonchi, Gadamer gumanitar fanlarning metodologik ahamiyatini ta’kidlab, ularning tabiatshunoslik fani mantiqiy tuzilmalaridan farq qiluvchi alohida xususiyatga ega ekanligiga e’tibor qaratadi.

Metod u yoki bu shaklda ma’lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig`indisi hamdir. U tamoyillar, talablar tizimi bo`lib. sub’ektni aniq vazifani bajarishga, faoliyatning shu sohasida ma’lum natijalarga erishish sari yo`naltiradi. U xaqiqatni izlashda vaqt, kuchni tejaydi, maqsadga eng yaqin va oson yo`l bilan etishishga yordam beradi.

Metodning asosiy vazifasi faoliyatning bilish va boshqa shakllarini boshqaruvdan iborat. Biroq:

birinchidan, metod va metodologik muammolarning rolini inkor qilish yoki to`g`ri baholamaslik ("metodologik negavizm");

ikkinchidan, metodning ahamiyatini bo`rttirish, mutloqlashtirish, uni barcha

masalalarning kaliti, ilmiy yangiliklarni yaratishning eng qulay vositasi (metodologik eyforiya), deb tushunish noto`g`ridir.

Zamonaviy metodologik kontseptsiyalarda yuqoridagi cheklanganliklar bartaraf qilinsada, ba’zan bunday hollar hanuzgacha uchrab turadi. Ularda metodologiyaning rolini ko`z-ko`z qilish (profanatsiya) yoki ma’lum metodlarni "yagona to`g`ri" metod sifatida mut-lakdashtirish, turli metodologik yo`nalishlarni o`rganishning zarurligi (metodologik plyuralizm) ta’kidlanadi.

Har qanday metod ma’lum nazariya asosida yaratiladi va tadqiqotning zaruriy sharti sifatida namoyon bo`ladi. Har bir metodning samaradorligi uning chuqur mazmun va mohiyatga egaligi, nazariyaning fundamentalligi bilan asoslanadi. O`z navbatida, metod mazmuni kengayib boradi, ya’ni bilimning chuqurlashishi va kengayishi, tajribaga tatbiq etilishi bilan metodning ko`lami ham o`zgaradi.

Nazariya reallikni aks ettirar ekan, undan kelib chiquvchi tamoyillar, qoidalar va h.k. orqali metodga aylana boradi va pirovard natijada yana nazariyaga qaytadi (u orqali esa amaliyotg`a tatbiq etiladi), zero sub’ekt bilish jarayonida ulardan foydalanadi. Ilmiy bilishda nafaqat ilmiy natija (bilimlar majmui) va chredmetning mohiyatini anglash, balki unga eltuvchi yo`l, ya’ni metod ham haqiqiy bo`lmog`i lozim. SHunga ko`ra, predmet va metodni bir-biridan ayri holda tushunish mumkin emas. Har qanday metod u yoki bu darajada real hayotiy jarayonlarda shakllanadi va yana unga qaytadi. Metod har qanday tadqiqot boshlanishida to`la holda namoyon bo`lmasada, ma’lum darajada predmetning sifat o`zgarishi bilan har safar yangidan shakllanadi.

Metod bilish predmeti va harakatni sun’iy ravishda bog`lamaydi, balki ularning xususiyatlari o`zgarishi bilan o`zgarib boradi Ilmiy tadqiqot predmetga daxldor dalil va boshqa belgilarni jiddiy bilishni talab qiladi. U ma’lum materialning harakati, uning xususiyatlari, rivojlanish shakllari va h.k.larda namoyon bo`ladi. Demak, metodning haqiqiyligi, eng avvalo, tadqiqot (ob’ekt) predmetining mazmuni bilan bog`liq.

Metod, predmet, nazariya, sub’ekt tushunchalarining munosabatlari tahlil qilinar ekan, ikki holatga e’tiborni qaratmoq zarur. Birinchidan, metod sub’ektdan tashqarida mavjud jarayon emas, balki u bilan chambarchas bog`likdir. Boshqacha qilib aytganda, "inson umum metodologiyaning markazidir" (Feyerbax). Ikkinchidan, har qanday metod u yoki budarajada boshqaruv quroli vazifasini bajaradi.

Metod sub’ekt va ob’ektivlikning murakkab dialektikasi aso-sida rivojlanadi va bunda oxirgisi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`ladi. SHu ma’noda, har qanday metod, eng avvalo. ob’ektiv, mazmunli va konkret bo`lsada, ayni paytda, u sub’ektiv hamdir. Biroq u faqat mavjud qoidalar tizimi emas, balki ob’ektiv ilmiylikning davomi sifatida namoyon bo`ladi.

Metodlar xilma-xilligiga qarab, turli mezonlar asosida klassifikatsiya qilinadi. Eng avvalo, ma’naviy, g`oyaviy (shuningdek, ilmiy) va moddiy, amaliy faoliyat metodlarini ajratmoq lozim.

Hozirgi davrda metodologiya faqat ilmiy bilish sohasi bilan cheklanishi mumkin emasligi ayon bo`ldi va u albatta, bilish chegarasidan chiqishi va o`z sohasida amaliyotda ham qo`llanishi zarur. Bunda bilish va amaliyotning uzviy aloqadorligiga e’tibor qaratmoq kerak.

Fan metodlarining guruxlarga bo`linishi bir nechta asoslarga ega. Bilish jarayonida uning roli va o`rni nuqtai nazaridan: formal, empirik, nazariy, tadqiqot, izoxlash, shuningdek, boshqa metodlarga ajratish mumkin. O`z navbatida. bilishning sifat va son,

bilvosita va bevosita original hamda faoliyatli metodlari ham mavjud.

Metod metodikada konkretlashadi. **Metodika** daliliy materiallarni yig`ish va saralash vositasi, aniq faoliyat turidir. U metodologik tamoyillardan farq qilsada, ularga asoslanadi.

Usullarni tanlash va turli metodik tadqiqot faoliyatida qo`llash o`rganilayotgan hodisa tabiati va qo`yilgan vazifalar bilan xarakerlanadi. Falsafa metodlarining asoslari bevosita amaliy faoliyat bilan bog`liq. Fan tarixida metodlar yangi nazariyalarni yaratish jarayonida shakllanadi. YAngilikyaratish san’ati, F.Bekon fikricha yangiliklar jarayonida kamol topadi. Dastlabki tadqiqot tajribada shakllanar ekan, metod tadqiqotning boshlang`ich nuqtasi, amaliyot bilan nazariyani bog`lovchi vosita sifatida namoyon bo`ladi. Metod va nazariyaning uzviy aloqaoi ilmiy qonunlarning metodologik rolida o`z aksini topadi. Har qanday fanga oid qonun insonni voqelikdagi narsa va hodisalarni shu fanga mansub sohaga mos fikrlashga undaydi. Masalan, energiyaning saqlanish qonuni bir vaqtning o`zida metodologik tamoyil bo`lib, u oliy nerv faoliyatining reflektorlik nazariyasi, hayvonlar va inson axloqini tadqiq qilishning metodlaridan biri hamdir.

Ilmiy tadqiqot jarayoni tarixan ishlab chiqilgan metodlar asosida amalga oshiriladi. Hech kim hech qachon haqiqatni yo`qdan bor qila olg`an emas. Albatta, olim izlanishlar, xatolar kurshovida harakat qiladi. Ba’zi hollarda bir narsani izlash jarayonida butunlay boshqa narsa yaratiladi.

Fanda, ko`p hollarda tanlangan metod tadqiqotning taqairini hal qiladi. Aynan bir daliliy materialni turli metodlar asosida o`rganish ziddiyatli xulosalarga olib kelishi mumkin. Ilmiy bilishdagi to`g`ri metodni xarakterlar ekan, F. Bekon uni yo`lovchining yo`lini yorituvchi chiroqbilan qiyoslaydi.

Noto`g`ri yo`ldan bora turib, u yoki bu masalani hal qilishda muvaffaqiyatga erishishga umid qilish mumkin emas. Zero nafaqat natija, balki unga eltuvchi yo`l ham to`g`ri bo`lmog`i lozim.

Metod o`z-o`zidan tadqiqotning muvaffaqqiyatli bo`lishini ta’minlay olmaydi, chunki nafaqat yaxshi metod, balki uni qo`llash mahorati ham muhimdir. Ilmiy bilish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Umumiy darajasiga ko`ra, ular keng yoki tor ko`lamda qo`llaniladi. Har qanday fan o`z predmetini o`rganishda u eki bu ob’ektning mohiyatidan kelib chiquvchi turli xususiy metodlardan foydalanadi. Masalan, ijtimoiy jarayonlarni o`rganish metodi olamning ijtimoiy shakli, uning qonuniyatlari, moqiyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Turli konkret vazifalarni hal qilishning zaruriy shartlaridan biri universal xususiyatga ega bo`lgan umumiy falsafiy metodlarga murojaat qilishdir. Bu metodlar haqiqatni anglashda umumiy yo`lni ko`rsatadi. Mazkur metodlarga falsafaning qonun va kategoriyalari, kuzatish va tajriba taqqoslash, analiz, sintez, induktsiya. deduktsiya va h.k.lar taallukli. Agar maxsus metodlar ob’ektning qonuniyatlarini o`rganishning xususiy usullari sifatida namoyon bo`lsa, falsafiy metodlar shu ob’ektlarda namoyon bo`ladigan, alohida xususiyatlardagi harakat, taraqqiyotning eng umumiy qonuniyatlarini o`rganadi. Aynan shu o`rinda tajriba hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir metod ob’ektning alohida tomonini bilishga imkoniyat yaratadi. Metodlar umumiylik darajasi va amal qilish doirasiga ko`ra bir necha guruxga bo`linadi.

Eng Qadimgi va keng tarqalgan falsafiy metodlardan biri dialektika bo`lsa ikkinchisi metafizikadir. Biroq falsafa metodlari bular bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda uning sofistika eklektika, analitik, (hozirgi zamon analitik falsafasi), intui-tiv,

fenomenologik, sinergetik, germenevtik (tushunish) va boshqa turlari ham mavjud. Endilikda turli metodlarni birlashtirish jarayoni ham ro`y bermokda (masalan, Gadamer germenevtikani ratsional dialektika bilan birlashtirishga harakat qiladi).

Dialektika (yunon. dialektika - bahs, suhbat) tabiat, jamiyat va bilish taraqqiyoti qonuniyatlari hamda ularning asosida shakllanadigan umumiy tafakkur uslubi va amaliy faoliyat haqidagi ta’limotdir. U grek tilida bahs va suhbatlashish san’ati, degan ma’noni anglatadi. Antik dunyo faylasuflari uni haqiqatga erishish yo`li va usuli sifatida talqin etganlar. Hozirgi davrga kelib dialektika olamdagi narsa va hodisalar doimo o`zgarishda, o`zaro aloqadorlik va bog`liqlikda, taraqqiyot va rivojlanishda, deb tushunishdir. Unga ko`ra, olamda o`z o`rniga va joyiga, yashash vaqti va harakat yo`nalishiga ega bo`lgan barcha narsalar va voqealar bir-birlari bilan bog`liq va aloqador tarzda, bir-birlarini taqozo etadigan, doimiy va takrorlanib turadigan bog`lanishlar orqali namoyon bo`ladi.

Masalan, insoniyat tarixida bu usulga asosan yondashilganida, u uzluksiz tarzda ro`y beradigan avlodlar o`rin almashuvi, birining o`rniga ikkinchisi kelishi, muayyan qadriyatlarni meros qoldirishi va yangilikning eskilikni inkor qilishidan iborat doimiy va takrorlanib turadigan jarayondir. Bashariyatning muayyan davrida esa, shu zamonning ijtimoiy manzarasini belgilaydigan turli urug` yoki qabilalar, davlat, millat va xalqlar, oqim va yo`nalishlar, g`oya va mafkuralarning xilma-xil shakllarini ko`rish, ularning bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo`lishini kuzatish mumkin.

Taraqqiyot jarayonida avlodlar, davrlar, siyosiy tuzumlar, umuman ijtimoiy voqea va hodisalar o`z-o`zidan avtomatik tarzda sodir bo`lib, nom-nishonsiz yo`qolib ketmaydi. Balki ularning barchasi insonlar o`rtasidagi o`zaro aloqa va munosabatlarning hosilasi, ijtimoiy jarayonlarning natijasi, biror sababning oqibati sifatida namoyon bo`ladi. Bir davr ikkinchisining o`rniga, bir avlod oldingisidan keyin, bir voqea boshqasining ortidan sodir bo`lib turadi. Ana shu abadiy va azaliy uzluksizlik, doimiy aloqador vaqtning orqaga qaytmasligi va voqealarning ketma-ketligi tarzidagi bog`lanishlar, rivojlanish va taraqqiyot, olamning barangligi va uyg`unligi dialektikaning asosiy tamoyillarini tashkil qiladi.

Falsafada mazkur tamoyillarga asoslangan tafakkurni - dialektik tafakkur, ana shunday dunyoqarashni - dialektik dunyoqalash yondashuvni - dialektik yondashuv, metodni - dialektik metod deb atash an’anaga aylangan. SHu bilan birga, u yoki bu olimning ushbu tamoyillarga asoslanadigan dunyoqarashi, falsafiy ta’limotlari ham bor. Masalan, Demokrit va Geraklitdialektikasi, Kant yoki Gegel dialektikasi deyilganda ana shunday hol nazarda tutiladi.

Falsafa tarixida dialektika to`g`risida xilma-xil qarashlar bo`lgan. Antik davr dialektikasi sodda va stixiyali bo`lib, asosan, hayotiy tajribaga asoslangan. O`sha davrda "Dialektika" so`zini birinchi bo`lib Suqrot (er.av. 469-399 y.) o`z falsafiy faoliyatida qo`llagan. Suqrot dialektikani mayevtika (harflarni yaratish san’ati) bilan taqqoslagan. Zotan, mulohaza qilish shunday dialektik usuldirki, uning natijasida raqib nutqidagi ichki ziddiyatlar ochiladi yoki fikrlash jarayonida yangi ixtilofli fikr-mulohazalar paydo bo`ladi. Suqrot boshqalarni haqiqatni izlashga da’vat etar ekan, o`z onasi deya Fenareti ishini davom ettirayapman, deb izohlaydi.

"Dialektika" so`zi paydo bo`lishiga qadar antik falsafada mazmuniga ko`ra dialektik bo`lgan nazariyalar shakllana boshlagan edi. O`tmish mutafakkirlar o`z zamonida dunyoning yagona birligi sokinlik, bu bir butunlik ichida doimiy uzluksiz

o`zgarishlar, yaratish jarayoni sodir bo`luvchi koinot haqidagi fikrlarni ilgari surganlar. Ular koinot o`zgaruvchanlik va barqarorlikning ziddiyati sifatida tasavvur qilganlar. Borliqning umumiy o`zgaruvchanligi bir narsaning ikkinchi narsaga - erning suvga, suvning havoga, havo-ning olovga, olovning efirga aylanishi va qayta takrorlanishi bilan xarakterlanadi, deb hisoblaganlar.

Masalan, Geraklit (er.av 540—483 y.) umumiy o`zgaruvchanlikning universalligini shunday izoxdaydi: "Arikda oqayotgan muayyan suvga ikki marta tushib bo`lmaydi, chunki yangi va yangi suvlar oqib kelaveradi. O`zgaruvchanlikning manbai kurashdir". O`zgaruvchanlik antik dialektik nazariyada yangini yaratmasdan bir-birini takrorlovchi jarayon sifatida mavhum tushunilgan. Aynan shundan biri ikkinchisini taqozo qiluvchi dunyoning yagona birligi sifatida cheksiz koinot obrazi yaratilgan. SHunga ko`ra, Geraklit ziddiyatlarning ayniyligini yaxshilik va yomonlikning bir xil ekanligini ta’kidlaydi. Bu mutafakkir ijodining qonuniy natijasi bo`lib, u reallikning nazariy modelini yaratadi. Geraklit zildiyatlar haqida gapirmaydi, bu tushuncha fanga Aristotel tomonidan kiritilgan.

Aristotel (Arastu) (er.av. 384-322 y.) Aflotun ta’limotini tanqidiy o`rganar ekan, o`zgaruvchanlik muammosini taraqqiyot omili sifatida tahlil qiladi. Uning dialektikasiga xos alohida xususiyatlar, avvalo, taraqqiyotni moddiylik, harakatda, formal va sababiy bog`lanishdaligini tan olishda, yangi bosqichni boshqalari bilan bog`liq emas, deb tushunishda yaqqol ko`rinadi. Ikkinchidan Aristotel ziddiyatlar bilan bog`liq bo`lgan muammolar doirasini yaratadi. Ziddiyatlarning mutlaq mos kelishini inkor qilar ekan, mutlaqo mos kelmasligini ham inkor qiladi, biroq ularning qandaydir holatida mavjudligini tan oladi. Uchinchidan, Aristotel formal mantiqqa asos solar ekan, uning ontolog`iyada namoyon bo`lishi va u esa, o`z navbatida, mazmunan progressiv, shaklan mukammal falsafiy metodni yaratish zarurligiga olib keladi, deb hisoblaydi. To`rtinchidan, Aristotel o`sha davrdayoq bu asosiy falsafiy metodning yo`nalishini belg`ilab beradi.

Dialektik metod yangi davrda, xususan, nemis falsafasida, ayniqsa Kant, Fixte, SHelling va Gegel tomonidan yanada chuqurroq tahlil qilingan.

YAngi davrning o`ziga xos xususiyati shundaki, bu davrga kelib taraqqiyotga yangicha munosabat shakllandi. Dialektik metod predmetlarda emas, balki munosabatlarda o`z aksini topa boshladi. Bu cheksizlik haqidagi g`oyani qayta ishlash bilan bog`liq edi. CHeksizlik g`oyasining yangicha talqini paradoksal nazariya shaklida namoyon bo`ldi. Bu Kantning planetar sistemalarning tumanlikdan paydo bo`lganligi xdqidagi gipotezani yaratishi bilan bog`liq. Bilish nazariyasida Kant ikki mulohazaning ziddiyatliligi antinomiyasini ochib tashlar ekan, bunda har ikkalasini etarli asosga ega, deb hisoblaydi. Masalan: 1. Dunyo vaqtda boshlangich nuqtaga ega va zamonda cheklidir. 2. Dunyo vaqtda boshlang`ich nuqtaga ega emas va zamonda cheksizdir.

Kant ziddiyatlarga eskicha, ya’ni inson aqlining illyuziyasi sifatida qaraydi. U bu ziddiyatlarni yangi nazariya yaratish jarayonida kashf qiladi, biroqundan qutilish yo`lini ko`rsata olmaydi. Ularga aqlning xatosi sifatida qarash kerakmi? Hissiy idrok qilishda xatoga yo`l qo`yilar ekan, akdning xatoligidan shubhalanish to`g`ri-mikan? - degan savollarga javob izlagan Kant akddagi ziddiyatlarni bartaraf qilish yo`lini topadiki, aynan shu yo`l pozitiv dialektikaning asosi bo`ladi. Bunda inson aqli o`zgaruvchanligining tarixiyligi tan olinadi, aklning xatosi esa tarixiy asosga ega bo`lib, u taraqqiyotning cheksizligi, bilish jarayonini to`g`ri tushunish qobiyaliyatiga ega emas. Kant dialektika

metodidan yangicha foydalanish imkoniyatini ko`rsatdi, taraqqiyot muammosini yangicha qo`yish va hal qilish zaruriyatini e'tirof etdi. Taraqqiyotning yangi nazariyasini Kant sub'ekt aklining dialektik xarakteri bilan bog`ladi va sub'ektiv dialektikani asoslab berdi.

Dialektika taraqqiyotining keyingi imkoniyatlari Gegel falsafasida o`z ifodasini topdi.

Gegel dialektikani falsafa taraqqiyotining umumiy nazariya-si sifatida asoslab bergan. Ma'lumki, o`rta asr ratsionalizmi taj-ribaning ahamiyatini va nazariyaning empirik paydo bo`lishini tan olishi bilan xarakterlanar edi. Gegel fikrlari boshqacha xa-rakterga ega. U falsafa o`z xususiyatlarini asoslovchi metodga ega bO`lmas ekan, fan bo`la olmaydi, deb hisoblaydi.

Gegel dialektik metodni mukammallashtirish mumkinligini va u yagona haqiqiy metodligini ta'kidlaydi.

Falsafa metodi tabiat va ruh taraqqiyotini ifodalovchi fikr harakatiga adekvat bo`lishi lozim. Gegel o`z metodida shunday adekvatlikka erishilganligiga ishonadi. Gegel dialektikasini tushunish uchun dastavval gegelcha dialektikaning rezonans, salbiy, pozitiv dialektika kabi shakllarini tahlil qilish lozim.

Rezonans (sub'ektiv) dialektika - sub'ekt tafakkuri bo`lib, u predmetdagi ziddiyatlarni ifodalaydi, biroq mavjud ziddiyat-lardan ilgarilab ketadi. Sub'ekt faqat buni izoxlash bilan kifoyalanadi, xolos.

Salbiy (ob'ektiv) dialektika rezonans dialektikadan ba'zi ustuvorlikka ega, chunki u boshlanishidan ancha ilgariroq harakat qiladi. "U tomon", " Bu tomon" kabi izoxlashlar mutlaq butunlikni inkor qiladi. Salbiy dialektika mustahkam narsalarni sindirishga intiladi. Uning kuchi aynan shundadir. Ojizligi esa, ularning o`zidagi cheklanganlikni izohlar ekan, judayam kam maqsadga erishiladi. Uning natijasi iol, salbiy, tasdiqlash unda hali namoyon bo`lgan emas.

Dialektikaning rezonans va salbiy shaklidan farq qiluvchi yuqoriroq shakli ichki (immanent) dialektikadir. Bu nafaqat rezonans va inkor qiluvchi, balki yaratuvchi dialektikadir. CHunki u predmetking immanent harakat birligidagi taraqqiyot mantig`i si-fatida namoyon bo`ladi. SHunga binoan, fan predmetni immanent O`rganadi. Predmetni immanent o`rganmoq nima? Bu mazmunni sof tushunchada isbotlamoq, ya'ni predmetning mohiyatini isbotlamoqdir. Gegel fikricha, dialektik ziddiyatlar - ruhning ziddiyati. Pirovard natijada mazkur ziddiyatlar real borliqdagi ziddiyatlarni aks etgiruvchi sub'ekt tafakkuridagi ziddiyatlar bo`lib, Ge-gel uni g`oyaning o`z-o`zini namoyon qilishidagi ziddiyatlar sifatida aks ettiradi. Gegel fikricha, dialektika mutlakdikdan boshlanadi va u bilan tugaydi. Bu dialektik nazardan faqat mutlaqlik real bo`lishi mumkin. SHuning uchun Gegelv dialektikasi mutlak aql faoliyatining nazariyasi, mantig`i va metodi sifatida namoyon bo`ladi. Ta'kidlash joizki, idealistikdialektika bo`lgani singari materialistik dialektika ham bor. U moddiylikning yashash tamoyillari, kategoriyalar va qonunlarining yagona, bir butun tizimini ifodalaydi.

Umuman olganda, dialektik metodga ko`ra, agar ob'ektiv olamda doimiy rivojlanish, paydo bo`lish va yo`qolish, hodisalarning` o`zaro bir-biriga o`tishi bo`lar ekan, unda tushuncha, kategoriya va tafakkurning mavjud shakllari, harakatchan, o`zaro bog`liqlikda, ziddiyatlar birligida bo`lib, rivojlanuvchi real haqiqatni to`g`ri aks ettirishi kerak. SHuning uchun dialektikaning asosiy tamoyili tarixiylik bo`lib, u predmetning

doimiy rivojlanishda, o`zgarishda va harakatdaligini ifodalaydi.

Bizni o`rab turgan olam yagona bir butunlik, aniqtizim bo`lib, bir-biri bilan uzviy bog`liq predmetlar xilma-xilligi yagonalikda, bir-biri bilan o`zaro ta’sir va o`zaro uzviy bog`liqlikda namoyon bo`ladi. SHunga mos ravishda dialektikaning yana bir tamoyiliga ko`ra, har qanday narsani faqat undagi ichki va tashqi tomonlar mujassamligini tadqiq qilgandagina to`g`ri tushunish mumkin. Dialektikaning ob’ektivlik, konkretlik, determinizm va boshqa tamoyillari ham mavjud.

«Metafizika" (yunon- fizikadan keyin) dialektika kabi universal metoddir. Bu so`z ilmiy muomalaga er. av. I asrda Aristotelning shogirdi, uning she’rlari sharhlovchisi Rodosskiy tomonidan kiritildi. Mutafakkir asarlarini bir tizimga solar ekan, u borliq va bilish haqidagi umumiy masalalarni fizikadan so`ng "birinchi falsafa"ning (mohiyat, sabab va boshqa) ikkinchi falsafadan farqli xususiy-ilmiy bilimlarni o`rganadigan qismi sifatida talqin qilgan.

Ko`p hollarda, dialektikaga qarama-qarshi deb taltsin etiladigan metafizika olamdagi narsa va hodisalarni o`rgaiishda ularning muayyan vaqt davomida nisbatan o`zgarmasdan, alohida turgan xolatiga diqqatni ko`proq qaratadigan usuldir. Bu usul qo`llanganida olamning namoyon bo`lish shakllari hamda ular bilan bog`liq bo`lgan jarayonlarning alohida tsismi yoki holatiga asosiy e’tibor beriladi. Voqea, hodisa va jarayonlarni doimiy o`zgarish holatida o`rganish ni-hoyatda qiyin bo`lganligidap, nafaqat faylasuflar, balki barcha fan mutaxassislari uning nisbatan tinch va o`zgarmay turgan holatini o`rganadilar, tadqiq etadilar.

Aslini olganda, olam garchand dialektik o`zgarish va harakatda bo`lsada, bu jarayon doimo ham nihoyatda tez sodir bo`lavermaydi. Biz dunyodagi narsa, hodisa va odamlarga shunchalik metafizik tarzda o`rganib qolganmizki, go`yo kechadan bugunning farqi yo`qdek, kecha ko`rgan ishiga bugun duch kelganimizda unda hech qanday o`zgarishlar bo`lmaganday tuyuladi. SHu ma’noda, hayotda ko`p hollarda metafizik usulda fikr yuritamiz, nimalargadir ana shunday munosabatda bo`lamiz. Aslida esa ular ham azaliy o`zgarishlar jarayoniga tushgan narsa va kishilar janligini juda kamdan-kam hollarda o`ylab ko`ramiz. Xuddi shunday, bizning umrimiz ham kechadan ertaga qarab oqib turadigan dialektik jarayondir. Biz ham ana shunday o`zgarib boramiz, ammo ko`p hollarda bunga unchalik ko`p e’tibor berilavermaydi. SHu tariqa maktabni tugitib qo`yganimizni, ulg`ayganimizni, bolalikning ortda qolganini go`yoki bilmay qolamiz...

Alohida ta’kidlash lozimki, metafizik usulning hayotda, ilmiy izlanishlar va falsafiy tadqiqotlarda ham o`z o`rni bor. Bizda haligacha metafizikaning tushunchalari, kategoriyalari, tamoyillari va ilmiy mohiyati izohlangan yoxud tadqiq etilgan asarlar, tadqiqotlar yo`k,- holaversa, uni dialektika bilan butunlay qarshi qshshb qo`yish va bu farqni mutlaq ziddiyat darajasiga ko`tarish ham maqsadga muvofiq emas. Ayian ana shunday yondashuv sobiq ittifoqda dialektikani mutlaqlashtirishga, metafizikani esa kuruk, va o`lik ta’limot sifatida qarashga, uning imkoniyatlaridan foydalanilmasligiga sabab bo`ldi.

Hozirgi zamon fanida metafizika uch asosiy ma’noga ega:

1.Falsafa umumiy hodisalar haqidagi fandir. Bu ta’limotning asoschisi Aristotel bo`lib, u "narsaning birinchi turi" haqidagi ta’limotdir. Bu ma’noda, "metafizika" tushunchasini XX asrning yirik nemis faylasufi M. Xaydegger ham o`rganadi. Uningcha, bu kategoriya bilishning ob’ekti va sub’ektini bir vaqtda ifodalovchi tushunchadir.

2. Maxsus falsafiy fan ontologiya, umuman, borliq haqidagi ta’limot bo`lib, nazariya bilish mantig`i va uning xususiy ko`rinishlaridan mustasnodir. SHu ma’noda,

bu tushuncha g`arb falsafasida o`tmishda ham (Dekart, Leybnits, Spinoza va h.k.), hozirda ham keng qo`llaniladi.

3. U bilish (tafakkur) va xarakatni falsafiy tushunish ma’nosida dialektikaga qarama-qarshi qo`yiladi. Bunda shu ma’nodagi tushuncha, ya’ni antidialektika haqida so`z boradi. Uning eng asosiy xususiyatlaridan biri bir tomonlamalik bilish jarayonining fa-

Qat bir qismini mutlaqlashtirishdir. Falsafa tarixida metafizika (dialektika kabi) hech qachon o`zgarmasdan qolmagan. U turli tarixiy shakllarda namoyon bo`lgan.

Eski metafizika XVII-XIX asr falsafasi va fanida ayniqsa kamol topdi (metafizik materializm, naturfalsafa, falsafa tarixi va h.k.) Metafizikaning bu shakliga xos xususiyat umumiy o`zaro aloqadorlik va taraqqiyotni inkor qilish, olamga bir butun tizimli yondashuvning yo`qligi, tafakkurning ikkilanuvchanligi umumiy dunyoviy aloqadorlikning tugaganligiga ishonishdir.

Eski metafizik tafakkur uslubi shakllanishining ob’ektiv asoslari butunning alohida elementlari xususiylikni, alohida tomonlar (fikran) nima uchun bir butunlikdan ayri holda bo`lishi va bir-biri bilan bog`liq bo`lmagan holda rivojlanishini tushun-tirish zaruriyatidir. Bu usul kundalik turmushda, aql darajasida, predmet taraqqiyotidagi aloqa munosabatlarda zarur va to`g`ridir. SHuning uchun metafizikaning bu shakli predmetlardagi barqarorlikni, ulardagi o`zgarishlarni tizimli o`rganish, taraqqiyotning manbalari va mexanizmlarini aniqlash bilan bog`liq. XIX-XX asrlarda eski metafizikadagi keskin kurashda taraqqiyot g`oyasining yangi dalillar bilan mustahkamlanishi ikki muhim natijaga olib keldi: dialektik tafakkurning yangi uslublari paydo bo`ldi; XX asrda eski metafizikaning ilmiy dalillarini inkor qiluvchi yangi metafizika shakllandi.

YAngi metafizika eski metafizikadan farqli o`laroq, narsalarning umumiy aloqadorligini va ular taraqqiyotini inkor qilmaydi. Bu fandagi va jamiyatdagi buyuk kashifiyotlar davrida absurddir. Antidialektika yangi shaklining asosiy xususiyati - taraqqiyotni izoxlashning turli variantlari va yo`llarini izlashdan iborat.

Buni quyidagi yo`nalishlarda tushunish mumkin:

a) eng umumiy, abadiy o`sish, o`zgarish yoki aksincha kichrayish (tekis evolyutsionizm) tarzida;

b) xuddi sifat o`zgarishlari kabi sakrashlar zanjiri (katastrofizm) shaklida;

v) takrorlash sifatida qagiy liniyali yo`nalishga ega bo`lgan doimiy jarayon (to`g`ri chiziqli rivojlanish) holatida;

g) hech qanday yangiliklarsiz aylana doirasidagi abadiy harakat ko`rinishida;

d) mohiyatidan ziddiyat kelib chiquvchi harakat sifatida;

e)progress sifatida, ya’ni oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga intilish tarzida. Taraqqiyotning o`zaro aloqadorlik va ta’sirning boshqa aralash izoxlari ham bo`lishi mumkin.

Metafizikaning turlari har xil asoslar, mezonlar bilan farq-lanishi mumkin. Bilishning metafizik metodi - byurokratizm, konservatizm, volyuntarizm va h.k. Amaliy faoliyatning boshqa bir tomonlama harakatlari tarzida namoyon bo`lishi ham mumkin.

Bilimning metafizik usullari turlicha bo`lib, idealizm, sensualizm, raiionalizm, empirizm, dogmatizm, relyativizm va boshqa shakllarda namoyon bo`lib, bilimning alohida shakllari natijalarini mutlaqlashtirish jarayonida paydo bo`ladi.

Sofistika falsafiy metodlar jumlasidan bo`lib, qadimgi YUnonistonda mil. av. V va IV asrning birinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy hayotda xususiy bir yo`nalish sifatida paydo bo`lgan.

Sofistika namoyandalari Pratagor, Gorgiy, Gippiy, Antifont va boshqalardir. Sofistikaning paydo bo`lishi antik YUnonistonda iqtisodiy taraqqiyotga bo`lgan ehtiyoj bilan bog`liq. Bu oila urug` an'analaridagi turg`unlikni bartaraf qilish, yangi ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlarga ehtiyoj davri edi. Sofistikaning inqirozi eramizdan avval IV asr o`rtalarida boshlandi. Eramizning II asrida klassik yunon sofistlarining g`oya va uslublarini qayta ishlashga intiluvchi yangi oqim paydo bo`ldi.

Sofistika mavjud nazariya va ma'lumotlarni saqlashga intiladi. Uyangi fikr eski fikrning bir qismi ekanligini asoslashga yoki mantiq qonunini tuzib, mavjud bilimlar tizimini barcha ziddiyatlardan tozalashga harakat qiladi. Bu metoddan semantik va mantiqiy qonunlarda istalgan narsani isbotlash uchun foydalaniladi. Ko`pgina darslik va qo`llanmalarda bu ibora yunon tilidagi "copism" so`zi asosida, ya'ni ataylab xilma-xil ma'noga ega bo`lgan tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatga to`g`ri kel-maydigan, ko`chma ma'no-mazmunga erishish usuli, deb ta'kidlanadi. Bu usul qo`llanilganda fikrning mazmuni ko`chma ma'noda bayon qilinadi, ya'ni "Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit ", deganga o`xshash holat nazarda tutiladi. U, nafafat, qadimgi YUnoniston, balki o`rta asrlarda Evropada ham keng tarqalgan. Agar bu usul yolg`on xulosalarga olib kelsa, nega o`z davrining ko`pgina dono kishilari undan foydalanishar, degan savol tug`ilishi mumkin. Mashumki, insoniyat tarixida hurfikrlilik va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabatni to`g`ri ifodalashning iloji qolmagan zamonlor ko`p bo`lgan. Bunday holni inkvizitsiya hukmron bo`lgan o`rta asrlar Evropasiga ham tatbik, etish mumkin. O`sha davrda ham ko`pgina ziyolilarning ana shu usulga suyanmasdan iloji yo`q edi. Umuman olganda, falsafada "do`ppi tor kelib qolgan " ana shunday zamonlarda fikrni Gulxaniyning mashxur "Zarbulmasal " asari kabi ifodalash xollari uchrab turadi. Buni urta asrlar Evropasiga nisbatan olsak, unda Servantesning "Don Kixot " asari nima sababdan shunday yozilganligi, uning bosh qahramoni esa nima uchun shamol tegirmonlariga qarshi jang qilganligi va bu laexalar zamirida qanday botiniy mazmun yashiringani anits bo`ladi.

Sofizm - qarama-qarshi fikrlar asosida ixtiyoriy tanlangan foydali mulohaza bo`lib, uning yordamida har qanday narsa yoki fikrni isbotlay olish mumkin. Masalan, Aristotelning yozishicha, bir afinalik ayol o`g`liga, jamoa ishlariga aralashma, chunki agar to`g`ri gapirsang, seni odamlar; yolg`on so`zlasang - Xudolar yomon ko`radi, degan ekan. Sofizmga ko`ra afinalik ayolga shunday rad javobi berish mumkin: sen jamoa ishlarida ishtirok qilishing kerak. chunki to`g`ri so`zli bo`lasan va buning uchun seni Xudolar ham, odamlar xam yaxshi ko`radi.

Sofistika mavjud bilimlar tizimidan ziddiyatlarni siqib chiqaradi, bu bilan eski va yangi bilimlarni murosaga keltiradi. Sofistika inson bilimi doirasida cheksiz relyativizmni ulug`laydi. Predmet xaqida har narsa deyish mumkin. Qanday maqsad ko`zlan-masin, so`zlar ifodasida hech qanday chegara yo`q (masalan, asal - shirin; asal - achchiq; qo`rg`on -- aylanasimon, qo`rg`on - to`rtburchak va h.k.) shunga ko`ra sofist - mohir usta, so`zamol donishmand ma'nolarini anglatadi.

Sofistikaga faqat salbiy munosabatda bo`lish noo`rindir. U odatda yangi g`oya, nazariya va turmush sharoitining paydo bo`lishi bilan bog`liq. Sofistika bilish tizimidagi mantiqiy zvddiyatlarni aniqlash, eski bilim tizimini qayta qurishda zaruriy element

sifatida namoyon bo`ladi. Sofizm muayyan, yaxlit xususiyatga ega, chunki hodisaga ta’sirchan bo`lib, eski narsa xavf ostiga olinadi. SHuning uchun har qanday sofizm o`ziga xosdir.

Sofistika qadimgi Evropa tafakkur uslubining asosi bo`lib xizmat qildi. Ammo sofistikani tanqid qilish orqali antik davr falsafasi dunyoning yangicha kontseptsiyasiga erishdi. Bu kontseptsiya fikr va borliq ayniyligiga asoslanadi. U Aristotel falsafasida o`zining nihoyasiga etdi va nasroniylikda mustahkamlandi. SHu ma’noda, sofistika insoniyat tafakkurining umumiy taraqqiyotida o`z o`rni va ahamiyatiga ega.

Eklektika hech qanday bilim faoliyati bilan bog`lanmagan, bir-biriga zid dalillarga asoslanadi va olamni buzib yolg`on aks ettiradi. U bilim tizimi rivojidagi yo`nalish, u hech qanday yagona nazariy asosga ega emas va ba’zida ob’ektni o`rganishning ziddiyatli jihatlarini xarakterlovchi bilim elementlaridir.

Metodologik usul sifatida eklektika birinchi marta qadimgi yunon falsafasida paydo bo`ldi va iqtiboslarga asoslangan o`rta asr sxolastik bahslarida, yangi davr XV-VIII asrlar falsafiy bahslarida keng foydalanildi. U hozirgi davrda ham reklama va tashviqotda, ommaviy kommunikatsiya tizimida qo`llanilib, inson psixikasidagi an’analar, ko`nikmalar, intilishlarni bo`rttiradi. Bunday usulning bema’niligini Suqrot va Aristoteldan boshlab, hozirgi davr mutafakkirlarigacha tanqid qiladilar. Ammo bu undan foydalanilmaslikni anglatmaydi. Eklektika olam, narsa va hodisalarning bir butunligini, umumiy asoslarini parchalab tashlash uslubiga tayanadi.

Hozirgi zamon fanida sinergetika metodi keng qo`llanilmoqda. Sinergetika so`zi yunoncha ("sinergena") bo`lib, kelishuv, hamkorlik, o`zaro ta’sir kabi ma’nolarni anglatadi. German Xakenning fikricha, sinergetika ko`p qismlardan iborat bo`lgan, o`zaro murakkab aloqadorlikdagi komponentlar tizimini o`rganadi. Bu so`zni Xaken hamkorlikdagi harakat bilib, butunning tizim sifatida aks etuvchi qismlarining kelishilgan faoliyati ma’nosida talqin qiladi.

Barcha ta’limotlar paydo bo`ladi, rivojlanadi va, nihoyat, eskiradi. Xaken sinergetikasi ham vorisiylikka asoslangan. Uning davomi bo`lgan I. SHerring gonning sinergetik uslubi, S. Ulamning sinergiyasi, I. Zabusskiyning sinergetik yo`nalishlari ana shular jumlasidandir.

I. SHerringgon sinergetik yoki integrativ tafakkurni muskullar harakatining boshqaruvida (orqa miya) asab sistemasidagi kelishilgan ta’sirni izoxlash usulidir, deb tushunadi. S.Ulam esa EHMning birinchi avlodi vakillaridan biri bo`lib, u sinergiyaning, ya’ni mashina va uning operatori orasidagi uzluksiz hamkorlikning foydaliligi, ahamiyatining hozirgi zamondagi ta’siriga e’tiborni qaratadi.

I. Zabusskiy 60-yilning o`rtalarida liniyasizlik masalalarini hal qilishda analitik jihatdan cheklanganlik bir yokdamalikka yo`l ochganligini ta’kidlaydi. Liniyasiz matematika va fizika masalalarida sinergetika usulining tatbiq etilishini odatdagi matematika hisoblash mashinasining faoliyatini tahlil qilish bilan qiyoslaydi.

Hozirgi davrda I. Prigojinning sinergetika to`g`risidagi fikr-lari ham ko`pchilikning e’tiborini tortmokda.

YUqoridagi barcha holatlarda uzluksiz harakat haqida so`z boradi. Sinergetika orqali sodda tizimlardan murakkablarini yaratuvchi o`lik tabiatdagi o`z-o`zidan xarakatning tamoyili shakllandi. Sinergetika bilan fizikada evolyutsion yo`nalish paydo bo`ldi va fan ijodkorlikdan yangilik yaratish tushunchasi tomon rivojlandi. Sinergetika makroskopik darajalarga tasodifiylikni fanga kiritdi va bu bilan mexanika metodlarini

makroskopik darajaga, ya’ni mikrodunyo masalalariga tatbiq qildi.

Sinergetika nisbiylik nazariyasidagi energaya va narsaning o`zaro bir-biriga o`tishini tasdiqlaydi va narsalarning paydo bo`lishini o`ziga xos tarzda izoxlaydi. U biz yashayotgan makrosistemalar qanday paydo bo`lganligi masalasini hal etishga harakat qiladi. Sinergetika nazariyasida energiya kristall sifatida qotib qoladi va kinetiklikdan potentsiallikka aylana boshlaydi, deb talqin qilinadi. Bunga ko`ra, narsa qotib qolgan energiyadir. Energiya - faoliyatning ishlab chiqarish qobiliyatini xarakterlovchi tushuncha, lekin hozirda energiya nafaqat mexanik faoliyat, balki yangi strukturalarni yaratuvchisi sifatida ham o`rganilmokda. Sinergetika tabiatdagi evolutsiya nimaning hisobiga sodir bo`lishi mumkinligini asoslaydi. Barcha yangi strukturalar yaratilayotgan joyda energiyaning kuchli to`lqini va muhit bilan almashinuv zarur (evo-lyutsiya hayot kabi), metabolizmni talab qiladi. Agar osmon jismlari evolutsiyasida biz ishlab chiqarishning natijasini kuzatsak, sinergetika tabiatni yaratish jarayonini o`rganadi. Sinergetika nisbiylik nazariyasining xulosalarini tasdikdaydi: energiya olamning yanada yuqoriroq darajalarini yaratadi. Bu borada Arximed so`zini takrorlab, shunday deyish mumkin: "Menga energiyani bering va men dunyoni yarataman".

Xullas, sinergetika - olamning o`z-o`zini tashkil etishi, makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o`zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababi bog`lanishlar asosida mavjudligini etirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. Bu ta’limotni dialektika asosida shakllangan va uni to`ldiradigan ilmiy qarashlar majmuasi deydiganlar ham bor. Ularga qarshi o`laroq, dialektika endi kerak emas, uni sinergetika bilan aliashtirish lozim, debhisobloechilar ham yo`q emas.

Bizningcha, sinergetikaning XX asr oxiridagi shaxdam odimyaari o`rta asrlarda Evropada anik, fanlar sohasida induktsiya va deduktsiya usullarining muvafaqqiyatli qo`llangani, katta mavqega ega bo`lgani va pirovard natijada, falsafiy metodga aylanganini eslatadi. Sinergetikani XX asr tabiiy failarining falsafa sohasiga kiritayotgan eng katta yutuqlaridan biri sifatida baholash mumkin. Ammo, bu sinergetika dialektikani falsafadan butunlay surib chiqaradi, dvgani emas. Zero, falsafada har bir talimot, uslub metodning o`z o`rni va faoliyat doirasi bor. Dialektikaning falsafadagi ahamiyatiga kelganda esa, uning ijtimoiy bilimlar sohasidagi o`rni, qadr-qimmati nihoyatda katta va u falsafaning asosiy metodlaridan biri bo`lib tsolaeeradi.

Umumilmiy yo`nalishlar va tadqiqot metodlari XX asr fanida rivojlandi va hozir keng qo`llaniladi. Ular falsafa va xususiy an’anlarning fundamental nazariy-metodologik xulosalari orasida bog`lovchi metod sifatida namoyon bo`ladi.

Umumilmiy metodlar axborotlashtirish, modellashtirish, izomorfizm, strukturlizm, funktsionalizm va h.k.lardir. Bu tushunchaning harakterlovchi xususiyatlari, birinchidan, ular mazmunidagi xossa, belgi, tushunchalarning xususiy fan va falsafa kaegoriyalari bilan aralashganligida, ikkinchidan, matematik nazariyalar vositasida formallashtirish va aniqlik kiritishdadir. Agar falsafa kategoriyalari o`zida eng umumiy, ya’ni qonun darajasini ifodalasa, umumiy tushunchalarga mavhum umumiylik (bir xillik) xos bo`lib, ularni mavhum-formal vositalarda ifodalashga imkoniyat yaratadi.

Umumilmiy tushuncha va kontseptsiyalar asosida bilish tamoyillari va metodlari shakllanib, ular falsafa metodologiyasining xususiy ilmiy bilim va metodlari bilan optimal o`zaro ta’sir va aloqasini ta’minlaydi.

YUqoridagilarning asosiy roli falsafiy va xususiy ilmiy bilim va unga mos metodlarning o`zaro bir-biriga o`tishini ta’minlovchi oraliqxarakterga egaligidir.

Xususiy ilmiy metodlar, ya’ni olam xarakatining ma’lum shakliga mos keluvchi fanning u yoki bu sohasida qo`llaniladigan usullar, bilish tamoyillari, tadqiqot ishlari yig`indisidir. Ular mexanika, fizika, kimyo, biologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlarga xos metodlardir.

Fan (distsiplinar) metodlari, ya’ni fanlarning taraqqiyoti jarayonida paydo bo`ladigan yoki fanning u yoki bu sohasiga taalluqli, u yoki bu fanda qo`llaniladigan usullar tizimi. Har qanday fundamental fan predmetining alohida xususiyatiga va tadqiqot metodlarining xilma-xilligiga ega bo`lgan fanlarning (distsiplina) kompleksini tashkil qiladi.

Fanlararo tadqiqot metodlari ilmiy fanlarning integratsiyasiga asoslangan sintetik, integral usullarning (turli metodologik daraja elementlarining mos kelishi natijasi sifatida) yig`indisidir.

Bugungi kunda ilmiy bilishda aniq sharoitni hisobga olib amalga oshadigan turli metodlarning murakkab dinamik bir butun tizimi shakllangan.

Falsafaning ilmiy bilishdagi metodologik ahamiyati o`rganilar ekan, eng avvalo, bu masalani hal qilish jarayonida shakllangan ikki modelga to`xtab o`tish lozim.

Birinchidan, falsafiy yo`nalish (naturfalsafa, falsafa tarixi va h.k.) bo`lib, uning asosiy maqsadi bevosita falsafa tamoyillaridan ilmiy nazariyalarning yakuniy xulosalarini chiqarish, shuningdek, mavjud fanning maxsus kontseptual aniq materiallarini tahlil qilishdir. Bu SHelling va Gegel ijodiga xos bo`lgan yo`nalishlardir.

Ikkinchidan, pozitivizm, ya’ni fan o`zi uchun falsafa. Falsafaning roli xususiy-ilmiy bilishda yo mutlaqlashtiriladi (birinchi model) yoki pasaytiriladi yoxud umuman inkor qilinadn Ikki holatda ham ma’lum darajada pozitiv ijobiy natijaga erishilgan bo`lsada, biroq bu muammo to`la hal qilinmagan.

Bilish va falsafa tarixi uning fan taraqqiyoti jarayoniga ta’siri va natijasi quyidagi asosiy xulosalarda namoyon bo`ladi:

1. Falsafa ilmiy bilishning barcha bosqichlariga u yoki bu darajada va, ayniqsa, yangi fundamental nazariya yaratishga to`laqonli ta’sir qiladi. Bu ilmiy revolutsiyalar jarayonida, tushuncha va tamoyillarning «tub burilish» davrida faol namoyon bo`ladi. Albatta, bu ta’sir ham ijobiy, ham salbiy bo`lishi mumkin, bu esa olamning "yaxshi" yoki "yomon" falsafa bilan boshqarilishi demak. YOmon falsafa, V. Geyzeneberg fikricha, yaxshi fizikani ildizigacha quritadi.

2. Falsafaning ilmiy bilish taraqqiyotiga ta’siri prognozlashtirish funktsiyasi bilan ham xarakterlanadi. Uning negizida biron bir g`oya yaratilib, uning ilmiy ahamiyati juda katta davr o`tgandan so`ng tasdiklanadi (masalan, antik davrdagi atomizm g`oyasi). Undan tashqari, falsafa tamoyillari mushohadadan nazariya tadqiqot jarayoniga o`tishda selektiv funkiiyani bajaradi. Juda ko`p mushohadalardan so`ng olim faqat shaxsiy falsafiy tasavvurlariga mos keluvchi xulosalarni tanlaydi.

3. Falsafiy tamoyillarning ilmiy tadqiqotga ta’siri doimo bevosita emas, balki murakkab bilvosita yo`l, boshqa metodologik darajalardagi shakl va kontseptsiyalar orqali amalga oshiriladi. Bunda falsafa tamoyillarining ilmiy bilishda namoyon bo`lishi, ularning o`z navbatida chuqurlashuvi, mukammallashuvi, rivojlanishini ifodalaydi.

4. Falsafa metodlari ilmiy bilish jarayonida doimo ham to`la namoyon bo`lmaydi, ular faqat nazarda tutilishi, bilishda ongli yoki ongsiz ravishda qo`llanilishi mumkin. Biroq har bir fanda umumiy ahamiyatga ega bo`lgan elementlar mavjud bo`lib, (masalan,

qonunlar, kategoriyalar, tushuncha, sabab va h.k.) ular har qanday fanni falsafiy mazmunga ega amaliy mantiqqa aylantiradi.

5. Falsafa tamoyillari fanda umumiy universal normalar sifatida namoyon bo`lib, eng yuqori darajadagi metodologik dastur vazifasini bajaradi. Bu dastur qat'iy sxema, stereotip bo`lmasdan, balki tadqiqotchi uchun o`zgaruvchan va dinamik bo`lishi lozim.

6. Falsafa reallikning universal modelini yaratadi va u orqali olim tadqiqot predmetini o`rganadi. Bilishning vositalarini, kategoriyalar, tamoyillar, tushuncha va h.k. ni qadriyatli, dunyoqarashli yo`nalishlarni tanlaydi. Bilish jarayonining umumiy qonu-niyatlari haqidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

7. falsafiy-metodologik tamoyillar yordamchi, haqiqatning mezoni funktsiyalarini ham bajaradi. Ana shu tarzda falsafa metodlarining xususiyatlari o`ziga xos tarzda namoyon bo`ladi.

YUqorida biz metod va metodologiyaga oid masalalarni qisqa taxlil qildik. Ularning har biri uchun alohida tadqiqot, kitob yoki risolani bag`ishlash mumkin. Bu esa mazkur yo`nalishdagi tadqiqotlarning kelajakda davom etishi lozimligini anglatadi.

2. Falsafiy qonunlar

Olamdagi narsa va hodisalarning xarakati, o`zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o`tib turishi, rivojlanishi, ular o`rtasidagi aloqadorlik va o`zaro ta'sir kabi masalalar qadimdan mutafakkirlar, olimlar, faylasuflar o`rtasida turli bahs, munozara, torti-shuvlarga sabab bo`lgan. CHunki ular to`g`risida aniq bilimga ega bo`lmasdan turib, olam va uning taraqqiyoti, rivojlanish manbai, harakatlantiruvchi kuchlari to`g`risida hamda, eng asosiysi, kelajak haqida ilmiy tasavvurga ega bo`lish qiyin.

Atrofimizdagi jamiki narsa-hodisalar. ya'ni eng mayda zarrachalardan tortib to Er, Quyosh, Koinotgacha barchasi, shu jumladan, kishilik jamiyati ham doimo harakat, o`zgarish va rivojlanishda-dir. Ular o`rtasida abadiy o`zaro bog`likdik, o`zaro ta'sir va aloqadorlik mavjud. Olamda o`z - o`zidan, tasodifiy ravishda hech qanday harakat ham, o`zgarish ham yuz bermaydi.

Biz narsa va hodisalarning harakati, o`zgarishi va rivojlanishiga ular o`rtasidagi bog`lanish va aloqadorlik, ta'sir va aks ta'sir asos bo`ladi, deymiz. Albatta, olamdagi har qanday bog`lanish ham rivojlanishga sabab bo`lavermaydi. CHunki bu bog`lanishlarning ko`lami, mohiyati, ta'sir kuchi va doirasi turlicha. Bog`lanishlar-ning ana shu xususiyatlariga qarab, zaruriy va tasodifiy, ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, muhim va muhim bo`lmagan va hokazo bog`lanishlarga ajratish mumkin.

SHuningdek, olamda boshqa voqea yoki hodisalardan aloxdtsa, ular bilan bog`liq, o`zaro aloqadorlikda va ta'sirda bo`lmagan birorta ham voqea yoki hodisa mavjud emas. Demak. o`zaro bog`lanish va ta'sir natijasida narsa-hodisalarda o`zgarish sodir bo`lali. Lekin barcha o`zgarishni har doim ham birdaniga, yaqqol sezish mumkin emas. CHunki olamning namoyon bo`lishi turli darajada bo`lganligi sababli o`zgarishlar ham turlichadir.

Masalan, yangi tug`ilgan chaqaloqning bir hafta, bir oy, yarim yil mobaynidagi o`zgarishini, yani ulg`ayishini yoki bo`lmasa, tabiatdagi qish faslidan bahor fasliga o`tishdagi o`zgarishlarni oddiy ko`z bilan yaqqol sezish mumkin. Lekin biron jonsiz predmet, masalan, Er qa'ridagi ichki jarayonlarni ma'lum davrdan keyin sezish mumkin.

Ana shu sababdan ham odamlar zilzilalar, vulqonlar otilishi kabi ofatlar qarshisidalol, gohida esa g`aflatda qolib kelmoqdalar. YA'ni, tashqi faktorlar (inson faoliyati, yorug`lik, issiqlik, namlik, atmosfera bosimi) natijasida ro`y bergan o`zgarishlarni ko`z ko`radi, qulok, eshitadi. Xullas, ular oson anglab olinadi, ochiq-oydin namoyon bo`ladi, ulardagi o`zaro bog`liqlikni ham oson ko`rish, ilg`ash mumkin. Ana shunday oson ko`rish va ilg`ash mumkin bo`lgan, ochiq-oydin ro`y beradigan voqea, hodisa, natijaga nisbatan "zohiriylik" tushunchasi, mohiya-tini ilg`ash qiyin bo`lgan va murakkab ichki sabablar natijasida kechadigan jarayonlar ea o`zgarishlarga nisbatan "botiniylik" tushunchasi qo`llaniladi. O`rta asrlarda, ayniqsa, tasavvuf falsafasida bu ikki tushunchaga aloxida e'tibor berilgai.

"Harakat " tushunchasi "Borliq falsafasi "mavzuida yoritilganligi sababli, bu erda uning quyidagi qisqa ta'rifi bilan cheklanamiz: harakat deb olamdagi har qanday o`zgarishga aytiladi. Rivojlaiish tushunchasi esa quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon ilgarilab boruvchi harakatni ifodalaydi. Lekin bu jarayon goh to`g`ri chiziqli, goh asta-sekin kengayib boradigan spiralsimon shakldagi harakatdan iborat bo`lishi mumkin.

Vunda doimiy bir tomonga, masalan, vaqtning o`tmishdan kelajakka tomon o`tishi ham, lekin makonda votsea va hodisalarning takrorlanishi, zamonda orqaga qaytishlar ham sodir bo`lib turodi. Ba'zida taratsqiyotning ma'lum bir bosqichida oldingi bosibo`tilgan davr takrorlangandek bo`ladi, ammo bu ilgarigidan farq qiladigan, boshqacharoq tarzdagi takrorlanishdir.

Hech qachoi bir xil tong otmaydi, deb bsjiz aytmaydilar. Holbuki, har kuni tongda o`sha quyosh chiqadi, o`sha tog`u toshlarni, bog`u biyobonlarni, biz yashayotgan zaminni yoritadi. Odashar ham, ish ea tashvishlar ham hamon o`sha-o`shadek. Kimdir ishga shoshadi, kimdir o`qishga kimdir yana ilgarigi kundek bekorchilikdan zerikadi... Ammo dunyo o`zgarmadimi shu bir kunning ichida ? Unda minglab bolalar tug`ilmadimi, son-sanoqsiz jarayonlar ro`y berib, Er sayyorasining turli burchaklaridan boshqa joylarga qanchadan-qancha axborotlar tarqatilmadimi? Ona zamin o`z o`qi va Quyosh atrofida aylanishini davom ettirmadimi? Bularning barchasi bir kunu tunda ro`y bergan botiniy va zohiriy o`zgarishlarning namoyon bo`lishidir.

Dunyoning mavjudligi ana shunday botiniy va zohiriy o`zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa o`z moqiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olgan.

Masalan, biz Nyuton tomonidan kashf etilgan butun olam tortishish qonunini o`rganganimizda ana shunday holni idrok etganmiz. Bu qonunning asosiy mohiyati butun olamdagi narsalarning bir-biri bilan aloqadorligi tamoyiliningdoimiy takrorlanishi, har soniya va har daqiqada bu holatning sodir bo`lib turishini isbotlaydi.

Xo`sh, qonun o`zi nima? U kishi va umuman, jamiyat hayotida qanday ahamiyatga ega? Qonunni bilmasdan, o`rganmasdan turib yashash mumkinmi? Konun tushunchasi kundalik hayotimizda nisbatan tez-tez ishlatib turiladigan tushunchadir. Xususan, fizika yoki kimyo qonunlari deymiz, tabiat qonuni yoki bo`lmasa, iqtisodiy qonunlar, yuridik qonunlar va h. k. Bozor iqtisodiyotiga o`tish tamoyillarining uchinchisi ham qonun to`g`risida bo`lib, unda barcha sohada qonunning ustuvorligi ta'minlanishi ta'kidlanadi. YUqoridagilarni birlashtirib turadigan, barchasi uchun ham umumiy bo`lgan xossa, xususiyatlar bormi?

Eng avvalo, shuni aytish kerakki, olamdagi barcha narsa - tabiat, jamiyat va inson taraqqiyoti ma'lum qonunlar asosida amalga oshadi. Fanlarning (ijtimoiy, gumanitar,

tabiiy va h. k.) asosiy vazifasi har bir soha bo`yicha tadqiqot o`tkazib, qonunlarni kashf qilish yoki ularning amal qilish xususiyatlarini o`rganish va ochib berishdan iborat.

Qancha ko`p qonun kashf qilinsa, taraqhiyot shuncha tez bo`ladi. Taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, rivojlanishga erishish Qiyin. YAqin o`tmishda iqtisodiyotning o`ziga xos qonunlarini pisand qilmay, turli xil s'ezd, plenum, konferentsiya qarorlari asosida eksperimentlar o`tkazib, barcha uchun farovon hayot - kommunizm jamiyatini barpo qilmoqchi bo`lishganini va bunday siyosat Qanday oqibatlarga olib kelgani barchaga ma'lum.

Hozir mustaqil O`zbekiston barcha rivojlangan mamlakatlar singari ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo qilish yo`lidan bormoqda. Bunda umumbashariy qonunlar va mamlakatimizning o`ziga xos xususiyatlari e'tiborga olingan.

Endi shunday savol: **nima uchun inson qonunni bilishi kerak?**

Bunda oddiy misollarga murojaat qilamiz: yoz oylarida barcha odamlar issiq kiyimlar (etik, palto, qo`lqop) sotib olishadi, o`tin yoki ko`mir g`amlab qo`yishadi va h. k. Nima uchun? CHunki ular tabiatning bitta qonunini, ya'ni fasllarning o`zgarishi, yozdan keyin kuz, undan keyin qish kelishini juda yaxshi bilishadi.

YOki yana bir, jo`nroq bo`lsada, misol: sizga birov uyning 5-qavatidan tashlasang, falon pul beraman desa, rozi bo`lmaysiz. Nima uchun? CHunki siz I. Nyuton kashf qilgan "Butun olam tortishish qonuni"ni yaxshi bilasiz. Balki bilmassiz ham, havoning o`z jismingizdan zichligi kamligiga e'tibor qilmassiz ham, deylik. Ammo siz bu holda omon qolishingiz qiyinligini, mayib bo`lishingizni yaqqol tasavvur qilasiz.

Inson qonunlarni bilishi, ularga amal qilishi doirasida erkindir. Erkinlik nima? Erkinlik anglab olingan zaruriyatdir. Har qanday qonunga xos belgilardan biri zaruriylik, ya'ni ob'ektiv tarzda amalga oshish, o`z-o`zidan namoyon bo`lishdir. Erkinlik esa ana shu zaruriylikni anglab olish va unga amal qilishdan iborat faoliyatni anglatadi.

Huquqshunoslarda shunday ibora bor: "Qonunni bilmaslik javobgarlikdan xalos qilmaydi". Ana shutufayli sizhuquqiy qonunlarni qancha yaxshi bilsangiz, o`z faoliyatingizni shunga moslab olib borasiz. Demak, shuncha erkin bo`lasiz. Bu holda siz nima qonuniy, nima esa qonuniy emasligini yaxshi bilasiz, qonunga xilof qadamlar qo`ymaysiz.

YUqoridagi fikrlarni xulosa qilib, qonunga quyidagicha ta'rif berish mumkin: **qonun** olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog`lanishlari, o`zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo`lishidir. Endi qonunning belgilariga to`xtalamiz:

— qonun turli-tuman aloqadorliklar, bog`lanishlardan faqat muhimlarini, ya'ni shunday bog`lanishlarni ifodalaydiki, bular olamning mavjudligi, o`zgarishlari va undagi narsa hamda hodisalarning mohiyatidan kelib chiqqan bo`ladi;

— qonun zaruriy bog`lanishlarni ifodalaydi, ya'ni tasodifiy bog`lanishlar, goh paydo bo`lib, goh yo`qolib ketadigan bog`lanishlarga asoslanmaydi;

— qonun narsa va hodisalarning umumiy bog`lanishlarini ifodalaydi.

Qonun nisbatan barqaror, takrorlanib turuvchi bog`lanishlar (munosabatlarni) ifodalaydi, ya'ni bir safar yuz berib, ikkinchi safar yuz bermaydigan bog`lanishlarni qonun qamrab olmaydi. Masalan, 2004 yili qishdan keyin baxrr kelib, 2005 yilda kishdan keyin birdaniga yoz kelishini tasavvur qilib bo`lmaydi. CHunki, bu tabiat

qonuni - fasllar o`zgarishi qonuni doirasiga kirmaydi.

Tabiat qonunlarining yana bir eng` muhim xususiyati - u ob'ektiv xarakterga ega, ya'ni u insonga ham, insoniyatga ham bog`liq emas. Biror kishi, hatgo millatning irodasi bilan ham, tabiat qonuniga tub o`zgartirish kiritish yoki uni butunlay yo`q qilish mumkin emas. CHunkibu qonunlarning asosini tashkil qilgan bog`lanishlar, munosabatlar ob'ektiv xususiyatga ega.

Olamdagi har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiladigan va shu bilan birga, bir-birini istisno qiladigan qarama-qarshi tomonlar birligidan iborat. Demak, voqelik va o`zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyatning bo`lishi ham odatiy hol. Masalan, issiq va sovuq, oq va qora. kecha va kunduz, elektrning musbat va manfiy zaryadlari, yaxshilik va yomonlik, adolat va jaholat kabi qarama-qarshi tomonlar bir-birini inkor etadi va shu bilan birga biri ikkinchisini taqozo etadi, biri ikkinchisisiz mavjud bo`la olmaydi. Faraz qilaylik, magnitning manfiy zaryadi bo`lmasa, u holda ushbu narsa mag`nit bo`lolmaydi.

Borliq narsa, voqea-hodisalarning turli-tumanligidan iborat. Lekin narsalar qanchalik xilma-xil, turli-tuman bo`lmasin, ular o`rtasida yaqinlik, aynanlik mavjuddir. Masalan, stol va stul sifat jihatidan turli narsalardir. Lekin baribir ular o`rtasida o`xshash tomonlar, belgilar bor. Aytaylik, ularning rangi yoki bir xil materialdan yasalganligi yoki bo`lmasa, vazni o`xshash bo`lishi mumkin va h.k.

"Ayniyat" tushunchasi narsa va hodisalar o`rtasidagi o`xshash tomonlarni ifodalaydi. SHu bilan birga, narsa-hodisalar bir-biridan farq qiladigan tomonlar, xususiyatlar, belgilarga ham egadir. Aynan bir xil bo`lgan narsaning o`zi yo`q. Hatgo daraxtning bir shoxida yonma-yon turgan ikki barg xam bir-biridan farq qiluvchi ba'zi jihatlarga ega. Hech bulmaganda, ular bir-biridan makondagi o`rni bilan farq qiladi.

Hayotdan misol keltiradigan bo`lsak, bir-biriga tashqi tomondan tamomila o`xshash bo`lgan Hasan va Husanlarda ham juda ko`p farq qiluvchi xususiyatlar bor. Masalan, ularda fe'l-atvor, qiziqish turi, dunyoqarashlar har xil bo`lishi, ya'ni ularning ichki dunyolari farq qilishi mumkin. Demak, **tafovut** narsa-hodisalarning farq qiluvchi tomonlarini ifodalovchi tushunchadir.

Qarama-qarshilik deb narsa, voqea-hodisalarning bir-birini taqozo etuvchi va shu bilan birga, bir-birini inkor etuvchi tomonlari, kuchlarining o`zaro munosabatiga aytiladi.

Qarama-qarshiliklar o`rtasidagi munosabatni ziddiyatdegan tushuncha ifodalaydi. Ko`p hollarda ayniyat va tafovutning zidligi va ularning bir mahrajga kelishi, me'yoriy o`zgarishlar tufayli rivojlanish, taraqqiyot, yangilanish jarayonlari amalga oshadi. Taraq-qiyot shu ma'noda ayniyat, tafovut va ziddiyatlarning paydo bo`lishi, rivojlanishi va hal qilinishidan iborat bo`lgan abadiy hamda azaliy murakkab jarayondir.

Sobiq ittifoqning mafkurasi darajasiga ko`tarilgan marksizmda asosan ziddiyatga ko`proq e'tibor berilar edi, hamda mutlaqlashtirilar va jamiyatga ko`chirilib, asosan, antagonistik ziddiyatlar to`g`risida gapirilar va ularning echilishi insoniyatni baxtli hayotga olib boradi, deya xayol qilinar edi. Holbuki, insoniyat paydo bo`libdiki, uning hayotida ayniyat va tafovut ham, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ham mavjud bo`lib kelmokda. Odamzod ziddiyatlar kamroq bo`lgan, kishilarning xilma-xil intilish va maqsadlari, bir-biridan farq qiladigan g`oyalari uyg`unlashgan, barqarorlik ustuvor bo`lgan jamiyatni qurish uchun bosh qotirib kelmokda.

Ana shunday intilishlar fanda **"Konfliktologiya"** (konflikt - ziddiyat, logos - talimot)

deb ataladigan falsafiy yo`nalish paydo bo`lishiga olib kelgan. Bu soha bilan shug`ullanadigan olim va mutaxassislar konfliktologlar deb ataladi. Ular konfliktlarni keltirib chiqarish emas, balki ularning oldini olish va jamiyat uchun foydali tarzda hal qilish yo`llari va usullari ustida bosh qotirishadi.

Har bir ziddiyatning anshutanishi, hal qilinishi o`zgarishga, yangilanishga, bir sifatdan ikkinchi sifatga, eskidan yangiga o`tishga sabab bo`ladi. Olam turli-tuman bo`lganligi uchun ziddiyatlar ham xilma-xildir. Masalan, ichki va tashqi ziddiyatlar, asosiy va asosiy bo`lmagan ziddiyatlar mavjud. Ular o`rtasida farq bo`lgani bilan birga, mutlaq chegara ham yo`q. CHunki amalda, hayotda ular bir-biriga o`tishi, birlashib ketishi va taraqqiyotda turli xil o`rin tutishlari mumkin.

Olamning mavjudligi - miqdor va sifat voqeligi tarzida ham namoyon bo`ladi. Buning mohiyati shundan iboratki, narsa va hodisalardagi sezilarli bo`lmagan miqdoriy o`zgarishlar asta-sekin to`plana borib. taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida me’yorni buzadi va sakrash yo`li bilan tub sifat o`zgarishlariga olib keladi.

Moddiy olamdagi xilma-xil narsa va hodisalar bir-biridan o`z sifati bilan ajralib turadi. **Sifat** - narsalarning ichki va tashkil muayyanligi bo`lib, uning qator xossa, belgi, xususiyatlari birligini ifodalaydi. Sifat narsa qanday bo`lsa, uni shundayligicha ko`rsatib beradi, jismning barcha tashqi xossalarini bog`liqlikda namoyon qiladi.

Demak, sifat narsaning umumiyligini, yaxlitligini, uning nisbiy barqarorligini. bir-biriga o`xshashligi yoki o`xshamasligini ifodalaydi. U keng ma’noda narsalarning turli-tuman xossalari yig`indisidir. Lekin sifat va xossa aynan bir xil ma’nodagi tushunchalar emas. Sifatning o`zgarishi, muqarrar suratda, xossaning o`zgarishiga olib keladi. Biroq xossaning o`zgarishi har doim sifatning o`zgarishiga ta’sir etavermaydi, ayrim xossalar narsalarning sifatiga ta’sir etmaodan yo`q bo`lib ketishi mumkin. Sifat predmetning doimiyligini, nisbiy barqarorligiii ifoda etadi.

Narsalar sifat muayyanligidan tashqari, bir-biridan mikdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi. **Miqdor** predmetning hajmi, o`lchovi, og`irligi harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Tabiat hodisalari kabi ijtimoiy hodisalar ham miqdoriy tomonga ega. CHunonchi, suv o`z solishtirma og`irligiga, qaynash va muzlash darajasiga ega. Bir ijtimoiy tuzum boshqasidan xususiyati jihatidangina emas. Balki ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti, mehnat unumdorligi, madaniyati va hokazolar bilan ham farq qiladi. Har qanday narsa miqdor va sifat birligiga ega. Tabiatda faqat mikdorga yoki sifatga eg`a bo`lgan, ya’ni sifati bo`lib miqdori, miqdori bo`lib aksincha, sifati bo`lmagan narsaning o`zi yo`q.

Mikdor va sifatning birligi, o`zaro bog`liqlig`i **me’yor** tushunchasida ifodalanadi. Me’yorning buzilishi predmet mavjudligi mumkin bo`lmagan holatga olib keladi.

Xar qanday narsa, hodisaga miqdor va sifat o`zgarishlari xosdir. Miqdor o`zgarishlari bilan sifat o`zgarishlari o`rtasida qatiy qonuniyat mavjud bo`lib. bu qonuniyat quyidagicha ifodalanadi: mikdoriy o`zgarishlar sifat o`zgarishlarini tayyorlab, har bir aniq holatda muayyan tub sifat o`zgarishlarini keltirib chiqaradi va shu holatda miuyur o`zgarishlarining sifat o`zg`arishlariga o`tishi sodir bo`ladi. Olamdagi barcha o`zgarishlar asta-sekin sodir bo`ladigan miedor o`zgarishlaridan boshlanadi. Miqdor o`zgarishlari muayyan chegarada sifatning barqarorligiga ta’sir etmaydi. Miqtsoriy o`zgarishlar chegaradan chiqishi bilan sifatning barqarorligi buziladi. Natijada sifat yo`qolib, yangi sifat yuzaga keladi. Taraqqiyot jarayonida miqdor o`zg`arishlari tub sifat o`zgarishlariga o`tishi bilan birga sifat o`zgarishlari miqdor o`zgarishlariga ham o`tadi.

Miqdor o`zgarishlari bilan sifat o`zgarishlari o`zaro chambarchas bog`langan bo`lishiga qaramay, ular ayrim o`ziga xos xususiyatlarga ham ega. CHunonchi:

— birinchidan, miqdor o`zgaritsshari doimo yuz berib turadi. Hatto hodisalar sifatining nisbiy barqarorligi davrida ham miqdoriy o`zgarishlar asta-sekin yuz beradi. Sifat o`zgarishlariga o`tish faqat ma'lum bir davrda boshlanadi;

— ikkinchidan, miqdor o`zgarishlari ma'lum vaqtgacha narsalarga muhim ta'sir ko`rsatmaydi. Suv normal atmosfera bosimida 100° gacha suyuqlik holatini yo`qotmaydi, keyin esa bug`ga aylanadi, sifatini o`zgartiradi. Demak sifat o`zgarishlari hodisalarni tub-
dan o`zgartirib, uning boshqa hodisaga aylanishini taqozo qiladi;

— uchinchidan, miqdor o`zgarishlari asta-sekin amalga oshadi va ko`p xollarda sezilmasdan o`tadi. Sifat o`zgarishlari esa ancha tez, ayrim holatda to`satdan sodir bo`ladi;

— to`rtinchidan, sifat o`zgarishlari mikdor o`zgarishlariga qaraganda tub o`zgarish bo`lib hisoblanadi.

Sakrash tabiat va jamiyatda sodir bo`ladigan sifat o`zgarishlarini anglatadigan falsafiy tushuncha bo`lib, taraqqiyotning uzluksiz ko`rinishiga qaraganda ancha tez o`tadigan jarayondir.

Sakrash mikdor o`zgarishlaridan sifat o`zgarishlariga o`tishda uzluksizlikning uzilishini bildiradi. Sakrash narsa va hodisalarning uzluksiz rivojlanish davomida tayyorlanib, shu uzluksiz rivojlanish jarayoni tugab, uzilish sodir bo`lishi bilan zaruriy ravishda yuz beradi. Sakrash birdaniga, to`satdan bo`ladigan holatgina emas, balki yangi sifat elementlari ko`payishi orqali yuz beradigan tadrijiy jarayon hamdir.

Sakrashning turlari o`z xarakteriga ko`ra tabiat va jamiyatda xilma-xil bo`lib, ular bir-birlaridan farq qiladilar. Jamiyat taraqqiyotidagi sakrashlarning o`ziga xos tomoni shuki, bu sakrashlar eski ijtimoiy tuzumni yo`q qilish va yangi ijtimoiy tuzumni o`rnatadigan ijtimoiy jarayonlar, tadrijiy ribojlanish orqali amalga oshadi. Bunday sakrashlarni ikki turga bo`lish mumkin: birinchisi - portlash yo`li bilan bo`ladigan sakrashlar. ikkinchisi sekin-asta, tadrijiy yo`l bilan bo`ladigan sakrashlar. Birinchi tur sakrashlarning o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda narsa va hodisalarning yangi sifatga o`tishi nihoyatda tezlik bilan yuz beradi va kutilmagan natijalarni, tasodifiy jarayonlarni boshlab yuborishi, haggo salbiy holatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Sakrashning ikkinchi turida esa eski sifat elementlarining asta-sekin yo`qolib borishi va yangi sifat elementlarining asta-sekin to`planishi natijasida yangi sifat paydo bo`ladi.

SHunday qilib, sakrash quyidagi jihatlarga ega:

birinchidan, sakrash taraqqiyot natijasida amalga oshadigan ob'ektiv va qonuniy jarayondir;

- ikkinchidan, sakrash tadrijiylikning uzilib, miqdor o`zgarishlaridan tub sifat o`zgarishlariga o`tishidir;

- uchinchidan, sakrash eskini tugatish va yangi sifatga mos keladigan holatlarning vujudga kelishi tufayli paydo bo`ladigan ziddiyatlarni hal qilishdir;

- to`rtinchidan, sakrash olamning rivojlanib, ilgarilab borishidir;

Hodisalarning sifat xususiyatlariga va ularning rivojlanish sharoitiga bog`liq ravishda eski sifatdan yangi sifatga o`tish turli shakllarda sodir bo`ladi. Har bir narsa, hodisa o`zining aniq inkor qilish usuliga, o`z navbatida, aniq sakrash shakliga egadir.

Demak, har qanday o`zgarish, har qanday rivojlanish miqdor va sifat o`zgarishlarining o`zaro bir-biriga o`tishi orqali sodir bo`la-digan jarayonlardan iborat. Borliqning hamma sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi, yangi narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo`lib turadi. Bundagi eskining yangi bilan almashinishi inkor deb ataladi.

O`zgarish va rivojlanish jarayonida **o`z-o`zini inkor etish tamoyili** nihoyatda muhim. Bunda **vorislik** - eskining inkori va yangilikiing shakllanishi sifatida namoyon bo`ladi. Ana shu jarayonlarning doimiy takrorlanishi **inkorni inkor qonunining** mohiyatini bildiradi.

Mazkur qonunga muvofiq ob’ektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskining yangi tomonidan inkor qilinishi ro`y beradi. Biroq, aksariyat hollarda, eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi.

Inkor tushunchasi kundalik ongda "yo`q" so`zi bilan qo`shilib ketadi, inkor qilmoq "yo`q" demaqdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to`g`ridan-to`g`ri yo`q" degani emas, ya’ni narsani mavjud emas, deb e’lon qilmoq eki uni har qanday usul bilan yo`qotib tashlamoq emas.

Inkorni dialektik tushunish yangining eski bilan oddiy almashuvi bo`lmasdan, balki eskining bag`rida vujudga kelib, undan foydalanib, qaror topishini tan olishdir. Dialektik inkorning muhim ikki jihati mavjud: birinchisi, eskining o`rniga yangining kelishi tabiiy-tarixiy jarayon bo`lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yangining eski bilan vorisiy bog`liq ekanligini ham ifodalaydi.

Inkorni inkor qonunini tushunish uchun uni nega shunday deb atalishini izohlamoq lozim. Falsafaning bu ta’limotini ikki marta takrorlanuvchi inkorda ifodalanishi olamdagi narsa va hodisalarning doimiy ravishda o`zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o`tib borishi va oqibatda, rivojlanish uzluksiz ekanligidan kelib chiqadi.

Bu qonunga ko`ra, har bir mavjud bo`lgan narsa va hodisa o`zigacha bo`lgan sifat va mikdor inkor etilishining mahsuli, shu bilan birga, ana shu narsa va hodisalarning o`zi ham sharoitning o`zgarishi, vaqtning o`tishi bilan inkor etilishga mahkumdir. Demak, har bir narsa hodisaning o`zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko`proqinkor etishlar bilan amalga oshadi. Insoniyat tarixi avlodlar almashinuvi tarixidir, deyilganida ham ana shunday hol nazarda tutiladi.

Inkorni inkorning yana bir muhim belgisi shuki, taraqqiyotdagi davriylikning muayyan halqasida, ya’ni navbatdagi inkor bosqichida uning oldingi bosqichidagi ba’zi belgilar takrorlanadi. Masalan, don o`simlikdan yana donga aylanadi, keyinroq yana o`simlikka va hokazo.

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to`g`ri chiziq shaklida emas, dokra shaklida bo`ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang`ich nuqtaga yaqinlashadi. Lekin bu yaqinlashuv uning oxirgi nuqta bilan tutashishi bo`lmasdan, balki yuqori bosqichda sodir bo`lishi sababli taraqqiyot spiral shaklga ega bo`ladi. Bu spiral-ning har bir yangi o`rami oldingi o`ramiga nisbatan yuqoriroq bosqichda yuzaga keladi.

Dialektik inkor yangi bilan eski o`rtasidagi bog`lanishni butkul rad qiladi, deb tushunmaslik kerak. YAngi qanchalik ilg`or bo`lmasin, u yo`qjoydan paydo bo`lmaydi, balki eskining qobig`ida asta-sekin shakllanadi. SHuning uchun ham ko`p hollarda eskidan yangiga o`tilayotganda eski butunlay tashlab yuborilmaydi, balki uning ijobiy tomonlari saqlanib qoladi va rivojlanish davom etgiriladi. Demak, yangi bilan eski

o`rtasida vorislik mavjuddir. Inkorni inkor qonuni taraqqiyotda vorislik va qaytariluvchanlikning birligini tavsiflaydi. Dialektik inkorning muhim xususiyati ana shundan iborat.

Inkorni inkor qonuni mustaqillik va bozor iqtisodiyoti jarayonida ro`y berayotgan hodisalar mohiyatini ilmiy anglashda katta ahamiyat kasb etadi. YAngi jamiyatni barpo ztishga qaratilgan o`zgarishlar hamma narsani butunlay yo`q qilishni bildirmaydi. Aksincha, bu - xalqimiz taraqqiyoti jarayonida erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'naviy yutuqlarni saklab qolib, ularni yanada boyitib, rivojlantirishdan iboratdir. Mazkur jarayonning asosiy tamoyili Islom Karimovning yangisini qurmasdan, eskisi buzmaslik lozimligi to`g`risidagi xulosasida yaqqol o`z ifod-siki topgan.

3. Falsafiy kategoriyalar

"Kategoriya" atamasi har bir fan ikkinchi bir fandan o`zining tadqiqot ob'ektining xususiyatiga, unda ishlatilayotgan tushuncha va atamalar tizkmining o`ziga xosligiga qarab farqlanadi. Tushunchalar tizimi esa har bir fanning shakllanishi, mazmun, mohiyati va taraqqiyot bosqichlarini ko`rsatadi. Masalan, massa, og`irlik, tezlik, tezlanish, atom, yadro, elektr, magnitizm, yorug`lik, lazer, energiya va h.k. fizikaga tegishli bo`lib, uning mazmunini belgilaydi. Natural son, mavhum son, kompleks son, o`zgarmas miqdor, o`zgaruvchan miqdor, integral, differentsial, teorema, vektor hisob va h.k. matematikaning rivojlanish bosqich-larini belgilaydi. Falsafaningham o`z tushunchalari bo`lib, ular O`zining umumiy xarakteri va mazmunga egaligi bilan ajralib turadi. Masalan, olam, harakat, makon, vaqt, mikdor, me'yor, sakrash, ziddiyat, qarama-qarshilik, erkinlik, tafovut, ayniyat, inkor, borliq, vorislik, sabab, oqibat. zaruriyat, tasodif, imkoniyat, ong, voqelik, butun, qism, mohiyat, hodisa, mazmun, ayrimlik, qonun, umumiylik, dialektika, metafizika va h.k. Falsafada o`rganiladigan kategoriyalarning boshqa aniq fanlar katego-riyalaridan farqi shundaki, ular voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim, alohida munosabat va aloqalarinigina ifodalamasdan balki butun olam, inson hayoti va tafakkur olamiga ham xos umumiy belgilar, aloqalar, xususiyatlar va munosabatlarni aks ettiradi. Demak, falsafiy kategoriyalar (yun. kategoria - belgi, izohlash) falsafiy tafakkur uchun nihoyatda muhim, olamdagi o`zgarish, rivojlanish, aloqadorlik va uzviy bog`liqlikka xos umumiy jihatlarning in'ikosidir. Ular narsa va hodisalarning o`ziga xosligi, o`xshashligi va farqlarini, barqarorligi va o`zgarishini anglatuvchi, bilishning asosini tashkil etuvchi eng umumiy tushunchalar bo`lib. olamdagi barcha hodisa, jarayonlarga xos umumiy, muhim tomonlar, xususiyatlar, munosabatlarni ifodalovchi, keng ma'noli va chuqur mazmunli ilmiy atamalardir. Falsafiy kategoriyalar voqelikni chuqur va mukammal aks ettirishi, olamning barcha sohalarida amal qilishi bilan oddiy tushunchalardan farqlanadi. SHu tufayli har bir konkret fan o`zi o`rganayotgan sohaiing xususiyati va belgilarini ochishda falsafiy kategoriyalarga murojaat etadi. SHu ma'noda kategoriyalarning kelib chiqishi va mohiyatini to`g`ri tushunish falsafa uchun ham, barcha fanlar uchun ham ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Ularni falsafa tarixida birinchi bo`lib Aristotel o`zining "Kategoriyalar" asarida ta'riflab berdi va katego-riyalarni ob'ektiv voqelikning umumlashgan in'ikosi sifatida qarab, turkumlashtirishga harakat qildi. Aristotel fikricha, quyidagi kategoriyalar mavjud: mohiyat (substantsiya), mikdor, sifat, munosabat, o`rin, vaqt, holat, mavqe, harakat, azob-uqubat tasodif. Bu turkumlashtirish o`z vaqtida ilmiy

bilishda juda katta ahamiyatga ega bo`lgan. Keyinchalik Aristotel "Metafizika" asarida "mohiyat", "holat" va "munosabat" kategoriyalarini ham izohlagan. Umuman, kategoriyalarni falsafa tarixida ilmiy mavzu sifatida o`rganishni aynan Aristotel boshlab berganligi e'tirof qilinadi. Ma'lumki, ungacha YUnonistonda ko`proq politika va ritorika (notiqlik san'ati) fan sifatida tizimga tushirilgan edi. CHunki o`sha davrda qo`shinni, mamlakatni va odamlarni boshqarish uchun siyosat va nutq madaniyati sirlarini bilish katta ahamiyatga ega bo`lgan. Ammo u davr falsafaning qonunlari, kategoriyalar va asosiy tayanch tushunchalari muayyan tizimga tushirilmagan, izchil bayon qilingan bilimlar tizimi sifatida shakllantirilmagan edi. Hatto yunon olami Suqrotni ham ana shunday, hali go`yoki shakllanmagan fan bilan shug`ullangani va yoshlarni bu ilm yo`liga boshlab, ularning noto`g`ri tarbiyasiga sabab bo`lganlikda ayblagan ham edilar. Bu hol Suqrotning shogirdi Aristotelning mazkur fanni aniqtizim tarzida ifodalashga kirishishi uchun turtki bo`lgan. Olim falsafaning qonun va kategoriyalarini ilk marta tizimlashtirgan, ta'riflagan va falsafani fan darajaga o`targan. O`sha davrdan boshlab falsafa o`z qonunlari, tamoyillari, kategorial tushunchalariga ega bo`lgan fanga aylangan SHarqda bu masalaga Forobiy, Beruniy va Ibn Sinolar ham katta ahamiyat berganlar.

XVII-XIX asrlarga kelib, falsafiy kategoriyalar tahlilida yangi davr vujudga keladi. Xususan, I.Kant qarashlarida kategoriyalar "sifat" (reallik, inkor, chegaralash), "miqdor" (birlik, ko`plik, yaxshilik), "munosabat" (substantsiya va xususiyat, sabab va harakat, o`zaro ta'sir), "modallik" (imkoniyat va imkoniyatsizlik, voqelik va novoqelik, zaruriyat va tasodif) tarzida izoxlangan. Kantdan farkdi o`laroq, Gegel esa mantiqiy kategoriyalarni: "borliq" (sifat, miqdor, me'yor) "mohiyat" (asos, hodisa, mavjudlik), "tushuncha" (ob'ektiv, sub'ektiv, absolyut g`oya) tarzida izoxlagan. Falsafa fanining kategoriyalari haqida turli qarashlarni umum-lashtirib aytganda, ularning mantiqiy tushunchalar sifatida quyidagi tavsiflari bor: 1) olamning in'ikosi; 2) narsa va hodisalarning o`zaro bog`lanish va aloqadorligini mantiqiy umumlashtiruvchi bilish usuli; 3) narsa va hodisalarning rivojlanishi bilan o`zgarib turuvchi mantiqiy tushuncha; 4) borliqning mavjudligidan kelib chiqadigan tarixiy-mantiqiy bilish darajalaridan biri. Ko`pchilik mutaxassislar kategoriyalar olam, undag`i narsa va voqea-lar, ularning asosiy va takrorlanib turuvchi aloqadorligini ifodalaydigan keng mazmundagi tushunchalardir, degan fikrga qo`shiladilar. Bu ma'noda borliq, voqelik, harakat, makon, zamon, miqdor, sifat va boshqalar falsafaning shunday kategoriyalaridir.

Falsafada o`z xususiyatlariga ko`ra, "juft kategoriyalar" deb ataladigan; umumiy bog`lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalovchi tushunchalar bor. Ular narsa va hodisalarni muayyan yo`nalishdagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, davriy takrorla-nib turuvchi bog`lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalaydi. Falsafa kategoriyalari mazmunidagi ichki birlik, bog`lanish, aloqadorlik va munosabatlarning yaxlitligi bilish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydigan umumiy qonuniyat tarzida vujudga kelgan.

Olamni bilish jarayonida ilmiy tushunchalar, kategoriyalar bir yo`la shakllanmagan. SHubhasiz, inson o`z amaliy faoliyatida olamdagi hodisa va narsalarga xos sirlarni, xususiyatlarni va belgilarni bila borishi, ulardagi juz'iy va umumiy tomonlarni ajrata borishi asosida "me'yor", "miqdor", "sifat", "ziddiyat", "inkor", "sabab", "oqibat", "zaruriyat" va "tasodif", "imkoniyat" va "voqelik", "shakl" va "mazmun", "mohiyat" va "hodisa" singari qator kategoriyalar shakllangan. Binobarin kategoriyalar insonning tabiat

va ijtimoiy hayot hodisalari bilan bo`lgan amaliy aloqalarida voqelikning mohiyatini bilishning natijasidir. Falsafa tarixida kategoriyalarni birinchi bo`lib Aristotel ilmiy ta’riflagan va falsafiy tizim elementlari sifatida tavsiflagan deya e’tirof etiladi. Tarixda ularga turlicha qarash mavjud. Masalan I. Kant kategoriyalar inson ongida olamni bilishga qadar ham mavjud edi va ular yordamida inson tabiiy, ijtimoiy hodisalarga ta’sir ko`rsatadi deb hisoblagan. Hozirgi zamon neopozitivistlari ham mazkur qarashlarni takrorlab: kategoriyalar sub’ektning hissiyoti bilan bog`liq tushunchalardir, ularning insondan tashqaridagi olamga bevosita daxli yo`q, deydilar. Gegel fikricha, kategoriyalar olamdan tashqarida turgan dunyoviy ruhning takomili, o`z-o`zini anglash momenti, ya’ni mutlaq g`oyaning mahsulidir. Aslida kategoriyalar bir tomondan inson tafakkuri mahsuli, kkkinchi tomondan esa olamning kishi miyasida aks etish natijasi va shu asosda inson ongini reallikka yaqinlashishi va dunyoni bilish vositasidir. Kategoriya hamma vaqt uzluksiz taraqqiyot jarayonida bo`lgan voqelikning in’ikosi bo`lib, o`zgaruvchan va o`zaro aloqa-dorlik xususiyatida namoyon bo`ladi. Kategoriya dialektikasi shundaki, ma’lum sharoitlarda bir kategoriya ikkinchisini keltirib chiqaradi: tasodif zaruriyatga, ayrimlik umumiylikka, mikdor sifatga aylanishi buning misolidir. Har qanday kategoriya boshqa kategoriya bilan uyg`unlikda va ichki aloqadorlikdagina mavjud bo`la oladi. Ma’lumki, o`zaro aloqadorlkk faqat kategoriyagagina xos bo`lmay butun olamga xosdir. Zotan, kategoriya o`rtasidagi o`zaro aloqadorlik, munosabatni anglatadigan falsafa qonunlari: qarama-qarshiliklarning birligi krnuni ziddiyat, qarama-qarshilik kategoriyaning munosabatini xarakterlash bilan ayni paytda shakl va mazmun zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik singari kategoriyaning mazmunini va mohkyatini anglashga imkoniyat beradi. Demak kategoriyalar mantiqan o`zaro uzviy bog`liq, mazmunan bir-birini to`ldiradi, bilishning umumiy qonunlarini anglamay tu-rib kategoriyaning mohiyat-mazmunini tushunish mumkin emas. Ular voqelikka xos umumiy xususiyatlar, aloqadorlik, o`zaro munosabatlarni ifodalashi bilan birga, olamning yashash va taraqqiyot dialektikasini ifodalab beradi, hamda dunyoni ilmiy bilishda nazariy hamda metodologik ahamiyatini namoyon qiladi.

Birinchidan. kategoriyalar insonning tabiat, jamiyat hodisalari mohiyati va qonuniyatini bilish jarayonidagi erishgan bilimla-ri hisoblanadi, ikkinchidan, ular voqelikni yana ham chuqurroq qilish va uning sirlari hamda qonuniyatlarini ochishda qo`llaniladigan muhim ilmiy vositalar hisoblanadi. Ularni bir-biridan ajratib yoki mutlaugashtirib yuborish noto`g`ri. Zero, olamning o`zi - butun, ko`p qirrali munosabatlarda mavjud bo`lganidek, kategoriya ham o`zaro aloqadorlikda mavjuddir. Umumiyliksiz ayrimlik mazmunsiz shakl, sababsiz oqibat bo`lmaganidek, shu umumiylik bag`rida ayni paytda hodisa, jarayonning xususiyatlarini xarakterlovchi mazmun ham, unga qaraganda chuqurroq sifat muayyanligini ifodalovchi mohiyat ham, predmet hodisaning kelib chiqishini belgilovchi imkoniyat, sabab, zaruriyat ham yashiringan bo`ladi. Fanning vazifasi konkret vaziyatlarda ularni bkr-biridan ayira bilish xamda umumiy bir butuklikda tadqiq etib, voqelikning xususiyat va belgilariii ochishdir.

Umuman olganda, kategoriya quyidagi xususiyatlarni o`z ichiga qamrab oladi:

a) kategoriya olamdagi munosabat, bog`lanishlarni ifodalovchi umumiy mazmun va xususiyatga ega bo`lgan falsafiy tushunchadir;

b) kategoriya moddiy olamdagi hayotni tavsiflagani holda, bir butunlikda, o`zaro aloqadorlikda bo`ladi, bir-birini taqozo etadi, belgilaydi yoki bo`lmasa yuzaga keltiradi;

v) kategoriya ob’ektiv mazmunga ega. Har bir kategoriya voqelik tufayli ro`yobga chiqadi. voqelikda namoyon bo`ladi, voqelik mavjudligining o`ziga xos xususiyatlari, tomonlari, belgilarini ifodalovchi tushunchalar sifatida inson tafakkurida aks etadi;

g) kategoriya umumiy tushunchalar sifatida insonning tabiiy-ijtimoiy hodisalar mohiyatini bilishga qaratilgan bilish jarayoni tarixining natijalari va voqelikni chuqurroq bila borishining ilmiy vositalaridir;

d) kategoriya falsafaning o`zi singari, barcha fanlar uchun ilmiy tadqiqot va amaliy faoliyatda metodologik ahamiyatga ega bo`lgan iliiy tushunchalar hisoblanadi;

e) kategoriya nazariyada, ilmiy bilish jarayonidagina emas, balki amaliyotda ham o`ziga xos rol o`ynaydi va o`z ahamiyatini saklab qoladi. Ularning o`zaro bog`lanish hamda namoyon bo`lish xususiyatlarini bilish hayotda fan va amaliyotda muhim natijalarga olib keladi.

Zaruriyat zamon falsafasida ham kategoriyalar, ularning mazmun-mohiyati, namoyon bo`lish shakllari kabi masalalar katta ahamiyata ega. Ko`plab falsafiy oqimlar (ekzistentsializm, freydizm, neopozitivizm, irraiionalizm va h.k.) va falsafiy maktablarda (F.Niishe. A. SHopengauer) barkamol inson (supermen) obrazini yaratishga intilish (F. Nitsshe), o`zlikdunyosi va men dunyosi, ya’ni iroda va tasavvurdagi dunyolar haqida fikr yuritish (A. SHopengauer) xarakterlidir. Hozirgi kunda inson va uning faoliyati, jamiyat, tabiat bilan aloqador tushunchalar tizimini ishlab chiqish bilan ilmu fan rivojida katta ahamiyat kasb etadigan umumiy tushunchalarning ahamiyatini ko`rsatishga doir ishlar ustida ko`plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Alohidalik, xususiylik va umumiylik narsa va xodisalar, ularning bir-biriga o`xshash va farq qiluvchi tomonlarini ifodalaydigan kategoriyalar; olamga xos munosabat va aloqadorlikni, olam taraqqiyotining xususiyati, uning makon va zamondagi mavjudlik shakllariga, har bir narsa yoki holisaning ayrim belgilari hamda o`zaro birlikni ifodalovchi umumiy tomonlarini ifodalaydigan tushunchalar.

Alohidalik kategoriyasi olavdagi narsa, voqea va jarayonlarga xos bo`lgan aniq, yagona, takrorlanmaydigan belgilar hachda xususiyatlarni ifodalaydi. Mazkur kategoriya tabiat va ijtimoiy hayotdagi narsa, alohida xodisa, juz’iy fakt va yagona voqea haqidagi tushunchalarni ham bildiradi. Masalan, har bir millatga xos madaniyatning til, urf-odat, an’ana, milliy xarakter, psixologiya kabi belgilari ayni shu shakl va mazmunda boshqa xalqlarda takrorlanishi mumkin bo`lmagan ayrimliklir. SHuningdek, tibbiyotda infarkt miokardi - yurak-tomir kasalliklari sistemasida o`ziga xos belgi va xususiyatlariga ko`ra ayrimlikni ifodalaydi. Alohidalik kategoriyasi moddiy olam mavjudligi va undagi munosabatlarning faqat bir tomonini ifodalaydi, xolos. Ayrim olingan voqea, hodisa, alohida predmet va jarayonlar, ularga xos belgilar bilan, ayni paytda materiyaning konkret ko`rinishlari, predmet voqea va protsesslarni o`xshash, aynan tomonlarini bildiruvchi umumiy belgilari xam mavjud.

Umumiylik kategoriyasi narsa, hodisa, jarayonlarga xos asosiy, doimiy takrorlanadigan belgilar va xususiyatlar yig`indisini bil-diradi. Bu kategoriya narsalarning kelib chiqish jihatidan umumiy ekanligini, ular taraqqiyot umumiy zanjirining uzviy bog`liq halqalari ekanligini, bir xil qonuniyatlarga bo`ysunishi mumkinligini anglatadi.

Masalan, har qanday o`tish davri eski jamiyatdan yangisiga o`tish muammolarini hal etilish shakli bo`lib, uning mazmuni mavjud ijtimoiy, iqtisodiy munosabat, tartiblarni tubdan o`zgartirishdan iboratdir. Xususan, O`zbekistondagi hozirgi o`tish davrida ham ana

shunday o`zgarish amalga oshmoqda, ammo bu jarayonda faqat bizning mamlakatimizga xos xususiyatlar ham bor. Xullas, umumiylik ayrimlikka nisbatan keng mazmunga ega, u ayrim narsa, hodisa va jarayonlarga xos bo`lgan ichki qonuniyatni, umumiy asosni, o`xshash-likni anglatadi.

Alohidalik va umumiylikni bog`lovchi halqa xususiylik kategoriyasidir. U alohidalik mazmunini anglatadigan kategoriyadir. Masalan vodorod - alohidalik, gaz - xususiylik, ximiyaviy element - umumiylikni ifodalaydi. Alohidalik, xususiylik, umumiylik o`rtasidagi munosabat dialektik xarakterga ega bo`lib, ularning tafovuti nisbiydir. Dunyoda va bilish jarayonida mazkur tushunchalar aniq shart-sharoitga ko`ra bir-biriga o`tishi, o`rin almashishi ham mumkin. Ammo falsafada yana boshqa bir qator eng umumiy tushunchalar xam borki, ular nihoyatda keng mazmunni ifodalaganligi sababli xususiylik kategoriyasiga misol bo`lishi mumkin emas. Masalan, "olam", "harakat", "maksn", "zamon" vah.k.

Alohidalik, xususiylik va umumiylik kategoriyalari voqelikdagi aniq, narsa, hodisa, jarayonlar orqali mavjuddir. Olamdan ajralgan alohida yoki umumiy tushuncha bo`lishini tasavvur qilish qiyin. Mazkur kategoriyalar o`rtasidagi o`zaro munosabat masalasini faylasuflar turlicha izohlaganlar. Gegel fikricha, umumiylik aniq narsalarga bog`liq bo`lmagan holda, qandaydir, mustaqil shaklda mavjud bo`lib, alohidalikdan avval vujudga keladi va uni belgilaydi: "umumiylik ayrimlikning negizi va zaminidir, tomiri va substantsiyasidir». J. Lokk: "Umumiylik va universallik haqiqatan mavjud narsalarga mansub emas, balki uni aql-idrok o`z iste’moli uchun ixtiro qilgan va yaratgandir, hamda belgilarga, so`zlarga yoki ideyalargagina taalluqlidir",-degan fikrni ilgari suradi. Umumiylikni ayrimlikdan ajratib, uni voqelikda mavjud bo`lmaydigan narsalarni ifodalaydi, degan nominalistik ta’limot ham bor. Bu hozirgi zamon falsafasining CHeyz, Uelpol, Keyzer kabk namoyandalarining ijodida uchraydi. Aslida esa alohidalik, xususiylik va umumiylik ob’ektiv va sub’ektiv xususiyaga ega ekanligini e’tirof etish ular o`zaro aloqadorlikda mavjud bo`ladi, degan qoidaga asoslanadi. Alohidalik umumiylikka nisbatan mazmunan boy bo`lib, o`zida umumiylikka xos belgilardan tashqari yana muayyan belgilarni ifodalaydi. Umumiylik esa alohidalikning muhim, asosiy ichki belgisi, munosabatlarini ko`rsatadi. Alohidalik va umumiylik olam taraqqiyotining bosqichlari va ifodalanish shakllari sifatida ichki aloqadorlik munosabatida namoyon bo`ladi. Alohidalik umumiyliksiz yashashi mumkin bo`lmaganidek, umumiylik ham alohidaliksiz mavjud bo`lmaydi. Demak, olamdagi har bir aniq narsa hodisa, umumiylik, xususiylik va alohidalikning birligi sifatida mavjud va namoyon bo`ladi. Ushbu kategoriyalarning mohiyatini va ularning o`zaro bog`liqligini ilmiy asosda tushunish fan va amaliyot uchun nihoyatda muhim. Mazkur kategoriyalar bilish jarayonining bosqichlari sifatida ham namoyon bo`ladi. lissiy bilish (alohidalik) va abstrakt mantiqiy bilish (umumilik) o`rtasidagi aloqadorlik bilishning oddiy, alohida shaklidan umumiylikka qarab borishini ko`rsatadi va ushbu jarayonni to`g`ri tushunishga imkon yaratadi. Masalan, vrach bemorni davolashga kirishishdan avval undagi kasallikning belgilari (alohidalik)ni o`rganadi, bu belgilardan qaysi biri qanday kasalliklarga taal-luqli ekanligini (xususiylik) ayni vaziyatda ulardan qaysi biri muhim, ichki qonuniyat (umumiylik) ekanligini aniqlagach, mazkur kasallikni davolashga kirishishi mumkin. Alohidalik, xususiylik va umumiylik o`rtasidagi o`zaro bog`liqlikni to`g`ri tushunish narsa va hodisalarning muhim belgilarini ochish orqali amalga oshadi. Bu kategoriyalar rivojlanishning asosiy yo`l va yo`nalishlarini belgilab olish,

voqelikning u yoki bu jixati haqida ilmiy xulosalar chiqarish uchun imkon beradi. CHunonchi, D.I.Mendeleev ximiyaviy elementlarga xos eng umumiy xususiyatlarni tadqiq etib, davriy sistemaga kirmagan to`rtga element mavjud bo`lishligini ilgaridan aytgan edi. Keyinchalik bu ilmiy bashorat fan tomonidan isbotlanadi. Alohidalik, xususiylik va umumiylik kategoriyalari o`rtasidagk o`zaro birlik va aloxidalik tabiat va ijtimoiy hayotning taraqqiyot tendentsiyasini anglashda, turli voqealar sistemasida yangilikni ajrata olish va unga yo`l ochishda muhim aqamiyatga ega. Hayotda har qanday yangilik, yangi tashabbus va harakatlar, yangicha odat va an’analar, dastavval, alohidaliktarzi-da vujudga keladi, so`ngra xalq nazaridan o`tib, mustahkamlanib, o`ziga yo`l ochadi. Bugungi kunda mustaqillikni mustahkamlash uchun faollar harakati xuddi shu tariqa juz’iy tarzda vujudga keldi hamda ommaviy xarakat tarzida umumiylikka aylana boshladi.

Demak, alohidalik, xususiylik va umumiylik kategoriyalari olamda amal qiluvchi qonuniy jarayon va shu jarayonning inson tafakkuridagi in’ikosi bo`lib, u olamga xos yashash va rivojlanish jarayokining muhim tomonlaridan birini to`g`ri tushunishga imkoniyat yaratadi.

Butun va qism — falsafiy kategoriyalar. Butun narsa, hodisa va uni tashkil etgan qismlarning muayyan tartibda joylashgan va o`zaro bog`langan yagonalikning ifodasidir. Qism butun tarkibiga kiradigan, uning tarkibidagina o`z vazifasi (funktsiyasi)ni bajara oladigan alohidalikdir. Ushbu tushunchalarning umumlashishi ob’ektiv olamdagi xilma-xillikning mohiyatan yaxlitligi bilan ifodalanadi. Biroqular alohida-alohida holatda ham voqelikdagi biron-bir reallikni idrok etishga imkon tug`diradi. Ob’ektiv olam bepoyon bo`lgani va u juda ko`p nisbiy butunliklardan tashkil topgani uchun butun boshqa butunlikning qismi bo`lishi, qismi esa boshqa elementlarga nisbatan butun vazifasini o`tashi xam mumkin. Masalan, Er shari o`zi butunlik bo`lib, bu makondagi boshqa barcha narsa, xodisa, jarayonlar uning qismlaridir. Quyosh sistemasiga nisbatan Er qism bo`lsa, Galaktikaning esa bir zarrasi - elementidir. Er sharidagi notik va tirik jismlar uni tashkil etgan qism ekanligi haqida Fikr yuritilganda, ularni kontekst (matn)dan ajratgan holda talqin etishda jiddiy xatoliklarni g`ayriilmiy munosabatlarni keltirib chiqaradi. CHunonchi, odamzod tirik tabiatdagi yagona bir tur, ya’ni bitta butunlikdir. Uning milliy (etnik), irqiy, sinfiy, diniy va boshqa tafovutlari shu sotsial butunlikning turlicha namoyon bo`lishi, binobarin, ular ham biologik, ham sotsial mavjudot bo`lgan odamzod turiga nisbatan qismlardir. Butun va sistema, kism va element tushunchalaridagi umumiylik bilan birga tafovutni ham anglash muhimdir. Butun hajm jihatidan sistema tushunchasiga teng. Biroq, sistema o`z tarkibida nisbatan mustaqil butunliklarni ham qamrab oladi. So`ngra "butun" deganda sistemali tash-killanishdagi o`ziga xos birlikka urg`u berilsa, "sistema"da xilma-xillikdagi birlik tushuniladi. Agar butun qismlardan tashkil topsa, sistemaga struktura va elementlar xosdir. Qism o`z holicha faqat butun doirasidagina ma’lum ma’no kasb etadi, u butunning sifat muayyanligi belgilarini o`zida aks ettiradi va mustaqil ravishda mavjud bo`la olmaydi. Element esa qismdan farkdi o`laroq har qanday sistemaning muayyan tarkibiy qismi bo`lib, materiya rivoji tashkillanish darajasining nisbatan navbatdagi quyiroq darajasiga o`tish chegarasini anglatadi. Element sistemaga nisbatan har doim boshqa sifatdagi ob’ekt ham bo`la oladi. Masalan, hozirgi rivojlangan mamlakatlardagi davlat tuzilishi sistemasi nisbatan mustaqil harakat qiluvchi to`rt element (hokimiyat)dan tashkil topadi: qonun chiqaruvchi organ, ijroiya organi, sud organi va ommaviy axborot vositalari. Davlat

sistemasi doirasida, bir-birining ishlariga aralashmay, faqat o`zlariga xos funktsiyalarni bajarganlari taqdirdagina bunday davlat sistemasi hayotiy, ta’sirli va qudratli bo`ladi. Mabodo o`sha to`rt elementga bir butunning tarkibiy qismlari sifatida qaralsa va munosabat bildirilsa, ularning samarali ishlashiga jiddiy putur etadi. "Butun-qism munosabatlaridagi elementlarni tahlil etg`anda, elementlarning ikki turi borligini nazarda tutish lozim. Bular boshlang`ich elementlar va qism-elementlaridir. Boshlaig`ich elementlar butun tarkibida o`ziga xos mustaqil bir butunlik sifatida namoyon bo`lsa, qism-elementlar faqat butundan ajralmagan holda gavdalanadilar. Masalan, odam tanasi bir necha boshlang`ich elementlardan tashkil topgan bir butun sistemadir: bosh miya, yurak, asab tizimi va bosh-qalar butun tarkibidagi mustaqil sistemalar bo`lib, ular bir necha qism-elementlardan iborat. Butun va qismni talqin etishda ulardan birining rolini mutlaqlashtirmaslik lozim. CHunonchi, butun Qismlardan iborat yoki butun qismlarga nisbatan ustun deyish to`g`ri emas. Zero, mikdoriy jixatdan butun qismlar yig`indisidan kattaroq hajmga ega. Boshqacha aytganda, qism butunsiz, butun esa qismsiz bo`lmaydi. Ularni dialektik birlikda olib qarash va munosabat bildirilgandagina to`g`ri xulosalarga kelish mumkin. Ijtimoiy hayotda individ (qism) manfaatlarini jamiyat (butun) manfaatlaridan ustun qo`yish ham va, aksincha, jamiyat manfaatlarini individ manfaatlaridan ustun qo`yish ham ijtimoiy taraqqiyot va inson kamolotiga jiddiy zarar etkazadi. Jamiyat va individ bir vaqtning o`zida maqsad va vosita sifatida namoyon bo`lib, ular bir-birlari manfaatlari uyg`unligi sharoitidagina ravnaq topishlari mumkin. Jamiyat (butun) individlarsiz mavjud bo`lmagani kabi individlar (qismlar) ham jamiyat (butun)siz yashay olmaydi. Jamiyatlashgan odam insoniylashgan jamiyat uchun kurashgandagina iqtisodiy hayotda butun va qism kategoriyalarida o`z ifodasini topgan falsafiy mazmun o`zini namoyon eta oladi.

Zaruriyat va tasodif - voqealar rivoji davomida sodir bo`ladigan hodisalarni tavsif-laydigan, ob’ektiv olamdagi aloqadorlikni ifoda etuvchi falsafiy kategoriyalar. Falsafaning boshqa kategoriyalari singari zaruriyat va tasodiflarning mazmuni hamda umumiy xususiyatlari haqidagi masala hozirga qadar o`tgan ko`plab faylasuflarning e’tiborini o`ziga jalb etgan edi. Ba’zi faylasuflar voqelikdagi narsa, hodisalar muayyan sabablar asosida sodir bo`lar ekan, demak, olamda tasodif bo`lmaydi, har qanday hodisa ma’lum sabablar tufayli yuzaga keladigan zaruriyatdir deb qaraganlar. Dunyoda tasodifga o`rin yo`q, mavjudlik va taraqqiyotni birgina zaruriyat belgilaydi, deb hisoblaganlar. Qadimgi dunyo falsafasining Levkipp va Demokrit kabi vakillari yangi zamon falsafasining Golbax, Spinoza kabi namoyandalari metafizik determinizm pozitsiyasida turganlari holda ana shunday qarashni ilgari surdilar. Levkipp biron-bir buyum sababsiz yuzaga kelmaydi, ammo u ma’lum zamin, zaruriyat tufayli tug`iladi, degan edi. Demokrit va Golbax nazarida ham barcha hodisalar zaruriy bo`lib, kishilar tabiat qonunlaridagi sababiy bog`lanishlarning turini to`la bilmaganliklari uchun tasodiflarga o`rin beradilar, xodisalar sababi bilingan hamono tasodi-fiylik barham topadi, binobarin u sub’ektiv mazmundagi kategoriyadir, deb hisoblaganlar. Olam, undagi o`zaro munosabat, aloqadorlikni, sababiyatni inkor etuvchi indeterministlar tabiiy va ijtimoiy olamda zaruriyat yo`q, zaruriyat - aqliy faoliyatning shakli (I. Kant), tafakkurga xos tushuncha (E. Max, K. Pirson), kishilar iroda va istagining namoyon bo`lish natijasidir, deb hisoblaydilar. Ma’lum sharoit mavjud bo`lgan taqdirda albatta yuz beradigan hodisa yoki voqea zaruriyat deb, ataladi. Zaruriyat rivojlanuvchi xodisaning mohiyatidan, ichki tabiatidan kelib chiqadi. Zaruriyat muayyan hodisa uchun doimiy va barqarordir.

Zaruriyatdan farqli ravishda, tasodifning sodir bo`lishi shart emas. U muayyan predmetning mohiyatidan kelib chiqmaydi. Tasodif beqaror va vaqtinchalar ammo u sababsiz yuz bermaydi, zaruriyat va tasodif dialektik tarzda o`zaro bog`liqdir: voqea bir jihatdan zaruriyat bo`lsa, boshqa jihatdan tasodif ham bo`ladi. Zaruriyat va tasodif bir-biriga ay-lanishi ham mumkin: bir sharoitda zaruriyat bo`lgan narsa o`zgargan boshqa bir sharoitda tasodif bo`lishi mumkin va aksincha. Tasodif zaruriyatni to`ldiradi, uning namoyon bo`lish shakli hisoblanadi. Ko`p tasodiflar orqasida hamisha ob’ektiv zaruriyat qonuniyati yashi-ringan bo`ladi. Ilmiy va amaliy faoliyatda zaruriyat va tasodifning ob’ektiv dialektikasini nazarda tutish kerak. Fanning vazifasi tasodifiy voqealar orasida yashirinib yotgan ichki zaruriyatni bilishdan iboratdir. Lekin fan tasodiflarni ham inkor qila olmaydi. Tasodiflar mavjud bo`lib, voqelik jarayonlarining oqimiga qandaydir ta’sir ko`rsatar ekan, fan ularning ham taraqqiyotdagi rolini hisobga olishi, insonni ko`ngilsiz tasodiflar ta’siridan himoya qilishi lozim.

Birinchidan, zaruriyat va tasodif kategoriyalari sof inson tafakkurigagina xos, tajriba jarayonida inson voqelikka kiritadigan sub’ektiv tushunchalar emas, balki olamga xos bo`lgan munosabat va aloqadorlik shakllaridir. Ikkinchidan, zaruriyat va tasodif voqealar zanjiridagi shunday halqalarki, ulardan birisiz ikkinchisini tasavvur etish, biriga ortiqcha e’tibor berib, boshqasini e’tibordan chetda qoldirish sira mumkin emas. Bilish va amaliy faoliyatda birgina zaruriyatni tan olib tasodifni inkor etish - fatalizmga olib kelganidek, olamda qonuniyat va zaruriyat amal qilmaydi, u faqat turli tasodiflardaigina iborat deyish, gnoseologik volyuntarizmga olib keladi. Uchinchidan, zaruriyatni sababiy bog`lanishlar, sababiyat tushunchasi bilan aynanlashtirish, tenglashtirish yaramaydi va tasodifni sababsizlikning oqibati deb bilish noto`g`ridir. Sababiy bog`lanishlar xilma-xil bo`lib, shart-sharoitga ko`ra ulardan ayrimlari zaruriy hodisalarni tug`dirsa, boshqalari (tashqi, asosiy bo`lmagan sabablar) tasodifiy munosabatlarni vujudga keltiradi.

Demak, zaruriyat va tasodif, avvalo, voqelikdagi ayrim narsa, Hodisalar dialektikasini xarakterlovchi va ayni paytda taraqqiyot jarayonidagi turli hodisa, jarayonlar nisbatini ifodalovchi o`zaro munosabat hamda aloqadorlik shakllaridir. Atrofga nazar tashlar ekanmiz, tabiiyki, bir qarashda hodisalar tizmasidagi qaysi bir lodisa zaruriy, qaysi biri tasodifiy ekanligini ajratish qiyin. Kuzatish, amaliy tajriba asosida hodisalarning ichki va tashqi, muhim va muhim bo`lmagan tomon belgilarini bila borish tufayli zaruriyat va tasodifni umumiy aloqadorlik holatining o`ziga xos shakllari sifatida bilish va farqlay olish mumkin.

Zaruriyat bu hodisa ichki elementlarining mohiyati bilan bog`liq, sababi va zamini o`zida bo`lgan voqealar rivoji jarayonida qonuniy va muqarrar tarzda ro`y beradigan hodisadir. Jumladan, tabiatda tirik organizmlarning modda almashinish jarayoni hayvon va o`simliklarning hayot kechirishini belgilovchi zaruriyatdir.

Tasodif esa rivojlanishning tadrijiy jarayoni bilan bog`liq bo`lmagan, asosi va kelib chiqish sababi mazkur hodisaning ichki moxiyati, muhim tomoni bilan emas, balki tashqi jarayon va aloqa, omillar bilan belgilanadigan hodisadir. Masalan. biror o`simlik urug`ining shu turdagi o`simlik urug`i bo`lmagan joyga tushib qolishi va uning yangi sharoitda unib-o`sishi tasodifiydir. CHunki, urug`ni bir joydan ikkinchi joyga eltib qo`yilganligi, uni avvalgiga qaraganda boshqacharoq sharoitga tushib qolganligining sababi urug`ning o`zida ham emas, shuningdek, uning ichki mohiyati bilan ham belg`ilanmaydi. YAna misol: muayyan hududdagi hosilning do`l yog`ishi tufayli nobud

bo`lishi, qurg`oqchilik sababli alohida xo`jalikda ro`y beradigan xrsilsizlik umumiylikni anglatmaydigan tasodif, ayrimlikdir. Binobarin, zaruriyat rivojlanish jarayonida qat'iy izchillikda, muayyan tartib va shaklda voqea bo`ladi. Tasodif esa ayni sharoitda ro`y berishi ham mumkin, ro`y bermasligi ham mumkin, hatto. ro`y berganda ayni shu shaklda ro`y berishi shart bo`lmagan hodisalar munosabatining` ichki tartibi bilan izchil aloqador bo`lmagan hodisadir.

Zaruriyatning o`zig`a xos belg`ilaridan biri uning umumiy xarakterga egaligi. olamda amal qiluvchi qonunlari bilan bog`liqlikda, voqelikning barcha sohalarida rivojlanishi muayyan izchilligini belgilashligidir. Tabiiy va ijtimoiy hodisalar, jarayonlar o`z mohiyatig`a ko`ra zaruriy bog`lanishlar, aloqadorlik tufayli namoyon bo`ladi. Mazkur holatki zaruriyat umumiydan ajralmasdir, degan qarash to`g`ri ifodalaydi.

Umumiylikda ifodalanuvchi, umumiylikda mavjud bo`ladigan zaruriyat voqelikning asosiy tomonlari bilan bevosita bog`lanishda bo`lg`anligi uchun ham tasodifdan farqlanadi. Zaruriyat hodisalarni bir butunlikda, yaxlit tushunishga, voqelikka xos bog`lanishlarning ichki qonuniyatlarini ochishga imkon beradi. Hodisalar o`rtasidagi tashqi, nomuhim munosabatlarni ifodalovchi tasodif esa zaruriyatidan farqli o`laroq umumiy xarakterga ega emas, U ayrimlik tarzda ayrim hodisalar orqali namoyon bo`ladi. SHuning uchun ham tasodif zaruriyatga nisbatan barqaror bo`lmay, balki voqealarning o`tkinchi, ayrim, xususiy, muhim bo`lmagan tomonlarini ifodalaydi. Biroq zaruriyat va tasodif o`rtasidagi mazkur ziddiyat ularning o`zaro aloqadorlik dialektikasini inkor etmaydi. Bu aloqadorlik, avvalo, zaruriyat va tasodifni sof holda mavjud bo`lmasdan, balki bir voqeaning bir munosabatda tasodif sifatida, ikkinchi bir xrlda zaruriyat sifatida ifodalanishida namoyon bo`ladi. So`ngra, zaruriyatning tasodifga aylanishi yoki tasodifning zaruriyat bilan almashinishi yoxud zaruriyat tasodiflar orqali o`ziga yo`l ochishi aniq shart-sharoitga bog`liq. Voqealarning zaruriy jarayoni bilan bog`liq bo`lmagan va barcha jihatlari bilan mutlaq xarakterdagi tasodif bo`lmaydi. Va aksincha, zaruriyatni to`ldiradigan ifodalanish shakli hisoblangan tasodiflarsiz "sof" zaruriyatning o`zi ham bo`lmaydi. Tarixiy tajriba, fanning rivoj-lanishi jarayonida muayyan, konkret sharoitda tadqiqotchilar tomonidan biron bir kashfiyotning ochilishini misolga olaylik: ingliz olimi A.Fleming tomonidan pentsillinning kashf qilinishi, M.SHleyden va SHvann tomonidan tirik organizmlarning hujayra tuzilishidan iborat ekanining isbotlanishi, G.Gerts tomonidan yorug`lik elektromagnit nazariyasining kashf etilishi kabi faktlar ham zaruriy, ham tasodifdir. Bo`ningzaruriyatligi shundaki, jamiyat va ijtimoiy tafakkurning mazkur davrdagi rivojla-nish darajasi, ijtimoiy ehtiyoj va talab, fan taraqqiyoti sohasida qo`lga kiritilgan yutuqlar o`shanday kashfiyotlarning qilinishiga sharoit va imkoniyat yaratgan edi. Uning tasodifligi kashfiyotlarning o`sha nomi atalgan olimlar tomonidan ochilganligidir, holbuki bu vazifani boshqa tadqiqotchilar ham ertami kechmi amalga oshirishlari mumkin edi. Demak, zaruriyat va tasodif ayrim narsa va xodisalarga nisbatan ham, voqealar tizmasida ham muayyan birlik dialektikasida, aloqadorlikda mavjud bo`ladi. Zaruriyat mazkur hodisa, jarayon va holatning barqaror, ichki, takrorlanuvchi tomonini anglatsa, tasodif uning nisbiy, o`tkinchi ayrim tomoni va shaklini ifodalaydi. Zaruriyatning voqealar bag`rida yashiringanligini va u o`ziga tasodiflar orqali yo`l ochishga e'tibor berib, yuzaki qaraganda olamda tasodiflar hukm surayotgan bo`lib ko`rinsa ham, aslida bu tasodiflar hamma vaqt ichki, yashirin qonunlarga bo`ysungan bo`ladi. Tasodif esa bu zaruriyatning Qo`shimchasi va ro`y berish formasidir.

Zaruriyat va tasodif aloqadorligining yana bir muhim tomoni vaziyatga ko`ra, ularning o`zaro o`rin almashishi, ya’ni zaruriyatning tasodifga, va aksincha, o`tish xrlatidir. Falsafada tasodif bo`lgan joyda zaruriyat bo`lmaydi, zaruriyat bo`lgan joyda tasodif bo`lmaydi, deb hisoblash bu kategoriyalarning o`zaro aloqadorligini ko`rmaslik va ularning bir-biriga o`tishini tan olmaslikdan iboratdir aslida zaruriyat bilan tasodifni birgalikda, bir-birini taqozo etgan holatda tekshirib o`rganishgina bizga ilmiy haqiqatni bilishga imkoniyat beradi. Masalan, tabiiy muhit, iqpim sharoiti ta’sirida tirik organizmlarda ayrim belgi, xususiyatlarning paydo bo`lishini tasodif deb, keyinchalik u belgi irsiy sifat belgi-lariga aylanishini zaruriyat, deb hisoblash kerak.

Zaruriyat va tasodifning bunday o`zaro aloqadorligi, bir butunligi hamda o`zaro o`rin almashish holati olamga xos qonunlarning xususiyati bilan belgilanadi. Ilmiy va amaliy faoliyatda zaruriyat va tasodif dialektikasini nazarda tutish g`oyatda muhimdir. Inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy hodisalar sistemasida zaruriy va tasodifiy bog`lanishlarni payqay bilish, tasodiflar orqasida yashiringan ichki qonuniyat, zaruriyatni ochish, olamning murakkab sirlarini bilishda undan maqsadga muvofiq foydalanishda amaliy ahamiyatga egadir. Fan tomonidan zaruriyatni bilishni asosiy maqsad qilib qo`yilganligа, tasodiflarning rolini inkor etilayotganligini aiglatmaydi. Tasodiflar ham ob’ektiv voqelikda amal qiladigan ma’lum hodisalar gruppasida nisbiy mustaqillik mavqeiga ega bo`lgan va muayyan zaruriyatning yuzaga chiqishini tezlatishi yoki sekinlatishi mumkin bo`lgan aloqadorlik shaklidir. Turli ko`rinishlarda amal qiluvchi tasodiflarni kuzatish va tadqiq etish, ularning ichki qonuniyatini ochish kishilik uchun noqulay bo`lgan holat va voqealarni oldini olish imkoniyatini beradi. Tasodiflarni o`rganish tabiat sirlarini chuqurroq ochishda, jamiyat hodisalarini yanada to`g`riroq tushunishda, ularni maqsadga muvofiq yo`naltirishga va boshqarishga imkoniyat beradi. Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida tasodiflar kishilarga turlicha ta’sir ko`rsatgan bo`lishi kerak. CHunonchi, ibtidoiy kishining xayoti tasodiflarga to`la edi, ammo jamiyat va fan rivojlanib borishi bilan odamlar tasodiflar hukmronligidan qutula bordilar. Bizning sharoitimizda amal qiladigan tasodiflar ob-havo noqulayliklari, qurg`oqchilik, suv toshqinlari, zilzila singari tabiiy hodisalar bilan bog`liqdir. Tabiiy va ijtimoiy voqelikdagi tasodiflarni o`rganish hodisalarning zaruriy va qonuniy bog`lanishlarining mohiyatini ochishga, olam haqida to`laroq va ilmiy haqiqatni anglashga, tasodiflar qarshisida ojiz bo`lib qolmasdan ish ko`rishga imkoniyat beradi. Tasodifni ilmiy tushunish fan va amaliyot uchun olam hodisalarini ilmiy tarzda bilish va o`rganish uchun muhim ahamiyatga egadir.

Imkoniyat va voqelik - olamdagi narsa, hodisa va.h.k.lar taraqqiyotining davomiyligini, ularning bir-biriga o`tib turishini anglatadigan falsafiy kategoriyalar. O`zgarish, rivojlanish va hodisalarning vujudga kelishi, namoyon bo`lishi jarayonidagi o`zaro bog`liqlikni taraqqiyot va rivojlanish deganda biz asosiy va muhim xusuyati bo`lgan olamdagi o`zgarishni, yangilanishni, bir shakldagi narsalarning ikkinchisi bilan almashinishini, quyi organizmning, jism va oddiy hodisalarning murakkabroq shakl va mazuidagilariga aylanish jarayonini tushunamiz. Tabiiyki, bu jarayonlar o`z-o`zicha, mexanik tarzda sodir bo`la bermaydi, balki muayyan zaruriyat qonuniyat asosida ro`yobga chiqadi.

falsafaning sabab va oqibat, mazmun va shakl, zaruriyat va tasodif, mohiyat va hodisa singari kategoriyalari voqelikdagi o`zgarish, yangilanish holatlarining muhim tomonlari, bog`lanish holatlari va asosiy tamoyillarini ifodalasa, imkoniyat bilan voqelik

uzluksiz rivojlanish jarayonidagi narsa va hodisalarning, ikki xil bosqichi. davri, holatini xdmda bu davrlar o`rtasidagi o`zaro munosabatni ifodalaydi.

Imkoniyat va voqelikning boshqa kategoriyalar bilan umumiyligi shundaki, bular ham mazkur kategoriyalar singari dunyoni aks ettiradi va umumiy tarzda amal qiladi. Ammo boshqa kategoriyalardan farkdi tomoni ham borki, bu - voqelikdagi rivojlanish va o`zgarish jarayonining umumiy, muhim, ayrim tomon va tendentsiyalarini ifodalabgina qolmay, balki rivojlanish jarayonining ichki jihatini ko`rsatadi va bir butunligini ochib, rivojlanishning quyi va yuqori bosqichlari o`rtasidagi dialektik munosabatni ifodalab beradi.

Imkoniyat yangi narsa, hodisa vatamoyillar kelib chiqishini ifodalovchi muayyan shart-sharoit va vaziyat majmuidir. Narsa hamda hodisaning ichki tabiatiga ko`ra zaruriy ravishda reallashishi lozim bo`lgan, biroq hali yuzaga chiqmagan voqelikdir.

Voqelik esa imkoniyatning nisbatdoshi bo`lib, real holat va mavjud bo`lib turgan hodisalarni ifodalaydig`an kategoriyadir. Voqelik tushunchasi o`z mazmuniga ko`ra, fan va falsafada ikki ma’noni anglatadi: birinchidan, olamdagi barcha mavjud narsalar reallikdan iborat, ikkinchidan esa ayrim narsa yoki hodisalarning ro`yobga chiqishini anglatuvchi imkoniyatning yuzaga chiqmaganligi ma’nosini anglatadi. Ikkinchi ma’nodagi voqelik umumiy olamning bir bo`lagi sifatida konkret narsa va hodisalar tarzida namoyon bo`lishi bilan birga inson ongidagi ifodasi hamdir. Demak, voqelik olam qonunlarining zaruriyat asosida ro`yobga chiqqan imkoniyatini, mavjud bo`lib turgan narsa va hodisalarni bildiradi.

Imkoniyat va voqelik qarama-qarshi tomonlarning birligi sifatida dialektik munosabat, o`zaro bog`liqlikda mavjud bo`ladi, Ular bir-birini ham taqozo qiladi, ham istisno etadi. Agar voqelik amalga oshgunga qadar imkoniyat bo`lib tursa, unda yangi imko-niyat eski voqelik bag`rida aniq sharoitda yuzaga keladi.

Imkoniyatlar konkret vaziyat, shart-sharoit, omillar bilan bog`liq bo`lib turli shakllarda ro`yobga chiqishi, ya’ni voqelikka aylanishi mumkin. SHunisi ham borki, bir xil imkoniyatni aniqbir shaklda voqe bo`ladi deb qarash noto`g`ri. Masalan, bir xil ekin maydoniga, bir xil ishlov berib, bir xil urug`lik ekilishiga qaramay, boshqa-boshqa xo`jaliklarda turlicha hosil olinishi mumkin. YOki organizmning quvvatiga bog`liq ravishda bir xil kasallik turli bemorlarda turlicha kechishi mumkin. Demak, misollardan ko`rinib turibdiki, imkoniyatning voqelikka aylanishi har xil omillarga bog`liq ekan.

Amaliy faoliyatda doim imkoniyatni voqelikdan hamda imkoniyatni imkoniyatsizlikdan ajrata bilishga o`rganish kerak. Mumkin bo`lmaydigan narsani mumkin bo`ladigan narsa yoki hodisa qilib ko`rsatish yaramaydi yoki aksincha, mumkin bo`ladigan narsani mumkin bo`lmaydigan narsa qilib ko`rsatish ham voqelikning mohiyatini, imkoniyat va voqelik dialektikasini noto`g`ri tushunish asosida kelib chiqadi. Bu hol falsafada g`ayriilmiy qarash va xulosaga olib keladi.

Imkoniyat va voqelik muayyan mazmunga ega bo`lgan olam hodisotlarining ikki tomoni, rivojlanishning boshlanish momenti va nihoyasi. uzluksiz taraqqiyot jarayonining bir-biri bilan bog`liq, bir-birini tavsiflaydigan halqalaridir. Rivojlanish uzluksiz imkoniyatlarning vujudga kelishi, ularning voqelikka aylana borishidan iborat jarayondir. Bunda imkoniyat yndigina kurtak otayotgan, ro`yobga chiqishi lozim bo`lgan hodisa bo`lsa, voqelik esa ba’zi hollarda o`z umrini tugallayotgan, eskirish jarayonida o`z intihosiga qarab borayotgan hodisadir. Binobarin, imkoniyat va voqelik olam rivojlanish jarayonida tutgan o`rni, taraqqiyot darajasiga ko`ra bir narsani yoki hodisani

ikkinchisidan farklantiradigan kategoriyalardir.

Voqelik taraqqiyot davomida amalga oshgan imkoniyat bo`lib. u o`z navbatida yangidan-yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradigan chek-chegarasiz jarayondir. Imkoniyat va voqelik narsa, hodisa voqealar rivojining ikki izchil darajasi, sababning oqibatga tomon harakati, tabiat, jamiyat inson tafakkurining sababli aloqalari namoyon bo`lishining ikki muqarrar bosqichidir. Voqelik keng va tor ma'nolarda tushuniladi. Kengma'noda ob'ektiv olamning o`zida mavjud bo`lgan barcha turli-tuman narsalar, hodisalar, voqealar, jarayonlar yig`indisi tushunilsa, tor ma'noda ayrim muayyan narsa, hodisaning muayyan vaqt va muayyan sharoitdagi holati tushuniladi. Keng ma'nodagi voqelik abadiy bo`lsa, tor ma'nodagi voqelik o`tkinchi, vaqtinchalikdir. Voqelik borliqning mavjud holati bo`lsa, imkoniyat esa extimollik bilan muqarrarlik oralig`idagi xolatidir, ya'ni ular xali aniq-ravshan voqelikka aylanmagan, ammo ob'ektiv olamda yuzaga kelish va rivojlanish maylini boshidan kechirayotgan reallikdir. Makro va mikroolamda imkoniyat va okelik o`z ichki qonunlari asosida biri ikkinchisiga o`tib tursa, ijtimoiy sistemalarda bu aloqadorlik o`ziga xos shakllarda namoyon bo`ladi, zero, ijtimoiy tizimlar rivojida aql sohibi - odamzod ishtirok etadi. Ayrim shaxslar va ijtimoiy guruxlar muayyan tarixiy davr va sharoitda aniq maqsad sari faoliyat ko`rsatishlari uchun, jamiyat qonunlarining amal qilishini, ya'ni imkoniyatning voqelikka aylanishining o`ziga xos xususiyatlarini bilishlari zarur. Masalan, har bir millatning mustaqil taraqqiyot yo`liga tushib olishi tarixiy-tadrijiy jarayon bo`lsada, ana shu qonuniyatli jarayonni ro`yobga chiqarish uchun ayrim shaxslar, ijtimoiy gu-ruxlarning milliy ehtiyojlarni anglashiga, imkoniyatni voqelikka o`z vaqtida aylantira olish mahoratlariga ham bog`liq bo`ladi. Agar tub milliy manfaatlar himoyachisi bo`lgan shaxslar, siyosiy partiyalar va harakatlar real imkoniyat bilan mavhum imkoniyatning farqiga bormasalar, ularni bir-biriga aralashtirsalar, turli sotsial larzalarga sababchi bo`ladilar.

Imkoniyat va voqelik bir-biridan farqlanadi, albatta, lekin ularni ayrim olingan holda mutlaqlashtirish yaramaydi, bir-biridan ajratib qo`yish ham xatodir. Ammo falsafa tarixida imkoniyat va voqelikni dunyodan ajratib, uning mazmunini inkor etish, imkoniyat va voqelik faqat ruhning, ideyaning, tafakkurning mahsulidir, sezgilarning yig`indisidir, inson istak-irodasining ko`rinishidir, deb tushuntirishlar bo`lgan. Zamonaviy falsafa im-koniyat va voqelikni ilmiy tushuntirib, bu kategoriyalar dunyodagi alokddorlik varivojlanishning muhim xususiyat, tomonlarini ifodalaydi, olamdagi narsalarning bir shakldan ikkinchi shaklga o`tishini, taraqqiyotning oddiydan murakkabga qarab yo`nalishini, eskilik bilan yangilik o`rtasidagi qarama-qarshi munosabatlarni bildiradi, deb hisoblaydi.

Imkoniyat va voqelik rivojlanish jarayonidagi shunday bog`liqlikki, ulardan biri ikkinchisiz yuzaga kelishi sira mumkin emas. Birinchisi o`z bag`rida zaruriy ravishda ro`yobga chiqishi lozim bo`lgan voqelikning kurtagini yashirib, rivojlanishning ibtidosi hisoblanadi. Ikkinchisi esa, hodisalar rivojlanishining etuklik darajasini anglatadi. ya'ni ular bir butun taraqqiyot jarayonining dialektik qarama-qarshi tomonlarini xarakterlaydi. Imkoniyat va voqelik dialektikasining muhim xususiyatlaridan yana biri sharoit hamda vaziyatga ko`ra imkoniyatning voqelikka, voqelikning imkoniyatga o`tishi holatidir. Bunga misol: tabiatda kimyovii elementlarning ilk birikmalaridan hayotning dastlabki shakllari bo`lmish bir hujayrali tirik organizmlar kelib chiqishi tufayli keyinroq, bulardan hayotning murakkab shakllari yuzaga keldi. Bunda ham biz imkoniyatning voqelikka

aylanishi qonuniyat ekanini ko`ramiz.

Olam ko`p qirrali, turli hodisalarga boy bo`lganligi uchun ham imkoniyatning voqelikka aylanishi turlicha sodir bo`lishi mumkin. SHunday ekan, nazariy va amaliy faoliyatda real imkoniyat bilan abstrakt yoki formal imkoniyatlarni ajrata bilish lozim Real imkoniyat deb, voqealar rivojining tadrijiy va qonuniy natijasi sifatida, muayyan shart-sharoitda shubhasiz ro`yobga chiqadigan imkoniyatga aytiladi. Masalan, tabiatdan misol olsak: urug`lik dondagi xar bir hujayrada o`simlikka aylanish imkoniyati mavjud bo`ladi. Bu real imkoniyat bo`lib ma'lum shart-sharoit bo`lsa va modda almashinish normal kechsa, yorug`lik, havo harorati, nam-lik ta'sirida albatta va shubhasiz voqelikka aylanadi. Abstrakt imkoniyat shunday imkoniyatdirki, o`zi tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlar bilan bog`liq bo`ladi, lekin muayyan tarixiy sharoitda voqelikka aylanishi mumkin bo`ladi ham, bo`lmaydi ham. Masalan: sayyoramizning Galaktikadagi boshqa samoviy jismlar bilan to`qnashib ketish ehtimoli bor. Bu hol bo`lishi ham, bo`lmasligi ham mumkin. Tasodifiy aloqa va munosabatlar bilan xarakterlanadigan, o`zi taraqqiyot jarayonidan kelib chiqmaydigan va real asosga ega bo`lmagan imkoniyat formal imkoniyat deyiladi. CHunonchi, hozirgi davrda aqidaparastlar targ`ib etayotgan islom xalifaligini tashkil etish g`oyasi haqiqatdan yiroq, real voqelikka aylanishi mum-kin bo`lmagan formal imkoniyatdir. Abstrakt imkoniyatlarni imkoniyatsizlik bilan ham aynanlashtirish mumkin emas. CHunki birinchisi, ob'ektiv qonuniyatlar bilan bog`liq bo`ladi, ikkinchisi esa mutlaqo unga qarama-qarshi bo`ladi. Binobarin, abstrakt imkoniyatlarning ayrimlarida konkret sharoitga ko`ra voqelikka aylanish ehtimoli bo`ladi. Jumladan, o`tgan asr boshida koinotga uchish, uni tadqiqetish abstrakt imkoniyatholatida edi, ammo fan va texnika taraqqiyoti natijasida asr o`rtalarida koinotga uchish, sayyoralarga qo`nish real imkoniyatga aylandi. Demak, abstrakt va real imkoniyat o`rtasidagi tafovut nisbiy bo`lib, rivojlanishning muayyan bosqichlarida birinchisi ikkinchisiga aylanishi ham mumkin ekan. Xullas, tabiiy va ijtimoiy hayotdagi imkoniyatlarga bir xil o`lchov bilan yondashish, ularni bir xil usulda ro`yobga chiqadi, deb qarash xatodir. Tabiatda imkoniyatlar stixiyali tarzda, ob'ektiv sharoitlar bag`rida voqelikka aylanishi bilan chegaralanadi. Jamiyatda esa imkoniyatning voqelikka aylanishida o`zgacha mazmun bor, u ham bo`lsa imkoniyatning voqelikka aylantiradigan moddiy, tashkiliy, siyosiy sharoitlardan tashqari, ma'naviy shart-sharoitlar ham zarur. Bunga odamning ongi, irodasi, maqsadi, uyushqoqligi, faolligi va boshqalar kiradi. Masalan, bugungi o`tish davri ijtimoiy rivojlanish konuniyati bilan bog`liq bo`lgan ob'ektiv vaziyatlar bilan bog`liq. Lekin bunga sub'ektiv vaziyat, ya'ni fuqarolar faolligi, ularning tub o`zgarishlarga tayyorligi, davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyati kabilar qo`shilmasa, bu ish muvaffakiyati tez bo`lmaydi. SHuning uchun ham ijtimoiy hodisalarning tendentsiyasini aniqlashda va maqsadga muvofiq yo`naltirishda sub'ektiv omillarga ham e'tibor berish lozim. Bugungi jamiyatimizning tabiatiga ko`ra, birinchidan, turli imkoniyatlarning voqelikka aylanishi uchun progressiv tamoyillar, umummilliy an'analar, xalqaro tajriba, mamlakatimizda demokratik hayot barpo etish kabi shart-sharoitlar mavjud, ikkinchidan, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va g`oyaviy birligi asosida, sobiq ittifoq davrida aslo bo`lmagan yangi imkoniyatlar vujudga kelmoqda va ro`yobga chiqmoqda.

Mazmun va shakl - olamdagi turli narsa, hodisa va jarayonlarning dialektikasini o`rganishda, ular o`rtasidagi aloqa va munosabatlarni bilishda muhim o`rin tutadigan kategoriyalar. Mazmun muayyan narsa, xrdisa, jarayonlarning o`ziga xos sifati,

xususiyatlari, muhim belgilari, elementlarining yig`indisini anglatsa, shakl mazmunning mavjudlik usuli, narsa va hodisalarning ichki hamda tashqi tuzilishini ifoda etadi. Masalan, narsa va jismning mazmuni moddiyligida va harakatda ekanligidadir. Xuddi shunday, atomning mazmuni uning tarkibidagi 30 dan ortiq manfiy, musbat va nol zaryadli elementar zarralar, ularning rezonanslari, elektron maydon kabilarning shunchaki mexanik birligidangina iborat emas. Ayni paytda, ularning harakati muayyan maydonlar orqali bir-biriga ta’sir va aks ta’sir ko`rsatishini ham bildiradi. Atomning shakli uning tarkibiga kiruvchi elementar zarralarning joylanish tartibi, zarralar va maydon orasidagi munosabat asosida yuzaga keluvchi aloqalar, bog`lanishning xususiyati bilan belgilanadi. SHuningdek, har qanday badiiy asarning mazmuni unda aks ettirilgan voqea orqali g`oya va obrazlar tizimini bildirsa, shakli shu asarning tuzilishi, tili, hamda hikoya, roman va shu kabilar tarzida ifodalanadi.

Mazmun va shakl olamdagi narsa, hodisa, jarayonlarning mavjudligini ifodalash vositasi bo`lib, har ikki kategoriyaning birligi olamning aniq ko`rinishlaridan iborat bo`ladi. Mazmunga ega bo`lmagan narsa va hodisalar bo`lmaganidek, shaklsiz jism va jarayon xam bo`lishi mumkin emas. Demak, birinchidan, olam va uning aniq ko`rinishlari inson tafakkuriga bog`liq bo`lmagan holda mavjud bo`lganidek, olamga xos muhim munosabat, narsalarning mavjudlik vositasi sifatida mazmun va shakl kategoriyalari ham mavjuddir. Ikkinchidan, voqelikdagi har bir jism, narsa, hodisa mazmun va shaklning birligi va bir butunligi tarzida, muayyan strukturaning yig`indisi sifatida yuzaga keladi va mavjud bo`ladi Uchinchidan, olamdagi jism, voqea, jarayonlardan ajralgan, mustaqil mazmun va shakl bo`lmaydi. Falsafa tarixida, mazmun va shakl masalasiga turlicha yondashish, ularning birligi, voqelikda tutgan o`rni, bilish jarayonidagi rolini har xil izoxdashlar bo`lgan. Faylasuflardan ayrimlari shakl va mazmunning mavjudligini inkor etsalar, boshqalari shakl va mazmunning o`zaro birligini anglamaganlar. Jumladan, Aristotel marmardan haykal yo`nayotgan haykaltaroshni kuzatar ekan, shakl mazmundan bo`lak va mustaqil mavjud bo`ladi, unga mazmun tashqaridan kiritiladi, shu tufayli marmar jonlanadi, degan xulosaga keldi. I. Kant esa mazmun va shaklni faqat inson aqli, tafakkurining mahsuli, natijasi deb tushundi. Gegel mazmun va shakl dialektikasini tan olgan bo`lsa ham, lekin mazmun ham, shakl ham mutlaq g`oya rivojlanishining bosqichlari, turli ko`rinishlardagi ifodasvdir, degan fikr yuritgan. Hozirgi zamon falsafasi vakillaridan biri, fizik olim E. SHredingerning fikricha, voqelikda narsalardan mustaqil shakllargina mavjud, jumladan, "elementar" zarralarning moddiylikka aloqasi yo`q, ular har qachongiday, sof shakl olamda shakldan bo`lak hech nima bo`lishi mumkin emas.

Mazmun va shaklning o`zaro aloqadorlikda mavjud bo`lishi, olamning muayyan tomonlarini ifodalovchi zaruriy munosabatlar birligiga asoslanadi. Mazmun va shakl olamning barcha sohalarida, tabiatda, mikro va makrodunyoda, ijtimoiy hayotda hamda tafakkur jarayonida keng amal qiladi.

Mazmun va shaklning birligi ularning aynanligini bildirmaydi. Ular orasida o`zaro dialektik munosabat mavjudki, bu birlik bir tomondan narsa, hodisalarga xos ichki taraqqiyot tamoyilini bildirsa, ikkinchidan, qarama-qarshiliklarning o`ziga xos ifodasi sifatida narsalardagi ziddiyatni va ziddiyatli tomonlar munosabatini anglatadi. Bunday munosabatda mazmunning o`zgaruvchanligi va faol xarakterga ega ekanligi namoyon bo`ladi. Eski shakl qobig`ida yangi mazmun vujudga keladi va natijada unga muvofiq shakl ham o`zgaradi. Demak, ma’lum chegaragacha shakl mazmunga mos keladi,

so`ngra esa bu muvofiqlik buziladi: yangi mazmun va yangi shakl birligiga ega bo`lgan yangi narsa yoki hodisa paydo bo`ladi. Bu tabiiy va ijtimoiy xodisalarning to`xtovsiz rivojlanib, yangilanib turishida mazmun va shakl o`rtasidagi munosabatning ifodasini to`g`ri anglash imkonini beradi.

Mazmun bilan shakl aloqadorligidagi qonuniyat shundaki: rivojlanish jarayoni bularning o`zaro muvofiqligi asosida sodir bo`ladi. SHuning uchun ham mazmunning o`zgarishi darhol unga mos keladigan shaklning o`zgarishiga olib keladi va har ikkalasi bir-biriga mos bo`lib qoladi. Mazmun va shakl dialektikasida narsa, xodisa va jarayonlarniig yo`nalishidagi Mazmunning birlamchiligi va faolligi shaklning passivligini bildirmaydi. SHakl ham o`z imkoniyati chegarasida mazmunga u yoki bu tarzda ta’sir ko`rsatadi, rivojlanishini tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi. CHunonchi, mehnat qurollari shaklining o`zgarishi kishilar amaliy faoliyati ijobiy ta’sir ko`rsatadi yoki biron-bir samolyotning tezligi uning texnik qurilishiga bog`liq bo`lishi bilan ayni paytda tashqi shakli, qanot tuzilishiga ham bog`liq. Ishlab chiqarishni tashkil etishda, texnika taraqqiyotida staioklar, mashinalar, qurilmalar, mehnat qurollari, zavodlarning ichki va tashqi ko`rinishlari makradga muvofiq shakllarda bo`lishiga e’tibor berilishining sababi ana shunda. Mazmun va shaklning umumiy muvofikdik qonuniyatida o`zaro moslikka intilishi hech qachon mutlaq uyg`unlikni anglatmaydi. Ular o`rtasidagi moslikning vaqti-vaqti bilan buzilib turishi mazmun va shakl uyg`unligidagi asosiy holatdir. SHaklning faolligi aniq sharoitga ko`ra turlicha namoyon bo`ladi. Mazmun hamisha eski SHaklni to`la inkor etmasdan o`ziga muvofiqlashtirishga intiladi. YAna shu jihatini ham aytib o`tish kerakki, bir mazmun bir necha shakllarda ham namoyon bo`lishi mumkin. Mazmun va shaklning birlik munosabatini noto`g`ri tushunib, ularni bir-biridan ajratib qo`yish, katga xato bo`lib, aniq holat va vaziyatga etarli baho bera olmaslik, nazariyada aqidaparastlikka, amaliy faoliyatda esa shaklbozlikka olib kelishi mumkin. Bu borada maz-mun va shakl birligini to`g`ri tushunish mustaqillikni mustahkamlash jarayonida nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Miqdor va sifat - moddiy olamning muxim tomonlarini aks ettiruvchi falsafa kategoriyalar. Olamdagi narsa va hodisalar doimo o`zgarib, rivojlanib boradi, bu jarayonlarda narsalar doimo paydo bo`ladi, o`zgarib turadi. Lekin bundan ular muayyan mavjudlik shakliga ega emas, mutlaq beqaror va ularni bir-biridan ajratib bo`lmaydi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Narsa qanchalik o`zgarmasin, ma’lum vaqtgacha boshqacha hrlatda emas, xuddi o`z holatida, sifat jihatdan muayyan predmet bo`lib qolaveradi. Narsa va hodisalarning sifat muayyanligi ularni barqaror qiladi, ularni chegaralab qo`yadi va olamning benihoya xilma-xilligini vujudga keltiradi. Sifat narsaning muhim muayyanligidir. U yaxlit narsa bilan bog`liq bo`lib, uni tamomila qamrab oladi va undan ajratib bo`lmaydi. SHu sababli, sifat tushunchasi narsaning borlig`i bilan bog`lanadi. Biron narsaning boshqa narsa bilan munosabatlarida uningturli xossalari namoyon bo`ladi, ana shu ma’noda predmet va hodisalarning ko`p sifatliligi haqida fikr yuritish mumkin. Barcha predmetlar sifat muayyanligi bilan bir qatorda miqdor muayyanligi (muayyan kattalik, son. hajm, jarayonlarning yuzaga kelish sur’ati, xossalarning rivojlanish darajasi va h.k.)ga ham egadir. Mikdor narsaning shunyaay muayyanligidirki, shu tufayli uni real ravishda (yoki fikran) bir jinsli qismlarga bo`lish va bu qismlarni bir butun qilib to`plash mumkin. Qismlar yoki predmetlarning bir jinsligi (o`xshashligi, monandligi) miqdorning farq belgisidir. Bir-biriga o`xshamaydigan predmetlar o`rtasidagi tafovutlar sifat xarakteriga. bir-biriga o`xshash predmetlar

o`rtasidagi tafovutlar esa miqdor xarakteriga egadir. Sifat narsa va hodisalarning muayyanligini ta’minlaydigan, ularga barqarorlik bag`ishlaydigan xossa, xususiyat va belgilar yig`indisidir. Sifat narsaning umumiyligini, yaxlitligini, uning nisbiy barqarorligini, bir-biriga o`xshashligi yoki o`xshamasligini ifodalaydi. Sifat keng ma’noda narsa va hodisalarning turli-tuman xossalari yig`indisidir. Lekin sifat va xossa aynan bir xil ma’noni anglatmaydi. Mikdor predmet va hodisalarning hajmi, ko`lami, o`lchami, og`irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan xarakterlanadigan muayyanlikdir. Miqdor va sifatning birligi, o`zaro bog`likligi me’yor tushunchasida ifodalanadi. Me’yor deganda sifat o`zgarishi sodir bo`lishi uchun talab qilinadigan mikdoriy birlik tushuniladi. Sifatdan farkdi o`laroq, miqdor predmetning borlig`i bilan unchalik mahkam bog`liq emasdir, miqdor o`zgarishlari predmetning birdaniga yo`q bo`lishiga yoki muhim o`zgarishiga olib bormaydi. Faqat har bir predmet uchun muayyan chegaraga etgach, miqdor o`zgarishlari sifat o`zgarishlarini yuzaga keltiradi. Ana shu ma’noda miqdor muayyan-ligi sifat muayyanligidan farq qilib, predmetlarning tabiatiga tashqi munosabat bilan xarakterlanadi. Hech bir predmet faqat si-fat yoki faqat miqdor tomonga ega bo`lmaydi. Har bir predmet muayyan sifat va mikdor birligidan iborat (me’yor); u sifat kattaligi jihatidan (miqdor) va miqdor jihatidan muayyan sifatdir. Me’yorning buzilishi predmet yoki hodisaning o`zgarishiga, uning boshqa predmet yoki hodisaga aylanishiga olib keladi.

Mohiyat va hodisa - olamdag`i narsa hodisa, jarayonlarning ichki, muhim jihatlari hamda yuzaki, tashqi tomonlarini ifodalaydigan falsafiy kategoriyalar. Mohiyat narsa, buyum, jarayonlarning ichki, muhim, asosiy, zaruriy, barqaror aloqalari, tomonlari munosabatlarining yig`indisini anglatadi. Hodisa esa mohiyatning tashqi ifodasi, namoyon bo`lishi, narsa va jarayonlarning yuzaki, nisbatan o`zgaruvchan tomonlarini bildiradi. Zero, olamda yakka hujayrali tirik organizmlardan tortib, insongacha bo`lgan qanchadan-qancha shakllari (hodisalar) borki, ularning bir qarashda payqash mumkin bo`lmagan ichki umumiy tomoni, barchasiga xos modda almashinuvi (mohiyati) mavjud. Ma’lum mohiyatga ega bo`lmagan jism, jarayon bo`lmaganidek, muayyan hodisada ifodalanmagan mohiyat ham bo`lishi mumkin emas. Binobarin, mohiyat va hodisa olamdagi narsa, jarayonlarga xos tashqi va ichki tomonlarning birligidan iborat. Falsafada mohiyat va hodisa masalasiga turlicha, idealistik, materialistik va metafizik qarashlar mavjud. Jumladan, olam, uning hodisalari turli g`oyalar yoki sezgilar yig`indisidan iborat deb talqin etuvchilar nazdida mohiyat va hodisa ob’ektiv xarakterga ega emas, deyiladi. Boshqalar esa, butun voqelik ruhiy boshlang`ichga asoslanadi, hodisalar mohiyati absolyut ideyadan kelib chiqadi (Gegel), mohiyat alohida ideal zamindir, u hodisalardan ayrim holda mavjud bo`ladi, deb qaraydilar. Agnostitsizm mohiyat bilan hodisani ajratib tashlaydi, mohiyatga bilib bo`lmas "narsa o`zida" tartibida qaraydi. Ikkinchi tomondan ayrim faylasuflar narsalar mohiyatiga ruhiy mazmun beradilar va bu mazmunni moddiy jismlarga nisbatan birlamchi, deb hisoblaydilar (Aflotunning umumiy mohiyatlar g`oyaviy olami, Gegelning tabiat mohiyatning ifodasi sifatidagi mutlaq g`oyasi). Faylasuflarning ba’zi vakillari predmetlarda mohiyat bilan hodisani ajratib ko`rsatishni sof sub’ektiv jarayon, deb hisoblaydilar (Dyui, Lyuis), mohiyatning ob’ektivligini inkor etadilar, hodisani esa sezgilar bilan bir qilib qo`yadilar (Max fenomenalizmi). Sub’ektiv idealizmning vakillaridan J.Berkli, D.YUm va I.Kant singarilar reallik sezgilar kompleksidan iborat ekan, demak, mohiyat va hodisa ham inson aqliy faoliyatining natijasi, deb qaraydilar. I.Kant nazarida mohiyat va hodisa

o`zaro bir-biriga aloqasi bo`lmagan, ikki mustaqil substantsiya bo`lib, inson bilish jarayonida "narsa o`zida"ni hech qachon bilishi mumkin emas. Kant hodisalarni bilishning hissiy va ratsional momentlari o`rtasidagi birlik, bog`lanishning hosilasidir, deb e'tirof etadi. Bunday qarashlarni, hozirgi zamon falsafasidagi nepozitivizm, pragmatizm oqimlari ham targ`ib qilmokda. Bu oqimlarning namoyandalari Uaytxed, Karnap, Rassel kabilar Kant qarashlarini davom ettirmoqdalar. Tabiiyot va tarixiy taraqqiyot shuni ko`rsatadiki, mohiyat va hodisa olamning mavjudlik holatlari sifatida bir narsaning o`zaro uzviy bog`liq ikki tomonidir. Bir-biridan mustasno va aloqasiz hodisalar ham, moxiyatlar ham bo`lmaydi. Hodisalar mazmunga ko`ra mazmunan keng bo`lib, har bir narsa va jarayonga xos individuallikni ifodalaydi. Mohiyat esa chuqur aloqalarni, hodisalarning o`zaro munosabati va bog`liqligidan kelib chiquvchi umumiylikni anglatadi. Mohiyat va hodisa tushunchalari hamisha o`zaro chambarchas bog`liqdir. Olaml hech qanday mohiyat yo`qki, u zohirda namoyon bo`lmasin va bilib olinmasin. SHuningdek, hech qanday hodisa yo`qki, u moxiyat haqida biror-bir to`la axborotni o`z ichiga olmasin. Lekin mohiyat bilan hodisaning birligi ularning bir-biriga to`la va mutlaq mos kelishini bildirmaydi. Mohiyat hodisa zamirida yashiringan bo`ladi u naqadar chuqur bo`lsa, uni nazariyada bilish shu qadar og`ir kechadi Agar hodisalarning yuz berish shakli bilan mohiyati bir-biriga mos kelganda edi, u vaqtda har qanday fan ortiqcha bo`lib qolgan bo`lur edi. Mohiyatni faqat abstrakt tafakkur va tadqiq qilinuvchi jarayon nazariyasini yaratish asosidagina bilish mumkin. Bu hol bilishning hissiy bosqichidan aqliy bosqichiga sifatiy sakrashdan iborat bo`lib, narsalardagi asosiy va hal qiluvchi narsani ochib berish, ularning taraqqiyot qonunlarini ifodalash bilan bog`-liq. Moxiyatni bilish jarayonida hodisaning tashqi qiyofasini tas-virlashdan uni izohlashga, sabablari va negizini ochib berishga o`tish sodir bo`ladi. Mohiyatni bilish mezonlaridan biri kelajakdagi voqealarni ularning o`zgarishining muayyan qonunlari asosida oldindan ko`rish mumkinligidir. Materiyaning yangi strukturaviy darajalari asosida mohiyatga teranroq o`tish sodir bo`ladi. Inson fikri hodisadan moxiyatga tomon, aytaylik, birinchi tartibdagi mohiyatdan ikkinchi tartibdagk mohiyatga va h.k.larga tomon cheksiz chuqurlashib boraveradi. Mohiyat bilan hodisaning o`zaro munosabatida birlik va xilma-xillik dialektikasi ochiladi. Ayni bir mohiyatning o`zi turli ko`rinishlarga ega bo`lishi mumkin. Xuddi shuningdek, etarli murakkab xrdisa materiyaning turli strukturaviy darajalariga oid bir necha mohiyatning ifoda shakli bo`lishi mumkin. Mohiyat hodisaga nisbatan barqarordir. Hodisada esa jamiyatga nisbatan harakatchanlik va o`zgaruvchanlik xosdir. Lekin pirovard natijada olamdagi barcha tizimlar va jarayonlarning mohiyatlari ham tabiatning umumiy tarixiy taraqqiyotiga muvofiq ravishda o`zgarib turadi. Mohiyat bilan hodisaning qarama-qarshiligi nisbiydir. Qonunlar va chuqur munosabatlarning hissiy idrok etiladigan hodisaga nisbatan birinchi darajadagi mohiyatning yuz berishi bo`ladi. Bu mohiyat ham, o`z navbatida, materiya strukturasidagi yanada chuqurroq mohiyatning ifodasi bo`ladi va h.k. Har qanday fan o`zi tadqiq qilayotgan hodisalar mohiyatini ochib bergan va faqat hodisalar sohasida emas, balki mohiyatlar sohasida ham ularning kelajakdagi o`zgarishlarini oldindan ko`rishga qodir bo`lgan taqdirdagina etuklikka va kamolotga erishadi. Har qanday mohiyat hodisalar orqali zohir bo`ladi, hodisalar mohiyatga asoslanadi. Bilish jarayonida haqiqat va unga erishish hodisadan mohiyatga yoki bi-rinchi darajali mohiyatdan undan chuqurroq tartibdagi mohiyatga qarab boradi. SHuni ham aytish kerakki, faqat ayrim hodisalarni kuzatish asosida chiqarilgan xulosalar hamisha ilmiy haqiqat bo`laverishi mumkin emas. CHunki

voqealarning yuzaki ko`rinishi xamma vaqt ham uning mohiyatini to`la ifodalay olmaydi. Olaylik, bir vaqtlar fanda olamning markazi Er, Quyosh va boshqa sayyoralar uning atrofida aylanadi, degan geotsentrik nazariya ko`p asrlar hukm ourib keldi. Ptolameyning bu nazariyasi koinot harakatini yuzaki kuzatish natijasi edi. Keyinchalik XVI asrda N.Kopernikning geliotsentrik nazariyasi paydo bo`ldiki, bunda Quyosh sistemasining markazi Quyosh bo`lib, boshqa planetalar va Er Quyosh atrofida aylanadi, degan fikr olg`a surildi. Bu fikr keyinroq I. Nyutonning olam tortilish qonuni bilan hamda I. Kepler-ning barcha planetalarning Quyosh tevaragida harakat qilish qonunlarini kashf etilishi bilan yanada chuqurlashtirildi va isbotlandi. Bu endi yuzaki kuzatish emas, balki chuqur tahlil qilib, koinot xarakatining mohiyatini anglash asosida tuzilgan nazariya bo`ldi. Hodisa mohiyatni hech qachon to`laligicha qamrab ololmaydi, faqat ayrim tomonlarinigina aks ettiradi, xolos. SHuning uchun hodisalarning oddiy mazmuniga hamma vaqt ham mohiyat mos kelavermaydi. Agar narsalarning namoyon bo`lish shakli bilan moxiyati bevosita mos keladigan bo`lsa, u holda xar qanday bilish jarayoni kerak emas bo`lur edi.

Mohiyat va hodisa dialektikasida moxiyat belgilovchi bo`lsa, hodisa esa nisbatan tez o`zgaruvchandir. Konkret sharoitlarda voqealarning yo`nalishiga ko`ra, bir mohiyat turli hodisalarda turli shaklda namoyon bo`lishi ham mumkin. Masalan, bugungi dunyodagi aksariyat siyosiy hokimiyat parlamentar yoki prezidentlik respublikasi, konstitutsion davlat tuzilishi va boshqa shakllarda ko`rinishga ega. Ularning tub mohiyati jamiyatni boshqarishdan iboratdir. Olamda nomuhim, zohiriy, yuzaki tomonlar tez-tez yo`qolib turadi, ular mohiyatdan farkli o`laroq, mahkam joylashmagan bo`ladi, mustaxkam saqlanmaydi. Hodisaning bunday tez o`zgaruvchanligi mohiyatni konkret sharoitga moslashishini, aniqtarzda ifodalanishini bildiradi. Moqiyatning nisbiy turg`unligi va mustaqilligi uning butunlay o`zgarmasligini bildirmaydi. Ichki va tashqi omillarning ta’sirida ham mohiyat o`zgaradi va u narsaning yoki hodisaning quyidan murakkab sari rivojlanish jarayonini ifodalaydi. Faqat hodisalargina o`tkinchi, harakatchan, oquvchan, shartli chegaralar bilangina ajralgan emas, balki narsalarning mohiyatlari ham shundaydir. Bu jarayonni to`g`ri ilmiy tushunish - voqealar zanjirida msdiyat va hodisani ajrata bilish, yuzaki, tashqi ko`rinishga qarab ayrim narsalar asosidagina xulosa chiqarmasdan ularning namoyon bo`lish chohiyatini ochish fan va amaliyot uchun muhim ahamiyatga ega. Xullas, olamdagi narsa va voqealar o`rganilar ekan, chuqur mazmunga ega bo`lgan mohiyat yuzada yotmasligini, u hodisalar orqali namoyon bo`lishini, har bir hodisa ortida esa muhim bog`lanishlar yashiringanligini e’tiborda tutish zarur. Bunda mohiyat va hodisani uzviy aloqadorlikda olib o`rganish lozim, faqat shundagina olam xdqida xaqiqatga, haqiqiy bilimga erishish mumkin. Bu ayniqsa hozirgi, olamda murakkab jarayonlar kechayotgan davrda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sabab va oqibat - olamdagi narsa va hodisalarning bir-biri bilan aloqadorligi, ta’siri va aks ta’sirini, voqelikka xos ana shunday munosabatlar jarayonidagi sabab va oqibat bog`lanishini ifodalaydigan kategoriyalardir.

Sabab olamning harakati va biron-bir vaqt doirasida bo`lgan o`zgarishdan so`ng ikkinchi boshqa bir natijaning zaruran kelib chiqishini ta’minlovchi asosiy hodisani anglatadi. Oqibat esa hodisalar zanjirida sababning ta’siridan vujudga keladigan yangi hodisadir, sababning natijasidir. Sabab va oqibat bog`lanishi ob’ektiv xarakterga ega bo`lib, u narsa, hodisalar orasidagi aloqalarda amal qiladi. Masalan, ming yillar davomida Er kurrasidagi iklimiy sharoitning o`zgarib borishi o`simlik va hayvonot dunyosining

o`zgarishiga sabab bo`ldi. YOki qadim zamonlardan boshlab mehnat qurollarining takomillashtiriluvi mehnat unumdorligining oshishiga ham, ishlab chiqarishning rivojiga ham, pirovardida esa insoniyat taraqqiyotiga ham sabab bo`ldi.

Narsa va hodisalararo sababiy aloqalarning yana bir muhim xususiyati shundaki, ular umumiy xarakterga ega. Tabiat va ijtimoiy hayotda sababsiz birorta hodisa yoki voqea sodir bo`lishi mumkin emas. Erning Quyoshga nisbatan hozirgi holatda joylanishi hamda Er sharining sirt tuzilishi va uning xam Quyosh, ham o`z o`qi atrofida aylanishi sayyoramizda iqlim sharoitini o`zgarib turishiga sababdir. Binobarin, sababiyat yoki sababiy bog`lanishlar voqelikdagi barcha narsa va hodisalarda umumiy, qonuniy, istisnosiz amal qiluvchi munosabatlardir. Sababiy bog`lanishlarni "bahona" va "shart-sharoit" singari tushunchalar bilan almashtirish mumkin emas. Masalan, sabab doim voqea, hodisalarga xos hamda ular o`rtasidagi bevosita, ichki munosabatlarni bildiradi. Bahona esa sababga nisbatan tashqi turtki, xolos. Sababni voqelikka aylanishi, biron-bir oqibatni kelib chiqishi uchun ikkinchi darajali ta’sir ko`rsatuvchi bo`ladi. Masalan, birinchi jahon urushi boshlanib ketishiga gertsog Ferdinandning o`ldirilishi bahona bo`lgan. Urushning kelib chiqishiga haqiqiy sabab aslida muayyan davlatlar o`rtasidagi raqobatning keskinlashganligi hamda bo`lingan dunyoni qaytadan bo`lib olishga qaratilgan siyosatning yuritilishi edi. Har bir sabab muayyan oqibatni keltirib chiqarishi uchun, albatta, ma’lum shart-sharoit zarur bo`ladi. Lekin, shart-sharoit oqibatning sababini anglatmaydi. SHart-sharoit - muayyan oqibat tug`ilishiga ta’sir ko`rsatuvchi holat bo`lib, sababni oqibatga aylanishida o`ziga xos rol o`ynaydi. Sababsiz yolg`iz shart-sharoitning o`zi oqibatni keltirib chiqarmaydi.

Falsafa tarixida sabab va oqibat to`g`risida xilma-xil qarashlar bo`lgan. Masalan, ba’zi faylasuflar nazdida sabab ma’lum shart-sharoitlar yig`indisidangina iborat. CHunonchi, ingliz pozitivisti D. Mill: "...sabab ma’lum oqibatni kelib chiqishini belgilaydigan ijobiy va salbiy holatlarning jami, har xil tasodiflarning majmuidir", deydi. Bu fikrning bahsli ekanligi shundaki, sababni D. Mill ba’zi "holatlar", "tasodif"larning mexanik yi-g`indisidan iborat, deb qarayapti, sababning o`z mohiyatiga ko`ra ichki, umumiy, zaruriy aloqadorlik shakli ekanligini e’tiborga olmayapti.

Sabab bog`lanishlarning bunday real va umumiy jihatini inkor etish, oqibatning sababini narsa, hodisalarning o`zidan emas, balki tashqaridan izlash asosida kelib chiqadi. Sabab va oqibat bog`lanishning teleologik ta’limotlariga ko`ra, olam oqibatlarida Xudodan bo`lak sabab yo`q, har qanday o`zgarish va harakat yaratuvchi-ning amri bilan sodir bo`ladi. Bunda sababiyat emas, balki maqsadga muvofiqlik mavjud bo`lib, narsa, hodisalarning tartibi azaldan irodasi bilan belgilanadi.

Olamdagi moslik, o`simlik va organizmlarning muhit, shart-sharoitga moslashganligi ba’zi organizmlarni muhitga ko`ra hatto o`z rangi, tashqi qiyofasini o`zgartira olishi, ayrim gullarning faqat erta tongda ochilishi, ba’zi kasalliklar fasllar, quyosh faolligini oshishi hollari bilan bog`liq ravishda kuchayishi kabi hodisalar sabab va qonunlar ifodasidir. Xususan, CH. Darvin o`zining evolyutsion ta’limotini, turlarning kelib chiqishi va tabiiy tan-lanish jarayonini xuddi shu maqsadga muvofiqlik hodisasini ilmiy o`rganish asosida yaratgan edi.

Sabab bog`lanish masalasini ob’ektiv idealistik tushunish ham bor. Bunday oqim tarafdorlari barcha hodisalarning tub sabab "g`oyalar dunyosi" (Aflotun) sabab va oqibat "Absolyut ideya" (Gegel) rivojlanish holatining ma’lum shaklini ifodalaydi, deb tushuntiradi. Sub’ektiv idealistlar D. YUm, I. Kant hamda maxistlar sababiyatni sezgilar,

ideyalarning muayyan, izchillikdagi bog`lanishi, inson zehniga xos xususiyat deb tushuntiradilar. Jumladan, E. Max: "Tabiatda sabab ham, oqibat ham yo`q; sabab va oqibat tafakkurimiz mahsulidir", deb hisoblaydi. D. Djins, G. Fayxinger, L. Titgenshteynlar sabab tushunchasi faqat voqealarni sharhlashning qulay usuli xolos, uning voqelik bilan aloqasi yo`q, deb hisoblaydilar. Sababiy bog`lanishlar qonuniyat tarzida olam va unga xos o`zgarishlarning mohiyatidan kelib chiqadi hamda undagi aloqadorlik, munosabatning o`ziga xos shakli sifatida amal qiladi. Olam taraqqiyotidagi bog`lanishlar sababiyatga, umumiy qonuniyatga bo`ysunadi, deb hisoblovchi ta’limot fanda determinizm oqimi, deb yuritiladi. Aksincha, sababiyat va zaruriyatni inkor etib, bu kategoriya-larni voqelikdan ajratgan holda tushuntiruvchi oqim indeterminizm, deb ataladi.

Indeterminizm sababiy aloqalarni mutlaqo inkor etadi yoki uni tafakkurga xos hodisa, deb hisoblaydi. Jumladan, ayrim hozirgi zamon G`arb fiziklari mikroolamda ham, psixik protsesslarda ham, ijtimoiy hayotda ham sababiyat yo`qligini isbotlashga urinmoqdalar. Dalil sifatida ular klassik mexanika qonunlarini, mikroprotsesslarga va kvant mexanikasiga qo`llanilishi mumkin emas, deb ko`rsatmoqyaalar. Ular makro va mikro protsesslarning o`ziga xos jihatini e’tiborda tutmaganlari holda, makro jismning fazodagi holati va tezligini ayni bir vaqtni o`zida aniqlash mumkinligi masalasini mikrozarralarning koordinati va impulsini bir vaqtda cheksizlik bilan anikdash mumkin emasligi masalasiga qarshi qo`ymoqdalar. Klassik fizika qonunlarini kvant mexanikasiga mos kelmaganligi mikrozarralar olamida sababiy bog`lanish yo`qligini bildirmaydi. SHu bilan birga, mikrozarralar o`z harakatida hech qanday qonuniyatga bo`ysunmay hech qachon erkin yo`nalishda oo`lmaydi. SHuni ham hisobga olish zarurdirki, Kvant mexanikasi o`rganadigan mikrozarralar klassik mexanika o`rganadigan ob’ekt-lardan sifat jihatidan farqlanadi. Buni hozirgi zamon fizika-sining dalillariga qarab isbotlash mumkin. Sabab va oqibat zan-jirida birinchi kelgan hodisa sabab, undan so`ng sodir bo`lgan voqea oqibat bo`lar ekan, lekin bundan har qanday ketma-ket kelgan hodisalarning birinchisi doim sabab, ikkinchisi doim oqibat bo`laveradi, degan xulosa kelib chiqmasligi lozim. CHunonchi quyidagi misollarda: yoz baxrrdan so`ng keladi, kunduzdan so`ng tun boshlanadi. Bundan bahor yozga sabab yoki kechasiga kunduzi sabab, deb xulosa chiqarish tamomila nojo`ya bo`lar edi. SHu misollardagi hodisalarning asli sababi Erning o`z o`qi va Quyosh atrofida aylanishidir. Sabab va oqibat bir-biri bilan o`rin almashishi, oqibat boshqa hrdisaga nisbatan sabab rolini o`tashi ham mumkin. Masalaning bu jihatini ushbu misolda ko`ramiz. Muayyan organizmning biror qismini, o`ziga xos patologiyasini o`rganish uni davolashning yo`li va metodlarini ishlab chiqishga sabab bo`ladi. Organizmning shu kasallangan qismini davolash oqibatida yana bir boshqa qismidagi kasallikning oldini olishga sabab bo`ladi. Sabab va oqibatning mazkur holatini xarakterlab, sabablar bilan natijalar doimo o`rin almashtirib turadilar, ya’ni hozirgi vaqtda sabab bo`lgan narsa boshqa vaqtda natija bo`ladi va aksincha.

Inson o`z amaliyotida sabab va oqibat aloqasining muhim va nomuhim tomonlarini, sababiy bog`lanishlarning xilma-xilligini birdaniga ajratib va bilib ola olmaydi. SHuning uchun kuzatish, bilish, amaliy faoliyat jarayonida muayyan oqibatning kelib chiqishidagi aniq sababning o`rnini va ahamiyatini anglash, asosiy va asosiy bo`lmagan, ichki va tashqi sabablarga ajrata olish kerak. Asosiy sabab hodisa va jarayonning kelib chiqishini zaruran belgilaydigan hamda uning eng muhim xususiyatlarini ifodalovchi sa-babdir. Asosiy bo`lmagan sabab esa voqea va hodisaning yo`nalishini belgilamaydigan,

unga aytarlik ta’sir ko`rsata olmaydigan sababdir. Misol uchun: ijtimoiy rivojlanishni belgilaydigan asosiy sabab moddiy va ma’naviy boyliklardir. Geografik muhit va ahrli zichligi ham jamiyat taraqqiyotiga u yoki bu tarzda ta’sir ko`rsatadi. Voqealar zanjirining bilishda ichki va tashqi sabablar ham bir xil rol o`ynamaydi. Ichki sabablar deb narsa va hodisaning o`z tabiatiga xos, ichki muayyanlik, qarama-qarshi tomonlarning birligini ifodalanishiga aytiladi. Tashqi sabablar esa narsa va hodisalararo bir-biriga ta’sir holatini bildiradi. Ma’lumki. ichki sabablar har qanday o`zgarish va rivojlanishning asosini tashkil etadi, ammo tashqi sabablar o`zgarishning shart-sharoit va muhitini bildiradi, xolos. Organizmning normal shakllanishk va o`sishi uchun tashqi sabab hisoblangan muhim ozuqa, havo, suv kabilar yuzaki qaraganda nechog`li muhim bo`lib ko`rinmasin, biroq organizmning yashashini, mavjudligini belgilaydigan asosiy sabab modda almashinishi, ya’ni assimilatsiya va dissimilatsiya jarayonidir. Ko`rinib turibdiki, demak, har bir hodisa va protsess turli xil sabablarning umumiy aloqadorligi asosida shakllanadi va yuzaga keladi. Voqea va hodisaning haqiqiy mohiyatini bilishda asosiy va asosiy bo`lmagan, ichki va tashqi sabablarni almashtirib yubormaslik lozim. Sabablarning o`rni, ahamiyatini aralashtirib noto`g`ri tushunish nazariy va amaliy faoliyatda g`ayriilmiy natijalarga olib borishi mumkin.

SHuning uchun bilish jarayonida determinizm tamoyillariga asoslanish maqsadga muvofiq. Sabab va oqibat bog`lanishini ilmiy tushunishning fan va amaliyot uchun ahamiyati to`g`ri tushunilib, hamma narsaning aloqadorligi, sabablar zanjirining uzviyligi g`oyasi tug`ilgan paytdan buyon mkng yillar o`tdi. Bu sabab va oqibatlar bog`lanishi inson tafakkuri tarixida qanday shakllarda tushunilganligini taqqoslab ko`rish, shak-shubhasiz, bilish nazariyasining takomillashib borganini yaqqol ko`rsatgan bo`lur edi. Zero, voqea va xrdisalarga deterministik nuqtai nazardan yondashish olamdagi ja-rayonlarning sababiy bog`lanishlarini ilmiy bilish, falsafadagi g`ayriilmiy qarashlarga qarshi kurashda muhim ahamiyatga egadir.

Asosiy tushunchalar

Taraqqiyot, nazariya, dialektika, metafizika, qonunlar, olam mavjudligi, takrorlanish, aloqadorlik, kategoriya, mohiyat, hodisa, oqibat.

Takrorlash uchun savollar

1.”Metod” va “Metodologiya” deganda nimani tushunasiz?
2. Dialektik metodning mohiyatini so`zlab bering.
3. Metafizika, sofistika va ekliktika tushunchalarining mohiyatini qanday ifodalaysiz?
4. Sinergetika haqida nimalarni bilasiz?
5. Qonun nima?
6. Tabiat va jamiyat qonunlarining qanday xususiyatlari bor?
7. Olamdagi ayniyat va ziddiyat holatlariga misollar keltira olasizmi?
8. Mikdor va sifat nima? Me’yorchi?
9. Inkor nima? Inkorni inkor qonunichi?
10. “Katsgoriyalar” tushunchasimi qanday izohlaysiz?
11. Juft kategoriyalar mazmunidagi ichki birlikning asosi nimada?

12. Hozirgi davrda taraqqiyot va o`zaro bog`liklik tamoyillari qanday namoyon bo`lmoqda?

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T. O`zbekiston 1992
2. Karimov I. A. YAngicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – T: O`zbekiston 5 – j, 1997
3. Karimov I. A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat,
4. Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo`lida – T, O`zbekiston 1999
5. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T, O`zbekiston 2000
6. M. Ahmedova Falsafa darslik O`z. fay. jam. T., 2006.
7. K. Nazarov Falsafa asoslari «O`zbekiston» T., 2005.
8. K. Nazarov Falsafa O`AJBIT T., 2004.
9. E. YUsupov Falsafa «SHarq» T., 1999.
10. K. Nazarov Falsafa «SHarq» T., 2004.
11. M. Ahmedova Osnovы filosofii «Uzbekistan» T., 1998.
12. I. Saifnazarov Kurs lektsii po filosofii «SHarq» T., 2004.
13. M. Safarboev, Z. Iskandarova Falsafa UrGU U., 2004.
14. B. To`ychiev Falsafa DITAF T., 2004.
15. K. Nazarov Falsafa (Ma'ruzalar matni) O`AJBIT T., 2000.
16. M. M. Xayrullaev Filosofiya lug`ati «O`zbekiston» T., 1976.
17. M. M Xayrullaev, K. Nazarov Falsafa: komusiy lug`at «SHarq» T., 2004.
18. I. Karimov Falsafadan va'zlar TDPU T., 2003.
19. J. Tulenov, Z. G`ofurov Falsafa TDPU T., 1997.

Katta o`qituvchi Jumaniyozov B.

6. Ma’ruza. Mavzu: Gnoseoloiya: bilish falsafasi (2 soat)

Reja:

1. Ong va ruhiyat: falsafiy talqin
2. Ijtimoiy va individual ong.
3. Bilish falsafasi
4. Falsafada haqiqat muammosi.

1. Ong va ruhiyat: falsafiy talqin

Ong nima? Inson azal-azaldan o`zigagina xos bo`lgan ongning nima ekanligi to`g`risida o`ylab, bahslashib keladi. Bu bahslarning bir jihati, ong tabiat mahsulimi yoki inson ongi ilohiy yaratilganmi? degan masaladan iborat. Ikkinchi jihati esa, inson dunyoni doimo bir xil anglaganmi? YA’ni, asrlar davomida inson ongi takomillashib kelganmi yoki hamon o`sha-o`shami? degan muammo bilan bog`liq.

"O`zingni bilsang, olamni bilasan", - degan edi Suqrot. Aforizmga aylanib ketgan bu fikr ortida olam kabi inson ham siru sinoatlarga boy. u o`zini bilish orqali olam mohiyatini anglashga yo`l ochishi mumkin, degan g`oya yotibdi. SHu ma’noda, inson o`zini tashqi olamdan ajratib, aloxida bir mo`’jiza va tadqiqot mavzui sifatida o`rganishga harakat qila boshlagan paytdan buyon uni o`ylantirib kelayotgan muammolardan biri ongning mohiyati, uning kelib chiqishi masalasidir.

SHu nuqtai nazardan qaraganda, ongning tabiatini anglash ma-salasi — eng qadimiy falsafiy masalalardan biri, deyish mumkin. Garchand ong va uning turli xususiyatlari insonga xos hodisa sifatida psixologiya, adabiyot, soiiologiya kabi fanlarning tadqiqot mavzui doirasiga kirgan bo`lsada, ongning mohiyati, uning turli ko`rinishlari o`rtasidagi munosabat kabi masalalarni o`rganish bi-lan aynan falsafa shug`ullanadi.

Ongning mohiyati masalasi eng qadimiy muammolardan biri ekan, uni anglash jarayonida turli xil javoblar bo`lganligi tabiiy. Bu savolga eng qadimiy javob diniy va mifologik qarashlar doirasida berilgan.

Ongni diniy tushunish uni ilohiy hodisa, Xudo yaratgan mo`’jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi. Ko`pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning mittigina aks etishi, uning namoyon bo`lish shakli tarzida tavsiflanadi. Inson tanasidagi ruh bizning istak va fikrlarimizning tashuvchisidir. Jon o`lishi bilan ong ham o`ladi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo`lsada, ular hamonining ko`plab tarafdorlariga ega. Zero, u olam va odamning yaralganligi masalasi bilan bevosita bog`liqdir. Kimda-kim olam va odamni yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati ekanligini tan olishi tabiiy.

Ong moddiylikning miyada aks etishi deb tushunishda, uning moxiyati inson tanasi faoliyati bilan bog`lab talqin etiladi. Bunday qarashlar ham tarixiy ildizlarga ega. XVIII asrga kelib ongni bevosita inson miyasi faoliyati bilan bog`lashga harakat qilgan karashlar ham shakllandi. Ayni paytda materialistik yo`nalish nomini olgan bunday yondashuvlar doirasida ongning mohiyatini bu-zib talqin qilish hollari xam paydo bo`lgan. Falsafa tarixida **"Vulgar materializm"** deb nom olgan oqim namoyandalarining` qarashlari bo`nga misol bo`la oladi. Ularning fikricha, xuddi jigar

safro ishlab chiqargani kabi miya xam ongni ishlab chiqaradi. Bunday yondashuv natijasida ong ideal emas, balki moddiy hodisa, degan xulosa chiqadi. Vaholanki, safroni ko`rish mumkin, ammo ongni ko`rib ham, o`shlab ham, o`lchab ham bo`lmaydi.

Xo`sh, ong tarixan qachon va qanday omillar ta'sirida shakllangan? U haqiqatan ham miya bilan bog`liqmi?

Ong tarixi insonning inson bo`lib shakllana boshlashi tarixi bilan bog`liqdir.

Uzok, vaqt davomida inson, uning ongi planetar, ya'ni Er shari doirasidagi hodisa sifatida qarab kelindi. Hozirgi zamon fani masalaga kengroq doirada yondashish zarurligini ko`rsatmoqda. CHunki fan dalillari inson paydo bo`lishini faqat Erda kechgan jarayonlar bilan cheklab qo`yish to`g`ri emasligini, u koinot evo-lyutsiyasining tabiiy hosilasi ekanligini tobora chuqurroq isbotlamoqda.

Inson biologik va ijtimoiy harakatning tashuvchisi ekan, harakat shakllari o`rtasidagi uzviy aloqadorlikni, uning yuqori shakllari quyi shakllariga bog`likdagini, tayanishini, ulardan o`sib chiqishini unutmaslik lozim. Boshqacha aytganda, ular o`rtasida uzviy aloqadorlik mavjud.

Ong tarixi Quyosh sistemasi va unda millionlab yillar davo-mida sodir bo`lgan o`zgarishlardan ham ayricha olib qaralishi mum-kin emas. Aynan mana shu jihatdan olganda, ongning shakllanishini kosmik hodisa sifatida qarash ham mumkin.

Ong in'ikosning oliy shaklidir. Xo`sh, in'ikos deganda nima tushuniladi. In'ikos muayyan ta'sir natijasida paydo bo`ladi. Buning uchun esa, hech bo`lmaganda, ikkita ob'ekt va ular o`rtasida o`zaro ta'sir bo`lishi lozim. Eng umumiy ma'noda, har qanday narsalarning u bilan munosabatda bo`lgan boshqa narsalar ta'sirini muayyan tarzda aks ettirish xossasiga in'ikos deyiladi.

SHu ma'noda in'ikos hamma joyda mavjud. Ayni paytda holatda u o`ziga xos xususiyatga egadir. CHunonchi, notirik tabiatdagi in'ikos bilan tirik tabiatdagi in'ikos bir-biridan tubdan farq qiladi. Notirik tabiatda in'ikos oddiyligi bilan ajralib tursa, tirik tabiatda u murakkab xarakter kasb etadi.

Inson ongi juda murakkab va ko`p qirrali hodisadir. U haqdagi qarash va tasavvurlar kishilarning turli hayot tajribalariga tayanib yondashuvi hamda talqin etishlariga bog`liqdir. Ong mohiyati va mazmunining namoyon bo`lish qirralarini tushunishda milliy-madaniy an'analar, diniy, ijtimoiy qadriyat va mo`ljal larning ta'siri katta. SHu bilan birga, notirik tabiatda in'ikos passivligi, tirik tabiatda esa faolligi bilan ajralib tu-radi. Tirik tabiatda in'ikos tashqi ta'sir natijalaridan faol foydalanishni keltirib chiqaruvchi axborotli in'ikos shaklini oladi. Ongning falsafiy talqini inson ma'naviy va ruhiy hayoti namoyon bo`lishining barcha shakllarini birlikda va yaxlitlikda olib tahlil qilish imkonini beradi. SHuningdek, ularning voqelik bilan munosabatlari (aloqadorlik holati) ni nazorat qilish tartibga solish va boshqarish usullarini o`rganish tamoyillarini yaratadi.

Ayni paytda axborotli in'ikosning o`zi tirik tabiatning har bir darajasida yanada murakkablashib, o`ziga xoslik kasb etadi. Mana shunday murakkablashuv jarayoni psixik in'ikosning shakllani-shiga zamin yaratdi. Aynan psixik in'ikos darajasida voqelikka faol munosabat ham shakllanadi, in'ikosning ilgarilab borishi-dan esa, o`z navbatida, uning o`ziga xos, yuqori shakli bo`lgan ong-ning paydo bo`lishiga imkoniyat yaraldi.

Inson miyasi nozik, murakkab tuzilishga ega bo`lgan tizimdir. Aynan uning

murak-kabligi ong paydo bo`lishi mumkinligining asosiy shartidir. Bun-day holat ham uzoq davom etgan evolutsiyaning tabiiy hosilasidir.

Ammo yuksak darajada tashkil topgan miyaning o`zi ham hali oig paydo bo`lishi uchun etarli emasligini unutmaslik lozim. Bu miya normal funktsional faoliyat ko`rsatishi zarur. Va nihoyat, normal funktsional faoliyat ko`rsatuvchi miya sohibi ijtimoiy munosabatlarga tortilgan bo`lishi shart.

SHu o`rinda vulgar materialistlar qarashlariga yana bir mart murojaat qilish lozim. Agar ular haq bo`lganida edi, hayvonot olamiga tushib qolgan inson bolalarida ham ong shakllangan bo`lishi kerak edi. Ular hayvonlar orasida bo`lganida ham jigar safro ishlab chiqaraveradi. Ammo, miya ongni ishlab chiqarmaydi. Bundan on ning ijtimoiy-ruhiy hodisa ekanligi va u faqat jamiyatdagi shakllanishi mumkinligi haqidagi xulosa kelib chiqadi.

Oning mohiyatini anglashda uni ijtimoiy hodisa sifatida arash muhim ahamiyatga ega. Insonni hayvonot olamidan ajalib chiqishida va biologik mavjudotdan ijtimoiy mavjudotga aylanishida muhim rol o`ynagan omillar ongni ham shakllanishida zamin bo`lib xizmat qilgan. Bu omillar sifatida uzoq ajdodlarining birlikda hayot kechirishlari, o`zaro axborot uzatishga bo`lgan extiyoj atrof - muxit sharoitiga «sun’iy» ravishda moslashishga bo`lgan moyilligi va nihoyat, «mehnat» qilishga o`rgana borishini ko`rsatish mumkin.

Ana shu omillar ta’sirida oxir-oqibat insonning tashqi muxitni o`zgartiruvchi faolligi namoyon bo`lib borgan. SHu nuqtai-nazardan inson hayoti uchun zarur sharoitni o`zining faolligi orqali ta’minlay olish imkoniyati, mehnat qilish qobiliyati, ongning shakllanish jarayoni uzviy bog`liq ravishda kechgan. Bu borada har bir avlod tomonidan erishilgan natija keyingilari uchun o`ziga xos ijtimoiy-madaniy muhit vazifasini o`tab keldi. Kishilarning voqelikka shu tarzdagi amaliy o`zgartiruvchan faoliyati ta’sirida ularning ongi ham uzoq rivojlanish bosqichlaridan o`tib kelmoqda. Ongimizdan muhim o`rin olgan mavjud bilimlarimiz uzoq davom etgan xam tabiiy, ham ijtimoiy evolutsiya jarayonining mahsuli ekanligi ham shundandir.

Bizning ongimiz qanday bo`lishi ko`p jihatdan insoniyat tomo-nidan egallangan qaysi bilimlarni qay darajada o`zlashtirilgani-ga ham bog`liqdir. Bunda ijtimoiy tarixiy sharoit bilan bir qatorda, kishilarning ruhiy holati, imkoniyati va moyilligining ham ta’siri kuchlidir.

Ong va ruhiyat

Ong psixik in’ikosning o`ziga xos, yuksak shaklidir. Ammo, bu psixika va ong tushunchalarini aynanlashtirish uchun asos bo`la olmaydi. Negaki, psixika hayvonlarga xdm xosdir. Gap inson psixikasi haqida ketganda ham, u ong tushunchasiga nisbatan keng qamrovlilik kasb etishini unutmaslik lozim. 3. Freyd fikricha, psixika ongsizlik, ong osti hodisalarini va ongning o`zidan iborat uch qatlamdan tashkil topgan. Inson hayoti, faoliyatida ong bilan bir qatorda ongsizlik va ong osti hodisalari ham muhim ahamiyatga ega. Psixologlar fikricha, inson farzandining kamol topa borishi ilan bir qatorda ko`plab funkiiyalar ong nazorati ostidan chiqib, avtomatik xarakter kasb etishi bilan xarakterlanadi. Aytaylik, birinchi marta mashinaga o`tirganimizda, birinchi marta surat olayotganimizda deyarli barcha harakatlarimiz ongning qattiq nazoratida buladi. Vaqt o`tishi bilan esa ko`pgina harakatlarni ongsiz tarzda, anglamagan holda bajara

boshlaymiz. Bunday holat inson faoliyatining xilma-xil sohalari, yo`nalishlarida, ularga ongning faol tarzda aralashishini, ya’ni qayta faoliyatni o`z nazoratiga olishi mumkinligini inkor etmaydi. Xatti-harakatlarning ongsizlik sohasiga ko`chishi, bir tomondan, ong "yuki"ning englashuviga xizmat qilsa, boshqa tomondan, ongning asosiy kuchi, quvvati, "diqqati"ni, inson hayoti uchun muhim bo`lgan harakat jayonlarga qaratilishiga imkoniyat yaratadi.

Ongsizlik doirasiga ong nazoratidan tashqarida qolgan sezgi, tasavvur, instinkt va intuitsiya kabi hodisalar ham kiradi. Ana shu xususiyatlarni inobatga oladigan bo`lsak, ongsizlik ong mavjudligi va rivojlanishining tabiiy sharti deyish mumkin. Ong osti hodisalari ham psixik jarayonlarning muhim bo`g`inidir. Z.Freyd fikricha, ular ongsizlik bilan ong o`rtasidagi chegaraviy sohadir.

"Gap tagida —gap bor, kosa tagida —nim kosa" naqlida ong ostiga xos bo`lgan xususiyatlar ifodalangan, deyish mumkin. Nega-ki, har qanday faoliyatimizda ayni vaqgda biz uchun ahamiyati bo`lmagan holatlar bo`ladi. Ammo, bu ular kuzatishdan, nazoratdan chetda qoladi, degani emas. Biz uchun ahamiyatli xarakter kasb etganda, ular ong ostidan ong sferasiga ko`chishi mumkin. Masalan, biror joyga borayotganda, asosan, maqsadga tomon harakat qilinadi, ammo yo`lda uchragan boshqa narsa va hodisalar ham kuzatiladi, esda qola-di. Ana shulardan kelib chiqqan holda, ong osti inson ongli faoli-yatining o`ziga xos kuzatuvchisi, zarur bo`lgan hollarda tsenzori si-fatida chiqishdek sifatlarga ega, deyish mumkin.

Ong o`zaro aloqada bo`lgan turli unsur (element)lardan tashkil topgan murakkab ma’naviy tuzilishga ega.

Ong in’ikosning o`ziga xos shakli ekan, avvalo, unda aks etti-riladigan ob’ekt haqidagi muayyan bilimlar hissiy va ratsional shaklda o`z ifodasini topadi. Demak, bilim ong tuzilishining aso-siy unsuridir. SHuning uchun ham bilimlarning boyib, chuqurla-shib borishi ong rivojlanishini xarakterlaydigan muhim belgi sifatida yuzaga chiqadi.

Ong tuzilishining yana bir unsuri xilma-xil ko`rinishlarda namoyon bo`ladigan kechinmalardir. Ularda in’ikos ob’ektiga muno-sabat gavdalanadi. Bilimlarimizning chuqurligi va ko`lamliligi, hissiyotlarimizning namoyon bo`lishi yoki bo`lmasligi intilishimiz — irodamizga bog`liq. Iroda kuchi olamni anglash jarayonida yuzaga keladigan har qanday to`siqlarni engib o`tishga, ko`zlangan maqsad yo`lida tinmay harakat qilishga yo`l ochadi.

Iroda tabiatning in’omi emas ekan, uni tarbiyalash, kam toptirish shaxs hayotida, uning jamiyatdagi o`z o`rnini topishid muhim ahamiyatga ega. Zero, irodasizlik eng ulug` niyat va maqsad larni barbod qilibgina qolmay, insonning to`g`ri yo`ldan to iiga va turli salbiy oqibatlarning kelib chiqishiga olib kelishi xam mumkin.

Til ongning insongagina xosligini isbotlovchi omillardan biridir. Xo`sh, til denda o`zi nima tushuniladi? Til, bu eng avvalo, muayyan belgilar tizimi demakdir. Ammo, tilning xususiyatlarini shu bilangina chek to`g`rm emas. Negaki, muayyan belg`ilar tizimi hayvonlarga ham xos ular yordamida jonzotlar o`rtasida muayyan axborot almashinuvi sodir bo`ladi.

Aytaylik, kabutarlarining "muhabbat" raqsi, jonzotlarning xavf-xatar paydo bo`lganda turli tovush — belgilar yordamida bir-birini ogoxlantirishi, ayrim hayvonlarning o`zi yashaydigan hududni turli yo`llar bilan "chegaralab" chiqishi ana

shunday belgilar tiziminyang o`ziga xos ko`rinishlaridir. Lekin, jiddiy e’tibor beriladigan bo`lsa, bu belgi — signallar tizimi uzoq davom etgan evolutsiya davomida hosil qilingan reflekslar ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Xatti-harakat yoki boshqa belgilar yordamida uzatilayotgan axborotning mazmuni muayyan vaziyatdagi holat bilan belgilangan bo`ladi. Bundan farkli o`laroq inson nutqi, tili konkret vaziyat, makon va zamondan xoli bo`lishi, unga bog`liq bo`lmasligi ham mumkin. Boshqacha aytganda, u o`zida o`tmishni, hozirgi holatni va istiqbolni ham ifodalashi mumkin. Bu inson tilining belgilar tizimi sifatida hayvonot dunyosida amal qiladigan belgilardan tub farqini ko`rsatuvchi muhim xususiyatidir.

Til, qayd qilinganidek, belgilar tizimidir. Fan yuksak taraqqiy qilgan hayvonlarda axborot uzatishga xizmat qiladigan murakkab belgilar tizimi mavjud ekanligi va u hayvonot olami evolutsiyasi bilan bir paytda takomillashib borganligini isbotla-mokda. Demak, til yo`q joydan, birdaniga paydo bo`lib qolmagan. Ong in’ikos shakllarning uzoq davom etgan evolutsiyasining` tabiiy hosilasi bo`lganidek, u bilan uzviy bog`liq bo`lgan inson nutqi ham axborot uzatishga xizmat qiladigan belgilarning murakkablashib borishi jarayonining zaruriy natijasidir.

Demak, til belgilar tizimi sifatida kelib chiqishidan qati nazar, faqat insongagina xos va u ong bilan uzviy bog`liqdir. Negaki, tilda ong gavdalanadi. Til yordamidagina ong kishining O`zi va boshqalar uchun voqelikka aylanadi. Tilda ifodalanayotgan ma’no - mazmunning anglanishi insonning umumiy bilim darajasi, Qiziqishi, qobiliyati, konkret sharoitdagi kayfiyati kabi omilarga ham bog`liq bo`ladi. Til fikrlash quroli, muloqot vositasi sifatida doimiy takomillashuv jarayonini boshidan kechirmoqda. Ayni paytda insoniyat biz kundalik hayotda qo`llaydigan tabiiy kampyuterlar bo`lgan bo`lsa, ularning bugungi avlodi 10 million murakkab operaiiyalarni qoyilmaqom qilib uddalaydi.

Xo`sh, bularning inson ongi va tafakkurining mohiyati bilan nima aloqasi bor? Gap shundaki, EHMlar ham inson tafakkurig xos bo`lgan xususiyatlarga ega. Bunday xususiyatlarga, uning tobora ko`proq ega bo`lib borishi, EHM fikrlay oladimi, agar inson o`ziga xos xususiyatlarini ularga tobora ko`proq ko`chirib boraversa oxir oqibatda, bir vaqt kelib, u o`zi yaratgan ana shu qurolning quliga aylanib qolmaydimi, degan savollarning kun tartibiga qo`yilishiga olib keldi. Aytaylik, kompyuter albatta oldindan programmalashtirilgan operatsiyalarni millionlab marta tez baja-rishi mumkin. Ularning "xotira" qudrati nixryatda yuksak va h. k. Ammo bular EHM larning fikrlashidan, ularning inson ustidan hukmronlik qilishidan dalolat beradimi? Albatta, yo`q. Kompyuterlar qanchalik murakkab operatsiyalarni bajarmasinlar, inson tomonidan programmalashtirilgan jarayonlarnigina amalga oshiradilar, undan tashqariga chiqa olmaydilar. Insonning fikrlash ja-rayoni ongsizlik, onglilik, kechinmalar, ijod kabi hodisalarni qamrab oladi. Kompyuter esa bunday xususiyatlarga ega emas. SHunday ekan, kompyuterlar insonning muayyan yo`nalishlardagi aqliy faoliyatini engillashtirishga xizmat qiladi va o`zining yaratuvchisi ustidan hukmron bo`la olmaydi.

Ayrim tadqiqotlar natijalariga ko`ra, hozirgi davrda fan so-hasida erishilgan natijalar har o`n yilda, informatsiya olish esa har 3-4 yilda ikki barobarga oshmoqda. Ana shunday sharoitda inson ongi, uning xotira qudrati bu axborotlarni o`zlashtira oladimi, degan savol ko`ndalang bo`lmoqda. YAngi bilimlar, axborot oqimi unchalik kuchli bo`lmagan yaqin o`tmishda tirishqoq kishi insoniyat bilimi erishgan asosiy natijalarni o`zlashtira olar edi. Bugungi kunda faqat fanning turli yo`nalishlari bo`yicha

yiliga bir necha million kitob nashr etilmoqda. Hisob-kitoblarga ko`ra, inson eng yangi adabiyotlarni o`rganib borishga harakat qilganda ham, uning har bir o`qigan betiga o`n ming o`qilmagan sahifa to`g`ri kelar ekan.

Kishilarningyangi kitoblarning aksariyatini jismonan o`qib ulgurmaganligi "informatsion portlash" keltirib chiqarayotgan oqibatlarning bir ko`rinishi, xolos. Masalaning yana bir jihati borki, bu inson to`plagan bilim, axborotning ma'naviy eskiri-shi, keraksiz bo`lib qolayotganligidir. Bunday eskirish sur'ati tobora tezlashib bormoqda. Masalan, oliy ta'lim sohasida bu jarayon olti-etti yil, kompyuter texnologiyasi sohasida esa bir yil da-vomida sodir bo`layotganligi haqida fikrlar bildirilmoqda. Bu agar siz oliy o`quv yurtini bitirganingizga etti yil bo`lgan bo`lsa, o`z vaqtida olgan bilimlaringizning aksariyati bugungi kun talabiga ob bermasligini bildiradi. Ana shunday sharoitda kishilarga o`z bilimlarini yuqori darajada ushlab turishlari ulardan doimiy diqqat-e'tiborni, o`z ustida ishlashni talab qiladi. Aks xolda ta'lim dargohini eng yuqori natijalar bilan bitirgan mutaxassis ham tez orada chalasavod bo`lib qolishi mumkin.

Umumlashtirib aytganimizda, ongning mohiyatini, uning koinot evolyuiiyasining tabiiy natijasi ekanligini tushunish, u bilan bog`liq bo`lgan jarayonlarni ilmiy talqin etish olam va odam birligini anglash imkonini beradi. Ayni paytda, ongning mohiyatini anglash insonning o`zligini, yashashdan maqsadi, hayotining ma'no mazmuni kabi masalalarni chuqurroq tushunishga yo`l ochadi. Bu ong va u bilan bog`liq masalalar amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

2. Ijtimoiy va individual ong.

Har bir kishiga xos individual ong bo`lishi isbot talab qilmaydigan hol. SHu bilan birga, xilma-xil kishilar, turli-tuman sohalar, guruh, partiya, millat kabi ijtimoiy birliklardan iborat jamiyat uchun ham umumiy anglash mezonlari va me'yorlari bormi? Jamiyat yagona jism emas-ku, unda yaxlit anglash usuli va umu-miy ong bo`lishi to`g`risida gapirish qanday bo`larkin? degan savol-lar ham uchraydi. Bu savollarning tarixi uzoq.

Odamzod bir-biri bilan aloqalarini tartibga solib turadigan ma'naviy, axloqiy mezonlar, umumiy qarash va intilishlar, man-faat va maqsadlar ham borligini anglaganidayoq, ijtimoiy ong mavjudligiga ishongan.

Jamiyat murakkab va serqirra hodisa. Uning xilma-xil sohala-rida sodir bo`layotgan o`zgarishlar kishilar ongida o`z aksini topmasligi mumkin emas. Ana shu jarayonni ifodalash uchun, odatda, ijtimoiy va individual ongtushunchalarini ishlatamiz. Xo`sh, bu tushunchalarning farqi nimada, ular qanday qonuniyatlar asosida rivojlanadi?

Ijtimoiy ong tabiiy va ijtimoiy voqelikning in'ikosi, jamiyatning muayyan davriga yoki qismiga tegishli bo`lgan umumiy his-tuyg`ular, kayfiyatlar, qarashlar, g`oyalar, nazariyalar majmuidir.

Ijtimoiy ong tufayli jamiyatning o`z-o`zini anglashi sodi bo`ladi, kechayotgan jarayonlarga munosabati shakllanadi. Ijtimoiy o`zgarishlar bilan bir qatorda ijtimoiy ong ham o`zgarib rivojla nib boraveradi. Ammo bundan, aslo, ijtimoiy ongning taraqqiyoti faqat ijtimoiy voqelikdagi o`zgarishlargagina bog`liq ekanda degan xulosa kelib chiqmaydi. Zero, ijtimoiy ong o`z taraqqiyotida nisbiy mustaqillik xarakteriga va ijtimoiy voqelikka faol aks ta'sir eta olish xususiyatiga ham egadir.

Ijtimoiy ongning bunday xususiyatlari nimalarda ko`rinadi?

Avvalo, ijtimoiy ongga vorislik xos ekanligini ta’kidlash lozim. Bu ijtimoiy ong shakllarining o`z rivojlanish mantiqiga, qonuniyatlariga ega ekanligida yaqqol namoyon bo`ladi. Bundan tashqari, ijtimoiy ong rivojida uning turli shakllarining o`zaro ta’siri ham muhim rol o`ynaydi.

Ijtimoiy ong, undagi o`zgarishlar voqelikka hamma vaqt aks ta’sir etib kelgan. Bilimlar ko`lami, tarixiy tajriba har bir davrda ayricha bo`lganidek, bu ta’sirning kuchi ham turlicha bo`lgan. Ijtimoiy ongning mohiyati uni individual ong bilan solishtir-ganda yanada yaqqol namoyon bo`ladi.

Individual ong muayyan, guruh, elat. millatga mansub bo`lgan ayrim kishining ongi bo`lib, jamiyatdagi voqelik va real borliqning alohida olingan shaxsning ongida aks etishdir.

Ijtimoiy va individual ongning mohiyatini chuqurroq anglash uchun ular o`rtasidagi o`xshash va farqli tomonlarni tushunib olish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy va individual ong o`rtasidagi o`xshashlik bir tomon-dan, har ikkalasining ham ijtimoiy voqelikni aks ettirishida ko`rinadi. Boshqa tomondan, ijtimoiy ong voqelikni individ ongi orqali aks ettiradi. CHunki, ijtimoiy voqelikda yuz beradigan o`zgarishlar, avvalo, alohida kishilar ongida o`z aksini topadi va undan so`nggina ijtimoiy ongda gavdalanadi.

Ijtimoiy ong bilan individual ong o`rtasida farqli tomonlar ham mavjudki, ular quyidagilarda ko`rinadi:

Birinchidan, individual ongning sohibi, sub’ekti alohida olingan individ bo`lsa, ijtimoiy ongning sub’ekti jamiyatdir.

Ikkinchidan, ularning farqi shakllanish shart-sharoitlarida ko`rinadi. Zero, ijtimoiy ong ijtimoiy voqelikning in’ikosi bo`lsa, individual ong taraqqiyotiga ijtimoiy ongbilan bir qatord shaxsgagina xos bo`lgan temperament, xarakter kabi xususiyatlar uning moddiy ahvoli, oilaviy, diniy, milliy-madaniy mansubligi kabi omillar hamda u bevosita tortilgan ijtimoiy munosabatlarning xarakteri ham muayyan darajada ta’sir ko`rsatadi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy ongga ko`lamlilik, keng qamrovlilik, individual ongga esa o`ziga xoslik, betakrorlik xosdir.

Uchinchidan, ijtimoiy ong ijtimoiy voqelikni aks ettirganligi uchun muayyan qonuniyatlarga bo`ysunadi, ular asosida rivojlanadi. Individual ong esa, ayrim individning tug`ilishi bilan shakllanib, taraqqiy qilib borib, uning vafoti bilan barham topadi. Ammo bu individ ongining butunlay barham topishini hamma vaqt ham anglatavermaydi. CHunki individ ongi u yaratgan asarlar, kashfiyotlar shaoini olib, keyingi avlodlar tomonidan meros sifatida qabul qilib olinishi mumkin. Masalan, Gippokrat va Ibn Sino ta’limotlari, Aflotun va Beruniy g`oyalari, Navoiy va Gandining gumanizmi kishilar uchun hamon kagga ahamiyatga ega bo`lib qolmoqda.

To`rtinchidan, individual ong ayrim sohalarda ijtimoiy ong-dan o`zib ketishi yoki orqada qolishi mumkin. Fan tarixida keskin burilishlar yasagan olimlarning. jamiyat taraqqiyotining istiq-bollarini oldindan aytib bergan mutafakkirlarning qarashlari individual ong ba’zan ijtimoiy ongdan nechog`li ilgarilab keti-shi mumkinligiga yorqin misol bo`la oladi.

Ijtimoiy ongning strukturasi ijtimoiy munosabatlar va kishilar faoliyatining tur-lari bilan belgilanadi. Odamlar faoliyati qanchalik xilma-xil, ularning ijtimoiy munosabatlari qanchalik boy bo`lsa, ijtimoiy ong ham shunchalik boy va murakkab bo`ladi. Voqelikni

aks ettirish darajasiga ko`ra, ijtimoiy ong odatiy va nazariy ongga bo`linadi.

Odatiy ong hayotiy tajriba asosida vujudga kelgan oddiy xulosalar, qarashlar majmuidan iborat bo`lmb, kishilarning kundalik hayotidagi voqealarni aks ettiradi va rivojlanadi. Uning sohiblari - sub'ektlari alohida olingan shaxslarning hayotiy tajribasi, qiziqishlari, qobiliyatlari, bilimlari, hayotda egallagan mavqelari hech qachon bir xil bo`lmaydi.

Odatiy ongda nazariy bilimlarga dalil va asos bo`lib xizmat qiladigan elementlar bo`ladi. Olimlar, san'atkorlar turli nazariyalar, badiiy obrazlar yaratishda hayotiy-kundalik ongga asoslanadilar, undan ma'naviy oziq oladilar.

Odatiy ongda xalq donishmandligi, an'ana va urf-odatlar, kundalik turmush qoida va talablari, tabiat haqidagi bilimlar, shuningdek turli uydirmalar, noto`g`ri qarashlar ham o`z ifodasini topadi. Ko`p asrlik hayotiy tajribani ixcham shaklda o`zida mujsamlashtirgan xalq maqollari bunga misol bo`la oladi. Odatiy ong sof holda uchramaydi. CHunki, inson farzandi murg`aklikdavrid noq o`z atrofidagilar, so`ngra kitoblar, ta'lim tizimi yordamida inson zakovati erishgan ilmiy bilimlarni ham o`zlashtirishga kirishadi. Boshqacha aytganda, sodir bo`layotgan voqealarga nafaqat o`z tajribasi, balki ilmiy bilimlar nuqtai nazaridan ham baho bera boshlaydi, nazariy ong ta'sirida bo`ladi.

Xo`sh, nazariy ong deganda nimani tushunish kerak?

Nazariy ong deganda nazariyotchilar, olimlar ishlab chiqqan nazariy qarashlar va ilmiy bilimlar tizimi tushuniladi. Odatiy ongdan farqli o`laroq nazariy ong o`zgaruvchan xarakterga ega. Bu o`zgaruvchanlik ilmiy bilimlarning shiddatli rivojlanishi, voqelik haqidagi bilimlarning doimiy chuqurlashib va kengayib borishi bilan belgilanadi. SHuningdek, odatiy ongga voqealarning tashqi tomonini ifodalash xos bo`lsa, nazariy ong voqealarning mohiyatini, rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiradi. SHuning uchun ham u odatiy ongga faol ta'sir qila oladi va kundalik tajriba asosida hosil qilingan bilimlarni saralashga yordam beradi.

Ijtimoiy psixologaya

Ijtimoiy psixologiya sotsial muhit, kundalik turmush sharoitlari ta'siri ostida vujudga keladi va rivojlanadi. Uni, sub'ektiga ko`ra, muayyan ijtimoiy guruh, elat, millat psixologiyasi kabi turlarga bo`lish mumkin.

Millatlarning etnosotsial birlik sifatida shakllanishida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ustuvor ahamiyatga ega. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, ayrim hududda yashagan aholining doimiy aloqada bo`lishi, o`zaro ta'siri, munosabati tilda, madaniyatda umu-miylikning shakllanishiga ta'sir qilganligini ko`ramiz. Bunday sharoitda psixologiyada ham o`xshash tomonlar yuzaga kela borganligi tabiiy, albatta.

Alohida olingan bir millatga xos bo`lgan psixologik jihatlarni ushbu millat bosib o`tgan tarixiy yo`ldan, xalqaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlardan qidirish zarur. Ijtimoiy voqelikning o`zgarishi bilan milliy psixologiyaga xos bo`lgan xususiyatlar ham o`zgarib boradi. Ammo bu o`zgarishlar nisbatan sekin kechganligi tufayli, u hamma vaqt ham tezda ko`zga tashlanavermaydi.

Milliy psixologiyaga xos jihatlarni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o`zgarishlarni amalga oshirishda inobatga olish muhim ahamiyatga egadir. Bu amalga oshirilayotgan siyosatning xalq ko`nglidan chuqur joy olishini hamda ushbu o`zgarishlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ijtimoiy mafkura (ideologiya) ijtimoiy psixologiyadan

tubdan farq kiladi. Ijtimoiy psixologiya sotsial guruhlar hayotini muayyan his-tuyg`ular, kayfiyatlarda bevosita aks ettirsa, ijtimo ideologiya ssshial guruxlar ehtiyojlari, manfaatlarining ichki oxiyatini, sababini har xil g`oyalar, nazariyalar, ta'limotlar shaklida aks ettiradi. SHuning uchun ham u ijtimoiy hayotga aks ta'sir o`tkaza olish xususiyatiga ega bo`ladi. Ayni paytda, ideologiyaning g`oyalar tizimi sifatida chiqishida, uning o`zi uchun kagga xavf ham yashiringanligini ta'kidlash zarur. U real voqelikdan, shu jumladan kishilar ruhiyatida sodir bo`layotgan jarayonlardan uzokdashib, hayotiyligini yo`qotgan g`oyalar - dogmalar sistemasiga ham aylanib qolishi mumkin. Bunday hollarda mafkura taraqqiyot tormoziga aylanib, oxir-oqibatda halokatga yuz tutadi.

Ijtimoiy ong va uning darajalari haqidagi mulohazalar yakunida ijtimoiy ongning axloqiy diniy, estetik, siyosiy, huquqiy fan, falsafa kabi shakllari ajratilishini ta'kidlash lozim.

Nima uchun ijtimoiy ongning aynan yuqoridagi shakllari aj-ratiladi? Boshqacha aytganda, ular qanday mezonlar asosida farq-lanadi? Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy ong shakllarini farqlashning to`rt mezoni ajratilgan.

Avvalo, ijtimoiy ong shakllarining xilma-xilligi ob'ektiv olamning turli-tumanligidan, voqelikning muayyan tomonlarinigina aks etgirishidan kelib chiqishini ko`rsatish zarur. Sodda qilib aytganda, ijtimoiy ong shakllari, birinchi navbatda, o`zlarining aks ettirish ob'ektiga ko`ra farqlanadi.

Ayni paytda, ijtimoiy ong shakllari bir-biridan voqelikni aks ettirish usuliga ko`ra ham ajralib turadi. Masalan, huquqiy ong normalar, qonunlar, qoidalar vositasida, estetik ong esa badiiy obrazlar yordamida voqelikni aks etgirishini bir qarashdayoq sezish mumkin.

Ijtimoiy ong shakllari o`rtasidagi farqni ular rivojlanishining o`ziga xosligida ham kuzatish mumkin. Fan taraqqiyoti ob'ektiv olam haqidagi yangidan-yangi bilimlarning yuzaga kelishi, chuqurlashib, kengayib borishi bilan, dinning rivojlanishi esa, uning ijtimoiy hayotning turli sohalariga, kishilar faoliyati va turmush tarziga ta'sirining o`sib borishi bilan xarakterlanishi fikrimizga dalil bo`la oladi.

Va nihoyat, ijtimoiy ong shakllari bajaradigan funktsiyalarining o`ziga xosligi bilan ham ajralib turishini ta'kidlash zarur. Bunda, har bir ijtimoiy ong shakli bajaradigan funktsiyalar tizimida bittasi asosiy, markaziy, sistema yaratuvchi funktsiya sifatida chiqishi kuzatiladiki, boshqa funktsiyalar ana sh funktsiya atrofida birlashadi. Fanda - bilish, axloqtsa - tartibga solish, dinda - dunyoqarash, san'atda - tarbiyaviy funktsiyala ana shunday sistema yaratuvchi funktsiyalar sifatida chiqishini ko`rish mumkin.

Ijtimoiy ongning barcha shakllariga bilish, tarbiyalash, qadrlash kabi funktsiyalarning xosligi, ayni paytda, bunday o`xshashlikning din va falsafa, axloqiy va huquqiy ong o`rtasida yana ham kuchliligi bunga misol bo`la oladi. Hozirgi kunda jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy ong shakllaridan axloqiy diniy, estetik, siyosiy va huquqiy ong to`g`risida qisqacha to`xtalishni lozim deb topdik.

Axloqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Aynan axloq, axloqiy normalarning paydo bo`lishi, asta-sekin shakllanib, taraqqiy qilishi insoniylikning shakllanishi uchun zamin yaratdi, deb bemalol aytish mumkin. Hozirda ham mavjud axloqiy normalarning o`zlashtirilishi insonning ijtimoiylashuvining muhim shartidir.

Axloq alohida olingan kishining faoliyatini, jamoa, jamiyat manfaatlarini tan olishga asos bo`lgan ijtimoiy ehtiyoj tufayli vujudga kelgan va odamlararo munosabatlarda muayyan barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilgan.

Xo`sh, axloq deganda nimani tushunish kerak? Axloq kishilarning bir-biriga, jamiyatga bo`lgan tarixiy muayyan munosabatlarini ifodalaydigan xulq-atvor, odob, qoida va tamoyillari majmuidir. U hamisha konkret-tarixiy xarakter kasb etadi. SHu ma’noda, har bir davrning o`z axloq mezonlari bor, deb aytish mumkii. Zero, o`zgarib borayotgan ijtimoiy munosabatlar unga mos bo`lgan axloq normalarini ishlab chiqishni talab qiladi. SHuninguchun ham biron-bir axloqiy qadriyatlar tizimida tabiiy hisoblangan hodisalar boshqa axloqiy munosabatlar tizimida noo`rin, g`ayri-tabiiy hisoblanishi, hattoki, yovvoyilik deb, baholanishi ham mumkin. Ammo, barcha davrlarda ham axloqsizlik, deb baholangan hodisalar, xatti-harakatlar ham mavjudligini inkor etib bo`lmaydi. Masalan, inson joniga qasd qilish, ayol nomusiga tajovuz qilish, katta yoshdagilarga hurmatsizlik hamma xalqlarda xam, hamma davrlarda ham axloqsizlik sifatida baholangan va qattik qoralangan.

Axloqiy ong me’yoriy ongdir. SHu ma’noda u huquqqa yaqin tursada. undan jiddiy farq qiladi. Birinchidan, huquqiy tartibga solishning chegarasi, axloqiy tartibga solish doirasidan torroqdir. Negaki, axlohhuqukdan farkda o`laroq ijtimoiy munosabat-larning barcha sohalariga ham kirib boradi. Aytaylik, farzandning o`z ota - onasini yoki kishining o`zidan katta yoshdagilarni sensirashi qonun bilan belgilab qo`yilmagan. Ammo, o`zbek milliy axloq normalariga ko`ra, farzandning o`z ota-onasini, kishining o`zidan yoshi ulug`larini sensirashi odobsizlik hisoblanadi. Ikkinchidan, huquqma’lum darajada bo`ysunishga asoslanadi. SHu maqsadda maxsus apparat - davlat kuchiga tayanadi. Axloq esa odatda ichki tiqodga, ijtimoiy fikrga tayanadi. Uchinchidan, huquqiy normalar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turish ehtiyojidan kelib chiqqan holda o`zgarib, takomillashib boradi. SHu ma’noda u o`zgaruvchan bo`lsa, axloq talablari nisbatan sekin o`zgaradi. To`rtinchidan, huquqiy normalar maqsadga muvofiq, ongli tarzda yaratiladi. Axloqiy normalar, qoidalar esa hayotiy jarayonlarni umumlashtirish asosida, stixiyali tarzda shakllanadi. Boshqacha aytganda, axloqiy qoidalarni dekret bilan joriy qilib ham, yo`q qilib xam bo`lmaydi.

YUqoridagi farqli tomonlar bilan bir qatorda huquq bilan axloq o`rtasida muayyan umumiylik, o`xshashlik ham mavjud. Bu ayrim xatti-harakatlarning ham huquq, ham axloq tomonidan birday qoralanishida ko`rinadi.

Mohiyatan olganda esa axloqning har qanday ko`rinishi umuminsoniy axloqning namoyon bo`lish shakllaridir. Umuminsoniy axloqiy qadriyatlar kishilarni birlikka etaklaydi, ularni yolg`izlikdan, umuminsoniy taraqqiyot yo`lidan ajralib qolishdan saqlaydi.

Estetik ong ijtimoiy ong shakllaridan biri bo`lib, estetik his-tuig`ular, did, qarashlar, ideallar va nazariyalarning o`ziga xos, betakror tizimi sifatida namoyon bo`ladi. Inson voqelikni turlicha, har xil ko`rinishlarda qabul qiladi. Bu qabul qilishning ilk bosqichi - his-tuyg`u, idrokdir. Ularning o`ziga xos shakli esa estetik his-tuyg`ular va estetik idrokdir. Unda voqelik badiiy emotsional shakl oladi va insonning estetik ehtiyojlarining in’ikosi sifatida namoyon bo`ladi.

Estetik his-tuyg`u, idrokka tarixiy o`zgaruvchanlik xususiyati xosdir. Aynan mana shunday o`zgaruvchanlik tufayli ular har bir davrda o`ziga xos xarakterga ega bo`ladi. Kishilarning estetik his-tuyg`ulari, idrokining rivojlanishiga ijtimoiy bilimlar taraq-

Qiyoti, madaniyatning rivojlanganlik darajasi. jamiyatdagi ta’lim - tarbiya tizimi kabi turli sotsial omillar muntazam ta’sir O`tkazib turadi. Estetik idrokning natijasi sifatida estetik kechinmalar paydo bo`ladiki, unda idrok etilayotgan ob’ektlar, hodisa, jarayonlar emotsional shaklda baholanadi. Estetik kechinmalar Darajasi idrok etilayotgan ob’ekgning qimmatiga, shaxsning sub’ektiv idealiga, didiga muayyan darajada bog`liq bo`ladi. Estetik baxolashda kishilar go`zallik-xunuklik, ulug`vorlik-tubanlik, fojeaviylik-kulgulilik kabi tushunchalar bilan ish ko`radilar. Estet hissiyotlar, kechinmalar, did va ideallar, ularning individual va gruppaviy ko`rinishlari estetik ongning birinchi tomonidir. Uning ikkinchi tomoni voqelikni badiiy obrazli anglashni ifodalaydi gan san’atdir. Estetik ongning bu ikki tomoni o`zaro bog`likdip San’at estetik hissiyotlar, did, ideallarning shakllanishida bosh rolni o`ynaydi.

Badiiy obrazlar, qahramonlarning kishilar xulqiga ta’siri tom ma’noda ulkan va beqiyosdir. Aynan mana shuni nazarda tutib yozuvchimiz A. Qahhor "Adabiyot atomdan kuchli...",-degan edi Haqiqatan ham shunday. Agar san’at asarlari fahsh, zo`rlik, g`ayri-insoniylik, adovat, nafrat tuyg`ularining o`sishiga xizmat qilsa o`zidan so`ng singan inson takdirlarini, buzilgan avlod va ma’naviy bo`shliqni qoldiradi. Bu har qanday atom bombasi portlashi natijalaridan ham xavfliroq va fojealirokdir. San’at asarlari ezgu g`oyalar, mehr-muhabbat tuyg`ulari bilan yo`g`rilgan bo`lsa, do`stlik va qardoshlikni tarannum etsa, ma’naviy yuksalish uchun xizmat qiladi, hushyorlikka, faollikka chorlaydi.

Siyosiy ong jamiyat rivojlanishining ancha yuqori bosqichida, jamiyat siyosiy tizimining qaror topa borishi va siyosatning faoliyat sohasi sifatida paydo bo`lishi bilan bir vaqtda yuzaga kelgan. Demak, siyosat va siyosiy ong o`zaro uzviy bog`liqdir. Siyosat ongli, maqsadga qaratilgan faoliyat turi ekan, unga ijtimoiy ongning muayyan shakli mos keladiki, unga siyosiy ong deyiladi. Dsmak, siyosiy ong davlat hokimiyatiga, ijtimoiy guruhlar, millatlar, siyosiy institutlar va muassasalar faoliyatig`a bo`lgan munosabatlarni ifoda etuvchi kayfiyatlar, tasavvurlar va qarashlar, e’tiqodlar majmuidir.

Siyosiy ongda davrning. mamlakatning eng chuqur muammolari o`z ifodasini topadi. Zero, kishilarni siyosiy muammolar, voqealar doimo o`ziga tortadi, diqqatini jalb qiladi.

Siyosiy ong o`zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, u ijtimoiy guruxdarning iqtisodiy manfaatlari bilan o`zaro bog`liq. Ikkinchidan, siyosiy ongning o`ziga xosligi davlat va hokimiyat masalalari bilan chambarchas bog`liq bo`lsa, uchin-chidan, jamiyat hayotiga va ijtimoiy ongning boshqa shakllariga ustun darajada ta’sir qila olishida ko`rinadi.

Siyosiy ong bir butun, yaxlit hodisa sifatida nisbatan murakkab ichki strukturaga egadir. Birinchi navbatda siyosiy ongning darajalariga va shakllariga bo`linishini qayd etish lozim. Siyosiy ongning kundalik-amaliy va g`oyaviy-nazariy darajada ajratish mumkin. Kundalik-amaliy siyosiy ongda kundalik tasavvurlar shakllangan an’analar, odatlar elementlari hukmron qiladi. Kundalik-amaliy siyosiy ongda nazariy formalar, tushunchalar, falsafiy kategoriyalarga deyarli o`rin bo`lmaydi. Unda vokelik amaliy, foydalilik nuqtai nazaridan tushuniladi va baholanadi.

Siyosiy ongning yuqoriroq darajasi g`oyaviy-nazariy ongdir. Mohiyatan siyosiy mafkuragina sof nazariy xarakterga ega. CHunki u muayyan ijtimoiy guruhlar, jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan xolda dasturlar, doktrinalar, ideallar, boshqacha aytganda,

siyosiy voqelikning kontseptual ifodasini yaratadi. SHuning uchun ham odat-da g`oyaviy-nazariy siyosiy ongni ishlab chiqish bilan nazariyotchilar, siyosiy va ijgimoiy fanlar. siyosiy institutlar va muassasalar shug`ullanadilar.

Siyosiy ong shakllarini turli asoslarga ko`ra farqlash mumkin. Asos sifatida siyosiy ongning sub'ekti olinadigan bo`lsa, shaxs, guruh millat va fuqarolik (umumdavlat) siyosiy ongini farutash mumkin. Ayni paytda yo`nalishiga ko`ra demokratik va nodemokratik siyosiy ong shakllarini ajratish mumkin. Bunday holda totalitar, avtoritar, byurokratik siyosiy ong shakllari nodemokratik siyosiy ongning ko`rinishlari sifatida chiqadi. SHu bilan birga mavjud siyosiy tuzumni, amalga oshirilayotgan siyosatni tan oluvchi-xayrixoxlik va muxolifiy siyosiy ong shakllarini ko`rsatish mumkin. Siyosiy ongning falsafiy masalalarini biz "Siyosat falsafasi" mavzusida ko`rib chiqamiz.

Huquqiy ong kishilar, ijtimoiy guruhlar, millatlar, jamiyatning qonunchilikka bo`lgan munosabatini ifodalovchi kayfiyatlar, tasavvurlar, qarashlar, g`oyalar majmuidir. Xuquqiy ong normativ ongdir. U ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turish zaruriyati tufayli paydo bo`ladi. Huquqiy ongda jamiyatda qabul qilingan normalar gavdalanadi. Ayni paytda, huquqda huquqiy ong o`z ifodasini topadi. Huquqiy ong qanchalik chuqur bo`lsa, ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishga yo`naltirilgan xuquqiy normalar shunchalik to`g`ri, to`liq va qamrovli bo`ladi. Ayni paytda, huquqning amal qilishi, Qo`llanilishi va unga rioya qilinishi huquqiy ongga bog`liqtsir. Huquqiy ongning pastligi eng to`g`ri qonunlarning amal qilishini ham yo`qqa chiqarishi mumkin.

Huquqiy ongning xususiyatlari haqida gap ketar ekan, uning o`zgaruvchan ekanligini ta'kidlash zarur. O`zgarib turuvchi ijtimoiy jarayonlarni tartibga solib turish zaruriyati, ayni paytda mavjud huquqiy aktlarning nisbatan o`zgarmasligi, barqarorligi har doim muayyan huquqiy bo`shliqni yuzaga keltirib turadi va jam uni to`ldirish yo`llarini izlaydi. Bu izlanishlar natijasi odatda avvalo, huquqiy ongda o`z ifodasini topadi, so`ngra esa huquq faktlarga ko`chadi.

Huquqiy ongning shakllanishida ta'lim-tarbiya tizimining ommaviy axborot vositalarining roli nixryatda katta. Aynan sistemali targ`ibot-tashviqot jarayonigina kishilarga o`z haq-huquqda rini tanishga, kundalik hayotlarida undan to`liq va to`g`ri foydala-na olishlariga imkon yaratadi.

Demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini yaratayotgan O`zbekiston uchun bu jarayon, ayniqsa, muhimdir. CHunki yuksak huquqiy ong demokratik jamiyatning asosi, huquqiy tizim etukligining muhim ko`rsatkichidir. Rivoj topgan huquqiy ong xilma -xil ijtimoiy jarayonlarning tartibga solinishiga, jamiyatning bir butunligini va mavjud huquq-tartibotning mustahkamligini ko`rsatuvchi omil hisoblanadi. SHuning uchun ham respublikamiz Oliy Majlisi 1997 yilning 29 avgustida "Jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish bo`yicha Milliy Dastur"ni qabul qilganligi bejiz emas. Dasturda ko`zlangan maqsadga erishish uchun huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish, barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar, fuqarolar tomonidan qonun va huquqqa hurmat bilan munosabatda bo`lishga erishish, aholining hukuqiy savodxonli-gini oshirish vazifalari belgilangan.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida ijtimoiy ongning axloqiy, diniy, estetik, siyosiy, huquqiy, fan, falsafa kabi shakllarining hammasi ham bo`lmagan. Jamiyatda muayyan ehtiyojlar va ma'naviy ishlab chiqarishning yangi sohalari paydo

bo`lishi bilan ijtimoiy ongning yangi shakllari ajralib chiqa boshlaydi.

SHu nuqtai nazardan qaraganda, yuqorida aytilgan ijtimoiy ong shakllarini tugal deb hisoblash xato bo`lur edi. Jumladan, so`nggi paytda ko`pgina ilmiy adabiyotlarda ekologik ongni ijtimoiy ongning mustaqil shakli sifatida ajratishga urinish odat bo`layotganligini ta'kidlash zarur.

Axborot dunyosining globallashuvi va uning ijtimoiy ongga ta'siri katta bo`lmokda. XX asr axborot uzatishga xizmat qiladigan texnik vositalarning keskin va shiddatli taraqqiy etishiga yo`l ochdi. Ayni paytda, ular madaniyat rivojiga ta'sir qilish imkoniyatlarini ham o`stirib yubordi. SHundan kelib chiqqan holda, madaniyat yutuqlarini tezlik bilan ommalashtirish, tarqata olish imkoniyati yaratilmoqda. Planetaning turli burchaklarida dunyoga kelayotgan madaniyat namunalarini millionlarning ma'naviy ozig`iga aylantirayotgan ommaviy axborot vositalari - gazeta, jurnallar, radio televidenie, videotexnika, kino kabi hodisalarning roli 2 jarayonda katta bo`lmoqda, axborot soxasida globallashuv sodir yo`lganligini ko`rsatmoqda. Ammo bu jarayonning intensivlashuvi va globallashuvi yuqoridagi kabi ijobiy jihatlar bilan bir qatorda ayrim salbiy natijalarini ham namoyon etmokda. Bu tor guruhiy, g`arazli iqtisodiy, siyosiy, geostrategik manfaatlaridan kelib chikkan holda, kishilar dunyoqarashi, ijtimoiy ongga ta'sir qilish-ning yangidan-yangi yo`llari va vositalaridan foydalanishga urinishda ko`rinmoqda.

Aytish mumkinki, bugungi kunda kishilar ongida hukmronlikka erishish, ularning tafakkur tarzi va qadriyatlarini o`ziga bo`ysundirish turli ko`rinishlardagi maqsadlarga erishishning asosiy yo`li bo`lib qolmokda. Ana shunday vaziyatda kishilar ongida sobitlik, Vatanga muhabbat tuyg`usi, o`z yurtining ertangi kuniga ishonch ustuvor bo`lmog`iga erishish muxim ahamiyat kasb etadi.

3. Bilish falsafasi

Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlarini o`rganish falsafa tarixida muhim o`rin egallab kelmoqda. Inson o`z bilimi tufayli borliq, tabiat, jamiyatni va nihoyat, o`z-o`zini o`zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uni amalga oshirishning eng samarali usullarini tadqik etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. SHu bois ham falsa faning bilish masalalari va muammolari bilan shug`ullanuvchi maxsus sohasi - gnoseologiya vujudga keldi.

Inson, uning ongi va bilimi to`g`risidagi fanlar orasida gnoseologiya va epistemologiya alohida ajralib turadi. Ularning birinchisini umumiy bilish nazariyasi yoki bilish falsafasi deyish mumkin. U tirik jonzotlardan faqatgina odamzodga xos xususiyat - bilishning tabiati va imkoniyatlari, inson bilimining voqelikka munosabatini o`rganuvchi, bilimning haqiqiyligi va ishonchliligini aniqlash yo`llari, usullari to`g`risidagi falsafiy fandir. "Gnoseologiya" grekchaso`z bo`lib £gnosis" - bilish, "logos" nazariya, ya'ni bilish nazariyasi, bilish to`g`risidagi ta'limot ma'nolarini anglatadi. "Gnoseologiya" atamasi falsafaga nisbatan yaqinda (1854 yilda), shotland faylasufi J. Ferer tomonidan kiritilgan bo`lsada, biroq u to`g`ridagi bilimlar Zardo`sht, Suqrot, Aflotun va Aristotel davrlaridayoq shakllana boshlagan edi.

"Olam va odam" tizimida dunyoni anglash, sub'ekt va ob'ekt o`rtasidagi munosabatlar dialektikasi gnoseologiya shug`ullanadi-gan masalalar ko`lamini belgilaydi. Bu masalalar insonning bilish faoliyatidan iborat eng umumiy mavzuni

tashkil qiladi. Gnoseolo-giyada "ong", "tafakkur", "bilish", "haqiqat", "sub'ekt" va "ob'ekt", "modtsiylik va ma'naviylik", "inson" va "kompyuter", "hissiylik" va "ratsionallik", "nazariya" va "amaliyot" kabi tushuncha va kategoriyalarning mazmun - mohiyati bilan bog`liq ko`plab masalalar ham mavjud. Ushbu tushunchalarning har biri moddiy, ruhiy-ma'naviy hodisalarni aks ettirishga asoslanadigan o`ziga xos dunyoqarash muammolari bilan ham bog`liqdir. Ularning barchasi "haqiqat" tushunchasiga u yoki bu tarzda aloqadordir. Gnoseologiya kundalik yoki maxsus, ilmiy yoki badiiy faoliyatligidan qat'i nazar, insonning bilish faoliyatidagi umumiylikni o`rganadi.

Agar gnoseologiya umuman bilish haqidagi ilm bo`lsa epistemologiya asosan ilmiy bilish to`g`risidagi fandir. Gnoseologiyani ba'zi falsafiy asarlar, jumladan, ruscha "Falsafiy entsiklopedik lug`at"da yozilganidek, epistemologiya (ilmiy bilish nazariyasi) bilan aynanlashtirish maqsadga muvofiqemas. Hozirgi zamon G`arb falsafiy adabiyotlarida ham bunday aynanlashtirish hollari uchraydi. Bu tushunchalar bir-biridan muayyan farqlarga ham ega. Epistemologiya asosan ilmiy bilish tahlili bilan shug`ullanadi, dunyoni ilmiy bilish esa kundalik, badiiy, diniy va boshqa turlardagi bilishda uchramaydigan bir qator o`ziga xos xususiyatlarga ega.

Masalan, ilmiy faoliyatda amalga oshiriladigan bilish protsedura

operatsiyalari, abstraktsiyalarning paydo bo`lish mezonlari va ilmiy usullari bilish nazariyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Gnoseologiyada esa nafaqat ilmiy bilish, balki umuman insonga xos bilish bilan bog`liq barcha masalalar tahlil qilinadi.

SHu bois ba'zi olimlar ilmiy bilish nazariyasi sifatida epis-temologiyani gnoseologiyaning o`z mavzu va muammolariga ega bo`lgan maxsus bo`limi sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiq, degan pozitsiyada turadilar. Epistemologiyaga oid umumiy tushunchalar qato-riga empirik va nazariy bilish darajalari, ilmiy tafakkur tar-zi, ilmiy bilish usuli va shu kabilar ham kiradi. Ularning barcha-si o`z navbatida, gnoseologiyaga oid tushunchalar hamdir. SHuning-dek, sub'ekt-ob'ekt munosabatlarining xilma-xil jihatlari qatori ilmiy bilishdan tashqari, kundalik, oddiy bilish xususiyatlari, inson bilish faoliyatining boshqa turlari va masalalari ham gno-seologiyaning ob'ektlari qatoriga kiradi.

Gnoseologiya va ontologaya uzviy bog`liq. Ontologiya borliqto`g`ri-sidagi umumiy ta'limot, borliqning fundamental asoslarini, umumiy mohiyatini va mavjudlik kategoriyalarini o`rganuvchi fal-safaning bo`limi sifatida gnoseologiya masalalari uchun asos, man-ba bo`lib hisoblanadi. Gnoseologiyaning barcha tushunchalari va ta-moyillari o`zining ontologik talqiniga, aynan shu ma'noda esa ontologik jihatiga, asosiga ega. Uning mazmun-mohiyati ontologiya singari taraqqiyot tamoyiliga asoslanadi. Ayni paytda determi-nizm (sababiylik) va taraqqiyot moxiyatini aks ettiradigan onto-logik kategoriyalar, o`z navbatida, mantiqiy va gnoseologik funk-tsiyalarga ham ega.

Hozirgi davrda tafakkur psixologiyasida "sun'iy intellekt"-ni o`rganuvchi soha vujudga kela boshladi. Ushbu ibora yordamida inson tomonidan ilgari echilgan masalalarni hal qila oladigan EHMni dasturiy ta'minlash ifodalanadi. Avtomatlashgan o`qish di-daktikasi paydo bo`ldi. "Sun'iy intellekt" ilmiy, texnik, badi-iy ijod sohalariga qam kirib boryapti.

Falsafiy bilish nazariyasi esa ko`p hollarda bilish faoliyati-dagi shu hodisalarni bir oz boshqacharoq holda, ya'ni bilishning ob'ektiv reallikka, haqiqatga erishuv

jarayoniga munosabati nuq-tai nazaridan o`rganadi. Gnoseologiyada asosiy kategoriya "haqiqat" tushunchasidir. Psixologiyada bu bilan bog`liqtushunchalar, sezgi-lar, intuitsiya, idrok, shubhalar inson xulq-atvori, hayoti, faoli-yati bilan bog`liq ruhiyat shakllari sifatida ifodalanadi. Gnoseo-logiyada esa ular haqiqatga erishuv vositalari, bilish qobiliyati eki haqiqat bilan bog`liq bo`lgan bilimning mavjudlik shakllari tarzida namoyon bo`ladi.

Hozirgi zamon falsafasi boshqa fanlar tomonidan o`ziga xos nuqtai nazardan o`rganiladigan bilish faoliyati hodisalarini tax lil qilar ekan, ularning ma’lumotlariga e’tiborsiz munosabatda bo`lmaydi. Aksincha, ularga maxsus-ilmiy (psixologik, fiziolo gik, tarixiy-madaniy) asos sifatida qaraydi.

Olamning mohiyati, uning chekliligi yoki cheksizligi, rivojlanishi, makon va zamon vaqt, inson, uning mohiyati singari falsafiy muammolar qatorida odamni o`rab olgan narsalar, munosabatlar, jarayonlarni bilish bilan bog`liq bo`lgan savollar ham muhim o`rin tutadi. "Dunyoni bilib bo`ladimi yoki yo`qmi". Bu falsafiy dunyoqarash dastlabki qadamlarini qo`ygan davrlardayoq paydo bo`lgan an’anaviy savoldir. Ammo bu savol falsafaning yagona masalasi emas, balki ko`plab muammolarning biridir. Ammo aynan shu shakldagi savolning an’anaviyligi, go`yoki dunyoni bilish mumkin emas deb hisoblab kelgan faylasuflar ham ko`p bo`lganligi to`g`risidagi noto`g`ri tasavvurni uyg`otadi.

"Dunyoni bilish mumkin yoki mumkin emas"ligi to`g`risidagi zid-diyatli holatda haqiqatan ham hal qilib bo`lmaydigan muammo bormi? Aftidan, yo`q. Agar unda biron-bir ziddiyat aks etsa ham, o`z navbatida, uning mazmunini ifodalaydigan maxsus ma’noda qarama-qarshilik bo`lishi mumkin, xolos. Dunyoni bilish mumkinligi muammosi gnoseologiyada quyidagicha ifodalanadi: bizni o`rab turgan olam to`g`risidagi qarashlarimiz ushbu olamning o`ziga qay darajada mos keladi. Bizning tafakkurimiz olam va borliqni haqiqiy bilishga qodirmi. Biz olam to`g`risidagi o`z tushuncha va tasavvurlarimizda borliqni to`g`ri aks eggira olamizmi? Masalaning bu tarzda qo`yilishi narsalar, jarayonlar, vaziyatlarni bilishning murakkabligi, ularning nafaqat tashqi, balki ichki mohiyatini nazarda tutganligi uchun juda ham nozikdir. U hodisalarning tashqi tomonlarini, judadeganda "ikkilamchi" sifatlarini bilish bilan birga, ko`p hollarda, ularning o`zida yashirin jihatlarini, ichki sifatlarini ham nazarda tutadi. SHuning uchun masalaning mohiyati dunyoni bilish mumkinligini oddiy aniklashdangina iborat emas, balki dunyoni qanday darajada bilish mumkinligi masalaning muhim tomonidir. Aynan ana shu masala haqiqiy falsafiy muammo bo`lib, sog`lom fikrlay oladigan faylasuflar uning mohiyatini bilmasligi mumkin emas.

Falsafa tarixida bu borada ikki xil pozitsiya paydo bo`lgan: olamni bilish mumkin (gnostitsizm) va bilish mumkin emas (agnostitsizm). Qizig`i shundaki, birinchi pozitsiya tarafdorlariga xamma vaqt ham muammoning murakkabligi anglab etish nasib qilavermagan. CHunki, "Dunyoni bilish mumkin " degan qarash tarafdorlarining aksariyati uchun o`z fikrini isbotlash talab qilinmaydi. Go`yoki, bu borada masala o`z-o`zidan aniqlash tuyuladi. Ammo boshqacha fikrlaydiganlar o`z pozitsiyasi to`g`riligini doimo isbotlashi, asoslashi zarur bo`lgan. Aynan ana shu zaruriyat bilish, uning darajalari bilan bog`liq ko`pgina masalalarni o`rganish extiyojini dunyoga keltirgan. Bu esa, o`z navbatida, bilishning qator gnoseologik

muammolarini echish, bir-biridan qiziqarli xulosa va natijalarga erishish imkonini bergan. Xullas, gnoseologiyaning fan sifatidagi taraqqiyotiga gnostiklar ko`proq foyda keltirganmi yoki agnostiklarmi, degan masalaga dialektik yondashgan ma’qul.

Xo`sh, umuman olganda **agnostitsizmning o`ziga xos xususiyatlari** nimadan iborat? Uning belgilovchi xususiyati qanday? Ba’zi olimlar agnostitsizm uchun olamni mutlaqo bilish mumkin emasligi to`g`risidagi fikr xarakterli, deya ta’kidlaydilar. Ko`pgina o`quv qo`llanmalarida "agnostitsizmning asosiy tezisi - bilish mumkin emasligi", deya ta’kidlangan. Agar shunday bo`lsa I. Kant, I. Myuller, G. Gelmogolts, A. Puankare, T. Geksli, K.Pirson yoki G. Bashlyar kabi olimlarning agnostik fikrlariga nisbatan qanday qarash kerak. Bizningcha, ulardagi agnostitsizmni umumnazariy ma’noda tushunish mumkin. Lekin bunda ushbu olimlarning dunyoni ilmiy-nazariy bilish muammolarini hal qilishga katta hissa qo`shganini aslo unutmaslik lozim. Agar biz o`z asarlarida agnostitsizmga moyil bo`lgan faylasuflar ijodining haqiqiy mag`zini chaqa olmasak, ularning "bilish mumkin emas", degan fikri ostida bilishni butunlay inkor etmaslikdan tortib, inson bilimi cheklanganligi, olam va uni bilishning cheksizligi to`g`risidagi qarashlarini to`g`ri anglay olmasak, masalaning mohiyati noanikligicha qolaveradi. Bir o`ylab ko`raylik, nahotki o`z davrining eng zukko va bilimdon faylasufi I. Kant "Olamni mutlaqo bilib bo`lmaydi, bunga intilishning keragi yo`q!" qabilidagi dogmaga yopishib olgan bo`lsa. Yo`q, Kant inson oqil, aqlli jonzot ekanligiga, u olamni bilishi mumkinligiga sira shubha qilmagan. Ammo bu bilimning chegarasi qanday, olamni Qay darajada bilish mumkin, degan masalada keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan. SHu tariqa "Narsa o`zida" deb atagan dunyoni bilishning ko`p jixatlarini o`rgangan, ko`plab qimmatli falsafiy xulosalarga kelgan. Hozirgacha bu sohaga kirishgan mutaxassislarning Kantga murojaat qilishi, uning ijodini chetlab o`ta olmasligining siri ana shunda.

Agnostitsizmning narsa va hodisalarni bilish mumkinligini butunlay inkor etishi to`g`risidagi tasavvurni hozirda ham, o`tmishda ham uning keng tarqalgan shakllariga nisbatan dogmatik tatbik qilish mumkin, xolos. Aslida esa falsafadagi agnostitsizm bilishning murakkab hodisa ekanligidan darak beradi.

Agnostik kontseptsiyalar fan va falsafada bilishga nisbatan sodda - primitiv nigilizm tufayli emas, balki moddiy sistemalar tabiatining zildiyatli va uni sub’ekt ongida aks ettirish jarayonining nihoyatda murakkab ekanligi bilan bog`liq qarashlar to`qnashuvining oqibatidir.

Hozirgi zamon falsafiy bilish nazariyasi hodisalarni bilish mumkinligi masalasida agnostitsizm bilan bog`liq bahsli jihatlarga ega emas. Olimlar o`rtasida olamni barcha aloqadorliklari va bog`likliklari holida bilish mumkinmi, degan muammo yuzasidan ham tafovut ilgarigitsek bir-biridan mutlaqo farq qiladigan qarash mavjud emas. Tafovut boshqa narsada - moddiy sistemalar mohiyati to`liq bilinadimi-yo`qmi, degan masalani qo`ygan. Tafovut hodisa "fenomen"iningtabiatini talqin qilishda, ya’ni hodisalar mohiyat bilan bevosita aloqadormi-yo`qmi, hodisalar orqali moddiy sistemalar mohiyati to`g`risida ishonarli bilimlarni hosil qilish mumkinmi-yo`qmi, degan masalada ham saqpanmoqda. Garchi agnos-tiklar mohiyatning mavjudligi yoki mavjud emasligini e’tirof etishlari, agar e’tirof etsalar mohiyatning hodisa bilan bog`liqligini qanday tasavvur qilishlari turlicha bo`lsa ham, predmetlar mohiyati to`g`risida ishonchli bilimlar hosil qilish mumkinligi to`g`risida inkor javobni beradilar.

Zamonaviy bilish falsafasi nuqtai nazaridan quyidagi ta’rif asos sifatida qaralishi

mumkin: agnostitsizm - olamni, voqeliktsagi moddiy va ma’naviy sistemalar mohiyatini, tabiat va insoniyat qonuniyatlarini ishonarli bilish mumkinligini inkor etuvchi ta’limotdir.

Aslida esa Leybnits, Gegel kabi ko`plab idealistlarning falsafiy kontseptsiyalari o`zining nazariy-gnoseologik xulosalariga ko`ra agnostik asosga ega emas. Ammo idealizmda agnostik mazmunli oqimlar ham bor. Bunda dunyo to`g`risidagi sezgilarni va tasavvurlarni sub’ekt sezgilari kompleksining cheksiz ko`pligi sifatida mutlaqlashtiruvchi sensualistik oqimlar ko`zga tashlanib turadi. Dj. Berkli falsafasi bunga yaqqol misol bo`la oladi.

Boshqa tomondan, har qanday monizm, materializm yoki plyuralizm ham agnostitsizm degani emas. Kolaversa bu oqimlarning biri doimo bilish tarafdori, boshqasi unga mutlaqo qarshi deb ham bo`lmaydi. Falsafa faqat idealizm va materializmdan iborat bo`lmagani singari, faylasuflardan biri albatta agnostik, ikkinchisi esa gnostitsizm pozitsiyasida turadi, deyish metodologik jihatdan to`g`ri bo`lmaydi. Masalan, ba’zi tabiatshunos materialistlarda (mas, T. Geksli) agnostitsizm ko`zga aniqtashlanib turadi, bu esa agnostitsizm bilan idealizm orasida abadiy va mutlaq bog`liklik borligini ko`rsatmaydi.

Agnostik kontseptsiyalar ko`plab asoslarga ko`ra bir-biridan farq kiladi: materialistik va idealistik agnostitsizm, sensualistik va ratsionalistik agnostitsizm, YUm, Kant va boshqa faylasuflarga xos agnostitsizmlar mavjud. Bundan tashqari, etik, ieroglofik, fiziologik, kibernetik kabi agnostitsizm shakllari ham bor.

Falsafiy metodologiya jihatidan agnostitsizmni va uning dunyoqarash sifatidagi xususiyatlarini tahlil qilish shuni aniq ko`rsatadiki, gnoseologiyada ko`pincha "Olamni bilish mumkinmi? tarzidagi savol asosiy muammo sifatida qaraladi. Ko`pgina agnostitsizm vakillari esa muammoni "Men nimani bila olaman" yoki "Olamni qanday darajada bilish mumkin?», deya tasavvur qilishadi. Aynan ana shu yo`nalishda masalani tushunishga intilish bilish falsafasiga ko`plab foydali mulohaza va xulosa berganligini ta’kidlash lozim. SHu bilan birga, agnostiklarning bilish, uning imkoniyatlarini, vosita va sharoitlarini tushuntirishlari falsafa tarixi davomida gnoseologik optimizm pozitsiyasi negizida vujudga kelgan bilish to`g`risidagi nazariya va ta’limotlarning ahamiyatini aslo tushira olmaydi. F.Bekonning "YAngi organon" (1620), R. Dekart tomonidan yozilgan "Metod haqida mulohazalar" (1637), Lokk qalamiga mansub "Inson aqli to`g`risida tajriba" (1690) kabi asarlarda ko`plab gnoseologik masalalarning echimi murakkab ekanligi ta’kidlangan. Qolaversa 3. Freyd, N. Viner asarlarida ham bu borada nihoyatda qiziqarli fikrlar bor. Ushbu asarlarni o`rganish hozirgi zamon gnoseologiyasi masalalari bilan shug`ullanuvchilarning dolzarb vazifalaridan biridir.

Umuman agnostitsizm tarafdorlarining dalillari xilma-xil va bilish to`g`risidagi xulosalari turlicha ekanligini yuqoridagilar ko`rsatib turibdi. Xullas, bu borada xilma-xil qarashlar borligi ko`zga yaqqol tashlanadi. Bunday ziddiyatli holatlar xrzirgi zamon bilish nazariyasiga ham xos. "Inson bilishga qodir" degan muammo hozirgi zamon gnoseologiyasi muammolarining o`zagini tashkil qiladi. "Insonning bilish qobiliyatlari qanday?", "Haqiqat bilan yanglishishni farqlash mezonlari nimalardan iborat?", "Ilmiy bilish imkoniyatlari qay darajada" kabi muammolar ham gnoseologiyaning zamonaviy masalalari qatoriga kiradi. Ko`p asrlik falsafiy tafakkur tarixi "Haqiqat nima?", "Unga qanday qilib erishish mumkin?" degan masala gnoseologiyaga asos bo`lganligi va bo`lib

kelayotganligidan guvoxlik beradi.

4. Falsafada haqiqat muammosi.

Haqiqat bilish falsafasining eng muhim muammosi asosiy masalasidir. Bilish nazariyasining barcha falsafiy muammolari haqiqatga erishishning vositalari va yo`llari bilan (hissiylik va aqliylik, intuitivlik va diskursivlik kabilar) yoki haqiqatning mavjudlik shakllari (dalil, gipoteza, nazariya va shu kabi tushunchalar), bilish metodlarining tuzilishi kabilar bilan uzviy aloqadordir. Bularning barchasi ushbu muammoni, uning echimini goh konkretlashtiradi, gohida esa murakkablashtiradi yoki mavhumlashtiradi.

Falsafa tarixida, umuman falsafada haqiqatni tushunishda turli xil yondashuvlar mavjud. YA'ni, "haqiqat - bilimlarning voqelikka mosligi". "Haqiqat - bilimlarning tajribada isbotlanganligi". "Haqiqat - bilimning foydaliligi, uning samaradorligi" va hokazo.

Xaqiqat bilimning voqelikka muvofiqligidir, degan dastlabki xulosa haqiqatning klassik kondeptsiyasiga xos asosiy fikrdir. Bizningcha, bu haqiqatning kontseptsiyalari orasida eng qadimiysi bo`lib, haqiqatni nazariy tadqiq etish aynan undan boshlangan, deyish mumkin. Haqiqatni bunday tarzda dastlabki o`rganish Aflotun va Aristotel tomonidan amalga oshirilgan edi. Xorazmiy va Forobiy, Beruniy va Ibn Sino, F. Akvinskiy va P. Gol-bax G. Gegel va L. Feyerbaxlar, shuningdek XX asrning ko`plab faylasuflari ham haqiqatning ushbu klassik kontseptsiyasiga qo`shilishgan. Uni agnostiklar ham inkor etmaganlar. Bu fikr tarafdorlari orasida metafiziklar ham, dialektiklar ham bor.

Ba'zan haqiqatning klassik ta'rifi, ya'ni bilish olamning adekvat in'ikosidir, degan xulosa tavtologiyadan iborat deyishadi. Bizning fikrimizcha, bu fikr intuitiv jihatdan tushunarli bo`lgan so`zlarni anglashda muayyan ahamiyatga ega bo`lganligi uchun ham unga qo`shilish mumkin. Ammo haligacha haqiqatning ushbu ta'rifi o`z ahamiyatini yo`qotgani yo`q. Qolaversa, bu oddiy va sodda ta'rifda nihoyatda keng mazmun yashiringan.

"Adekvat" aks ettirish termini tafakkur obrazlariga qo`llanilganda izomorfizm va gomomorfizm tushunchalari yordamida masalaning mohiyatini konkretlashtirish mumkin. Ob'ektni bilish jarayonida paydo bo`luvchi tafakkur obrazini to`g`ri in'ikos ekanligi: 1) anglanayotgan ob'ekt bilan sababiy bog`lanishning aks etishi; 2) aks etishning anglanayotgan ob'ekt bilan izomorfik yoki gomomorfik munosabatida bo`lishi; 3) izomorfik yoki gomomorfik munosabatida bo`lgan ob'ekt. Har qanday to`g`ri in'ikos anglanayotgan ob'ekt bilan yuqorida ko`rsatilgan munosabatlarda bo`ladi va shuning uchun haqiqiy deb tavsiflanishi mumkin. "Xaqiqiy" degan sifat yuqoridagi xususiyatlari bilan farklanuvchi in'ikosni ifodalashning qisqa atamasi sifatida maydonga chiqadi. Haqiqatning an'anaviy ta'rifi qisqacha ana shular bilan izohlanadi.

Ko`pincha faylasuflar e'tirof qiladigan haqiqatning zamonaviy talqini o`z ichiga quyidagilarni oladi. Birinchidan, "borliq" tushunchasi, u qanday hosil bo`lganidan qat'i nazar bizning ongimizdan tashqarida mavjud bo`lgan, nafaqat narsa va hodisalar, balki ularda yashiringan mohiyatlardan ham tashkil topgan voqelik sifatida talqin etiladi. Ikkinchidan, "borliq" tushunchasiga sub'ektiv borliq ham kiradi, ya'ni unda ma'naviy

borliq qam aks etadi. Uchinchidan, bilish, uning natijasi - haqiqat, shuningdek ob’ektning o`zi ham insonning hissiy va amaliy faoliyatining uzviy birligi sifatida namoyon bo`ladi. Bunda ob’ekt amaliyot orqali anglashiladi. ya’ni uning mohiyati namoyon bo`lishi aks etgan to`g`ri bilim bo`lgan haqiqat amaliyot davomida hosil qilinadi.

To`rtinchidan, haqiqat qandaydir qotib qolgan narsa emas, balki u doimiy o`zgarib, boyib, rivojlanib boradi. SHu ma’noda, haqiqat jarayondir. Ushbu holatlar haqiqatni dialektik-realistik tushunishni dogmatik agnostitsizm, sub’ektiv idealizm va soxta mate-rializmga oid qarashlardan ajratib turadi.

Haqiqatning ta’riflaridan yana biri shunday: haqiqat ob’ektni biluvchi sub’ekt tomonidan u to`g`ridagi adekvat in’ikosdir. Biluvchi bilish ob’ektini o`z holicha, ongdan tashqarida mavjud bo`lgan narsa, hodisa. jarayon sifatida aks ettiradi. Uning ongidan tashqaridagi olam va uning shakllari biron bir tarzda aks etadi, tushuncha, hukm, xulosa shaklini oladi, inson bilimining tarkibiy qismiga aylanadi.

Haqiqatga xos bo`lgan muhim jihat unda ob’ektiv va sub’ektiv tomonlarning mavjudligidir. Bu borada ta’kidlash lozimki, haqiqat ayni paytda ham sub’ektda, ham sub’ektdan tashqaridadir. Avvalo, haqiqat har qanday holda ham sub’ektivdir. Negaki, u hech qachon inson va insoniyatdan tashqarida mavjud bo`la olmaydi. Haqiqatning ob’ektivligi esa inson tasavvurlarining haqiqiy ob’ektiv tashqi mazmuni insondan tashqarida ekanligini, uning insonga bog`liqemasligini anglatadi.

Haqiqat ob’ektiv bo`lishi bilan birga konkret hamdir uning konkretligi - bilimlarning narsa va hodisalarga tegishli bo`lgan aloqa va munosabatlarga bog`likligi, ular mavjud bo`ladigan, rivojlanadigan sharoit, joy va vaqt bilan uzviy aloqadorligidir. Konkretlik tamoyilini yuqoridagi atomistik gipoteza misolida ham ko`rish mumkin. YOki ko`p marta misol qilib keltiriladigan "Suv 100° da qaynaydi" degan fikr normal atmosfera bosimida (simob ustuni 760 mm. bo`lganda) to`g`ri va aks holda noto`g`ridir. Sotsial bilish sohasida bunga misollar nihoyatda ko`p. Insoniyat tarixining biron bir davri. Jamiyat yoki davlatda to`g`ri bo`lgan islohot yoki ijtimoiy o`zgartirish boshqa davr yoki davlatda ish bermasligi mumkin. Xuddi shuninguchun "Taraqqiyotning o`zbek modeli" bizning mamlakatimiz realligiga mos keladigan usul sifatida qaraladi. Holbuki, o`zga mamlakatlar ham o`tish davrini boshidan kechirgan, ammo ularning tajribasini bizga to`la ko`chirib bo`lmas edi. Ana shu sababdan ushbu o`zimizga xos va mos model ishlab chiqilgan. U hozirgi davrni ifodalaydigan model bo`lib, dogma emas, balki taraqqiyot davomida rivojlanib boradi.

Konkret haqiqat masalasida vaqt omiliga e’tibor berish zarur. Bu erda ob’ektning sub’ekt tomonidan aks ettirilayotgan paytidagi vaziyat va davr nazarda tutilmoqda. Agar "ob’ekt vaqti" yoki "sub’ekt vaqgi" o`zgarsa, unda bilim o`z konkretligini yo`qotishi mumkin. Mavhum (abstrakt) haqiqat yo`q, haqiqat hamisha konkretdir. Konkretlik ob’ektivlik bilan uyg`unlashib ketadi. SHu bilan birga, haqiqat tushunchasi bilimni yanada rivojlantirish nuqtai nazaridan fan taraqqiyotidan, ijod tushunchasidan ajralgan emas.

Haqiqatning uchta bir-biri bilan bog`liq jihati mavjud: borliq bilan bog`liqlik, aksiologik va praksiologik.

Xaqiqatning borliq bilan bog`likligi unda olamni narsa, moddiy substrat holatda ham, ma’naviy-ruhiy xrlatda ham qayd etishi bilan bog`likligidir. Bu bilishning, xususan haqiqatning ontologik jihati deyiladi. Borliqning o`zi esa sub’ektga berilgan

ob’ekt, ya’ni sub’ekt bilishi bilan bog`liq bo`lsa ham, lekin sub’ekt bilishidan tashqari turuvchi reallik sifatida tushuniladi. Haqiqat har qanday holatda ham o`z borlig`iga ega bo`ladi. Bu borliq moddiymi, ma’naviymi, haqiqat uchun buning farqi yo`q. Haqiqat borlig`i biz uni sezyapmizmi-yo`qmi, o`ylayapmizmi-yo`qmi, bundan qat’i nazar mavjuddir. SHubhasiz, haqiqat, avvalo, munosabat yoki borliq (mavjudlik) sifatida emas, balki ushbu munosabatda namoyon bo`ladigan yoki yashiringan hodisa sifatida tushuniladi. Inson odamzodga xos xususiyat, jihatlarni bilish uchun harakat qilayotganida ham aslida o`zini o`rganayotganini esdan chiqaradi. U hatto biron-bir narsa, masalan yangi yaratilayotgan dori kuchini o`zida sinab ko`rayotganida ham. o`z tanasini, undagi o`zgarishlarni go`yoki chetdan turib kuzatadi. Faqat insongina buni qila oladi, ya’ni ruhini tanasidan ajratib, o`zini tajriba ob’ektiga aylantira oladi. Bu boshqa masala, uni haqiqat doirasida emas, balki tana va ruh, ob’ekt va sub’ekt. moddiylik va ma’naviylikning o`zaro munosabati masalasi doirasida qarab chiqish o`rinli bo`ladi, deb o`ylaymiz.

O`zbek tilida "xaqiqat" tushunchasi gohida diniy teologik ma’noda ham ishlatiladi va «Haq» Xudo, Olloh mazmunini ifodalaydi. Buni mumtoz falsafa va adabiy merosimizda yaqqol ko`rish mumkin. Tarihda nom qoldirgan allomalarimizning aksariyati haqiqatga erishishni, avvalo, "Haq"qa, uning vasliga etish deb tushunganlar va talqin qilganlar. Tasavvufga mansub bo`lgan barcha olimu fuzalo, alloma va shoirlar ham ana shu dunyoqarash pozitsiyasida turganligi ma’lum. Garchand ular orasida boshqa masalalarda talqin va yondashuvlar turlicha bo`lsada, ushbu masalada deyarli ixtiloflar yo`q. Haqqa etish, erishishning usullari yo`llari, imkoniyatlari borasida o`ziga xoslik, turli-tumanlik bo`lganligi esa tabiiy hol sifatida qaralishi lozim.

Fan sohasida qilingan kashfiyotlar va ko`lga kiritilgan yutuqlar ham diniy-teologik dunyoqarash vakillari tomonidan haqqa erishish yo`lidagi faoliyat mevalari sifatida talqin qilinadi.

Haqning o`zi esa to`la-to`kis anglab bo`lmaydigan, sir-sinoatlarning cheki yo`q, odamzod uchun doimo "narsa o`zida" bo`lib qolaveradi. Biz ushbu qarashni sobiq ittifoq davrida qattiq qoralanganini bilamiz, unga ateistik pozitsiyadan turib baho berishning oqibati bugungi kunga kelib ayon bo`ldi.

Afsus bilan shuni qayd qilish kerakki, masalaning mohiyati uzoq yillar teologik jihatdan talqin etilmadi, agar o`rganilsa ham tor, diniy doirada o`rganildi, xolos. Ammo bu sohadagi fikr, mulohaza va xulosalar rasmiy falsafa doirasiga kiritklmadi hamda

ular aksariyat mutaxassislar uchun qorong`u mavzu bo`lib qolaverdi. Biz haqiqatga diniy-teologik yondashuvni butunlay rad qilish yoki uni to`la-to`kis qabul qilish lozim, degan fikrdan yiroqmiz. Ammo bunday yondashuvning mavjud ekanligini e’tirof etmoqchimiz, xolos.

Xaqiqatning aksiologik jihati uning axloqiy-etik, estetik va prakseologik maz-munga egaligini aks ettiradi, uni hayotning ma’nosi, inson amaliy faoliyati uchun qadriyatga egaligi bilan uzviy aloqadorligini ifodalaydi. Haqiqatda bunday mazmunning ifodalanishini biz yuqorida fizik X.A. Lorents hayoti va faoliyati bilan bog`liq bo`lgan misolda ko`rgan edik. "Haqiqat" tushunchasining o`zi o`zbek tilida "to`g`ri" so`zi bilan ham uzviy bog`liq. Aniq fanlarda, ayniqsa, matematikada haqiqat ana shu tu-shuncha orqali ko`proq ifodalanadi. Misol, masala, teoremalarning echimlari to`g`ri bo`lsa haqiqat deb qabul qilinadi. Axloqiy ma’noda esa haqiqat - yolg`onning

aksi, to`g`rilik, adolatli, aniq-ravshan bo`lgan barcha narsa va hodisadir. Hozir esa ushbu so`zga "to`g`ri" so`zi ham mos tushadi. Negaki, bu so`z ko`pincha haqqoniylik, adolat, odillik so`zlari bilan hamohang. Haqiqat ko`proq aiug va tafakkurga tegishli, to`g`rilik, ezgulik yoki yaxshilik esa axloq, irodaga taalluklidir.

Aslini olganda "haqiqat" tushunchasi keng ma'noda ob'ektiv haqiqatni ham, axloqiy haqlikni ham, aniq, to`g`ri natijani ham o`zida qamrab olgan. Haqiqatni topishga, unga erishishga intilish, uni insonlar o`rtasida qaror toptirish, ilm-fanning, ma'naviyat va axloqning muhim elementi, tarkibiy qismi hisoblanadi. Haqiqatni bilish, uni anglash, to`g`ri natijaga erishish insonni ma'nan boyitadi, unga amaliy faoliyati davomida aniqroq harakag qilishga yordam beradi.

Haqiqatning prakseologik jihati uning amaliyot bilan bog`liqlik tomonini o`zi ichiga oladi. Ushbu jihat qadriyat sifatida qaralganida haqiqatning amaliyot uchun foydaliligi namoyon bo`ladi. To`g`ri, bu uning aksiologik aspektiga kiradi, biroq uni nisbatan mustaqil jihat sifatida alohida ajratib talqin etish uchun ham ilmiy asoslar yo`q emas.

Avvalo bu jihat haqiqatning akl erkinligini ta'minlashi bilan bog`liq mohiyatida namoyon bo`ladi. Xar bir anglangan, bilib olin-gan haqiqat, ilmiy va amaliy faoliyat uchun yangi harakat maydonlari, imkoniyatlari ochilganligini ang`latadi. Haqiqatni bilishga intilayotgan inson istiqbolni ko`rayotib passiv holda kelajakni kutib o`tirmaydi, balki uni yaratadi yoki yaratishga harakat qiladi. SHu ma'noda haqiqat - hayotiy yaratuvchi kuch bo`lsa, yolg`on esa buzg`unchi kuch va g`oyalarga ozuqa beradi.

Haqiqatning amaliyotga yo`naltirilganligini ifodalaydigan praksiologik jihatda bilish nazariyasining bir qator boshqa masalalarini ham ko`rish mumkin. SHu ma'noda haqiqatning g`oya bilan narsa, moddiylik bilan ruhiylik o`rtasidagi muayyan mu-nosabatning xarakteristikasi sifatidagi ta'rifini ham e'tiborga olish mumkin. Bu jihat olamning xossalari to`g`risidagi ob'ektiv bilishni ham va uni amaliy foydalanish imkoniyatlarini sub'ektiv tushunishni ham qamrab oladi. Haqiqatga erish-gan inson narsaning xossalari to`g`risida aniq bilimga ega bo`lish bilan birga, undan amalda foydalanish to`g`risida ham ravshan tasavvurga ega bo`lmog`i darkor. Haqiqat amaliyotni yanada rivojlantirish uchun imkoniyati borligini, ung`a xizmat qilishga odam-larda ishonch hosil qilgandagina tan olinadi. Bundan quyidagi yana bir ta'rif kelib chiqadi: haqiqat inson ongining ob'ektiv reallikka mos bo`lgan va sub'ektiv maqsadlarga erishuvida nazariy asos bo`la oladigan ijtimoiy ahamiyatga molik mazmundir. Ko`rib turganimizdek "haqiqat" tushunchasiiing mazmunida prak-siologik jihatning mavjudligi, bu tushunchani o`ziga xos ta'riflashga asos beradi. Haqiqatni bunday tushunish, albatta, uning boshqa ta'riflari bo`lishi mumkinligini inkor qilmaydi. SHu bilan birga, bu ta'rifning cheklanganligini ham hisobga olish muxim. CHunki undagi "nazariy asos" termini doimo ham ish beravermaydi va bunda amaliyotdan tashqari bilimning ba'zi bir qatlamlari inkor etiladi.

'"Haqiqat" tushunchasining buta'rifi insonning borliqni hissiy bilishiga ham tegishlimi? - degan savolga ijobiy javobdir. Ma'lumki, sub'ekt tasavvurlari konkret yoki mavhum, mushohadaviy yoki fikriy xususiyatga ega. SHuning uchun bu borada unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: haqiqat konkret yoki mavhum, mushohadaviy va fikriy xulosalar, tushuncha va tasavvurlarning ob'ektga mosligidir.

Haqiqat inson tasavvurlarining shunday mazmunidirki, uning qadr-qimmati o`z sub’ektiga bog`liqemas. Ushbu fikrda, etarlicha izchillik bo`linganida, haqiqatning sinflarga bog`liq emasligi to`g`risidagi xulosa kelib chiqadi.

Ob’ektiv haqiqatning sinfdan va partiyaviylikdan tashqari ekanligi haqidagi xulosa sinflar yoki partiyalar manfaatlarini aks ettiruvchi bilimlar borligiga putur etkazmaydi. Haqiqat, ma’lum ma’noda, bilimlarning foydaliligi bilan ham bog`liq. U vaqt o`tishi bilan moddiy narsalar, ijtimoiy va ma’naviy jarayonlar mohiyati va ularning namoyon bo`lishini to`liqroq aks ettirishi bmlan o`zgarib, boyib boradi.

Masalan, Demokritning atomistik kontseptsiyasi ham, o`z asosiga ko`ra, sinfiy bo`lmasada, haqiqatdir. YA’ni, moddiy jismlar qaqiqatan ham atomlardan iborat. Garchand atomlar antik davrdagi tasavvurlardan o`zgacharoq bo`lib chiqqan bo`lsa ham, keyinchalik ularning bo`linuvchanligi tasdiqlangan bo`lsada, moddiy jismlarning atomlardan tuzilganini bugun hech kim rad etmaydi. XVII-XVIII asrlarga xos atomlarning bo`linmasligi to`g`risidagi mexanistik-metafizik qarashlar tanqid qilinayotganda, atomlarning butunligi va ularning haqiqatan x.am ma’lum sharoitlarda bo`linmasligi e’tibordan chetda qoldiriladi. Xususan, butun kimyo fani shunga asoslangan. Lekin, ushbu kontseptsiya amaliyotning sodda, oddiy, mu-ayyan darajasiga mos keladi. Tajribaning bunday darajasi va atomlar bo`linmasligi to`g`risidagi tasavvurning mutlaqlashtirilganligi boshqa masala. "Barcha jismlar atomlardan tashkil topgan, atomlar bo`linmasdir", degan Demokritcha fikrda "ma’lum sharoitlarda" degan shart aks etgan emas, balki qat’iy ravishda "atomlar barcha holatlarda bo`linmasdir" deya qayd etilgan. Fan taraqqiyotining keyingi davrlarida modtsiy jismlarning atomlardan tashkil topgani emas, balki atomni "bo`linmas" degan xulosa noto`g`ri ekanligi isbotlandi.

Ko`rinib turibdiki, ilmiy kontseptsiyalarga "haqiqat" yoki "xato" ma’nosida yondashganda ularning mazmunini. aks etayotgan mohiyati. hayotga mos kelishi. tamoyillarining o`zaro muvofiqligini e’tiborga olish lozim. Mabodo ana shukday muvofiqlik mavjud bo`lsa va muayyan sharoitlarda amal qilsa, bu bizning to`liq, ishonchli haqiqiy bilim bilan ish ko`rayotganligimizni anglatadi (xuddi Demokritning atomistik kontseptsiyasi singari). Aslini olganda, gnoseologik ma’noda, har qanday kontseptsiyaning o`zi haqiqat va xatoning birligidan iborat. Bunda necha foiz haqiqat, qancha xato va adashish bo`lganligi fan va amaliyotning keyingi rivojlanish darajasi nuqtai nazaridan aniqlanadi.

Xaqiqatning turli shakllari mavjud. Ular in’ikos ettirilayotgan ob’ektning xarakteriga, voqelik turlariga, ob’ektni to`liq o`zlashtirish darajasiga va boshqalarga ko`ra xilma-xil shakllarga bo`linadi. Dastlab in’ikos ettirilayotgan ob’ektning xarakteriga murojaat qilaylik.

Insonni o`rab turgan butun voqelik, birinchi yondashuvdayoq, moddiylik va ruxdan, ma’naviylikdan tashkil topgan yagona tizim ekanligi ayon bo`ladi. Bu tizimning birinchi jabhasi ham, ikkinchisi ham bilish jarayonida inson in’ikosi ob’ektiga aylanadi. Ular to`g`risida axborot turli xil haqiqatlarda ifodalanadi. Mikrodunyo, makrodunyo va megadunyo elementlari va sistemalaridan kelayotgan axborotlar oqimi **predmetli haqiqat deb** nomlash mumkin bo`lgan hodisani vujudga keltiradi. U keyinchalik fizik, biologik va boshqa haqiqat shakllariga ajraladi.

Bilish uchun asos bo`ladigan "tabiat" yoki "olam" tushunchasi bilan aloqador bo`lgan "ruh" yoki "ma’naviylik" tushunchasi, o`z navbatida, ekzistentsial va kognitiv

realliklarga ajraladi. Ekzistentsial reallik o`z ichig`a kishilarning ma’naviy-hayotiy qadriyatlarini. masalan, ezgulik, adolat, go`zallik kabi g`oyalar, sevgi, do`stlik kabi tuyg`ularni, shuningdek shaxslarning ruhiy dunyosini ham qamrab oladi. Har bir kishida ba’zi-ba’zida ezgulik to`g`risidagi tasavvurlarimiz qandaydir boshqa kishi ruhiy dunyosining haqiqatimi yoki haqiqati emasmi, unda o`zgalarning g`oya va qarash-lari qay tarzda aks etadi, degan savol tug`ilishi tabiiy hol. Agar bu yo`lda biz haqiqiy fikrga erishsak, aytish mumkinki, biz ekzistentsial haqiqatga duch kelgan bo`lamiz.

Individ tomonidan o`zlashtiriladigan ob’ekt to`g`risida u yoki bu xildagi qarash, xulosa, kontseptsiyalar bo`lishi mumkin. Diniy va tabiiy-ilmiy kontseptsiyalar ham ular qatoriga kiradi. Individ e’tiqodining u yoki bu diniy aqidalar kompleksiga mosligi yoki, masalan, nisbiylik nazariyasini bizning olamni tushunishimizga to`g`ri kelishi, shuningdek, evolutsiyaning xrzirgi zamon sintetik nazariyasi to`g`risidagi masalani e’tirof qilish haqiqatga to`g`ri keladi. Ularning har biriga nisbatan "haqiqiylik" tushunchasini qo`llash mumkin. Bu esa, o`z navbatida, **kontseptual haqiqat** mavjudligini e’tirof etishga olib boradi. Sub’ektning bilish usullari va vositalari, masalan, sistemali yondashuv, modellashtirish metodi va boshqalar to`g`risidagi tasavvurlar ham shunga o`xshash haqiqiy asosga ega. Bunda bizning oldimizda haqiqatning yana bir shakli - **operatsional haqiqat** paydo bo`ladi.

Qayd etilganlar bilan birga, iisonning bilish faoliyati turlariga xos xususiyatlar bilan izohlanuvchi haqiqat shakllari ham bo`lishi mumkin. Ushbu asosda ilmiy, kundalik, axloqiy va boshqa haqiqat shakllari mavjudligini e’tirof etish mumkin.

Asosiy tushunchalar.

Ong, ruhiyat, koinot, in’ikos, xissiyot, onglilik, ongsizlik, til va nutq, ijtimoiy ong, individual ong, bilim, bilish, haqiqat.

Takrorlash uchun savollar

1. Ong nima? Uning ijtimoiy-tarixiy xarakteri nimada?
2. Ong va ongsizdik munosabati qaiday?
3. Ijtimoiy ong nima?
4. Individual ong deganda nimani tushunasiz?
5. "Gnossologiya" va "epistemologiya" tushunchalari.
6. Hissiy bilish. Hissiyot, sezgi va tasavvurlar.
7. Ilmiy bilish uslubi va uslubiyati.
8. Ijtimoiy bilish nima?
9. Haqiqat nima?
10. Haqiqatning aksiologik jihati nimada?
11. Haqiqatning praksiologik aspekti.
12. Haqiqatning namoyon bo`lish shakllari.

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T. O`zbekiston 1992
2. Karimov I. A. YAngicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – T: O`zbekiston 5 – j, 1997
3. Karimov I. A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat,
4. Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo`lida – T, O`zbekiston 1999
5. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T, O`zbekiston 2000
6. M. Ahmedova Falsafa darslik O`z. fay. jam. T., 2006.
7. K. Nazarov Falsafa asoslari «O`zbekiston» T., 2005.
8. K. Nazarov Falsafa O`AJBIT T., 2004.
9. E. YUsupov Falsafa «SHarq» T., 1999.
10. K. Nazarov Falsafa «SHarq» T., 2004.
11. M. Ahmedova Osnovы filosofii «Uzbekistan» T., 1998.
12. I. Saifnazarov Kurs lektsii po filosofii «SHarq» T., 2004.
13. M. Safarboev, Z. Iskandarova Falsafa UrGU U., 2004.
14. B. To`ychiev Falsafa DITAF T., 2004.
15. K. Nazarov Falsafa (Ma'ruzalar matni) O`AJBIT T., 2000.
16. M. M. Xayrullaev Filosofiya lug`ati «O`zbekiston» T., 1976.
17. M. M Xayrullaev, K. Nazarov Falsafa: komusiy lug`at «SHarq» T., 2004.
18. I. Karimov Falsafadan va'zlar TDPU T., 2003.
19. J. Tulenov, Z. G`ofurov Falsafa TDPU T., 1997.

Katta o`qituvchi Jumaniyozov B.

7. Ma’ruza. Mavzu: Jamiyat falsafasi. (2 soat)

Reja:

1. Jamiyat tushunchasi va uning mohiyati
2. Jamiyat hayotida barqarorlik va beqarorlik
3. Taraqqiyotning o`zbek modeli – jamiyat rivojining tadrijiy rivojlanish kontseptsiyasi
4. Jamiyat va oila.

1. Jamiyat tushunchasi va uning mohiyati

Insoniyat azal-azaldan jamoa bo`lib yashaydi. Er sayyorasi uning abadiy makoni, umu-miy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma’noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o`tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog`liq barcha o`zgarish va jarayonlarni ifoda etadi.

SHu bilan birga, biror davlat hududidagi odamlar hayoti, tsivilizatsiyaning muayyan davrlaridagi turmushga nisbatan ham ushbu tushuncha qo`llanadi. Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo`lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a’zosi deb ataladi.

Jamiyat - tabiatning bir qismi, ya’ni ijtimoiy borliq bo`lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o`rtasida amal qila-digan juda ko`plab munosabatlar yig`indisi, degan turlicha ta’riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyat mohiyatini yangicha idrok etish ehtiyoji paydo bo`ldi. Prezident Islom Karimovning qator asarlarida jamiyat mohiyatini yangicha tushunishning uslubiy asoslari yaratildi.

Jamiyat moddiy va ma’naviy omillar birligidan iborat. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma’naviy hayot bir-biridan keskin farqlanar edi. Holbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog`liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo`lmagani singari, jamiyatning moddiy va ma’naviy jihatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo`yish mantiqqa ziddir. Prezident Islom Karimov asarlarida jamiyatning moddiy va ma’naviy manfaatlarini uyg`unlashtirish ijtimoiy taraqqiyot asosi ekani ta’kidlangan. Inson ma’naviyatini yuksaltirish orqaligina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. SHuning uchun ham hozirgi davrda aholi ma’naviyatini yuksaltirishga, milliy g`oya va mafkura asoslarini shakllantirishga katta e’tibor berilyapti. Zero, kishilar iqtisodiy jihatdan qashshoq bo`lgani uchun ilmsiz bo`lmaydi, balki, aksincha - ilmsiz bo`lgani uchun qashshoq bo`ladi. SHuning uchun yurtimizda xalq ma’naviyatini yuksaltirish orqali iqtisodiy farovonlikni ta’minlashga katta e’tibor berilyapti.

Kishilarni oila bo`lib, jamoa bo`lib uyushishga nima majbur qilgan, degan masala qadim zamonlardanoq ulug` mutafakkirlar e’tiborini jalb etgan. Bu masalani diniy tushunish uni ilohiy kuch, Xudo bilan bog`lab izohlashdir.

Dunyoviy qarashlarga ko`ra, odamlar o`zlarining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda yashashga, jamoa bo`lib birlashishga ko`nikkan. Kishilar

hayotiy tajriba, aql va tafakkur tufayli jamiyat bo`lib yashashning qulay, afzal va zarurligini tushungan. Bu jarayonda o`zaro munosabatlarga kirishgan kishilar ana shu munosabatlarni takomillashtirish, yanada rivojlantirish orqali ma’naviy kamolotga erishgan. Bu kishilarni bir-biri bilan yaqinlashtirgan, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish imkonini bergan.

Kishilik jamiyatining paydo bo`lishi to`g`risida turlicha ilmiy farazlar ilgari surilgan. Markaziy Osiyodan etishib chiqqan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar kishilik jamiyati paydo bo`lishi sabablarini insonning boshqa mavjudot-larga nisbatan ojizligi, birdamlik hissining rivojlanganligi bilan izoxlaganlar.

I. Kant jamiyatning vujudga kelishini axloqning shakllanishi bilan izoxlagan. Keyinchalik 3. Freyd bu g`oyani rivojlantirib, kishilik jamiyatining paydo bo`lishida axloqiy tabu muhim rol o`ynaganligini asoslashga harakat qilgan. Gegel esa insoniyat ja-miyatini vujudga kelishi mutlaq ruh taraqqiyotining mahsuli, deb hisoblaydi.

Sobiq mehnatkash xalq tarixniig haqiqiy ijodkoridir. Marksizm ta’limotida kishilik jamiyatining paydo bo`lishida mehnat hal qiluvchi rolv o`ynagan, insoniyat tarixi ma’lum ma’noda mehnat qurollarining takomillashuvi tarixidan boshqa narsa emas, degan qarashlar mavjud. Tarixiy tajriba, ijtimoiy amaliyot bunday qarashlar bir yoqlama va xato ekanligini ko`rsatdi. Aslida ma’naviyat (ruhiy olam, ong, tafakkur, axloq, imon, fan va h.k.) tufayli insoniyatning eng qadimgi ajdodlari aniq o`z xatti-hara-katlari, xulq-atvorini tartibga solgan, oila kishilik jamiyati paydo bo`lishiga birlamchi asoslaridan biri bo`lgan. Ong va tafakkurning rivojlanishi bilan inson mehnat qurollari yaratish, mod-diy ne’matlar ishlab chiqish vatabiatga qaramlikdan qutilish imkoniyatiga ega bo`lgan. YUksak ma’naviyat tufayli insonning mehnat faoliyati ijtimoiy faolligi bunyodkorlik va yaxshilik uchun xizmat qilgan. Aksincha, ma’naviy qashshoqlik, ilmsizlik, mutaassiblik chuqurlashgan davrda ijtimoiy adolatsizlik kuchaygan.

SHu tufayli demokratik taraqqiyot yo`lini tanlagan mamlakat va xalqlar iqtisodiy va siyosiy erkinligi sharoitida yuksak ma’naviyatning yuksalishiga, ilm-fan, san’at, axloq, din va huquqni rivojlantirishga katta e’tibor berganlar. Manfaat va maqsadlar to`qnashuvi, iqtisodiy, siyosiy, g`oyaviy maqsadlardagi tafovutlar har qanday jamiyat taraqqiyoti uchun xos bo`lgan xususiyatlardandir. Biroq, ijtimoiy ziddiyatlarni sun’iy ravishda kuchaytirish qan-chalik zararli bo`lgani singari, ularni zo`ravonlik bilan yo`q qilish, jamiyatda soxta ziddiyatsizlik holatini yaratishga urinish ham shunchalik xavflidir. Ijtimoiy munosabatlarning amal qilish jarayonida odamlarni uyushtirishning tarixiy shakllari - oila, davlat, jamoa (qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o`rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy, xuquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy kabi munosabatlarning barchasi bir so`z bilan ijtimoiy munosabatlar deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma’naviy extiyojlarini qondirishga yordam beradi. Ular mohiyatan inson va jamiyat mavjudligining zarur sharti hisoblanadi. Masalan, oila, davlat, ta’lim-tarbiya, mahalla, Vatan kabi qadriyatlarsiz inson va jamiyato`z mohiyatini yo`qotadi.

Insonning moddiy ehtiyojlari oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, uy-joy, transport vositalari, o`zini himoyalash, zurriyot qoldirish kabilardan iboratdir. Ma’naviy ehtiyojlarga olamni bilish, o`zlikni anglash, dunyoqarash, donishmandlikka intilish, bilim, san’at, g`oya, mafkura go`zallik bilan, ma’naviy kamolot yo`lidagi intilishlar kiradi. Insonning asl mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirishida

yaqqol namoyon bo`ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, moddiy va ma’naviy olamni uyg`unlashtirishga, tabiat va jamiyatni o`z maqsadlariga mos ravishda o`zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma’naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vositasi bo`lib xizmat qiladi. Inson yuksak ma’naviyat tufayligina o`z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to`laroq qondirish imkoniga ega bo`ladi.

Mamlakatimizda ma’naviyat masalalariga alohida e’tibor berilayotganining sababi ham ana shunda. Jamiyatning moddiy va ma’na-viy hayoti kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog`liq holda vujudga keldi.

Jamiyatning moddiy hayotiga quyidagilar kiradi:

— kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo`lgan iqtisodiy shart-sharoitlar;

— oziq-ovqat, kiyim-kechak, turarjoy, yoqilg`i, kommunikatsiya vositalari;

— moddiy ne’matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish;

— ishlab chiqarish jarayonida kishilar o`rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmui;

— moddiy boyliklar, tabiiy zaxiralar.

Jamiyatning ma’naviy hayotiga olamni tushunish, jamiyat va inson to`g`risidagi qarashlar, nazariyalar, ta’limotlar, g`oyalar, mafkura, ijtimoiy ong shakllari, ta’lim-tarbiya, axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassasalari va boshqalar kiradi.

Jamiyatning modaiy va ma’naviy hayotini boshqarish, kishilar o`rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda turli siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, tashkilotlar, turli uyushmalar) muhim o`rin tutadi. Jamiyatni boshqarishning siyosiy-huquqiy jihatlari ham muhimdir. Kishilar tomonidan siyosiy va huquqiy bilimlarning chuqur o`zlashtirilishi jamiyatning barqaror yashashi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari qondirilishida mehnat, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi beqiyos ahamiyatga ega. Mehnatni kishilarning qobiliyatiga qarab ijtimoiy taqsimlanishi natijasida muayyan kasb-kor bilan shug`ullanadigan toifalar, guruh, qatlam va sinflar vujudga keladi va ular jamiyat strukturasida o`ziga xos o`rin egallaydi, jamiyat taraqqiyotiga muayyan hissa qo`shadi.

Falsafiy tafaykur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Xususan, nemis faylasufi G. Gegel jamiyatning shakllanishi va rivojlanish sabablarini mutlaqruhning rivojlanishi bilan, L. Feyerbax din bilan bog`lagan, ijtimoiy taraqqiyot sabablarini diniy ong taraqqiyotidan izlagan. Frantsuz mutafakkiri 0. Kont jamiyatning rivojlanish sabablarini insoniyat ma’naviy taraqqiyotining uch bosqichi (teologik, metafizik, pozitiv bosqichlar) bilan izohlagan. K. Marks jamiyatning rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy o`zgarishlar bilan bog`lagan, barcha ijtimoiy xrdisa va jarayonlarni sinfiy nuqtai nazardan tushuntirgan. Ijtimoiy ziddiyatlarni sun’iy ravishda mutlaqlashtirgan va ziddiyatlarni hal etishning asosiy usuli sifatida ijtimoiy inqilobni amalga oshirishni, mulkdorlar sinfini tugatishni taklif etgan. Ijtimoiy amaliyot bunday nazariyaning bir yoqlama ekanini ko`rsatdi.

Jamiyat taraqqiyoti ko`p bosqichli jarayon ekani to`g`risidagi qarashlar AQSH faylasufi O. Toffler tomonidan ilgari surilgan. Bunday qarashga ko`ra, jamiyatlar

taraqqiyotiga binoan agrar jamiyat, industrial jamiyat. postindustrial jamiyatga ajratilgan. Adabiyotlarda jamiyat taraqqiyoti borasida tsivilizatsiyali yondashuv g`oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko`ra, har bir xalq o`zining betakror, noyob, o`ziga xos va o`ziga mos turmush tarzini saqlab qolgan holda, boshqa xalklar tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o`ziga xos modelini yaratadi.

Turli tarixiy davrlarda jamiyat taraqqiyotining mezoni masalasi falsafa fanida muhim muammolardan biri bo`lgan. Hozirgi zamon Evropa falsafasining ilg`or namoyandalari shaxs erkinligi darajasining o`sib borishi jamiyat rivojlanishining muhim ko`rsatkichi, o`lchovi deb hisoblamokdalar. Jamiyatdagi har qanday o`zgarishlar inson ehtiyojlari doirasining kengayib borishi bilan bog`liqdir. Maqsadsiz odam bo`lmagani sababli har qanday jamiyat ham o`z imkoniyatlaridan kelib chiqib, istiqbolda erishishi lozim bo`lgan maqsad va vazifalarni belgilaydi. Uning maqsad va muddaolari davlatlarning Konstitutsiyasida, qonunlarida, ichki va tashqi siyosatida o`z ifodasini topadi.

Har qanday jamiyat muayyan bosqichda o`z oldiga qo`ygan maqsadlariga erishish imkoniyatlaridan to`liq foydalanib bo`lgach, muqarrar ravishda umumiy inqirozgaduch keladi. SHu paytgacha ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlagan g`oyalar tizimi keyingi rivojla-nish yo`lida to`siq bo`ladi. Bu g`oyaviy-ma’naviy inqiroz jamiyatning boshqa yo`nalishlarida ham tanazzulni vujudga keltiradi. SHuning uchun g`oyaviy tizimlarning dog`maga aylanishiga yo`l qo`ymaslik ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir.

Prezident I.A. Karimov ta’kidlaganidek, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish, uning siyosiy va huquqiy madaniyatini rivojlantirish mamlakatimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat barpo etishning muhim shartidir. Zero, ma’naviy qashshoq kishilar o`z kuchi va qobiliyatiga ishonchsizlik bilan qaraydilar, mutelik va qaramlikka moyil bo`ladilar.

Jamiyat xayotiga barqarorlik va beqarorlik ham xos. Har bir inson o`z oldiga qo`ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo`lgani kabi jamiyat ham o`z oldiga qo`ygan vazifalarni ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi.

Barqarorlik - jamiyat taraqqiyotining tadrijiy rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko`rsatish imkoniyatshshr. U turg`unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turg`unlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy tizimning tanazzuli alomatidir.

2. Jamiyat hayotida barqarorlik va beqarorlik

Barqarorlik - jamiyat taraqqiyotining tadrijiy rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko`rsatish imkoniyatshshr. U turg`unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turg`unlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy tizimning tanazzuli alomatidir.

Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab-yashnash bilan almashib turishi ham mumkin. Jamiyatning ma’naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarida muayyan yutuqlarga erishilgach, ijtimoiy imkoniyatlar ruyobga chiqarilib bo`lgach,

uning bundan keyingi taraqqiyoti yo`lida yangi muammolar tug`iladi va ularni hal etish vazifasi paydo bo`ladi. Jamiyat a'zolarining ma'naviy salohiyati, milliy psixologiyasi, tabiiy ravishda mavjud siyosiy tuzum kishilarni boshqarishning o`ziga xos usullarini hayotga tatbiq etadi. Insoniyat hayoti tarixida jamiyat barqarorligini ta'minlashning monarxiyaga asoslangan, aristokratik, totalitar va demokratik usullari tajribadan o`tgan.

Beqarorlik ichki va tashqi jarayon va taxdidlar natijasida vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqa ijtimoiy-siyosiy tuzumga o`tish davrida keskinlashishi mumkin. Jamiyat barqarorligining izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o`zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yo`qolishida, g`oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruxlarning paydo bo`lishqda, ijtimoiy adolat mezonlarining buzilishida. davlat idoralarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli ziddiyatlarning keskinlashuvida o`z ifodasini topadi.

Jahon tajribasi har bir mamlakat va xalqning o`z taraqqiyot yo`lini tanlash huquqiga ega bo`lishi umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash garovi ekanini ko`rsatdi. O`zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keyin o`z milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, o`ziga xos va mos taraqqiyot yo`lini tanlash, rivojlanishning o`zbek modelini yaratish imkoniga ega bo`ldi.

Falsafiy tafakkur tarixida inson jamiyat uchun xizmat qilishi kerakmi yoki jamiyat inson manfaatlariga muvofiq bo`lishi lozimmi? - degan masalada turlicha qarashlar ilgari surilgan. Frantsuz faylasufi E.Dyurkgeym jamiyat insonga nisbatan birlamchi ekanligini va insonga xizmat qilishi lozimligini isbotlashga harakat qilgan. Darhaqiqat, inson dunyoga kelar ekan, tayyor ijtimoiy munosabatlar, jamiyatning axloqiy, huquqiy, siyosiy va boshqa normalarini o`zlashtirishga, o`z erkinligini cheklashga, davlat qonunlariga bo`ysunishga ongli ravishda rozi bo`ladi.

Demokratik jamiyat uchun inson manfaatlari, erkinligi va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadi. Har qanday jamiyat hayoti uchun davomiylik, vorisiylik va uzluksizlik xosdir. Bu qonuniyatlar buzilsa, jamiyatning tabiiy tarixiy hayotida yo`qotishlar ro`y beradi. Bu holat, ayniqsa, bir tizimdan boshqa tizimga o`tish, jamiyat rivojlanishining yangi bosqichga ko`tarilish jarayonida yaqqol ko`zga tashlanadi. Mavjud tizimdan sifat jihatidan yangi tizimga o`tish jarayonida isloxrtlarni ijtimoiy larzalarsiz amalga oshirish, odamlarning ta-fakkurini o`zgartirish, yangi qonun va normalar ishlab chiqquncha eskisidan foydalanish jamiyat rivojlanishiga ta'sir ko`rsatadi. Mustaqillikka erishganimizdan so`ng "o`tish davri" tushunchasi keng qo`llanila boshlandi. O`tish davrining maqsad va vazifalari, o`ziga xos xususiyatlari, har bir davr, davlat va millat uchun turlicha ma'no-mazmun kasb etadi. O`zbekiston sharoitida mavjud totalitar tizimda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan demokratik huquqiy davlatga o`tish jarayonining maqsad va vazifalari Prezident IA. Karimov tomonidan atroflicha asoslab berildi. O`zimizga xos va o`zimizga mos bo`lgan "o`zbek modeli" yaratildi. Mazkur model bugun jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmokda.

3. Taraqqiyotning o`zbek modeli – jamiyat rivojining tadrijiy rivojlanish kontseptsiyasi

Ijtimoiy rivojlanishning o`zbek modeli insoniyatning rivojlanish borasidagi ilg`or tajribasiga milliy davlatchilik tajribalarimizga va xalqimiz mentalitetiga tayanadi.

Ijtimoiy rivojlanish borasida xalqlar odatda ikki yo`ldan - inqilobiy va tadrijiy yo`ldan borgan. Insoniyat tajribasi ijtimoiy rivojlanishning keskin inqilobiy o`zgarishlar yo`li nomaqbul va yaroqsiz ekanini, jamiyatning tadrijiy (evolyutsion) taraqqiyoti barqaror — tabiiy rivojlanish yo`li ekanini ko`rsatdi. O`zbekiston Prezidenti Islom Karimov ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy yo`li moxiyatini shunday izoxlaydi: "Soxta inqilobiy sakrashlarsiz,... evolyutsion yo`l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o`tish - tanlab olingan yo`lning asosiy mazmuni va mohiyatidir... Bozor iqtisodi sari buyuk sakrashlar, inqilobiy qayta o`zgarishlar yo`li bilan emas. balki sobitqadamlik va izchillik bilan - bosqichma-bosqich harakat qilish kerak... Har bir bosqichning qancha davom etishi hal qilish lozim bo`lgan muammolar doirasiga, tashqi omillar qanchalik qulay bo`lishiga, aholining mehnat faoliyatiga bog`likdir.

O`zbek modelining asosiy tamoyillari quyidagilardir:

— iqtisodning siyosatdan ustuvorligi;

— davlatning bosh islohotchi ekanligi;

— qonun ustuvorligi;

— kuchli ijtimoiy himoyalash;

— bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich, tadrijiy yo`l bilan o`tish.

O`zbek modelining o`ziga xos xususiyatlari davlatchilik asoslarining, milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, o`zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarning tiklanishi va rivojlanishi de-mokratik qadriyatlarning rivojlantirilishi hamla inson huquklarining kafolatlanishi va boshqalarda o`z ifodasini topmoqda.

O`zbek modelining hayotiyligi jahon jamoatchiligi tomonidan e’tirof qilindi. O`zbekiston tajribasi qator mamlakatlar uchun namuna bo`lib xizmat qilmoqda va uni o`rganishga bo`lgan qiziqish ortib bormoqda. O`zbekona taraqqiyot yo`li ma’naviy hayot va iqtisodiy rivojlanishni bir-biri bilan uzviy bog`likdikda amalga oshirishda, ma’naviyat, ma’rifat, madaniyatga bo`lgan e’tiborning kuchayishida yaqqol ko`zga tashlanadi. Ma’naviy salohiyatning kuchayishi, inson intellektual va axloqiy qobiliyatlarining rivojlanishi iqtisodiy rivojlanish uchun puxta zamin yaratadi. Kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya asoslarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Jamiyat va oila.

Jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzvii bog`liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o`z aksini topadi. SHu ma’noda, oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a’zosi oila bag`rida voyaga etadi, ijtimoiy munosabatlarni o`zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tay-yorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. SHu boisdan ham davlat oilani o`z himoyasiga oladi.

Jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy muhitning sog`lomligi ko`p jihatdan oilaviy madaniyatga bog`liq. Oila qanday bo`lsa, jamiyat ham shunday bo`ladi. Oilada er va xotinning mavqei, oilaviy munosabatlar xarakgeri turli xalqlarda turlichadir. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma’naviyat sohasida amalga oshirilayotgan

islohotlar, avvalo. oila qadriyatlarini, eng ilg`or an’analarni tiklashga qaratilgandir. Ona va ayol muqaddasligi o`zbekona qadriyatdir. Hadisi sharifda ona va ayolning muqaddasligi to`g`risidagi g`oyalar oilaviy munosabatlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Ulug` mutafakkirlar jamiyatning madaniy darajasi ayolning jamiyat va oiladagi ahvoli, mavqei bilan belgilanishini alohida ta’kidlaganlar. Sog`lom, barkamol avlod tarbiyasi ko`p jihatdan ayolniig ma’naviy salohiyati, bilimi, uddaburonligi va erkinligiga bog`liqdir. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan qator tadbirlar ayolning oila va jamiyatdagi mavqei va rolini kuchaytirishga qaratilgandir.

Oila muammolari ilmiy asosda o`rganilg`anligi va ularni oqilona xdl etishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazining tashkil etilganligi ham davlatimizning oilaviy munosabatlarini takomillashtirishga alohida e’tibor berayotganidan dalolat beradi.

Davlat - jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilg`an alohida bir muassasadir. Davlat umuminsoniy qadriyat insoniyat ma’naviy taraqqiyotining muhim yutug`idir.

Jamiyat ma’naviy salohiyatining yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakllari va usullari ham takomillashib boradi. O`zgargan tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalariga yangicha yondashish zarurati vujudga keladi. Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik an’analarining tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va axamiyat kasb etdi.

Prezident I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning o`zbek modeli kontseptsiyasining amalga oshirilishida davlat hal qiluvchi o`rin tutadi. Mamlakatimizning siyosiy, huquqiy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar siyosiy boshqaruvni yanada takomillashtirishga, yurtimizda huquqiy demokratik jamiyat barpo etishga, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o`tishga qaratilgandir.

Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar xam faoliyat ko`rsatadi. Ularni shartli ravishda davlat va nodashtat tashkilotlariga ajratish mumkin. Ularga siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jamg`armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla qo`mitalari va boshqalar kiradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgandir.

Demokratik jamiyatni barpo etish - O`zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi. Bujamiyat kishilarning yuksak axloqiy-siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan demokratik taraqqiyotning yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko`p qirrali aloqasi bo`lib, davlat qonunlarini hurmat qilib bajaruvchi jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o`zaro kelishuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir.

Demokratik jamiyat umuminsoniy tamoyillar, milliy davlatchilik xususiyatlari, o`ziga xos turmush tarzi va hayot falsafasi negizida qaror topadi. O`zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillaridanoq shunday jamiyat asoslarini barpo etiishi o`z oldiga maqsad qilib qo`ydi.

Demokratik jamiyatda davlatning qator vazifalari fuqarolarning o`z-o`zini boshqarish organlari qo`liga o`ta boshlaydi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati

kengayadi. Bunday jamiyat asoslarini barpo etish kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi. Mamlakatimizda mahalla hrkimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kuchaytirilishi xalqimizning o`z-o`zini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarni kamol toptirish, o`z-o`zini boshqarish, demokratik qadriyatlarni ro`yobga chiqarish maktabidir.
YUrtimizda bunday jamiyatni barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi. O`z navbatida, ma'naviy etuk avlod jamiyat taraqqiyotiga salmokdi hissa qo`shadi. SHunday etuk kishilarni tarbiyalashda jamiyat to`g`risidagi falsafiy bilim va qarashlarni o`zlashtirish va xayotga tatbiq etish alohida ahamiyatga egadir.

Asosiy tushunchalar.

Ijtimoiy, jamiyat, taraqqiyot qonunlari, barqarorlik, beqarorlik, tinchlik, tadrijiylik, iqtisodiy rivojlanish, ma'naviy taraqqiyot, texnologiya, mafkura, oila, sog`lom avlod, o`zbekkona qadriyat.

Takrorlash uchun savollar

1. Jamiyat dsganda nimani tushunasiz?
2. Jamiyatga xos belgilarni sanang.
3. Jamiyatning kelib chiqishi to`g`risidagi qanday nazariyalarni bilasiz?
4. Jamiyatning rivojlanishida ma'naviyat qanday o`rin tutadi?
5. Jamiyatning tadrijiy rivojlanishi deganda nimani tushunasiz.

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T. O`zbekiston 1992
2. Karimov I. A. YAngicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – T: O`zbekiston 5 – j, 1997
3. Karimov I. A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat,
4. Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo`lida – T, O`zbekiston 1999
5. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T, O`zbekiston 2000
6. M. Ahmedova Falsafa darslik O`z. fay. jam. T., 2006.
7. K. Nazarov Falsafa asoslari «O`zbekiston» T., 2005.
8. K. Nazarov Falsafa O`AJBIT T., 2004.
9. E. YUsupov Falsafa «SHarq» T., 1999.
10. K. Nazarov Falsafa «SHarq» T., 2004.
11. M. Ahmedova Osnovы filosofii «Uzbekistan» T., 1998.
12. I. Saifnazarov Kurs lektsii po filosofii «SHarq» T., 2004.
13. M. Safarboev, Z. Iskandarova Falsafa UrGU U., 2004.
14. B. To`ychiev Falsafa DITAF T., 2004.
15. K. Nazarov Falsafa (Ma'ruzalar matni) O`AJBIT T., 2000.
16. M. M. Xayrullaev Filosofiya lug`ati «O`zbekiston» T., 1976.
17. M. M Xayrullaev, K. Nazarov Falsafa: komusiy lug`at «SHarq» T., 2004.
18. I. Karimov Falsafadan va'zlar TDPU T., 2003.

19. J. Tulenov, Z. G`ofurov Falsafa TDPU T., 1997.

Katta o`qituvchi Jumaniyozov B.

8. Ma’ruza. Mavzu: Inson falsafasi. (2 soat)

Reja:

1. Inson olamning tarqibiy qismi
2. Insonning tabiati va mohiyati
3. Insonning ma’naviy - ruhiy olami
4. Maqsad va manfaatlar inson borligining tamoyillar sifatida

1. Inson olamning tarqibiy qismi

Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o`rni falsafiy muammolar tizimida muhim o`rin tutadi. Turli falsafiy ta’limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. SHunday bo`lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o`zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ro`yobga chiqarishga intilaveradi.

Suqrotning "O`zligingni bil" degan hikmatli so`zi har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. SHarq falsafasi tarixida xam inson bosh mavzulardan biridir. Masalan, Forobiy falsafasida inson butun borlik, taraqqiyotining mahsuli sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir insonning barcha olijanob fazilatlari ilm tufayli ekanligini, inson hayotining mazmuni - baxtli bo`lish va baxtli qilishga intilish, bunga esa faqat ilm va ma’rifat orqali erishish mumkinligini ko`rsatdi. Beruniy va ibn Sino insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi aql va tafakkur tufayli ekanligini isbotlashga harakat qildilar.

Bundan farqli o`laroq, Abu Homid G`azzoliy bu ustunlikni akdda emas, balki inson qalbida ekanligini ko`rsatdi; aql imkoniyatlari cheklanganligini isbotlashga harakat qilgan tasavvuf ta’limotida komil inson asosiy g`oyalardan biri edi. Bu komillik, asosan, ma’naviy barkamollik, ruhiy yuksalish, jismoniy orzu-istaklarni idora qila bilishda namoyon bo`lishini uqtirganlar. SHarq falsafasida inson to`g`risidagi qarashlar islom dini g`oyalari, sharqona tafakkur va turmush tarzi bilan uzviy bog`liq holda rivojlangan edi. SHarq mutafakkirlari insonga umumfalsafiy muammolarning bir qismi sifatida qarardilar.

Bundan farkdi o`laroq, G`arb falsafasida insonga, asosan, biologik mavjudot, tabiatdagi evolyutsion o`zgarishlarning mahsuli deb qaraldi. Rus tabiatshunosi V.A. Vernadskiyning ta’limotiga ko`ra, inson akli buyuk geolog`ik omil sifatida tabiatdagi taraqqiyotni tezlashtirgan, butun hayotning taqdiri insonning aql - zaovati va axloqiga bog`liqdir. Hozirgi zamon falsafasining yirik vakillaridan biri bo`lgan E.Fromm insonga bo`lgan sof va samimiy muhabbatni butun er yuzi xalqlari o`rtasida tinchlik, totuvlik, hamkorlik munosabatlarini qaror toptirishning muhim omili deb hisobladi; insonning eng muhim qobiliyati sifatida sevish qobiliyati, san’atlar ichida eng muhimi sevish san’ati ekanligini ko`rsatdi. Faylasufning ta’kidlashicha, inson boshqalarning sevish qobiliyatini tarbiyalashi, takomillashtirishi mumkin. Hozirgi zamon antropologik falsafasining inson mohiyati to`g`risidagi xulosalari quyidagicha:

1. Inson tabiatda noyob va universaldir. U tabiat rivojining buyuk maqsuli, noyob qobiliyat sohibidir. Inson uchun instinkt ham, nozik did ham, ulug`vorlik va yaratuvchanlik xam xosdir.
2. Insonda ichki va tashqi olam mujassamlashg`an. Insonning ichki olami faoliyatning turli shakllarida - mexnat, muloqot, badiiy ijod, xulq-atvor va shu kabilarda namoyon bo`ladi.
3. Inson juda ko`p qismlardan tashkil topgan yaxlit birlikdir. Har bir insonda tabiiylik, ijtimoiylik, aqllilik, hissiylik, axloqiylik mujassamlashgan.
4. Inson tarixiy mavjudotdir. U o`zining ana shu xususiyati bilan kelajagini yaratadi. Inson ertangi kuniga doimo tashvish bilan qaraydi, chunki uni har doim inqirozlar, omadsizliklar ta’qib etadi.
5. Inson mas’uliyat hissidan qochib qutulmaydi. U gumanistik pozitsiya va individuallikni uyg`unlashtirish orqaligina shunday vaziyatdan chiqa oladi.

Inson nihoyatda murakkab, ko`p qirrali va ko`p o`lchamli mavjudot bo`lib, uning mohiyatini anglash uzoq vaqt davom etadigan jarayondir. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug` mutasavvuf Abduxoliq G`ijduvoniy insonni "kichik olam" deb hisoblagan. Falsafada bahs yuritiladigan barcha masalalar inson muammosiga bevosita daxldordir. Umuman olganda, insonga daxldor bo`lmasa, unga foyda keltirmasa, jamiyatning og`irini engil qilmasa, unday fanning keragi bormikan? SHu ma’noda, inson, avvalo, o`zi uchun zarur bo`lgan fanlarni, ilmlar va bilimlar tizimini yaratgan.

2. Insonning tabiati va mohiyati

Tabiat, madaniyat, siyosat, tsivilizatsiya, bilish kabi masalalar inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoyon bo`lish shaklla-ridir. Ularning barchasi inson tabiati va mohiyati bilan bog`liqdir.

Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o`rganadi. Inson shunday murakkab va ko`p qirrali mavjudotki, uning mohi-yati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Bu tushunchalar bir-biriga yaqin va ma’nodosh bo`lsa ham, bir-biridan farqlanadi.

Inson - o`zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudot. Insonning biologik xususiyatlariga ovqatlanish, himoyalanish, zurriyot qoldirish, sharoitga moslashish kabilar xos.

Inson boshqa mavjudotlardan sotsial xususiyatlari bilan ajralib turadi. CHunonchi, til, muomala, ramziy belgilar, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste’mol qilish, boshqarish, o`z-o`zini idora etish, badiiy ijod, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlar, tabu (taqiqlash) shular jumlasidandir.

Insonning psixik xususiyatlariga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g`am-tashvish, qayg`u, iztirob chekish, zavqlanish, kayfiyat kabilar kiradi.

Inson shu xususiyatlari orqali yaxlit bir tizimni tashkil etadi. U yaxlit mavjudot sifatida o`z ehtiyojlarini qondiradi va insoniyat davomiyligini ta’minlaydi. Insonga xos bo`lgan biologik xususiyatlarni ijtimoiy xususiyatlardan ustun qo`yish yoki psixologik xususiyatlarni bo`rttirish uning mohiyatini buzib talqin etishga. bir yoqlamalikka olib keladi.

Hozirgi zamon G`arb falsafasidagi yirik oqimlardan biri bo`lgan ekzistentsializm vakillari inson mohiyatini bilishda quyidagi qoidalarga asoslanadilar:

— inson borlig`i moddiylik va ma’naviyatning birligidan iboratdir;

— inson hayoti o`tkinchi va cheklangandir. Uning hayoti tug`ilish va o`lim oralig`ida kechadi. SHu boisdan moddiy va ma’naviy borliqqa xos bo`lgan abadiylik tushunchasini insonga nisbatan ko`llab bo`lmaydi. Koinot mezonlari inson borlig`ini o`lchashga yaramaydi. Inson borlig`i makonda cheklangandir. Inson uchun tabiiy va ijtimoiy hayot sharoitlari muhim tuyulsada, uning konkret mehnat sharoiti, turmush tarzi, individualligi, kayfiyat va kechinmalari undan ham muhimrokdir;

— inson borlig`i moddiylik va ma’naviylikning uzviy birligidan iborat bo`lsada, unda psixologik va ruhiy holat ustuvor mavqeni egallaydi. Z.Freyd va E.Frommning ta’kidlashicha, faqat ong, akl va ruhgina emas, balki ongsizlik, instinktlar va mayllar inson xulq-atvori shakllarini qamrab oladi;

— xozirgi zamon falsafasi inson borlig`ining individual xarakterini, uning ko`p qirrali psixikasi xususiyatlarini, inson borlig`ining ma’nosizligini, insonning boshqa odamlar ustidan yakka xukmronlikka intilishining sabablarini o`rganishi kerak.

Falsafa tarixida inson to`g`risidagi ta’limotlarda biologizm, sotsiologizm, psixologizm kabi yo`nalishlar vujudga kelgan. Biologizm insonning tabiiy-biologik xususiyatlariga, sotsiologizm insonning ijtimoiy xususiyatlariga, psixologizm esa ma’naviy, ruhiy, psixologik xususiyatlariga bir yoklama yondashishga asoslangan edi.

Inson mohiyatini falsafiy jihatdan chuqurroq tahlil qilishda shaxs, individ, individuallik tushunchalarining mohiyatini bilish va ularni bir-biridan farqlash muhimdir. SHaxs o`zida ijtimoiy fazilatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi. Ki-shilar shaxs bo`lib tug`ilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo`lib shakllanadi va rivojlanadi. CHunki insonga xos ijtimoiy fazilatlar avloddan-avlodga irsiy yo`l bilan o`tmaydi. Inson dunyoga kelgan vaqtida jamiyat, siyosiy tuzum, madaniyat, ishlab chiqarish, oila, ommaviy axborot vositalari, mafkura kabi ijtimoiy tuzilmalar mavjud bo`ladi.

Inson ta’lim-tarbiya, mehnat, muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, axloqiy me’yorlar, siyosiy g`oya, milliy mafkura kabi omillar ta’sirida yashaydi, ularni o`zlashtiradi va shu jarayonda ijtimoiylashadi, ya’ni shaxs bo`lib shakllanadi. Natijada insonda yangicha fazilatlar paydo bo`ladi. U yaratuvchan mavjudot sifatida faoliyat ko`rsata boshlaydi.

O`z-o`zini nazorat qilish, o`z-o`zini tarbiyalash, yuksak mas’uliyatni his etish, g`oya uchun kurashish, mustahkam e’tiqodga ega bo`lish, o`z fikr-mulohazalarini erkin bayon etish va ijtimoiy-siyosiy faollik shaxsga xos belg`ilardir. SHaxsning maqsad, g`oya va ideallari jamiyatdagi mavjud g`oya va mafkura bilan uzviy bog`liq ravishda shakllanadi. Milliy g`oya va mafkurani amalga oshirish, ezgu ideallar yo`lida hatto hayotini qurbon qilish shaxs hayotining bosh maqsadiga aylanadi.

SHaxs mustahkam iymon-e’tiqod, g`oya va insoniy fazilatlarga ega bo`lgan, Vatan, millat tuyg`usi bilan yashaydigan, o`zida davr xususiyatlarini ifoda etadigan insondir.

Jamiyat o`z taraqqiyoti davomida vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun shaxsning muayyan tarixiy namunalarini yaratadi. Har bir o`zgargan tarixiy sharoitda shaxs mohiyatini va mazmunini yangicha tushunish zaruriyati vujudga keladi. Bugungi adabiyotlarda xarizmatik, shuhratparastlik, tajovuzkorlik va boshqa shakldagi shaxslar timsoli aks ettirilmoqtsa.

O`zbekistonda bozor munosabatlariga o`tish sharoitida fozil va barkamol inson shaxsini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo`lib qoldi. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o`z oldiga ana shunday shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo`ydi.

Inson va tarix

Inson tarixning yaratuvchisi sifatida tabiat taraqqiyotidagi uzluksizlikni ta’minlaydi. U o`z bilimi, tajribasi va yutuqlarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldiradi; tabiat va jamiyatni qayta quradi va takomillashtiradi. Inson o`z akdi tufayli butun koinot, tabiat taraqqiyotida buyuk yaratuvchi kuch sifatida namoyon bo`ladi, o`z tarixini yaratadi, uni avaylab-asraydi. Inson faoliyati va tajribalari jamiyatning takomillashuvi va kishilarning har tomonlama kamol topishi uchun manba bo`lib xizmat qiladi.

Tabiat va jamiyatdagi o`rni, ahamiyati, yaratuvchilik mohiyati, oliy mavjudot ekani, vorislikning davomiyligini ta’minlashi barcha ijobiy hamda foydali yutukdarni saklashi, targ`ib etishi kabi xususiyati, qobiliyati tufayli inson muqaddas va tabarruk qadriyat hisoblanadi.

Antropologiya insoniylikning namoyon bo`lishi va rivojlanishini ruh bilan bog`laydi. Ayrim tadqiqotchilar insonga xos bo`lgan biror-bir xususiyatga alohida urg`u bergan va shu orqali insoniy mohiyatni ochib berishga harakat qilgan. Masalan, I.Kant insondagi axloqiy jihatlarga ko`proq e’tibor bergan va uni ezgulikni yovuzlikdan farqlovchi mavjudot sifatida ta’riflagan. V. Solovev insonning boshqa mavjudotlardan farqini uyalish, achinish va oliy kuchlarga sig`inish kabi xususiyatlarda, deb bilg`an. Uning fikricha, inson o`zining tuban mayllari va gunohlaridan uyalish qobiliyatiga ega. Faqat odamlarga emas, balki butun tirik jonga achinish va muqaddas kuchlarga sig`inish insongagina xos.

Inson tabiati - g`oyat murakkab. Unda hayvoniy va ilohiy sifatlar mujassamlashgan. Lekin u hayvon ham, farishta ham emas. Insoniy ruh va ma’naviyat uni boshqa mavjudotlardan yuqori darajaga ko`taradi.

Insonni o`rganadigan fan antropologiya deb yuritiladi.

Antropologaya

Antropologiya inson mohiyatini, uning ta6iat va jamiyatdagi o`rnini, o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish bilan shug`ullanadi. Antropologiyada inson mohiyatini to`laroq ochish uchun "men", "ong", "shaxs", "ruh" tushunchalari qo`llanadi. "Men" insonning o`zligini tashqi olamdan, real borliqtsan farqlashidir. "Men" ong tufayligina o`zini boshqa borliqdan farqlaydi. Boshqa narsalar insonga begona voqelik bo`lib tuyuladi. SHaxs insonning mustaqilligini ifoda etadi.

Inson o`z hayoti davomida tana va ruh ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Tana ehtiyojlarini qondirish inson borlig`ining birlamchi sharti qisoblanadi. Biroq hayotning ma’nosi faqat moddiy ne’matlardan baxramand bo`lish, tanparastlik, lazzatlanish, boylikka ruju qo`yishdan iborat emas. Inson ruhi ham o`ziga xos oziqqa ehtiyoj sezadi. SHu bois unda ma’rifatparvarlik, odamiylik, odillik, rahm-shafqat, diyonat, vijdon, olihimmatlik, vatanparvarlik kabi ma’naviy fazilatlar shakllanadi. YUksak ma’naviyat insonni ruhan poklaydi, iymon-e’tiqodini mustahkamlaydi.

3. Insonning ma’naviy - ruhiy olami

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan isloxrtlar insonni ma’naviy-ruhiy jihatdan kamol toptirishga qaratilgandir.

Insonning ma’naviy ehtiyojlarini uning tabiiy-moddiy manfaatlaridan ajratish, unga faqat ilohiy mavjudot sifatida qarash ham bir yoqlamalikka olib kelishi, etilgan ijtimoiy muammolar mohiyatini to`g`ri tushunishga xalaqit berishi mumkin.

Mamlakatimizda shakllanayotgan milliy g`oya va milliy mafkura insonga bir yoklama qarashlarga zid ravishda, undagi moddiylik va ma’naviylikni uyg`unlashtirishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti kishilarning farovon, boy-badavlat, mulkdor, barcha qulayliklarga ega bo`lishini inkor etmaydi. Aksincha, ularni tadbirkor, uddaburon va mehnatsevar bo`lishga rag`batlantiradi. YUksak ma’naviyatgina inson ehtiyojlarini oqilona qondirishga, ijtimoiy adolat o`rnatib, saxiy va oliximmat bo`lishga undaydi. Antropologiya insonning ma’naviy olamiga chuqurroq kirib borish orqali olam mohiyatini bilish mumkin, degan g`oyani ilgari suradi. Islom Karimov ta’rifiga ko`ra, ma’naviyat (ruh) insonni axloqan poklaydigan, iymon-e’tiqodini mustahkamlaydigan, ezgulikka undaydigan botiniy kuchdir. YUksak ma’naviyatda haqiqiy insoniy mohiyat mujassamdir. Insonning olijanob fazilatlari etuk shaxslar timsolida o`z aksini topadi. Insonga xos bo`lgan barcha xususiyatlar shaxs faoliyatida, uning jamiyatda tutgan o`rnida, uning o`z moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishida, muayyan mafkurani amalga oshirishida yaqqol ko`rinadi.

SHaxsning shakllanishi va rivojlanishida tarixiy shart-sharoit, ayniqsa, g`oya va mafkura muhim o`rin tutadi. Bozor munosabatlariga o`tish davrida vujudga kelgan muammo va vazifalar yangi barkamol insonni voyaga etkazishni taqozo etdi. Unga xos fazilat va sifatlar Prezident Islom Karimov asarlarida asoslab berilgan.

Bozor iqtisodiyoti inson ehtiyojlarini to`laroq qondirish, uning qobiliyati, ijtimoiy faolligini yanada kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bular quyidagilardir:

— mehnatni tashkil etish usul va shakllarining o`zgarganligi;

— mehnatga yangicha munosabatni rag`batlantirishga yordam beruvchi omillar;

— o`z qobiliyati, qiziqishlariga mos bo`lgan faoliyat turlarini tanlash imkoniyatining yaratilganligi;

— shaxs tadbirkorligi va ishbilarmonligining qo`llab-quvvatlanishi;

— turli mulk shakllarining vujudga kelganligi;

— shaxs erki va huqukdarining kengayganligi;

— davlat va jamoat ishlarida qatnashish imkoniyatlarining yaratilganligi;

— demokratik qadriyatlar rivoji;

— ma’naviy meros va madaniyat yutuqlaridan erkin foydalanish imkoniyatining yaratilganligi kabilardir.

Ular shaxsning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishda, uning komil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan barcha isloxrtlar inson manfaatlari, uning ezgu maqsadlari ro`yobga chiqishini ta’minlashga, uning barkamol sifatlar kasb etishiga qaratilgandir. SHaxs islohot natijalaridan baxramand bo`luvchigina emas, balki ularni sobitqadamlik bilan amalga oshiruvchi kuch sifatida ham yangilanish jarayonida o`zgaradi, yuksaladi, qadr-qimmat topadi va e’zozlanadi.

Insonning jamiyatdagi o`rni, qadr-qimmati borasida milliy istiqlol o`z oldiga quyidagilarni maqsad va vazifa qilib qo`yadi:

— insonning qadr-qimmatini joyiga qo`yish:

— inson uchun baxtli hayot sharoitlarini yaratish;

— insonning o`zligini anglashi, ijtimoiy burch va vazifalarini ado etishi, sog`lom avlodlar uzluksizligini ta’minlashi, kelgusi avlodlarga yaxshi xotiralar qoldirishi va iymon-e’tiqodi butun bo`lishi uchun qulay sharoitlar yaratish.

Bunday imkoniyatlarni amalga oshirishga xalaqit beradigan nuqsonlar ham inson tabiati bilan bog`liqdir. Hozirga qadar inson to`g`risidagi falsafiy ta’limot va qarashlarda, asosan, uning ijobiy xususiyatlariga, yaratuvchanligiga ko`proq e’tibor berib kelindi. Keyingi vaqtlarda inson borlig`ining salbiy jihatlari ham taxlil qilina boshlandi.

Mustaqillik yillarida inson tabiatini chuqurroq o`rganish va undagi salbiy mayllarni bartaraf etishga yordam beradigan falsafiy qarashlarga ehtiyoj vujudga keldi. SHuni ta’kidlash joizki, ayrim kishilar millat, Vatan, xalq manfaatlariga zid ravishda jamiyatdagi mavjud qonun-qoida va me’yorlarni poymol etib, ko`proq g`arazli maqsadlarini amalga oshirishga va turli ixtiloflarni keltirib chiqarishga harakat qiladi. SHunday niyatlar yo`lida hatto jinoiy guruxlarga birlashadilar, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo`lgan davlat dasturlarini amalga oshirishga to`sqinlik qiladilar. SHuningdek. ular milliy totuvlik, tinchlik va barqarorlikka raxna soladi, ma’naviy-axloqiy muhitni buzadi, kishilarning ijtimoiy adolatga bo`lgan ishonchini susaytiradi, barkamol insonni voyaga etkazishga qarshilik ko`rsatadi. Ular turli ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi firibgarlar, hokimiyatga intiluvchi ekstremistlar, korruptsiya va jinoyatchilik olami vakillari, giyoxvand, poraxo`r, terrorchi va shuhratparastlar kabi jamiyat uchun noxush odamlardir.

Insonni falsafiy bilish va tahlil etishda ana shunday kishilar mavjudligini e’tiborga olish muhimdir. Demokratik jamiyat inson huquklarini ta’minlashni o`z oldiga maqsad qilib qo`yar ekan, bunday kishilarni tarbiyalashga, ularni ijtimoiy foydali meh-natga jalb etishga, kishilar ongida milliy manfaat va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor beradi.

4. Maqsad va manfaatlar inson borligining tamoyillar sifatida

SHaxs erkinligi va tarixiy zarurat bir - biri bilan uzviy bog`liq tushunchalardir. Mamlakatimizning taraqqiyot yo`lida paydo bo`lgan qiyinchilik va muammolar moxiyatini anglash shaxsni o`z bilimi va mahoratini oshirishta, yuksak goyalarga sodiq bo`lib yashash va ularni jadal amalga oshirishga undaydi.

SHaxs erkinligi demokratik qadriyatlar tizimida alohida o`rin tutadi. Erkinlik - insonning intellektual-ma'naviy kamolotga erishuvining zarur sharti, anglanganligidir. Erkinlik tufayligina inson yaratuvchanlik qobiliyatini namoyon etadi, shaxsiy mas'uliyat va insoniy burchini to`la his etadi. SHaxs erkinligi avvalo, axloqiy, so`z, vijdon, matbuot erkinligida ro`yobga chiqadi. Demokratik jamiyat shaxs erkinligini ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratish bilan cheklanib qolmay, ilm-fan, san'at, din, xuquq va h.k.larni rivojlantirishga alohida e'tibor beradi.

«Erkinlik» tushunchasi har qanday shaxsga nisbatan emas, balki o`z xatti-harakati, xulq-atvori va faoliyati uchun javobgarlikni his etadigan. ma'naviy jihatdan barkamol insonga nisbatan qo`llaniladi. Jamiyatning ma'naviy salohiyati yuksalib borgani sayin, kishilar erkinlikka o`zboshimchalik, nimani xoxlasa shuni qilish deb emas, balki ma'naviy-intellektual rivojlanish imkoniyatdeb qaraydilar. Bozor munosabatlari sharoitida kishilarning xulq-atvori va faoliyatini boshqarishda huquqiy normalar muhim rol o`ynay boshlaydi. Bozor munosabatlariga o`tish sharoitida inson qobiliyatlari to`laroq namoyon bo`ladi. Ijtimoiy tabaqalanish jarayonida kishilarning boy va qashshoq guruhlarga ajralishi tabiiy qonuniy jarayondir. O`zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim xususiyati - aholining muayyan qismi-ning ijtimoiy himoyalanishida, ko`p bolali oilalar, nafaqaxo`rlar, talabalar va nogironlarning davlat tomonidan himoyalanishida, ijtimoiy adolatning qaror topishida yaqqol namoyon bo`lyapti.

Kishilarning boqimandalik kayfiyati, tafakkur turg`unligidan ozod bo`lishlari, o`zgargan yangi iqtisodiy sharoitga moslashishlari, o`z bilimi va mahoratini oshirishlari uchun g`amxo`rlik qilish iqtisodiy islohotlarning insonparvarlik yo`nalishga ega ekanligidan dalolat beradi. Iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlariga o`tish sharoitida aholini kuchli ijtimoiy himoyalash tamoyili Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan o`zbek modelining muhim jihatlaridan biridir.

Inson mohiyatini falsafiy bilish ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Inson falsafasi har bir yangi tarixiy davrda inson mohiyati, uning jamiyatda tutgan o`rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Insonga xos xususiyat va fazilatlarni bilish orqali talaba o`zida shunday sifatlarni shakllantirishga intiladi.

Bunday fazilatlar falsafa va boshqa ijtimoiy fanlarni o`rganish va umuman, ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Zamonaviy bilim va yuksak insoniy fazilatlarni egallash orqali O`zbekistonda ozod va obod jamiyat qurish vazifalari uyg`unligini ta'minlashga erishish butun ta'lim-tarbiya ishimizning bosh mezoni va uning oldida turgan muhim vazifadir.

Mamlakatimizda demokratik o`zgarishlarni chuqurlashtirish fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishni inson omilisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Prezident I.A. Karimov ta'qidlaganidek, hozirgi sharoitda inson omili va mezoni barcha isloxotlarimizning bosh yo`nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradi. "Fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat sohasida,

shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishdan iborat". Komil insonni shakllantirishda ma’naviyat, odob-axloq va ma’rifat singari qadriyatlar muhim o`rin tutadi. Aynan ana shu qadriyatlar kishilarda olijanob insoniy fazilatlarni shakllantiradi.

Asosiy tushunchalar

Odam, Inson, individ, shaxs, ijtimoiy qadriyat, antropologiya, inson mavjudligi, inson borligini, maqsad va manfaatlar, islohotlar, bozor, vatan.

Takrorlash uchun savollar

1. Inson nima uchun falsafaning bosh mavzui deb qaraladi?
2. SHaxs deganda nimani tushunasiz?
3. Antropologiya faninipg ma’nosi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Inson tanasi va ruhining o`zaro bog`liqligi va ular o`rtasidagi farqlar t nimalarda namoyon bo`ladi?
5. Istiqlolning insonparvarlik mohiyati nimalarda ko`rinadi?

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T. O`zbekiston 1992
2. Karimov I. A. YAngicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – T: O`zbekiston 5 – j, 1997
3. Karimov I. A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat,
4. Karimov I. A. Ma’naviy yuksalish yo`lida – T, O`zbekiston 1999
5. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T, O`zbekiston 2000
6. M. Ahmedova Falsafa darslik O`z. fay. jam. T., 2006.
7. K. Nazarov Falsafa asoslari «O`zbekiston» T., 2005.
8. K. Nazarov Falsafa O`AJBIT T., 2004.
9. E. YUsupov Falsafa «SHarq» T., 1999.
10. K. Nazarov Falsafa «SHarq» T., 2004.
11. M. Ahmedova Osnovы filosofii «Uzbekistan» T., 1998.
12. I. Saifnazarov Kurs lektsii po filosofii «SHarq» T., 2004.
13. M. Safarboev, Z. Iskandarova Falsafa UrGU U., 2004.
14. B. To`ychiev Falsafa DITAF T., 2004.
15. K. Nazarov Falsafa (Ma’ruzalar matni) O`AJBIT T., 2000.
16. M. M. Xayrullaev Filosofiya lug`ati «O`zbekiston» T., 1976.
17. M. M Xayrullaev, K. Nazarov Falsafa: komusiy lug`at «SHarq» T., 2004.
18. I. Karimov Falsafadan va’zlar TDPU T., 2003.
19. J. Tulenov, Z. G`ofurov Falsafa TDPU T., 1997.

Katta o`qituvchi Jumaniyozov B.

9. Ma’ruza. Mavzu: Jahon sivilizatsiyasi va taraqqiyotning o`zbek modeli.

(2 soat)

Reja:

1. Jahon sivilizatsiyasining hozirgi davri va rivojlangan mamlakatlar taraqqiyoti.
2. O`zbekistonda jahon tarixining o`rganishga tsivilizatsion yondashuvning dolzarbligi
3. O`zbekistonning jahon tsivilizatsiya tarkibiy qismiga aylanishi imkoniyati va istiqbollari.

1. Jahon sivilizatsiyasining hozirgi davri va rivojlangan mamlakatlar taraqqiyoti.

O`zbekiston mustaqillikka erishgach, jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi bo`lish imkonini qo`lga kiritdi. Insoniyat taraqqiyotining bugungi holati zamonaviy tsivilizatsiyaning asosiy tamoyillari bilan uzviy bog`liq. Respublikamizning umuminsoniy tsivilizatsiya bilan uyg`unlashuvi ham ko`p jihatdan ana shunga bog`liq. Hozirgi paytda insoniyat o`z rivojining yangi bosqichiga ko`tarildi. U o`zida moddiy ishlab chiqarish yutuqlarini, insoniyat tomonidan ortgirilgan tajribalarni, jahon miqyosida paydo bo`lgan muammolarni oqilona hal etish yo`llari va usullarini mujassamlashtiradi.

Jahon tsivilizatsiyasi deganda SHarq va G`arb tsivilizatsiyalari, mintaqaviy va hududiy tsivilizatsiyalarning yaxlit, bir butun ijtimoiy tizimi bo`lgan umuminsoniyat, sayyoramizdagi jamiyattushuniladi. Butushuncha, umumiy ma'noda, zaminimizda yashagan barcha odamlarning umumiy makoni bo`lgan Er yuzidagi hayot, tarixning hamma davrlarida mavjud bo`lgan davlat, jamiyat, xalq va millatlarningumrguzaronlik qilishi bilan bog`liq jarayonlar majmuasini o`zida aks ettiradi.

Bugungi tahlikali dunyoda insoniyatning eson-omon yashab qolishi va kelajakda baxtiyor bo`lishi jahon tsivilizatsiyasining asosiy maqsadi va yo`nalishiga aylanib qoldi. Respublikamizda bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar butun dunyo hamjamiyati faoliyati bi-lan hamohang kechmoqda. Zero, jahon tsivilizatsiyasi xalqlar va millatlar, davlatlar va turli hududiy tsivilizatsiyalarning umumiy tizimidir.

Ayrimlik, o`ziga xoslik va umumiylik o`rtasidagi munosabatni teran anglash hozirgi zamon jahon tsivilizatsiyasining shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini falsafiy idrok etishga imkon beradi.

Er yuzidagi har bir mamlakat jahon tsivilizatsiyasi deb ataladigan yaxlit tizimning turli tarkiblari bo`lib, ularning o`zaro ta'siri, hamkorligi tsivilizatsiyaning takomillashuvi, barqaror yashashiga imkon beradi.

To`g`ri, bu tizim tarkibida Amerika, Rossiya, Xitoy, YAponiya kabi salmoqli tarkiblar ham bor. Ular ko`p jihatdan jahon tizimi taraqqiyotiga ta'sir ko`rsatadi, muayyan jarayonlarning yo`nalishlarini belgilaydi. Ammo bu tizimda har bir davlatning, kichkina Vatikan yoki Lixtenshteyndan tortib Ger.maniyagacha, Andorra yoki Monakodan toki Frantsiyagacha o`z o`rni, o`ziga xos ta'sir kuchi va doirasi bor. SHu ma'noda, ularning har biri, hududining katta-kichikligi, aholisining soni qanchaligidan qati nazar, birlashgan Millatlar Tashkilotida teng ovozga ega. Demak, tarkiblar tizimda muayyan tarzda amal qilgani singari xar bir mamlakat jahon

tsivilizatsiyasiga teng huquqli a’zo va muhim element sifatida kirib boradi.

Jahon hamjamiyati o`zida umumiylikni, har bir mustaqil mamlakat esa ayrimlik va o`ziga xoslikni ifodalaydi. Bu holda Osiyo yoki Markaziy Osiyo mamlakatlari xususiylikni aks ettirsa, O`zbekiston alohidalikni ifodalaydi. O`zbekiston mustaqillikka erishganiga ko`p bo`lmaganiga qaramay, jahon hamjamiyatida o`z o`rniga ega. Uning Markaziy Osiyodagi mavqei esa bu mintaqaning asosiy taraqqiyot yo`nalishlarini ko`p jihatdan belgilaydi.

Har bir xalq, millat o`zining betakror, noyob xususiyatlarini saqlagan holda mustaqil rivojlanadi va jahon hamjamiyatiga qo`shilib boradi. Bunday qo`shilish ko`p qirrali, rang-barang bo`lib, u ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, huquqiy, davlatlararo munosabatlarni qamrab oladi.

Jahon hamjamiyatiga qo`shilish tabiiy-qonuniyatli jarayon bo`lib, har bir mamlakatning har tomonlama taraqqiy etishi, er yuzida umumiy xavfsizlik, tiichlik va farovonlikni ta’minlashga, tabiiy resurslar, ilm-fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanishga, ekologik muvozanatni ta’minlashga imkon beradi. Mustaqil taraqqiyot yo`liga o`tgan xalqlarning jahon hamjamiyatiga qo`shilishi, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini e’tirof etish, xalqaro huquq me’yorlariga amal qilish, inson huquqlarini himoya etish, demokratiya tamoyillariga amal qilishda yaqqol namoyon bo`ladi.

Jahon tsivilizatsiyasiga qo`shilish natijasida nafaqat iqtisodiy sohada, balki xalqlar ma’naviyati, siyosati va dunyoqarashida ham muhim ijobiy o`zgarishlar ro`y beradi. Bunday jarayonga tushgan xalqlar o`rtasida bir-biriga ishonch, o`zaro hurmat, hamkorlik hamda sodir bo`ladigan ziddiyat va ixtiloflarni o`zaro kelishuv, konsensus asosida hal qilishga intilish vujudga keladi. Bir-birining madaniy yutuqlari, qadriyatlaridan, tajribalaridan bahramand bo`lish xohish-istagi shakllanadi. Xalqlarning bir-biri bilan jipslashish tendentsiyasi yaxlit, bir butun tsivilizatsiyani, insoniyatni e’zozlash kabi sayyoraviy ongni shakllantiradi. YA’ni, milliylik va umuminsoniylikning uyg`unligi jahon tsivilizatsiyasida yaqqol namoyon bo`ladi va dunyo hamjamiyatining harakat dasturiga aylanadi.

2. O`zbekistonda jahon tarixining o`rganishga tsivilizatsion yondashuvning dolzarbligi

Mustaqil O`zbekistonning jahon tsivilizatsiyasiga qo`shilishining falsafiy-metodologik muammolarini o`rganish nixoyatda muhim. O`zbekiston o`zining ko`p asrlik milliy davlatchiligi, madaniyati, ilm-fani, san’ati, o`ziga xos va betakror hayot falsafasi bilan jahon tsivilizatsiyasi rivojiga muhim hissa qo`shdi. O`zbek xalqi jahonga fan, san’at, falsafa, tibbiyot, siyosat, huquq, tarix sohalarida o`lmas asarlar yaratgan, buyuk allomalarni bergan. Biroq mustamlakachilik yillarida ro`y bergan quyidagi jarayonlar xalqimizning jahon tsivilizatsiyasiga qo`shilishi uchun imkon bermagan:

— o`z milliy davlatchiligiga ega bo`lmaganligi;

— milliy madaniyatning tabiiy rivojlanish imkoniyati cheklanganligi;

— mustabid tuzum mafkurasining tazyiqi ostida dunyodan o`zib qo`yilganligi;

— tarixi, ona tili. ma’naviy merosidan begonalashish alomatlari paydo bo`lgashshgi;

— milliy qadriyatlari, an’ana va urf-odatlarining yo`qolib borganligi, ularni

asrab-avaylash imkoniyatining kamligi va boshqalar.

Mustaqillik tufayli O`zbekiston o`z taraqqiyot yo`lini erkin tanlash, milliy davlatchilik asoslarini yaratish va jahon tsivilizatsiyasiga qo`shilish imkoniga ega bo`ldi. Mamlakatimiz o`z mustaqilligining dastlabki yillaridanoqjahon tsivilizatsiyasiga qo`shilish yo`lini tanladi.

Jaxon tsivilizatsiyasi yutuqlaridan baxramand bo`lish mustaqil rivojlanish yo`liga kirgan davlatning dunyo hamjamiyatida o`ziga xos rivojlanishini ta’minlaydi. Binobarin, har bir xalq mustaqil bo`lganidan keyin o`zining iqtisodiyoti, madaniyati, milliy davlatchilik siyosatini amalga oshiradi. U o`z imkoniyatlariga tayanib, jahon hamjamiyatiga kirib borar ekan, bu jarayon milliy falsafada ham o`z ifodasini topadi.

Mustaqillik milliy falsafaning negizi, uning umumjahon falsafiy jarayoni bilan qo`shilishi va uyg`unlashuvining eng asosiy shartidir. Mustaqillikka erishmagan xalq milliyligini, o`ziga xos qadriyatlari, urf-odatlari, ruhiyati va dunyoqarashini o`z fal-safasida to`la-to`kis aks ettira olmaydi.

Mustaqil bo`lmagan xalqning falsafasida mustamlakachilarning g`oyalari doimo ustuvor bo`ladi. Faqat mustaqillikkina ijtimoiy ongning hamma sohalarida, dunyoqarashning barcha jabxalarida milliylikning to`la-to`kis namoyon bo`lishi uchun zamin yaratadi.

Tarixning saboq berishicha. hech qanday davlat boshqa bir davlatga, boshqa bir xalqqa o`z manfaatlarini ko`zlamasdan beg`araz yordam ko`rsatmaydi. Jahon tsivilizatsiyasiga qo`shilish har bir mustaqil rivojlanayotgan davlatning taraqqiyotida o`z kuchi va imkoniyatlariga, ilg`or an’analariga, qadriyatlariga, milliy davlatchilik tajribalariga, intellektual salohiyatiga, tabiiy boyliklariga tayanishini inkor etmaydi, balki ularning keng rivojlanishini taqozo etadi.

Erkinlik, mustaqillik hamisha zaruratni, mas’uliyatni anglashni taqozo etadi, erkinlik va mustaqillik jamiyatning har bir a’zosi oldiga "Biz kim edik?", "Hozir qanday ahvoldamiz?" va "Kdnday bo`lishimiz kerak?" degan savollarga vijdonan javob berishni talab etadi. Mustaqillik yillarida farovon va baxtli hayotni bizga kimdir yaratib bermasligini, balki o`z aqlimiz, kuchimiz bilan yaratishimiz lozimligini anglashni taqozo etadigan dunyoqarash shakllangani bu savollarga javoblar izlanilayotganligidan, ularni hal qilish choralari ko`rilayotganidan dalolat beradi. Boshqa mamlakatlardan, yaxlit va bir butun jahon tizimidan ajralib qolgan holda bu borada ham taraqqiyotga erishib bo`lmaydi.

Taraqqiyotga tsivilizaiiyali yondashuv o`ziga xos xususiyatlarga ega. O`zbekiston va jahon tarixini o`rganishga bunday qarash hozirgi zamon falsafasida muhim yo`nalishlardan biri sifatida qaror topmoqda. U tarixiy xaqiqatni xolisona baxrlashga, milliy xusu-siyatlarning o`ziga xosligini anglashga, insoniyatning ilg`or rivojlanish tajribalarini bilishga va ulardan ijodiy foydalanishga imkon beradi. Jahon tarixiga tsivilizatsiyali yondashuv insoniyat taraqqiyoti zo`rliksiz va inqilobiy sakrashlarsiz o`ziga xos tadrijiy yo`ldan ilgarilab borganida jamiyat katta foyda ko`rishi, odamzod boshiga turli ijtimoiy ofatlar tushmasdan rivojlanishi mumkinligini ko`rsatadi.

3. O`zbekistonning jahon tsivilizatsiya tarkibiy qismiga aylanishi imkoniyati va istiqbollari

O`zbekistonning dunyo tsivilizatsiyasiga qo`shilishining asosiy yo`nalishlari,

mamlakatimiz istiqloli va o`ziga xos tadrijiy taraqqiyot yo`lining nazariyasi, amaliyoti I. A. Karimovning "O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li", "O`zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy yo`nalishlari", "O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida", "O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "O`zbekiston XXI asrga intilmoqda" kabi asarlari, nutq hamda maqolalarida keng yoritilgan.

O`zbekiston mustaqilligi ob'ektiv zaruriy jarayon, ajdodlarimizning azaliy orzusi, o`zbek xalqining buyuk tarixiy yutug`idir. Bunda quyidagilar alohida e'tiborga molik:

— O`zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi;

— milliy mustaqillik ramzlari bo`lgan davlat bayrog`i, davlat madhiyasi, davlat gerbining qabul qilinishi;

— milliy davlatchilik demokratik tizimining shakllanganligi;

— xalqimiz tabiat ato etgan barcha boyliklarga egalik huquqini o`z qo`liga olganligi;

— milliy armiya va xavfsizlik tizimi yaratilganligi;

— milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish. O`zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, jamiyat hayotini tubdan isloh etishning asosiy tamoyillari Prezident I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Bu jarayonning umuminsoniy jihatlari va jahon tsivilizatsiyasiga xos tomonlarining amalga oshishi muayyan muddatni talab qiladi. Bu muddatda amalga oshiriladigan barcha ishlar o`tish davri zaruratidan kelib chiqadi.

Mustabid tuzum davrida jahon tsivilizatsiyasidan ajratib qo`yilgan O`zbekiston bu borada ikkita uzviy yo`nalishda faoliyat yuritishga majbur bo`lmokda. Birinchidan, mustaqillikni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni tiklash va asrab-avaylash asosida o`ziga xos va o`ziga mos yo`ldan borish. Ikkinchidan esa, bu jarayonda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini ta'minlash, jahon tsivilizatsiyasi yutuqlaridan keng foydalanish, demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirioqda.

Bir qarashda ikki xil yo`lga o`xshab ko`ringan bu taraqqiyot usuli aslida umumiy jarayonning uzviy bog`liq ikki jihati, bir-birini taqozo etadigan omonlarning dialektikasidir. O`zbekistonning I.A. Karimov tomonidan asoslab berilgan o`ziga xos taraqqiyot yo`li quyidagi tamoyillarni nazarda tutadi:

1) iqtisodningsiyosatdan ustuvorligi;

2) davlatning bosh islohotchi ekanligi;

3) qonun ustuvorligi;

4) kuchli ijtimoiy siyosat;

5) bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o`tish. O`zbekistonning tadrijiy taraqqiyot yo`li ayrim davlatlarning bozor munosabatlariga "shok terapiya"si usuli bilan o`tish tajribasidan keskin farklanadi. O`zbekistonning mustabidlikdan qutulgan dastlabki davrdagi o`ziga xos iqtisodiy ahvoli, sobiq ittifoq davrida o`lkaning xom ashyo etkazib berishga ixtisoslashishi kabi og`ir meros bilan birga xalqning ming yillik tajribasi, undan kelib chiqadigan xulosalar bozor munosabatlariga tadrijiy ravishda bosqichma-bosqich o`tishni taqozo etdi.

Uzoq yillar davomida shakllangan iqtisodiy strukturada tub o`zgarishlarni zudlik bilan qisqa vaqt ichida amalga oshirishning salbiy oqibatlari oldini olishga va puxta o`ylangan strategik rejalarni amalga oshirishga adoxida e'tibor berildi. Islohotlarning

amalga oshirilishi milliy manfaatlar uchun xizmat qilishi zarurligi, odamlar islohotlar uchun emas, balki islohotlar odamlar uchun xizmat qilishi zarurligi e’tiborga olindi.

Islohotlar amalga oshirilgunga qadar respublika aholisining aksariyat qismi iqtisodiy jihatdan nochor ahvolda bo`lib, mulkning davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirilishi jarayonida aholining ikki toifaga ajralishi, haddan tashqari boyib va qashshoklashib ketishi muqarrar ravishda turli noroziliklar va ijtimoiy larzalarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Ana shularni hisobga olib, I.A. Karimov bozor munosabatlariga o`tishning muhim xususiyatlaridan biri sifatida aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan kuchli siyosat g`oyasini ilgari surdi.

Bozor munosabatlarini amalga oshirish bir necha bosqichdan iborat qilib belgilandi. Har bir bosqichda ma’lum iqtisodiy tadbirlar amalga oshirildi. Bular quyidagilardir:

— mulkni xususiylashtirish;

— mulkningdavlattasarrufidan chiqarilishi;

— mulkning xilma-xil shakllarini vujudga keltirish;

— agrar islohotlarni amalga oshirish;

— milliy valutani muomalaga kiritish;

— yangi iqtisodiy infrastrukturaning yaratilishi;

— rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikdagi qo`shma korxonalarning barpo etilishi;

— innovatsiya siyosatini amalga oshirish;

— xorijiy investitsiya, texnika va texnologiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish va boshqalar.

Xullas, bozor munosabatlariga o`tishning madaniy tsivilizatsiyali xarakterga ega ekanligi O`zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning muhim xususiyatidir. CHinakam tsivilizatsiyalashgan bozor munosabatlari, bozor vositalari faqat yuksak ma’naviyat, yuksak axloqiylik va vatanparvarlik negizlarida barpo etilishi mumkin. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va bozor munosabatlarini shakllantirishda respublikamizning bugungi holati, imkoniyatlaridan kelib chiqib, islohotlarning maqsadi xalq va davlat munosabatlari tomon yo`naltirildi.

O`zbekistonnkng jahon hamjamiyatiga kirishiga imkon beradigan qulay shart-sharoitlar quyidagilardir:

— mamlakatning nihoyatda ko`p boyliklarga ega ekanligi;

— sanoat uchun zarur bo`lgan xom ashyo zaxiralarining ko`pligi;

— ishchi kuchlarining mo`lligi;

— O`zbekistonning tabiiy-jo`g`rofiy qulay o`rni;

— mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik.

Ana shu imkoniyatlarning ro`yobga chiqishi O`zbekistonning iqtisodiyot sohasida jahon tsivilizatsiyasiga qo`shilib borishi uchun keng istiqbollar yaratadi.

O`zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar negizida kishilarning mehnatga, mulkka, mehnat mahsuliga bo`lgan munosabatini o`zgartirish g`oyasi yotadi. Uzoq yillar davomida mehnatga bo`lgan qarashlarda bir yoqlamalik hukm surib keldi. Ishlab chiqarish vositalariga bo`lgan ijtimoiy mulkchilik - kishilar mehnat faolligining asosi barcha ijtimoiy illatlarning bosh sababchisi - xususiy mulkchilik degan noto`g`ri qarash o`zini oklamadi. SHaxsiy manfaatdorlikni inkor etish, jamoa, jamiyat uchungina faol mehnat qklish, iqtisodiyotni mafkuraviy maqsadlarga bo`ysundirish, mehnat raqobati o`rniga soxta musobaqani joriy etish insonning mehnatdan, o`z-o`zidan va

jamiyatdan begonalashuviga, boqimandalik kayfiyatining shakllanishiga olib keldi. Bu esa jamiyat inqirozini tezlashtirdi.

O`zbekiston sharoitida bozor munosabatlarini shakllantirishda mehnatga, mulkka va insonning o`z-o`ziga bo`lgan munosabatini tubdan o`zgartirishning nazariy-falsafiy asoslarini ishlab chiqish zarurati vujudga keldi va bu I.A. Karimov asarlarida o`z ifodasini topdi. Mehnat va mehnatga munosabat sohasida qator yangiliklar joriy etildi. Mehnatga munosabatda xususiy mulkning o`rni, mulkdorning jamiyat hayotidagi ahamiyati yangicha tushunila boshlandi. Davlat va jamiyatning kuch-qudrati fuqarolarning tadbirkorligi, boyligi, ishbilarmonligiga bog`liq ekani anglab olindi.

Bozor munosabatlari sharoitida mahsulot sifati va samaradorligini yaxshilashning muhim qonuniyatlaridan biri raqobatli muhitni yaratish, kishilarda xo`jayinlik hissini shakllantirish, mehnat mahsuliga egalik qilish, shaxsiy manfaatdorlik va uni davlat manfaatlari bilan bog`lash muhim tamoyil sifatida joriy etila boshlandi. Mexnatni tashkil etish jarayonida kishilarning kasbiy mahorati, bilimi, tajribasi, ko`nikma va malakasi, mehnat madaniyati, mehnatni tashkil etishga ijodiy yondashish kishilarning mehnat va mulkka bo`lgan munosabatini ko`rsatuvchi mezonga aylandi.

Mulk nima? Har bir inson o`zining ongli faoliyatida mulkka ega bo`lishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi. Bu mulk insonning akdiy va jismoniy mehnat faoliyatida yaratilgan va uning barqaror yashashi uchun kafolat beradigan moddiy va intellektual boylikdir.

Mulk avloddan-avlodga meros bo`lib o`tishi xam mumkin. Mulk mulkdorning tasarrufida bo`lgan barchatirikchilik va ishlab chiqarish vositalaridir. Mulkning shaxsiy, xususiy, jamoa, davlat mulki singari shakllari mavjud. Mulk egasi o`z tasarrufidagi mulkni asrab-avaylaydi, tejaydi, undan oqilona foydalanadi va muttasil ravishda ko`paytirishga harakat qiladi.

Bozor munosabatlariga o`tish davrida davlat xususiy mulkni ko`llab-quvvatlaydi, mulkchilikning turli shakllarini rivojlantiradi, xususiy mulk daxlsizligini huquqiy kafolatlaydi, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar berishni yo`lga qo`yadi. Bu esa ularning mulkdor bo`lishi, o`rta mulkdorlar sinfining shakllanishi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Mustaqillik sharoitida akliy mehnat mahsuli bo`lgan fan, san’at asarlari, darsliklar, o`quv qo`llanmalari, ta’lim-tarbiyaning yangi kontseptsiyalarini yaratish intellektual mulk hisoblanadi. Intellektual mulk egasi o`z mehnati mahsulini o`z xohishicha tasarro`f etadi. Bunday mulkning qadr-qimmati, bahosi, sifati, jamiyatda tutgan o`rni raqobatli muhitda yaqqol namoyon bo`ladi. Intellektual mulkning talabgori, buyurtmachisi davlat va jamiyatdir.

Mehnat jarayonida yaratiladigan har qanday mahsulot o`z qiymatiga ega bo`ladi. Qiymat mahsulotda o`z ifodasini topadigan xodim-ning aqliy vajismoniy kuchi, qobiliyati, bilimi, sarflagan vaqti, xom ashyo, yoqilg`i, energiya, yo`l xarajatlari uchun mablag`i va xokazolardir. Mulkdor mahsulot ishlab chiqarishga kamroqxarajat qilib, ko`proq foyda olishga intiladi. Foyda bozor munosabatlari sharoitida amal qiladigan muhim qonukiyatlardan biridir. Xususiy mulkning rivojlanishida foyda hal qiluvchi o`rin tutadi. Hozirgi paytda mehnat, mulk, foyda tushunchalarini falsafiy-iqtisodiy jihatdan teran idrok etish, yoshlar dunyoqarashida yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish ularning jahon tsivilizaiiyasi andozasi talablari darajasida fikr yuritishi va faoliyat ko`rsatishi uchun zamin yaratadi.

O`zbekistondagi demokratik jarayonlar jahon tsivilizatsiyasi bilan uyg`unlashishning yana bir imkoniyatidir. O`zbekistonning jahon tsivilizatsiyasiga qo`shilib borishida demokratik jarayonlar-ni va rivojlangan davlatlarning siyosiy tajribalarini ijodiy o`rganish va hayotga tatbiq etish muhim o`rin tutadi.

O`zbekiston qonunchiligini xalqaro huquq talablariga muvofiqlashtirish, nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo`lish, hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlariga bo`lish, mamlakat Prezidentini muqobillik asosida saylash, fikrlar xilma-xilligi va ko`p partiyaviylik tizimini qaror toptirish, demokratik qadriyatlarni hayotga tatbiq etish, O`zbekistonning jahon tsivilizatsiyasiga qo`shilib borayotganidan dalolat beradi.

O`zbekistonning jahon tsivilizatsiyasiga kirib borishidagi tajribalarini falsafiy idrok etish va umumlashtirish, ayniqsa, muhimdir. Prezident I.A. Karimovning qator asarlarida yuksak ma'naviyat jamiyat taraqqiyotida muhim omil ekanligi to`g`risidagi g`oya yangicha falsafiy tafakkurning metodologik asosi, jaxon taraqqiyoti tajribalariga tayanishning yorqin namunasidir. Milliy g`oya va milliy mafkura o`zida mamlakatimizning jahon tsivilizatsiyasiga qo`shilish nazariyasi, yo`llarini yaqqol aks ettiradi.

O`zbekistonning jahon tsivilizatsiyasiga qo`shilish tajribasi, uning milliy g`oyasi va mafkurasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun olamshumul ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon tsivilizatsiyasining muhim xususiyatlarini va O`zbekistonning iivilizatsiyali taraqqiyot yo`lidan jahon hamjamiyatiga qo`shilib borishini, milliy g`oya va mafkurani falsafiy idrok etish talabalarda Vatan tuyg`usi, ma'rifatparvarlik, milliy g`urur, burch, mas'uliyat hissini tarbiyalashga yordam beradi.

Asosiy tushunchalar

TSivilizatsiya, istiqlol, mustaqillik, erkin taraqqiyot, o`zbek modeli, iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy plyuralizm, bozor munosabatlari, tamoyil, barkamol avlod.

Asosiy tushunchalar

1.Jahrn tsivilizatsiyasining asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo`ladi?
2.Taraqqiyotning o`zbsk modsli konieptsiyasini qanday tushunasiz?
3.Jahon tsivilizaiiyasiga kirishda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi o`zgarishlarning ahamiyati qanday?

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T. O`zbekiston 1992
2. Karimov I. A. YAngicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – T: O`zbekiston 5 – j, 1997
3. Karimov I. A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat,
4. Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo`lida – T, O`zbekiston 1999
5. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T, O`zbekiston 2000
6. M. Ahmedova Falsafa darslik O`z. fay. jam. T., 2006.
7. K. Nazarov Falsafa asoslari «O`zbekiston» T., 2005.
8. K. Nazarov Falsafa O`AJBIT T., 2004.
9. E. YUsupov Falsafa «SHarq» T., 1999.

10. K. Nazarov Falsafa «SHarq» T., 2004.
11. M. Ahmedova Osnovы filosofii «Uzbekistan» T., 1998.
12. I. Saifnazarov Kurs lektsii po filosofii «SHarq» T., 2004.
13. M. Safarboev, Z. Iskandarova Falsafa UrGU U., 2004.
14. B. To`ychiev Falsafa DITAF T., 2004.
15. K. Nazarov Falsafa (Ma'ruzalar matni) O`AJBIT T., 2000.
16. M. M. Xayrullaev Filosofiya lug`ati «O`zbekiston» T., 1976.
17. M. M Xayrullaev, K. Nazarov Falsafa: komusiy lug`at «SHarq» T., 2004.
18. I. Karimov Falsafadan va'zlar TDPU T., 2003.
19. J. Tulenov, Z. G`ofurov Falsafa TDPU T., 1997.

Katta o`qituvchi Jumaniyozov B.

IV - semestr

10. Ma'ruza. Mavzu: Mantiqning tadqiqot ob'ekti, predmeti, vazifalari va rivojlanish bosqichlari. (2 soat)

Reja:

1. Tafakkur – mantiq ilmining o`rganish ob'ekti.
2. Mantiq fanining predmeti.
3. Mantiq fani rivojlanishining asosiy bosqichlari.
4. Tilning mantiqiy tahlili.

1. Tafakkur – mantiq ilmining o`rganish ob'ekti.

Bilish – olamning inson ongida in'ikos etishi jarayoni bo`lib u faqat insongagina xos bo`lgan ma'naviy extiyoj, xayotiy zaruriyatdir. Bilishning mohiyati voqelikni adekvat – to`g`ri aks etishidan iboratdir. Insonning voqelikka bo`lgan munosabatining asosiy, zaruriy jixatlaridan biri uning bilishidir. Bilish bizni o`rab turgan predmetlarni aniqlash, voqealarni tahlil qilish va xodisalarni oldindan ko`ra bilish, yangi bilimlarga ega bo`lishimiz uchun zarurdir.

Bilish voqelikning, shu jumladan, ong xodisalarining inson miyasida sub'ektiv, ideal obrazlar shaklida aks etishidan iborat. Bilish jarayonining asosini va oxirgi maqsadini **amaliyot** tashkil etadi. Barcha xollarda bilish insonning xayotiy faoliyati bilan u yoki bu darajada bog`liq bo`lgan, uning ma'lum bir extiyojining qondirishi mumkin bo`lgan narsalarni tushunib etishga bo`ysundirilgan bo`ladi. Bilish jarayonini amalga oshirar ekan, kishilar o`z oldilariga ma'lum bir maqsadlarni qo`yadilar. Ular o`rganilishi lozim bo`lgan predmetlar doirasi, tadqiqot yo`nalishi, shakllari va metodlarini belgilab beradi.

Kishilarning tabiat qonunlari xaqidagi bilimiga asoslangan amaiy faoliyatlari bilish taraqqiyotini, fan va texnika ravnaqini belgila ydi. Sezgi, tasavvur va tushunchalarimizning ob'ektivligini tekshirish bilish jarayonining eng muxim vazifasidir.

Amaliyot – xaqiqat mezoni. Bilimlarimizning xaqiqiyligi amaliyot orqali tekshiriladi, tasdiqlanadi. Bilish jarayoni jonli mushoxada (xissiy bilish) dan abstrakt (mavxum) tafakkurga, undan esa amaliyotga o`tish bilan xarakterlanadi.

Insonning bilish jarayoni o`z moxiyati va xarakteri jixatidan o`zaro farqlanuvchi ikki bosqichdan iborat.

Birinchisi; sezgilar orqali xissiy bilish bo`lib, u sezgilar, qabul qilish, xotira va tasavvurdan iboratdir.

Ikkinchidan; aqliy bilish bosqichi bo`lib, u tafakkurdan iborat.

Hissiy bilish bosqichi dunyoni bevosita sezgi organlari orqali bilishdir. Sezgilarimiz orqali moddiy dunyodagi buyumlarning biron xususiyatini bilib olamiz, ya’ni uning qattiqligi, rangi, hidi, mazasi va shu kabilarni ongimizda aks ettiramiz. Hozirgi zamon biologiya fani sezgi mexanizmini xar tamonlama o`rganib, uning murakkab nerv sistemasi bilan bog`liq ekanligini, u miya vazifasi bilan uzviy bog`liq ekanligini ko`rsatdi. Voqelikdagi predmetlar inson ongi orqaligina seziga aylanadi. Demak, sezgi ob’ektiv borliqning sub’ektiv obrazidan iborat. Insonni ob’ektiv muhit bilan bog`lovchi, undagi predmet va xodisalar to`g`risida tasavvur xosil qiluvchi sezgilar asosan beshta: ko`rish, eshitish, ta’m – maza sezish, xid sezish, teri sezgisi. Sezishning boshqa turlari esa shu asosiy besh sezgidan kelib chiqadi yoki ularni to`ldiradi.

Sezgidan ko`ra murakkabroq psixik jarayon **idrokdir**. Idrok predmetning yaxlit yaqqol obrazi bo`lib, u mazkur predmet xaqidagi turli xil sezgilarni sintez qilish natijasida xosil bo`ladi. Aloxida olingan sezgilardan farqli o`laroq, idrok berilgan predmetni boshqa predmetlardan farq qilish imkonini beradi. Inson miyasining umumlashtiruvchi faoliyatiga asoslangan bu aks ettirish jarayoniga kishining oldingi tajribalari xam qo`shiladi. SHularga asoslangan idrok qilish narsalarning zarurroq, chuqurroq tomonlarini aqlan ajratib olishga va bilishga imkon beradi.

Tasavvur avvalo idrok etilgan predmetning obrazini ma’lum bir signallar ta’sirida miyada qayta xosil qilishdan, yoki shu va boshqa obrazlar negizida yangi obraz yaratishdan iborat xissiy bilish shaklidir. Miya inson ilgari idrok qilgan narsani o`z xotirasida saqlab qolish va uni qayta tiklash qobiliyatiga ega. Sezgi a’zolariga ta’sir ko`rsatmayotgan buyumning ana shunday qayta tiklangan qiyofasi tasavvur deb ataladi. (masalan, kecha ko`rgan odamning qiyofasini miyamizda qayta tiklaymiz).

Hissiy bilishning yana bir shakli – **xissiyotdir.** Hissiyot tushunchasi o`zbek tilida ikki ma’noda ishlatiladi. Birinchisi, bilishning dastlabki bosqichi sifatida, ikkinchisi esa shu bosqichning aloxida shakli sifatida, ya’ni hissiy bilishning shakli sifatida ishlatiladi. Hissiyot kishining atrofdagi narsalarga, bilishga va shu kabilarga munosabatini ko`rsatadi.

Inson narsalar va xodisalardan, o`zining ichki kechinmalaridan xursand bo`ladi yoki xafa bo`ladi, qo`rqadi yoki botirlashadi, yaxshi ko`radi yoki nafratlanadi, qoniqadi yoki qoniqmaydi va xokaza. Demak, hissiyot inson hissiy bilishining sezgi, idrok, tasavvurlariga qaraganda murakkabroq shaklidir.

Hissiy bilish bizga narsalarning ichki bog`lanishlari va rivojlanish qonunlari, moxiyati, zaruriy bog`lanishlarini ochib bera olmaydi. Bunga biz tafakkur, aqliy bilish orqali erishamiz.

Inson hissiy bilish bosqichida to`xtab qolmaydi. U mazkur bosqich doirasidan

chiqishi, narsalarning umumiy, zaruriy va muxim xususiyatlari xamda munosabatlarini, ularning bevosita hissiy mushoxada qilib bo`lmaydigan qonuniy aloqalarini bilib olishi mumkin. Bunga abstrakt tafakkur – bilishning mantiqiy bosqichi orqali erishiladi.

Bilish jarayonining sifat jixatdan yangi, oliy bosqichi – mavxum tafakkur jamiyatdan va tildan tashqarida bo`lmaydi. U – **amaliyotning,** tarixiy taraqqiyotning maxsuli. Tafakkur voqelikning umumlashtirilgan, ya'ni bilvosita aksidir. Tafakkur va til bir – biri bilan chambarchas bog`langan. Til bo`lmas ekan umumlashtirish jarayoni xam bo`lmaydi. Inson tafakkuri uning tili bilan barcha takomillashib rivojlangan. Tilda tafakkurning ish natijasi mustaxkamlanadi. Til o`zining shu xislati bilan insonga bilim to`plashga, uni saqlashga, avloddan – avlodga uzatishga, to`plagan bilim boyliklaridan unumli foydalanishga yordam beradi. SHu bilan birga, til tafakkurni takomillashtirish, mavxumlashtirish, umumiylashtirish va juz'iylashtirish qurolidir. Til tafakkurning moddiy qobig`i, tilsiz, nutqsiz fikr yuritish aslo mumkin emas.

Inson tafakkuri sezgi, idrok, tasavvur va hissiyotdan o`zining qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?

Birinchidan; tafakkur sezgi organlariga nisbatan narsalar va xodisalarni ancha chuqur ochib, biz bevosita sezmagan va seza olmagan xodisalar, jarayonlar, ularning xossalarini bilishga imkon beradi.

Ikkinchidan; tafakkur sezgilariga nisbatan voqelikni umumiyroq aks ettirib, narsa va xodisalarning mushtarak xossalarini ifodalash bilan ular orasidagi doimiy munosabat va aloqalarni aniqlaydi.

Uchinchidan, sezgilar yordami bilan biz ayrim narsa, xodisalar va ular orasidagi oddiy munosabatlarnigina bilamiz. Tafakkur esa narsa va xodisalarning o`zaro umumiy bog`lanishi, taraqqiyot qonunlari, ularning umumiy va muhim xossalari haqida bilim beradi.

To`rtinchidan, tafakkur yordami bilan voqelikning umumiy tomonlarini aks ettirish orqali biz yakka, konkret buyumlar moxiyatini xam bilib olamiz.

Til va tafakkur reallikni bilish, boshqa insonlar bilan munosabatda bo`lish, ob'ektiv reallikka ta'sir ko`rsatish, xar bir ishni oldindan o`ylab, ongli ravishda amalga oshirish kabilarda ko`rinuvchi, umuman inson faoliyatining ongli, maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi insongagina xos bo`lgan tarixiy muxim xislatdir. Demak, tafakkur ongning yuksak darajada namoyon bo`lishi, voqelikni umumlashtirish, mavxumlashtirish, muayyan tushunchalar, xukmlar va xulosa chiqarish shakllari orqali fikrda til orqali bilishdir. Tafakkur bavosita bilish bosqichidir. Mana shu tafakkur mantiq ilmining tekshirish ob'ektidir.

2. Mantiq fanining predmeti.

Mantiq (yunoncha. Logos – fikr, so`z, qonun) – ma'nolarini anglatadi. Mantiq keng ma'noda olamdagi qonuniy, zaruriy bog`lanish va aloqalar, tartib va izchillik, tafakkurimizning ichki aloqadorligi, tadrijiy fikrlanishini, turli fikrlar o`rtasidagi mantiqiy bog`lanishlarni ifodalaydi. Ob'ektiv olamni bilish hissiy bilishdan, ya'ni sezgi, idrok va tasavvurdan boshlanadi. Biroq, hissiy bilish bizga narsa va hodisalarning tashqi tomonlari,

zohiriy bog`lanishlari to`g`risida ma’lumot berish bilan cheklanib, ularning ichki, botiniy bog`lanish va rivojlanish qonunlarini ochib bera olmaydi. Bu vazifani tafakkur ado etadi. Tafakkur voqelikni umumlashtirib va mavxumlashtirib, muayyan mantiqiy shakllarda, ya’ni tushuncha, hukm va xulosalar hamda ular o`rtasidagi aloqalar ma’lum mantiqiy qonun – qoidalarni vujudga keltiradiki, to`g`ri, aniq, izchil, ziddiyatlardan holi fikrlash ana shu qonun – qoidalarga amal qilishni taqoza etadi. Mantiq fani ana shu qonunlar bilan shug`ullanadi. Bu qonunlar amaliyoti natijasida vujudga kelgan bilimlar isbotlanadi yoki rad etiladi, ularning to`g`riligi yoki xatoligi tasdiqlanadi, yoki inkor etiladi.

Tafakkurni mantiq fanidan tashqari falsafa, fiziologiya, psixologiya, formal logika, matematik logika, dialektika, kibernetika fanlari xam o`z predmeti nuqtai nazaridan o`rganadi. Grammatika ham mantiq faniga yaqin. Tushuncha va xukmlarning ifodalanish strukturasini aniqlashda grammatikaning roli katta. Biroq yuqorida tilga olingan fanlarning xar biri tafakkurga o`z nuqtai nazaridan yondoshadi, uning turli qirralarini ochib berishga qaratilgan. Mantiqning ana shu g`oyat tarmoqlanib ketgan turlari orasida inson tafakkurining eng oddiy qonun – qoidalari bilan qurollantiradigan, uni to`g`ri fikrlashning tamoyillari bilan tanishtiradigan muxim tarmog`i formal mantiq bo`lib, u tarixiy kelib chiqashi nazarda tutilib, klassik, an’anaviy mantiq, ommaviyligi nuqtai nazaridan esa umumiy mantiq deb ham yuritiladi.

Mantiq fani inson tafakkurining shakllari, qonunlari va usullarini o`rganadi. Mantiq fani kishida tafakkurni rivojlantiradi, unda umumiy tushunchalar, kategoriyalar bilan ish ko`rish ko`nikmalarni hosil qiladi. Bu esa, bugunki ilmiy texnika jarayonidagi ildam odim otib borayotgan sharoitda ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ilmiy – nazariy ma’lumotlarni samarali tahlil qilishda muhim rol o`ynaydi.

Ilmiy bilim masalasida metod muammosi bilan eng qadimgi falsafada Arastu shug`ullangan. Birinchi marta fanni usul tizimi asosida o`rganish masalasini F. Bekon ilgari surgan. R. Dekart va I. Kantlar ham bu masalaga aloxida e’tibor qaratganlar. Gegel metodologiyaga muxim xissa qo`shdi. Ilmiy bilish jarayonida xar bir fan konkret tadqiqot ob’ektiga ega ekan, o`zining maxsus usullarini ishlab chiqishi zarur. Lekin ba’zi bir fanlar bir – biriga yaqin bo`lgani uchun ularning tushuncha va qonunlari ham bir – biriga yaqindir. Demak, bilimda xususiylik va umumiylik vazifasini bajaruvchi usullar xam mavjuddir. Ko`pchilik fanlarda qo`llaniladigan usullar umumiy usul deyiladi. Umumiy usul qo`llanilishi doirasiga ko`ra umumiy, lekin o`z maxsus vazifasiga ega. Bunga mantiq fanidagi tushuncha hosil bo`lishining quyidagi usullarini ya’ni analiz va sintez, umumlashtirish va mavxumlashtirish, induktsiya va deduktsiya, qiyoslash va modellashtirishni ko`rsatish mumkin. SHunday qilib bilim jarayonida ilmiy tadqiqotning xususiy umumiy va eng umumiy usullari mavjud bo`lib, ular o`zaro bir – biriga bog`liq. Dialektik usul real olamni ilmiy bilishning eng umumiy usuli bo`lib, u barcha fanlar uchun metodologiyadir.

Ilmiy bilim metodlarining nazariy asosi rivojlanib borayotgan fanning extiyojlari taqozasi bilan yuzaga kelgan bo`lib, u tabiat, jamiyat va inson ongining murakkab xodisalarini to`g`ri ob’ektiv talqin etishga, fanning tabiiy aloqalarini ochishga imkon beradi.

Ilmiy taraqqiyot sharoitida ilmiy bilim faoliyatining shakllari va usullari, tartib qoidalari, mantiqi va tuzilmasi fanda yangi – yangi yutuqlarni qo`lga kiritish imkonini

yaratmoqda.

3. Mantiq fani rivojlanishining asosiy bosqichlari.

Xar bir fan kabi mantiq ilmi xam o`zining shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Mantiqka oid dastlabki an’analar Qadimgi SHark mamlakatlarida, xususan Xindiston, Xitoyda vujudga keldi. Ularning shakllanishiga notiklik san’ati, matematika ilmining rivojlanishi va shu kabilar katta ta’sir kursatdi. SHuni aytish kerakki, Kadimgi dunyoda Aristotelgacha bo`lgan davrda mantiq falsafa tarkibida mavjud bo`lgan, mustakil fan sifatida shakllanmagan.

Qadimgi Xindistonda mantiq ilmining rivojlanishi uch davrni o`z ichiga olgan: 1) ilk budda mantiqi (er.av.VI – V asrlari); 2) n’yaya, vaysheshika maktablarining mantiqiy ta’limoti (er. III – V asrlari); 3) budda mantiqining rivojlagan davri (er. VI – VIII asrlari) Xind mantiqshunoslari baxs – munozarada nima isbotlanayapdi va qanday isbotlanayapti, degan masalani ajratib kursatishgan.

Ular isbotlashning elementlarini (tezis, asos, misol, birxillik, xarxillik, bevosita xissiy kabullash xulosa, avtoritet va shu kabilarni) batafsil taxlil etganlar N’yaya maktabining vakillari xulosa chikarish masalasini o`rganishga katta xissa kushdilar. SHuningdek, ular besh kisimdan iborat sillogizim nazariyasini yaratdilar:

1. Tesiz (tepalikda olov bor);
2. Asos (tepalikdan tutin chikayapdi);
3. Misol (kaerda tutun bulsa, shu erda olov bor);
4. SHu xolatga nisbatan kullash (bu tepalikda tutun bor);
5. Xulosa (demak, tepalikda olov bor).

Qadimgi Xind mantiqshunoslar Dignaga, Dxarmakirti va ularning shogirtlari tomonidan tushuncha, xukum, ayniksa xulosa chiqarish bilan boglik masalalar kengrok, chukurrok taxlil kilindi. Dignada xulosa chikarishda mantiqiy asosga xos bo`lgan uch xususiyatni kursatib utadi: mantiqiy asos xulosa chikarish ob’ekti bilan boglik bo`ladi, bir turdagi ob’ektlar bilan boglik bo`ladi, bir turdagi ob’ektlar bilan boglik bo`ladi, xar turdagi ob’ektlar bilan boglik bulmaydi. Bu xulosa chikarishning asosiy shartlari bo`lib, ularning buzilishi mantiqiy xatolar olib keladi. Dxarmakirti xulosa chikarishning «uzi uchun» va «boshkalar uchun» turlarini, shuningdek, muxokamada uchraydigan mantiqiy xatolarni batafsil o`rgangan.

Qadimgi Xindistondagi shakllangan mantiq an’analari Kadimgi Gretsiyada mantiq ilmining paydo bo`lishiga ta’sir kursatgan. Qadimgi grek falsafasida mantiq masalari, dastlab, Parmenidning «Tabiat to`g`risida» asarida, Eleylik Zenonning aporiyalarida, Geraklit ta’limotida u yoki bu darajada kurib chikilgan. Aristotelgacha bo`lgan mantiqiy ta’limotlar ichida Demokritning mantiqiy ta’limoti, Sokratning induktiv metodi va

Platonning dialektikasi dikkatga sazavordir.

Demakrit (er. av. 460 – 370) mantiqiy ta’limotida fikrning chinligi masalasi muxim urin tutadi. U kuprok induktsiya va analogiyani o`rganishga e’tibor beradi, xakikatni bilsh uchun yakka buyumlarni kuzatish, xis kilish orkali umumlashtirish zarur, deb ta’kidlaydi. Xukmni sub’ekt va predikatning uzaro alokasidan iborat, deb ta’riflaydi. U etarli asos konunini ontologik asosda tushuntiradi. Demokritning mantiqiy ta’limoti keyinchalik Aristotel va F. Bekon ta’limotlariga sezilarli ta’sir kursatgan.

Sokrat (er.av. 469 – 399) ta’limotiga ko`ra buyumlarning moxiyatini bilib bulmaydi. Inson, avvalo, o`z – o`zini bilishi kerak. Bilim umumiylik to`g`risidagi tushunchadir. Xakikatni aniklash uchun uziga xos usul darkor. Bu usul vositasida urganilayotgan buyum xakida umumiy tushuncha xosil kilinadi va shu tushunchaga asoslanib buyum xakida fikr yuritiladi. Xakikatni aniklash uchun muxolif fikridagi ziddiyatlar urganiladi. Predmet xakidagi tushunchalar ziddiyatli bulsa, demak bilim yuzaki bo`ladi. Sokrat xakikatni aniklashda induktsiya va definitsiyadan foydalanishni tavsiya etadi.

Induksiya-kundalik xayotdagi yakka misollar asosida umumiy tushunchalarni xosil kilish usulidir. Definitsiya- baxs jarayonida tushunchalarni ta’riflashdan iborat. Bu usulni Sokrat «mayevtika» deb ataydi.

Platon (er.av. 427 – 347) ustozi Sokrotning, umumiy tushunchalar buyumlarning moxiyatini ifodalaydi degan fikrini davom ettiradi. U umumiy tushunchalarni buyumlardan va insonlardan ajralgan mutlok goyalar sifatida talkin kiladi, ularni birlamchi deb biladi. U xukumni tafakkurning asosiy element deb xisoblaydi. Xukum ega va kesimning, birligidan iborat bo`lib, tasdik yoki inkor manoni bildiradi. Agar xukumda brlashishi mumkin bulmagan tushunchalar birlashtirilsa, u xato bo`ladi.

Ploton xukumlarini tashkil etuvchi tushunchalarni piramida shaklida tasvirlaydi. Peramedaning uchiga ezgulik tushunchasini ko`yadi. Borlik, o`zgarish, sukunat, yayniyat, tafovut tushunchalarini eng universal tushunchalar, deb ta’riflaydi. CHin bilimga intiutsiya orkali erishiladi. Ploton definitsiya masalasiga katta e’tibor bergan, yakin jins va tur belgisini kursatish orkali tariflash usulini, tushunchalarini dixotomik bo`lishini bilgan.

Platon to`g`ri tafakkurning asosiy konunlarini ta’riflab bermagan bulsa xam, ularning moxiyatini tushungan. Masalan, kontradiktor tushunchalar, xukmlar, bir vaktda bir xil munosabatda bir buyumga nisbatan chin bula olmasligini ta’kidlagan. «Evtidem» biologiyadagi «bir narsaning xam bo`lishi xam bulmasligi mumkin emas», degan fikri uning noziklik konuni bilganligidan dalolat beradi.

Mantiq ilining aloxida fan sifatida shakllanishi Aristotelning nomi bilan boglikdir. U birinchi bo`lib, mantiq urganadigan masalalar doirasini aniklab beradi. Aristotelninng «Kategoriyalar», «Talkin xakida», «Birinchi Analitika», «Ikkinchi Analitika», «Safistik raddiyalar xakida», «Topika» nomi asarlari bevosita mantiq masalalariga bagishlangan. Uning «Ritorika», «Koetika» asoslari xam mantiqiy ta’limotning muxim tarkibiy kismlari xisoblanadi. «Metafizika», «Rux xakida» asarlarda esa mantiq masallari ma’lum darajada bayon kilingan.

Aristotel mantiqni «ma’lum bilimlardan noma’lum bilimlarni aniklovchi», «chin fikrni xato fikrdan ajratuvchi» fan sifatida ta’riflydi. Mantiqning vazifasi chin fikrni, xakikatni aniklashdir, deb ta’kidlaydi.

Mutafakkir xakikatning mavjudligi, ob’ektiv xarakterini e’tirof etgan xolda, «bilimlarimizning vakelikka mos kelishi – xakikatdir», deb ko`rsatadi. U xakikatni aniklashda nozidlik va uchunchisi istisno konunlariga amal kilish zarurligini ta’kidlaydi.

Aristotel bu konunlarini xam antologik, xam gnoseologik nuktai nazaridan ta’riflaydi. Bir vaktda, bir xil munosabatda aynan bir predmetga nisbatan uzaro bir – birini istisno fikrlarni bildirish mumkin emasligini, chunki bu fikrlardan biri chin, boshkasi xato bo`lishi yoki xar ikkisi xato bo`lishi mumkinligini asoslab beradi, uzaro ikki zid fikrning biri chin boshkasi xato bo`lganida, uchinchi fikrga urin yuk, ekanligini ta’kidlaydi.

Aristotel asoslarida to`g`ri tafakkurning ayniyat va etarli asos krnunlari maxsus tarzda kurib chikilgan. Lekin mutafakkir asarlarining taxlili ularda bu konunlarga xos talablarning bayon kilinganligini kursatadi.

Aristotelning mantkiy ta’limotida xulosa chikarish etakchi urinni egallaydi.

Stoya maktabi vakillari birinchi bo`lib, «logika» terminini tafakkur. Stoiklar xam Aristotel kabi nozidlik konunini to`g`ri tafakkurning asosiy printsipi, deb bilganlar. Stoiklar mantigi ikki kismdan iborat bo`lgan: dialektika va ritorika: dialektika o`z navbatida grammatika va bilish nazariyasiga bulingan. Xukm masalasini esa ular katiy xukmlarni emas, kuprok shartli xukmlarni taxlil kilganlar.

Kadimgi Gretsiyada shakillangan mantiq ilmi o`rta asrlarda yangi mazmun bilan

boyitildi. Bu, ayniksa, mantiqning YAkin va o`rta SHark mamlakatlarida, xususan, o`rta

Osiyoda rivojlanishida yakkol kurinadi.

VI – XIII asrlaga kelib, YAkin va o`rta SHarkda Arab xalifaligi vujudga keldi, uning xukmron dunyokarashi bo`lgan Islom dini karor topdi. Tarixda «musulmon madaniyati» nomi bilan ma’lum bo`lgan madaniyat shakllandi. Bu yangi madaniyatning shakllanishiga o`rta Osiyo xalklarining iste’dodli vakillari muxim xissa kushdilar. Bu davrda diniy va dunyoviy ilmlar katori mantiq ilmi xam rivojlandi.

IX – XI asrlarda SHark mamlakatlarida, xususan o`rta Osiyoda falsafiy va mantiqiy ta’limotlarning rivojlanishiga kadimgi yunon, xind mutafakkirlari asarlarining kuplab tarjima kilinishi ijobiy ta’sir kursatdi.

SHuni aloxida ta’kidlash zarurki, IX – XI asrlar YAkin va o`rta SHarkda mantiqiy ta’limotlarning rivojlanishidagi eng samarali davr xisoblanadi. Bu davrda mantiq ilmini o`rganishga bo`lgan talabning oshishi, birinchidan, tabiatshunoslik fanlarining rifojlanishi va tabiiy – ilmiy bilimlarga bo`lgan extiyojning kuchayishi bilan; ikkinchidan, idtimoiy xayot bilan boglik bo`lgan masalalarni to`g`ri, adolatli xal kilishga intilishning ortishi bilan va, uchinchidan, eng muximi, to`g`ri fikr yuritishga bo`lgan talabning, chin fikrlarni xato fikrlardan ajratish zaruriyati bilan izoxlanadi.

Tarjimonlarning faoliyati natijasida IX asrga kelib grek mantigi butun musulmon epistemologiyasi (bilish nazariyasi)ning asosi bo`lib koldi. Mantiqni ular ba’zan «xunar» yoki «sa’nat», va kuprok «ilm» deb atashgan. Mantiq ilm sifatida ma’lum bilimlarni yaratish, ularni asoslash va tasniflash sitemasini bergan. U «xakikat» ni bilish yo`llari xakidagi tarixchilarning va muxaddislarning baxslariga, musulmon xukukshunosligiga xam katta ta’sir kursatgan.

SHarkda birinchilardan bo`lib mantiq ilmi bilan shugullangan, arab – musulmon dunyosida peripatetimizga yo`l ochib bergan mutafakkir Al – Kindiydir.

Abu YUsuf YOkub ibn Isxok Al-Kindiy (taxm. 800 Basra – 870 Bagdod) – arab faylasufi va olimi. U kadimgi grek, xind va forslarning falsafiy atamalarni ishlab chikishda faol katnashgan va uz davrida birinchi bo`lib fanlarni tasniflashga o`ringan.

Al – Kindiyning dunyokarashida mantiq ilmiga oid masalalar aloxida urin egallaydi. U kadimgi yunon mutafakkirlari asarlarini tarjima qilib, ularga sharxlar yozgan.

¡rta asrlarda yozilgan «Al - Fixrist» nomli bibliografik asarda (muallifi ibn An – Nadim, 995 y vafot etgan) Al – Kindiyning «Aristotelning unta kategoriyalari xakida », «Kategoryalar» dagi Aristotelning maksadi xakida nomli asarlari to`g`risida ma'lumot beriladi. An – Nadimning ta'kidlashicha al – Kindiy «Ikkinchi Analitika » ga oid ikki traktat yozgan: «Mantiqiy isbotlashga doir kiskacha risola» va «Isbotlash xakida risola». SHuningdek, al – Kindiy «Sofistlarning adashtirishlariga karshi ogoxlantrish» nomli asari Aristotelning «Sofistika» siga bo`lgan munosabatini bayon kiladi. Al – Kildining «SHe'r sa'nati xakida» nomli asari Aristotelning poetikasiga kommentariya sifatida yozilgan.

U Aristotelning «Ikkinchi analitika» sini Evklid geometriyasi bilan solishtirish goyasini ilgari suradi. Mantiqiy isbotlashning tushinish va undan foydalanish uchun geometriyani o`rganish zarur, deb xisoblaydi. Uningcha, fakat shundagina Aristotelning yaratgan koidalarini tushinish mumkin. Al – Kindiy biror tadbirni isbotlashni uning mavjudligiga, borligiga ishonmasdan turib boshlash mumkin emas, deydi. Uning fikricha, isbotlashning maksadi buyumni tashkil etuvchi shaklni o`rganishdan iboratdir.

Al – Kindiyning falsafiy va mantiqiy asarlari, uning ratsionalistik yunalishidagi fikrlari Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Beruniy va boshka progressiv mutafakkirlar dunyo karashining shakllanishiga bevosita ta'sir kursatadi. Uning asarlari o`rta asrlardayok G`arbiy Evropada keng shuxrat kozondi.

IX – XI asrlarda mantiq masalari bilan astoydil shug`ullangan ¡rta Osiyo mutafakkirlaridan Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdullox Al Xorazmiylarni kursatish mumkin. Bu mutafakkirlarning mantiqka bagishlab yozgan asarlari asosan tukkiz nomdan iborat ekanligini va ularning nomlanishi, ketma – ketligi bir xil ekanligini ko`rishimiz mumkin. Bunga sabab shuki, Aristotelning «Organoni»ni tashkil etuvchi oltita mantiqiy traktatlariga («Kategoriyalar», «Talkin xakida», «Birinchi analitika», «Ikkinchi analitika», «Topika», «Sofistik raddiya») suriyaliklar uning «Ritorika»si bilan «Poetika»sini kushdilar. Bundan avvalrok esa unga Porfiriyning «Isoguvchi» asari kushilgan edi. SHunday qilib «Organon» tukkiz tratatdan iborat bo`lgan yaxlit ta'limot sifatida arab faylasuflari tomonidan kabul kilingan. SHu asosga kura Farobiy, Ibn Sino Al – Xorazmiylar mantiqa oid ta'limotlarni aynan shu tartibda ishlab chikdilar.

Mantiq masalalarini keng va ischil tadkik etgan mutafakkir **Al – Forobiy** (873 - 950) dir. U Sirdaryo buyidagi utror shaxar kal'asida, turkiy xarbiy oilada dunyoga keldi. Buxoro va Samarkand shaxarlarida bilim oldi. U kadimgi grek, xind falsafasini chukur urgandi, ilimning turli soxalariga oid 160 dan ortik turli xajmdagi risolalar yozib qoldirdi, umrining so`nggi kunlarini Damashkda o`tkazdi. Farobiy asarlarining katta kismi falsafa va mantiq ilmiga oiddir.

Farobiyda mantiqiy bilimlar sistemasi (Isoguvchi) (Kirish), «Makulot» (Kategoriya), «Ibora» (Xukm), «Kiyos» (Sillogizm, Birinchi Analitika), «Burxon», (Isbotlash, «Ikkinchi Analitika»), Jadal (Dialektika), «Safsata» (Sofistik raddiya), «Xitoba» (Ritorika), «SHe'r» (Poetika) asarlarni ichiga oladi. SHuningdek, Forobiy «Mantiq ilmiga kirish» «Akl xakida», «SHartli xukmlar», «Sillogizm» kabi asarlarda mantiq masalalarini ishlab chikdi. «Ilmlar tasnifi» asarida xam mantiq ilmining predmeti, tuzilishi, ilmlar sistemasida tutgan o`rni va axamiyati xakida fikr yuritadi.

Mutafakkirning ta'kidlashicha, mantiq san'ati intellektning mukammallashuviga olib

keluvchi va insonni xakikat tomon yo`naltiruvchi konunlarning majmuasini urganadi. Bu konunlar insonlarni bilish jarayonidagi turli xato va adashishlardan saklaydi. Inson bu konunlar yordamida bilimlarini tekshirib, ularning chin yoki xatoligini aniklash imkoniga ega b¢ladi.

Forobining mantiqiy ta’limoti uning gnoseologik ta’limoti bilan uzviy boglikdir. Ungacha, fikrlar tabiatdagi narsa va xodisalarni sezgilar orkali bilish asosida vujudga keladi. U bilishda sezgilarning roliga juda katta o`rin beradi. Fikr shakllari o`rtasidagi aloka, munosabatlar real munosabatlarni ifodalash jarayonida vujudga kelishini ta’kidlaydi.

Mutafakkir mantiq ilmining til, grammatika, falsafa bilan o`zaro alokadorligini kursatib utadi. U «Falsafani o`rganishdan avval nimalarni bilish kerak» nomli risolasida falsafiy argumentatsiya bilan, ya’ni falsafiy masalalarni asoslash, isbotlash bilan tanishishdan avval sillogizmlarni, ya’ni mantiqiy xulosa chikarish usullarini bilib olish zarur, deydi. Forobiy, ayniksa Aristotelning «Analitika»sini o`rganish zaruligini ta’kidlaydi. Bu kitoblarni o`rganish chin isbot bilan xato isbotni bir – biridan farklashga, mutlako xato bo`lgan fikr bilan bir oz xato bo`lgan fikrni ajratishga yordam beradi.

Forobiy fikricha, sillogizm va isbotlash usuli eng t¢g`ri, xakikatga olib keluvchi usul bo`lib, ilm – fan, falsafa shularga asoslanadi. Forobiy asosiy mantiqiy shakllar bo`lgan tushuncha, xukm va ularning turlari, xulosa chikarish, sillogizm va uning figuralar, moduslarini chukur taxlil qilib, ular t¢g`risida izchil ta’limot yaratdi.

U t¢g`ri tafakkurlashning asosiy printsiplari: aynanlik, xukmlarning uzaro zid bulmasligi, izchilligi xar qanday xulosaning etarlicha asoslanganligi kabi muxim mantkiy masalalarni xam xar tomonlama ishlab chikdi.

Forobining mantiqiy ta’limoti YAkin va o`rta SHarkda, o`rta Osiyoda mantiq fanining keyingi rivojiga katta ta’sir kursatdi.

Xususan, IX – X asrlarda Abu Abdullox Al – Xorazmiy, YAx’yo ibn Ali Abu Sulaymon, Abu Xayyan kabilar Forobining mantiq soxasidagi goyalarni davom ettirdilar. Ayniksa, Forobi falsafasi va mantigi «Ixvan as - Safo» - «Sof birodarlar» ning ta’limotiga juda katta ta’sir kursatdi. Ular xam Forobiy kabi, «bilim bu bilinayotgan narsaning biluvchining jonidagi obrazidir», deb takidlashgan. «Sof birodarlar» ning «Maktublar»ida «jon bilinayotgan narsalarning shaklini sezgilar vositasida, dalillar vositasida, fikrlash va kuzatish vositasida kabul kiladi», deb yozilgan. Aytish mumkinki ular bilish boskichlari va ular o`rtasidagi alokadorlikni t¢g`ri tushunishgan.

X asrga kelib mantiq ilmi falsafiy bilimlarning eng muxim kismiga aylanib koldi. Abu Abdullox Al – Xorazmiy (X asr)ning «Mafotix – al – ulum» (Ilmlar kalitlari) asaridagi fanlar klassifikatsiyasida mantiq ilmiga aloxida urin berilishi fikrimizning dalilidir.

Abu Abdullox al – Xorazmiy ilmlarni «arab» va «arabcha bulmagan» larga ajratadi. Arabcha bulmagan ilmlar katoriga falsafa, mantiq, tibbiyot, arifmetika, xandasa, ilmu – nujum, musika, mexanika, kimyolar kiradi. Xorazmning mantiq ilmiga oid masalalarini tukkiz bobda bayon kiladi. Boblarning nomlanishi Forobiy va Ibn Sinolarniki kabidir. Bu mantiqiy ta’limot «Isoguchi» - bu bayon etishdan, o`rganishdan boshlanishi kerak, «Isoguchi» - bu kirish, (yunon tilida eysagolge) deb ataladi, deb yoziladi.

Xorazmiy Aritotel goyasini davom ettirib, anik narsalarning xossalarini belgilash uchun «individual» tushunchasini kiritadi. Xorazmiy «Sof birodarlar» ning mantiqka oid

goyalarni rivojlantirib va uni Arastu falsafasi ruxiga yakinlashtirib, individ masalasini birinchi o`ringa olib chikadi. «SHaxs – individi mantiq axlida u Zeyd, Amr, bu kishi, u eshak, ot kabi (ma'noni anglatadi); uni shuningdek birlamchi tushuncha deyish xam mumkin», - deb yozadi Xorazmyi. U bir tomondan, arab falsafasidagi akl bilan tushunalidigan birlamchi, ya'ni kupgina ob'ektiv bir xil predmetlar uchun umumiy bo`lgan tushunchalarni, ikkinchi tomondan, akl bilan tushuniladigan birlamchilarning uzing xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalarni sharxlaydi. Xorazmiyning bu masalaga oid fikrlari mantiq ilmidagi jins va tur tushunchalarga, ularning nisbiy xarakteri va uzaro munosabatiga oiddir.

Abu Abdullox al – Xorazmiy mantiq masalalarini kurib chikishni suz va iboralarning uzaro munosabatini taxlil etishdan boshlaydi. SHark mantiqshunoslari suzlarning ma'no anglatishiga kura uch turini: suz uzining tulik mazmunini anglatadigan, suz uz mazmunining bir kismini anglatadigan, suz uz mazmunidan kelib chikadigan narsani anglatadigan xolatlarni farklaganlar. Xorazmiy xam bu masalaga mufassal tuxtalib, bu turlarni va ularning tushunchalardagi mantiqiy ma'nolarini kurib o`tadi. Bu bilan olim YAkin va ¡rta SHark mantiqshunoslari ilgari surgan tushunchalarning ma'no anglatishi xakidagi talimotini davom ettiradi.

Abu Abdullox al – Xorazmiy, Aristotel va Forobiyning tafakkur va til, mantiq va grammatika orasidagi bogliklik g`oyasini yanada rivojlantirdi. U muloxaza (xukm) masalasiga aloxida to`xtalib o`tadi.

Abu Abdullox al – Xorazmiy xukmning modalligi b¢yicha lozim bo`lgan, mumkin bo`lgan va xakikiy kabi uch turga bo`linishiga katta e'tibor beradi va o`z ta'limotida Aristotel goyasining asosiy moxiyatini to`lik aks ettiradi.

Xorazmiy xulosa chikarish masalalariga xam aloxida tuxtalib utdi. U sillogizmni xulosa chikarishning eng muxim ko`rinishi va nazariy bilimlarni egallashdagi asosiy vosita, deb bildi. U isbotlash va u bilan boglik bo`lgan masalalarni, dialektika asoslarini, shuningdek usha davrda sillogizm turlari xisoblangan sofistika, ritorika va poetika bilan boglik masalalarning xar birini aloxida boblarda talkin kildi. Umuman olganda, Xorazmiy kadimgi grek – yunon ilgor mantiqiy an'analarini YAkin va O`rta SHark xamda O`rta Osiyo falsafasi materiallaridagi o`ziga xos, ajoyib g`oyalardan foydalanib boyitdi va rivojlantirdi.

Forobiyning mantiq soxasidagi ishlarining davomchilaridan yana biri, turli ilm soxalariga oid kator asarlar yaratgan, uz davrining dunyoga mashxur komusiy olimi Abu Ali ibn Sino (980 – 1037) dir. U Buxoro yakinidagi Afshona shaxrida tugildi. U Buxoroda taxsil olib, shu erda olim, tabib sifatida shuxrat kozondi, ma'lum bir vakt Xorazmda yashadi. Ibn Sino 31 yoshida Xorazmni tark etdi, 1037 yili Isfaxonda vafot etdi.

Ibn sino 400 dan ortik asarlar muallifidir. Bu asarlar ilmning turli soxalariga oid bo`lib, ulardan 150 dan ortigi falsafa va mantiq masalalariga bagishlangan. Bular orasida fadlsafa va mantiq fanining barcha masalalarini izchil ravishda uz ichiga olgan asari – «Kitob-ash-shifo» dir. «Kitob-ash-shifo» ning mantiqga oid kismi 9 bulakdan iborat bo`lib, ularning nomlanishi va tartibi Forobiyniki kabidir. Mutafakkirning bu asari mantiq soxasidagi barcha ilmlar asosida vujudga kelgan bo`lib, unda mantiqka oid masalalar tulik kamrab olingan.

Ibn Sinoning «Ishorat va tanbixot», «An - Najot», «Donishnoma» asarlarida xam falsafa va mantiqka oid masalalar bayon etiladi. Mutafakkir mantiq ilmini barcha

ilmlarning mukaddimasi, ularni egallashning zarur shartida talkin etadi. Ibn Sino «Donishnoma» asarida kabul kilingan tartibni buzgan xolda, avval mantiq asoslarini, ikkinchi urinda metafizikani, sung boshka fanlarni bayon kiladi.

U, asosan Aristotel va Farobiyning mantiqiy ta'limotlarini davom etirgan bulsada, kup masalalarda mustakil yo`l tutadi. Ibn Sino mantiq fanini ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarni keltirib chikarish, ularni bir-biridan fark kilish, chin va xato bilimlar, ularning turlarini o`rganuvchi fan yoki nazariy san'atdir, -deb ta'riflaydi. Mantiq ilmi abektiv olamni bilish uchun xizmat kiladi, bilish esa real predmedlarni, avvalo sezgilar orkali aks ettirish, sung akliy, mavxum bilishga asoslanadi.

Ibn Sino falsafa, bilish nazaryasi va mantiq muammolarini aralashtirib yubormaydi, ularni aloxida aloxida bayon kiladi. Bu jixatdan Ibn Sinoning mantiq fani xakidagi ta'limoti Arastu yaratgan mantiq faniga nisbatan juda kup yangi ma'lumotlarni beradi. Mantiqiy masalalarni o`rganishda turli belgi (simvol) lardan foydalanishi xam mutaffakkirning yutugi xisoblanadi.

Ibn Sinoning mantiq ilmida tafakkur shakllari bo`lgan tushuncha, xukm, xulosa chikarish, ularning tuzilishi, turlari, shuningdek, isbotlash masalalarini keng va xar tomonlama taxlil etiladi.

U tushunchalarni yakka va umumiyga b¢ladi. Mutafakkirning ta'kidlashicha, mantiq fani umumiy tushnchalar bilan shuxullanadi. U xam, Aristotel kabi, mavjud borlikning eng umumiy xolatrini ifodalovchi unta umumiy kategoriyalarini mantiq faning o`rganish doirasiga kiritadi. Tushunchaning asosiy vazifasi xukum va xulosa chikarishni tashkil etish, ularga asos bulishdir, deb ta'kidlaydi. U tushunchalarni ta'riflash va bulish kabi mantiqiy usullarga xam batafsil tuxtab utadi.

Xukm nazariyasi Ibn Sinoning mantiq ilmida eng katta urinlardan birini egallaydi. U xukmlarning tuzilishi, subekt – predikat munosabatlarini xar tomonlama analiz kiladi. Ibn Sino oddiy va murakkab xukmlarni, ularning tuzilishi va turlarini batafsil bayon kiladi.

Ibn Sinoning xulosa chikarish nazariyasi xam tushuncha va xukm kabi chukur va izchil ishlab chikilgan. U deduktiv xulosa chikarishga oid barcha masalalarini: sillogizmning tuzilishi, figuralari, moduslari, murakkab sillogizmlar va ularning turlari, sillogizmlarni belgilar vositasida ifodalashni batafsil taxlil kiladi. U induktiv xulosa chikarish ustida xam fikr yuritadi.

Umuman olganda, Ibn Sinoning mantiqiy ta'limotini uning mukammalligi, mavzusining kengligi, xajmi, talkinining batafsilligiga kura o`rta asrlardagi mantiq ilmi rivojining eng yukori darajasi deb baxolash mumkin.

Ibn Sinoning mantiqiy ta'limotida ungacha bo`lgan Kadimgi va O`rta asr mantiqshunosligining muxim yutuklari ma'lum darajada mujassamlangan bo`lib, keyingi davrlarda mantiqiy ta'limotlarning rivojlanishiga katta ta'sir kursatdi.

Abu Rayxon Beruniy mantiqga oid asarlar yozmagan bulsa xam, uning konun – koidalaridan, isbotlash usullaridan ilmiy – amaliy faoliyatida keng foydalangan. Beruniyning buyuk xizmatlaridan biri tabiat va jamiyatni bilishning ilmiy metodini ishlab chikkanligidadir. Beruniy ilmiy metodining asosiy printsiplari «Kadimgi xalklardan kolgan yodgorliklar» asarida kursatib utilagn. Bular kuyidagilardan iborat:

- aklni bekorchi fikrlardan tozalash;
- tajribaga asoslanish;
- bilishni, avvalo, predmetni tashkil etuvchi elementlardan boshlash;

- xissiy bilishga asoslangan deduktsiyadan foydalanish;
- mantiqiy fikrlash: analiz kilish va umumlashtirish;
- kuzatish, takkoslash, kiyoslash orkali xakikatni aniklash;
- ma’lum narsadan noma’lum bo`lganiga,yakindagisidan uzokdagisiga karab fikr yuritish;
- uzok utmishni bilish uchun predmetning, xodisaning tarixini va u xakda boshkalarning bergan ma’lumotlarini o`rganish.

Aytish mumkinki Beruniy R. Dekart va F. Bekonlardan avvalrok ilmiy bilish metodining zarurligini ta’kidlagan va uning asosiy koidalarini, printsplarini ishlab chikkan. Beruniyning bu masalaga oid fikrlari garb faylasuflarinikiga nisbatan keng kamrovligi ajralib turadi.

Mantiq ilmining keyingi davrlardagi rivoji Baxmanyor (1065 y.), Ibn Rushd (1126 - 1198), Nasriddin Tusiy, Faxriddin Roziy, Kazviniy, SHamsiddin Samarkandiy, Taftazoniy (1322 – 1390), Mirsharif Jurjoniy (1340 – 1413) va boshkalarning nomi bilan boglik.

Mirsharif Jurjoniy xam Inb Sino kabi mantiqni «bilish xakidagi fan» sifatida kurib utadi. Uning ta’limotiga kura, mantiq fani bilish nazariyasi xisoblanmaydi. Bilish jarayonida biz – tushuncha va maloxazalar orkali yangi, noanik narsa xakida fikrda ega bulamiz, deb ta’kidlaydi. U xar qanday fikr tuzilishiga kura materiya va shakldan iborat, shuning uchun t¢g`ri mantiqiy xatolar fikrning mazmuniga va shakliga xosdir, deb yozadi. Jurjoniy fikricha, tushuncha bu qanday indiivdual narsaxisoblanadi. U asosan tushunchalarning kelib chikishi va kurinishiga e’tiborni karatadi. Tushunchaning paydo bo`lishi juda keng va katta ma’noni oladi, tushunchaning kurinishi esa kiska b¢ladi. U tushunchani ikkiga: yakka va umuiy tushunchalarga b¢ladi; yakka tushunchaning uzidan «xakikiy yakka» sini tanlab oladi. U yakka tushunchaga ta’rif berib, «yakka tushuncha – yakka predmetdan tashkil topgan bo`lib, unda fakat shu predmetning uzi xakidagi fikr bayon kilinadi», deb ta’kidlaydi.

Jurjoniy ta’limoticha, tushuncha va xukm o`rtasida fakr bor. Fikrda nimadir tasdiklansa yoki inkor etilsa, bu xukm xisoblanadi. Xukm chin xato bo`lishi mumkin.

Fikr yuritishning muxum boskichlaridan biri bu xulosa chikarish xisoblanadi, deydi Jurjoniy. U xulosa chikarishning uch turini: sillogizm, induktsiya, analogiyani ajratadi. Sillogizm xulosa chikarishning eng asosiy kurinishi xisoblanadi. Induktsiya va anologiya orkali xulosa chikarish farazga olib keladi, ular chin bilimni bera olmaydi. Jurjoniy sillogizmni Ibn Sino kabi ikkiga b¢ladi: birlashtiruvchi va ajratuvchi. U mantiqiy isbotlashga xam tuxtalib utadi. Isbotlash uch xil b¢ladi: 1) Umumiydan yakkaga karab isbot kilish – sillogizm. 2) YAkkadan umumiylikka karab isbot kilish – induktiv isbotlash 3) Analogiya – bunda yakkadan – yakkani isbot kiladi.

Jurjoniy sillogizmning strukturasini, koidalarini, figurlarini, moduslarini batafsil taxlil kiladi.

SHuningdek mutafakkir mantiq fanining turli ta’limotlarni o`rganishdagi axamiyatiga yukori baxo bergan.

YUkoridagilardan kelib chikib aytish mumkinki, O`rta Osiyo mutafakkirlari mantiq ilmining masalalarini ishlab chikishda mustakil ijodiy yo`l tutdilar. Ularning mantiqiy talimotlari Aristotelnikidan farkli ravishda sillogizmning moxiyati va shakllarini analiz kilishdan emas, balki xukm va silllogizmning asosiy elementi bo`lgan tushunchalar tabiatini taxlil kilishdan boshlanadi. Ular mantiq ilmining o`rganish doirasini fakat sillogizmlar bilan chegaralab kuymasdan, unga mavjud bilimlar asosida xakikatga erishish

yo`llarini o`rganuvchi fan, deb ta’rif berdilar. Ular murakkab xukmlarning tabiatini, tuzilishini analiz qilib, chin bilimga erishish jarayonidagi axamiyatini ta’kidladilar. Ularning murakkab xukmlarga asoslangan gipotetik xulosa chikarish xakidagi ta’limotlari mantiq faniga kushilgan muxim xissa b¢ldi. Tafakkur shakllari, ayniksa, xulosa chikarish bilan argumentlash o`rtasidagi uzviy bogliklikni ta’kidlashlari chukur ma’noga egadir.

Aristotelning mantiqiy ta’limoti Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushdlarning mantiqka oid asarlari orkali, ya’ni SHark orkali Evropaga kirib keldi. O`rta asr Evropasida matik masalalari asosan umumiy va yakka tushunchalarning uzaro munosabati doirasida urganilgan.

YAngi davrda Evropada fanning, ayniksa tabiatshunoslikning rivojlanishi ilmiy metod (uslub) masalariga e’tiborni kuchaytirdi. Bu davrning buyuk mutafakkirlari R. Dekart, F. Bekon, T. Gobbs, Leybnits va boshkalar mantiq ilmining turli yunalishlarining yaratilishiga asos soldilar.

Mantiq ilmining rivojlanishida, ilmiy uslub bilan boglik masalalarni xal etishda R. Dekart (1606 – 1650) ning xizmatlari aloxida axamiyatga ega.

Dekart mashxur faylasuf, yirik matematik va mantiqshunos olimdir. Uning falsafiy karashlari «Falsafa mukaddimasi» asarida uz ifodasini topgan. Mantiqiy karashlari esa, uning «Uslubi xakida muloxazalar» risolasida bayon etilgan. Ayniksa «Uslubning asosiy koidalari» deb ataluvchi kismi mantiq fani rivoji uchun axamiyatli bo`lgan. Unda bilishning ilmiy uslubini xaraktelaydigan asosiy koidalari ishlab chikilgan.

Intutsiya deganda Dekart xayoliga narsani emas, balki sogshlam aklda tuguladigan barkaror va anik tasavvurni tushungan. Intutsiya yordamida xar qanday kishi uzining mavjud ekanligini, nimalarni uylayotganini, uchburchak uch tomoniga ega ekanligini va boshkalarni aniklashi mumkin.

Intutsiya bilan birga biz deduktsiyadan xam foydalanamiz. Dekart fikricha deyilganda avval bilingan narsalar asosida bilishni ta’minlaydigan jarayonni tushunish kerak. Deduktsiya yordamida fikrning muntazam xarakati bilan xulosa xosil kilinadi. Deduktsiyada ma’lum xarakat va iuayyan uzluksizlik mavjud bo`lib, bu narsa intuitsiyada yukdir. Narsalar intuitsiya va deduktsiya yo`li bilan bilinishi mumkin.

Dekart fikricha, deuktsiyadan geometriyada va algebrada kuprok foydalaniladi. Dekartning mashxur aforizmi («Men fmkr kilyapman, demak men mavjudman») ni ba’zi olimlar sillogizmning kiskargan kurinishi deb kursatadilar. Dekart esa unda xulosa sillogistik yo`l bilan chikarilgan, deb aytadi.

Deduktsiya yordamida bevosita bilim xosil kilinadi. Dekart fikricha, xulosa chikarishda asosiy narsa bilingan narsadan bilinmagan narsaga utish, noanik narsani anik kilishdir. Uslubning axamiyati deuktsiyani qanday qilib kurish kerakligini kursatishdadir. Uslub qanday qilib akldan t¢g`ri foydalanishni kursatadi, tadkik kilish mumkin bo`lgan narsalarni, bilishida deuktsiyani qanday qilib kurish kerak ekanligini aniklaydi.

Dekart analiz va sintez jarayonlari xakida maxsus ta’limot yaratadi. Uning karashlari an’anaviy mantiq fanidagi karashlardan fakr kiladi. Dekart analiz va sintez tushunchalarini fikrning mazmuni bilan boglaydi. Masalan, agar figuradan uchburchak tushunchasiga, undan teng yonli uchburchak tushunchasiga fikran utilsa, bu sintetik usul, ya’ni deuktiv usul b¢ladi. Agar teng yonli uchburchakning figura bo`lishi, uchburchakli bulish, teng yonli bulish xossalari aniklansa, analiz usuli, ya’ni induktiv usul b¢ladi.

Induktsiyani Dekart Bekonga karaganda bir oz boshkacharok talkin kiladi. Uning fikricha, induktsiya tajribaga asoslanadi, unda tekshirilayotgan buyumlarning tulik ruyxati

kursatiladi. Sanash (enumeratsiya) orkali muayyan masala b¢yicha xamma xolatlar tekshirildi. Xar doim xam tulik enumeratsiya, ya'ni sanash lozim bulavermaydi. Ba'zi vaktlarda ayrim olingan nasash xam etarli b¢ladi. SHunday qilib, mutafakkir fikricha, intutsiya, deduktsiya va induktsiya xakikatni topish yo`llaridir.

Dekart mantiqning xamma soxalariga oid ma'lum sistema yaratmagan bulsa xam, uz ratsionlizmi bilan mantiq fani tarakkiyotiga katta xissa kushdi.

1662 yilda Antuan Arno va Per Nikol tomonidan «Mantiq yoki fikr kilish san'ati» deb nomlunuvchi kitobi yozilib nashr etiladi. Keyinchalik bu asar «Por – Royal mantigi» nomi bilan mashxur b¢ldi. Por – Royal mantigi Dekartning mantiqiy karashlariga asoslanadi.

Por – Royal mantigi goyalarni umumiy, juz'iy va yakka goyalarga ajratadi. Bir buyumni ifodalagan goya yakka, kup buyumlarni ifodalagan goya umumiy goya – jins b¢ladi.

Por – Royal mantigi vakllari definitsiya – ta'riflashning ikki turini kursatishadi – nominal va real ta'riflash. Nominal ta'riflash isbot talab kilmaydi, real ta'riflashni isbot kilish kerak, deb kusatishadi.

Ularning xukmlar xakidagi ta'limoti Aristotel mantigini tankid kilishga asoslanadi. Aristotel xukmlarning xamma turlarini kursatmagan; aslida uning turlari kuprokdir, deb ta'kidlangan xolda, xukmlarning boshka turlarini, xususan, ajratib ko`rsatuvchi va istisno kiluvchi xukmlar xamda murakkab xukmlarning bir necha turlarni kursatishadi.

Por – Royal mantigi vakillari kitobning uchinchi kismini xulosa chikarishga bagishlaydilar. Xulosa chikarish insan uchun zarurdir. Xulosa chikarishda biror xukmning chinligi yoki xatoligi masalasi xal kilinadi. Xukmning sub'ekti kichik termin, predikati katta termin, ular o`rtasidagi tushuncha o`rta termin b¢ladi. Xulosa chikarishda ikki asos va xulosa ishtirok etadi. Xulosa chikarish entimema shaklida bo`lishi mumkin – unda asoslar anik ifodalanmaydi. Xulosa chikarishning uchta va undan kuprok xukmlardan tuzilgan turi bo`lishi mumkin, u sorit b¢ladi. Sillogizmlar oddiy va birlashtiruvchi b¢ladi. Oddiy sillogizmda o`rta termin chekka terminlarning bittasi bilan boglanadi. Birlashtiruvchi sillogizmda o`rta termin ikkita chekka termin bilan boglanadi.

Por – Royal mantigida xulosa chikarish sistemasi kengaytirildi, uning vakllari tomonidan induktsiya deuktsiyaga karama – karshi kuyildi, ularning uzaro alokasi kursatilmadi.

Frensis Bekon (1561 – 1626) mashxur ingliz faylasufi va tabiyotshunos olimidir. U ikki kismdan iborat «Fanlarning buyuk uygonishi» asarini yozgan. Birinchi kismi «Fanlarning afzalliklari», ikkinchi kismi «YAngi Organon» deb ataladi. Mantiqka oid fikrlari «YAngi Organon»da uz ifodasini topgan.

Bekon yangi mantiq yaratishni maksad qilib kuyadi. U Aristotelning «Organon» ini tankid qilib, «YAngi organon» asarini yozdi. SHu bilan uz mantiqiy ta'limotini Aristotel mantigiga karshi qo`ymoqchi b¢ladi. Xususan, Bekon Aristotel sillogistikasiga uz induktsiyasini karshi qo`ydi, uzining ilmiy induktsiya nazariyasini yaratdi. Bekonning fikricha, sillogizm gaplaridan, gaplar suzlardan tuziladi, suzlar buyumlarni bildiradi. Suzlar ifodalangan tasavvur xato bulsa, silligizm buziladi. Bekon induktsiyani xulosa chikarishning asosiy shakli, deb bildi. Fakat ommabop induktsiyani tan olmadi, uni tankid kildi. U induktsiyaning asosiy metodlarini chukur urgandi. Bulardan tashkari induktsiyaning yordamchi usullarini kashf etdi: yakka misollar, adashgan misollar, ko`rsatuvchi xolatlar va boshkalar.

Bekon istisno kilishga asoslangan induktsiya nazariyasini yaratdi. Induktsiyaning maksadi maksimal daraja kuprok faktik materiallarni takkoslash va urganilayotgan vokealarningnomuxim tomonlarini istisno kilish va shu asosda ulaning muxim tomonlarini aniklashdir.

Bekon induktsiya jarayonini kiskartirish shu bilan birga ishonlirok xulosa olish mumkin, deb ta'kidladi. Lekin, kiskartishrish yo`lini anik ishlab chikmadi.

Bekon mantiqni ilmiy metod, uslub xakidagi fan deb bilgan. Ilmiy uslubni kullash yangi xakikatlarni ochishga olib keladi. U Demokrit, Epikurning induktsiya nazariyasini tikladi va rivojlantirdi, lekin tugallangan induktiv nazariya yaratmadi, uning asosini yaratdi, xulosa.

Tomas Gobbs (1588-1679) ning asosiy falsifiy asari «Falsafa asoslari» deb ataladi. U uch kismdan iborat bo`lib, birinchi kismining birinchi bobi «Mantiq» dir.

Mantiqda Gobbs yo`lini davom ettirdi. U tushunchalarni ta'riflashga katta axamiyat berdi. Gobbsning fikricha, ta'riflash bir suzdan iborat bulmasligi kerak; nom ta'riflashda kaytarilmasligi lozim.

Gobbsning fikricha, xukmlar komlarning birikuvidan iborat. Xukm chin yoki xato bo`lishi mumkin. U birinchi o`ringa shartli xukmlarni kuyadi, chunki ular sababiy boglanishni o`rganishda muxim axamiyatga ega. Gobbs til va tafakkur birligini tan oladi. Nomlar tushunchalar bilan, gaplar xukmlar bilan tenglashtirialdi.

Gobbs sillogizmni kuyidagicha ta'riflaydi: sillogizm uchta gapdan iborat bo`lgan, uchinchi gap ikkita avvalgisidan kelib chikadigan muloxazadir. U birinchi figurani tabiiy fikr yuritishga mos keladigan figura deb kursatadi, boщka figuralar birinchi figuraning turlicha kurinishlaridir. Sillogizmlardagi xatolar asoslar xato bo`lganda va xulosa chikarish shaklidagi xatolar natijasida yuz beradi.

Gobbs tafakkur krnunlarining uchtasi xakida fikr bildirgan. Ayniyat konuni aniklik sharti sifatida talkin kilinadi. Suz doim bir ma'noda ishlatilishi kerak. Bu xakikatga erishishning birinchi talabidir.

Gobbs ziddiyat va uchinchisi istisno konunlarini aksioma, deb biladi.

Gobbsning fikricha, isbotlash xulosalar zanjiri bo`lib, sillogizmlar uning aloxida xalkalaridir. Gobbs birinchi marta mantiq faniga genetik ta'riflashni kitritdi. Uning fikricha, predmetning kismlarini sanash orkali xam ta'rif berish mumkin. Fakat ta'riflargina fan rointsiplari xamda isbotlash asosi bula oladi.

Gobbs mantigida ratsionalizm ustun turadi. Unda deduktsiya, induktsiya, analiz va sintez bir xil urin tutadi.

G.V. Leybnits (1646-1716) yirik olimi. U XVII asr oxiri XVII asr boshlarida yashab ijod kilgan. Falsafiy karashlar «Inson akli xakidagi tajribalar» asarida uz ifodasini topgan. «Monadologiya» asarida falsafiy va mantiqiy karashlarini kiska shaklda bayon etgan. Leybnits tafakkur konunlari xakidagi ta'limotni kaytadan ishlab chikdi. U birinchi o`ringa ayniyat konunini kuyadi. Bu konunga ontologik ta'rif beradi: xar bir buyum shu buyumning uzidadir, ya'ni **A-A** dir, **V-V** dir va x.k. Ziddiyat krnunini kuyidagicha ta'riflaydi: bir vaktda buyum xam mavjud, xam mavjud emas bulmaydi, A bulsa, narsa A emas bula olmaydi. Buni kuyidagicha ifodalash mumkin: xar bir gap yo xatodir. Bunda ziddiyat va uchinchisi istisno konuni birlashtiriladi: 1) bir gap xam chin, xam xato bulmaydi; 2) xakikat va yolgon o`rtasida xech narsa yuk, ya'ni gap xam bulmasligi mumkin emas. Leybnits fikricha, ziddiyat va uchinchisi istisno konunlari

xulosa chikarishda asos b¢ladi. Etarli asos konunini Leybnits kuyidagicha ifodalaydi: xamma mavjud narsalar mavjud bo`lishi uchun etarli asosga ega, etarli asossiz birorta vokea chin, xakikiy bulmaydi. Mantiqiy konunlar bilish jarayoni uchun axamiyatlidir. Tafakkurimiz ob'ektlari yo fakat fikrda mavjud b¢ladi, yo real mavjud b¢ladi.

Leybnits xozirda simvolik mantiq nomi bilan yuritiladigan mantiqka asos soldi, tafakkurning turli jarayonlarini, jumladan tafakkur shakllari va konunlarini ifodalashda matematik usullardan foydalanish yo`llarini taklif kildi. 1666 yilda Leybnits «Kombinatsiya kilish san'ati xakida» nomi bilan asar yozgan bo`lib, simvolik mantiqning tugilishi shu yil va shu asar bilan boshlanadi.

Leybnits mantiq fanining predmeti va vazifasi xakida tuxtalib, uning vafifasi tafakkurning formal alokalarini tasvirlash, uning predmeti bilimning mazmunini o`rganishdir, deydi. U mantiq ilmining amaliy axamiyatini yukori baxolaydi.

Leybnitsning mantiqiy ta'limoti kuyidagi printsiplarga asoslagan: 1) xar bir tushunchani oddiy kayd kilinadigan, boshka bo`linmaydigan tushunchalarga keltirish mumkin; 2) murakkab tushunchalar oddiy tushunchalarning xajmini ko`paytirish va kesishtirish mantiqiy amali vositasida keltirib chikariladi; 3) dastlabki oddiy tushunchalar to`plami ziddiyatsiz bo`lishi shart; 4) xar qanday chin muloxaza predikativ xisoblanadi, ya'niy u ekvivalent tarzda boshka shaklga o`tkaziladi va predikatning sub'ekda mavjudligi nazarda tutiladi. 5) Xar qanday chin bo`lgan tasdiqlovchi gap shu ma'noda analitik xisoblanadiki, uning predikati sub'ektda mavjud b¢ladi.

Leybnits mantiqiy moddaliklar sistemasini ishlab chikadi:

Mumkin = ziddiyatsiz

zaruriy = inkori ziddiyatli

tasodifiy = inkor ziddiyatsiz

mumkin bulmagan = ziddiyatli

Leybnits matematik mantiqning kuyidagi konunlarini ta'riflab beradi:

Refleksivlik konuni: x= x

Simmetriya konuni: x = y, y = x.

Tranzitivlik konuni: [(x=u) ^ (u = z) ➔ x = z]

Leybnitsning mantiq ilmiga oid karashlari X.Volf tomonidan rivojlantirilgan.

Xristian Volf (1676-1754) nemis faylasufi, matematigi va mantiqshunos olimdir. Volfning mantiqiy ta'limotida akl masalasi eng asosiy xisoblanadi. Akliy bilish xulosa chikarishga asoslanadi. Uning fikricha, bilim aprior yoki apsterior yo`l bilan xsid kilinadi. Apposterior bilan – tajribaga asoslangan bilimdir. Avvaldan bilib olingan ta'riflar va xolatlar aprior bilim bo`lib, ular xulosa asoslarini tashkil etadi. Uning ta'kidlashicha, mantiq xakikatni bilish va xatolarga yo`l kuymaslik uchun bilish kobiliyatlarini ko`llashga o`rgatuvchi fandir. Volf mantiqni nazariy va amaliy kismlarga ajratadi. Nazariy mantiq tushuncha, xukm va xulosa, chikarishni o`rganadi. Amaliy mantiq baxs, munozara jarayonida, mutoala kilganda, fikrni bayon kilganda, umuman amaliy xayotda xakikatni aniklashga urgatadi. U xakikatga kuyidagicha ta'rif beradi: fikrning ob'ekt bilan tasavvur kilingan buyum bilim bilan uzaro mosligi xakikatdir.

Uning ta'kidlashicha, bilish uch boskichda amalga oshiriladi: tushuncha, xukm va xulosa chikarish. Xukm ikki tushunchadan tarkib topadi. Xulosa berilgan xukmlardan yangi xukmni xosil kilishidir.

Volf matematik va mantiqiy isbotlarga katta e'tibor beradi. Isbotlovchi asoslar

sifatida tushunchalarning ta’rifini, tajriba ntijalarni, aksiomalar, postulatlar va avvalrok isboilangan tezislarni tan oladi. U tafakkur konunlarini antologik xarakterga ega deb ta’kidlaydi. Ziddiyat konunining eng oliy printsip sifatida kuyidagicha ta’riflaydi: «Bir buyum bir vaktning uzida xam bo`lishi xam bulmasligi mumkin emas». Etarli asos krnuniga esa «xamma mavjud narsalar uzining etarli asosiga ega, shuning uchun ular mavjud emaslikdan kura mavjuddir», deb antologik ta’rif beradi.

X. Volfning karashlari Germaniyada mantiqga oid ilmlarning keyingi rivoji chun katta axamiyatga egab¢ldi. Baumeyster (1709-1785), Meyer (1718-1777) va L. Eyler (1707-1783) kabi mantiqshunoslarga uning goyalari sezilarli ta’sir kursatgan.

Djon Frederik Vilyam Gershel (1792-1871) ingiliz matematigi va mantiqshunosi bo`lgan. U «Tabiatshunoslikni o`rganishga krish» (1832) asarida Milldan 11 yil ilmiy induktiv metodlarning asosiy mazmunini yoritib bergan. Gershel fikricha, xodisalar o`rtasidagi sababiy alokodorlikni aniklash barcha fanlarning asosiy vazifasidir. U sababiy alokadorlikni aniklashning kuyidagi koidalarini ishlab chikdi:

1. sabab va okibat alokadorligining o`zgarmasligi;
2. sabab bo`lmasa, oqibatning xam bo`lmaslgi doimiy, o`zgarmasdir;
3. sabab chinligining ortishi yoki kamayishi bilan okibatning xam chinligining ortishi yoki kamayishi;
4. okibatning sababga propotsionalligi;
5. sababning yo`qolishi bilan okibatning xam yo`qolishi;

Gershelning bu koidalari ilmiy induktsiya metodlarining yaratilishida muxim rol o`ynagan.

Djon Styuart Mill (1806-1873) ingiliz faylasufi vamantiqshunasi. Sillogistik va induktiv mantiq sistemasi (1843) asarinng mualifi.

U xam Bekrli, YUm va Kant kabi xodisalarning chin moxiyatini bilish mumkinligini inkor etgan. Inson fakat sezgilar vositasi orkali xodisalarni biladi, xolos, sezgilardan tashkarida xech qanday buyum mavjud bo`lmaydi, deb xisoblagan.

Mill fikricha xukm xodisalar o`rtasidagi munosabatlarning ifodasidir. SHu fikrga asoslangan xolda u xukmlarni 5 turga ajratadi:

1. mavjudlik xukumlari;
2. davomiylik, ketma – ketlik xukmlari;
3. o`zaro majudlik xukmlar;
4. sababiy bog`liklik xukmlari;
5. o`xshash munosabatlarni ifodalovchi xukmlar.

Mill F. Bekon, R. Uetli, YU. YUel va Gershel asarlariga tayanib psixologik yunalishdagi mantiq sistema tuzdi. Mantiq xakikatni izlash metotlarini o`rganuvchi fandir. Bu metotlar xulosa chikarish koidalari va isbotlash usullarini o`z ichiga oladi.

Mill asossiz xolda deduktiv yunalishni tankid qilib, induktiv yo`nalishiga ortikcha baxo beradi. Uning ta’kidlashicha, sillogizm xech qanday yangi bilim bermaydi. Umumiy xukm xususiy xolatni isbotlay olmaydi, chunki umumiy xukmning uzini isbotlash talab kilinadi, deydi.

Lekin Mill yaratgan ilmiy induktiv xulosa chikarishning metotlari katta axamiyatga ega bo`lgan. Bular:

1. kodiklar metodi;
2. tafovut metodi;
3. o`xshashlik va tafovut qo`shma metodi;

4. yo`ldosh o`zgaruvchi metodi;
5. yagona o`xshashlik metodi.

U xar bir metodning ifodalanish usulini (formulasini) oydinlashtirdi va ularning tadkikotchilar uchun muxim axamiyatga ega ekanligini misollar bilan tushuntirib berdi.

SHuning uchun bu metotlar mntik tarixida Mill metodlari deb ataladi.

Mill ta’lim tarbiya soxasida mantiq ilmining urniga yukori baxo bergan. U uz avtobiografiyasida: «YAngicha tarbiyalashda, fikrlovchi insonlarni shakllantirishda mantiq ilmidan yaxshirok vosita bulmasligini ishonchim komil», - deb yozgan.

XVIII – XIX asalar falsafiy fmkrida nemis falsafasi, xususan uning yorkin vakillari bo`lgan **I. Kant** (1724-1804) va **V.F. Gegel** (1770-1831) yaratgan mantiqiy sistemalar muxim o`rin tutadi. Kantning mantiqiy karashlari uning «Sof akl tankidi», «Prolegomenlar», «Muloxaza yuritish kobiliyati tankidi», (Mantiq) (shogirdining Kant fikrlarini yigib tuzgan tuplami) kabi asarlarida bayon etilgan.

Kant mantiq faning mavjud an’analarini xisobga olgan, Aristotelning mantiqiy ta’limotiga suyangan, shuningdek, YAngi davr boshlangan mantiq ilmini islox kilish, davr ruxiga mos bo`lgan yangi mantiqiy sistemani yaratish yo`lidagi bo`lgan o`rinishlarni kullab - kuvvatlagan xamda uzining dunyokarashining, metodologiyasining bosh printsiplaridan kelib chikkan xolda mantiqiy ta’limotini yaratdi.

Kantning ta’kidlashicha, mantiq ilmining o`rganish ob’ektini akl, tafakkur tashkil etadi. Uning negizini, asosiy shaklini apriori tarzda (ya’ni sub’ekt tajribasiga kadar) mavjud bo`lgan kategoriyalar xosil kiladi. Ular umumiy va zaruriy xarakterga ega. Ana shuning uchun xam o`rganilayotgan ob’ektlar xakida chin bilimlar xosil kilishga imkon beradi. Akl bilan bilish kategorial sintezda, ya’ni xissiy kabul kilish natijalarini apriori kategoriyalar yordamida taxlil etish shaklida mavjud. Kant fikricha, Aristotel asos solgan umumiy mantiq (formal mantiqni Kant ana shunday nom bilan ataydi) aklni, tafakkurni o`rganuvchi fan sifatida saklanib kolishi kerak. Lekin u Aristotel mantiqiy talimotiga xos bulagn ayrim kamchiliklardan, xususan tafakkur shakllarini oxir-okibatda empirik mazmunga ega, tafakkur konunlarini (printsiplarini) bir vaktning o`zida borlik printsiplari, deb bilishdan voz kechishi kerak.

Umumiy matik, mutafakkir fikriga muvofik, tafakkur shaklini toza xolda, ya’ni uning «materiya»sini tashkil etuvchi ob’ektlarni fark kilmagan xolda o`rganishi, aklning, t¢g`ri muxokama yuritishning zaruriy konunlarini ishlab chikishi zarur. Bu konun - qoidalar akliy faoliyatning formal printsiplari bo`lib, ularsiz tafakkur mavjud bo`la olmaydi.

Maxokama yuritishning formal koidalari, va umuman, formal mantiq, mutafakkir nazarida, bilimlarga baxo berish, ularning mantiqiy kiymatini (chin-xatoligini) aniklashga yordam berish uchun muljallagan kodalar yigindisi, ya’ni kanon bo`lishi kerak.

Kant tafakkur shakllari o`rtasidagi alokalarni taxlil kilishga aloxida axamiyat beradi. Xususan, xukmni (muloxazani) tushunchalardan tashkil topgan mantiqiy shakl sifatida olib karab, uni ong tasavvurlari birligini xis kilishga imkon beruvchi vosita deb xisoblaydi. Uz navbatida aklning negizini tashkil etuvchi kategoriyalarning 12tasini («reallik», «inkor», «chegara», «tuplam», «yaxlitlik», «sababiyat», «uzarot a’sir», «imkoniyati», «vokelik», «zaruriyat» va boshkalar) shu davrda ko`pchilik tan olgan xukmning 4 ta guruxga (mikdori b¢yicha, sifati b¢yicha, munosabati b¢yicha, modulligi b¢yicha) ajratilishidan iborat klassifikatsiyadan kelib chikib belgilagan.

Kant xulosa chikarishini tushuncha va xukmlardan tashkil topadigan mantiqiy shakl

sifatida tasavvur qilib, uning 2ta turini: bevosita va bilvosita xulosa chikarish turlarini fakr kiladi. SHuni aytish kerakki, Kantning yukorida biz kayd etib utgan fikrlari va boshka ilgari surgan umumiy mantiq (formal mantiq) ning o`rganish soxasini, predmetini nisbatan anikrok tasavvur kilishga imkon beradi. Uning mantiq ilmi tarakkiyoti yo`lida kilingan buyuk xizmatlaridan biri aynan ana shu bilan boglik.

Mantiq tarakkiyotidagi boshka bir xizmati Kantning umumiy mantiqdan tashkari yangi – transtsindental mantiqni yaratishi bilan belgilanadi.

Transtsindental mantiq aklni, umuimy mantiqdan farkli ularok, fakat shakli jixatidangina emas, balki mazmuni tomonidan xam olib o`rganishi kerak. Transtsindental bilim apriori bilimlarning aloxida shakli bo`lib, u tasavvurlarimizning (yakkol tasavvurlar yoki tushunchalarimizning) fakat apriori mavjud bo`lishini, kullanilishini, ularning qanday amalga oshishini tushunishimizga yordam beradi. Bunda tafakkurning mazmuni deganda firkning empirik mazmuni emas (Kant imperizmga butunlay karshi) balki akl tomonidan xosil kilingan mazmuni tushiniladi; uning tajribaga xech qanday alokasi yuk. Bu mazmun toza apriori tushunchalarda ifoda kililingan bo`lib, aynan anashularni o`rganish transtsindental mantiqning asosiy vazifasini tashkil etadi.

Biz uchun nixoyat mavxum bo`lib tuyilgan Kantning bu muloxazasida muxim ratsional ma’no bor. Uni tafakkurni uning shakli va mazmuni birligida olib o`rganuvchi mantiqni yaratish zarurligi xakida g`oya tashkil etadi.

Bu goya nemis falsafasining boshka vakili – Gegel tomonidan rivojlantirildi.

Gegelning mantiqiy karashlari uning «Mantiq fani», «Falsafaiy fanlar entsiklopediyasi» kitoblarida bayon kilingan.

Gegel fikricha, falsafa mantiq shaklida mavjud bo`lib uning o`rganish ob’ekti tafakkur (borlik bilan aynan bir bo`lgan) tashkil etadi. Ana shuning uchun xam mantiq ilmi umumiy mantiq ilmi umumiy borlikni uzida gavdalantiradigan tafakkurning eng umumiy, zaruriy xislatlarini o`rganuvchi ta’limotga aylanadi.

Albatta, bu bilan mutafakkir umumiy mantiqni inkor kilmaydi, balki, aksincha, uni falsafiy bilimning muxim bir kismini, tadkikot yunalishini tashkil etadi, bilishning muxim metotlaridan biri bilan kurollantiradi, deb xisoblaydi.

Gegilning buyuk xizmatlaridan birini aynan ana shu umumiy mantiqning dialektikaga (falsafaga) bo`lgan munosabati masalasini kuyishi va xal etishga urinishidv, deb bilishi zarur.

Gegil Aristotel mantigining bir kator muxim bilishi vazifalarini, xususan, tafakkur tarakkiyotini taxlil etishga ojizlik kilishini ta’kidlab o`tdi. U Kantning, umumiy mantiq tfakku shakllarini «toza» mantiqiy shakllar sifatida olib o`rganishi kerak, degan fikriga aniklik kiritadi. Uningcha, o`z xar qanday mazmunni kabul kila oladigan sof mantiqiy shaklning bo`lishi mumkin emas; xar qanday shakl uz maxnosiga, mazmuniga ega. Umumiy mantiq tafakkur shakllarini o`rganishda ana shunday kelib chikishi kerak. U t¢g`ri muxokama yuritish uchun zarur bo`lgan formal koidalarni o`rganuvchi fan sifatida falsafiy bilishning kuyi boskichini, buysinuvchi momentni tashkil etadi. Gegel uning asosiy printsiplarini, taxlil etadigan universal shakllarini, ularning muxokamani t¢g`ri ko`rish va chin fikrlar xosil kilishdagi axamiyatini chukur tadqiq kilgan.

Ayniksa, uning tafakkurning universal shakllari: tushuncha, xukm, xulosa chikarish o`rtasidagi alokadorlikni o`rganishga dialektik tarzda yondashishi et’borga loyikdir. Dealektika (dealektik mantiq, falsafa) falsafiy bilishning asosiy usuli bo`lib, u formal mantiqdan fakrli o`larok, tafakkurni birinchidan, uning mazmuni va shakli birligida,

ikkinchidan, tarakkiyotida olib o`rganadi. Bunda tafakkur o`z-o`zidan rivojlanadigan moxiyat sifatida olib karaladi.

Gegel dialektik mantiqning formal mantiq o`rganuvchi universal tafakkur shakklaridan tashkari yana bir kancha muxim shakllarini: kategoriyalar, g`oyalar, konunlarni va shu kabilarni o`rganishni ta'kidlaydi. Uning muxim printsiplari sifatida ziddiyat, abstraklilikdan konkretlikka karab borish, tarixiylik va mantiqiylik birligi kabilarni asoslaydi.

Gegel fikricha,dialektik mantiqning asosiy vazifasi xaikatni, aniklash, unga erishish yo`llarini o`rganishdar. Muxokamani t¢g`ri kurish uning yordamchi vositasi bo`lib xizmat kiladi. Mutafakkir xakkatni jarayon sifatida olib karaydi, uni dialektik metod printsiplari asosida tushuntirishga xarakat kiladi.

Dialektik mantiq asoslarining yaratilishi, uning ayrim kamchiliklariga karamasdan (masalan, tugal sistema sifatida kurilishi), Gegelning mantiqiy izlanishlarining natijasi uning mantiq ilmi rivojiga qo`shgan buyuk xissasidir.

XIX – asrning o`rtatalariga kelib mantiq ilmida jiddiy o`zgarishalr sodir b¢ldi. U Aristotel mantiqiy sistemasiga asoslangan an'anaviy formal mantiqdan tubdan farq kiladigan, matematik metodlardan keng foydanaladigan simvolik mantiq (yokiy matematik mantiq) ning shakllanishi bilan bog`lik. Uning negizida Leybnits ilgari surgan muxokamalarga xisoblash tusini berishning mumkinligi va uning samaradorligi xakidagi g`oya yotadi. XIX asrning o`rtalari - XX asrning boshlarida bu g`oyani J. Bull, A. M. Dey-Morgan, CH. Pirs, G. Fregie va boshka tanikli olimlar amalga oshirishga o`z xissalarini ko`shdilar.

XX asrning boshiga kelib simvolik mantiqka oid ilmlar doirasida mustakil fan sifatida shakllandi. Simvolik mantiq b¢yicha dastlabki uch jildlik fundamental asar – «Principia mathematika» B. Rassel va A. Uvaitlar tomonidan yaratildi va u 1910 – 1013 yillarda nashr etildi. Bu asarda an'anaviy mantiqning ba'zi muammolari xamda buning doirasida kuyib bulmaydigan masalar yangicha yondoshish asosida, simvolik mantiq vositalari yordamida taxlil etilgan.

SHuningdek, XX asrda noan'anaviy mantiqning turli xil yo`nalishlari, xususan ko`p ximmatli mantiqiy sistemalar (Lukasevich, Geyting, Reyxenbax ularning uch kiymatli mantiqiy sistemalari, Kostning – kiymatli mantiqiy sitemasi va shu kabilar), konstruktipv mantiqli (A.N. Kolmogorov, A.A. Markov variatnlari) va boshka mantiqiy nazariyalar vujudga keldi va rivojlandi.

XX asrda mantiq ilmining ma'lum yo`nalishlari rivojiga Viyneyshteyn, K. Popper, E. K. Voyishvillo, V. Smirnov, Xindikti kabilar xam o`zlarining munosib xissalarini qo`shdilar.

Xozirgi paytda mantiq o`zining turli turli xil soxalari va yo`nalishlarida tarakkiy etib bormokda.

4. Tilning mantiqiy tahlili.

Til tafakkur bilan uzviy bog`langan, fikrimizning bevosita mavjud bo`lishini ta'minlaydigan va o`rtasida aloka o`rnatishga xizmat kiladigan axborot belgilari sistemasidan iborat. Tilni o`rganish mantiq fanning muxim vazifalaridan birini tashkil

etadi. Ma’lumki, tafakkur olamni kishilar mavxumlashtirib va umumlashtirib aks ettiradigan ideal xodisadir. Mavxum narsalarni, umumiylikni fakat til erdamidagina kayt kilish mumkin.

Til va tafakkurning birligi nutkda o`z ifodasini topadi. Nutk ogzaki va yozma xolda mavjud bo`lib, unda fikrimiz moddiy shaklga ya’ni xissiy idrok ettiladigan shaklgua kiradi va shu tarika u endi bir shaxsga emas, balki jamiyatga tegishli bo`lib koladi. Til kishilarning ijtimoiy mexnat faoliyati negizida vujudga kelgan va rivojlana borgan. Ana shuning uchun xam u chukur mazmunga ega xamda madaniyatimiz va tariximizning muxim bir kismini tashkil etadi. Til yordamida bilimlar xosil kilinadi, tuplanadi va bir avloddan boshka avlodga etkazib beriladi. SHu tarika u ta’lim va tarbiya ishlarini amalga oshirishga, madaniyatimizni tarakkiy ettirishga erdam beradi.

Tilning ikkita turi mavjud. Ular tabiiy va sun’iy tillardir. Tabiiy yoki milliy tillar tarixan shakllangan tovushlar (nutk) va grafika (yozuv) ning axborot belgilari sistemasidan iboart. Tabiiy tilning aloxida olingan xar qanday belgisi uz xolicha xech narsani ifoda kilmaydi. Bu belgilar inson amaliy faoliyati va tafakkuri tarakkiyotining negizida vujudga kelgan til sistemasiga kiradigangina ma’lum bir ma’no va mazmun kasb etuvchi belgilarga aylanadi.

Tabiiy til ob’ektiv olamning va bilishning turli xil soxalariga tegishli bo`lgan predmetlar, xodisalar xamda ularni xossalari va munosabatlarini kamrab olish ifoda kilishdek katta imkoniyatga ega. U simantiq jixatdan yopik sistema xisoblanadi. Boshkacha aytganda, tabiiy til boshka tillarga murojaat kilmagan xolda, mustakil ravishda uzini kurishi va ifoda kilishi mumkin.

SHuning bilan bir katorda, tabiiy tildan foydalanish bilish jarayonida ayrim kiyiniliklarni xam keltirib chikaradi. Ular kuyidagilar bilan boglik: 1) tabiiy tildagi suzlarning ma’nosi vakt utishi bilan uzgarib turadi; 2) tabiiy tilda bir so`z bir kancha tushunchani ifoda kilishi (omonimlar) yoki bir tushuncha bir kancha suzlarda ifoda kilinishi (sinonimlar) mumkin; 3) tabiiy tildagi ba’zi suzlar yordamida ifoda kilingan fikr anik ma’noga ega bulmay koladi (masalan, «Karim chet tilini yaxshi bilmaydi.» degan fikrda Karimning kimga nisbatan yoki qanday vazifani bajarishiga nisbatan chet tilini yaxshi bilmasligi ko`rsatilmagan). Tabiiy tildagi mana shu kabi xodisalardan xoli bo`lishi uchun ilmiy bilishda atamalardan (terminlardan) foydalaniladi. Atama o`zining kat’iy va anik ma’nosiga ega bo`lgan so`z bo`lib, bu ma’no definitsiya (ta’rif) yordamida ko`rsatiladi. SHuningdek, tabiiy tilda aniklikka sun’iy tildan fodalanish yo`li bilan xam erishiladi.

Sun’iy til tabiiy til negizida yaratilgan yordamchi axborot belgilari sistemasidan iborat bo`lib, u mavjud xabarlarni anik xamda tejamli bayon kilish va uzatish uchun xizmat kiladi. Sun’iy tilda sun’iy yo`l bilan yaratilgan maxsus belgilar, ya’ni simvollar – ramzlar ishlatiladi. Tabiiy tildagi konkret mazmunga ega bo`lgan fikrlar ilmiy bilishda ana shunday simvollar bilan almashtiriladi. Demak, sun’iy til fikrimizning konkret mazmunidan chetlashgan xolda, fakat simvollar bilan ish olib borish ta’minlaydi.

Sun’iy tillar xozirgi fani va texnikasaida keng kullaniladi. Ularning ayniksa matematika, fizika, kimy, kibernetika, xisoblash texnikasi va shu kabi soxalar rivojlanishida xissasi katta. Sun’iy tillarni ishlatilishiga misol qilib matematikadagi t¢g`ri burchakli uchburchak tomonlarini ifoda kiluvchi $Cos^2a+Sin^2a=1$ formulasini, kimyodagi suvni ifoda kiluvchi H_2O formulani, mexanikada tezlikni

ifoda kiluvchi $V = \frac{S}{t}$ formulasini shu kabilarni ko`rsatish mumkin.

Elektron xisoblash uchun dasturlar tuzishda esa maxsus algoritmik tillar ishlatiladi. Ular «Algol – 60», « Algol – 65», « Fortran», «Kobol», «PL – 1» , « Assembler», «Beysik» va boshkalardan iborat. Sun'iy tildan mantiq fani xam fikrimiz tuzilishini nazariy jixatdan analiz kiliшda foydalanadi.

Demak, ilmiy bilishda tabiiy tildan xam, sun'iy tildan xam foydalaniladi. Ilmiy til esa tabiiy til, sun'iy til va maxsus atamalardan tashkil topgan b¢ladi.

Umumiy mantiq uzining maxsus ilmiy formallashgan tiliga ega. U inson tafakkurining tuzilishini anik va ravshan xolda ifoda kilish maksadida yaratilgan. Buning moxiyatini tushunish uchun formallashtirishning uzi nima ekanligini aniklab olish zarur.

Belgi bilish jarayonida boshka bir predmetning vakili va vazifasini bajaruvchi xamda u xakida ma'lum bir xabarlar berish, uni saklash, kayta ishlash va uzatishga imkoniyat yaratuvchi moddiy predmetdir. Xar qanday belgi xam til belgisi bo`la olmaydi. Tilga alokasi bulmagan belgilar katoriga nusxa-belgilar (masalan, fotografiya kartorchkasi, barmok izi va shu kabilar), indeks-belgilar eki ko`rsatuvchi belgilar (masalan, badan xaroratining kutarilishi-kasalik belgisi, tutun – olov belgisi va shu kabilar) kiradi.

Til belgisi simvol – ramzlar shaklida mavjud bo`lib, uzi ifoda kiladigan predmetlar bilan tuzilishiga ko`ra xech qanday o`xshashlikka ega emas. Mantiq o`z e'tiborini ana shunday til belgilarini o`rganishga karatadi.

Til belgilari o`z ma'nosiga va mazmuniga ega. Til belgisining mazmuni u ifoda kilayotgan, ko`rsatayotgan ob'ekt tashkil etadi. Masalan, « Auditoriya» so`zi real mavjud ob'ektni – auditoriyani aks ettiruvchi fikr mazmunini ifoda etadi. Til belgisining ma'nosini u ifoda kilayotgan ob'ekt xarakteristikasi (tavsifi) tashkil etadi. Masalan, «Auditoriya» suzining ma'nosi « Mashgulot o`tkazish uchun muljallangan xona», «Maxsus jixozlangan xona» va shu kabi ekanligi xakidagi axborot tashkil etadi.

Belgilarning bilishdagi vazifasini o`rganishga Aristotel, Leybnits kabi mutafakkirlar katta e'tibor berganlar. Belgilar xakidagi ta'limotni tarakkiy ettirish XIX asrda aktual masalaga aylangan. Mana shu davrda amerikalik faylasuf CHarl'z Pirs (1839 - 1914) belgilar xakidagi fan – semiotikaga asos solgan. Bu fan til belgisini uch xil yo`nalish b¢yicha analiz kiladi. Birinchisini semantiqa tashkil qilib, u belgi bilan u ifoda kilayotgan ob'ekt o`rtasidagi munosabatni o`rganadi. Ikkinchisi pragmatika bo`lib, u kishilarning belgilarga munosabatini xamda belgilar yordamida kishilar o`rtasida vujudga keladigan munosabatlarni urganadi. Uchinchisi, sintaksis deyilib, u belgilar o`rtasidagi munosabatlarni (tilni kurish koidalarini) urganadi. Mantiq fanini ko`prok til belgilarining simantiqasi kiziktiradi.

Sintaksis – semiotikaning muhim bir tarmog`i bo`lib, tilning tuzilishini turli belgilari o`rtasidagi aloqa, shakllanish usullarini o`rganadi. Sintaktik aloqa tufayli mantiqiy munosabat grammatik jixatdan shakllanadi. Masalan, ob – havo o`zgara boshladi. Xastalikka ta'sir qildi. Kasallar o`ziga nisbatan e'tiborni kuchaytirdi. Bu fikrlarda mantiqan aloqalar mavjud. Biroq unda xali sintaktik aloqa yo`q. «ob – xavo o`zgara boshlashi bilan xastalikka ta'sir qildi, shu sababdan kasallar o`zlariga nisbatan e'tiborni kuchaytirdi» deb bu gaplarni o`zaro bog`lasak, bunda mantiqiy munosabatlar bilan birga

sintaktik aloqalar vujudga keladi. Sintaktik aloqa tufayli gap yangi sifatga, yangi tuzilishga ega bo`ladi. Misolimizda uchta sodda gapdan qo`shma gap hosil bo`ladi.

Semantika – til belgilari bilan unda ifodalangan ob’ekt o`rtasidagi munosabatni tahlil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, belgilarning ahamiyatini talqin qilish muammosi bilan shug`ullanadi. Hozirgi zamon fanida adabiy til va jonli so`zlashuv tili semantikasi bilan birga sun’iy til semantikasini tahlil qilish muammosi ham mavjud. Mantiq ilmida ana shu masalalarga aloxida e’tibor beriladi.

Pragmatika – kishilarning belgilarga munosabatini o`rganadi. Bunda belgilar yordamida kishilar o`rtasidagi vujudga keladigan munosabatlar ham tahlil qilinadi. Xissiy - psixologik, estetik, iqtisodiy va boshqa amaliy omillarning tildagi aloqasi bilan shug`ullanadi.

Mantiqiy shakllarni taxlil qilishda undagi til ifodasiga semantik xarakteristika berish aloxida axamiyatga ega. Semantik kategoriyalar til ifodalarining sinflaridan iborat bo`lib, ular bir – biridan qanday belgilarni aks ettirishlari bilan farq qiladilar. SHunga ko`ra mantiq ilmida quyidagi semantik kategoriyalar mavjud: Gap, deskriptiv terminlar (atamalar) va mantiqiy terminlar (atamalar). Gap o`z navbatida: darak gap, so`roq gap, buyruq va undov gaplarga bo`linadi.

Deskriptiv terminlar o`z navbatida, predmetning nomi, funktsional belgilar va predikatorlarga bo`linadi. Mantiqiy terminlar esa kon’yunktsiya (birlashtirivchi), dizyunktsiya (ayiruvchi), kvantorlar, implikatsiya (shartli), inkor, ekvivalent kabi tushunchalardan iborat bo`ladi.

Predmet nomi aloxida so`z yoki so`zlar brikmasi bo`lib, predmetning ifodalaydi. U moddiy (kitob, daraxt) yoki g`oyaviy (axloq, fikr), oddiy (Toshkent, qalam) yoki murakkab (quyosh sistemasi planetalari) bo`lishi mumkin. U aloxida predmetni (Beruniy, Samarqand), umumiy predmetlarni (daraxt, yulduz) aks ettirishi mumkin.

Predikatorlar predmet va uning belgisi o`rtasidagi munosabat to`g`risida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikrning til ifodasidir (ish boshlamoq, katta bo`lmoq). Predikatorlar aloxida predmetga tegishli belgini ko`rsatsa, bir joyli (paxta oqdir), ikki predmet munosabatini ko`rsatsa, ikki joyli (Karima Valini sevadi), undan ortiq munosabatlarni ko`rsatsa ko`p joyli predikat deb ataladi. (Vali Salimaga gul sovg`a qildi).

Gap tilda mustaqil semantik ma’noga ega va tugal fikr anglatadi, to`liq til belgisini ifodalaydi. Gap xukmning til ifodasidir. Biroq darak gapgina xukmni ifodalaydi. CHunki unda aniq tasdiq yoki inkor qilib aytilgan fikr mavjud.

Formallashtirish konkret mazmunga ega bo`lgan fikrlarni simvollar bilan almashtirish, ya’ni propozitsiional funktsiya xosil kilish, formulalar kiritish, mantiqiy koidalarni yaratish orkali tafakkurning ( fikrning ) strukturasini ifoda kilishi demakdir. Tafakkurning bilan mantiqning mantiqning tilda ifoda kilinishi strukturasi o`rtasida uzaro muvofiklik mavjud, ya’ni xar bir konkret fikr strukturasiga ma’lum bir til strukturasi muvofik keladi. Buni propozitsional funktsiya xosil kilish misolida kurishimiz mumkin. «Toshkent – ¡zbekiston poytaxti» degan fikrdagi «Toshkent» tushunchasini – S, «¡zbekiston poytaxti» tushunchasini – P bilan almashtirsak, S – P kurinishga ega bo`lgan propozitsional funktsiya xosil b¢ladi. Propozitsional funktsiya

o`zgaruvchi kiymatga ega ifoda bo`lib, bu kiymat argument bilan almashtirilganda konkret mazmunli fikr xosil b¢ladi.

Formallashgan til kuyidagi talablarga javob berishi kerak.

1. Asosiy belgilar anik ifoda kilingan bo`lishi kerak. Bu belgilar asosiy tushunchalar, atamalarni ifodalaydi.
2. Ta’riflashning barcha koidalari kursatilgan bo`lishi kerak. Bu koidalarga asoslangan xolda mavjud belgilar yordamida yangi, kiskarok belgilar xosil kilinadi.
3. Formulalarni tuzishning barcha koidalari berilgan bo`lishi kerak. Bunga misol qilib tushunchalardan gap xosil kilish koidalarini kursatish mumkin.
4. Xulosa chikarish koidalarining barchasi kursatilgan bo`lishi kerak. Bu kullaniladigan belgilarning ( so`z, gap, simvollar) grafik usul bilan ifodalanishiga tegishlidir.
5. Qo`llaniladigan belgilarning ma’nosini talkin kilish koidalari kuratilgan bo`lishi kerak.

Formallashgan tilga ega bo`lgan mantiq chin fikrni ifoda kiluvchi bir formula yordamida xuddi shunday chin fikrni ifoda kiluvchi boshka formulani keltirib chikara oladi. Bunda berilgan fikrning konkret mazmuni e’tiborga olinmaydi.

Formallashgan tilning ustunligi shundaki, unda mantiqiy xulosa chikarishda kuzda tutilmagan asoslarning katnashib kolish mumkin emas.Matematika va mantiqning kup masalalari fakat mana shu yo`l bilan echilishi mumkin.Nixoyat, farmallashgan tilning yana bir kimmatli tamoni shundaki,unda bir soxada yaratilgan formallashgan tildan boshka bir soxaga oid masalalarni echishda foydalanish mumkin.Masalan, mantiqda sinflar bilan b¢ladigan amallarda matematika tilidan (kushish, kupaytirish, tuldirish kabi atamalardan xamda ularni ifoda kiluvchi belgilardan) fikr tuzilishini ifoda kilish uchun foydalanish mumkin. Bunda, albatta foydalanilayotgan belgilarga maxsus ma’no beriladi.

Formallashgan tilning kamchiligi esa shundaki, u tabiiy tilga karaganda ob’ektni yuzaki xalda ifoda kiladi. Xozirgi davrda mavjud farmallashgan tillar borlikning va bilishning juda kam soxalarini kamrab olgan. Bilishning kaysi soxalarida formallashgan tilni yaratish mumkinligini oldindan aytish kiyin.

SHuningdek, formallashgan til emprik tadkikotlarning urnini bosa olmaydi.Ana shuning uchun xam ilmiy til formallashgan tildan foydalanish bilan chegaralanib kolishi mumkin emas.

SHunga karamasdan formallashgan til xozirgi paytda ilmiy bilishda va amaliy xayotda muxim axamiyatga ega.U ayniksa fikrning tuzilishini o`rganishga, uning mantiqiy kiymatini, ya’ni chin yoki xatoligini aniklashga tulik kulay sharoit yaratadi.SHuning uchun mantiqning formallashgan tilini yaratishga va uni chukurrok o`rganishga kizikish katta.

3. Tafakkurning mantiqiy shaklini o`rganishda semantiq kategoriyalar muxim axamiyatga ega.**Semantiq kategoriyalar** til ifodalarining sinflaridan iborat bo`lib, ular bir-birlaridan qanday ob’ektni aks ettirishi bilan fark kiladilar.Asosiy semantiq kategoriyalari qatoriga gap va uning tarkibida nisbatan mustakil xolda mavjud bo`lgan kismlari deskriptiv va mantiqiy amallar kiradi.

Gap xukmni, savolni va normani ifoda kilish mumkin. Xukmni ifoda kiluvchi gap predmetga birorta belgining (xossa yoki munosabatining) xosligini tasdiklaydi va inkor kiladi.U darak gapdan iborat.

Gapda predmetlarni, ularning xossalarini va munosabatlarini aks ettiruvchi ifodalar

deskriptiv atamalar deyiladi.Deskriptiv atamalar predmetlar nomlari yoki termalar (predmetlarni, predmetlar tuplamini aks ettiruvchi ifodalar) va predikatorlarga (predmetlarning xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi ifodalar) bulinadi.

Predmetlarning nomlari ayrim suzlar va suz birikmalari bo`lib, ular maddiy (planeta, elektr toki) va ideal (sezgi, tafakkur) predmetlari ifodalaydi.Predmet nomi belgidan iborat bo`lganligi uchun uz mazmuni va ma'nosiga ega.Nomning mazmuni predmetning ifoda kiladi va mantiqda **denotat** deb ataladi.Nomning ma'nosi esa predmetning muxim, umumiy belgilarini ifoda kiladi va **kontsept** deb ataladi.Masalan «Aristotel», «Mantiq fanining asoschisi», «Torika asarining muallifi» kabi ifodalarning mazmuni bir xil, ya'ni bitta predmetni ifodalaydi, ma'nosi esa turli xil, ya'ni fikr kilinayotgan ob'ektning xar xil belgilarini kayd kiladi.

SHuningdek, nomlar yakka («Toshkent shaxri») yoki umumiy («SHaxar») bo`lishi mumkin.Bunda yakka nom bitta predmetni, umumiy nom esa predmetlar sinifini aks ettiradi.

Predikatorlar gapda kesim urnida kelib, uzi taallukli bo`lgan nomning mikdoriga boglik xolda bir urinli yoki kup urinli bo`lishi mumkin.Bunda predmetning xossasini ifoda kiluvchi predikatorlar bir urinli, ular o`rtasidagi munosabatlarni ifoda kiluvchi predikatorla kup urinli predikatorlar xisoblanadi.Masalan, «¡zbekiston musakil respublikadir» degan muloxazada predikator bir urinli, «¡zbekiston Turkiya bilan iktisodiy shartnoma tuzdi» degan fikrda «iktisodiy shartnoma tuzdi» predikatori ikki urinli «¡zbekiston Sirdaryo va Amudaryo oraligida joylashgan» degan fikrda «oraligida joylashgan» predikator uch urinlidir.

Mantiqiy atamalar (mantiqiy konstantalar) doimiy mantiqiy kiymatga ega bo`lib, gapda deskriptiv atamalarni boglashda ishlatiladi. Ular uzbek tilida «va», «xam», «xamda», «yoki«, «yoxud», «barcha», «xech bir», «ba'zi», «emas», kabi suzlar orkali ifodalanadi va turli xil (oddiy va murakkab) xukmlar, muloxazalarni xosil kiluvchi elementlar xisoblanadi.Masalan, «Xech bir tovar kiymatsiz emas» degan fikrda «xech bir» «emas» mantiqiy atamalar bo`lib , ularsiz deskriptiv atamalarni-«tovar», «kiymat» so`zlarini boglab bulmaydi.

Mantiqning formallashgan tilini yaratishda semantiq kategoriyalari anik ta'riflanishi va tavsiflanishi kerak. Bunga semantiq kategoriyalari konkret simvollarda aks ettirish orkali erishish mumkin.

Ana shu simvollar mantiqning formallashgan tilining alifbosini tashkil etadi.Mantiqda ikkita til-predikatlar mantigi tili va muloxazalar mantigi tili mavjud.

Predikatlar mantigi --- muxokama jarayonini xukmlarning ichki tuzilishini xisobga olgan xolda uzgaruvchi farmallashgan mantiqiy sistemadir. Predikatlar mantigi alifbosi muloxazalar mantigi alifbosiga yangi simvollar kushish orkali xosil kilinadi.Ular kuyidagilar:

1.a, v, s,..., -predmet nomlarini ifodalovchi simvollar, ular kanstantalar deb ataladi.

2.x, y, z,..., -predmetlarning umumiy nomlarini bildiruvchi simvollar.

3.P^1, Q^1, R^1,..., P^n, Q^n, R^n—predikatorlar uchun simvollar; Bunda 1-bir urinli predikatorni, 2-ikki urinli predikatorni, n-n o`rinli predikatorlarni bildiradi.

4. Xukmning mikdorini bildiruvchi simvollar; --umumiylik kvantori; unga o`zbek tilida «barcha», «xar bir», «xech bir» kabi so`zlar t¢g`ri keladi.Masalan, «Xech bir ota-ona o`z farzandiga yomonlik tilamaydi» degan xukm $\forall$ (x) P(x) ko`rinishida yoziladi.

∃-mavjudlik kvantori; unga o`zbek tilida «ba’zi», «ayrim» kabi suzlar t¢g`ri keladi.Masalan, «Ba’zi kishilar yakka tartibda ishlaydi» degan xukm ∃(x)P(x) ko`rinishida yoziladi.

Muloxazalar mantigi va predikatlar mantigi natural xulosa chikarish sistemasi (yoki aksiomatik) sistema sifatida kurilishi mumkin.

**Muloxazalar mantig`i** xukmlarning ichki tuzilishini o`rganishdan chetlashib, ularning uzaro mantiqiy alokasini xisobga olgan xolda muxokama kilish jarayonini taxlil kiladigan formallashgan mantiqiy sistemadir.Muloxazalar mantigi tili alifbosi, ifodalar tariflarini va ularning takkin kilinishini uz ichiga oladi.Xsusan, bu til alifbosi kuyidagilardan tashkil topgan.

1. p, q, r—propozitsional uzgaruvchilar, ya’ni xukmlar uchun simvollar.

2. ^--kon’yunktsiya belgisi; u uzbek tilidagi «va», «xam», «xamda» kabi boglovchilarga t¢g`ri keladi.Masalan, «Ma’ruza tugadi (p) va uning muxokamasi boshlanadi (q)», degan xukmni P^Q shaklida ifoda kilish mumkin.

3. V–dizyunktsiya belgisi; u uzbek tilida «yo», «yoki», «yoxud» kabi suzlarga t¢g`ri keladi.Masalan, «Elektr toki yo ugaruvchan (p), yo uzgarmas b¢ladi (q) », degan xukm P Q shaklida yoziladi.

4. ➔- implikatsiya belgisi; unga uzbek tilida «Agar. Bulsa, -, . B¢ladi», degan ifoda t¢g`ri keladi.Masalan, «Agar talaba mustakil ishlasa (p) , ukuv materiallarini yaxshi uzlashtiradi (q) « degan xukm P ➔Q shaklida yoziladi.

5. ↔Ekvivalentlik belgisi; unga uzbek tilida «Fakat va fakat shundaki….» Degan ibora t¢g`ri keladi.Masalan, «Fakat juft sonlargina (p) 2ga koldiksiz bulinadi (q) », degan xukm P↔Q tarzida yoziladi.

¬ - inkor qilish belgisi. Masalan, «Axmedov Anvar taladir».(p) degan xukm inkor kilinganda «Axmedov Anvar talaba emas»—p xukmga aylanadi, ya’ni ¬ p uzining inkor bo`lgan ¬ p ga o`zgaradi.





Asosiy tushunchalar

Tafakkur, logika, mantiq, bilish, xissiy bilish, aqliy bilish, Arastu, Forobiy, Ibn Sino, til, tabiiy til, sun’iy til, belgi.

Takrorlash uchun savollar

1. Tafakkurning asosiy xususiyatlari nimada?
2. Tafakkurning mantiqiy shakllari qaysilar?
3. Mantiq fanining predmeti nima?
4. Mantiq fani rivojlanishining asosiy bosqichlari.
5. Tilning qanday funktsiyalarini bilasiz?

Adabiyotlar.

1. O`zbekiston Reslublikasining Konstitutsiyasi.—T.: O`zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1 - T.: O`zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. — T.:O`zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.Z. -T.:

O`zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yulidan. T.4. -T.: O`zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. YAngicha fikrlash va ishlash — davr talabi. T.5. -T.: O`zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lidan. T.6-T.: "O`zbekiston", 1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qulimiz bilan yaratamiz. T.7. -T.: O`zbekiston, 1999.
9. Karimov. I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8. — T.: O`zbekiston, 2000.
10. Voyshvillo E.K. Simvolicheskaya logika: klassicheskaya i relevantnaya. -M.: Izd-vo MGU, 1989.
11. Voyshvillo E.K. Ponyatie kak forma mgshleniya. -M.: Izd-vo MGU, 1989.
12. YOqubovT. Matematiklogaka elementlari. — T.: "O`qituvchi", 1983.
13. Ivlev YU.V. Logika. Uchebnik dlya vuzov. -M.: "Logos", 1998.
14. Kondakov N.I. Logicheskiy slovar-spravochnik. -M., 1976.
15. Kurbatov V.I. Logika. Rostov-na-Donu. "Feniks", 1997.
16. Raximov I. Logakadan amaliiy mashg`ulsolar va metodik tavsiyalar. -T.: "O`zbekiston", 1988.
17. M.Xayrullaev, M. Haqberdiev. Mantiq, -T.: "O`qituvchi", 1993.
18. SHaripov M. , Fayzixo`jaeva D. Mantiq. Ma’ruzalar matni. -T., 2000.
19. M. SHaripov, D. Fayzixo`jaeva Mantiq T., 2004.
20. M. Safarbaev, B. Jumaniyozov, Mantiq, T. 2007.

Katta o`qituvchi Jumaniyozov B.

11. Ma’ruza. Mavzu: Tafakkurning universial mantiqiy shakllari. (2 soat)

Reja:

1. Tushuncha tafakkur shakli sifatida.
2. Xukm tafakkur shakli sifatida
3. Xulosa chiqarish va uning turlari.

1. Tushuncha tafakkur shakli sifatida.

Tushuncha predmet va xodisalarning umumiy muxim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Belgilar deb, predmetlarni bir-biridan fark kiluvchi xamda ularning bir-biriga uxshashligini ifoda kiluvchi tomonlarga, xususyatlarga aytiladi. Xar bir predmet olamdagi boshka predmetlar bilan (bevosita yoki bilvosita)alokada bo`lganligi uchun kup belgilarga ega. Ularning ba’zilari fakat bitta predmetga xos bo`lgan, uning individual, yakkalik belgilarini tashkil kilsa, boshkalari predmetning ma’lum bir guruxiga tegishli bo`lib, umumiy belgilar xisoblanadi. Masalan, xar bir kishi fakat uzigagina xos bo`lgan ruxiy kechinmaldar va shu kabi individual belgilarga ega. SHuning bilan birga kishilarning ma’lum bir guruxiga (mexnat jamoasi, millat va shu kabilar tegishli) yoki barcha kishilarga (mexnat kilish, fikr yuritish kobiliyatlari,ijtimoiy munosabatlarda ishtirok kilishi va shu kabilar) xos bo`lgan umumiy belgilariga ega.

Individual va umumiy belgilarning ba’zilari predmetning mavjud bo`lishi uchun zarur bo`lib, uning tabiatini, moxiyatigni ifodalaydi. Masalan, davlatning mavjud bo`lishi uning uz maydoni, axolisi , xokimiyat orgonlariga ega bo`lishini takozo etadi.

Nomuxim belgilar predmetning moxiyatini tashkil kilmaydi. Ularning yukolishi bilan predmetning tabiati uzgarmaydi. Masalan, kaysi irkka, millatga, jinsga tallukli bo`lishi individning inson sifatida mavjud bo`lishi uchun muxum emas.

SHuni xam aytish lozimki, predmet belgisining muxum yoki nomuxum bo`lishi, bizning predmetga amalda qanday munosabatda bo`lishimizga karab xam belgilanadi. Xususan, bir munosabatda muxum bulmagan belgilar, boshka munosabatda muxum bo`lishi mumkun. Masala, kishining layokati uning qanday kasbni tanlashi uchun muxum bulsa, inson sifatida mavjud bo`lishi uchun muxum emas. Bunday muxum belgilar predmetning ma’lum bir munosabatdagi muxum belgilari deyilib, ob’ektiv muxim belgilardan (predmetning mavjud bo`lishi bilan zaruriy alokada bo`lgan belgilardan) fark kiladi.

Nixoyat predmet tuxtovsiz xarakatda, tarakkiyotda bo`lganligi uchun, vakt utishi bilan uning muxum bo`lgan belgisi nomuxum bo`lgan belgisiga yoki aksincha nomuxum belgisi muxum belgiga aylanishi mumkun.

Masalan, bevosita kuzatiladigan faktlar empirik bilish boskichida muxum axamiyatga ega bulsa, nazariy bilish boskichida unga kamrok murojat kilinadi.

Demak tushunchada predmet uzining muxum belgilari orkali fikr kilinib, bu belgalar predmetning umiy va individual belgilari bo`lishi mumkun. Masalan, «Xamza Xakimzoda Niyoziy» tushunchasida predmetning umumiy belgilari (inson, yozuvchi) bilan bir katorda, individual muxum belgilari (xususan, «Boy ila xizmatchi» dramasining muallifi) xam fikr kilinadi.

Tushunchaning xissiy bilish shakllaridan tubdan fark kilishiga aloxida e’tibor berish zarur. Sezgi, idrok va tasavvur predmetning

yakkol obrazidir. Biz fakat birorta kankret predmetni, masalan, uzimiz yozib utirgan kalamni idrok kilishimiz yoki u t¢g`risida tasavvurga ega bo`lishimiz mumkun. «Umuman kalam»ni idrok iklib bulmaydi. CHunki tushuncha predmetning yakkol obrazi emas, balki abstrak obrazdir.Kalam tushunchasi uzida konkret kalamlarning barchasini kamrab olgan xolda , ularning xar biriga xos bo`lgan individual belgilarini tashlab yuborib, umummiy, muxum belgilarini ifoda kiladi.Ayni paytda bu belgilar kalamni boshka predmetlardan,masalan, kitobdan fark kildirib turadigan spetsifik belgilar bo`lib xam xizmat kiladi.

Tushuncha predmetning nomuxum belgilaridan chetlashar ekan, demak uni tulaligicha aksettira olmaydi. Bu ma’noda u xissiy bilish shakllariga nisbatan borlikdan

uzokrokda turadi. Lekin, tushuncha predmetning muxum belgilarini in’ikos kilishi, moxiyatini aks ettirashi bilan xissiy bilish shakllariga nisbatan borlikni chukurrok, tularok ifoda etadi.

Tushuncha xissiy bilish shakllaridan farkli ularok, inson miyasida t¢g`ridan-t¢g`ri aks etmaydi. U ma’lum bir mantiqiy usullardan foydalanilgan xolda xosil kilinadi. Bu usular takkoslash, analiz, sintez, abstraksyalash, umumlashtirishlardan iborat.

Taqqoslash yordamida predmetlar uzaro solishtirilib, ularning o`xshash, umumiy tomonlari va bir-biridan fark kiluvchi individual belgilari aniklanadi.

Takkoslash analizni takozo etadi.CHunki predmetlarni yaxlit xolda solishtirib bulmaydi. Ular u yoki bu xossasiga kura takkoslanishi kerak.Buning uchun u xossalar ajratilishi lozim analiz yordamida predmet fikran uni tashkil kiluvchi kismlar tomonlarga ajralib xar kaysisi aloxida urganiladi.

Sintez analizga teskari usul bo`lib, u analiz davomida ajratilgan kismlar tomonlarni fikran birlashtirib, predmetni bir butun xoliga keltirishdan iborat. Sintez bulmasa predmet xakida yaxlit fikr xosil qilib bulmaydi. Analiz va sintez uzviy boglikdir.

Tushuncha xosil kilish uchun predmetning yukoridagi usullar bilan aniklangan umumiy va individual belgilarining muxumlari ajratilishi, nomuxumlarini chetlashtirishi lozim.Bu esa abstaraktsiyalash yordamida amalga oshiriladi.

Umumlashtirishda predmetlar ularning ayrim umumiy, muxum xususyat-larga kura sinflarga birlashtiriladi va shu tarika bitta tushunchada bir jinsli predmetlarning barchasini fikr kilish imkoniyati yaratiladi.

Tushunchaning shakllanishi suz bilan uzviy boglik.Ular o`rtasidagi alokadorlik tafakkur va til o`rtasidagi boglanishning konkret tarzda nomoyon bo`lishidir.

Tushunchalar suz va suz birikmalari yordamida ifoda kilinadi.Masalan, "talaba" "tarix fakulteti", "¡zbekiston milliy universiteti" va shu kabilar suzlardan iborat. Lekin bundan tushuncha va so`z aynan bir xildir, degan xulosa kelib chikmasligi kerak. Bitta tushuncha xar xil turlarda, ba’zan bir turda xam turli xil so`zlar bilan ifoda kilinadi. Tilimizdagi omonim va sinonim xodisalari suz tushunchaning nisbiy mustakil xolda mavjudligidan dalolat beradi.

SHuni xam aytish lozimki, so`zning ko`p ma’noga ega bo`lishi ba’zan fikr yuritish jarayonida tushunchalarni aralashtirib yuborishga olib keladi. SHuning uchun xam fan va texnikada kuprok terminlardan foydalaniladi. Termin ka’tiy bitta tushunchani ifoda kiluvchi so`z bo`lib, muayyan ilmiy bilish soxasida bir xil ma’noda mshlatiladi.

Tushuncha uzining mazmuni va xajmiga ega.Tushunchaning mazmunini unda fikr kilinayotgan predmetning muxum belgilari yigindisi tashkil etadi. Masalan, "fan" tushunchasining mazmuni fanning muxum belgilari, yani uning amaliyot bilan alokada ekanligi, predmetlarning birorta soxasiga oid tushunchalar, konunlar, pritsiplar shaklidagi ob’etiv chin (xakikiy) bilimlar sistemasidan iborat bo`lishi, dunyokarashning shakllanishida ishtirok kilishi va shu kabilar tashkil kiladi.

Tushunchaning mazmuni – unda ifodalangan predmetlarning belgilar yig`indisidan iborat. Tushuncha o`z mazmunida unda ifodalangan predmetlarning muhim va umumiy belgilarini aks ettiradi. «Modda» tushunchasining muhim bo`lgan belgisi tinchlik massasiga ega bo`lishidir.

Tushunchaning xajmi – tushunchada aks etgan predmetlarning yig`indisidan iboratdir. Masalan, yukorida misol qilib keltirilgan "fan" tushunchasining xajmi mavjud barcha fanlarni: matematika,fizika,mantiq va xakozalarni o`zida kamrab oladi. «daryo» tushunchasining xajmiga dunyodagi barcha daryolar kiradi. Agar tushunchalar ob’ektiv borliqdagi narsa va xodisalarni to`g`ri aks ettirsa, bunday tushunchalar xaqiqat, to`g`ri tushunchalar deb ataladi. Agar tushunchalar narsa va xodisalarni to`g`ri aks ettirmasa, xato yoki yolg`on tushunchalar deb ataladi.

Insoning ob’ektiv olamdagi narsa va xodisalarni atroflicha va chuqurroq bilib borishi bilan tushunchalar mazmuni va xajmi o`zgarib boradi. Masalan, «atom» tushunchasi hozirgi kunda xam ma’lum va xam xajmi jixatidan XIX asrdagi «atom» tushunchasidan farq qilib, boyib borganini ko`ramiz.

Tushunchaning mazmuni va xajmi uzviy bog`lik bo`lib, u tushunchani mazmun va xajmi o`rtasidagi teskari nisbat konuni yordamida ifodalanadi. Bu konunga muvofik tushunchaning xajmi kengaytirilsa mazmuni torayadi, va aksincha xajmi toraytirilsa, mazmuni kengayadi. Masalan, "fan" tushunchasining mazmuniga "mantiq fani" tushunchasiga utiladi.

Tushunchalarni xajmini kengaytirish bilan ularning mazmunini sayozlashtiramiz va aksincha, mazmunini kengaytirishimiz bilan xajmini toraytiramiz, degan tushunchaning mazmuni bilan xajmi o`rtasidagi nisbat formal mantiqdan iboratdir.

Bu qonun hamma tushunchalar o`rtasida emas, balki bir tushuncha ikkinchi bir tushuncha hajmiga kirgan taqdirdagina amal qiladi. Masalan, «San’at - arxitektura», «o`simlik», «daraxt», «sutemizuvchi», «umrtqali» kabilar. Ammo mazmuni va xajmi jixatidan taqqoslanmaydigan «ot», «olma», «uy», «poeziya» kabi tushunchalar o`rtasida bu qonun amal qilmaydi.

Mantiqda tushunchalar mazmuni va xajmi b¢yicha bir kancha turlarga bulinadilar . xususan xajmiga kura yakka va umuiy tushunchalar fark kiladi . YAkka tushunchaning xajmida bitta pridmed fikr kilinadi. Masalan «er» plonetasi, UZMU asosiy kutib xonasi» va shu kabilar yakka tushunchalardir .ummiy tushunchalar predmetlar gruxini aks ettiradi. «Planeta», «Kutubxona»tushunchalari umumiy tshunchalar xsoblanadi. Umumiy tushunchalar aks ettiruvchi predmetlarning mikdori chegaralangan va chegaralanmagan bo`lishi mumkun. Masalan, «ximiyaviy element »tushunchasida fikr kilinayotgan predmetlar soni chegaralangan .Ularni xsobga olish mumkun. «YUlduz» tushunchasi xajmini tashkil kiluvchi predmetlar soni esa cheksiz,ularni xsobga olib bulmaydi.

Fikir yuritish jaryonida ayruvchi va tuplovchi tushunchalarini far kilish xam muxim axamiyatga ega. Ayrvuchi tuɯuncha shunday umumiy tushunchaki u aks etruvchi belgilar berilgan sinifning xar bir predmetiga xosdir. masalan « ¡zMU talabalari ikkinchi chakirik ¡zbekiston Respublikasi Oliy majlisi birinchi sessiya moteriallarni urganmokda» ddegan fikr ¡zMU ning xar bir talabasiga tegishli . demapk «¡zMU talabalari « tushunchasi buerda ayruvchi tushunchadir. «¡zMU talabalari ikkinchi chakrik ¡zbekiston Respublikasi Oliy majlisi birinchi sessiya yakunlarini muxokamma etishmokda» degan fikrda esa,» ¡zMU talabalari «tushunchasi tuplovchi tushuncha sifatida ishtirok kiladi, chunki fikir ularning tuplamiga nisbatan bildrilgan.

Mazmuni b¢yicha tushunchalar avvalom bor abstrakt va konkret tushunchalariga bulinadilar. Konkret tushunchalarida predmed o`zining belgilari bilan birgalikda fikr

kilinadi. Abstrakt tushunchalarida esa predmedning belgilari undan fikran ajratib olnib aloxida aks ettriladi. Masalan inson, tabiat tushunchalari konkret tushunchalar, kaxramonlik (insonga xos xususiyatni aks ettradi), go`zalik (borlikdagi predmedlarga xos xususiyatlarni ifoda kiladi) tushunchalari abstrakt tushunchalardir.

Mazmuni b¢yicha yana nisbatsiz va nisbatdosh tushunchalarni xam ajratish mumkin. Nisbatsiz tushunchalar nisbatan mustakil, aloxida mavjud bo`lgan predmetlarni aks ettiradi. «davlat», «badiy asar» anashunday tushnchalardir.

Nisbatdosh tushunchal esa zaruriy ravishda bir birininig mavjud bo`lishini takoza kiladigan predmedlarni aks ettiradi. Masalan «¡qituvchi» va «O`quvchi», «Ijobiy kaxromon» «Salbiy kaxramon» «Sabab va okibat» tushunchalari nisbatdosh tushuchalar katoriga kiradi.

Ba’zi xollarda ijobiy va salbiy tushunchalar xam fark kilinadi. Ijobiy tushunchaninig mazmunida predmed unga xos belgilar orkali fikr kilinsa, salbiy tushunchaninig mazmunida predmed unga xos bo`lmagan belgilar orkali fikr qilinadi. Masalan sovodli kishi, vijdonli kishi ijobiy tushunchalar, savodsiz kishi, vijdonsiz kishi esa salbiy tushunchalardir. Biz yukorida tushunchalarning bir kancha turlari bilan tanishib chikdik. Bu tushunchaning anashu turlardan kaysilariga mansub ekanligini aniqlash unga mantiqiy tasvir berish demakdir. Masalan talaba umumiy, ayiruvchi, chegaralangan, konkret, nisbatsiz ijobiy tushunchadir.

Kategoriya – tushunchaning maxsus turi. Kategoriya buyumlar munosabati va bog`lanishlarini inson ongida eng umumiy tarzda in’ikos ettiradigan ilmiy tushunchadir. Xar bir fan o`ziga hos ilmiy kategoriyalarga ega. Masalan, falsafa fanida «materiya», «harakat», «shakl», «mazmun», «sabab», «moxiyat», «zaruriyat» va boshqa ilmiy kategoriyalar kabilar. Kategoriyalar inson bilim boyligini kengaytirishga katta yordam beradi.

Obektiv dunyodagi barcha predmed va xodisalar o`zoro alokada bo`lganligi uchun, ularni aks ettiruvchi tushunchalar xam o`zaro ma’lum bir alokalarda, munosabatlarda mavjuj. Bu munosabatlar turli xil bo`lib ularni aniqlash uchun avvalambor taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalarni farq qilish lozim. Taqqoslanadigan tushunchalar umumiy belgilarga ega bo`lgan mazmuni va xajmi jixatidan bir biriga yakin turgan tushunchalardir.

Masalan, «matellurg» va ishchi tushunchalari ana shunday taqqoslanadigan tushunchalar xisoblanadi. Taqqoslanmaydigan tushanchalar esa bir – biri bilan uzok alokada bo`lagn ko`p hollarda moddiy yoki ideal bo`lishdan boshka umumiy belgiga ega bo`lmagan predmetlarni aks ettiruvchi tushunchalardir. Ijtimoiy progress va zuxro yulduzi, ideal gaz va go`zallik tushunchalari taqqoslanmaydigan tushunchallra deb xisoblandi. Mantiqda taqqoslanmaydigan tushunchalar o`rtasidagi mantiqiy munosabatlar o`rganilmaydi.

Agar tushunchalarning xajmi bir – biriga to`la yoki qisman mos kelsa, buni biz xajmi jixatdan ikkinchisining xajmiga kirsa sig`ishadigan munosabatdagi tushunchalar deb ataymiz. Masalan, kitob – darslik, fan – ijtimoiy fan. CHunki bu tushunchalarning xajmlari bir – biriga to`la yoki qisman mos keladi.

YAna shunday tushunchalar xam borki, ularning xajmlari bir – biriga zid bo`ladi. Bunday tushunchalarni o`zaro sig`ishmaydigan tushunchalar deymiz. Masalan, adolat –

adolatsiz, qonuniy – g`ayriqonuniy, hayot – o`lim. Bu tushunchalar xajm jixatdan bir – biriga mos kelmaydi.

Sig`ishadigan tushunchalar o`rtasida ayniyat, bo`ysunish, qisman mos kelish munosabatlari bor. 1. Ayniyat munosabati. Hajmlari bir – biriga to`la mos keladigan tushunchalar ayniyat munosabatidagi tushunchalardir. Ayniyat munosabatidagi tushunchalar ifoda etgan, belgilar mazmun jixatdan ayni bir predmetni turli tomondan ifodalaydi. Masalan, O`zbekistonning poytaxti – markaziy Osiyoda eng yirik shaxar tushunchalari o`rtasida ayniyat munosabati bor. 2. Bo`ysunish munosabati. Bir tushunchaning hajmi boshqa bir tushunchaning hajmini o`zining bir qismi sifatida o`z ichiga olsa, bunday tushunchalar o`rtasida bo`ysunish munosabati bo`ladi. Masalan, ziyoliy – o`qituvchi, fan – kibernetika.

3. Qisman mos kelish munosabati. Qisman mos kelish munosabatida tushunchalar mazmun jixatdan bir xil bo`lsada, ularning xajmlari bir – biriga qisman mos keladi. Masalan, oliy o`quv yurti o`qituvchilari – fan doktorlari.

Sig`ishmaydigan tushunchalar o`rtasida qarama – qarshilik, ziddiyat, birga bo`ysunish munosabatlari mavjud. 1. Qarama – qarshi munosabatdagi tushunchalar – bunday tushunchalar sig`ishmaydigan tushunchalar doirasiga kiradi. Masalan, oq – qora, baland – past, uzoq – yaqin, yaxshi – yomon kabilar. Tushunchalar o`rtasidagi qarama – qarshi munosabat formal mantiqdagi ziddiyat qonuniga bo`ysunadi.

2. Zid tushunchalar. Zid tushunchalar xam sig`ishmaydigan tushunchalar doirasiga kiradi. Masalan, oq – oq emas, baland – baland emas, past – past – emas, keng – keng emas kabi tushunchalar o`rtasida zid munosabatlar mavjud. Bu tushunchalar o`rtasida formal mantiqdagi uchinchisi mustasno qonuni amal qiladi. 3. Birga bo`ysunish munosabati. Bir necha tushunchalar bir tushunchaga bo`ysunishi mumkin. Masalan, axloq, siyosat, din, fan, falsafa kabi tushunchalar ijtimoiy ong tushunchasiga yoki badiiy adabiyot, arxitektura, amaliy san’at kabilar san’at tushunchasiga kiradi. Demak, bir necha tushunchalar xajm jixatdan bir tushunchaning ichiga kirsa, birga bo`ysunish munosabati sodir bo`ladi.

Tushunchaning xajmidan ma’lum bir umumiy belgiga ega bo`lgan predmetlar tuplami sinf aks etadi. Sinflar ustida bir kancha mantiqiy amallar utkazish, xususan ularni kushish (birlashtirish) , kupaytirish (kesishtirish) xamda berilgan sinfga tuldiruvchi xosil kilish (sinfni inkor etish) mumkin. Bu amallarni bajarish yangi sinflar va , demak , yangi tushunchalar xosil kilishga olib keladi. Ularni simvolik tarzda ifoda kilish uchun kuyidagi belgilardan foydalanamiz:

A, V, S, D,... - lar ixtiyoriy sinflar ;
I - universial sinf ;
0 - bo`sh sinf ;
× - sinflarni ko`shish belgisi ;
× - sinflarni kupaytirish belgisi ;

A^1 (A emas) - A sinfni tuldiruvchi (inkor etuvchi) .

SHuningdek, amallarni sxematik tarzda ifodalash universial sinfni t¢g`ri turtburchak, boshka sinflarni - doiralar bilan belgilaymiz.

deganda, qo`shiluvchi sinflarning barcha elimetnlaridan tashkil topgan yangi sinf xosil tushuniladi. Masalan , " Ommaviy axborot vositalari " (A) va " Televideniе" (V) sinflarini qo`shganda xosil b¢ladigan yangi sinf " Ommaviy axborot vositalari"dan iborat . Uning sxemasi kuyidagicha :

Sivolik ifodasi esa :



V = A

3. Tushunchalarni ko`paytirish amali.

**Sinflarni ko`paytirish** ko`paytuvchilar uchun umumiy bo`lgan elimetnlardan tashkil topadigan yangi sinfni xosil kilishdan iborat. Masalan, yukoridagi "Ommaviy axborot vositalari " (A) va " Televideniе" (V) sinflarni ko`paytirib, yangi sinf" Televidenie " ni xosil kilamiz. Uning sxemasi kuyidagicha :

Simvolik ifodasi :



A ∩ V =V

4. Tushunchalarni (inkor) to`ldirish amali.

Sinfga tuldiruvchi xosil kilishning moxiyatini berilgan sinf (Tuldiruvchi sinf) bilan kushilganda universial sinfni xosil kiladigan sinfni topish tashkil etadi. Tuldiruvchi sinf berilgan sinfni (Tuldiruvchi sinfni) inkor etish yo`li bilan xosil kilinadi. Masalan , "Televidenie" (A) ni tuldiruvchi sinf deb olsak , universial sinf "Ommaviy axborot vositalari " (I) bo`lgani xolda tuldiruvchi sinf "Televidenie emas ommaviy axborot vositalari " dan (A1) iborat b¢ladi . Uning sxemasi kuyidagicha :

Simvolik ifodasi esa: I



A $\cup^1$ =I

Sinflar ustida olib boriladigan amallar ma’lum bir koidalarga buysunadi . Ular kuyidagilardan iborat :

AUA=A
A∩A=A } idempotentlik konuni

AUV=VUA
A∩V=V∩A } kommutativlik konuni

AU(VUS) = AU(VUS)
A∩ (V∩S) = A∩ (V∩S) } assotsiativlik konuni

AU(A∩V)=A
A∩ (AUV)=A } yutish konuni

AU(V∩S) = (AUV)∩(AUS)
A∩ (VUS) = (A∩V)U(A∩S) } distributivlik konuni

Tushunchani chegaralash xajmi keng tushunchadan xajmiga tor tushunchaga (jins tushunchadan tur tushunchaga) fikran utishdan iborat. Masalan "Mexanik xarakat" tushunchasidan "Aylanma xarakat tushunchasiga utsak uning xajmini chegaralangan bulamiz. CHegaralashda berilgan tushuncha - "Mexanik xarakat" jins tushuncha deb qabul kilinib, uning mazmuniga tur tushuncha xosil kiluvchi belgilar kushiladi. Natijada unga nisbatan tur xisoblangan yangi tushuncha - "Aylanma xarakat" tushunchasi xosil b¢ladi.

CHegaralash amalini davom ettirib, "Erning o`z uki atrofida aylanishi" iushunchasiga utish mumkin. Demak, chegaralash davomida xosil bo`lgan xar bir yangi tushuncha avvalgiga nisbatan tur tushuncha b¢ladi. CHegaralash amali yakka tushuncha xosil bulguncha davom ettirilishi mumkin. CHunki yakka tushunchaga nisbatan tur bo`lgan tushuncha yo`q.

Tushunchani chegaralash amalining sxemasi kuyidagicha:



A - Xarakat
V - Mexanik xarakat
S- Aylanma xarakat
D - Erning o`z uki atrofida aylanishi

Tushunchani umumlashtrish xajmi tor tushunchadan xajmi keng tushunchaga (tur tushunchadan jins tushunchaga) fikran utishdan iborat. Bunda berilgan tushuncha tur tushncha deb kabul kilinib, uning mazmunidan tur xosil kiluvchi belgilar chikarib tashlanadi. Natijada mazmun jixatidan unga nisbatan kengrok, lekin xajmiga kura torrok

bo`lgan jins tushuncha xosil b¢ladi. Masalan "Aylanma xarakat" tushunchasi mazmunidan fakat ungagina xos bo`lgan tur belgilarini chikarib tashlasak, "Mexanik xarakat" tushunchasini xosil kilamiz. Umumlashtrish amalining chegarasi eng umumiy tushuncha, ya'ni kategoriyadir. CHunki kategoriyalar uchun jins bo`lgan tushuncha yuk.

Tushunchani umumlashtrish amalining sxemasi kuyidagicha:



A - erning o`z o`ki atrofida aylanishi
V - aylanma xarakat
S - Mexanik xarakat
D – Xarakat

Tushunchani chegaralash va umulashtirish mallari kundalik xaetimiz va ilmiy bilishda keng kullaniladi. Xususan barcha kategoriyalar ular erdamida ifodalanadigan nazariy konunlar, goyalar, nazariyalar mavjud empirik tushunchalarni empirik konunlarni umumlashtirish natijasida xosil b¢ladilar.

Umumlashtirish muxokama yuritish jaraenida induktiv xulosa chikarish usulida yakkol ifodalangan b¢ladi. Tushunchalarni umumlashtirishsiz fanning fundamental tushunchalarini yaratib bulmaydi, mavjud bilimlarni sistemaga solish kiyin va umuman, fan tarakkiy eta olmaydi.

Tushunchalarni chegaralash amali esa, yaratilgan umumiy bilimlarni (nazariy tushuncha, goya, nazariya va shu kabilarni) talkin etishda ish-latiladi. Masalan Nyuton mxanikasidagi "Inertsiya" tushunchasi Galiley nazariyasidagi "erkin tushish" tushunchasi erdamida tushuntirilishi mumkin.

Nominal (definitio nominalist) ta'rif tushunchasini ifodalagan so`z, nom, terminning ma'nosini bayon etishdan iboratdir. Nominal so`zi: nomina bo`lib, o`zbekcha nom yoki ism deganidir. Nominal ta'rif ma'lum predmetni ifodalaydigan so`z yoki terminning asl ma'nosini bilishda ishlatiladi.

Nominal ta'riflar yordamida predmetni tasvirlovchi murakkab ifodalar yangi termin bilan almashtiriladi xamda uning ma'nosi aniqlanadi. Masalan "Mantiq grekcha Logos" so`zidan olingan bo`lib, tushuncha fikr, so`z, qonuniyat kabi ma'nolarga ega" desak, mantiq tushunchasiga nominal ta'rif bergan bo`lamiz. "Til belgilarini o`rganuvchi fan semiotikadir " degan ta'rif xam nominal ta'rifga misoldir.

Real ta'rifda tushunchani ifodalagan so`z, termin emas, balki tushunchada ifodalangan predmetning moxiyati, uning muhim belgilari ochib beriladi.

Real t'rifda predmetning muxim belgisi aniklanadi. Masalan, "Atom moddaning yadro va elektronlardan tashkil topgan zarrachasidir" degan ta'rif real ta'rifdir.

Real ta'rif anik va noanik ko`rinishlarda bo`lishi mumkin. Anik real ta'rif predmetlarning muxim belgilarini t¢g`ridan-t¢g`ri kursatib beradi. Noanik real ta'rifda esa tushunchaning mazmuni erdamchi vositalar orkali ochib beriladi. Masalan, o`qigan parchamizda notanish terminlar uchrab kolganda, uning ma'nosini lug`atdan foydalanmasdan boshka so`zlarning ma'nosiga qarab aniqlashimiz mumkin.

Anik real ta'rifning ikkita asosiy turi mavjud: 1) yakin jinsi va tur belgisini kursatish orkali ta'riflash, 2) genetik ta'rif.

YAkin jinsi va tur belgisini kursatish orkali ta’riflash real ta’rifning eng kup ishlatiladigan turi bo`lib, u ikkita boskichdan tashkil topadi. Birinchi boskichda aniklanuvchi tushunchaning yakin jinsi topiladi. SHu tarik uning mazmuni kisman ochib beriladi. Ikkinchi boskichda aniklanuvchi tushunchaning shu jinsga kiruvchi boshka tur tushunchalardan farki aniklanadi, ya’ni uning tur belgsi kursatiladi. SHu tarika maskur tushuncha mazmuniningn kolgan kismi ochib beriladi. Masalan, bizning oldimizda "Metofora" tushunchasining mazmunini aniklash vaщzifasi turibdi, deyaylik. Bunda avval aniklanuvchi tushunchaning yakin jinsi topiladi: u "suz" tushunchasidir. "Metofora suzdir" deyish bilan "So`z" tushunchasi mazmunida fikr kilinadigan muxim belgilarning metaforaga xam tegishli ekanligini kursatamiz, ya’ni metafora tushunchasi mazmunini tashkil etuvchi umumiy belgilarni aniklaymiz. Kuchirma ma’noda ishlatilishi esa, metafora sifatida ishlatilaetgan szning tur belgisi, ya’ni induvidual belgisi xisoblanadi. Bu tur belgini yakin jinsga qo`shib Metafora ko`chirma ma’noda ishlatiladigan suzdir" degan tula ta’rif xosil kilamiz. SHu tarika eng kiska yo`l bilan ya’ni yakin jinsi va tur belgisini kursatish bilan tushunchaning mazmunini aniklaymiz.

Genetik ta’rifda aniklanuvchi tushunchaning mazmuni u ifodalan gap predmetning kelib chikishini kursatish orkali ochib beriladi. Masalan "Oksid metallarning kislorod bilan reaktsiyaga kirishishi natijasida xosil bo`lgan kimeviy birikmadir" degan ta’rif genetik ta’rifga misoldir. Bu ta’rifning mantiqiy strukturasi yakin jinsi va tur belgisini kursatish orkali ta’riflash bilan bir xildir.

Ta’riflash ma’lum koidalarga rioya qilishni talab etadi. Ular kuyidagilardan iborat:

a) ta’rif keng xajmli bo`lishi kerak, ya’ni aniklanuvchi tushuncha xajmi bilan aniklovchi tushunchalar xajmlari yigindisi teng bo`lishi kerak. Bu koida buzilsa ta’rif yo xaddan tashkari keng, yo xaddan tashkari tor bo`lib koladi. Masalan: "Mantiq tafakkurni o`rganuvchi fandir" - xaddan tashkari keng, Mantiq isbotlash strukturasini o`rganuvchi fandir" - xaddan tashkari tor ta’rifdir.

b) Tarif anik bo`lishi kerak. Buning uchun obrazli iboralar, mazmuni noanik suzlar ishlatilmasligi lozim. Masalan "Xael - uchkur ot", "Davlat duneviy ruxning siesiy jixatdan namoen bo`lishidir" (Gegel) degan ta’riflarda bu koida talablari buziolgan. Ularda ma’no bulsada tushunchaning mazmuni anik ochib berilgan emas.

v) Tarif aylana shaklida bo`lib kolmasligi kerak. Tarif berishda aniklovchi tushunchaning mazmuni aniklash uchun aniklanuvchi tushunchaning uziga murojaat etilsa, tarifda aylana xosil b¢ladi. Masalan, " Mantiq t¢g`ri fikrlash xakidagi fandir" deyilganda tarifda aylana vujudga keladi. CHunki, " T¢g`ri fikrlash nima?", degan savolga " U mantiq konun koidalariga rioya kilgan xolda fikrlashdir", deb javob berishga t¢g`ri keladi. ya’ni "mantiq" tushunchasiga murojaat kilinadi.

Tavtologiya xam shu koidaning buzilishi natijasida sodir bo`ladi. Bunda aniklanuvchi tushunchadan uning mazmunini ochish uchun foydalanilgan b¢ladi. Masalan, " Ta’magir ta’magirlik kiluvchi kishidir " desak , tavtologiyaga yo`l kuygan bulamiz.

g) Ta’rif iloji boricha inkor shaklida bulmasligi kerak. Aks xolda predmetga xos bo`lgan belgi urniga unda yuk bo`lgan belgi kursatiladi. Masalan , " Ong moddiy emas " degan ta’rif "ong" tushunchasini tulik mazmuni ochib bera olmaydi.

Bilish jarayonida **ta’riflashga o`xshash usullar** xam ishlatiladi. Ulardan tushunchani ta’riflashning yukori biz ko`rib chikkan turlarini ko`llash mumkin bulmay kolganda yoki unga zaruriyat bo`lganda foydalaniladi.

a) Ta’riflashga uzshash usullardan biri tushunchani unga karama - karshi tushuncha orkali ta’riylashdir. Bu usul bilan odatda kategoriyalarning mazmunini ochib beriladi. Masalan, "Ong materiyaning miyamizdagi inikosidir ".

v) Tasvirlashda tushunchaning mazmuni u aks ettiruvchi predmetning ba’zi tashki belgilarini kursatish orkali aniklanadi. Badiiy asarlarda tabiat manzaralarini, persanajlarning partretlarini chizish, sodir bo`lgan birorta vokeaning baen ettirilishi tasvirlashga misol b¢ladi.

s) tavsiflash erdamida predmetning ba’zi bir munosabatdagi muxim tur belgilari ko`rsatiladi. Bunga misol qilib birorta shaxsga berilgan tavsifnomani ko`rsatish mumkin. Tafovutlash, astensiv ta’riflash kabi usullar xam mavjuddir. Ta’riflash bilishda katta axamiyatga egadir. U kiska xolda predmet xakida yaxlit fikr, tasavvur xosil kilishga imkon beradi. Lekin, predmkt xakida fikr yuritganda u bilan cheklanib kolish mumkin emas. U albatta bilish jarayonida boshka bilimlar erdamida konkretlashtirilishi, chukurlashtirilishi zarur. Anashundagina tushuncha ifoda etuvchi predmet xakidagi tushuncha anik tularok b¢ladi .

Tushunchaning ta’rifi xar bir nazariy va amaliy ish uchun muhim axamiyatga ega. Tushuncha ta’rifi bizning buyum xaqidagi bilimimizni qisqa tarzda ifodalaydi va shu bilan ob’ektiv voqelikni bilish uchun katta imkoniyat beradi. SHuning uchun xamma fanlar tushunchalarga aniq ta’rif bermog`i zarur. Ammo hamma ta’rif buyumlar mazmuni xaqida to`la bilim bera olmaydi. Xaqiqatan ham fanni uning faqat ta’rifi orqali bilish mumkin emas. Masalan, mantiqni o`rgana turib, uni tafakkur shakllari va qonunlari xaqidagi fan deb ta’riflash bilan chegaralanib bo`lmaydi. Biz mantiqiy shakllar va mantiqiy qonunlar nima ekani, yani tafakkur shakllaridan tushuncha, hukm, xulosa chiqarish va mantiq qonunlari mohiyatini o`rganishimiz zarur.

**Tushunchalarni bo`lish.** Tushunchaning xajmini unda aks etgan predmetlarni ayrim guruxlarga (ayrim predmetlarga) ajratish yo`li bilan aniklashga tushunchani bo`lish deyiladi. Bulish amalini bulinuvchi tushuncha (xajmi aniklanishi lozim bo`lgan tushuncha), bulish asosi (predmetning tushunchada fikr kilinadigan birorta umumiy belgisi) va bulish a’zolari (bulish natijasida xosil kilinadigan tur tushunchalar) tashkil etadi. Masalan "Inson" tushunchasini (bulinuvchi tushuncha) ijtimoiy kelib chikishiga kura (bulish asosi) "ishchi", "dexkon", " zieli" (bulish a’zolari) tushunchalariga ajratish yo`li bilan uning xajmi aniklanadi. Bulinuvchi tushuncha - jins tushuncha, bulish a’zolari - tur tushunchalar bo`lib, ular uzaro birga buysuniy munosabatidadirlar.

Tushunchalarni bulish amalini predmetlarni kismlarga ajratishdan fark kilish lozim. Masalan, avtomobilni kuzov, shassi, dvigatel va shu kabilarlarga ajratsak, uni kismlarga bo`lgan bulamiz. Predmetning kismi predmetning umumiy belgilariga ega bulmasligi mumkin. SHuning uchun xam "Kuzov avtomashinadir" degan muloxaza xosil kilsak, u xato b¢ladi. Agar "avtomabil" tushunchasini "engil avtomabil", "YUk tashuvchi avtomabil tushunchalariga ajratsak, uni bo`lgan bulamiz.

Bulishning ikkita turi mavjud: asos bo`lgan belgining uzgarishiga karab bulish va dixotomik bulish. Birinchi turida predmetning birorta umumiy belgisi bulish uchun asos qilib olinib, uning uzgarishiga muvofik xolda predmetlarning ayrim guruxlari aniklanadi Masalan burchakning uzgarishiga karab "uchburchak" tushunchasi uchta tur tushunchaga : "t¢g`ri burchakli uchburchak", "utmas burchakli uchburchak", "utkir burchakli uchburchaklarga ajratiladi. Bulish asosi qilib bulinuvchi tushunchaning mazmunida fikr

kilinadigan xar qanday umumiy belgini olish mumkin. Masalan "uchburchak" tushunchasini tomonlariga karab "teng tomonli uchburchak", " teng enli uchburchak" "turli tomonli uchburchak tushunchalariga ajratish mumkin.

Tushunchaning kaysi belgisini bulish asosi qilib olish blishda xal kilinishi lozim bo`lgan vazifaga boglik. Lekin qanday vazifani xal kilishdan kat'iy nazar, bulish uzining obektiv asosiga ega bo`lishi lozim, ya'ni bulish asosi bo`lgan belgi predmetning umumiy belgisi bo`lishi shart.

**Dixotomik bo`lish** bo`linuvchi tushunchani uzaro zid bo`lgan ikkita tur tushunchaga ajratishdan iborat. Masalan barcha kishilarni "dindorlar" va "dindor emaslarga" ajratsak, dixotomik tarzda bo`lgan bulamiz. Dixotamik bulish bir kator kulayliklarga ega. Xususan, bunda biz bulinuvchi tushunchaning barcha turlarini kursatib utirmasdan, uzimizga kerakligini ajratamiz, kolganlarini unga zid bo`lgan tushunchaga birlashtiramiz. SHu bilan birga dixotamik bulish ma'lum bir kamchiliklarga xam ega. Masalan, inkor tushunchaning xajmi noanik b¢ladi. Undan tashkari dixotomik bulishdan fakat bir marta foydalangandagina kutilgan maksadga erishish mumkin. Agar bulish a'zolaridan biri, ayniksa inkor tushunchani uz navbatida bulinvchi tushuncha deb kabul qilib, bo`lish amalini davom ettirsak, xato nitijalar kelib chikishi mumkin.

Bo`lish amali t¢g`ri borishi uchun ma'lum bir koidalarga rioya kilish kerak, ular bo`lish koidalari deb ataladi.

a) Bo`lish teng xajmli bo`lishi, ya'ni bulish a'zolari xajmlarining yigindisi bulinuvchi tushuncha xajmiga teng bo`lishi kerak. Bu koida buzilsa, bulish tuliksiz eki ortikcha bo`lib koladi. Birinchi xil xatoda ba'zi bulish a'zolari kursatilmay koladi. Masalan "Fe'l zamonlari" tushunchasini " "utgan zamon fe'li" va " Xozirga zamon fe'li" tushunchalariga ajratsak, vnv shunday xato ruy beradi. CHunki kelasi zamon f'eli tushunchasi kolib ketgan. Ikkinchi xil xatoda esa ortikcha bulish a'zosi kursatilgan b¢ladi. Masalan "Bilish" tushunchasini «Xissiy bilish» , "Tafakkur" , "Nazariy bilish"ga ajratib bulmaydi. CHunki «Nazariy bilish» bu erda ortikchadir.

b) Bo`lish bir asos b¢yicha amalga oshirilishi lozim. Boshkacha aytganda, asos kili olingan belgi bulish davomida boshka belgi bilan almashtirilmasligi zarur. Masalan "Konun" tushunchasini "Tabiat konuni", " Jamiyat konuni", "Bilish konuni", "Statistik konun", "Dinamik konun" tushunchalariga bulsak, xato kilgan bulamiz. CHunki bu erda bulish asosi bir emas, ikkita. Birinchi uchta bulish a'zosi konuning amal kilish soxasi b¢yicha, kolgan ikkitasi konun ifoda kiluvchi xodisalar xarakteri b¢yicha ajratilgan. Bu bilan bulishdagi izchillik yukolgan.

v) Bo`lish a'zolari xajmi b¢yicha bir-birini istisno kilishi kerak. Buning uchun ular birga buysunish munosabatidagi tushunchalar bo`lishi kerak Agar "Bino" tushunchasini "Bir kavatli bino" "Kup kavatli bino", "Osmonupar bino" tushunchalariga bulsak, xatogga yo`l kuygan bulamiz. CHunki "Kup kavatli bino" tushunchasi bilan "osmonupar bino" tushunchasi air-birini xajmi b¢yicha istisno kilmaydi.

g) Bo`lish uzluksiz xolda amalga oshirilishi, unda "sakrash" bo`lmasligi kerak. Buning uchun jins tushunchaga eng yakin bo`lgan bir tartibdagi tur tushunchalar olinmog`i lozim. Masalan, "Gap" tushunchasini "Oddiy gap", " Ergashgan ko`shimcha gap", " Bog`langan ko`shma gap" tushunchalariga ajratsak, bo`lishdagi izchillik yukoladi. Bunda oxirgi ikkita bulish a'zosi "Qo`shma gap" tushunchasining turlaridir.

Demak "sakrash" xodisasi ro`y bergan.

Tushunchalarni bo`lishning aloxida turi klassifikatsiyadir. Klassifikatsiya lotin tilida classis, - to`da, turkum, Facio – qilaman, bajaraman degan so`zlardan olinib, turlarga bo`laman degan ma’noni bildiradi. Klassifikatsiya – predmelarni bir – biriga o`xshashligi va farqiga qarab ma’lum gruxlarga, turlarga, sinflarga bo`lishdir. Bunda har bir predmet boshqa bir sinf yoki bir gurux predmetga muayyan munosabatda bo`lgan va bu sinfdagi predmetlar sistemasida ko`rsatilgan joydan o`rin olgan bo`ladi.

Klassifikatsiyaning asosida tushunchalarni bo`lish yotadi. Biroq klassifikatsiya u yoki bu predmetlar guruxi, sinfi, ularning har bir turiga oid ma’lum bilimlarimizni sistemalashtirishda fan uchun muxim axamiyatga ega. Mana shuning uchun klassifikatsiyaga tushunchani bo`lishda uchramaydigan talablar qo`yiladi. Biz tushunchalarni bo`lishda amaliy ehtiyojning talabiga ko`ra uning asosini o`zgartirishimiz mumkin. Klassifikatsiya esa bo`lish asosiga nisbatan turg`unroq, barqarorroqdir. Unga asos qilib olingan belgi ma’lum qonuniyat bilan bog`liq bo`lib, fanda bir necha yillargacha davom etaveradi. Klassifikatsiyani sun’iy va tabiiy klassifikatsiyalarga bo`lish mumkin.

YOrdamchi klassifikatsiyani boshqa sinf predmetlari orasidan individual predmetlarni osonroq topish va farqlash uchun qo`llaymiz. Masalan, kishilarning familiyalarini alfavit asosida ro`yxatga olish, kitoblarni katologlarga alfavit yoki predmet tartibida joylashtirish va hokazolar, bunga misol bo`ladi. YOrdamchi klassifikatsiya aslida muayyan tabiiy klassifikatsiya mavjud bo`lgan taqdirda ishlatiladi. Ammo bu predmetlarni moxiyati haqida xabar bermaydi. Masalan, nomi alfavit bo`yicha jurnalga birinchi yozib qo`yilgan talaba hamma vaqt ham a’lochi bo`lavermaydi. Demak, sun’iy klassifikatsiya predmetlarni tashqi tomondan sun’iy ravishda ifodalar ekan xolos.

Tabiiy klassifikatsiya, predmetlarning muhim belgilariga va ularda amal qiladigan qonuniyatlarga qarab sinf guruxlarga bo`lishdir. U sun’iy klassifikatsiyadan farqli o`laroq, predmetlarni qaysi guruxda ekanligini aniqlashda predmetdagi tegishli belgilarni hisobga oladi. Bu esa predmet xususiyati haqida fikrlashga imkon beradi. Masalan, biror xayvon avval o`rganilib, keyin u qaysi turga, qaysi oilaga kirishi aniqlangan holda klassifikatsiya qilinadi.

Tabiiy klassifikatsiyaga predmet va xodisalarning qonuniyatli bog`lanishlari, belgilari asos qilib olingani uchun ham uni ilmiy klassifikatsiya deymiz. Tabiiy - ilmiy klassifikatsiya u yoki bu predmet va uning guruxlari, sinf va oilalari xaqida xulosalar chiqarishga, umumiy jarayonlarni ochishga yordam beradi. Bunda tabiiy klassifikatsiya biz uchun bilish metodi bo`lib xizmat qiladi.

2. Xukm tafakkur shakli sifatida

Xukmlar tuzilishiga kura oddiy va murakkab b¢ladi. Oddiy xukm deb tarkibidan yana bir xukmni ajratib bulmaydigan muloxazaga aytiladi. Tarkibidan ikki yoki undan ortik xukmni ajratish mumkin bo`lgan muloxazalarga murakkab xukm deyiladi. Masalan,"Mantiq ilmini o`rganish t¢g`ri fikrlash madaniyatini shaklantiradi " degan muloxaza oddiy xukmni ifodalaydi. "Mantiq ilmi tafakkur shakllari va konunlarini

urganadi", degan muloxaza murakkab xukmdir. Bu muloxazaning tarkibi ikkikismdan:" Mantiq ilmi tafakkur shakllarini urganadi" va "Mantiq ilmi tafakkur konunlarini urganadi", degan ikki oddiy xukmdan iborat.

Muloxaza(xukm) tarkibida mantiqiy ega va mantiqiy kesimni ajratib kursatish mumkin. Mantiqiy ega-sub'ekt (S) fikr kilinayotgan predmet va xodisani bildiradi. Mantiqiy kesim- predikat (P) predmetga xos xususiyatni,munosabatni bildiradi. Predikatda ifodalangan bilimlar xisobiga sub'ekt va predikati uning terminlari deb ataladi.

Xukmning uchinchi zaruriy elementi mantiqiy elementi mantiqiy boglamadir.U sub'ekt va predikatni bir-biri bilan boglaydi, natijada xukm xosil b¢ladi. Oddiy ka'tiy xukmning formulasi kuyidagicha yoziladi: S-P.

Xukm predmetga ma'lum bir xossaning,munosabatning xosligi yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shaklidir.

Xukmning asosiy vazifasi predmet bilan uning xususiyati,predmetlar o`rtasidagi munosabatlarni kursatishdir.Ana shuning uchun xam u doimo tasdik yoki inkor shakldagi fikrdan iborat b¢ladi.Fikr yuritish jarayonida biz predmet va xodisalarning oddiy, tashki xususiyatlari bilan birga ularning ichki, zaruriy boglanishlarini, munosabatlarini bilib boramiz. Predmet va xodisalarning xususiyatlarini ketma-ket urganib,ular xakida turli abstraktsiyalar xosil kilamiz.Bu abstraktsiyalar xukmlar yordamida ifodalanadi. Bilimlarimiz turlicha bo`lgani uchun, ularni fodalaydigan xukmlar xam xar xil b¢ladi. Ba'zi xukmlarda anik, tekshirilgan bilimlar ifodalansa, boshkalarida xususiyatning predmetga xosligi taxmin kilinadi, ya'ni noanik bilimlar ifodalanadi.

Xukmlar nisbatan tugal fikrdir. Unda tugal predmet bilan uning konkret belgisi xakida bilim ifoda kilingan b¢ldi.

Xukmlar vokelikka mos kelish darajasiga kura chin, xato va noanik (extimol, taxminiy) b¢ladi. Obektiv vokelikka mos kelgan,uni t¢g`ri ifodalagan xukmlar chin,mos kelmaganlari xato b¢ladi. Ayni vaktda chinligini xam, xatoligini xam aniklab bulmaydigan xukmlar noanik xukmlar mavjuddir.

Xukmlar tilda gaplar orkali ifodalanadi.Xukm mantiqiy kategoriya bulsa,gap grammatik kategoriyadir. Xukmlar asosan darak gap orkali ifodalanadi. Fakat darak gaplardagina fikr tasdik yoki inkor xolda b¢ladi.

Masalan, "Vakt orkaga kaytmaydi","Xayot-bu xarakat" kabi gaplar xukmni ifoda kiladilar.

**Oddiy xukmlar sifati va mikdoriga ko`ra turlarga** bo`linadi. Sifatiga ko`ra tasdik va inkor xukmlar farklanadi. Xukmning sifatini mantiqiy boglama belgilaydi. Tasdik xukmlarda belgining predmetga xosligi, inkor xukmlarda, aksincha, xos emasligi kursatiladi. Masalan, "A.Oripov ¡zbekiston Respublikasi Madxiyasining muallifidir"- tasdik xukm, "Matematika ijtimoiy fan emas"- inkor xukm.Mikdoriga kura oddiy xukmlar yakka, umumiy va juz'iy xukmlarga bulinadi.Bunda sub'ektda ifodalangan predmetlarning soni, ya'ni uning xajmidan kelib chikiladi.

YAkka xukmlarda birorta belgining predmetga xosligi yoki xos emasligi xakida fikr bildiriladi. Masalan: "¡zbekiston Respublikasi mustakil davlatdir","Axmedov tarixchi emas".

Umumiy xukmlarda birorta belgining yakka predmetlar sinfining xammasiga yoki undagi xar bir predmetga taalukli yoki taalukli emasligi xakida fikr bayon kilinadi.Masalan: "Xar bir inson baxtli bulishni xoxlaydi", "Xech bir aklli odam vaktini bexuda sarflamaydi".

Juz’iy xukmlarda birorta belgining predmetlar tuplamining bir kismiga xos yoki xos emasligi xakida fikr bildiriladi. Masalan: "Ba’zi faylasuflar notikdir "."Ko`pchilik talabalar dangasa emas" .Juz’iy xukmlarda "ba’zi"suzi "xech bulmasa bittasi,balki xammasi "degan ma’noda kullaniladi. SHunga kura "Ba’zi toshlar tirik mavjudot emas", degan xukm chin b¢ladi,chunki xech bir tosh tirik mavjudot emas. Ma’lum ma’noda yakka xukmlarni umumiy xukmlar bilan tenglashtirish mumkin. CHunki xar ikki xukmda xam tuplamdagi predmetlarning xar biriga nimadir taalukli yoki taalukli emas, deb kursatiladi.YAkka xukmlarda esa bu tuplam birgina predmetdan iborat b¢ladi.

Muloxazalarning t¢g`ri yoki not¢g`riligini aniklashda va ba’zi boshka xolatlarda oddiy xukmlarning mikdor va sifati b¢yicha birlashgan klassifikatsiyasi(asosiy turlari)dan foydalaniladi.Ular kuyidagilardan iborat:

1. Umumiy tasdik xukmlar. Ular bir vaktning uzida xam umumiy,xam tasdik bo`lgan fikrni ifodalaydi. Masalan," Xamma talabalar mantiq ilmini urganadilar".Bu xukmlar lotin alifbosidagi A xarfi bilan belgilanadi va "Xamma S-Pdir "formulasi orkali ifodalanadi.

2. Umumiy inkor xukmlar bir vaktning uzida xam umumiy,xam inkor bo`lgan fikrni ifodalaydi. Masalan," Xech bir ishbilarmon rejasiz ish yuritmaydi".Bu xukm "Xech bir S-P emas" formulasi orkali ifodalanadi va lotincha E xarfi bilan belgilanadi.

3. Juz’iy tasdik xukmlar bir vaktning uzida xam juz’iy, xam tasdik bo`lgan fikrni ifodalaydi. Masalan," Ba’zi talabalar mas’uliyatli". U lotincha I xarfi bilan belgilanadi va "Ba’zi S-Pdir"formulasi orkali ifodalanadi.

4. Juz’iy inkor xukm bir vaktning uzida xam juz’iy,xam inkor
bo`lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, "Ba’zi talabalar sport bilan shugullanmaydilar".Uning formulasi "Ba’zi "S- P emas" bo`lib, lotincha O xarfi bilan belgilanadi.

Oddiy xukmlarda terminlar xajmi. Oddiy xukmlardagi terminlar (S va P) tushinchalar orkali ifodalanganligi tufayli ularning xajmiga kura uzaro munosabatlarini aniklash mumkin. Xukmlarda terminlar (S va P) tulik yoki tuliksiz xajmda olingan b¢ladi. Termin tulik xajmda olinganda uning xajmi boshka terminning xajmiga tulik mos b¢ladi yoki mutlaka mos bulmaydi (ularning xajmi bir-birini istisno kiladi). Termin tuliksiz xajmda olingan bulsa, unda uning xajmi boshkasining xajmiga kisman mos keladi yoki undan kisman istisno kilinadi.Oddiy xukmlarda terminlar xajmi kuyidagicha b¢ladi:

1. A- Umumiy tasdik xukmlarning sub’ekti xamma vakt tulik xajmda olingan b¢ladi. Masalan,"Xamma insonlar tirik mavjudotdir".

Bu xukmning sub’ekti - "Inson", predikati -"Tirik mavjudot" tushinchasidir, "Xamma" - umumiylik kvantori. Bu xukmning sub’ekti to`lik xajmda olingan,chunki unda xamma insonlar t¢g`risida fikr bildirilgani va bu tushincha "tirik mavjudot" tushinchasining xajmiga tulik kirishadi. Uning predikati tulik xajmda olinmagan, chunki unda tirik mavjudotlarning bir kismi - insonlar xakida fikr yuritiladi.

Buning doiraviy sxemasi quyidagicha: (1 - rasm)



Umumiy tasdik xukmlarning ba’zilarida S xam, P xam tula xajmda bo`lishi mumkin. Masalan, "Xamma musulmonlar Islom diniga e’tikod kiladilar" (2-rasm).



2. E-Umumiy inkor xukmlarning sub’ekti xam, predikati xam tulik xajmda olingan b¢ladi. Masaslan," Xech bir dindor e’tikodsiz emas". Bu xukmda S- dindorlarni, P- e’tikodsizlarni ifodalaydi, xech bir -umumiylik kvantoridir.Bunda xar ikki terminning xajmi bir-birini istisno kiladi. (3 - rasm)

3. I –Juz’iy tasdik xukmlarning subekti xamma vakt tuliksiz xajmda olinadi, predikati esa bazan tulik, ba’zan tuliksiz xajmda b¢ladi. Masalan: «Ba’zi talabalar ingliz tilini biladi». Xukmning terminlari kuyidagicha: S –talabalar, P-ingliz tilini biladiganlar, ba’zi – mavjudlik kvantori. Bu xukmlar S xam, P xam tuliksiz xajmda olingan bo`lib, xar ikki terminning xajmi bir – biriga kisman mos keladi (4-rasm)



YAna bir misolni kuramiz: «Ba’zi vrachlar xirurgdir». Bu xukmda S- vrachlar, P- xirurglar, ba’zi – mavjudlik kvantoridir. Xukmda sub’ekt tulik xajmda olinmagan, chunki unda ba’zi vrachlar xakida fikr bildirilgan predikat esa tulik xajmda olingan, chunki xirurglarning xammasi vrachdir. Predikatning xajmi subektning xajmiga kirgani uchun u tulik xajmda olingan b¢ladi. (5 – rasm)



4. O – Juz’iy inkor xukmlarning subekti xamma vakt tuliksiz xajmda, predikati esa tulik xajmda olinadi. Masalan: «Ba’zi yoshlar xunarmand emas». bu xukmning terminlari S – yoshlar, P – xunarmandlar emas, ba’zi – mavjudlik kvantori. Xukmning sub’ekti tulik xajmda olinmagan, unda yoshlarning bir kismi xakida fikr yuritiladi, xolos. Xukmning predikati esa tulik xajmda olingan. Unda xunarmandlarning xammasi xakida fikr bildirilgan. (6 – rasm)



YUkoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, umummiy xukmlarning subekti xamma vakt tulik xajmda, juz’iy xukmlarning subekti tuliksiz xajmda olinadi. Inkor xukmlarning predikati xamma vakt tulik xajmda b¢ladi. Tasdik xukmlarning predikati $R \leq S$ bo`lgandagina tulik xajmda biladi, boshka xollarda esa tuliksiz xajmda olinadi.

Xukmlarda terminlar xajmini aniklash kat’iy sillogizmni t¢g`ri tuzishda va bevosita

xulosa chikarishda muxim axamiyatga ega.

Oddiy xukmlarda terminlar xajmini kuyidagi sxema orkali yakkol ifodalash mumkin. Bunda «+» – tulik xajmni, « - » – tuliksiz xajmni bildiradi.

Xukm turlari	Belgisi	Xukumning formalasi		Terminlar hajmi		Terminlarning munosabati
		Formal mantiqda	Matematik mantiqda	S	P	
Umumiy tasdiq xukm	A	Hamma S-P S aP	$\forall x(S(x) \rightarrow P(x))$	+	±	S≥p
Umumiy inkor xukm	E	Hech bir S-P emas S e P	$\forall x(S(x) \rightarrow \overline{P(x)})$	+	+	S=p
Juz'iy tasdiq xukm	I	Ba'zi S-P SiP	$\exists x\ (S(x) \wedge P(x))$	-	±	S≤p
Juz'iy inkor xukm	O	Ba'zi S-P emas SoP	$\exists x\ (S(x) \wedge \overline{P(x)})$	-	+	S<P

Predikatning mazmuniga ko`ra oddiy xukm turlari. Ular kuyidagilardan iborat: atributiv xukmlar, mavjudlik xukmlari va munosabat xukmlari. Atributiv (sifat va xususiyat) xukmlarda biror xususiyatning predmetga xosligi yoki xos emasligi anik, kat'iy qilib kursatiladi. SHuning uchun atributiv xukmlarni birorta predmetning sinfga kirishi (mansubligi) yoki kirmasligi (mansub emasligi) xakidagi xukm deb ta'riflasa b¢ladi. Masalan: «Xamma daraxtlar usimliklardir» va «Xech bir usimlik xayvon emas». Birinchi xukmda daraxtlarning usimliklar sinfiga kirishi xakida fikr bildirilsa, ikkinchi xukmda usimliklar va xayvonlar sinfining uzaro xech qanday umummiylikka ega emasligi xakida fikr bildirilgan.

Ikkita, uchta va xakozo predmetlar o`rtasida muayyan munosabatlarning bo`lishi yoki bulmasligini ifodalagan xukmlarga munosabat xukmlari deyiladi. Masalan: «Butun bulakdan katta». «Ikki – uchdan kichik son». Birinchi xukmda «kattalik » munosabati butun va bulak o`rtasida bo`lishi tasdiklansa, ikkinchi xukmda uch soni bilan iki sonining munosabati xakidagi fikr tasdiklangan.

Tabiiyki kuzatish pala – partish, uzoq – yuluq holda emas, balki izchil, ko`pincha avvaldan tuzilgan reja (masalan, tadqiqot rejasi) asosida o`tkaziladi. Masalan, korxona rahbari uning turli bo`g`inlarida, bo`limlarida ishlayotgan mas'ul xodimlarning, ishchilarining ishini sistemali ravishda, mantazam kuzatib boradi, induktsiya asosida ma'lum bir xulosalarga keladi. Bu xulosalar boshqaruv strukturasi, kadrlar masalasiga ma'lum bir o`zgartirishlar kiritish uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Boshqa bir misol. Militsiya yoki prokuratura xodimi jinoyatni sodir qilishda shubxalanayotgan kishini hisbga olishdan avval uning xatti – xarakatlarini oldindan tuzilgan reja asosida, turli xil sharoitlarda tabiiy holatda, unga xalaqit bermagan holda kuzatib boradi. Bu esa unga qat'iy bir qarorga kelishi uchun zarur bo`lgan faktlarni topishiga yordam berishi mumkin.

Tajriba (eksperiment) hodisalarni ma'lum bir tarzda ta'sir o`tkazishni taqozo etadi. Tajriba, albatta, avvaldan tuzilgan reja asisida, mazsus yaratilgan sharoitda, zarur asbob uskunalardan foydalangan, kerakli mantiqiy usullarni qo`llagan holda o`tkaziladi.

Ilmiy bilishning texnikaviy asosi tobora mustaxkamlanib borayotgan hozirgi sharoitda tajribalar turli – tuman murakkab asbob – uskunalardan foydalanilgan holda o`tkaziladi. Ular hodisalarning sababiy aloqalarini aniqlashni, ichki qonuniyatlarini ochishni osonlashtiradi, tezlashtiradi.

Bu erda, albatta, mukammal asbob – uskunalarning yaratilishining negizida ham ob'ektiv borliq va bilimga xos qonuniyatlarning ochilishi, ularni ifoda qiluvchi bilimlarning amaliyot, texnikada joriy qilinishi yotishni, ya'ni, boshqacha aytganda, induktiv xulosa chiqarishda amaliyot va bilimning uzviy aloqada bo`lishini quyidagi qulayliklarni yaratishga imkon beradi.

1. ¡rganilayotgan (tajriba o`tkaziladigan) predmetlar doirasini tadqiqotchi ixtiyoriy ravishda kengaytirishi yoki toraytirishi mumkin.

2. Bilish ob'ektini «toza» holda, ya'ni boshqa ob'ektlar ta'siridan «ajratib» qo`ygan holda yoki ular bilan birga bo`lgan o`zaro ta'sirida olib o`rganish mumkin;

3. Bilish ob'ektiga ta'sir etuvchi xolatlarni ixtiyoriy tarzda o`zgartirib turish mumkin;

4. ¡tkazilayotgan tajribani tezlashtirish yoki sekinlashtrish mumkin;

5. Natijaning chinligiga ishonch hosil qilish uchun tajribani zarur bo`lgan miqdorda takrorlash mumkin.

Induktiv xulosa chiqarishning asoslarida, yuqorida qayd qilib o`tkanimizdek, kuzatish

va tajriba natijalari ifodalangan bo`lib, ular birorta S sinfiga taaluqli $S_1$ $S_2$.. $S_3$ hodisalarda r belgisining turg`un holda takrorlanishi haqidagi axborotni qayd qiladilar. Xulosasida shu belgining predmetlarning butun sinfiga xosligi xaqida fikr xosil qilinadi. Unda muxokamaning sxemasi quyidagicha bo`ladi.

S_1 xodisasi R belgiga ega

S_2 xodisasi R belgiga ega

... ...

S_n xodisasi R belgiga ega

$S_1, S_2,..., S_n$ lar S sinfiga mansub

S sinfining xar bir hodisasi R belgiga ega.

Simvolik ifodasi esa quyidagicha:

$R(x_1)$

$R(x^2)$

... ...

$R(x_n)$

$X_1, x_2,... x_n \in C$

$\forall x ((x \in S) \rightarrow R(x)$

Tajribada ko`p martalab takrorlanadigan predmetning turg`un aloqalari sababiyatini, zaruriyatni ifoda qiladigan umumiylikdan iborat bo`lib, u induktiv xulosa chiqarishda asoslardan xulosaga o`tish uchun mantiqiy asos bo`lib xizmat qiladi.

Induktiv xulosa chiqarishning bilishdagi bosh vazifasi juz'iy holni umumiylashtirish, ya'ni ayrim faktlarga xos xususiyatni berilgan sinfga taaluqli barcha predmetlarga xos xususiyat darajasiga ko`tarish (generalizatsiya qilish) asosida umumiy bilim hosil qilishdan iborat. O`z mazmuni va bilishdagi axamiyatiga ko`ra bu bilimlar kundalik tajribani umumlashtirish negizida hosil qilinadigan eng oddiy umumlashmalardan tortib, to empirik va nazariy qonunlar, gipotezalar, ilmiy nazariyalar darajasigacha etgan bilimlar bo`lishi mumkin.

Ilmiy bilish tarixi fanning turli soxalarida qilingan kashfiyotlar, masalan elektr, magnitizm, optikaga oid juda ko`p sababiy aloqadorliklar, qonuniyatlar ularning aynan induktiv yo`l bilan o`rnatilganini tasdiqlaydi.

Induktsiya asosida hosil qilingan xulosalarning mantiqiy qiymati, extimoliy yoki zaruriy bo`lishi o`tkazilgan tajribaning xarakteriga bog`liq.

Kuzatish va iajriba tugallanmagan bo`ladi. Keyingi o`tkaziladigan tajriba, kuzatishlarda predmet va xodisalarning yangi muxim xususiyatlari, munosabatlari aniqlanishi mumkin. Bu esa, mavjud predmet va hodisalar haqidagi tasavvurlarni o`zgartirib yuboradi. Xususan, avval chin deb hisoblangan bilimlar shubxa ostiga olinib qoladi, extimoliy tarzdagi fikrlarga aylanadi.

Mantiqda extimolliy tushunchasi chiqarilgan xulosaning noaniqligini, qo`shimcha tekshirishlar o`tkazish zarurligini anglatadi. SHunga qaramasdan tajriba bilimning muxim vositasi bo`lib qoladi.

SHu aloxida qayd etish zarurki, ayrim, juz'iy faktlar haqidagi aniq bilimlardan noaniq xulosalarning chiqishi ob'ektiv voqelikni bilishning murakkab dialektik jarayon ekanligini bildiradi. Voqelikdagi bir mantiqiy sinfga mansub predmetlarning barchasini tajribada qamrab olish qiyin. Sinf predmetlarining barchasi qamrab olinganda ham, ularning xususiyatlarining hammasini o`rganib bo`lmaydi, chunki ularning soni ko`p. Xarakat, taraqqiyot davomida to`xtovsiz ravishda ularning ba'zilari yo`qolib, boshqa birlari paydo bo`lib turadi.

Induktiv xulosa chiqarishning ikkita turi: to`liq va to`liqsiz induktsiyalar farq qilinadi.

To`liq induktsiya induktiv xulosa chiqarishning shunday turiki, unda birorta belgining ma'lum bir sinfga mansub xar bir predmetga xosligini aniqlash asosida, shu belgining berilgan sinf predmetlari uchun umumiy belgi ekanligi haqida xulosa chiqariladi.

To`liq induktsiya predmetlarning kichik, sinfiga, elementlari yaqqol ko`zga tashlanib turadigan, miqdor jixatdan cheklangan yopiq sistemalarga nisbatan xulosa chiqarishda ishlatiladi. Masalan, Quyosh sistemasiga kiruvchi planetalar, NATO ga a'zo davlatlar, birorta shaxarda joylashgan korxonalar va shu kabilar xaqida xulosalarni to`la induktsiya yo`li bilan olish mumkin. Xususan, Quyosh sistemasiga kiruvchi harakatining yo`nalishi soat strelkasi xarakati yo`nalishiga teskari ekanligi haqidagi xulosa aynan ana shu usul yordamida hosil qilinadi. Xuddi shuningdek, "Barcha metallar elektr tokini o`tkazadi", "NATO ga a'zo davlatlar shu tashkilotning ustaviga rioya qiladilar", "Toshkent shahridagi barcha korxonalar elektr energiyasi bilan to`la ma'minlangan" kabi umumiy xukmlar orqali ifoda qilingan xulosaviy bilimlar ham to`liq induktsiyani qo`llash asosida shakllanadi.

To`liq induktsiyada muxokamaning qurilish sxemasi quyidagi ko`rinishga ega:

S_1predmeti R belgiga ega

S_2 predmeti R belgiga ega

... ...

S_n predmeti R belgisiga ega

Faqat S_1, S_2..., S_n largina S sinfini tashkil etadi

S finfining har bir predmeti R belgiga ega.

Simvolik ifodasi esa quyidagicha:

R (x_1)

R (x^2)

... ...

$R(x_n)$

$<X_1, x_2, \ldots x_n> \in C$

$\forall x ((x \in S) \rightarrow R(x)$

Predmetlarning yopiq to`plamini o`rganish empirik tadqiqotning aniq bir sinfni bilish bilan chegaralanganligini bildiradi. Ana shuning uchun ham asoslardagi xar bir predmet haqidagi ma'lumot qayd etilgan belgini sinf predmetlarining barchasiga yoyish, ularga tegishli, deb aytish uchun mantiqiy asos bo`la oladi.

Demak to`liq induktsiyaning asosiy xususiyati shundaki, unda berilgan sinfga mansub barcha predmetlar birma – bir o`rganilib chiqilishi, ular xaqida yakka xukmlar hosil qilinishi va asoslar sifatida qabul qilinishi zarur.

To`liq induktsiyaning yana bir muhim xususiyati bor: uning asoslari ham, xulosasi xam aniq, tekshirilgan, extimoldan xoli fikrlarni aks ettirgani uchun, ular qat'iy xukmlar orqali ifodaladi. Masalan, oddiy qat'iy sillogizmni o`rganishni uning 1 – figurasidan boshlab, uning to`g`ri moduslarga egaligini aniqlaymiz. SHu yo`l bilan sillogizm II, III, IV figuralarini ko`rib chiqamiz; ularning ham har birining to`g`ri moduslarga ega ekanligining guvoxi bo`lamiz. Natijada sillogizm figuralarining bu xususiyatini yakka xukmlarda ifoda etamiz va to`liq induktsiya bo`yicha xulosa chiqarish uchun asos qilib olamiz hamda xulosa chiqaramiz. Unda yuritilayotgan muxokama jarayoni quyidagi shaklga kiradi:

Sillogizmning I – figurasi to`g`ri moduslarga ega;

Sillogizmning II – figurasi to`g`ri moduslarga ega;

Sillogizmning III – figurasi to`g`ri moduslarga ega;

Sillogizmning IV – figurasi to`g`ri moduslarga ega;

YUqoridagi figuralar sillogizmning hamma figuralaridir.

Demak, sillogizmning hamma figuralari o`zining to`g`ri moduslariga ega.

To`liq induktsiyaning asoslari va xulosasini ularning strukturasi jixatidan olib tahlil qilsak, quyidagi holni kuzatish mumkin. Asos bo`lib kelayotgan xukmlar sub'ektlari mantiqiy sinfning aloxida elementlarini ifoda etadi. Xulosaning sub'ekti esa bir butun mantiqiy sinfni aks ettiradi. Asoslar va xulosa predikatlari predmetlar belgisini ifoda qiladi. U asoslarda sinfning aloxida olingan xar bir elementiga tegishli belgi sifatida fikr qilinadi. Xulosada esa u belgi butun sinfga ko`chirilib, unga tegishli umumiy belgi sifatida qayd etiladi. Fikrimizni quyidagi misol orqali oydinlashtiramiz:

Zardo`sht Qadimgi Xorazmda tug`ilgan

Budha Hindistonda tug`ilgan

Muso Misrda tug`ilgan

Iso (Iisus Xristos) Kuddusga yaqin Viflemda tug`ilgan

Muhammad Makkada tug`ilgan

Ular buyuk dinlarning asoschilaridir

Demak, buyuk dinlarning asoschilari SHarqdan chiqqanlar.

Keltirilgan misolda biz e’tiborimizni qaratishimiz zarur bo`lgan muhim bir tomon bor. U ham bo`lsa, faqat xulosaning sub’ektigina (Buyuk dinlar asoschilari) emas, balki predikatining (SHarqdan chiqqan) ham asoslardagi predikatlar (Xorazm, Hindiston, Misr, Makkalarda tug`ilganligi) sinfidan tashkil topganligidadir. YA’ni, xulosa – R, asoslardagi R_1, R_2, ..., R_n turlaridan, modifikatsiyalaridan tashkil topgan. Boshqacha aytganda, unda asoslar sub’ektlari – xulosa sub’ektida, asoslar predikatlari – xulosa predikatida sinflarga birlashtirilgan va mantiqan umumlashtirilib, umumiy xukm shaklidagi xulosa hosil qilingan.

To`liq induktsiyaga xos bo`lgan yana bir xususiyatni ko`rsatish mumkin. Bu uning asoslarda va xulosada ko`rsatilgan predmetlardan boshqa predmetlar xaqida bilim bermasligidan iborat.

Nixoyat to`liq induktsiyaning xulosasining aniq va chin bo`lishi bilan deduktiv xulosa chiqarishga o`xshab ketishini qayd etish zarur.

Buni to`liq induktsiyani sillogizm uchinchi figurasi bilan solishtirish ularning o`xshash tomonlarini ajratish yo`li bilan ko`rib chiqish mumkin. 1. Ularning ikkalasi ham aniq xulosalar beradi. Bungi asosiy sabab shuki sinfga mansub barcha predmetlar birma – bir o`rganilib chiqiladi. 2. Ularning xulosasida predikat ifoda qiluvchi fikr ko`chiriladi. Sillogizm uchunchi figurasida xulosa juz’iy xukmlar tarzida kelib chiqadi, asoslarda ko`rsatilgan predmetlarga qaraganda ko`proq bo`lgan prdmetlar sinfi xaqida fikr bildiriladi. YA’ni predikat turdan jinsga ko`chiriladi. Masalan,

Kitoblar – ma’naviy boylik.

Kitoblar aqliy mexnat natijalari.

Demak, aqliy mexnat natijalarining ba’zilari ma’naviy boylikdir.

Bunda ma’naviy boylik bo`lish belgisi (R) «Kitoblar» dan aqliy mexnat natijalariga ko`chiriladi. Ma’naviy boylik esa, aqliy mexnat natijalarini bir turidir. To`liq induktsiya bilan sillogizm uchunchi figurasining bir – biridan farq qiladigan tomonlari bor albatta. Xususan sillogizm uchunchi figurasining xulosasi – juz’iy xukm, to`liq induktsiyaning xulosasi – umumiy xukmdan iborat.

To`liqsiz induktsiya shunday extimoliy xulosa chiqarish turiki, unda birorta belgining bir mantiqiy sinfga tegishli predmetlarning bir qismiga xosligini aniqlash asosida shu belgining berilgan sinfga mansub barcha predmetlarga xosligi xaqida xulosa chiqariladi.

To`liqsiz induktsiyada fikrimiz, xuddi to`liq induktsiyadagidek juz’iylikdan umumiylikka kamroq umumiylashgan bilimdan ko`proq umumiylashgan bilimga qarab harakat qiladi. Lekin unda to`liq induktsiyadan farqli o`laroq xulosa kuzatish tajriba davomida qayd etilmagan o`rganilmagan predmetlarga xam tegishli bo`ladi. To`liqsiz induktsiyaning evristik moxiyati aynan anashundadir. To`liqsiz induktsiya va fikrimiz quyidagi sxemada ko`riladi.

S_1 predmeti R belgiga ega

S_2 predmeti R belgiga ega.

... ...

S_n predmeti R belgiga ega

S_1,S_2..., S_n predmetlari S sinfiga tegishli
Ehtimol, S sinfining har bir predmeti R belgiga egadir.

Sanash orqali to`liqsiz induktsiya yoki ommabop induktsiya (enumerativ induktsiya) induktiv yo`l bilan umumlashtirishning shunday turiki, unda bir sinfga mansub predmetlarning bir qanchasida birorta belgining takrorlanishini kuzatish asosida, uning shu sinfga kiruvchi barcha predmetlarga xosligi haqida ehtimoliy tarzdagi xulosa chiqariladi.

Sanash orqali to`liqsiz induktsiyaning ob’ektiv asosni insonlarning ko`p yillik hayotiy faoliyati, avloddan avlodga o`tib kelayotgan turmush tajribalari natijalari tashkil etadi. Masalan, yoz juda issiq kelganda, qishda qattiq sovuq bo`lishi mumkinligi, qaldirg`ochlarning uchib ketayotgani xavoning soviy boshlaganini bildirish va shu kabi xulosalar insonlarning obi – xavoni uzoq yillar davomida kuzatishining natijasidan iborat.

Kishilarning kundalik hayotiy tajribasiga asoslangani, sog`lom aql yuritishga xos xususiyatlarni o`zida mujassamlashtirgani uchun ham xulosa chiqarishning bu usulini ommabop induktsiya deb atashadi.

Ommabop induktsiyaning muxim xislatlaridan biri kuzatilayotgan xollarga zid bo`lgan xolning yo`qligiga ishonch hosil qilishdir. YA’ni, bunda nechtasida takrorlanishini qayd etish bilan cheklanmasdan, ularga zid bo`lgan xolning yo`qligi ham aniqlanadi. Bu, odatda ommabop induktsiya asosida qat’iy xulosaga kelishdan oldin «SHoshmay tur – chi, qani, yana bir tekshirib ko`raylik!» degan fikrga suyanib ish qilishga undaydi, «Etti o`lchab, bir kesish»ga chaqiradi. Ana shuning uchun ham ommabop induktsiyani xalq donishmandligining namoyon bo`lishi turlaridan biri, deb aytish mumkin.

Ommabop induktsiya asoslanadigan belgilarning takrorlanishi haqiqatan ham ko`p hollarda, induktiv xulosa chiqarishning boshqa turlarida bo`lgani singari, hodisalarning umumiy xususiyatlarini aks ettiradi. Ana shuning uchun ham bu usul bilan olingan xulosaning chin bo`lishi ehtimoli nisbatan yuqoriroq hisoblanadi va unga tayanib kishilar o`z faoliyati yo`nalishlarini, amalga oshirish mexanizmlarini belgilaydilar. Ommabop induktsiyaning eng oddiy umumlashmalarisiz dehqonchilik, xalq hunarmandchiligi, oddiy xo`jalik ishlarini va shu kabilarini amalga oshirib bo`lmaydi. Masalan, Mirzo Ulug`bek nomidagi o`zMU kutubxonasidagi kitoblarning qanday ahvolda ekanligini bilish uchun (xulosaviy bilim hosil qilish uchun), undagi kitoblarning bir qismini – turli qavatlardagi, turli bo`limlardagi, turli jovonlardagi kitoblardan bir qanchasini olib tekshirib qo`rish kifoya. Xuddi shuningdek, ¡zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar oldidan okruglardagi deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalarning mavqelari haqida saylovchilarning bir qismining fikrini bilish (masalan, so`roq o`tkazish yo`li bilan) asosida muayyan xulosalarga kelish mumkin. Bu misollarda muxokama ommabop induktsiya sxemasi bo`yicha qurilgan.

Kundalik hayotiy tajriba, sog`lom aql ilmiy bilishning boshlang`ich asosi sifatida uning qo`yadigan dastlabki qadamlarini, harakat yo`nalishlarini aniqlashga yordam beradi. Xususan, fan o`z taraqqiyotining dastlabki bosqichida empirik tadqiqotlar o`tkazadi: ob’ekt ustida o`tkazayotgan tajriba, kuzatish davomida to`plangan faktlarni tasvirlaydi, klassifikatsiya qiladi, takrorlanib turuvchi xususiyatlarni aniqlaydi, induktiv

umumlashmalar shaklida empirik qonuniyatlarni shakllantiradi. Bu esa, o`z navbatida o`rganilayotgan ob’ekt haqida turli xil gipotezalar qurishga, hodisalarni oldindan ko`rishga, ilmiy bashoratlar qilishga yordam beradi.

SHuni aytish kerakki, ommabop induktsiyaning xulosasi bilish sub’ekti uchun qulay faktlarni sanab ko`rsatishga asoslanganligi bois, ehtimoliy, taxminiy fikr bo`lishdan yuqoriga o`ta olmaydi. U qo`shimcha tekshirishlar o`tkazishni, mavjud xolatlar va hollarda predmet tabiatining o`zgarishini aniqlashtirishni taqoza etadi. CHunki qulay hollarni, faktlarni sanab ko`rsatish dastlabki induktiv umumlashmalar hosil qilishning zaruriy sharti bo`lsa – da, o`z holicha etarli emas.

Xususan, birorta belgining bir turkum predmetlarda takrorlanishi voqeaning kechishi bilan bog`liq tasodifiy holat ham bo`lishi mumkin. Albatta, zaruriyat bilan bog`lanmagan, uni u yoki bu darajada ifoda qilmaydigan tasodif yo`q. Masalan, tajriba olib borilayotgan itga yonida turgan lampochka yongandan keyin ovqat berish bir necha marta takrorlansa, bu itda shartli refleks hosil bo`lishiga olib keladi. Bunda lampochka bilan ovqat berish o`rtasidagi aloqa o`z holicha tasodifiy deb olib qaralishi mumkin. Lekin u itda shartli refleksning hosil bo`lishi bilan bir sistemada olinganda zaruriyatni ifoda etadigan takrorlanib turuvchi hodisaga aylanadi.

Bu xodisa va umuman bir jinsli predmetlarda takrorlanib turuvchi barcha hodisalar, insonning bilishi jarayonida aql yordamida talqin qilinadi, «qayta ishlanadi» hamda «Bu takrorlanish zururiyat, qonuniyatning ifodasi bo`lishi mumkin», degan taxminning yaratilishiga olib keladi. Umumiy holda ifodalangan bu taxmin bilishning keyingi bosqichida to`liqsiz induktsiya hosil qiluvchi umumlashmaning asosli bo`lishini ta’minlaydigan miqdoriy va sifatiy omillarning o`zaro ta’sirining kuchayishiga va demak, xulosaning ishonchlilik darajasining ortishiga olib keladi. Bunda sifatiy omil belgi takrorlanib turuvchi xodisalar mavjud bo`lgan sharoitning o`zgarib turishini taqoza etadi. O`zgarib turgan sharoitlarda hodisa belgisining takrorlanishi uning zaruriy xarakterga ega ekanligi haqidagi ishonchni orttiradi. Ana shunday sifatiy omil amal qilgan sharoitda miqdoriy omil ham bir tipdagi hollarning ko`p bo`lishi (ular qancha ko`p bo`lsa, umumlashtirishi ehtimoli va natijasi shuncha yaxshi bo`ladi) xolati ham mavjud bo`lsa, xulosaning chin bo`lishi extimoli ortadi.

YUqoridagi saylov haqidagi misolga qaytadigan bo`lsak, so`roq natijalarining chin bo`lish extimoli sifatiy (respondentlar tasodifan emas, balki axolining qaysi qatlamiga mansubligi, yoshi, jinsi va shu kabilar hisobga olingan holda ajratib olingan) va miqdoriy (sifatiy holat bilan bog`liq ravishda respondentlar soni ko`p bo`lsa) ko`rsatgichlar hisobga olingan xolda ortadi, degan xulosaga kelish mumkin.

SHuningdek ommabop induktsiya zid xolatlar haqidagi faktlarni qasddan yashirgan yoki faktlarni avvaldan o`ylab topib qo`ygan xulosa uchun to`plagan hollarda xato natijalarni beradi.

Turli xil g`aroyib narsalarga ishonish oqibatida hosil qilinadigan induktiv umumlashmalar, masalan «ko`z tegish», «yo`lni mushuk kesib o`tsa, ishning yurishmasligi», «tushda go`sht ko`rinsa, yaqin kishilardan birining kasal bo`lib qolganligi» xaqidagi xulosalar ham ko`pincha haqiqatga mos kelmaydi.

5. Ilmiy induktsiya.

Ilmiy induktsiya ehtimoliy xulosa chiqarishning shunday turiki, uning asoslarida birorta belgining bir sinfga mansub predmetlarning bir qanchasida takrorlanishi qayd etilishi bilan bir qatorda, u belgining sababiy aloqasi haqida ham ma’lumot mujassamlashgan bo`ladi va ular xulosada berilgan predmetlar sinfiga nisbatan hosil qilingan fikrda o`z aksini topadi.

Ommabop induktsiyadan farqli o`laroq, ilmiy induktsiyada bir sinfga mansub predmetlarda takrorlanuvchi belgi shunchaki qayd etilib qolmasdan, balki u xaqida to`laroq ma’lumotga ega bo`lish, uning mavjud bo`lishi sababini aniqlash uchun predmetning boshqa belgilari bilan bo`lgan aloqalari, xususan, sababiy bog`lanishlari o`rganiladi. Ana shuning uchun xam, ya’ni xodisalarning sababini aniqlashga, ularning ifoda etuvchi qonunlarni ochishga qaratilgani uchun ham to`liqsiz induktsiyaning bu turini ilmiy induktsiya deb atashadi.

Sababiy aloqadorlikni aniqlashga ancha murakkab ish, chunki u borliqda yuqorida qayd etib o`tilgan hodisalar o`rtasidagi umumiy aloqadorlikning boshqa turlari bilan birgalikda mavjud. Uni ilmiy bilishda «toza» xolda ajratishga hamma vaqt xam osonlikcha erishib bo`lmaydi. Buning uchun sababiy aloqadorlikning tabiatini, xususiyatlarini yaxshi bilish kerak.

6. Sababiy aloqadorlik.

Sababiyat (kauzallik) ikki xodisa o`rtasidagi zaruriy aloqa bo`lib, muayyan sharoitda ulardan biri (sabab hodisa) ikkinchisini (oqibatni) keltirib chiqaradi. Uning muxim xususiyatlari quyidagilar: 1) aloqaning umumiyligi; 2) vaqtdagi izchilligi, birin – ketinligi; 3) aloqaning zaruriy xarakteri; 4) sabab va oqibatning bir ma’noli bog`lanishda bo`lishi.

1. *Sababiy aloqalarning umumiyligi* deganda, olamda xech bir xodisaning sababsiz mavjud bo`la olmasligi tushuniladi. U xar qanday xodisaning o`z xolicha, boshqa hodisalardan mustaqil holda vujudga kela olmasligini, boshqa xodisalar bilan hodisalar ta’sirida paydo bo`lishi, o`zgarishi, yo`q bo`lish hamda, o`z navbatida, boshqa xodisalarga ta’sir o`tkazishini bildiradi. Borliqdagi xar bir xodisa o`z sababiga ega bo`lib, uni ertami yoki kechmi bilib olish mumkin.

Turli xil aloqalar, mavjud holatlar orasida noma’lum bo`lib qolayotgan sabab hodisani topish uchun boshqa omillar, xususan, sababiy aloqada bo`lgan xodisalarning vaqtdagi ketma – ketligi, izchilligi hisobga olinishi zarur.

2. *Sababiy aloqadorlikda bo`lgan hodisalarning vaqtdagi birin – ketinligi* deganda, sabab hodisaning oqibat (natija) hodisadan doimo oldin kelishi nazarda tutiladi. Sabab hodisa bilan oqibat hodisaning ro`y berishi orasida turli muddat o`tishii mumkin. Ba’zan oqibat (natija) sabab hodisadan bir zumdan keyin paydo bo`lishi mumkin. Masalan, o`qning otilishi bilan u tekkan ob’ektning zararlanishi o`rtasida o`tadigan vaqt juda qisqa, organizmga tushgan mikrob bilan u qo`zg`aydigan kasallikning vujudga

kelishi o`rtasida o`tadigan vaqt uzoqroq (bir qancha daqiqa, soat, kun) bo`ladi. Sababiy aloqadorlik ijtimoiy hayotda (masalan, kishilarning huquqiy ongi bilan uni shakllantirishga yo`naltirilgan hatti - xarakat), geologiyada (masalan, ma’lum bir jarayonlar ta’sirida tog`larning paydo bo`lishi) va boshqa shu kabi soxalarda ancha ko`p vaqt davomida amalga oshadi.

Sabab hodisa oqibat hodisadan avval keladigan bo`lgani uchun, u bilishda doima oqibatdan oldin keladigan hodisalar orasidan qidiriladi. Bunda oqibat bilan bir vaqtda yoki undan keyin keladigan hodisalar istisno (eliminatsiya) qilinadi, ya’ni chiqarib tashlanadi.

Sabab va oqibatning vaqtdagi izchilligi, birin ketinligi hodisalar o`rtasidagi sababiy aloqadorlikni aniqlashning zaruriy sharti, lekin o`z holicha ko`zlangan maqsadga erishi uchun etarli emas. Oldinma – ketin kelgan hodisalarning hammasi ham sababiy aloqadorlikdan bo`lavermaydi. Bu holat hisobga olinmasa «undan keyin, demak, shu sababga ko`ra» deb ataladigan xato (lotincha post noc, ergo propter noc) ro`y beradi. Masalan, chaqmoq chaqish hodisasi momaqaldiroqning sababi deb tushunganlar, vaxolanki xaqiqatda bunday emas. Mamoqaldiroqning chaqmoqdan keyin kelishiga sabab tovush tezligining yorug`lik tezligidan kamroq bo`lishidir. Aslida esa ular bir vaqtda vujudga keladi. Xuddi shu singari, jinoyat sodir bo`lishidan avval u sodir etilgan joyda bo`lgan kishilarning hammasi ham jinoyatchi bo`lavermaydi.

3. *Sababiy aloqadorlikning zaruriyligi* oqibatning faqat uni vujudga keltiradigan sababning mavjud bo`lganidagina paydo bo`lishini anglatadi. Sabab hodisaning yo`qligi oqibat hodisaning ham yuzaga chiqmasligini bildiradi. Ana shuning uchun ham sababiy aloqadorlikni aniqlashda oqibatdan avval keladigan hodisalardan oqibat xodisani keltirib chiqarmaydiganlari olib tashlanadi, ya’ni eliminatsiya qilinadi.

4. *Sababiyatning bir ma’noli aloqadarlik* ekanligi muayyan sababning o`ziga muvofiq keladigan muayyan oqibatni keltirib chiqarishini ifoda etadi. Buni sabab va oqibat o`rtasidagi aloqadorlikdagi simmetriyaning mavjudligi, ya’ni sabab xodisaning o`zgarishining oqibat hodisaning o`zgarishiga olib kelishini tasdiqlaydi. Sababiyatning bu xususiyati uni aniqlash jarayonida faqat o`zaro birgalikda o`zgaruvchi hodisalarni olib qolib, qolganlarini chiqarib yuborishga undaydi.

Ana shuning uchun ham sababiy aloqadorlikni aniqlash empirik tadqiqotlar natijalarini samarali tahlil qilishga imkon beruvchi printsiplarni qo`llash taqoza etadi. Ular sababiy aloqadorlikda bo`lgan hodisalarni ularning borliqdagi tabiiy mavjud bo`lish sharoitidan «ajratib olib», maxsus bilish sharoitlarida o`rganishga imkon beradi. Xususan:

1. Oqibatdan avval kelgan hodisa murakkab strukturaga ega, u b, c, d, va hokoza holatlardan tashkil topgan deb hisoblanadi.

2. Mazkur holatlarning har biri mustaqil holda mavjud va boshqalar bilan o`zaro ta’sirda bo`lmaydi deb qaraladi.

3. Qayd etilgan holatlar mavjud bo`lishi mumkin bo`lgan xolatlarning tugal to`plami deb olinadi.

Bu printsiplar bilan bir qatorda sababiy aloqadorlikni aniqlashning boshqa bir qancha metodlari xam mavjud. Ular mantiqda ilmiy induktsiya metodlari deb yuritiladi.

¡xshashlik metodi. Unda urganilayotgan xodisaning sababi xakidagi xulosa shu xodisaning bir kancha kuzatilayotgan xollarini solishtirish, ularning uxshash tomonnini aniklash asosida xosil kilinadi. Masalan, kimyoviy tarkibi, zichligi, ogirligi, kattaligi turlicha bo`lgan mayatniklar uzunlgi bar xil sterjenlarga – ilgaklarga ilintirib, xarakatga keltirilganda, bir xil tebranish davriga ega bo`lgan. Bunda odisaning vujudga kelishi kuzatilyotgan barcha xollarida undan avval kelayotgan xolatlarning fakat bittasigina takrorlanadi. Ana shunga tayanib, mazkur takirorlanuvchi xolat kuzatilayotgan xodisaning vujudga kelishining sababi bulsa kerak, degan tarzda extimoliy xulosa chikariladi.

Uxshashlik metodi b¢yicha muxokama yuritish sxemasi kuyidagi kurinishga ega:

Xollar	Xodisa vujudga kelishidan avval mavjud bo`lgan xolatlar	Xodisa
1	ABC	D
2	DEV	D
3	VSD	D

Extimol, V xolat d xodisaning sababidir.

Demak, uxshashlik metodining moxiyatini kuyidagicha ifodalasa b¢ladi:

Agar xodisaning kuzatilayotgan xollari uchun fakat bitta xolatgina umumiy bulsa, ana shu xolat mazkur xodisaning sababidir.

¡xshashlik metodining amlga oshish mexanizmi kuyidagi matikiy amallarni ishlatishni uz ichiga oladi.

Birinchidan, urganilayoyotgan xodisaning taxminiy sabablari xakida ma’lumotlar tuplanadi. Bizning sxemada bu A, V, S, D, E xolatlari d xodisasidan avval kelib, uning paydo bo`lishiga sabab buluvchi xolatlar sifatida olib karalgan. Uni « A, yoki V, yoki S, yoki D, yoki E, d xodisasini keltirib chikaradi », щaklidagi diz’yunktiv xukm deb kabul kilsak b¢ladi.

Ikkichidan, mavjud xolatlar ichidan kuzatilayotgan xodisa bilan zaruriy ravishda boglanmaga, sababi alokadorlikga xos belglarga ega bulmagan xolatlar chikarib yuboriladi. YUkoridagi sxekmadan d xodisasi birinchi xolda D va E xolatlari, ikkinchi xolda A va S xoltlari, uchunchi xolda A va E xolatlari bulmaganda xam vujudga kelyapdi. Ana shuning uchun ular zaruriy ravishda boglanmagan, va, demak uning sababi bula olmaydigan xolatlar sifatida muxokamadan chikarib yuborilishi kerak. Uni, «A xam, S xam, D xam, E xam d xodisasining sababi emas», degan kurinishdagi inkor xukmdan iborat deb olishimiz mumkin.

Bu amaldan keyin xodisaning asl sababi bo`lishi mumkin bo`lgan xolatlar doirasi kiskaradi.

Uchunchidan, barcha xollar uchun uxshash bo`lgan, xammasida turgun ravishda takirorlanadigan xolat jratib olinadi. Bizning sxemada u V xolatidan iborat.

Aynan anashu xolat, kuzatilagn xollarda boshka uxshash xolatlar bulmagani uchun, xodisaning sababi bulsa kerak, deb tusmol kiliandi.

YUkorida sodir etilgan mantiqiy amallar natijalarini tuplab, tartibga solsak, yuritilgan muxokaaning umumiy sxeamsi ayiruvchi – kat’iy sillogizmning tasdik – inkor (tollendo ponens) modusi shaklida ekanligini kuramiz.

A, yoki V, yoki S, yoki D,yoki E, *a* xodisasini keltirib chikaradi.

A xam, S xam, D xam, E xam d xodisasining sababi emas.

Extimol, V xolat d xodisaning sababidir.

Buning simvolik ifodasi kuyidagicha b¢ladi:

$$\frac{p \vee q \vee r \vee s \vee t,\ \neg p, \neg g, \neg s, \neg t}{q}$$

SHuni aytish kerakki, o`xshashlik metodidan foydalanib xosil qilingan xulosaning asoslanganlik darajasi ko`p omillarga, xususan, kuzatish va eksperiment o`tkazilayotgan sharoitlarning xilma – xilligi, ko`rib chikilayotgan xollarning mikdori va shu kabilarga bog`lik. Agar o`xshash xolat kuzatilayotgan xollar soni kanchalik kup bulsa, u xolat turli xil sharoitlarda xar xil boshka xolatlar bilan turlicha komplekslarda olinsa, uning vujudga kelayotgan xodisasining sababi bo`lishi extimoli ortadi.

Lekin, shunga karamasdan bu metod vositasida olingan xulosaning chinligi extimoliy xarakterga egaligicha kolaveradi. To`liksiz induktsiya uchun xarakterli bo`lgan tajribaning tugal bula olmasligi mana shundan namoyon b¢ladi. Xususan, xodisadan avval keladigan xolatlarning barchasini aniklash imkoniyati bulsmagani uchun, xodisaning asl sababi bo`lgan xolat ana shu noma’lum xolatlar ichida kolib ketgan bo`lishi mumkin. Ana shuning uchun xam bizning misolimizdagi barcha kuzatilgan xollarda takirorlanuvchi V xolati boshka xolatlar bilan bir kompleksda keladigan yoki xodisaning asl sababi bo`lgan noma’lum X xolatiga ergashib yuradigan xolat bo`lishi mumkin.

¡xshashlik metodini kullash natijasida olingan xulosa xodisadan avval keladigan barcha xolatlar aniklanganda, ya’ni sabab bo`lishi extimol kilingan xolatlar yopik sistemani tashkil etganda, shuningdek, bu xolatlar uzaro bir – biriga ta’sir utkazmaydi, deb olib karalgandagina chin bulshi va argumentlash jarayonida ishonchli asos sifatida kullanilishi mumkin.

SHunga karamasdan uxshashlik metodi xodisaning sababini u xakida turli gipotezalar kurish orkali aniklashda muxum axamiyatga ega. Undan ilmiy bilishda juda xam samarali foydalanish mumkin.

Tafovut metodi. Bu metod fakat ikkita xol – xodisaning vujudga kelgan va kelmagan xollarini takkoslash asosida xodisaning sababini aniklash usuli bo`lib, unda mavjud xollar bir – biridan fakat bitta xolat bilan fark kiladi: birida u yuk, ikkinchisida – bor va fakat anashu xolat bor xoldagina xodisa yuzaga keladi. Ana shuning uchun xam mazkur xolat kuzatilayotgan xodisaning sababi bulsa kerak, deb taxmin kilinadi, ya’ni extimoliy xulosa xosil kilinadi. Uning sxemasi kuyidagicha:

Xollar	Xodisa vujudga kelищdan avval mavduj bo`lgan xolatlar	Xodisa
1	ASD	-
2	AVSD	d

Extimol, V xolat d xodisa sababidir.

Tafovut metodidan bilishning turli xil soxalarida keng foydalaniladi. Masalan, yaxshi ishlayotgan va yaxshi ishlamayotgan korxonalar solishtirilib, korxonaning yaxshi ishlamasligi sababi aniklanadi. Meditsinada esa ikki xayvonlar guruxi – eksperiment utkazilayotgan va nazorat kiluvchi guruxlar kiyos kilinib, eksperimet utkazilayotgan guruxda sinalgan pereparatning samaradorlik darajasi aniklanishi mumkin. Bunda xar ikkala gurux bir xil sharoitda saklanib (A, S, D), eksperiment davomida bittasiga V xolati kushiladi. Bu esa avvalgi xolda yukbo`lgan d xodisaning vujudga kelishiga sababchi b¢ladi. Ana shunga asoslanib, « V xolati d xodisasi sababi bo`lishi mumkin » degan xulosaga kelinadi.

Demak, tafovut metodiga muvofik, *xodisa vujudga kelayotgan va vujudga kelmayotgan xollar ulrdan avval kelayotgan xolatlarning bittasidagina fark qilib, kolgandlarida uxshash bulsa, ana shu bitta xolat kuzatilayotgan xodisaning sababidir*.

Tafovut metodining amalga oshish mexanizmi kuyidagicha izchillikdadir.

Birinchidan, d xodisaning sababi bo`lishi mumkin deb taxmin kilinadigan xolatlar aniklanadi. Bizning sxemada ular A, V, S, D lardan iborat bo`lib, dizyunktiv xukm kurinishida ifoda kilinadi:

«A, yoki V, yoki S, yoki D xolati d xodisasi sababidir. »

Ikkinchidan, mazkur dizyuktsiya a’zolaridan etarli asos printsipiga muvofik kelmaydiganlari chikarib tashlamadi, ya’ni, « A xam, S xam, D xam d sababi emas », deb xisoblanadi.

Uchinchidan, xodisaning sababi mumkin deb tusmol kilingan xolatlar ichidan fakat bittasi olib kolinadi va u xodisaning xakikiy sababi, deb xisoblanadi. YUkoridagi sxemada bu V xolatidir.

Demak, tafovut metodi b¢yicha xulosa chikarishning mantiqiy mexanizmi xam ayiruvchi – kat’iy sillogizmning tasdik – inkor (tollendo ponens) modusi shaklida ekan. Uni kuyidagicha yozish mumkin:

A, yoki V, yoki S, yoki D d xodisasini keltirib chikaradi.

A xam, S xam, D xam d xodisasining sababi emas

Extimol, V xolat d xodisasining sababidir.

Uning simvolik ifodasi kuyidagicha:

$$\frac{p \vee q \vee r \vee s \vee t, \neg p, \neg g, \neg s, \neg s}{q}$$

Tafovut metodi asosida muxokama yuritish fakat xodisadan avval keladigan xolatlar tuplami yopik sistemani tashkil etganda xamda ularning barchasi aniklanganda chin xulosa beradi. Empirik bilish boskichida buni amalga oshirishning iloji yuk. Lekin, shunga karamasdan, tafovut metodi mutaxasislar fikricha, induktiv xulosa chikarishning eng ishonchli xulosaning bilim beradigan vositasi xisoblanadi va shuning uchun xam ilmiy bilishda unga kup murojat kilinadi.

Yo`ldosh o`zgarishlar metodi. Bu metod hodisadan avval kelayotgan holatlardan birining o`zgarishi, qolgan holatlar o`zgarmasdan qolganda, hodisaning o`zgarishiga olib kelishi kuzatiladigan sharoitlarda qo`llaniladi.

¡xshashlik va tafovut metodlari holatlardan birortasining takrorlanishi yoki yo`q bo`lishini qayd etishga asoslangan bo`lib, ular sababiy aloqada bo`lgan hodisalarni neytrallashtirish yoki boshqalari bilan almashtirish iloji bo`lgan sharoitlarda qo`llanilishi mumkin edi. Yo`ldosh o`zgarishlar metodidan bunday vaziyatlarda foydalanib bo`lmaydi. Masalan, tushunchaning mazmunining o`zgarishi uning hajmining o`zgarishiga ta’sir ko`rsatishini o`rganishda tushunchaning mazmunini neytrallashtirib, ya’ni uni tushuncha xajmi bilan birga bog`lanishidan «uzib» olib bo`lmaydi. Xuddi shuningdek, atrof – muxitning ta’sirini istisno qilib bo`lmaydi, ya’ni tajribadan chiqarib tashlab bo`lmaydi. Bunday hollarda faqat yo`ldosh o`zgarishlar metodidangina foydalanish mumkin. U avval va keyin kelayotgan o`zaro bog`liq hodisalardagi yo`ldosh o`zgarishlarni – birining o`zgarish intensivligi va darajasining ikkinchi xodisadagi sodir bo`layotgan o`zgarishlarga muvofiqligini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Yo`ldosh o`zgarishlar metodiga muvofiq, *bir xolatning o`zgarishi xodisaning*

o`zgarishiga ham olib kelsa, shu xolat kuzatilayotgan xodisa o`zgarishining sababidir.

Yo`ldosh o`zgarishlar metodi yordamida juda ko`p qonunlar, shu jumladan, fizikadagi gazning harorati bilan uning zichligi, tortishish kuchi bilan masofa, iqtisodiyotdagi talab va taklif o`rtasidagi bog`lanishlar va shu kabilar o`rganiladi.

Hodisadan avval kelayotgan xolatlarni A, V, S lar bilan, bu xolatlarning o`zgarishi darajasini 1, 2,..., n bilan, hodisani d bilan belgilasak, yo`ldosh o`zgarishlar metodida muxokama jarayonining quyidagi sxema bo`yicha amalga oshishini ko`ramiz:

ho llar		Xod isa
1	AVS^1	d^1
2	AVS^2	d^2
...	... ...	...
n	AVS^n	d^n

Ehtimol, s holat d hodisa sababidir.

Masalan, Quyoshning dastlabki holatdagi aktivligi S^1 ga teng bo`lganda, Erda radiatsiya darajasini $d^1$ deb olsak, Quyosh aktivligining $S^2$ darajasiga ko`tarilishi Erdagi radiatsiya darajasining ham d^2 gacha ko`tarilishiga olib keladi. Yo`ldosh o`zgarishlar metodining qo`llanishi ma’lum bir shart – sharoitlarga rioya qilishni taqazo etadi.

Birinchidan, o`rganilayotgan hodisaning sababi bo`lishi mumkin deb ehtimol qilingan holatlar aniqlanishi kerak. Bu holatlarni A, V, S lar deb xisoblasak, «A, yoki V, yoki S holat d hodisasini keltirib chiqaradi», degan ayiruvchi xukm ko`rinishidagi fikr hosil bo`ladi.

Ikkinchidan, yuqoridagi holatlar ichidan sababiy aloqadorlikning bir ma’noli bo`lishi xususiyatiga ega bo`lishi, ya’ni konkret holatning o`zgarishi hodisadagi konkret o`zgarishga olib kelishi shartiga muvofiq kelmaydiganlari chiqarib yuborilishi (eliminatsiya qilinishi) zarur. YUqoridagi sxemada A va V holatlarni aynan shunday bo`lib, ular muxokama jarayonidan chiqarib yuborilishi kerak.

Uchunchidan, eliminatsiyadan keyin qolgan yagona holat ajratib olinib, uning o`zgarishi hodisaning o`zgarishiga sababdir, degan xulosaga kelinadi. Bizning sxemada bunday xolatlar S bo`lib, uning $S^1$ bo`lib, uning S^n gacha bo`lgan o`zgarish intensivligi xodisaning d^1 dan d^n gacha bo`lgan o`zgarishi intensivligi bilan birgalikda kechayapti.

Yo`ldosh o`zgarishlar to`g`ri va teskari yo`nalishlarga (proportsionallikka) ega bo`lishi mumkin.

To`g`ri yo`nalishdagi (proportsionallikdagi) bog`lanish deganda, hodisadan avval keladigan holatning o`zgarish intensivligining ortishi hodisaning o`zgarish intensivligining kamayishiga olib keladigan aloqadorlik tushuniladi. Masalan, tushunchaning hajmi kengaytirilganda, uning mazmuni torayadi.

Yo`ldosh o`zgarishlar metodi bo`yicha induktiv xulosa chiqarishning mantiqiy shakli ayiruvchi – qat’iy sillogizmning tasdiq – inkor (tollendo polens) modusi ko`rinishida bo`ladi, ya’ni:

A, yoki V, yoki S holat d ni keltirib chiqariladi.

A ham, V ham d ning sababi emas.
Ehtimol, S holat d hodisa sababidir.

Simvolik ifodasi:
p v q v r, ⌋p, ⌋q

Yo`ldosh o`zgarishlar metodi bo`yicha olinadigan xulosaning chin bo`lishi extimolini, ishonchlilik darajasini orttirish uchun bir qancha talablarga rioya etish zarur. Xususan, hodisaning sababi bo`lishi mumkin deb hisoblangan holatlar soni iloji boricha ko`proq bo`lishi, ular xaqida to`plangan bilimlarning aniqligi etarli darajada yuqori bo`lishi, hodisaning o`zgarishi bilan undan avvalgi kelayotgan holat o`rtasidagi aloqadorlik doimiy, zaruriy va bir ma'noli bo`lishi kerak.

Yo`ldosh o`zgarishlar metodi hodisalar o`rtasidagi sababiy aloqadorlik bilan bir qatorda, funktsional bog`lanishlarni, masalan, hodisalarning miqdoriy ko`rsatkichlarining o`zgarishlari o`rtasidagi bog`liqlikni aniqlashga ham imkon beradi. Bunda xar bir hodisaning sifati o`zgarmaydigan oraliqda uning uchun xarakterli bo`lgan o`zgarishlar intensivligi shkalasini hisobga olish, ya'ni miqdoriy o`zgarishlarning berilgan sifat holati doirasidagi yuqori va quyi chegaralarini nazarda tutgan holda ish yuritish muhim axamiyat kasb etadi. CHunki, chegaralar zonasida va undan tashqarida miqdor o`zgarishlari sifat o`zgarishlariga o`tadi. Masalan, ovqat keragicha eyilganda, organizm uchun foydali bo`ladi. Normadan ozgina oshgani unchalik sezilmaydi. Lekin juda ko`p ovqat eb qo`yilganda, organizmga zarar etadi, xatto uning xalok bo`lishiga olib keladi. Normadan kam ovqat eyish ham organizm uchun zararli. Demak, ovqat is'temol qilishning sutkalik normasi saqlanishi, ya'ni o`zgarishlar intensivligi shkalasi hisobga olinishi zarur.

Yo`ldosh o`zgarishlar metodi hodisalarning sababiy, funktsional aloqalarini o`rganishda yuqoridagi ko`rsatib o`tilgan shartlarga amal qilganda yaxshi samara beradi.

Qoldiq metodi. Bu metod o`rganish ob'ekti murakkab xodisadan iborat bo`lib, bittasidan boshqa qismlarining sabablari aniq bo`lganda, ana shu qolgan qismni vujudga keltiruvchi sababni topish maqsadida qo`llaniladi. Uning muxokama yuritish jarayonida amal qilish sxemasi quyidagicha:

HOLLAR	Hodisadan avval kelib, uning ayrim qismlarini vujudga keltiruvchi holatlar	ho disa
1	**AVS**	x, y, z
2	**A**	x
3	***V***	**Y**

Extimol, S xolat z ning sababidir.

Qoldiqlar metodini qo`llash natijasida geliy, rubidiy kabi ximiyaviy elementlar, Neptun planetasi topilgan va boshqa turli sohaga oid ko`p hodisalar aniqlangan.

Bu metodni qo`llaganda muxokama yuritish jarayonining qanday kechishini Neptun planetasining kashf etilishi misolida ko`rib chiqamiz. Uran planetasining xarakatini kuzatar ekanlar, olimlar uning hisoblab chiqilganda ko`proq miqdorda og`ishgan orbita

bo`ylab harakat qilishini qayd etganlar. Ma’lumki, planetaning og`ishish miqdorining bir qismi unga shu paytgacha ma’lum bo`lgan planetalarning ta’sir o`tkazishi bilan bog`liq. Qolgan qismining esa boshqa bir kuch ta’sirida bo`layotganini bu erda tushunib olish qiyin emas. Olimlar, shu paytgacha noma’lum planetasining og`ishish miqdori ko`payayotgan bo`lsa kerak, degan taxminiy fikr bildirishgan. Oradan ma’lum bir vaqt o`tgandan keyin, Levere hisoblash yo`li bilan yangi planetaning – Neptunning joylashishini aytib beradi. Nixoyat I. Galle 1946 yili yangi qurilgan teleskop yordamida uni osmon sferasidan topadi.

Agar Uran planetasiga ta’sir etuvchi planetalarni A, V, S lar, Uran planetasining umumiy og`ishish miqdorini tashkil etuvchi qismlarini a, v, s, d bilan belgilagan holda, og`ishishning a miqdorini – A planetasi, v miqdorini – V planetasi, s miqdorini – S planetasi ta’siri bilan bog`lasak, unda d miqdori «Qandaydir noma’lum X planetasi mavjud bo`lib, ana shuning ta’sirida vujudga kelsa kerak», degan xulosani hosil qiluvchi muxokamaning amalga oshayotganini ko`ramiz.

Uning formulasi quyidagicha buladi:

AVS lar a, v, s, d larni keltirib chiqaradi.

V a ni keltirib chiqaradi.

V v ni keltirib chiqaradi.

S s ni keltirib chiqaradi.

Ehtimol, qanday X mavjud bo`lib, u d ni keltirib chiqarayotgan bo`lsa kerak.

Demak, qoldiqlar metodi moxiyatini shunday ifodalash mumkin: *agar o`rganilayotgan murakkab hodisani tashkil etuvchi hodisaning (yoki hodisaning qismining) bitta holatdan boshqa holatlar bilan aloqasi zaruriy xarakterga ega bo`lmasa, ana shu qoldiq holat mazkur hodisaning (hodisa qismining) sababi bo`lishi mumkin.*

Ilmiy induktsiyaning boshqa metodlari singari, qoldiqlar metodi ham extimoliy bilim olish vositasi hisoblanadi. CHiqariliyotgan xulosaning chin bo`lish ehtimoli, birinchidan, hodisadan avval kelib, unga ta’sir o`tkazayotgan holatlar haqidagi bilimning qay darajada bo`lishi, ikkinchidan, har bir xolat bilan vujudga kelayotgan murakkab hodisa o`rtasidagi aloqadorlik zaruriy xarakterga ega ekanligiga aniq ishonch hosil qilish, uchunchidan, konkret xar bir xolat bilan u sababi bo`lib hisoblanayotgan hodisa qisman o`rtasidagi aloqadorlikning ta’sodifiy emasligini aniqlash va shu kabi omillarni hisobga olgan xolda ortadi.

SHunday qilib, sababiy aloqadorlikni aniqlashning biz ko`rib chiqqan induktiv metodlari o`z mantiqiy strukturasiga ko`ra etarli darajadagi murakkab muxokama yuritish usullari bo`lib, ularda induktiv umumlashtirish deduktiv xulosa chiqarish ishtiroqida amalga oshadi. Xususan, deduktiv tasodifiy holatlarni muxokama jarayonidan chiqarib tashlash (eliminatsiya qilish) yo`li bilan (ayiruvchi – qat’iy sillogizmning tollendo ponens modusi asosida) induktiv umumlashtirish yo`nalishini belgilashga, uning xulosasining asoslanganlik, ishonchlilik darajasining ortishiga xizmat qiladi.

U tuliksiz induktsiyaning aloxida bir turi bo`lib, ilmiy induktsiya singari, xulosa chikarishda eliminatsiya kilish usuliga, yani keraksiz xolatlarni muxokamadan chikarib tashlash yo`li bilan kerakli xolatlarni ajratib olishga asoslanadi. U ommoviy tusga ega, keng kulamda sodir b¢ladigan xodisalarni o`rganishda kulaniladi. Masalan, u iktsodiy rivojlanish kursatgichlarini o`rganish, tuglish va ulish xakidagi ma’lumotlarni tuplash, taxlil klish va shu kabi xollarda muvaffakiyatli kulaniladi.

Analogiya (grek. – moslik, o`xshashlik) bevosita xulosa chikarishning bir turidir. Deduktiv xulosa chikarishda fikr umumiylikdan xususiylikka karab, induktsiyada

xususiylikdan umumiylikka karab xarakatlansa, analogiyada esa bir xususiy xolatdan boshka xususiy xolatga larab xarakatlanadi.

Analogiyada peredmendlarning uxshash xossalariga asoslanib xulosa chikariladi. Tabiat va jamiyatda ob’ektiv turli-tumanlik bilan bir katorda, ob’ektiv uxshashlik xam mavjuddir. Ular inson ongida uz ifodasini topadi. Ob’ektiv raellikning utrli soxalarga oid konun va koidalar tuzulishi jixatidan uxshash bulsa, ular aks ettirgan vokealikdan turli narsa va xodisalar xam ma’lum ma’noda uxshash b¢ladi.

Analogiya b¢yicha xulosa chikarish ob’ektiv reallikning cheksiz kurinishlari xamda unda mavjud bo`lgan turli sistemalarning xossalari, munosabatlari strukturalaridagi uxshashliklarga asoslanadi. Masalan, sayyoralar, davlvtlar, ijtimoiy tuzumlar moxiyatida uxshashlik bor. Bilishda muxim va nomuxim xossalar uxshashligi asosida analogiya b¢yicha xulosa chikariladi.

Analogiya vositasida bir predmetdan (modeldan) boshka predmetga (prototipga) axborat o`tkaziladi. Xulosa asoslari modelga, xulosa prototipga taallukli b¢ladi. Masalan, kadimgi greklarning «Dedal va Ikar» afsonasida aytilishicha, ota va bola kullikdan ozod bo`lishi uchun o`zlariga kanot yasashadi va uchib ketishadi. Bunda xulosa chiarish kuyidagi kurinishda b¢ladi:

Kush tirik mavjudod, uning kanoti bor, u uchadi.

Inson xam tirik mavjudod, uning kanoti yo`k, u uchmaydi.

Insonning xam kanoti bulsa, u, extimol uchadi.

Analogiya b¢yicha xulosa chikarish boshka xulosa chikarishlar kabi asoslardan, xulosadan va asoslar o`rtasidagi mantiqiy alokadan iboratdir. Uning xulosasi extimoliy shaklda bo`lib, keyingi tekshirishlrni talab kiladi. Anik asoslardan ba’zan anik, ba’zan extimoliy xulosa chikadi.

Analogiya uzining ob’ektiv asosiga ega. Bular perdmentlar, ularnning xossalari o`rtasidagi alokalar va munosabatlardir.

Modeldan prototipga utkazilayotgan axborotning tabiatiga kura analogiyaning ikki turi farklanadi: xususiyatlar analogiyasi va munosabatlar analogiyasi.

Xususiyatlar analogiyasida ikki yakka predmetyoki bir turdagi ikki predmetlar sinfi uxshash belgilariga kura uzaro takkoslanadi. Uxshash belgilarga asoslanib, birida mavjud bo`lgan belgining boshkasida xam bo`lishi mumkinligi xakida xulosa chikariladi. Masalan, Er va Kuyosh kator muxim xossalariga kura uxshashdir, ya’ni ular bir sayyoralar tizimiga kiruvchi osmon jismlaridir, ikkisi xam xarakatda, kimyoviy tarkibi xam uxshash. Ana shu uxshashliklarga asoslanib olimlar Kuyoshda topilgan yangi element-geliy Erda xam bulsa kerak, degan xulosaga kelganlar. Analogiya yo`li bilan chikarilgan bu zulosaning chinligi kup utmay tasdiklandi – Erda xam geliy elementi topildi.

Bu misolda ikki predmetning uxshashligi asoslanib, birida mavjud bo`lgan belgining brshkasida xam borligi xakida xulosa chikarildi. Uxshatilayotgan predmetlarni A va V xarflari bilan, belgilarni a, v, s, xarflari orkali ifodalash mumkin: analogiyasini kuyidagi formula orkali ifodalash mumkin:

A predmeti a, v, s, d belgilarga ega

V predmeti a, v, s, belgilarga ega

Extimol, V predmeti d belgiga egadir.

Bu formula analogiya b¢yicha xulosa chikarishning tipik sxemasidir. Unda bir predmet xakidagi bilim unga o`xshash boshka predmet xakidagi bilimdan xulosa shaklida keltirib chikariladi.

Munosabatlar analogiyasida ikki yakka predmet, yoki bir turdagi ikki predmetlar sinfi o`rtasidagi munosabatlarning uxshashligiga asoslanadi. Ikki turdagi (a R b) va (m R n) munasabatlarni takkoslasak, a-m ga, b-n ga o`xshash emas, lekin ular o`rtasidagi R-R munosabatlarning o`xshashligi bizga xulosa chikarish imkonini beradi. Masalan, I. Kepler planetalar xarakatining konunini ochganda, samoviy jismlarning uzaro tortishish kuchini insonlar o`rtasidagi muxabbatga takkoslaydi, shu asosda astronomiyaga tortishish kuchi tushunchasini kiritadi. Munasabatlar analogiyasining formulasi kuyidagicha:

$$F \quad \frac{a\ R\ b}{m\ R_1\ n}$$

Munasabatlar analogiyasida ikki predmetlar uxshashligi xakida emas, ikki predmet o`rtasidagi munabatni o`rganish asosida boshka ikki predmet o`rtasidagi munosabat xakidagi xulosa chikariladi.

Analogiyaning turlariga ajratganda xulosaning aniklik darajasiga xam e’tibor beriladi. SHu jixatdan analogiyani ak’tiy (anik), ka’tiy bulmagan nщanik va xato analogiyaga ajratamiz. Kat’iy analogiyaning uziga xos xususiyati shundaki, kuchiralayotgan va uxshatilayotgan belgilar o`rtasidagi aloka zaruriy b¢ladi. Anik fanlarda, mobellashtirishda fikr kat’iy analogiya shaklida yuritiladi.

Ijtimoyi, tarixiy vokealarnio`rganishda va aink, tabii fanlarda ilmiy tadkikod ishalri olib borilganda fikr yuritish kat’iy bulmagan analogiya tarzida b¢ladi. Masalan, Nemiz olimi SHpenglerning takitlashicha tabiat xam tirik organizmlar kabi turtta rivojlanish boskichini bosib utadi. Bular: paydo bulish, rivojlanish, etuklik davri va emrilish davri.

Agar yolgon xukmni nol bilan chin xukumni bir bilan xulosani extimollik darajasi P(a) belgilasak kat’iy analogiyada R(a)=1 kat’iy bulmagan analogiyada 1>R(a)>0 b¢ladi.

Analogiya buiyicha chikariladigan xulosaning chinlik darajasi oshirish uchun, ya’ni xulosani chin bo`lishi extimolini oshirish uchun ma’lum shartlarga rioya kilish zarur. Bularkuyidagilardan iborat:

1. Takkoslanayotgan pretmetlarning imkoni boricha kuprok uxshash belgilari aniklanishi lozim. SHunda xulosaning chinlik darajasi, chin xulosa chikarish imkoni ortadi.

2. Takkoslanayotgan predmetlarning uxshash belgilar predmetlar uchun muxmi belgilar bo`lishi kerak. SHunda xulasa chin fikrga yakinlashadi.

3. Takkoslanayotgan predmetlarning kuchirilayotgan belgisi bilan boshka belgilari zaruriy alakoda bo`lishi kerak. SHunda xulosaning ishonarli, anik bulish shartlari bajarilgan b¢ladi.

4. Takkoslanayotgan predmetlarning kuchirilayotgan belgisi bilan uxshash belgilari bir tipda bo`lishi kerak.

5. Taqqoslanayotgan predmetlarning fikr kiluvchi belgilarining mikdori kam bo`lishi va bu belgilar zaruriy, muxim bulmasligi shart. Agar predmetlar muxim, zaruriy belgilari bilan bir-yuiridan fark kilsa, analogiyaning xulosasi xato b¢ladi.

YUqoridagi qoidalarning yolgon analogiyaga, ya’ni xato xulosa chikishiga sabab b¢ladi. YOlgon analogiyada xulosaning chin bo`lishi extimoli nolga teng: R(a)=0. Bilish jarayonida bilib yoki bilmasdan yolgon analogiyaga yo`l kuyiladi. Turli xil ilmlarga ishonish (masalan, tuz tukilsa janjal b¢ladi va xakazo) yolgon analogiyaga yakkol misol

b¢ladi.

Badiiy adabiyotdan xalk ogzaki ijodidan analogiyaning barcha turlariga kuplab misolar kekltirish mumkin. Masalan, «yigit suzidan yo`lbars izidan kayitmas» makoli.

Analogiyaning xulosalari boshka xulosa chikarish turlari kabi bilish metodi sifatida muim axamiyatga eagdir. Bilish jarayoni ob'ektiv raellikdagi predmet va xodisalarning tashki va ichki xossalarini Takkoslash ularning uzvy alakasini aniklashdan boshlanadi. Analogiyada takkoslash asosida uxshash, umumiy xususiyatlar aniklanadi, predmetlar va xodisalar xakidagi bilimlar chukurlashadi va konkeretlashadi. Tabiy va ijtimoyi fanlarda analogiya turli xodisalar xakida xar xil farazlarni ya'ni gipotezalarni xosil kilish va bayon etish usuli sifatida xizmat kilidi. Ma'ulmki juda kup konun-koidalar daslad gipotezp shaklida bayon kilingan bo`lib, unda unda xulosa chikarish analogiya tarzida amalga oshirilgan. Ikki predmet va xodisani takkoslash , ularning uxshash tamonlarini aniklash yangi bilim xosil kilish imkonini beradi. Analogiyadan inson bilimini kengaytirish vositasi sifatida keng foydalaniladi.

Uning xossalari anik, extimoldan xoli bo`lganda, isbotlash jarayonida ishlatiladi.

Analogiya modellashtirish metodining mantiqiy asosini tashkil etadi. Modellashtirishda (konkret yoki abstrakt) ob'ektlar modellarda, ya'ni shartli obrazlar, sxemalar, ob'ektning kichraytirilgan nusxalarida tadkik etiladi.

Ma'lum sabablarga kura tekshirilayotgan ob'ektni tabiy sharoitlarda o`rganish kiyin bo`lganda yoki mumkin bulmaganda

Ma'lum sabablarga kura tekshirilayotgan ob'ektni tabiiy sharoitlarda o`rganish kiyin bo`lganda yoki mumkin bo`lganda modellashtirishdan foydalaniladi. Bu o`z navbatida bilish jarayonini yangillashtiradi.

1. Tabiiy modellar-o`rganilayotgan ob'ekt bilan bir turda b¢ladi va undan fakat ulchamlari, jarayonlarining tezligi va ba'zi xollarda yasalgan materiali bilan fark kiladi.
2. Matematik modellar-prototiv (asl nusxa) dan jismoniy tuzilishi bilan fark kiladi. Lekin prototiv bilan bir xil matematik tasvirga ega b¢ladi.
3. Mantiqiy matematik modellar-belgilaridan iborat bo`lib abstrakt model xisoblanadi va tafakkur jarayonini o`rganish kullaniladi.

Modellarning bu turlaridan aloxida- aloxida va birgalikda foydalaniladi.

Sungi vaktlarda modellashtirish kupincha kompyuter vositasida amalga oshirilmokda. Masalan, yangi avtomadilning modeli kompyuterda yasalib, uning ulchamlari, turli afsalliklari matematik modellashtirish vositasida aniklanadi.

Kat'iy bulmagan analogiyada uxshash bo`lgan va kuchirilayotgan belgi o`rtasidagi zaruriy alako extimollik darajasiga ega b¢ladi.

Asosiy tushunchalar

Tushuncha, tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, mavxumlashtirish, tushuncha turlari, tushuncha mazmuni, tariflash, xukm, modallik, deduktsiya, sillogizm, induktsiya, analogiya.

Takrorlash uchun savollar

1. Tafakkur shakllari haqida gapirib bering?

2. Tushuncha hosil bo`lishning mantiqiy usullarini sanang?
3. Oddiy hukm haqida nimalarni bilasiz?
4. Murakkab xukm va uning turlarini tushuntiring?
5. Xulosa chiqarish va uning turlari haqida gapirib bering?

Adabiyotlar.

1. O`zbekiston Reslublikasining Konstitutsiyasi.—T.: O`zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1 - T.: O`zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. — T.:O`zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.Z. -T.: O`zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yulidan. T.4. -T.: O`zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. YAngicha fikrlash va ishlash — davr talabi. T.5. -T.: O`zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lidan. T.6-T.: "O`zbekiston", 1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qulimiz bilan yaratamiz. T.7. -T.: O`zbekiston, 1999.
9. Karimov. I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8. — T.: O`zbekiston, 2000.
10. Voyshvillo E.K. Simvolicheskaya logika: klassicheskaya i relevantnaya. -M.: Izd-vo MGU, 1989.
11. Voyshvillo E.K. Ponyatie kak forma mgshleniya. -M.: Izd-vo MGU, 1989.
12. YOqubovT. Matematiklogaka elementlari. — T.: "O`qituvchi", 1983.
13. Ivlev YU.V. Logika. Uchebnik dlya vuzov. -M.: "Logos", 1998.
14. Kondakov N.I. Logicheskiy slovar-spravochnik. -M., 1976.
15. Kurbatov V.I. Logika. Rostov-na-Donu. "Feniks", 1997.
16. Raximov I. Logakadan amaliiy mashg`ulsolar va metodik tavsiyalar. -T.: "O`zbekiston", 1988.
17. M.Xayrullaev, M. Haqberdiev. Mantiq, -T.: "O`qituvchi", 1993.
18. SHaripov M. , Fayzixo`jaeva D. Mantiq. Ma’ruzalar matni. -T., 2000.
19. M. SHaripov, D. Fayzixo`jaeva Mantiq T., 2004.
20. M. Safarbaev, B. Jumaniyozov, Mantiq, T. 2007.

Katta o`qituvchi Jumaniyozov B.

12. Ma’ruza. Mavzu: Dalillash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari (2 soat)

Reja:

1. Dalillash va ishonch – e’tiqodning shakllanish jarayoni
2. Isbotlash va rad etish tushunchalari
3.Muammo va uning bilishdagi ahamiyati
4. Nazariya bilimlarning mantiqiy tizimi sifatida

1. Dalillash va ishonch – e’tiqodning shakllanish jarayoni

Vatanimiz ¡zbekistonning gullab yashnashi , barkaror , mustaxkam bo`lishi ma’lum bir darajada yoshlarning ongi bilimli komil inson bulishlariga boglik. Bu xakda prezidentimiz I.A. Karimov shunday deb ta’kidlagan: "Komil inson deganda biz avvalo ongi yuksak, mustakil fikrlay oladigan bilimni ma’rifatli kishilarni tushunamiz . Ongli bilimli odamlarni oldi kochdi gaplar bilan aldab bulmaydi. U xar bir narsani akl mantiq tarozisiga solib kuradi. Uz fikr uyi xulosasini mantiq asosida kurgan kishi etuk odam b¢ladi."

CHukur taxlilga mantiqka asoslanmagan bir yoklama fikr odamlarni chalgitadi. Fakat baxs munozara taxlilga asoslanga t¢g`ri xulosalargina xakikatni bilishga yo`l ochadi.

Baxs munozara yuritishni, chin fikrlarni isbotlay bilishni xato fikrlarni rad etishning uziga xos konu-koidalari mavjud. Bu koidalarni bilish xar bir insonga shu jumladan talabalarga chin fikrni xato fikrdan ajrata bilish t¢g`ri tafakkurlash madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Mantiq ilmida isbotlash va dalillash tushunchalari uzaro farklanadi. Dalillash deb, biror fikr, muloxazani eki muloxazalar tizimini vokelikka bevosita murojaat kilish yo`li bilan (tuzatish,tajriba ekspriment va xokazo asosida) yoki chinligi avvaldan tasdiklangan boshka muloxazalar erdamida asoslab berishga aytiladi. Dalillash bevosta eki vositali b¢ladi. Bevosita dalillash xissiy bilishga ya’ni kurish tajriba ekspriment orkali amalga oshiriladi. Vositali dalillash esa, chinligi avvaldan tasdiklangan boshka muloxazalarga asoslanadi va xulosa chikarish kurinishida namoen b¢ladi. Dalillashning birinchi usuli empirik,ikkinchi usuli nazariy bilimlarga asoslanadi. Nazariy va empirik bilimlarning chegarasi nisbiy bo`lganligi kabi, dalillashning yukoridagi ikki usulga ajratilishi xam nisbiydir.

Dalillashning xususiy kurinishi mantiqiy isbotlashdir. Mantiqiy isbotlash deb, biror fikr, muloxazaning chinligini, chinligi avvaldan tasdiklangan boshka muloxazalar orkali asoslashga aytiladi. Isbotlashdan maksad-biror fikrning chinligini aniklash bulsa dalillashdan maksad xam fikrning chinligini aniklash, uning axamiyatini va muayyan faoliyat uchun kullash mumkinligini asoslashdir. Isbotlash jarayonida kullanadigan chin muloxazalar (asoslar)berilgan fikrning chinligini tasdiklash uchun xizmat kilsa, dalillash,bundan tashkari dalillanaetgan fikrning boshka shu kabi fikirlardan afzalrok ekanligini asoslash uchun xam xizmat kiladi. Dalillash uchun keltirilgan argumentlar (asoslar) isbotlash uchun keltirilgan argumentlarga nisbatan rang-barang b¢ladi. Dalillash shakllari bilan isbotlash shakllari bir-biriga aynan mos tushmaydi.

Isbotlash xulosa chikarish kurinishida amlga oshadi. Dalillash ko`prok suxbat (dialog) ko`rinishida bo`lib, uning ishtirokchilarida xar biri o`z fikrining chinligini isbotlashga, rakibining fikrini rad etishga va tinglovchilarning uzini xam fikr kilishga,uz fikrlariga ishontirishga xarakat kiladi.

Dalillash jaraenida ritsipientlarga (lot-kabul kiluvchi)-tinglovchilarga biror fikrning t¢g`ri eki xatoligi asoslab beriladi va ularda shu fikrga nisbatan ishonch tuygusi shakillantiradi. Dalillovchi shaxsning suz sa'natini kay darajada egallaganligi, ya'ni notiklik maxorati tinglovchilarda ishonch-e'tikodning shakillanishida muxim rol o`ynaydi.

Faktlar va boshka dalillarga tayanib yuritiladigan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega b¢ladi,kishilarda ishonch-e'tikodni shakllantiradi. Bilishning maksadi ilmiy asosga ega bo`lgan e'tikodni yaratishdan iborat. Dalillash va isbotlash ishonch-e'tikodni shakllantirish vositasidir.

Ishonch-etikod bu kishilarning xulk-atvari va xatti-xarakatini belgilab beradigan karashlari va tasavvurlaridir.

2. Isbotlash va rad etish tushunchalari

Kishilarning amaliy faoliyatdagi muvaffakiyatlari ular kullaetgan bilimlarning kay darajada chin bo`lishiga, yani bu bilimlarning vokelikni kanchalik t¢g`ri aks ettirishga boglik. Xato fikrlar predmetlarning real alokalari va munosibatlarini buzub kursatadi, bilishda kup chalkashliklarga olib keladi.SHuning uchun xam bilish jaraenida xar bir fikrni t¢g`ri kurishga erishish, uning chinligini dalillar bilan kursata olish, xato fikrlarni esa rad kila bilish muxum axamiyatga ega.

Fikrning chinligini tasdiklash uchun uni xodisaning (faktning) o`zi bilan solishtirish mumkin. Lekin kup xollarda bilish jaraenida natijalarining chinligi ularni ilgari vujudga kelgan bilimlar bilan boglash orkali aniklanadi. Buni amalga oshirishning mantiqiy usulii isbotlashdir.

Isbotlash bir xukmning chinligini u bilan boglangan boshka chin xukmlar erdamida asoslashdan iborat bo`lgan mantiqiy amaldir. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli-demonstrantsiya.

Tezis-chinligi asoslanishi lozim bo`lgan xukm u isbotlashning markaziy figurasi xisoblanadi:butun dikkat-etibor uning chinligini kursatishga karatiladi.Tezis bir muloxazaning uzidan, eki muloxazalar tizimidan,eki teoremalardan, eki anik faktlarni umumlashtirish natijalaridan eki xodisalarning sababini ko`rsatuvchi muloxazalardan va shu kabilardan iborat b¢ladi.

Argumentlar-tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan xukmlar. Arlumentlar bo`lib faktlarni kayd kiluvchi xukmlar, tariflar, aksiomalar, teoremalar, qonunlar xamda boshka emperik va nazariy umumlashmalar xizmat kiladi.Argument sifatida keltirilgan faktlar,albatta, o`zaro boglangan va tezisning moxiyatiga alokador bo`lishi lozim.

Tariflar xam chin xukmlar bo`lib, ulardan argumentsifatida foydalanish mumkin. Masalan, "Xarakat - bu xar qanday o`zgirishdan iborat " degan tarif-chin xukmdir.

Aksiomalar chinligi o`z-o`zidan ravshan bo`lgan, isbotlashni talab kilmaydigan fikrlardir. Inson tajribasida kup martalab takrorlanganligi uchun xam ularni isbotlash zarur emas.

Teoremalar va konunlarning chinligi isbotlangan b¢ladi, ularni xech ikkilanmasdan argument qilib olish mumkin.

Isbotlash usuli-demonstrantsiya tezis bilan argumentlar o`rtasidagi mantiqiy alokaddan iborat. U xulosa chikarish shaklida b¢ladi, yani tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chikariladi.

Isbotlashning ikki turi mavjud:bevosita isbotlash,bavosita isbotlash. Bevosita isbotlashda tezisning chinligi t¢g`ridan t¢g`ri argementlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo`lgan xukmlardan foydalanilmaydi. Tezis ko`p xollarda yakka xodisani ifoda qilib keladi va malum bir umumiy bilimdan,masalan konundan, argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan "¡zbekiston - mustakil davlatdir" degan xukm (tezis)ning chinligi" ¡zbekistonning mustakil davlat deb elon kilinishi,uning xalkaro mikesda etirof etilishi" kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bavosita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bo`lgan kimning (antezisning) xatoligini kursatish orkali asoslanadi.Antitezisning qanday shaklda ifodalangan bo`lishiga karab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash fark kilinadi.Apagogik isbotlashda tezis (a) va antitezis (a-) o`rtasidagi munosibatga asoslanadi.

Masalan "Materiya xarakatsiz mavjud emas" degan xukmning chinligini asoslash uchun unga zid bo`lgan " Materiya xarakatsiz mavjud " degan xukm olinadi.

Apogogik isbotlashda antitezis topilib (1-boskich), vaktincha chin deb kabul kilinadi va undan malum bir natijalar keltirilib chikariladi (2-boskich), so`ngra bu natijalarning xatoligi kursatiladi (3-boskich) va demak tezisning chinligi isbotlanadi. Masalan, "Materiya xarakatsiz mavjud " degan xukm chin bulsa" Moddiy predmetlar strukturasiz mavjud " degan fikr (antitezisdan kelib chikkan natija) xam chin b¢ladi.Bizga malumki moddik predmentlar strukturasiz (uni tashkil kiluvchi elementlar va ularning uzaro alokasiz) mavjud emas.demak " Materiya xaraktsiz mavjud " degan fikr xato,shu tarika " Materiya xarakatsiz mavjud emas " degan fikrning chinligi asoslanadi.

Ayiruvchi isbotlashda tezis sof ayiruvchi xukmning (kuchli diz’yunktsiyaning) bir azosi bo`lib,uning chinligi boshka azolarining (antitezisning) xatoligini kursatish orkali asoslanadi.Masalan " jinoyatni yo A,yo V, yo S shaxslar sodir etgan " degan fikr tekshirilib," Jinoyatni V shaxs xam, S shaxs xam sodir etmaganligi aniklanadi va shu tarika " Jinoyatni A shaxs sodir kilgan " degan xukmning chinligi asoslanadi.Bu misolda ayiruvchi isbotlash ayiruvchi-katiy sillogizmning inkor etib-tasdiklovchi modusi b¢yicha kurilgan:

$$\frac{a \vee b \vee c;\ b \vee c}{a}$$

Barcha mukobil variantlar tulik olingandagina xulosa chin b¢ladi,yani tezis isbotlanadi.

Raddiya-isbotni buzishga karatilgan mantiqiy amaldir.

Birorta fikrning chinligini rad etish unga zid bo`lgan fikrning xatoligini kursatishdan iborat bo`lganligi uchun, raddiyani isbotlashning xususiy kurinishi, deb xisoblash mumkin. Raddiya xam isbotlash kabi tezis (rad kilinishi lozim bo`lgan xukm), argementlar (tezisni rad kiluvchi xukmlar) va demonstratsiyadan (rad etish usuli) dan tashkil topgan b¢ladi.Raddiya birorta masalani muxokama kilish yani baxs6munozara jaraenida uchraydi. Baxs katnashchilaridan biri malum bir tezisni ilgari surib,uni ximoya kilsa (proponent), boshkasi unga karshi chikadi (opponent). Xal kilinmagan,munozarali masalalar b¢yicha olib boriladigan baxslar polemika kolmay, balki tankidiy analiz xam kilinadi.

Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

1) tezisni rad etish:

2) argumentlarni rad etish:

3) demonstratsiyani rad etish.

1.Tezisni rad etish

Tezisni rad etishning kuyidagi usullari mavjud:

1.Faktlar orkali rad etish.Bu eng ishonchli va samarali usuldir.bunda bo`lib utgan vokealarga,statistik malumotlarga asoslanib tezis rad etiladi.Masalan: "Sovet davrida ¡zbekiston mustaikl respublika bo`lgan" degan tezisni rad etish,yani uning not¢g`ri ekanligini isbotlash uchun tarixiy faktlarga asoslanamiz.Usha davrda respublika raxbariyati birorta muxum masalani Moskvaning ruxsatsiz xal kila olmaganligiga dalillar keltirib, tezisni rad etamiz.

2. Tezisdan kelib chikadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) kursatish orkali rad etish. Bunda tezisdan kelib chikadigan natijalarning chin emasligini asoslab beriladi. Bu usul "bemanilikka olib kelish", deb ataladi. Rad etilaetgan tezis vaktincha chin deb tan olinadi,undan kelib chikadigan natijalar aniklanib, bu natijalarning xakikatga zid,not¢g`ri ekanligi isbotlanadi.CHin asosdan xato natija kelib chikmaydi, aks xolda bu bemanilik b¢ladi. "Bemanilikka olib kelish " usulining formulasi kuyidagicha:

(a→b) →-((a→b) → a)

3. Tezisni antitezisni isbotlash orkali rad etish. Rad etilaetgantezisga zid bo`lgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchisi istisno konuniga muvofik antitezisning chinlgidan tezisning xatoligi keltirib chikariladi. Masalan, Prizidentimiz I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q " nomli makolasida "Amir Temur buyuk sarkarda bo`lgan va yozuvliklar kilgan " degan tezisni shunday rad etadi: "Inson bir paytning o`zida xam bunyodkor xam yovuz bo`lishi mumkin emas. Ne-ne madrasayu-masjidlar, oliy koshonalarni ko`rgan, ne-ne olimu fuzalolarning boshini silagan, kuroni karimni yod bilgan inson yovuz bo`lmaydi. Konxur odam "Kuch-adolatda" deyishi mumkinmi?"

Darxakikat Soxibkiron Amir Temur xomiyligida uning ko`rsatmasiga binoan yaratilgan bog`lar, kurilgan imoratlar uning bunedkor shaxs ekanligini yakkol isbotlaydi.

II. Argumentlarni rad etish.

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tankid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun etarli emasligi aniklanadi.

Argumentlarning xatoligi tezisning xam xato ekanligini isbotlamaydi,bunda tezis chin bo`lishi xam mumkin:

r ┐ g, r
extimol, q

Argumentlarni rad etish orkali tezisning isbotlanmaganligi asoslab beriladi.

III. Isbotlash usulini tankid kilish orkali rad etish.

Rad etishning bu usulida isbotlashda yo`l qo`yilgan xatolar aniklanadi. Bunda rad etilayotgan tezis chinligini, uning asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chikmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo`l qo`yilgan xato aniklanganda tezis rad etilmaydi, uni kayta isbotlash talab kilinadi.

Rad etishning yukorida ko`rsatilgan usullari ko`pincha birgalikda bir-birini to`ldirilgan xolda qo`llaniladi.

1. Tezis mantiqan anik va ravshan bo`lishi kerak. Bu koida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o`zining anik predmetiga ega bo`lmay koladi, uni amalga oshrishga urinish bexuda ish xisoblanadi.

2. Tezis isbotlash yoki rad etishning boshidan oxirigacha o`zgartirmasligi kerak.Bu qoida buzilsa " tezisni almashtirish " degan xato kelib chikadi.

Argumentlarga nisbatan koidalar:

1. Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin xukmlar bo`lishi va bir-biriga zid bulmasligi lozim.

2. Argumentlar tezisni asoslash uchun etarli bo`lishi kerak.

3. Argumentlar tezisdan mustakil xolda chinligi isbotlangan xukmlar bo`lishi lozim. Isbotlash usilining koidasi:

1. Tezis argumetlardan mantiqiy tarzda kelib chikadigan xulosa bo`lishi lozim.Buning uchun isbotlash eki rad etishda xulosa chikarish koidalariga rioya kilish zarur. Isbotlash va rad etish koidalarining buzilishi mantiqiy xatolarga olib keladi. Bu xatoliklar uch turga bulinadi:

1. Isbotlanaetgan tezisga alokador xatoliklar

1. Tezisni almashtirish.Tezis isbotlash eki rad etish davomida uzgarmasligi shart,degan koidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab b¢ladi.Tezis ataylab eki bilmasdan boshka tezis bilan almashtiriladi va bu yangi tezis isbotlanadi eki rad etiladi. Tezis mazmunining toraytirilishi eki kengaytirilishi xam baxs jaraenida tezisninguzgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz tarakkiyoti uchun milliy mafkura,milliy goyaning axamiyati t¢g`risidagi tezisni isbotlash davomidaumuman jamiyatga mafkura kerakmi eki yukmi,degan masalani isbot etishga xarakat kilinsa,unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezis almashinadi.

2. Insonning shaxsiy sifatini baxona qilib tezisni almashtirish.Baxs jaraenida mavzudan chetga chikib,opponetning shaxsiy,ijtimoiy xaeti,yaxshi fazilatlari eki kamchiliklari xususida fikr yuritib,shu asosda tezisni isbotlangan eki rad etilgan deb takidlash tezisning almashinishiga sabab b¢ladi. Bunday xatoga ataylab yo`l kuyiladi.Tinglovchilarning xis-tuygulariga tasir kilish orkali isbotlanmagan tezisning chin deb kabul kilinishiga urinish xam tezisni almashtirish xisoblanadi.

3. Ortikcha eki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi.Fikr ortikcha isbotlansa,berilgan tezis urniga undan kuchlirok tezisni isbotlashga xarakat kilinadi.Agar A xodisadan V kelib chiksa6lekin V xodisadan A kelib chikmasa,unda A xodisani ifodalovchi tezis V xodisani ifodalovchi tezisdan kuchlirok b¢ladi. masalan," a shaxs birinchi bo`lib janjalni boshlamagan " tezis ( V ) urniga," A shaxs umuman janjal bo`lgan erda yuk edi " degan tezisni (A) isbotlashga xarakat kilinadi.Ikkinchi tezisni isbotlab bulmaydi, chunki A shaxsning janjalda katnashganligini kurgan guvoxlar bor.

II. Argument (asos) larga taallukli xatolar.

1. Asoslarning xatoligi.Tezis isbotlanganda eki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida ataylab yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yo`l kuyiladi.Masalan, Kadimgi grek faylasufi Foles uz talimotini xamma narsa suvdan paydo bo`lgan,degan fikrga asoslanib yaratgan.

2. Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato.Tezis isbotlangan argumentlarga asoslansa,bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi,balki tezisning chinligi taxminlanadi,xolos.

3. "Aylanma isbot etish" deb nomlanuvchi xato. tezisning chinligi argumentlar orkali,argumentlarning chinligi tezis orkali isbotlansa mantiqiy xatoga yo`l kuyiladi.Masalan, "Suzning kudrati fikr bilan ulchanadi" degan tezisni "Fikrning kudrati suz bilan ulchanadi" deb isbotlasak, yukorida aytilgan xatoga yo`l qo`yiladi.

Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan bog`liq xatolar.

1. "YOlgon (soxta) isbotlash ".Agar tezis uni isbotlash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chikmasa, mantiqiy xatoga yo`l qo`yiladi. Bunda tezisga alokador bulmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan," A shaxs yomon odam" degan tezis "Tunda yomon odamlargina ko`chada yuradi ", " A SHaxs ko`chada tunda yuribdi " degan argumentlar bilan asoslansa, fikr yuzaki (soxta) isbotlangan b¢ladi.

2. SHartlangan fikrdan, shartlanmagan fikrga o`tish. Muayyan vaqt, munosabat doirasida chin bo`lgan (shartlangan) fikrni, doimiy, o`zgarmas chin fikr deb qabul kilish natijasida mantiqiy xatoga yo`l qo`yiladi.

3. Xulosa chikarish qoidalarining bo`zilishi bilan bog`liq bo`lgan xatolar:

A) deduktiv xulosa chikarishda uchrashi mumkin bo`lgan mantiqiy xatolar. Bu xaqida deduktiv xulosa chikarish mavzusida batafsil malumot berilgan.

B) induktiv xulosa chikarishda uchrashi mumkin bo`lgan mantiqiy xatolar. Ular "shoshib umumlashtirish" va "undan keyin, demak shuning uchun" ataluvchi xatoliklardir. Masalan, bir-ikki talabaning darsga masuliyatsizlik bilan munosibatda bo`lishini umumlashtirib, " xamma talabalar masuliyatsiz ", deb takidlash xatodir.

V) Analogiyada uchrashi mumkin bo`lgan mantiqiy xatolar. Bular " YOlg`on anologiya " bilan bog`liq xatolardir. Unda tasodifiy belgi zaruriy deb olinishi, fakat birgina o`xshash belgiga asoslanishi yoki mutloqo taqqoslab bo`lmaydigan xodisalar o`zaro taqqoslanishi natijasida fikrda chalkashliklar yuzaga keladi.

Isbot yoki rad etishda tezis bilan bog`liq bo`lgan xatoliklar uch xil bo`ladi.

a) Tezisni almashtirish.

Bu xato isbot etish uchun oldin belgilangan tezisni boshqa bir tezis bilan almashtirganda yaqqol ko`rinadi. Bunday xato xususan tezisning noaniqligidan paydo bo`ladi. masalan, umuman agar biz millatning kelib chiqishini isbot etishni o`z oldimizga maqsad qilib qo`ygan bo`lsak va isbot etish paytida o`zbek millati yoki boshqa bir konkrekt millatning kelib chiqishini isbot etishga urunsak, unda biz xaqiqatan ham tezisni almashtirgan bo`lamiz.

b) Insonning shaxsiy sifatini bahona qilib, tezisni almashtirish.

Bunday vaqtda mazkur shaxs olg`a surgan tezis ustida muxokama yuritish o`rniga, umuman u shaxsning o`tmishda xizmati katta ekanligini, u juda ko`p xizmat qilganligini e’tirof etib, tezisni isbotlamoqchi bo`ladilar. Ba’zan, aksincha mazkur shaxsning o`ziga xos xususiyatlarini, kamchiligini baxona qilib, unga qarshi asossiz muloxazalarni bayon etishga urinadilar.

v) Kimki xaddan tashqari isbot etishga urunsa, u hech narsani isbot eta olmaydi. Bunday xato tezisni isbot etish o`rniga, unga zid bo`lgan xato muloxazani bayon etiladi. Masalan, bir kishi “tushuncha aynan xukmning o`zi emas” degan fikrni isbot etish o`rniga “tushuncha xukm bilan bog`langan emas” degan tezisni isbot etishga urinadi, deylik. Lekin bunday tezisni isbot etish mumkin emas. CHunki bu tezis (tushuncha hukm bilan bog`langan emas) xatodir. Demak, bu shaxs o`zining bu xato muloxazasi bilan “tushuncha aynan hukmning o`zi emas” degan tezisni umuman isbot eta olmaydi.

Isbot yoki rad etishda asos yoki argument bilan bog`liq bo`lgan xatoliklar uch xil bo`ladi.

a) Argument yoki asosning xatoligi.

Bunga misol sifatida mustaqillik tufayli qo`lga kiritilgan demokratiyani qoralash uchun ayrim shaxslarning demokratiyani qattiq intizom va qonuniyat, tartibga zid qo`yishlarini misol qilish mumkin. Bu demokratiyani noto`g`ri tushunishning natijasidir.

b) Aylanma isbot etish xatosi.

Aylanma isbot etish deb o`z mazmuni bilan tezisga mos bo`lgan asos orqali tezisni isbot etishga aytiladi. Mantiq ilmida bunday shakldagi xatoni “buni bu orqali isbot etish” deb aytiladi. Aylanma isbot etish usulini qo`llovchilar sofistik xatoga yo`l qo`yadilar. Masalan, Ahmedov shahmatchi, chunki u shaxmatni yaxshi o`ynaydi; hamda Ahmedov shaxmatni yaxshi o`ynaydi, chunki u shaxmatchi.

v) Asosni oldin taxminlash shaklidagi xato.

Asosni oldin taxminlash shaklidagi xato shunday iboratki, bunda hammadan oldin chinligi tezisning chinligiga bog`liq bo`lgan asos olinadi, yani agar tezisning chinligi isbot etilgan bo`lsa, unda asos ham chin bo`ladi.

3. Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan bog`liq xatolar.

Isbot yoki rad etishda – demonstratsiyada uchraydigan xatolik – terminlarni to`rtlashtirish deb ataladi. Bunday shakldagi xato ham deduktiv xulosa chiqarish, xususan sillogizm qoidalarini buzishdan kelib chiqadi. Ma’lumki, har bir sillogizm uch termindan iborat bo`lmog`i lozim. Terminlarni to`rtlashtiruvchilar sillogizmning yuqorida bayon etilgan qoidasiga rioya qilmaydilar.

4. Xulosa chiqarish qoidalarining buzilishi bilan bog`liq xatolar.

A) deduktiv xulosa chikarishda uchrashi mumkin bo`lgan mantiqiy xatolar. Bu xaqida deduktiv xulosa chikarish mavzusida batafsil malumot berilgan.

B) induktiv xulosa chikarishda uchrashi mumkin bo`lgan mantiqiy xatolar. Ular "shoshib umumlashtirish" va "undan keyin, demak shuning uchun" ataluvchi xatoliklardir. Masalan, bir-ikki talabaning darsga masuliyatsizlik bilan munosibatda bo`lishini umumlashtirib, " xamma talabalar masuliyatsiz ", deb takidlash xatodir.

V) Analogiyada uchrashi mumkin bo`lgan mantiqiy xatolar. Bular " YOlg`on anologiya " bilan bog`liq xatolardir. Unda tasodifiy belgi zaruriy deb olinishi, fakat birgina o`xshash belgiga asoslanishi yoki mutloqo taqqoslab bo`lmaydigan xodisalar o`zaro taqqoslanishi natijasida fikrda chalkashliklar yuzaga keladi.

Mantiqiy xatolar tafakkur qonunlarini buzish, xulosa chiqarish qoidalariga amal qilmaslik natijasida yuzaga keladi. Mantiq tarixida isbotlash jarayonida ataylab (qasddan) xatoga yo`l qo`yuvchilar sofistlar deb, ularning talimoti esa sofizm (grek-ayyorlik) deb ataladi. Fikr yuritish jarayonida bilmasdan mantiqiy xatoga yo`l qo`yilsa parologizm deyiladi.CHinligini xam, xatoligini xam birday isbotlash mumkin bo`lgan fikrlar esa paradoks deb ataladi.

5. Munozara bahstalab masalalarni muhokama etish va hal qilish metodi sifatida.

Ilmiy munozara – diskussiya hozirda ilmiy masalalarni hal etish, ilmiy

muammolarni to`g`ri echish, istalgan haqiqatni aniqlash, qo`yilgan ilmiy tezisni isbotlashning eng muhim usulidir.

Ma’lumki, har bir fanda biror bir yangi qoida, nazariya, haqiqiy ilmiy fikr birdaniga va osonlik bilan vujudga kelmaydi. Uning isbotlanishi qiyinchilik va qator bosqichlardan o`tish, isbot – dalillarning topila borishi, ularning tajribada bir necha bor sinab ko`rilishi kabi murakkab jarayonni o`z ichiga oladi. SHunday jarayonning eng muhim bosqislaridan biri ilmiy munozaradir. Ilmiy munozara, uning doirasi, kengligi – fanda, intellektual hayot soxasida ijod erkinligi mavjudligini ifodalaydi. Ijod erkinligi, fikrlar erkinligisiz, ilm – fan, umuman ma’naviy madaniyatning rivojlanishi mumkin emasdir.

6. Munozara qilish qoidalari.

Baxs yuritish sanati (eristika) o`ziga xos konun-qoidalariga amal qilishni talab etadi. Bularga asosan quyidagilar kiradi:

-zaruriyatsiz baxslashmaslik:

-mavzusiz baxs yuritmaslik va baxs davomida mavzudan chetga chikmaslik yoki mavzuni o`zgartirmaslik.

-baxs mavzusi yuzasidan o`zaro zid yoki qarama-qarshi fikrlar bo`lmasa, baxsni to`xtatish:

-mavzuni yaxshi biladigan, aqlli odamlar bilangina baxslashish:

-baxs yuritishda mantiqiy qonun-qoidalarga amal qilish, o`zining va muxolifining fikrlaridan xulosa chikara olish, mantiqiy ziddiyatlarni aniklash va bartaraf etish, asoslar t¢g`ri bo`lsa, isbotlashning xam t¢g`riligini etirof etish va x.k.

-bir baxs doirasida baxslashish usullarini aralashtirib yubormaslik.

Argumentlashning mantiqiy asoslarini bilish va baxs yuritish qoidalariga amal kilish tafakkur madaniyatini yuqori darajada ko`tarish imkonini beradi.

3.Muammo va uning bilishdagi ahamiyati

Bilishning maqsadi qayd qilingan xodisalarning moxiyatini tushuntirishdan iborat. Buni xamma vakt xam mavjud tasavvurlar, printsiplar yordamida amalga oshirib bo`lmaydi. Bilish jarayonida ma’lum bir ziddiyatlar, birinchi navbatda, mavjud bilimlarimizning erishgan darajasi bilan yangi bilish vazifalarini xal qilish zaruriyati o`rtasida ziddiyat kelib chiqadi, muammoli vaziyat paydo b¢ladi. Bunday ziddiyatlar, ayniqsa, kundalik xayotimizda murakkab vzifalarni xal qilishda, fanda esa, tub burilishlar davrida yaqqol namoyon b¢ladi. Mana shunday vaziyat, masalan, tabiyatshunoslikda XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida radioktiv xodisaning qayd qilinishi, elektronining kashf etilishi, nurlanishning quvant xarakterga egaligining asoslanishi va shu kabi kashfiyotlar natijasida vujudga kelgan. Uning moxiyatini tabiyatshunoslikning birinchi navbatda, fizikaning mavjud konunlari va printsiplarining yangi kayd kilingan xodisalarni tushintirish uchun etarli emasligida, deb bilmok zarur.

SHuni xam aytish kerakki, ilmiy bilishda muammoli vaziyatni fan taraqqiyotining ichki extiyolari xam kiltirib chikarishi mumkin. Masalan, xozirgi paytda fanda sinergetika g`oyalari va metodlarini tushintirish, matematikada aksiomatikaninig imkoniyatlari va qo`llanish soxalarini aniklash boglik bo`lgan vazifalarni xal kilish zaruriyati yangi

vaziyatni yaratadi.

Demak, muammoli vaziyat mavjud ilmiy tasavvurlar bilan kayd kilingan yangi faktlar o`rtasida ziddiyatlar paydo bo`lishi yoki ana shu ilmiy tasavvurlarning uzining etarli darajadia sistema solinmaganligi, yaxlit bir ta’limot sifatida asoslanmaganligi natijasidir. Mana shundan kelib chikib, muammoli vaziyat bulish tarakkiyotining turli boskichlari va buginlarida olam va uni bilish xakidagi mavjud tasavvurlarni, bilish metodi va vositalarini uzgartirishning ob’ektiv zaruriyatidan iborat, deyish mumkin.

Ilmiy muammoni kuyish va xal qilish.

Muammoli vaziyatni taxlil kilish yangi muammoni qo`yishga olib keladi.

Muammo – javobi bevosita mavjud bilimda bo`lmagan va echish usuli noma’lum bo`lgan savoldir.

SHuning uchun xam muammoni qo`yish va xal kilish mavjud bilimlar doirasidan chetga chikishni, yangicha esish usuli, metodlarini kidirishni takoza etadi. Qanday muammolarni ilgari surishni, uni muxokama kilishning xarakterini amaliy faoliyatimiz va bilishimiz extiyojlari belgilab beradi.

Muammoni muvaffakiyatli xal kilishning zarur shartlaridan biri uni t¢g`ri kuyish va anik bayon kilishdan iborat. T¢g`ri quyilgan savol, V. Geyzenberg aytkanidek, muammoni echishning yarmidan ko`proqini tashkil etadi.

Muammoni t¢g`ri kuyish uchun muammoli vaziyatni anik tasavvur kilishning o`zi etarli emas. Buning uchun muammoni xal kilishning turli xil usullari va vositalarini xam oldindan ko`ra bilish kerak.

Muammolarni kuyishda kishilarning xayotiy tajribasi, bilimlari va talanti muxim axamiyatga ega b¢ladi. SHuning uchun xam, odatda ko`p xollarda yangi muammolar ilmiy bilishning u yoki bu soxasining yirik mutaxassislari, boy tajribaga ega va chukur bilimli olimlari tomonidan ilgari suriladi xamda ular ba’zan o`zoq yillar dovomida tadkik qilinadi. Buni masalan, milliy g`oya va milliy mafkurani yaratish muammosining quyilishi va tadkik etilishi misolida ko`rish mumkin. Jaxon tajribasiga murojat kilsak «millatning mafkurasi bir emas, bilki bir nechta avlodning umri davomida ishlab chiqilishi va takomiliga erushuviga guvox bo`lishimiz mumkin».

Uni shakllantirish uchun kuchli istedod va «yorkin tafakkur» ga ega bo`lgan Konfutsiy, Maxatma Gandi, Farobiy, Baxouddin Nakshband kabi buyuk zotlar saxmat chekkanlar.

Xozirgi paytda esa, prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganidek, «milliy g`oya, milliy mafkurani ishlab chikish, uni shakllantirish uchun xar qaysi millatning eng ilgor vakillari, kerak bulsa mutafakkirlari, ziyolilari mexnat qilishi lozim ».

Muammoli vaziyatni analiz qilishga turli xil munosabatda yondashish mumkin bo`lganligi uchun xam xal kilinishi lozim bo`lgan vazifa turli xil muammolar tarzida bayon qilinishi mumkin. Bunda ba’zi muammolar asosiy vazifani ifoda kilsa ba’zilari bu vazifaning ayrim tomonlarini aks ettiradi va shuning uchun xam juziy xarakterga ega b¢ladi. Ko`p xollarda bir-bir bilan bog`lanib ketgan mana shunday juziy muammolar xal kilingandan keyingina asosiy muammoni aniqroq bayon qilish va echish imkoniyati vujudga keladi.

Muammolarni t¢g`ri kuyish va bayon kilish ularni echishdan kam axamiyatga ega emas. Muammoni t¢g`ri kuyish uchun uning ilmiy bilish tarakkiyotida tutgan urni va xamiyatini t¢g`ri baxolash, uni xal qilishning metodlarini topish zarur. Bu amalda

kuyilishi mumkin bo`lgan turli xil muammolar ichidan eng muximi va t¢g`risini tanlab olishni bildiradi. Muammoni tanlash ma’lum darajada tatqiqotning umumiy yunalishini va xususiyatlarini belgilab beradi.

Oxir –oqibatda qaysi muammoni quyish amaliy faoliyatimiz extiyojlar iga boglik. CHunki fakat amaliy faoliyatdagina kishilarning extiyojlari va maksadlari bilan ularni xal kilish vositalari o`rtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon b¢ladi, ilmiy izlanish predmeti aniklanadi va shu asosida bilish asosda bilish oldiga konkret vazifalar qo`yiladi.

Ilmiy muammo, odatda, ma’lum bir nazariya doirasida vujudga keladi (nazariya xakida ma’ruzaning oxirida kengrok ma’lumot beriladi).

Nazariya keyinchalik ilgari surilishi mumkin bo`lgan mu’ammoni umumiy xolda belgilashga va uni t¢g`ri tanlashga yordam beradi. SHuningdek, xar bir muammo ma’lum bir nazariya yordamida xal kilinadi. Ba’zi xollarda esa, muammo mavjud nazariyani modifikatsiya kilishni, muammoni echishga moslashtirishni talab qiladi.

Muammoni echish uchun dastlabki tayyorgarlik ishlar kilinadi. Ular quyudagilardan iborat:

A) mavjud nazariyalar doirasida tushuntirib bo`lmaydigan fakt va xodisalarni aniklash;

B) muammoni xal qilish g`oyalari va metodlarini taxlil qilish va ularga baxo berish;

V) muammoni xal kilish, tipini, maksadini, olingan natijani tekshirish yo`llarini belgilash;

G) muammoning negizi bilan uni echish uchun ilgari surilgan goyalar o`rtasidagi alokaning xususiyatlarini ko`rsatish;

Bu dastlabki ishlar amalga oshirilib bo`lgandan keyin muammoni echishga bevosita kirishiladi.

SHuni aloxida kayd qilib o`tish kerakki, muammoning echilishi nisbiy xarakterga ega. Boshqacha aytganda, muammoningmutlak to`la echimini topish qiyin. CHunki o`rganilayotgan xodisaning barcha tomonlarini qamrab olib bo`lmaydi. SHuning uchun xam ilmiy izlanish davomida yangi muammolar vujudga kelishi mumkin bo`lib, u mavjud muammoni boshqacha talin kilishni takozo etadi. Bunga misol qilib I.Nyuton tomonidan jismlarning o`zaro tortishishi mumkin muammosining kuyilishini ko`rsatish mumkin. Butun olam tortishish konunini kashf qilib u fakat tortishuvchi jismlar o`rtasidagi mikdoriy alokalarnigina topganligini, uqtirib o`tgan edi.

A. Enshteynning nisbiylik nazariyasi jismlarning o`zaro tortishishi muammosini boshqacha talqin qiladi va bu muammo xakidlagi tasavvurlarimizni ma’lum bir darajada kengaytiradi.

Ba’zi xollarda muammolarning echimini uzoq vaktgacha topib bo`lmaydi. Masalan, raq kasalining sababini o`rganish bilan bog`liq mumamo xozirgacha to`la xal bo`lmagan.

Bu, albatta, ayrim muammolar echimiga ega emas, degan fikrni bildirmaydi balki ularni mavjud metodlar, vositalar yordamida echib bo`lmaslikni ko`rsatadi, xolos va shu tarika echishning yangi vositadlarini qidirib topishga undaydi. Demak, muammo xal qilinguncha ilmiy izlanish davom etadi.

Muammoni zal etish jarayonida ma’lum bir gipotezalar ilgari suriladi va asoslanadi.

Gipoteza –o`rganilayotgan xodisaning sabablari va xususiyatlarini tushintiradigan asosli taxmin tarzida bilim shaklidir.

Gipotezani, avvlambor, bilimlarning mavjud bo`lim shakli sifatida olib karash zarur.

CHin, ishonchli bilimlar xosil bo`lgunga qadar kuyilgan muammolar, masalalar

xakidagi fikr muloxazalar kuzatish, ekesperiment natijalarini taxlil kilish va umumlashtirishga asoslangan bo`lib ular turli xil taxminlar farazlar shaklida ko`riladi va mavjud b¢ladi.

Masalan, Levkipp va Demokritning jismlarning atomlardan tashkil topganligi xakidagi bildirgan fikrlari dastlab gipotetik shaklda bo`lib, eng oddiy, kundalik tajribada minglab marta kuzatiladigan xodisalar: kattik jismning suyuklikga aylanishi, xidning tarkalishi va shu kabilarni taxlil kilishga asoslangan, ularning sababini tushintirishga karatilgan. «Jismlar mayda, bo`linmas zarrachalardan tashkil topmaganda bunday xodisalar bo`lmas edi»,

Degan fikr uzining ma’lum bir mantiqiy kuchiga ega.

Xodisaning sababi xakidagi fikr dastlab, odatda gipoteza shaklida vujudga keladi va shu ma’noda u bilimlarning mavjd bo`lishining umumiy mantiqiy shakllaridan biri xisoblanadi.

Gipotezani ko`rish, o`rganilayotgan xodisani tushntiradaigantaxminiy fikrlarni ilgari surishdan iborat b¢ladi. U kayd etilgan faktlar, ular uchun xarakterli bo`lgankonuniyatlar xakidagi xukmlar (muloxazalar) yoki xukmlar sistemasi tarzida b¢ladi. Uni ifoda kiluvchi asosiy gap muloxazalar sistemasini xosil kiluvchi element, deb xisoblanadi.Ana shu gap (muloxza)da, odatda gipotezaning bosh g`oyasi aks etadi. Muxokama jarayoni uning negizida, atrofida ko`riladi va ma’lum bir Ishchi gipotezalar vaktincha ko`riladigan, mo`ljalni t¢g`ri olishga yordam beradigan taxminlarning ilgari surilishiga, ular yordamida xodisaning yanada chuqurroq tadqiq kilinishiga olib keladi.

Gipotezalarning ilgari surishning asosiy mantiqiy vositasi extimoliy xulosa chikarish: anologiya,tuliksiz induktsiya, turli kurinishdagi extimoliy sillogizmlar eng kamida bitta qoidasi buzilgan, asoslaridan biri extimoliy xukm bo`lgan sillogizmlar(shartli, ayiruvchi-kat’iy, shartli ayiruvchi sillogizmlar shakllarida) xisoblanadi.

SHuningdek, gipoteza ba’zi xollarda kat’iy xulosa chikarish shakllarida xamda turli xil xulosa chikarish usullarining ko`p kavatli mantiqiy qurilmasi tarzida xam shakllantirilishi mumkin.

Umumiy gipoteza deb tabiat, jamiat, bilish xodisalarining konuniyatlari xakida bildirilgan asosli taxminga aytiladi. Bunga misol qilib neftning kelib chikishining organik va noorgani tabiati xakidagi gipotezalarni, erda xayotning paydo bo`lishi, ongning kelib chikishi, ijtimoiy protsess xakidagi farazlarni ko`rsatish mumkin. Umumiy gipotezalar borlikning muxim konuniyatlarini ochishga imkon bergani uchun, ilmiy nazariyani» kurish materiallari» deb xisoblanadi.

Isbotlangach, bunday gipotezalar nazariyalarga aylanadilar va ilmiy tadkikotlarning strategik yo`nalishlarini belgilab beradilar.

Juz’iy (xususiy)gipoteza ayrim faktlar, konkret predmet va xodisalarning kelib chikishi, xususiyatlari xakidagi bildirilgan asosli taxminiy fikrdan iborat. Konkret jinoyatning motivi xakidagi sud versiyasi, arxeologik kazishlarda topilgan predmetlarning tabiati, qaysi davrlarga oyid ekanligi xakidagi taxminlar juz’iy gipotezaga misol b¢ladi.

Mantiqda, yukorida zikr etib o`tilganidek, ishchi gipotezalar xam farq qilinadi.

Ishchi gipoteza - tadkikotning dastlabki boskichida ilgari suriladigan boskich bo`lib, o`z oldiga urganilayotgan xodisaning sababini aniklashni sabab qilib qo`ymaydi; ufakat kuzatish va eksperiment natijalarini tasvirlashga, tartibga solishga yordam beradi.

SHunday qilib, gipoteza fikrlarimizning kurilishi, bilimlarimizning mavjud bulish va rivojlanish shaklidir.

Gipoteza ilgari suriladigan muloxaza empirik materiallarni taxlil kilish, qayta ishlash, tartibga keltirish umumiylashtirish,talkin etish natijasida paydo b¢ladi. Ana shuning uchun xam gipoteza-bu xar qanday taxmin emas, balki ma’lum bir darajada asoslangan, o`zining muayyan mantiqiy kuchiga ega muloxaza, farazdir.

Gipoteza kurishning murakkab mantiqiy jarayon ekanligini kuyidagi misol tasdiklaydi. Issiklik dvigatellari nazariyasi asoschilaridan biri frantsuz injineri Sadi Karno birinchi bo`lib, fakat issiklikning kattikrok kizigan jismlar sovukrok jismga utishidagina foydali ish vujudga kelishi, va aksincha,issiklikni sovuk jismdan kizdirilgan jismga berish uchun ish sarflanishi zarur, degan fikrni ilgari surgan. Ayni paytda Karno shu davrda keng tarkalgan, issiklikning namoyon bulish sababi uning tarkibida aloxida vaznsiz suyuklik-teplorodning bo`lishidir,degan fikrga tayanuvchi teplorod kontseptsiyasini xam t¢g`ri, deb xisoblagan. Teplorodni suvga, (temperaturalar)o`rtasidagi farkni-suv darajasiga kiyos qilib, Karno, xuddi suv darajasining pastga tushishida ish suv ogirligining uning darajalari o`rtasidagi farkga bo`linishi bilan o`lchangani kabi, bug` mashinasida ish ishchi moddaning (suv, spirt va boshkalar) tabiatda kat’iy nazar, teplorod mikdorining xaroratlar (temperaturalar) farqiga bo`linishi bilan o`lchanadi, degan xulosaga keldi.

Issiklik mashinasining ish xajining (mikdorining) isitgich va sovutgich xaroratlarining qiymatlariga bog`liqligini anglatardi. «Karno printsipi» keyinchalik termodinamikaning ikkinchi konunining yaratilishiga asos bo`lgan. Keltirilgan misolda Sadi karnoning gipotezani ilgari surishda analogiyaga asoslanganligini poykab olish kiyin emas. Ilgari surilgan gipoteza, albatta, asoslanishi zarur. Bu boskichda gipotezadan ma’lum bir natijalar keltirib chikariladi va ular verifikatsiya kilinadi, ya’ni ularning mavjud faktlarga (eki boshka ishonchli bilimlarga) muvofikligi aniklanadi. Bu erda shuni unutmaslik lozimki, gipotezani ishonchli, chin bilimga aylantirish uchun unda ilgari surilgan fikrlarga etarli asos bula oladigan mikdordagi natijalar (gipotezaning asosiy goyasidan kelib chikadigan) iygindisi verifikatsiya kilinishi kerak. Gipotezaning chinligini asoslashning boshka usullari xam mavjud:

1) Gipotezani deduktiv yo`l bilan chinligi avval isbotlangan bilimlardan mantiqan keltirib chikarish; 2)asosiy ishonchli bilim bo`lmasa, uni tasdiklash (bu ko`prok asoslari extimoliy xukm bo`lgan sillogizmlar vositasida quyilgan gipotezalarga tegishli) ; 3) gipotezalarning asoslarini ishonchli ilm olish uchun etarli bo`lgan mikdorga etkazish (bu gipoteza tuliksiz induktsiya vositasida qurilgan xollarga tegishli).

Gipotezani tasdiklashni qanday kechishini tasavvur kilish uchun kuydagi misolga murojat kilamiz.

Termodinamika asoschilaridan biri nemis fizigi Klauzius yukorida biz kayd etib utgan «Karno printsipi»ni unga kilingan kup xujumlardan ximoya kilgan. Bu printsipni tasdiklash maksadida, uni chinligi intuitiv ravishda mukarrar deb xisoblangan postulatdan deduktiv yo`l bilan keltirib chikaradi. Bu postulatga muvofik, issiklik o`z xolicha sovukrok jismdan issikrok jismga o`ta olmaydi.

Bu erda urg`u aynan ana shu «majburan» o`tish xam (sovutish kurilmalarida, aralashmalarda va boshkalarda) mavjud bo`lib, u muayyan kompensatsiya kiluvchi (o`rnini koplovchi) xolatning yuzaga kelishi bilan birgalikda kechadi.

Gipoteza rad kilinishi xam mumkin. U gipotezadan kelib chikadigan natijalarni falsifikatsiya kilish, ya’ni ularning borlikdagi xodisalarning mavjud xolatiga, faktlar xakidagi ma’lumotlarga nomuvofikligini kursatish yo`li bilan aniklanadi .Mazkur matikiy jarayon shartli-kat’iy sillogizmning inkor modusi tarzida kechadi, ya’ni natijaning xatoligini kursatishga utiladi .Uning simvolik ifodasi quydagicha

((N →R)^┐R)→ ┐N

Gipotezaning natijalarinitopa olmaslik, garchi bu gipotezaning mavkeini ancha pasaytirsada, lekin uni rad eta olmaydi. Gipotezani chinligi undan kelib chikadigan natijalarga zid bo`lgan xolatlar aniklangandagina uzil-kesil rad etiladi. Masalan, Ptolomeyning erning xarakatlanmaydigan markaz ekanligi xakidagi gipotezasi Korpernikning geliotsentrik nazariyasi asoslanadigan faktlarga zid kelganidan keyin rad etildi.

SHuni aloxida ta’kidlash zarurki, o`rganilayotgan xodisaxakida bir vaktning o`zida bir qancha gipotezalar ilgari surilishi mumkin. Masalan, xozirgi paytgacha kushlar uchayotganda t¢g`ri yo`lni qanday topa olishini mavjud gipotezalardan xech biri tushuntirib bera olmagan. Ularda turli xil fikrlar bildirilgan: kushlarni ba’zilar magnit maydoniga, boshkalar Kuyoshga, yulduzlarga karab mo`ljal olishadi, deb xisoblashgan. Ukraina olimlari esa 1980-yillarning ikkinchi yarmida qushlar o`z xarakati marshrutlarini erning gravitatsiya maydoniga asoslanib, shu marshrut davomida ogirlik kuchining uzgarishini «xisoblab» belgilashadi, degan fikrni bildirganlar .Lekin xozirgacha ularning birortasi uzil-kesil tasdiklanmagan xam, rad etilmagan xam Gipoteza tasdiklanmaguncha uzining bilishdagi axamiyatini yo`qotmaydi. Rad etilsa, o`rniga boshka gipoteza quriladi va bu xol to gipotezalardan birortasi tasdiklanmaguncha davom etadi.

Ilgari surilayotgan gipotezalar turli xil darajada umumlashgan bo`lishi mumkin. Ana shunga muvofik xolda umumiy va juz’iy gipotezalarni ajratish mumkin.

4. Nazariya bilimlarning mantiqiy tizimi sifatida

«Nazariya» termini keng manoda aqliy bilish, tafakkurni anglatadi, uni amaliyotdan fark kiluvchi faoliyat turi sifatida ifodalaydi. Tor ma’noda esa, nazariya ma’lum bir soxaga oyid tasavvurlar, tushunchalar, goyalar, gipotezalarni sistemaga soladigan, predmetni ratsional tarizda anglashga imkon beradigan bilim shaklini bildiradi.

Nazariyaning bunday talkini ilmiy bilishda empirik va nazariy boskichlarning fark kilinishi bilan bog`lik.

Empirik boskichda ilmiy faktlar to`planadi, o`rganiladi, sistemaga solinib, turli xil jadvallar, sxemalar grafiklar tuziladi; muayyan bir umumlashmalar, xususan, empirik tushinchalar, farazlar, empirik konunlar shakllanadi..

Ilmiy bilishning keyingi tarakkiyoti empirik bilish boskichida xosil kilingan, lekin bir-biri bilan bo`lgan alokasi xali aniklanmagan bilimlar o`rtasida munosabatlarni urnatish, ularni umumlashtirish, shu asosda yangi fundamintal tushunchalar, umumiy konunlarini yaratish, ilmiy bashoratlar kilish bilan uzliy boglik.

Bilishning bu ikki boskchi o`rtasida zaruriy alokadorlik mavjud. Xususan, nazariyani yaratish empirik bilish jarayonida xosil kilingan predmetning ayrim tomonlari, xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, konunlar, farazlar o`rtasida mantiqiy alokalarni urnatishga, predmet xakida yaxlit tasavvurn xosil kilishga, uning moxiyatini tushintirishga

bo`lgan extiyoj bilan belgilanadi.

Nazariya – ma’lum bir predmet soxasiga oid tushunchalar, konunlar, gipotezalar, goyalarni sistemaga solib u xakida yaxlit tasavvur xosil kiladigan, yangi fundamental umumlashmalar yaratishga olib keladigan, shu soxadagi xodisalarni tushuntirish, oldindan kurish imkonini beradigan ishonchli bilimdan iborat.

Ilmiy nazariya kuyidagi tarkibiy kismlardan tashkil topadi: 1) emperik asos: nazariyaga alokador faktlar, ularga mantiqiy ishlov berish natijalari; 2) boshlangich nazariy asos: nazariyaning asosiy tushunchalari, postulotlari (aksiomalari), fundamental konunlar (printsiplar); 3) nazariyaning mantiqiy apporati: tushunchalarni xosil kilish va ta’riflash koidalari, xulosa chikarish (isbotlash) koidalari; 4) olingan natijalar (xulosalar).

Ilmiy nazariya oxir - oqibatda real sistemani ob’ektni aks ettiradi, uning tabiatini tushuntiradi va shu ma’noda emperik asosiga ega. Lekin emperik asosining mavjudligi nazariyaning barcha tushunchalari ifoda etadigan predmet va belgilarning xissiy idrok kilinishi yoki nazariyaning barcha xollarda mavjud xodisalarni, ularning real xususiyatlari va munosabatlarini aks ettirishni anglatmaydi.

Nazariyada bolik, asosan, modellar yordamida ideallashgan xolda in’ikos kilinadi. Ideallashtirish jarayonida mavjud ob’ektlar xakidagi empirik bilimga tayangan xolda, xakikatda mavjud bulmagan va bazan mavjud bo`lishi mumkin xam bo`lmagan, lekin real mavjud predmetlarga ma’lum bir munosabatda uxshash ob’ktlar xakidagi tushunchalar xosil kilinadi. Masalan, mexanika echimini kidiradigan kup masalalarni jismning sharkli va ulchamlari (eni, buyi, xajmi va shu kabilar) unchalik muxim axamiyatga ega emas. Ayni bir paytda massa muxim axamiyatga ega va shuning uchun xam massasi bir nuktaga jamlangan xayoliy jism - moddiy nuqta xosil qilinadi.

Barcha real mavjud jismlar shaklga va ulchamlariga ega, moddiy nukta esa ideal ob’kt bo`lib, ba’zi masalalarni echishda real jismlarning urnini bosadi, ularning nazariy bilishdagi ekvivalenti bo`lib xizmat kiladi . Fizikadagi mutlak kattik jism geometriyadagi nukta, tekislik, t¢g`ri chizik va boshka fanlardagi shu kabi ko`p tushunchalar ideal ob’ektlarni ifoda qiladilar.

Ideal ob’ektlar yordamida predmetning xissiy idrok etilmaydigan muxum xususiyatlari, munosabatlari urganiladi. Ular siz nazariy bilish o`z oldiga qo`yadigan maksadiga erisha olmaydi . Nazariy bilishning zaruriy vositasi bo`lganligi uchun ularni ba’zan nazariy obe’ktlar deb xam atashadi.

Nazariya ideal xarakteriga ega bo`lgan tushunchalar, muloxazalar sistemasidan-kontseptual sistemadan iborat bo`lib, u real ob’ektning nazariya modelini ifoda kiladi. Masalan, mexanikadagi boshka sistemalar tasiridan ajratib kuyilib, yopik sistemalar tarzida fikr kilanidan mexanik sistema tushunchasi real ob’ktning nazariy modeli xisoblanadi. Uning yordamida real mavjud bo`lgan mexanik sistemaning xarakat qonunlari o`rganiladi.

Nazariy modelning ideal zarakteriga ega bo`lgan ob’ektlari, ularni aks ettiruvchi tushunchalar o`rtasidagi aloqadorlik nazariyaning fundamental konunlari, printsiplarda uz ifodasini topadi.

Mazkur konunlar, printsiplar boshlangich tushunchalar va muloxazalar bilan birgalikda nazariyaning kontseptual uzagini tashkil etadi. Massalan, klassik mexanikaning negizini xarakatning uchta konuni xamda ular bilan boglik bo`lgan fazo, massa, vakt, kuch, tezlik, telanish tushunchalari tashkil etadi. Klassik termadinamikaning asosini esa uning uchta muxim konun xosil kiladi. Matematik nazariyaning kontseptual o`zagi

ularning asosiy tushunchalari va aktsiomalarida o`z ifodasini topgan.

SHunday kilib , sakkiz yul bir - birini takazo etuvchi uch omil - bilish, xatti - xarakat va dikkatning birligidan iborat . Bilim va axlok bu urinda yaxlitlikka ega ; fazilat bilimdan (illat esa bilimsizlikdan) kelib chikadi , shu sababdan bilimni fazilatsiz takomillashtirish mumkin emas. Bu axlokiy komillikka etishishning tugallangan kontseptsiyasi "Sochlarining fatilasi , sulolasi yoki zoti tufayli braxman bulmaydi . Kimdaki xakikat va dxamma bulsa, usha baxtli va usha braxman " , deyiladi buddxachilik axlokiy koidalari jamlangan kitobda . SHunday kilib , buddxachilik tomonidan vedalar obrusi, braxmanlarning istisnoli xolati inkor etiladi , jamiyatni varnalarga bulish koralandi . SHubxasiz , bu axlokiy tarakkiyot kurinishlaridan biri edi .Buddxachilik axlokshunosligi nafakat Xindistonda , balki Kadimgi Xitoyda xam uziga xos mavkey egalladi .Lekin u erda yana ikki axlokshunoslik yunalishi katta axamyatga va komrovga ega buldi . Ulardan biri daochilik. Daochilik talimotinig asoschisi Lao -tszi (meloddan avvalgi 6-5 asrlar) yirik nomoyondasi CHjuan-tszi (meloddan avvalgi 369-286 yillar) xisoblanadi. Lao-tszi ga nisbat beriladigan "Dao de tszin" kitobida Daochilikdagi asosiy yunalishlarning moxiyati aks etgan. "Dao-xamma narsadan ustun" , "ildiz" , "Er va osmonning onasi". "dunyoning ilk asosi", "tsi" esa moddiy asos , dao "de" ni - fazilatni undan yaratadi. SHuningdek , "dao" yul manosini xam anglatadi . "Dao de chzin"ni "fazilat yuli" deb atash mumkin . Inson mavjud olam kabi dao konunlari asosida vujudga kelgan , u tabiatning bir kismi , uning vazifasi fazilat (de) yulidan borish xar kanday suniy aralashuv , tabiatning muvofiklik tartibini uzgartirishga intilish - odamlar uchun xalokatli , barcha yovuzliklarning , son sanosiz baxtsizliklarning manbai tabiat joriy etgan konunlardan chekinishdadir . SHu sababli Lao tszi nazdida faoliyat daoga karshi karatilgan va xalkka zarar keltiradi , uning asosiy axlokiy tamoyili "uvey" - faolichtsizlik ; donishmand

kishining "dao" si , bu - kurashsiz faoliyat . Lekin bu xarakat, fakat daoga xos , tabiat konunlariga mos faoliyat .
Ayni paytda , Lao- tszining fikricha , donishmand bilimini oshira borib , uni odamlarga tarkatmaydi , fakat xalkning faravonligi uchun ishlatadi ; "Xalkning bilimi kuchli bulsa , uni boshkarib bulmaydi . Uning emagani totli , kiyimini chiroyli , uy - joyini tinch , xayotini kuvonchli kilish kerak " . Ana ushanda, yani ilm fan tarakkiy etmasa , tsivilizatsiya kirib kelmasa , bir davlat kushni davlatga kuz olaytirmaydi , urush bulmaydi . Xullas, donishmand ibtidoiy davrlarni ideallashtiradi. .
Xulosa kilib aytadigan bulsak , daochilik axlokshunoslikdagi asosiy maksad - odamlarning tabiat kursatgan yulidan borishiga erishish ; tamoyili - faoliyatsizlik ; xalkning baxti - uning urugchilik , kabilachilik munosabatlaridagi tenglik va soddalikka kaytishida; donishmandlarning baxti esa mutadillik; xotirjamlik, tabiatga yakinlikdadir.
Daochilikning asosiy rakibi xisoblanmish konfutsichilik esa kora xalkdan nodonligi uchun jirkanadi , uni axlokiy xayotga nomunosib deb biladi . Zero konfutsichilikning axlokiy ideali tszyun-tszi kimmatli jumard .Uning yuksak fazilatlari- fidoyilik, sofdillik, sadokat , adolat . U muamola bobida muloyim yuksak martabalarga xurmat bilan murojat kiladi , xalkka nisbatan esa ximmatli, adolatli munosabatda buladi .
Konfutsiy ta’limotida asosiy axlokiy konun, asosiy axlokiy tushuncha - jen (insoniylik). "Lun yuy" ("Xikmatlar ") kitobida shunday deyiladi ; "Kimki chin dildan insonni sevishgaintilsa , u yovuzlik kilmaydi ". "Uzinga ep kurmagan narsani uzgaga munosib kurma , shunda davlatda xam , oilada xam uzinga nisbatan yovlik xis kilmaysan " .Demak , jen - xam jamiyat , xam oila a’zolari orasida munosabatlarni belgilaydigan axlokiy tamoyil . U bilan "soya" - ota-onani ,kattalarni xurmat kilish , "li" - urf -odat , marosimlarni ezozlash tushunchalari mustaxkam boglik . Ayni paytda "li" tushunchasining ma’nosi ancha keng , u davlaiga bulgan munosabatni xam uz ichiga oladi . Xokon (imperator) - Osmon ugli , u Osmon ostidagilarning barchasiga ota . Osmon ostidagi tartib koida esa kuyidagicha : "Podsho - podsho , ota-ota , mulozim - mulozim ¢g`il - ¢g`il b¢lishi kerak".
Fazilat egasi bulishning konfutsiychilikda ikki xil yuli anik kuzga tashlanadi : xalk uchun - urf odatlarga suzsiz , uylab utirmasdan buy sunish ; ximmatli jumard uchun esa uzini axlokiy jixatdan takomillashtiria borish va axlokiy burchini ongli ravishda bajarish .
Konfutsiychilikning ximmatli jumard tarbiyasi tizimidagi xikmatlari xozir xam uz axamyatini yukotgan emas . "Ustoz debdi : YU , sen olti illatning olti boskichini bilasanmi ? " TSzin - lu : "Yuk" deb javob beribdi . Ustoz debdi ; "Unday bulsa , utir ,aytib beraman . Insonparvarlikni sevish-u , ilmolishni sevmaslik illat shundaki , bunda inson uz umrini mayda ishlarga sarflaydi , xakikatguylikni sevish -u , ilm olishni sevmaslik illat shundaki, bu- uziga zarar etkazishga olib keladi , tugrilikni sevuish - u , ilm olishni sevmaslik , illat shundaki , bu - kupollikka olib keladi ; mardlikni sevish - u ilm olishni sevmaslik , bu - isyonkorlikka olib keladi , ka’tiylikni sevish - u, ilm olishni sevmaslik , bu boshboshdoklikka olib keladi ".
Konfutsiy karashlarini uning izdoshlari Men - tszi , Syun’tszilar davom ettirdilar . Bu ta’limot Xan’ davridan (miloddan avvalgi II asri) boshlab to XX asrning boshlarigacha Xitoy mafkurasiga asos bulib xizmat xizmat kilib keldi . Bundan tashkari konfutsiylikka karshi turgan Mo - tszi , Xan Fets - tszi ,Van CHun singari axlokshunoslarning karashlari xam Xitoy axlokiy tafakkuri tarixida uz urniga ega.
Kadimgi SHark axlokshunosligi erishgan yutuklar shunchaki tarix bulib kolmadi . Ularni

uzlashtirish natijasida , SHark bilan yakin aloka kilish uchun jugrofiy kulayliklarga ega bulgan Kadimgi YUnonistonning polislarida (shaxar davlatlarida) axlokshunoslik yangi davrga kutarildi . Keyinchalik kadimgi sharkda ilgari surilgan goyalar , kullangan tushunchalar , nazariy - amaliy tajriba bilvosita butun Ovrupa uchun xam axamyat kasb etdi. YUnonlik mutafakkurlar ilk inson shaxsini, inson xatti-xarakatiga asoslanganniyatni tatkik etishga va axlokiy kilmish muommolarini tushuntirishga xarakat kildilar.

Kadimgi yunon axlokshunoslari ilmiy a'nanalarini TSitseron, Lukretsiy Kar, Seneka,. Epiktet, Mark Avreliy, Sekst Empirik singari kadimgi Rumo mutafakkurlari davom ettirdilar.

Tit Lukretsiy Kar(meloddan oldingi 99-44 yillar), Epikur axlokiy ta'limotining izchilximoyachisi sifatida , mashxur "narsalarning tabiati xakida" degan dostonida rux va vujudning ajralmas alokasini ta'kidlaydi, ruxning ulishi tugrisida fikr yuritadi, insoning ulim kurkuvidan xalos bulishida axlokiy ma'no borligini aytib utadi . Ulim kurkuvidan va ma'budlar oldidagi kurkuvdan xalos bulgan kishi baxtli yashashi mumkin, akl- idrok va xis- tuygular sharofati bilan narsalar xakida u xakikiy tasavvurga erishadi.

Lutsey Anney Seneka(miloddan avvalgi 5-milodiy 65 yillar) xam yozuvchi , xam axlokshunos faylasuf. Uning "Gazab xakida ", "SHavkat xakida", "Baxtli xayot xakida" singari axlokshunoslikka doir risolalari kupchilikka ma'lum. Ayniksa "Lutsiliyga axlokiy maktublar" asari mashxur. Senekaning fikriga kura , dunyo moddiy, birok, unda kandaydir jonli ibtido xukmron: uni akl-idrok deymizmi, tabiat, bashorat yoki takdir deymizmi - axamiyati y¢q.

Muximi shuki ,uning yozigi albatda amalga oshadi.Faylasuf fazilatlarning ma'nosini takdirdan rozilikka, uning zarbalariga insoniy kadr kimmatni yukotmay, mardona va chidam bilan bardosh berishda kuradi.U ulimni sovuk, tund, lekin azodalikning kafolati sifatida talkin etadi. Ozodlikni uz- uzini uldirishda kurish, shubxasiz , u yashagan davrning goyatda fojialiligi bilan boglik . Seneka kul bilan ozod kishining ma'naviy tengligini takidlaydi : " ular kullarmi? Yuk, ular sening kullikdagi birodarlaring, negaki sen xam , ular xam takdirning kullarisiz".

Albatta, bu urinda Seneka ishtimoiy tenglikni emas , balki kul bilan kuldorning axlokiy tengligini nazarda tutmokda. Faylasufning aytishicha ,rux ozodligi- shaxs uchun uz-uzini kadrlash va gurur -iftixor manbai. Kimki botiniy ozodlikka erishgan ekan, u takdir kurgiliklariga buy sunmaydi, kismat zarbalarini mardrna kutib olishga tayyor turadi.

YAna bir kadimgi Rumo axlokshunosi ozod kilingan kul Epiktetdir (50-138 yillar atrofida).Uning axlokiy koidalari kuyidagicha : takdir mukarrar:akl-idrok axlokning yagona va ishonchli mezoni; tashki dunyo mabudlar irodasiga ka'tiyan boglik , ichki dunyo insonnig xukmi ostida ; xakikiy donishmandnning erki shundaki , u uziga boglik bulgan narsalarni uziga boglik bulmagan narsalar bilan chalkashtirib yubormaydi, xayotning maksadi va ma'nosi shaxsiy ichki erkinlikni anglash va uni kulga kiritish; unga eltadigan yul bitta - ma'budlar irodasiga suzsiz itoatkorlik, extiyojda mu'tadillik, beparvolik, sovukkon akl bilan ish kurish.

Epiktetning fikriga kura, baxt, xakikiy saodat - fazilatda fazilat esa butunlay insonning ijodidir, zero uni inson shakllantiradi. Faylasuf uzing yoktirmaydigan sharoitni uzgalarga ravo kurma, agar kul bulishni istamasang, atrofingda kullikga y¢l berma, degan fikrni ilgari suradi.

SHunday kilib, Kadimgi Rumo axlokshunoslari xam inson xatti-xarakatlari muammosini

urtaga tashlayda va insonning olamdagi urni xamda xayotning maksadini belgilashga intiladilar. Bunday intilish, ayni paytda, butun Kadimgi dunyoning mumtoz axlokshunoslari oddiy axlok - odob koidalari, pand-ugitlar va xikmatlardan tortib, to axlokshunoslik nazariyasi tizimigacha yaratdilar. Bu meros xanuzgacha uz ta'sir kuchini yukotgani yuk xanuzgacha jaxon axlokshunosligi kup xollarda usha tushunchalar va tamoyillarga yangicha yondashuv asosida tarakkiy etib kelmokda.
SHu urinda yana bir, xozirgacha etarli e'tibor kilmay kelinayotgan masalaga oydinlik kiritishni maksadga muvofik deb uylaymiz. Bu - Kadimgi YUnon tafakkuri bilan urta asrlar musulmon SHarki falsafasining - zususan axlokshunosligining boglikligi masalasi. Nima uchun bizning alloma ajdodlarimiz Kadimgi SHark, jumladan, Xindi-Xitoy mintakasi mutafakkirlari izidan emas, ovropalik yunonlar izidan bordilar, Sukrot va Aflotunni urgandilar, kuklarga kutardilar, Arastuni esa eng ulkan ustoz - birinchi muallim deb atadilar?
Gap shundaki, musulmonchilikning asosi tavxidda - yakka xudolikda. Ollox yagona, uning sherigi yuk va bulishi mumkin emas. Kadimgi YUnon mutafakkurlari aynan ana shu tavxid yulidan bordilar. Birinchi bulib bu masalani Sukrot anik urtaga tashladi. U ulimga maxkum etilganda, unga yunonlar xudolarini xurmat kilmaganligi, yoshlarni boshka yulga (aslida tavxid yuliga) burib yuborgani ayb kilib kuyildi. Sukrotning ulimi oldidagi sungi gapi xam shuni tasdiklab turadi, tsikuta ichgach: "Men Uning (ularning emas! - A.SH) yoniga ketyapman!", deydi u. SHuningdek, Aflotunning goyalar, olamiy rux, emanatsiya xakidagi fikrlari xam tugridan - tugri yakkaxudolik masalasiga borib takaladi. Lekin Sukrot va Aflotun tovxidni falsafiy - nazariy nuktai nazardan isbotlashni uz oldiga vazifa kilib kuymadilar, bunga urinmadilar. Bu ishni Arastu uddaladi.U uzining mashxur "Mteafizika" asarida Xudoning yakkaligi jismsiz, xech narsa tomonidan xarakatga kelmaydigan, aksincha, birinchi xarakatga keltiruvchi kuch ekanini nazariy isbotlab berdi. Uni "Oliy shakl" (forma) deb ataydi. Arastu talikinida Xudo olam va barcha olamiy jarayonlarni maksadi xisoblanadi, u, yukorida keltirganimizdek, Oliy tafakkur, tafakkur xakidagi tafakkurdir.
¡rta asrlar, musulmon SHarki mutafakkirlarining Kadimgi YUnon tafakuriga, xususan, axlokshunosligiga ulkan e'tiborining, taklidining asl sababi ana shunda.

4. Turkiston ma'rifatchi – jadidlarining ahlokiy qarashlari

Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tamonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu mustamlakachilik moxiyatini Turkiston ulkasi general - gubernatorlaridan biri A.N. Kuropatkinning uz kundaliklarida, biz Turkiston xalklarini yarim asr mobaynida jaxon madaniyati va tsvilizatsiyasidan chetda tutib turdik, degan suzlari yakkol anglatadi. Lekin, ayni paytda, rus tarakkiyparvar ziyolilari orkali rus va jaxon ilm-fani va madaniyati xam chor ma'muriyati tusiklari orasidan sizib kirar edi. SHu ijobiy ta'sir asta-sekinlik bilan mazlum Turkistonda yangi uygonish davrini boshlab berdi. Maxalliy ziyolilar orasida uz xalkini ozod kurishga va jaxonning boshka millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chikishga intilish natijasida bu Uygonish Ovrupa ma'rifatchiligiga nisbatan juda shiddatkor xamda mikyosli buldi. SHuningdek, urta asrlar urtaga tashlagan ma'rifatparvarlik goyalari uchun xam endilikda amaliy shakllarda yangicha-ma'rifatchilik tarzida namoyon bulish imkoniyati

yaratildi. Zero usha goyalarni yangilangan shakllarda amalga oshira oladigan faoliyatli ziyolilar vujudga kelgan edi. Ularni keyinchalik jadidlar deb atay boshladilar.

Ma’rifatchilik asosan uch soxa orkali tezkor tarzda tarakkiy topib bordi. Bular-maorif (yangicha maktablar ochish, ta’lim usulini yangilash), san’at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Pirovard maksad millatni, bir tomondan, ilmli-ma’rifatli kilish bulsa, ikkinchi tomondan, uning axlokiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jixatning uygunlashuvi natijasida uzligini, uz kadrini angnlagan bilimli shaxsni voyaga etkazish edi. Turkiston ma’rifatchilari tomonidan ana shu maksadning amalga oshirish yulida katta ishlar kilindi.

Turkiston ma’rifatchiligining dastlabki boskichlarida axlokiy goyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda uz aksini topdi.shu jixatdan uzbek va tojik xalklarining mutafakkurlari Axmad Donishning (1827-1897) "Navodir ul-vakoe" asari dikkatga sazovor. Axmad Donish uz asarlarida Buxoro amirligi davlat tuzumini Rossiya davlat tuzumi bilan solishtirib, uni islox kilish lozimligini ta’kidlaydi. Ayni paytda, an’anaviy axlokiy tushunchalar bilan fikr yuritar ekan, u adolatni xam podsho - xukmdor shaxsiga, xam davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib karaydi. Agar xukmdor adolatli siyosat yurgizsa, mamlakat xayotining xamma soxasi uchun adolatni mezon kilib olsa, san’atning gullab yashnashiga yul ochib bersa-xalk xayotifarovon buladi,fazilatlar kuchayib, illatlar zaiflashadi. U xukmdor donishmandlik fazilatiga albatta ega bulishi lozim, davlatning moxiyatini akl belgilaydi, degan xulosaga keladi: okilona boshkarilgan mamlakat axolisigina ma’rifatli va yuksak axlok egalari bula oladi.

SHuningdek, Axmad Donish uz davridagi joxillik, riyokorlik, poraxurlik singari illatlar jamiyatni tanazzulga olib borishini ta’kidlar ekan, din peshvolarining uzi oxiratga notugri yulga kirib ketganini, shayxlarning yolgonchiligini, ulamolarning poraxurligini fosh kiladi.

Korakolpok xalkkini buyuk mumtoz shoiri Berdak (1827-1900) she’rlarida xam usha davr axlokiy muxiti uz aksini topadi; u xam din peshvolarining uzi oxiratga ishonmasliklarini, tovlamachilik, ochkuzlik, tekinxurlik illatlariga mubtalo bulganliklarini va bu bilan islom ildiziga bolta urayotganliklarini kattik tankid ostiga oladi.

Buyuk uzbek mumtoz shoirlari Furkat (1858-1909), Mukimiy (1859-1903), Dilshod - Barno (1800-1906) asarlaridagi axlokiy muammolar tarakkiyparvarlik goyalari bilan chambarchas boglanib ketadi. CHunonchi, Furkat "Ilm xosiyati", "Gimnaziya", tarjimai xol" kabi asarlarida ma’rifatli bulish yuksak axlok egasiga xos xislat ekanini, lekin, nodonlik oxir-okibat turli xulkiy notavonlikka olib kelishini ta’kidlaydi. SHoir gazallaridan birida shunday deb alam bilan yozadi:

CHarxi kajraftorining bir shevasidin dogmen, Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur.

Mukimiyning xajviy asarlarida esa usha davrda avj olgan firibgarliklar, amaldorlarning noinsofligi, adolatsizligi kattik tankid kilinadi. SHoirning "Vokeai Viktor", "Vokeai kur Ashurboy xoji", "Tanobchilar", "Tuy" singari asarlari Turkiston xalklari oyogidan tobora tubanlikga tortayotgani illatlarni ayovsiz fosh etadi. Usha davrdagi boylarning nafsdan boshka narsani bilmasliklarini, faxshu maishatga yuztuban ketganliklarini, chor atrofda adolatsizlik xukmronlik kilayotganini alam bilan yozadi. Endi Dilshodning bir muxammasidan olingan kuyidagi parchaga dikkat kiling:

Alam utidin kuyodir bu jon Dudi ox ila tula osmon, Betokat ulib chekaman fugon,
Menga raxm etib yiglaydi makon, Titrab bokadir zaminu zamon.

Boyonlarimiz nafsa ovora, Tugyoni oshib to bora - bora, Atlas tukigon kizi bechora, YAsanmay yuzga surtadi kora, Kora kunlarga koldi Margilon. Olma anoru mevalar koni, Ammo mevaga zor bogboni, Bugdoy nonini kurmas dexkoni, Paxta ekadi, yirtik choponi, Fargona zamin xusni Namangan. Bu satrlarda kutarilgan adolatsizlik muommasi orkali usha davrdagi ijtimoiy - axlokiy manzara yakkol nomoyon buladi.

Turkiston xalklarining axlokiy yuksaklik va ma'rifat vositasida milliy uzligini anglash darajasiga kutarishda kozok xalkining buyuk farzandi Abay (1845 - 1908) axlokiy karashlarining axamiyati katta.

Abay she'rlarida, shuningdek, "Iskandar", "Mas'ud" dostonlarida ezgulik, adolat, mardlik shijoati singrai fazilatlar urnini illatlar egallab boryotganidan, xalkning yaxshilik bilan yomonlikni farklay olmaydigan darajaga tushib kolganidan faryod chekadi:

Otalarga uxshamay koldi turking, YOpiray muncha ketdi, elim, xulking! Birlik yuk, baraka yuk, buzildi fe'l, Kani yikkan davlating, bokkan yilking? "Xulik ketgan", "fe'li buzilgan", "aldamchi", "suk", "ochkuz" singari, sirtdan karaganda uz xalkiga nisbatan beshafkatlarcha, xatto xakorat darajasiga kutarilgan bu suz va iboralar aslini olganda, millatni jondan ortik sevgan buyuk shoir kalbining alamli yigisidir.

SHunisi kizikarliki, Abayning axlokiy karashlari ma'lum jixatlari bilan garblik mashxur zamondoshi, buyuk olmon faylasufi, adibi Fridrix Nittsshening ba'zi karashlariga yakin. Ammo, ta'kidlash kerakki, Nittsshedagi uta keskinlik, uta bekarorlik Abayga yot. SHunga karamasdan, kadriyatlarni kayta baxolash, lozim bulsa, butun millatni kayta tarbiyalash kabi goyalar Abayga xam xos. Xususan, u xalkni uz felini uzgartirishga, bu yulda lozim bulsa, an'anaviy xayot tarzida, ota-bobolardan kolgan ugit - makollardan, xatto asrlar mobaynida urgangan chorvachilikdan kechishiga da'vat etadi. CHunonchi, Abay uzining mashxur "Nasixatlar" deb atalgan axlokshunoslikka va amaliy axlokka doir kitobida shunday deb yozadi; "Kozoklarning bir-biriga dushman bulishining, birining tilagini ikkinchisi tilamasligining, rost suzi kam, mansabparast, yalkov bulishliklarining sababi nimada? Bunga dunyoda utgan barcha donishmandlar shunday javob kiladi: xar kanday yalkov kishi - kurkok va gayratsiz buladi; xar kanday maktanchok kishi - aklsiz, nodon buladi; xar kanday aklsiz nodon kishi - orsiz buladi; xar kanday orsiz kishi - yalkov, kishi oldida tilamchi, ochkuz, suk buladi; bunday xunarsiz kishilar xech kachon birovga dust bulmaydi.bu illatlarning xammasi turt oyokli molni kupaytirishdan boshka narsa xayoliga kelmaydigan kishilardan chikadi. Agar inson ekin-tikin, ilm-xunar, savdo ishlari bilan shugullansa, bunday yomon fazilatlar (yani illatlar) unga dorimagan bulur edi".

"Nasixatlar" risolasining boshka bir urnida Abay, makollarning taxli etish orkali, yukorida aytganimizdek, ma'lum ma'noda an'anaviy kadriyatlarni kayta baxolashga intiladi: "Bizning kozoklarni aytib yurgan makollari ichida, - deydi Abay, - ishga yaroklisi xam, yaroksizi xam bor. Ba'zilari yaroksiz bulish u yokda tursin, xatto na musulmonchilikka va na odamgarchilikka tugri keladi. Avvalo: "Fakir bulsang - orsiz bul!" deyishadi. Ordan ayrilib tirik yurgandan kura, ulgan afzal… "Oltinni kursa farishta xam yuldan ozadi", deyishadi. Sadkai farishta ketgurlar-ey! Bu shunchaki ularning uz shum niyatlarini ma'kullamokchi bulib atganlari emasmi?… "YArim kunlik umring kolsa xam, bir kunlik mol yig", "uzingda yuk bulsa, otang xam dushman", "mol-odamning jigar gushti", "moli kupning - yuzi yorug, moli yukning yuzi - chorik", "Egan ogiz uyalar", "Olagon kuzim beragon"… bundan ma'lum buldiki, kozoklar tinchlik uchun gam emas ekan, balki aksincha mol-dunyo uchun gam chekar ekan… Agar moli bor bulsa, uz otasi bilan xam yovlashishdan uyalishmas ekan… Ishkilib, ugrilik, shumlik, tialmchilik,

kuying-chi, shunga uxshash yaramas fazilatlar (ya’ni illatlar) bilan mol topsa xam buni ayb sanamasligimiz kerak ekan". Boshka bir urinda buyuk mutafakkir imon xakida suz yuritib, yana ba’zi makollar tugrisida shunday deydi; "Imonga shak keltirgan bandalarni Ollox taolo afu etmaydi va paygambarimiz xam shafkat kilmaydi, bu mumkin xam emas. "Kilich ustida shart yuk", "Xudoy taoloning kechmas gunoxi yuk" - degan kalbaki makolalarga suyanganning basharasi kursin!".
Abay uz millatini nixoyatda sevgan mutafkkir. U xech kimni xakorat kilmokchi yoki kamsitmokchi emas; bu achchik gaplar xalk dardida urtangan mutafakkirni alamli fikrlaridir. Abay odamlarni torlashib, maydalashib ketayotganidan, erdagi uz insoniy vazifasi va ma’suliyatini bajarmayotganidan gazablanadi: "Sukrotga ogu bergan, Ionna Arkni olovga tashlagan, Isoni dorga osib, paygambarimiz salolloxu alayxi va sallamning tuyaning ulimtigiga kumgan kim? Xalk! SHunday bulgach, xalkda akl yuk. Yulini top-da, xalkka raxnamolik kil". Kurinib turibdiki, buyuk kozok mutafakkirining axlokiy ideali xalkka raxnamolik kila biladigan odam. Albatta, u alo odam emas, lekin alo odam vazifasini ma’lum ma’noda bajara oladigan inson. Bunday insonni tarbiyalash voyaga etkazish, lozim bulsa, yaratish(ma’naviy jixatdan) mumkin; "Odam onadan aklli bulib tugilmaydi, - deydi Abay,-balki tugilganidan keyin, dunyoda nima yaxshi, nima yomon ekanligini eshitib, kurib, ushlab, topib, zexn kuyibaklli buladi". Boshka bir urinda esa mutafakkir, mana bunday deydi: "Agar davlat mening kulimda bulganida, inson farzandini tuzatib bulmaydi , degan odamning tilini kesib tashlardim"

SHunday kilib, Abay tugma axlokiylikni butunlay inkor etmasa-da, insonning axlokiy darajasi tarbiya bilan boglikligini kat’iy takidlaydi. Ayni paytda tarbiyaga va axlokiy darajaga muayyan ijtimoiy muxitning zamonaviy tasirini asosiy sababchi deb biladi: "Inson bolasini zamona parvarish kiladi, kimda kim yomon bulsa, ayb zamondoshlarida", - deydi faylasuf - shoir. Uning xakligini insonni axlokiy - ma’naviy jixatdan anchagina tubanlashtirib, uni etikodsizlik, yolgonchilik kasaliga mubtalo kilib kuygan mustamlakachilik va ayniksa, shurolar zamonasining salbiy ta’sirida yakkol kurishimiz mumkin.

Abayning xayo, uyat, insof, okillik, adolat singari fazilatlar va maktanchoklik, oliftagarchilik, kerilish, yolgonchilik, ochkuzlik kabi illatlar xakidagi fikrlari xam dikkatga sazovor. CHunki, u uyat tushunchasini ikki xil ma’noga ega ekanligini aytadi. Birinchisi, odam uzi uyat bularlik ish kilmaydi, lekin uzining uyatli ishidan uyaladi. Buning sababini mutafakkir uyatli ish kilgan odamga nisbatan achinish xissi ekanini ta’kidlaydi. "Ikkinchisi shuki, - deydi Abay, - kilgan ishing xam shariatga, xam aklga, xam obru - etiborga zid buladi: sen bunday ishni bilmasdan, yo gaflat bosib, yo esa nafs balosida kilib kuyasan. Mana uni chin ma’noda uyat desa buladi". Ana shu ikkinchi ma’nodagi uyatni mutafakkir vijdon bilan boglaydi, uni vijdon azobining tashki kurinishi tarzida talkin kiladi: "…ba’zan uyatli kishilar uykudan, ishtaxadan koladi, xatto chiday olmay uzini-uzi uldiradiganlar xam buladi. Uyat kishining or-nomusi, uz yaramas fazilatlariga (ya’ni illatlariga) karshi ichki isyondir".

Umuman olganda, Abayning she’riy asarlarida va ayniksa, "Nasixatlar" risolasida kutarilgan axlokiy muammolar bugungi kunda xar jixatdan ilmiy tadkikka loyik. Garchand buyuk Turkiston mutafakkiri kupgina illatlar xakida uz xalkiga nisbat berib, fikr yuritsa-da, ular,ba’zi bir istisnoli-fakat kozoklarning an’anaviy turmush tarziga taallukli jixatlarni xisobga olmaganda, umumturkiy axamiyatga molik axlokiy nuxsonlardir. SHu bois Abayning falsafiy - nazariy xamda amaliy-didaktik fikrlari va talkinlari biz uchun doimo

kimmatlidir.
Turkiston ma’rifatparvarlarining yana bir yirik namoyandasi Dilshod Barnoning shogirdi Anbar otindir (1870) . Uning axlokiy karashlari lirik-falsafiy she’rlarida va "Karolar falsafasi" (1898) risolasida uz aksini topgan. Anbar otin xam inson axlokiy darajasini akl, ilm-ma’rifat bilan boglaydi va ijtimoiy tarakkiyotga akliy xamda axlokiy yuksaklik orkali erishish mumkin, degan akidaga amal kiladi. Uning asarlarida axloksizlik botkogiga botib borayotgan jamiyatga nafratni, shariat va tarikat namoyandalari aynib ketganligi, boylardan insof kutarilganligi xakidagi fikrlar mardona ilgari suriladi. "Mukumiyga", "Mingboshi kal omil xajviy", "Olimjon xoji ta’rifi" kabi she’rlarida ana shu yunalishni kurish mumkin. Tankidiy - badiiy shakldagi bu yunalish "Karolar falsafasi" risolasida falsafiy-taxliliy shakl kasb etadi.

"Karolar falsafasi" asari asosan bir-birining ziddi bulmish ikki muammo - ijtimoiy adolat va ijtimoiy zulm tushunchalariga bagishlangan. Risola kup urinlarda falsafiy - majoziy talkinlardan iborat. CHunonchi, risola davomida ayniksa, uning birinchi faslida kora va ok ranglarning majoziy xamda botiniy moxiyati uziga xos tarzda ifodalanadi. Kora mexnati tufayli dunyoni yashnatayotgan insonlar kalbining okligi, ok tana-yu ok bilak kimsalar kilayotgan ishlarning koraligi ta’kidlanadi va ular shu orkali axlokiy mazmun kasb etadi. Anbar otin shunday deb yozadi: "Ul karo xalk oftob suzanida mexnat kilib, uzlari xar kancha kuyganlari xolda, xosillarini xam tovoklariga tuxfa kilurlar. Misol andokdurki, kazon bovujud koradur, uzi utda kuyib kora bulgoni xolda ovkat pishurib odamlarni tuydirur.

Karolar bordurlarki, alar uzlari karo bulgoni xolda, ma’rifat nuri siyratlarida tuladur va ul nurlarni fasoxat va til durdonalari vositasi ila olamga ok shu’la socharlar, misol uldurki, karo charog uzi karo yog, kuyundiga giriftor bulgoni xolda, nuri ilan kulbani ravshan kilur".
Risolaning ikkinchi faslida Anbar otin usha davrdagi ayollar axvolini, ularning bevosita va bilvosita ijtimoiy kamsitishlar natijasida uz iktidori, iste’dodi, latofatini namoyon kila olmasliklarini aytib utadir. Ular, xatto, kucha - kuylarga zarurat yuzasidan, masalan, karindosh - uruglarini kurgani borish uchun chikkanlarida,eski paranjigi uranib, kampirlar kabi bukchayib yuradilar. CHunki agar kaddi komatini adl tutib, yoki ochilib -sochilib yursalar, unlarga erkaklar tajovuz kilishlari mumkin. Bunday axloksizlikning ildizi ijtimoiy adolatsizlikka borib takaladi: kambagalligi tufayli uylanish, oila boshligi bulish xukukidan maxrum bulgan bunday erkaklar shayton vasvasiga tushib, shaxvoniy nafslarini tiyolmay koladilar. Lekin tarakkiy parvar shoira kelajakka katta ishonch bilan karaydilar: bu ijtimoiy axlokiy illatlar albatta utib ketadi, xurlik, tenglik zamonlari keladi. Mana bu xakda Anbar otinning uzi nima deydi: "Bir zamoni bulurki, kamina mushtipar kabi olijanob orzu kilgondan ziyoda bulur. alarni mazlumalar avlodi xatarsiz tavallud ulib, yaxshi parvarish topub, xushruy va xushxuy, botamiz va vatandust, sergayratu mexmondust bulub, kamolga etar. Ul zamonda barcha xalk soxibjamol bulur.

Ul zamonda odam axloki ul darajaga eturki, xurusi mijoz gala xotunlik rusumini tark etar va xar er bitta xotin ila farogatvor kun kechirgay…
Ul vakt kizlar ilmi dunyoviy taksiliga muyassar bulub, urfon taxtida karor topib, ellar va uluglar safiga doxil bulurlar, alar gayart va mexnatda erlarga xamfo va yovar bulub, obru topib, xurmat va ikromga sazovor bulurlar."
Anbar otin adolatli podsho muammosiga alozida tuxtalib, usha davr uchun nixoyatda original, kutilmagan va xozirgi zamonda xam axamiyatini yukomagan fikrlarini bildiradi.

U, dastavval "urus keldi!" deganda xamma ma’rifat axli, endi xalkning, ijtimoiy - iktisodiy va ma’naviy xayoti yaxshi tomonga uzgaradi deb kutganini, lekin bu ishonch oklanmaganligini, aksincha, "urus podshox musulmonlarga zarrachayinki xalovat bermaganini" aytadi. Ba’zi bir ruslar xukmronligini oklaganlarga karshi shunday deydi: "Agar urus shoxi darxakikat odil bulsa, va aning xoxishi karam xalklar xam urus misoli ozod bulsin va barcha xaloyik urus birla barobar bulub ruzgor kechirsun desa, amorat va xukmronlik konunini din konunlaridan mustasno kel tursin." Boshka bir urinda faylasuf - shoira: " Davlat ishini dini islomdin yirok tuting", dpgan fikrni bildiradi.

Xush, bu mustamlakachilik va adolatsiz tuzumdan kutilishning yuli bormi? Anbar otin uning ikki yulini aytib utadi. Biri - aklni inson uziga vazir kilib, falsafiy mushoxada yordamida ish kurish orkali bunga erishish mumkin: "Vaktiki ilm daraja kilib, falsafa ravnak topsa, bu chigillarim kushoda bulur. Falsafa iborasi ila karshi va zid suzlarni mukoyyasa kilgonda bu chigillar ochilur". Ikkinchi yul esa uz xak-xukukini ximoya etish maksadida amaliy xarakat kilish, mustamlakachilik zulmiga va adolatsizlikka karshi birlashmok, kulda kurol bilan chikmok. Bu yulni shoira shunday ifodalaydi:

"…albatta,aklu - idrok va jamoatga takya kilib, barcha shayx sufiylardan yirok va barcha tarsu vaxmdin emin bulib, zolimlarga karshi muboriza kilmok, yakkalikdan xazar kilmok, bu tadbirlar ila zulmni nobud etib, zulmatni bartaraf kilmok zarurdir".

Albatta, Anbar otinning barcha axlokiy karashlarini mutlak tugri deb kabul kilish nojoiz. CHunonchi, sufiylik tarikatlarini xammasini moxiyatan reaktsion, degan fikrni ilgari suradi va sufiylarni mustamlakachi amaldorlar ray’iga karaydigan rasmiy din peshvolari bilan chalkashtirib yuboradi. Lekin, shunga karamasdan, Anbar otinning asarlari, ayniksa, "Karolar falsafasi" risolasi xozirgi kunda xam ijtimoiy - axlokiy axamiyatini yukotgan emas. Bundan tashkari, Anbar otin shoira va faylasuf olima sifatida xam, shaxs sifatida xam kishini xayratga soladigan darajada matonatli, pokiza inson, yuksak axlok egasi bulgan. U umrini Turkiston xalklari ma’naviyatini yuksaltirishga bagishladi, nogiron bulishiga karamay, adolatning paxlavoni bulib kurashdi. Bugungi kunda mustakil Uzbekistonimizga bu tom ma’nodagi kaxramon ayol orzu kilgan kunlar keldi, Anbar otinning olimona va shoirona bashorati amalga oshdi. Turkiston ma’rifatparvarlari orasidagi yana bir mutafikkir ta’limshunos, pedagog va axlokshunos Abdulla Avloniydir (1887-1934). Uning XX asr boshlarida Turkistonda mashxur bulgan "Turkiy guliston yoxud axlok" (1913) asari axlokiy muammolarga jadidchilik nuktai nazaridan yondoshishi, kupchilikga tushunarli tilda yozilgani bulan ajralib turadi. Agar Anbar otinning "Karolar falsafasi" risolasida dolrazb axlokiy muamolarga majoziy-falsafiylik, ilmiy, nazariy xulosalar orkali yoritilsa, Avloniy asarida fazilatlar va illatlarga kuprok ta’rif berish, ularni sharxlash yuli bilan yondoshiladi. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axlok" asarida an’anaviy - falsafiy yondoshuv bulmish antropoligik nuktai nazaridan burtib kuzga tashlanadi. Ammo bu yondoshuvning yangilangan moxiyati shunda ediki, tadkikot ob’ekti sifatida makon va zamondagi umumiy mavxumiy inson emas, balki, muayyan, XX asr boshlaridagi, milliy ozodlikga, yangicha xayot tarziga intilishni uz oldiga niyat kilib kuygan Turkiston fukarosi olinadi. Ana shu yangi inson tarbiyasi bosh masala tarzida urtaga tashlanadi. Faylasuf pedagog, avvalo, millatni tarbiyalashni uz ustiga olgan tarbiyachi muammosiga tuxtaladi: otalar-tuychi, ulokchi, bazmchi, ilm kadrini bilmagan, muallimlar-uzlari tarbiyaga muxtoj, dorilmuallimini tugatishi kerak bulgan, mudarrislar esa - daslari beimtixon, islox yakiniga yulamaydigan kishilar. SHu bois millat yoshlari tarbiyasini usuli

jadid tarafdorlari ta’lim - tarbiya tizimini zamonaviylashtirish, islox kilishga intilayotgan ziyolilar kulga olishi kerak. Avloniy Rossiya xukumati u er bu erida yangicha maktablar ochgani - shunchaki jaxon jamaotchiligini chalgitish ekanini, ochik bulmasa xam, kuyidagi ishora bilan atib utadi: "xukumat xammaning oatsidir. Uz fukarosining bolalarini tarbiya kilmak lozim. SHuning uchun bizning Rusiya xukumatimiz ugay bulsa xam, xar erda bizlar uchun maktablar ochub, bolalarimizni tekin ukitur." Avloniy anashu "ugay tarbiyadan" kura milliy tarbiyamiz usullarini yangilashni afzal biladi va uz davrini "Tarbiyaning zamoni - tarbiyaning ayni vakti deb ataydi." Uning bu boradagi karashlari xanuz uz kuchini yukotmaganligini, tarbiya - xozir xam jamiyat uchun dolzarb muammo ekanligini Prezident Islom Karimov mashxur nutklaridan birida (1995 yil 23 fevral) Avloniydan mana bunday deb kuchirma keltiradi: ma’rivat parvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek, "Tarbiya bizlar uchun yo xayot-yo mamot, yo najot - yo xalokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.".

Avloniy tarbiyani, kadimgilar va Urta asrlar musulmon SHarki mutafakkirlari an’analariga suyanib, uchga buladi: badan tarbiyasi,fikr tarbiyasi, axlok tarbiyasi. SHular orasidan axlok tarbiyasiga aloxida urgu berib, uni "insonlarga eng muxim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi" tarbiya deb baxolaydi. Fazilatlarni faylasuf - pedagog yaxshi xulklar, illatlarni esa - yomon xulklardeb ataydi. Fatonat, diyonat, sharaf, xayo singari musulmon SHarki uchun an’anaviy bulgan fazilatlar sharxi bilan birgalikda Avloniy vijdon, Vatanni suymok lozim bulsa, uning yulida jonini fido etmok yuksak axlokiy insonga xos fazilatdir. Inson Vatanni tanlamaydi. "Biz turkistonliklar uz Vatanimizni jonimizdan ortik suyganimiz kabi, arablar Arabistonlarini, kumlik, issik chullarini, eskamular SHimol taraflarini, eng sovuk kor va muzlik erlarini boshka erlaridan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, xavosi yaxshi, tiriklik oson erlarga uz Vatanlarini tashlab xijrat kilurlar edi". Vijdon esa Avloniy nazdida, inson niyatlari va kilmishlarini aks ettiruvchi eng musaffo axlokiy kuzgudir, "inson axli va fikrining mezoni". SHuningdek, jadid axlokshunosligining allomasi intizom, iktisod, idrok va zako singari usha davrlarda xali kup kulok urganmagan fazilatlarni xam aloxida e’tibor bilan nazariy amaliy taxlildan utkazadi, ukituvchiga iloji boricha kiska va lunda tarzda takdim etishga intiladi.

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston" da "yomon xulklar" ga - illatlar taxliliga katta urin ajratadi. Millat tarkaaiyotiga eng kuchli tusik buladigan illatlardan biri sifatida alloma jaxolatni keltiradi: "Jaxolat insoniyatning eng zur dushmani va yomon xulklarning boshщligidir". Avloniy gazab, shaxvat, xasad, kizb, tama’ singari illatlarga xam atroficha ta’rif beradi.

SHunisi dikkatga sazovorki, Abdulla Avloniy axlokshunoslik tushunchalarini fakat pedagogik emas, balki xam falsafiy, xam badiiy jixatdan talkinini beradi. CHunonchi, u muayyan axlokshunoslik tushunchasi yoki axlokiy meyorning sodda, lunda ta’rifini takdim etar ekan, ba’zi xollarida Sukrot, Aflotun, Arastu, Ibn Sino singari xakimlarning fikrlarini isbot tarzida keltirsa goxo ularni nazmiy tizmalar bilan ukuvchiga etkazishga xarakat kiladi. Umuman olganda, Abdulla Avlonining "Turkiy guliston yoxud axlok" risolasi XX asr Turkiston axlokiy tafakkurida eng salmokli urinni egallaydigan, xam nazariy, xam amaliy axlok muammolarini falsafiy va pedagogik yondoshuv orkali xal etishga bagishlangan yirik asardir.

Turkiston ma’rifatchilari axlokshunosligida tom ma’nodagi milliy kkaxramonimiz Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshkarish tartiblari" (1914) kitobi aloxida urin tutadi.

Avvalo, shuni aytish kerakki, "Oila" uzgacha bir shiddatli uslub bilan yozilgan. Unda xam tankidiy rux, xam da’vat ruxi kuchli Fitrat ona Turkistonni ozod kurishni istaydi, buning uchun xar bir turkistonlik oila bilim, axlok, a’mol va erk uchogi bulmogi lozim. Mutafakkir yangi oilani anashu tartibda kurishga da’vat etadi. Xar jixatdan soglom bulgan oila etishtirgan farzandlargina millatni yuksakka kutara olishini, uni istib doddan kutkarishini aytadi: "Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning kuroli soglom jismu tan, akl va axlokdir. Lekin ana shu kurol - aslaxamiz sinib, zang bosib, chirib ketgan. SHunday kurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na roxat bor" - deydi alam bilan Fitrat.

Vatanparvarlik, miillatparvarlik tamoyillaridan kelib chikib, muallif kitobning birinchi kismini, ma’lum ma’noda meyoriy dasturi amal tarzida tartib beradi. Undan xar bir yangi oila kurmokchi bulgan turkistonlik kichik xajmdagi axlokiy - maishiy, gigienik - salomatlik komusi sifatida foydalanishi mumkin. Bundan tashkari, asarda oilaning moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bulgan xolatlarining axlokiy asoslari tugrisida xam tuxtalib utadi.

Kitobning ikkinchi kismi farzand tarbiyasiga bagishlangan. Fitrat xam tarbiyani an’aniviy yunalishda talkin etadi: jismoniy tarbiya, akliy tarbiya, va axlokiy tarbiya. Ana shu uch tarbiya uygunlinida xakikiy inson kamol topadi deb xisoblaydi muallif. Kitobnig bu kismida Fitrat, ma’lum ma’noda, uziga xos axlokiy tarbiya nazariyaini takdim kiladi. U ixtiyor erkinligi muamosini mayil tushuchasi orkali urtaga tashlaydi: baxt mayli, faoliyat mayli, aloka mayli, boshkalarga mexr muxabbat mayli va x.k. Bularning xammasida xam insonni jamiyat a’zosi sifatida, xam ijtimoiy mavjudot sifatida olib karaydi. SHuningdek, u izzat nafs, ayniksa, iroda masalasiga aloxida tuxtalib utadi. "Iroda va ixtiyor" sarlavxasi ostidagi kichik bobda Fitart farzandni irodali kilib tarbiyalashga da’vat etadi, iroda tarbiyasining turt banddan iborat koida boskichlarini taklif etadi. Bolani irodali kilib tarbiyalashda ota-onaning zuri emas, balki bolaga berildigan muayyan erkinlik muxim ekanini ta’kidlaydi. "Ota-onalarning xak-xukulari" bobida xam balogatga etgan farzandning erkinlik darajasi xakida fikr yuritiladi.

Umuman olganda, Fitratning "Oila" kitobida maliy axlok bilan axlok nazariyasi muammolari uygunlashib ketgan. Lekin unda pedagogik-didaktik uslub emas, jangavor chorlov uslubi ustun. Fitrat uchun yuksak axlokiylik, erk va erksevarlik bilan mustaxkam boglik. Turkiston va turkistonlikni ozod kurish, ya’ni milliy mustakillik mafkurasi kitobning ruxiga singdirib yuborilgan. Uni ukigan kishi nafakat axlokiy fazilatlar nimalardan iborat va ularga kanday erishish kerakligini, balki, milliy ozodlik, shaxsiy erkinlik nima-yu, unga kanday kilib erishish mumkinligin anglab oladi. SHu bois mutafakkir jadid Abdurauf Fitratning "Oila" asari Turkiston milliy uygonishida benixoyat katta rol uynadi. Ayni paytda, u xozir xam uz axamiyatini yukotmagan ajoyib axlokiy-ma’rifiy risola sifatida aloxida e’tiborga molik.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning ilmli, xar jixatdan yuksak axlok-odob egasi bulishlari uchun ziyolilar orasida jiddiy xarakat avj oladi. Zero, oiladagi bola tarbiyasi yani yosh avlod tarbiyasi asosan onalar kulida ekani xammaga ayon bulib koladi. SHu bois ilgor, ziyoli ayollar nafakat kizlar maktablarini ochib, maktabdorlik kilish, balki axlokiy-tarbiyaviy risolalar yozish yuli bilan xam bulajak ziyoli onalarni voyaga etkazishga xissa kushadilar. SHu jixatdan Olimat ul-Banotning Sankt-Peterburgda 1898 va 1899 yillarda ikki marta nashr etilgan "Muosharat odobi" (Turmush odobi) asari uz vaktida katta axamiyatga ega bulgan. "Agar xotun ukigan bulsa, uzining kim ekanligin,

vazifasi nimadan iborat ekanligini shak-shubxasiz biladi. Bolalarini esa guzal tarbiya kiladi, eri bilan yaxshi muomalada buladi va nixoyat Ollox Taoloning amriga muvofik xayot kechiradi", - deydi risola muallifi. Unda ayollarning turmushdagi urni, oilaviy vazifalari, er xotin orasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi uy tutish, nikox va muxabbat borasida fikrlar bildiriladi. Ayni paytda, uy xizmatchaliriga munosabatda insof va adolat yuzasidan, ularning xam uy egalariga uxshash inson ekanliklarini xisobga olib, ish kurish lozimlgi ta’kidlanadi, turmushning okilona uyushtirilishi uchun xizmat kiladigan ibratli maslaxatlar beriladi. Boshka bir tatar ziyoli ayoli Faxr ul-Banot Sibgatullox kizining sakson etti sabokdan iborat "Oila saboklari" (1913) risolasi esa tarbiyaning turli tomonlarini bir varaky uz ichiga oladi. Axlokshunos olima uz risolasi moxiyatini kuyidagicha belgiladi: "Oila saboklari xonimlariga, kizlar maktabi shogirdlariga oila vazifalari tugrisida foydali ma’lumot bergani kabi ukuvda tamom engillik va bir tarafdan asosli bir axlok sabigi xamdir". U un ikkinchi sabokda tarbiyani "ilmni axlokning tani, negizi" deb tariflaydi. Asar falsafiy mushoxadalardan kura kuprok amaliy kursatmalardan iborat. Ayni paytda, unda xam ma’naviyatga, xam moddiyatga zamonaviy munosabat masalasi urtaga tashlanadi, yuksak axlokli bolani voyaga etkazishda xar ikki yunalishdagi tarbiyaning muximligi ta’kidlanadi.

XX asr boshlarida amaliy axlok muommalari jadid matbuotida keng urin oladi. "Tarkkiy", "Sadoiy Turkiston", "Ulug Turkiston", "Turon", "Xurshid" singari gazetalarida e’lon kilingan xajviy jurnalistik asarlarda usha davr bayonlarining kalokligi, chor ma’muriyatining turachiligi, paranjining yangi zamonga mos kelmayotgani, talabalarga besh sum iona kilish urniga, besh yuzlab sumni restoranlarda foxishalarga sochayotgan axloksiz sarmoyadorlar kattik tankid ostiga olinadi. Maxmudxuja Bexbudiy, Munavvar kori Abdurashidxonov, Xamza, Ubaydullaxuja Asadullaxujaev, Abdurauf Fitrat, Abdulla Kodiriy, Abdulxamid CHulpon kabi Uygonish davrining buyuk namoyondalari uz badiiy asarlarida axlok muammolarini dadil kutarib chikdilar va ana shu nashrdlarda uz publitsistikasi bilan xam faol ishtirok etdilar. Jadid matbuoti butun kuchini ozodlikni, Vatanni jondan suvuvchi, ilgor, tushungan, xar tomonlama kamol topgan erkin Turkiston fukarosini tarbiyalashni uz oldiga vazifa kilib kuydi. Afsuski, dastlabki fevral inkilobi bergan xurriyat uzokka chuzilmadi. Bolsheviklarning 1917 yilning 25 oktabrida amalga oshirgan davlat tuntarishi tez orada uning yutuklarini yukka chikardi, Lenin boshchiligida ishlab chikilgan yangi mustamlakachilik rejasi asosida barcha taraakkiyparvar kuchlar katagon kilindi. Falsafiy fanlar, shu jumladan, axlokshunoslik xam tarakkiyotdan tuxtadi. Ular mafkuraga buysundirilib, soxtalashtrildi; erkin fikr tag-tugi bilan kuporib tashlandi. SHu sababli jadidchilik uz oldiga kuygan vazifalarini tula ado eta olmadi. Lekin, shunga karamasdan Turkistondagi bu ma’rifatchilik xarakati kiska muddat ichida bulsa xam mazlum xalklarni ma’lum ma’noda uygota oldi.

Asosiy tushunchalar

Ahloq, odob, xulq, ma’naviyat, Konfutsiy, Avesto, Arastu, Forobiy, komil inson, Navoiy, renessans, Kant, Xegel, ruhiy tahlil, tasavvuf, Abdulla Avloniy, jadidlar.

Takrorlash uchun savollar.

1. Ahloqning kelib chiqishi haqida gapirib bering?
2. Ahloqshunoslikning fan sifatidagi ahamiyati nimada?
3. Qadimgi SHarq ahloqshunosligi haqida gapirib bering?
4. Qadimgi YUnonistonda ahloqiy ta’limotlar rivojini izohlang?
5. Turkistonda jadid ma’rifatchilarining ahloqiy qarashlari haqida gapirib bering?

Adabiyotlar.

1. O`zbekiston Respublikasining Konstituttsiyasi. T., 2001.
2. Karimov I.A. O`zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., 1995.
3. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo`lsin. T., 1994.
4. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» gazetasi, 2000 yil, 8-iyun.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. T., 1992.
6. Milliy istiqlolol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.,2000.
7. SHer A. Axloqshunoslik. T. 2000.
8. Aristotel. Nikomaxova etika; Bolshaya etika. // Aristotel. Sochineniya v 4-x tomax, t-4. M., 1983. 9. Slovar po etike. M., 1989.
9. E. U. Umarov, F. B. Zagыrtdinova Etika T., 2005.
10. E. U. Umarov, F. B. Zagыrtdinova. Etika. T. 2005
11. SHer A. Axloqshunoslik. T. 2005.

Katta o`qituvchi Jumaniyozov B.

14. Ma’ruza. Mavzu: Ahloqning kelib chiqishi, ixtiyor erkinligi va ahloq tuzilmasi. (2 soat)

Reja:

1. Ixtiyor erkinligi va ahloqiy tushunchalar.
2. Ahloq tuzilmasi tushunchasi.
3. Ahloqning boshqa ma’naviy tuzilmalari bilan aloqadorligi.

1. Ixtiyor erkinligi va ahloqiy tushunchalar.

Insondagi ixtiyor erkinligi zarurat talabi bilan okilona, aklga buysundirilgan ravishda, cheklanadi, ya’ni nisbiylashadi. Aks xolda, muayyan bir, bir necha inson yoki guruxning betiyik erkin ixtiyori nafakat boshka insonlar va guruxlar, balki nabotot, xayvonot olami, butun dunyo uchun fojeaga aylanishi mumkin. Ixtiyor erkinligini bunday cheklashning, aklga buysundirishning asosiy vositasi axlokdir. SHunday kilib axlok - oliy mavjudotga ato etilgan oliy ne’mat. YA’ni axlokning kelib chikishi iloxiy manbadandir. Ana shu iloxiy asosni asrab - avaylab, tarakkiy toptirish xar bir insonning asosiy vazifasi, burchi. SHu bois uz - uzini va, iloji bulsa, uzgalarni axlokiy tarbiyalash barcha mukaddas kitoblarda savob sanaladi.Ixtiyor erkinligi tufayli inson xar kadamda axlokiy tanlov muammosiga duch keladi. Bu muammo kishida ma’suliyat xissi mavjudligidan dalolat beradi. Masuliyatni , uzgalar va uz vijdoni oldida javobgarlikni sezmagan kishi xoxlagan ishga kul urishi mumkin - uni uz kilmishining okibati kiziktirmaydi , u fakat manfaat ustunligini tan oladi xalos. Unday odamning axloksiz deb ataydilar. Zero inson yo ezgulikni, yo yovuzlikni tanlashi tufayli nimanidir ixtiyor etadi: axlokiy tanlov xar bir xatti xarakat , xar bir kilmishning ibtido nuktasi.

Umuman ,inson va jamiyat axlokiy xayotida tanlovning axamiyati bekiyos. Masalan, tarixdan bir ta’sirchan vokeani olib kuraylik: Bozorda mutasavvuf alloma azarbayjon, eski uzbek(turkiy) , fors tillarida ulmas asarlar yaratgan buyuk shoir Imoiddin Nasimining gazalini yod ukiyotgan bir yosh yigitni kufurda ayblab, xibisga oladilar. Yigit oldida ikki yuldan birini tanlash turadi: yo Piri Nasimiyni sotish va tavba kilib , banddan ozod bulishi yoki gazalni uzimniki deb ulimga tik borish. Pokdamon or-nomusli yigit ikkinchi yulni tanlaydi. Kozi uni terisini shilishga buyuradi. Olomon -tomoshmbinlar yigiladi. SHu payt Nasimiy kelib koladi. Vokeadan xabar topgan Nasimiy oldida xam endi tanlov turardi- tanlamaslikning iloji yuk edi: yo uzini oshkor kilib, yosh yigitnijallod kulidan kutkazishi va urnini egallashi, yoki odamlar orasidan sekin sirgalib chikib ketib , shogirdining ulimga maxkum etilishi evaziga uz jonini asrab kolishi kerak. Buyuk mutasavvif birinchi yulni tanlaydi: uzini jallod kuliga tutkazib , begunox yigitni ozod etadi. Kozi nasimiyning terisini shilishga buyuradi. Jallod ishga kirishadi, atrofga kon sachraydi. SHunda kozi odamlarga, nari turinglar, bu kofirning bir tomchi koni biror eringizga tegsa, usha erni kesib tashlash kerak buladi, deydi. kozi gapini tugatar tugatmas, Tangri irodasi bilan bir tomchi kon sachrab kelib uning jimjalogiga tegadi. Olomon kozidan barmogini kesib tashlashni talab kiladi. endi kozini oldida tanlov turadi: yobarmogini kesishga berib , gapining ustidan chikishi yoki gapidan kaytib , sharmisor bulishi kerak. Kozi axlokiy nopok,kurkok va xudbin odam sifatida gapidan kaytadi. Naismiy esa kiynokka mardonovor chidab , churk etmaydi, aksincha kozining axvolini kurib , estexzoli kuladi va sungi gazalini yoddan aytadi. Nasimiyning bu jasorati asrlardan-asrlarga utdi, ne-ne shoirlarning sherlari madx etildi, uzi esa insoniy poklik va yuksak axlokiylikni ulmas timsoli bulib koldi. Bir namuna sifatida buyuk turkman shoiri Maxtimkulining "savol-javob" she’ridan kuyidagi sakkiz satrni keltirish mumkin:

Maxtimkuli- U nimadir ,emadilar tuydilar?
U nimadir, ulug kunga kuydilar?
U kim edi tavonidan suydilar?

SHoir bulsang , shundan bizga xabar ber!
Durdi shoir- Udiydordir emadilar-tuydilar,
U namozdir - kiyomatga kuydilar,
Nasimiyni tavonidan suydilir,
Bizdan salom bulsin, javobimiz shu!

SHunday kilibushbu misolda uch xil tanlovni uch xil masulyatni ixtiyor erkinligida uch xil foydalanishni kurdik. Demak , xar bir insonni bu dunyoda axlokiy tanlov sinovidan utmasligi mumkin emas.

Dastlabki axlokiy konun- koidalar ana shu tanlovni ruyobga chikarishga, yana xam anikrok aytganda ,uni osonrok amalga oshirishga xizmat kilgan. Ilk axlokiy koida "uzingga ravo kurmagan narsani boshkaga xam ravo kurma " mazmunida dunyoga kelgan. Uning xozirgi zamondagi uzbekchasi "pichokni avval uzingga ur, ogrimasa uzgaga ur " , "uzingni er bilsang uzgani sher bil" kabi makollarda aks etgan . "Axlokning oltin koidasi " deb atalgan ushbu koida , bizningcha, eng kadimgi axlokiy talablardandir. Zero xun olish talabi keyinrok paydo bulgan va insonning asl moxiyatiga tugri kelmaydigan koidalardir. Barcha mukaddas kitoblarda insonni zurlik bilan jonsiz kilishning mumkin emasligi ta’kidlanadi. Biz kurib utganmiz, bundan deyarli XXX asr mukaddam tarkala boshlagan zardushtiy dinining mukaddas kitobi "Avesto" dayok axlokiy konun - koidalar ishlab chikilgan dikkatga sazavor. Unda insonni inson tomonidan uldirishgina emas, balki it ,ot kabi xayvonlarni jonsiz kilish , daraxt va usimliklarni bexuda xalok etish ka’tiyan man kilinadi, inson fakat ezgu uy, ezgu niyat va ezgu amallar bilan yashashi takidlanadi. Bibliyoda Kobilni uldirgan Xobildan Tangri xun olmaslikni va uni uldirmaslikni talab etadi. Buddxa talimoti jonlini jonsiz kilishni eng katta gunox deb biladi. Injilda "uz kavmdoshingni sev", "odam uldirma" ,degan da’vatlar asosiy koidalar sifatida namayon buladi. Ku’roni karimda xun olishdan kura tovon olmok ma’kulligi aytiladi va musilmonlar uzaro fakat guzal munosabatlar kilishi lozimligi kursatiladi. Demak, dastlabki axlokiy konun- koidalar mukaddas kitoblarda uz aksini topgan zurovonlikka zurovonlik bilan javob bermaslik tamoyili asosida yaratilgan.
Ana shu, inson axlokiy xayotining asosi bulgan konun- koidalar xozir xam uz axamyatini yukotgani yuk. Odamlar ularni ogir majburiyat deb bilmasdan, dil dildan bajaradigan zamonning tezrok kelishi uchun tinmay xarakat kilishlari axlokiy tarakkiyotdan dalolatdir. Zero ana shu yulda inson uz YAratganiga makbul komil inson bulishi etishadi.

ijobiy, kishining kuzini kuvontiradigan muomala xodisasi. Lekin, ayni paytda, u asil axlokiy asosini yukotgan majburiy mulozamat tarzida xam namoyon buladi: etiket koidalarini bajarayotgan kishi aslida uz xoxish-ixtiyoriga karshi ish kurayotgan bulishi xam mumkin. Bu jixatdan u munofiklikning bir kurinishiga aylanadi. Masalan, siz ertalab ishga shoshilib, darvozadan chikdingiz, deylik. Ruparangizda tanishingiz yoki kushningiz uchraydi. Siz kurishib, xol-axvol surashib uni: "Kani uyga kiramiz, choy kilamiz, bir xangomalashamiz", deb ichkariga taklif kilasiz. Lekin, aslida, siz uni uyga kirishini aslo istamaysiz, vaktingiz yuk, xatto, shu uchrashganda ketgan vaktingizni uylab, pitirlab turibsiz. Demak, siz uz istagingizga karshi, etiket - mulozamat yuzasidan yomon gaplarni aytasiz, xunuk eshitilsa xam na chora - munofiklik kilasiz. SHunga karamay, umuman olganda, etiket shaxsni muayyan tartib koidaga, kanday ichki ruxiy sharoitda bulmasin, bosiklikka, muloyimlikka va sabr-tokatga urgatishi bilan axamiyatlidir. Axlokiy madaniyat kasbiy odobda xam yakkol kuzga tashlanadi. CHunki inson voyaga etib, bir kasbning boshini tutgach, uz kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda buladi. Bu munosabat, bir tomondan, xam kasabalar davrasida ruy bersa, ikkinchi jixatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axlokiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri, uning ish kurishlariga boglikligi xammaga ma’lum. CHunonchi, tabobat xodimini, jarroxni olaylik. Deylik, u xar bir operatsiya kunida bir necha kishini xayotga kaytaradi; yuzlab odamlar uning yordamiga muxtoj, unga umid va ishonch ilnji bilan karaydilar. Bordi-yu, shaxsiy manfaat yulida jarrox uz bemoriga xiynat kilsa-chi, ya’ni, uni kasddan xalok etsa-chi? Kim uni shunday kilmasligini kafolatlaydi? YOki jurnalistni olaylik. U shaxsiy manfaati yulida, kasbining kamyobligidan foydalanib, begunox kishilarni ma’naviy azobga kuyishi, atayin jamiyat oldida sharmanda kilishi va shuning xisobiga uzining ba’zi bir muammolarini xal kilib olishi mumkin emasmi? Mumkin. Zero, to xakikatyuzaga chikkuncha, noxak tankidga uchragan shaxsning adoi tamom bulishi xech gap emas. Xush, jurnalistning shunday kilmasligini kim kafolatlaydi? SHu bois boshkalarning kulidan kelmaydigan ishlarni bajara oladiganlar faoliyatida uzboshimchalik, manfaatparastlik. Xudbinlik va kasbni suiste’mol kilish singari illatlarga yul kuymaslik uchun, shuningdek, ular axlokiy darajasini yuksak boskichda turishini ta’minlash maksadida kup xollarda uzarokoidalar majmui yaratilgan. Bu koidalar majmui, odatda, kasamyod yoki me’yorlar kurinishini olgan. Uni buzish uta odobsizlik va axloksizlik, xatto jamiyatga xiyonat tarzida baxolanadi. Bunday kasamyodlar juda uzok tarixga ega. Misol tarikasida xozirgi kunda xam uz axamiyatini yukotmagan Kadimgi YUnon Xakimi Xippokrat (milodgacha V-IV asrlar) tomonidan kiska va lunda shaklda tuzilgan, tabobat xadimlari kasbiy odobi, konun-koidalari jamlangan mashxur "Xippokrat kasami" ni keltirish mumkin.

Tarixda uz dushmanini davolagan tabiblar xam kup uchraydi. CHunonchi, kadimgi Xind eposi "Ramayana" da (II-asr) bexush yotgan Lakshman boshida turgan devlar shoxining xos tabibi kechinmalari shu jixatdan muxim. Tabib oldida ikki yul bor edi: biri - saltanat dushmanini muxtoj bemor sifatida davolash. Ikkinchi yul davolashdan bosh tortish bilan uni ulimga maxkum etish. Tabib uzok muloxazadan keyin, tabiblik odobi koidalariga buysunishni - Lakshmanni davolashni afzal kuradi. Zero kasbiy odob konun-koidalari talabiga kura, bemor tushagi ustidagi tabib uchun dust yoki dushman degan tushunchalar uz ma’nosini yukotadi, uning koshida fakat tibbiy yordamga intizor, shafkatga muxtoj, zaif inson yotadi. Davolanib xayotga kaytgan Lakshman devlar mamlakatining tengsiz buyuk

jangchisi va saltanat valiaxdi Indirjid jangda xalok etadi xamda tabib fukaro bulgan Lanka davlatining tanazzuliga yul ochadi. Lekin, kitobxon tabibni xiyonatkor yoki sotkin demaydi, aksincha, uning ma'naviy jasoratiga, xalolligiga, kasbiy burchiga sodikligiga xayrat bilan tansonalar ukiydi. YOki mashxur rus olimi akdemik Andrey Saxarovning takdirini olaylik. Buyuk nazariyotchi, fizik, termoyadro soxasida tengi yuk mutaxasis, vodorod bombasining asosiy kashfiyotchisi, Vatan mudofaasini mustaxkamlashdagi xizmatlari uchun unlab orden va medellar soxibi, ikki marta Sotsialistik Mexnat Kaxramoni, obruli, badavlat bu insonga nima etishmasdi? Nega u xammasidan ketishga - ommaviy kirgin kurollarini, jumladan, uzgarayotgan vodorod bombasi sinovlariga ochik bayonatlar bilan karshi chikishga axd kildi. Natijada katagonlarga asoslangan SHurolar tuzumi uni ilmiy jamoatchilikdan ajratib, poytaxtdan olisdagi Rossiya shaxarlaridan biriga badarga kildi, uning nomini matbuotda yoki kitoblarda kayd etilishini ta'kikladi. Vaxolanki, u xammadan izzatlirok yashay olishi mumkin edi. Saxarov yuksak axlok yulini tanladi - olimlik burchi, odobi talablarini bajarishni xarkany boylik, izzat - ikromdan baland kuydi. Buyuk olim uz kashfiyoti insonning eng oliy xukuki bulmish - yashash xukukiga raxna solishi mumkinligi va kisman solayotgani uchun uni amalda kullanishiga karshi
kurashdi. U shurolar mafkurasining uzini Vatan mudofaasi kuvvatini susaytirishga xarakat kilgan salkam, xiyonatkor fukora deb e'lon etishiga, boshiga bexisob tuxmatlar, tana dashnomlar yogdirishiga sabot bilan chidadi, axdidan kaytmadi, yovzulik saltanati kulida uz olimlik iste'dodini kugirchok bulishiga, xarbiy murvatga aylanishiga yul kuymadi. Oxir - okibatda u inson xukuklarining jaxon tan olgan eang buyuk ximoyachilaridan biri sifatida butun insoniyat taksiniga sazovor buldi. Bunday misollarni kuplab keltirish mumkin. Bulardan tashkari, muallimlik odobi, xukuk-tartibot xodimlari odobi, muxandis odobi singari bir kancha kasbiy odob turlari borki, ular xam jamiyatda axlokiy munosabatlar silsilasida muxim axamiyatga ega. SHuni xam aytish kerakki, barcha kasbiy odob konun-koidalarining ta'sir doirasi mikyosi bir xil emas. Ba'zi bir kasbiy odobning buzilishi oddiy odobsizlik doirasidan chikib, axloksizlikka aylanib ketadi. Masalan, raxbarlik odobiga ba'zi nuktalarga tuxtalaylik. Raxbar kuyi lavozimdagilarga mensimay, kupol munosabatda bulishi, uziga ishonib topshirilgan xudud yoki tashkilotdagi oddiy odamlar arz-dodiga, orzu-istaklariga turalarcha sovukkon karashi odobsizlikka kirsa, uning shaxsiy boylik orttirishi yulida korruptsiya vositasida mamlakat, viloyat yoki tashkilot manfaatlarini kurbon kilishi axlksizlik, nafakat raxbarlik kasbiga balki Vatanga xam xiyonat tarzida baxolanishi mumkin. Ba'zan kasbiy odobni kasbiy axlok deb atalishi xam shundan. YUkorida keltirilganlaridan kurnib turibdiki, kasbiy odob muammosi, ba'zilar uylaganidek, axlokshunoslikning mayda masalalaridan emas. Uni xar tomonlama urganish kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabatini tadkik etish XXI asr axlokshunosligida muxim urin egallayajak. Zero kasbiy odob shaxs va jamiyat axlokiy xayotida uzini amaliy axlok tarzida namoyon etuvchi ma'naviy xodisa sifatida baxolanishi lozim.

Asosiy tushunchalar

Fazilat, illat, muxabbat, ezgulik, yaxshilik va yomonlik, adolat, burch, vijdon, nomus, ideal, hayotning ma'nosi, baxt, ahloqiy tamoyillar, ahloqiy me'yorlar, oila, nikoh, fuqarolik jamiyat, kasbiy odob, tarbiya.

Takrorlash uchun savollar

1. Fazilat va illat atamalarining izohlang?
2. Muhabbat – ahlokshunoslikning eng keng qamrovli mezoniy tushunchasi ekanligini tushuntiring?
3. Ahloqshunoslikning asosiy tushunchalarini izohlang?
4. Ahloqiy tamoyillar ularning turlari haqida gapirib bering?
5. Kasbiy odob va uning ahlokiy madaniyat tuzilmasining o`rnini ko`rsating?

Adabiyotlar.

1. O`zbekiston Respublikasining Konstituttsiyasi. T., 2001.
2. Karimov I.A. O`zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., 1995.
3. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo`lsin. T., 1994.
4. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» gazetasi, 2000 yil, 8-iyun.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. T., 1992.
6. Milliy istiqlolol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.,2000.
7. Sher A. Axloqshunoslik. T. 2000.
8. Aristotel. Nikomaxova etika; Bolshaya etika. // Aristotel. Sochineniya v 4-x tomax, t-4. M., 1983. 9. Slovar po etike. M., 1989.
9. E. U. Umarov, F. B. Zagыrtdinova Etika T., 2005.
10. E. U. Umarov, F. B. Zagыrtdinova. Etika. T. 2005
11. SHer A. Axloqshunoslik. T. 2005.

Katta o`qituvchi Jumaniyozov B.

16. Ma’ruza. Mavzu: Estetikaning predmeti, tadqiqot doirasi va vazifalari.
(2 soat)

Reja:

1. Estetika fanining predmeti
2. Estetik tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari
3. Turkiston ma’rifatchi – jadidlarining estetik qarashlari

1. Estetika fanining predmeti

Har bir fan ўzining ўrganadigan predmeti, mavzui va tadqiqot doirasi bilan ajralib turadi.Xўsh, estetika fani nimani ўrganadi, uning maqsadi va vazifalari nimadan iborat, degan savol estetika tushunchasini birinchi bor eshitgan vaqtda tug`ila boshlaydi.

“Estetika” sўzi yunoncha sўz bўlib, “sezish”, “his kilish qobiliyati” kabi ma’nolarni anglatadi, ya’ni nimani sezish, nimani his kilish mumkin? Tabiat gўzalligini, insoniy fazilatlar gўzalligini seza bilish, his kila bilish mumkin, umuman gўzallikni har erda, inson qaerda bўlmasin uni seza, his qila bilish qobiliyatidir. Qadimgi yunonlar insonning his- tuyg`ulariga ta’sir etuvchi barcha narsalarni estetika sohasiga kiritganlar.Estetika fani dastlab falsafaning bir bўlagi sifatida gўzallik tўg`risidagi ilk falsafiy qarashlarni ўzida aks ettira boshlagan, ya’ni insonning voqelikka estetik munosabatini, uning badiiy rivojlanish jarayonini ўrgana boshlagan. SHunday faylasuflardan Pifagor, Geraklit, Sokrat,Aflotun va Aristotellarni aytib ўtish mumkin. SHunday bўlsada, estetikani alohida ilm-fan sohasiga aylanishi 18- asrda nemis faylasufi Aleksandr Baumgarten tomonidan amalga oshirilgan.SHunga qadar estetika falsafaning bir bўlagi sifatida amal qilib kelgan.Umuman olganda estetika insonlar jamoa bўlib yashay boshlaganlaridan rivojlana borgan, ya’ni inson tabiatga yakinroq bўlganidan keyin tabiat gўzalligini payqash, gўzal joylarga borib maskanlar qurish, tog` qoyalariga suratlar chizish, turli xil hayvonlarning suyaklaridan takinchoqlar, terilaridan kiyim-kechaklar tayyorlashlari, ularning gўzallikni his qila bilish qobiliyatining rivojlanganligidan dalolat beradi.

Olamdagi tirik jonzotlar ichida aql-zakovat sohibi bўlgan odam yorug`likni qorong`ulikdan,ranglarni oq-qoradan ajrata olish, kulguli va fojiali holatlarni fahmlab, mushohada qila olish-u,nafosat, gўzallik,ezgulik, ulug`vorlik, olijanoblik olamiga intilish bilan birgalikda xunuklik, xudbinlik, loqaydlik, johillik, pastkashlik kabi illatlarga qarshi kurash olib borish qobiliyati ham in’om etilgan. Inson shu qobiliyati tufayli ўzligini anglaydi va ўz - ўzini har tomonlama rivojlantirib, komil inson bўlib etishishga harakat qiladi. ***Inson tabiatni ўzlashtirar, madaniyatlashtirar ekan, u shu borliqni estetik jihatdan ўzlashtiradi, shuning uchun ham estetika fani insoniyat tomonidan borliqni estetik ўzlashtirish mohiyati va uning qonuniyatlarini ўrganadi.***

SHunday qilib, «estetika» tushunchasiga batafsilroq tўxtalamiz.Estetika sўzi kўpincha narsa va hodisalarning rang-tusi, shaklidagi mukammallik, mutanosiblik, latofat ma’nolarida ham qўllaniladi.Ba’zi bir holatlarda estetika sўzi nafosat sўzi bilan ham sinonim sўz sifatida ishlatiladi, yoki aynanlashtiriladi.Estetika fanining tadqiqot doirasi nihoyatda keng bўlganligi sababli nafosat tushunchasi badiiy ijod namunalariga nisbatan qўllaniladi, lekin u ўzida bir butun fanni ifoda eta olmaydi.Bundan tashqari, estetika

tushunchasi barcha narsalarga did bilan yondoshish, kishilarning yaxshi fe’l-atvori, muomalasi, nutqi, did bilan kiyinishi va atrofga munosabati nuqtai nazaridan ham ishlatiladi.

Estetika fan sifatida voqelikni gўzallik asosida in’ikos etib, inson amaliy faoliyatining hamma sohalarida gўzallik namunalarini hosil qilgan holda, badiiy ijodning umumiy qonunlarini ўrganadi. Estetik qarashlarimiz, tasavvurlarimiz, baholarimiz har birimizda ўta individual (ўzimizga xos) bўlgani sababli, ularni xolisona baholash va izohlash estetika fanining vazifalaridan biridir.

Gўzallik olami juda bepoyon va serqirradir. Tasavvur etib kўring-a, kўm-kўk moviy osmon, quyosh botayotgandagi manzara, kamalakning jilvalanishi, endigina ochilgan gulning tarovati, tovus patlarining tovlanishi, dengiz shovqini,tungi cheksiz osmon, uzoq ўlkalarga uchib ketayotgan turnalar, oltin kuz paytida daraxtlardan tўkilayotgan yaproqlar, tog`ning qorli chўqqilari, oqib tushayotgan sharshara, yog`ayotgan yomg`ir shovqini yoki qor parchalari, qadimdan qolgan binolar,qolaversa aql va mahorat bilan ishlangan buyum oldida inson qanchalik zavq-shavq olishi, hayratlanishi, sevinishi va achinishi mumkin. Kўrinib turibdiki, insoniyat faqat gўzallik bilan qurshalgan, inson ўsha gўzallikni seza bilishi va shulardan bahramand bўlib, gўzallikning hali no’malum bўlgan qirralarini yarata olishi zarur. SHunday ekan, biz gўzallik olami yoki gўzallik deganda, qandaydir alohida, ўz holicha mavjud bўlgan predmetlarni, hodisalarni va hatti-harakatlarni emas, balki bizning real olamimiz tabiat, mehnat, ijtimoiy faoliyat, hulq-atvor, turmush hamda voqelikni badiiy obrazlarda aks ettirgan san’atni ham tushunamiz.

Estetika fanining ***asosiy mavzui bўlgan gўzallik*** ichki va tashqi ma’nolarga ega. Insonning chehrasi, qomatidagi gўzallik ma’lum qimmatga ega bўlsada,bu hali tўla ma’nodagi gўzallik emas.Qachonki inson tashqi qiyofasi bilan birga, uning ichki olami-hulki,fe’l-atvori,mexnatsevarligi, ezgulikka intilishi va boshqa jihatlari gўzallik hislatlari bilan muofiq bўlsa,ular mukammal gўzallik sifatini oladilar. Demak tabiatdami, jamiyatdami,san’atdami hohlagan bir predmetimiz tom ma’nodagi gўzallik hissini uyg`otar ekan, u ham shaklan, ham mazmunan gўzal bўlishi zaruriy shartlardan biridir.Insonlar tartibsizlik, nojўyalik, nomuofiqlik salbiy munosabat tug`dirishini, ўzidan qochiruvchi taassurotlar hosil qilishini allaqachonlar payqaganlar.Aksincha, tartiblilik, xushbichimlilik ijobiy ta’sir etib, yaxshi taassurotlar hosil qilgan. Qadimgi yunonlar tartibsizlikni, xunuklikni «xaos» sўzi bilan, gўzallikni, xushbichimlilikni, ўzaro uyg`unlikni «kosmos» sўzi bilan belgilaganlar. Ular tabiatning predmet va hodisasining birinchi gўzallik belgisi - butun qismlarning uyg`unligida, ya’ni garmonikligida deb, bilganlar. Garmoniya – bu predmet tashqi qiyofasining ichki mohiyatiga mos kelishi,yaxlit qismlarning tartibliligi,uyushganligidir. Ana shu ma’noda garmoniya inson tomonidan yaratilgan gўzallikning birinchi sharti hamda hayotning ijobiy xususiyati sifatida idrok etiladi. Garmoniya buzilgan, uyg`unlik bўlmagan joyda sўnish va oqibat natijada ўlish boshlanadi.

Gўzallikka intilish tabiiy ehtiyojdir. Bu ehtiyoj tarbiya vositasida namoyon bўladi. Gўzallik qurshovida yashagan inson bilan xunuklik muhitida ўsgan odam ўrtasida albatta katta farq mavjud.Gўzallik tarbiyasi insonni ma’naviy kamolatga etaklaydi, estetik his-tuyg`ularni taraqqiy ettiradi. Estetik his-tuyg`u insonni qurshab turgan muhitdagi ruhiy tuyg`u paydo qiluvchi gўzallik va xunuklikni, ulug`vorlik va pastkashlikni, fojiaviylik va kulgulilikni idrok etish va baholash qobiliyatidir.

Estetika fani falsafiy bilimlar tizimida ўziga xos ўrin egallaydi. U, eng avvalo,

falsafiy bўlib, uning nazariy va uslubiy asoslarini falsafiy tafakkur nazariyasi va tarixi tashkil qiladi. Estetika shu bilan birgalikda boshqa ijtimoiy fanlar bilan ham uzviy bog`liq va aloqador. Eng birinchi navbatda estetika fani ruhiyashunoslik (psixologiya) fani bilan ўzaro bog`liq. Bu bog`liqlikning asosi shundaki, voqelikka estetik munosabatning barcha tomonlari estetik did yoki estetik his-tuyg`u, badiiy ijod yoki badiiy idrok qilish jarayonlari ruhiyat mezoni bilan ўlchanadi. Estetika insonning ruhiy kechinmalari,his – tuyg`ulari bilan bevosita bog`liq, ya'ni estetika fani inson ruhiy hayotining eng murakkab va nozik tomonlarini qamrab oladi. Estetikaning tarkibiy qismlarini ruhiyashunoslik fanining erishgan yutuqlari va xulosalaridan foydalanmasdan turib tasavvur etib bўlmaydi.

Estetika san'atshunoslik fanlari bilan ham ўzaro aloqadorlikda rivojlanadi. Estetika san'atshunoslik bilim sohalari uchun boshlangich nazariy va uslubiy asos bўlib xizmat qiladi. Ayni paytda u adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, teatrshunoslik va boshqa shu kabi sohalar bilan ham hamkorlik qilish jarayonida rivojlanib bormoqda. Estetika fani san'atdan bahramand bўluvchilar – tomoshabin, kitobxon, tinglovchi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Ular san'at haqida qancha kўp bilsalar, san'at mohiyati va burch vazifalari haqida qanchalik chuqur va xaqqoniy tasavvurlarga ega bўlsalar, ularda san'at bilan doimiy muloqotda bўlishga intilish kayfiyati shunchalik kuchli bўladi. Estetika fani san'at haqida faqat bilimlar beribgina qolmay, tomoshabin, kitobxon, tinglovchilarda badiiy ijodga nisbatan qiziqish uyg`otadi, badiiy ijod esa inson faoliyatining eng murakkab turi, eng kўp aqliy va jismoniy kuch talab qiladigan sohadir. Estetika fani sotsiologiya fani bilan ham uzviy bog`liq. Bu bog`liqlik shundan iboratki, bўsh vaqt tizimida san'atning ўrni shaxsning estetik madaniyati bilan mehnat faoliyati ўrtasidagi aloqadorlikka taalluqli bўlgan ma'lumot va axborotlarni jamlash va ilmiy qayta ishlab chiqishda yaqqol kўzga tashlanadi.

Estetika fanining hozirgi davrga xos xususiyatlaridan biri shuki, bu sohaga kibernetika va matematika kabi fanlarning usul va vositalari ham izchil kirib kelmoqda. Ayniqsa, kompyuterlarning insonga ta'siri va halq xўjaligini rivojlantirishda gўzallik qonuniyatlarini rivojlantirish, gўzallik chegaralarini yanada kengayishiga va inson aqli bovar qilmaydigan hodisalar sodir bўlishiga sabab bўlmoqda. Estetikaning amaliyot uchun ahamiyati nimada? U voqelikka qanday ta'sir ўtkazadi? Estetika ijtimoiy bunyodkorlik jabhasida qay tarzda ishtirok etadi? Bu savollarga javob berish ham estetika fanining asosiy mavzulari hisoblanadi.

Estetika fani boshqa fanlar bilan qanchalik bog`liq bўlmasin, uning asosiy mavzui gўzallik va xunuklikni ajrata bilish, gўzallik olamiga xunuklik olami doimo zid bўlib, ular ўrtasidagi kurashning domiyligi - estetika fanining mohiyatini, uning falsafiy fan ekanligini ta'kidlaydi. SHunday ekan, ***estetika fanining maqsad va vazifalari*** ham jamiyat ijtimoiy-ma'naviy va madaniy-marifiy rivojlanish jarayoni bilan uyg`unlikda namoyon bўladi. Mamlakatning rivojlanish surati yangicha mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol,ahloqiy-estetik jihatdan tarbiyalangan, ma'naviy etuk mutaxassislarga bўlgan talabni alohida bosqichga kўtardi.Mulk shakllarining hilma-hilligi,huquqiy madaniyatni yuksaltirish, bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikning kuchayishi, ishlab chiqarishga yangicha texnologiyalarning kirib kelishi yuqori darajada tarbiyalangan va yuksak malakaga ega bўlgan mutaxassislarni taqazo etayapti. Mustaqil davlatning oliy maqsadlarini amalga oshira oladigan mutaxassislarni shakllantirish uchun ularning shaxsiyati ijtimoiy talablarga javob bera oladigan tarzda kamolga etgan bўlishi lozim.

Estetika fani ham ўz oldiga ana shunday barkamol insonni shakllantirishni maqsad

va vazifa qilib belgilagan.Har bir insonda yuksak estetik didni shakllantirish, gўzallikni har qaerda kўra bilish va qadrlashni ўrganish va ўrgatish estetika fanining boshqa ijtimoiy fanlardan farqli ravishda ўz oldiga qўygan maqsadlaridan biri hisoblanadi. Albatta maqsadga erishish uchun bir qator vazifalarni amalga oshirish zarur. YUksak estetik didga ega bўlgan barkamol shaxsni shakllantirish yўlida estetik tarbiya vositalari muhim omil bўlib xizmat etadi.Estetik tarbiya tizimi oila va maktab, ishlab chiqarish jamoalari, mafkura muassasalari,ijtimoiy-siyosiy va ommaviy tashkilotlar kabi bўg`inlarda yaxlit holda amal qilgandagina kutilgan natijalarga olib keladi. Ўzbekiston mustaqil davlati fuqarolarining estetik ongini, estetik didini rivojlantirib, ularda gўzallikka bўlgan munosabatni yanada yuksaltirib, butun jahonda ўziga xos munosib ўrin egallash, qolaversa malakatimiz demokratik rivojlanish jarayoniga ўz hissasini qўshish - estetika fanining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

2. Estetik tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari

Har bir fan sohasi o`zining uzoq o`tmishiga ega bo`lgani kabi, estetika fani ham juda boy tarixga ega. U dastlab falsafaning bir bo`lagi sifatida amal qilgan bo`lsa-da, asrlar davomida rivojlanib, o`zining muhim jihatlari bilan alohidagi fan bo`lib ajralib chiqqan. Bu to`g`rida o`tgan mavzularda qisqacha to`xtalib o`tilgan edi.

Estetika fanining vujudga kelishida estetik fikrlar va g`oyalar eng birinchi «kurtaklar» vazifasini o`taydi. Estetik fikrlar deganda nimalarni tushunamiz? Insonlar qadim zamonlardan tabiat go`zalligini, undagi barcha jonzot va o`simliklar go`zalligini payqay olganlar. SHuning uchun ham ular tabiatning eng so`lim va go`zal maskanlariga borib yashaganlar, turli xil hayvon terilaridan yoki parlaridan kiyim-kechaklar tayyorlaganlar, suyaklaridan taqinchoklar va kundalik hayotda zarur bo`ladigan predmetlarni yasay olganlar va albatta tog` qoyalariga suratlar chizib qoldirganlar. Bundan ko`rinib turibdiki, qadimgi odamlar go`zallikni eng sof xolda in’ikos eta olganlar. Eng dastlabki estetik g`oyalar Qadimgi SHarq mamlakatlarida xususan Misr, Hindiston va Xitoy mamlakatlarida ibtidoiy tuzumning qulashi va quldorlik tuzumining vujudga kelishi bilan yuzaga kela boshlagan. Falsafa va fan sohasida olib borilgan tadqiqotlar estetik g`oyalar aynan SHarq mamlakatlarida paydo bo`lganligini ta’kidlab berdi, chunki yaqin o`tmishda estetik g`oyalar dastlab Qadimgi YUnonistonda shakllangan, degan fikr-mulohazalar mavjud edi.

Estetik dunyoqarash – go`zallikni anglay boshlash eramizdan oldingi IV asrdan boshlab qadimgi Misrda shakllana boshlagan. Qadimgi Misrliklar tsivilizatsiyasi o`zining ulug`vorligi, «ulkanligi» bilan ajralib turadi-ki, bunda bir vaqtning o`zida ishlab chiqarish kuchlarining juda past darajasi bilan shunday katta va ulug`vor yodgorliklarni yaratishlari aql bovar qilmaydigan hodisalar jumlasiga kiradi. O`zining kundalik hayotida Misrliklar o`zlari yashaydigan joylarni loy va daraxtlardan qurishgan bo`lsa, qabrlarni va ibodatxonalarni toshdan yasashgan, toki ular qurgan imoratlar asrlarga dosh berishi va umrboqiy bo`lishi, shu bilan esa vaqtning ustidan g`alaba qozonish uchun shunday qilishgan. Qadimgi Misrliklar hamma narsani o`z qa’riga tortuvchi vaqtga qarshi o`z munosabatlarini shu zaylda ko`rsatganlar. Xeops piramidasi - piramidalar ichida eng kattasi hisoblanadi. Bunda u 2,5 milliondan ortik blok - toshlardan hech qanday moslamalarsiz va bir-birlariga yopishtiruvchi ashyolarsiz joylashtirilgan.Xeops piramidasining balandligi 147 metr, asosi esa salkam 1 kilometrga teng. Bu piramidaga

tosh olib kelish uchun qurilgan yo`l 10 yilga teng bo`lgan, piramidaning o`zi esa 20 yil davomida qurib bitkazilgan. Piramidalarni qurishga qullar, hunarmandlar va dehqonlarni yollaganlar, natijada hunarmandchilik va chorvachilik sohalari rivojlanmasdan qolgan. Dehqonlar va hunarmandlarning noroziligidan keyin uncha kata bo`lmagan piramidalar qurila boshlandi. SHunday piramidalardan Misrda 70 ga yaqini qurib qoldirilgan. Hozirgi davrda bu to`g`rida shunday fikrlar mavjud: «Piramidalarning qurilishi Misr davlati iqtisodiga juda katta zarar keltirgan, davlat xazinasini quritgan, halk tomonidan juda katta kuch va matonat talab etgan. SHuni taxmin kilish mumkin-ki, agar Misrliklar shunday matonat va qaysarlik bilan piramidalar emas, balki yo`llarni qurishsa, Misr iqtisodiy rivojlanishi yanada kuchliroq bo`lgan bo`lardi».

SHunday bo`lsada piramidalar dunyoni estetik anglashning eng dastlabki na’munasi, inson imkoniyatlarining bepoyonligi sifatida iz qoldirgan.

Aynan qadimgi Misr madaniyatida birinchi bo`lib insonning olam oldidagi ma’suliyati, olamning rivojlanishi uning shaxsiy hayoti bilan bog`likligi tug`risidagi goyalar ilgari surilgan edi. YA’ni o`lgan odamning takdiri uning erdagi hayotining ahloqiyligiga bog`liqdir, deb hisoblanar edi. Har bir odam o`lishidan oldin erdagi hayoti to`g`risida Osiris oldida hisobot berishga tayyorgarlik ko`rar edi: «Men o`z qalbimda Haqiqat va Adolatni saqlab keldim, chunki men undan yomonliklarni xaydadim... Men yaqinlarimga nisbatan johil bo`lmadim. Men haqiqatni yolg`onga almashtirmadim. Men yomon odamlar yoniga bormadim. Men boshqalarni o`zim uchun ishlashga majbur qilmadim. Men o`z manfaatim yo`lida yolg`on ishlatmadim. Men kambag`al odamni och qoldirmadim. Men boshqa birovni qiynalishga majbur qilmadim.

Men boshka birovlarning va og`a-inimlarimni yig`lashiga sababchi bo`lmadim. Men hech kimni o`ldirmadim va o`ldirishga buyurmadim. Men o`z boyliklarimni noto`g`ri yo`l bilan ko`paytirishga urinmadim. Men o`zgalarni mollarini o`g`irlab ketmadim. Men xudolarga atalgan qushlarni tuzoqlar qo`yib ovlamadim. Men baliqlarni o`liksa narsalar bilan ovlamadim. Xudoning erda voqe bo`lishiga halaqit qilmadim...»

«Hayotda adashgan odamning o`z ruhi bilan suhbati» asarida shunday yoziladi:

O`lim keldi bugun mening oldimga
Mastlik qirg`ogida o`tirgan insonga
Nilufar gullarning hidlari kelgani kabi.
O`lim keldi bugun mening oldimga

Bulutlardan tozalangan osmonga o`xshab.
O`lim keldi bugun mening oldimga
Uzoq yillar tutqinlikdan qutilgan inson
O`z uyini yana ko`rgusi kelgani kabi.

Qadimgi Misrliklar inson yashashining eng qimmat va nozik masalalari bilan bog`lik muammolarni yorita olganlar. Ular umriboqiylikni qandaydir tarqoq, engil, ruhiy kechinma emas, balki uning yagonaligini, bir butunligini mutloq hamohanglikda deb bilganlar va butun kuch-quvvatini, ishonch va his-tuyg`ularni shunga qaratgan holda Koinot bilan «suhbatlashib» estetik fikr va g`oyalarni ilgari surganlar.Bu davrda inson erning oddiy bir namoyondasi emas, balki u mikrokosm (ulkan koinotning bir mitti

bo`lagi), chegarasi belgilanmagan (bepoyon) zahira ekanligi ya’nada chuqurroq anglab boshlangan. Koinot insonlarni o`ziga chaqirar, undar, yuksak jismoniy va aqliy kuchlarni,kundalik hayotdan moddiy resurslarni sarflagan holda buyuk va ulkan go`zallik yaratishni talab etganday edi. Lekin ulkan piramidalar, diniy marosimlar, koinot ila doimiy suhbatlar bilan birgalikda inson o`zligining buyukligi va bepoyonligiga chuqur ishonch hosil bo`lgan va mustahkamlanib borgan. Qadimgi Misrliklar go`zallikning metafizik shaklini nafaqat koinot bilan bahs qilib yaratdilar, balki dunyoviy hamohanglikning ahamiyatini tabiiy borliqni o`zida aks ettirgan she’riyat, rassomlik,xaykaltaroshlik orqali ham ochib berishga muvaffaq bo`lganlar. Masalan, «Atonga atalgan gimn»da quyosh xudosi haqida kuylanadi,u hayotga asos solganligi, tug`ilganlarga jon baxsh etishi, ekinlarni undirishi va ularni boshoqlarga aylantirishi, zulmatni o`z nurlari bilan xaydashi, erni gullarga burkashi, borliqni go`zallik bilan to`ldirishi to`grisida aytiladi. «Nil xudosiga bag`ishlangan gimn»da esa Misrliklarni buyuk kuch-qudratga ega bo`lgan daryoga minnatdorlik bilan munosabatda bo`lishlari yorqin va go`zal shakllarda aks ettirilgan. Insoniy xayotning kundalik tarzi tabiat hamohangligidan hayratlanish hissi bilan qorishib ketgan. Aslzodalar yashaydigan uylar atrofida bog`lar yaratilgan,sun’iy hovuzlar hosil qilingan, suhbat qurish joylari tuzatilgan, bu erlarda bemalol arfa ohanglaridan musiqa eshitish, fleytada o`ynash, raqqosalarni o`yinlarini tamosha qilish mumkin bo`lgan. Misrliklar uy jihozlarini yaratishda ham tabiat go`zalliklaridan mohirlik bilan foydalanganlar. Masalan, qoshiq ushlagichlari nilufar gullarning naqshlari bilan bezatilgan, sharob ichadigan idishlar-taqsimchalar ochilayotgan gul shaklida ishlangan, uylarning shiftlari yulduzli osmonni eslatib turgan, devorlar palma daraxtlarining barglari va ular ustida uchib yurgan kapalaklar bilan bezatilgan. Xullas, insonlar tomonidan yaratilgan barcha narsalarda ranglar uyg`unligi va tabiat hamohangligi to`la aks etgan. Koinot va tabiat go`zalliklarini aks ettirishdan tashqari, qadimgi Misrliklar inson o`zligining, uning insoniy fazilatlari go`zalligiga ham asosiy e’tiborni qaratganlar. SHu ma’noda ruhoniy SHeshi qoldirgan yozuvlarda bunday deyilgan: «Men haqiqatni uning yaratuvchisi xaqqi uchun izladim, men doim to`g`ri harakat qildim, men ojizlarni kuchlilardan himoya qildim, men ochlarga non, yalong`ochlarga kiyim berdim, men o`z otamni hurmat qildim va onamga mehribon bo`ldim, men bolalarni tarbiyaladim».

«Gerakliopol shohining o`z o`g`li Merikarga nasihatlari» da aytilishicha: «Haqiqat o`rnat va erda uzoq yashaysan. SHunday qilki, yig`layotganni ovut, bevaga jabr qilma, insonni otasining mol-mulkidan benasib qilma, odamlarni boyligiga qarab emas, balki uning qobiliyatiga qarab o`zingga yaqinlashtir». Qadimgi Misrda hamohang rivojlangan inson qanday yashash kerakligi to`g`risida dastlabki ahloqiy pandnomalar paydo bo`lgan edi. Bunda yolg`on gapirmaslik, g`iybat qilmaslik, tuhmat uyushtirmaslik, o`g`irlik qilmaslik, o`z xotiniga befavolik qilmaslik, qasos olmaslik kabilar aks ettirilgan edi. Bu erda shunday e’tikod paydo bo`lgan ediki, « kitob - qurilgan uydan muhimrokdir, qabrtosh - saroydan va ibodatxonadagi haykaldan afzaldir» Qadimgi Misrda asosiy e’tibor kutubxonalarga qaratilgan edi. U erda toshlarga, taxtalarga, papiruslarga tarixiy faktlar yozilar, tabiat hodisalarining muhim jihatlari aks ettirilib borilar edi. Hattoki devorlarda va shiftlarda tarixiy, astronomik, sehrgarlik, diniy va boshqa ma’lumotlar aks ettirilar edi, bu esa Misrliklarning qanchalik bilimga tashnaligini, yuksak ma’naviy ishlab chiqarish bilan mashg`ul bo`lganliklarini ko`rsatib turar edi. SHu asnoda eramizdan avvalgi VI asrlarga kelib qadimgi Misrning umumjahon – tarixiy jarayonidagi

yo`lboshchiligi o`z nihoyasiga etgan.

Estetik fikrlar rivojlanishining yana bir qadimiy o`choqlaridan hisoblangan mamlakat bu -Hindistondir. Bu erda ham ilk falsafiy va estetik qarashlar eramizdan oldingi II-I minginchi yillarda yuzaga kela boshlagan. Qadimgi Hindistonda dastlabki yozma manbalardan biri «Veda»lar hisoblanadi. Hindular «Vedani» oliy tangri Braxmanning og`zidan aytilgan so`zlar deyishadi. Aslini olganda «Veda» - bu bilim degan ma'noni anglatadi. Ushbu «Veda»larda hindlarning qadimgi tarixi, iqtisodiyoti, dini, falsafasi, ahloqi va estetikaga oid ma'lumotlar aks ettirilgan.Bundan tashqari halq badiiy ijodi bizlarga juda yaxshi tanish bo`lgan «Ramayana», «Maxabxarata» kabi doston, rivoyatlar va afsonalarda aks ettirilgan. Ularning xarakterli belgisi – hayvonlar, qushlar, o`simlik, daryo, tog`lar, osmon hodisalarining obrazli talqin qilinishidir. Masalan, endigina ko`tarilib kelayotgan quyosh nurlari shohli ho`qizlarga, bulutlar – barcha jonlilarga sut beruvchi sigirlarga o`xshatiladi. Hind she'riyatida ayolni sigirga qiyos qilish zavqli va husnkor hodisa hisoblangan. Masalan, Tulsi Dasaning «Ramayana» dostonida xudo Ramaning go`zal rafiqasi, o`g`irlab ketilgan malika Sitabonu (Janaki) haqida quyidagilar aytiladi:

Olib ketdi Janakini la'nati rakshas zo`ravon, Go`yo oppoq sigirni bo`ysundirdi, pichoq ila beomon.

Juda kelishgan tannoz, xushbichim qaddi-qomati kelishgan ayolning qadam bosishi xuddi filning yurishiga o`xshatiladi:

Oltin tovoqni ayollar to`ldirishib limmo-lim, Ketishdi kuylab, shohona fillardek tashlab qadam.

Qadimgi Hindistonning mazkur dostonlari o`zining muhtashamligi bilan ajralib turadi. Bunga bittagina misol keltirishning o`zi kifoya. «Maxabxarata»ning birgina turkumi- «Xarivanshu» yuz mingdan ortiq baytdan iborat bo`lib, dostonning o`zi 19 ta kitobni tashkil etadi. U qadimgi YUnon dostonlari «Iliada» va «Odisseya» larni qo`shib taqqos qilinganda ham, ulardan 8 baravar kattadir.

Qadimgi Hindiston estetika taraqqiyotida halk og`zaki badiiy ijodidan tashqari arxitektura, haykaltaroshlik, tasviriy san'at va zargarlik san'atlari ham muhim o`rin tutadi. Hindiston hukmdorlari saroylari, ibodatxonalar devorlaridagi rassomlik va haykaltaroshlik asarlari, erkaklar va ayollar uchun tayyorlangan tilla buyumlar bu mamlakatda madaniyat va estetika sohalarining keng rivojlanganligidan dalolat beradi.

Qadimgi Hindistonda yashagan halqlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti juda ham turg`un bo`lganligi sababli ularda urf-odatlar, marosim va qarashlarga qattiq rioya qilish qoida bo`lib qolgan. Qadimgi hindlarning bu ahloqiy taraflari estetik jihatlari bilan qorishib ketib, o`ziga xos ma'naviylik, inson hayotining barcha tamonlarini uyg`unlashtirishga, qolaversa jamiyat a'zolarining hamohang rivojlanishiga asos solgan. Haqiqatdan ham, «Maxabxarata», «Ramayana» va boshqa hind dostonlari bilan topishar ekanmiz, buni o`zimiz guvohi bo`lamiz, hayajonlanamiz, his-tuyg`ular orqali o`sha davrlarga sayohat qilamiz va o`zimizda bu asarlarga nisbatan muhabbat va hurmat hissi paydo bo`lganligini sezamiz. SHunday qilib qadimgi Hindistonda estetik fikrlar asrlar davomida rivojlangan va taraqqiy etib kelgan.

Qadimgi Xitoy mamlakati ham insonlarning eng qadimiy madaniyat o`chog`laridan hisoblanadi. Xitoy estetik fikrlarining dastlabki bosqichi eramizdan avvalgi VII asrdan III asrlarga bo`lgan davrlarni o`z ichiga oladi. Insoniyat dunyoni o`zlashtirish va anglashni afsonaviy dunyoqarash bosqichidan boshlagan ekan, Qadimgi Xitoy mamlakati ham bu

jarayondan mustasno emas edi. Bu erda ham ilk estetik fikrlar albatta afsona va rivoyatlarda, keyinchalik buyuk donishmandlar Konfutsiy, Lao-tszi, CHjuan-tszi, Xan Fey, Xuaynan-tszi kabilar asarlarida o`z aksini topgan. Afsonaviy tasavvurlarga, kelajakni bashorat qila oladigan amaliyotga va kundalik hayot faoliyatiga kelib taqaladigan Xitoy estetikasida estetik qadriyatlarni anglatadigan tushunchalar shunday tasniflangan: Masalan, in-yan - ikkilik timsoli: ayol va erkak, er va osmon, oq va qora, chap va o`ng, va hakazo:
tyan, jen, di - uchlik timsoli: osmon, er, va inson:
u sin - beshlik timsoli: dunyo asosida yotuvchi beshta unsur, beshta tovush, beshta asosiy rang koinotdagi beshta asosiy nuqta (markaz va dunyoning to`rt tomoni).

Xitoy estetikasi nazariyotchilari badiiy kadriyatlarni yaratishning 4 ta asosiy darajasini ko`rsatib berganlar. Unga asosan eng oliy daraja - ipin - ruhlanganlar - tabiatning o`zi hosil qilgan daholar tomonidan yaratilgan qadriyatlar darajasi. Keyingi daraja - shenpin - ilohiy mo`’jizalar - buyuk daholar yaratgan qadriyatlar. Uchinchi daraja - myaopin - ustalar tomonidan yaratilgan qadriyatlar va to`rtinchi daraja - nenpin - mayda hunarmandlar yaratgan buyumlar. Go`zallik bu faqat tabiat hodisasi emas, balki jamiyatda insonlar go`zalligi, san’atda badiiy bezaklar go`zalligi ham estetik hodisalar jumlasiga kiradi. SHunday ekan, Qadimgi Xitoy donishmandlaridan Konfutsiy (er.av.551-479y..) o`z asarlarida tabiatda, jamiyatda va san’atda insonning o`rni to`g`risidagi fikrlarni yozib qoldirgan. Uning fikricha, olamni osmon boshqaradi. Insonlar yashab turgan olam, undagi tartib osmon tomonidan nazorat qilinadi. SHuning uchun jamiyat tartibga qattiq amal qilishi lozim. Tartib - inson jamoasining eng oliy qadriyatlaridan biridir. Konfutsiy fikricha, shaxs faqat o`zi uchun emas, balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Inson o`ziga ravo ko`rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko`rmasligi kerak. Olijanob kishi hamma narsaga burch yuzasidan yondoshishi kerak, gapirganda kamtar, ishda esa haqgo`y bo`lishi lozim. Ana shunday olijanob fazilatlarga ega bo`lgan insongina haqiqiy go`zalliklarni yarata oladi, deb taxmin qilgan Konfutsiy Xitoy halqi xurmatiga sazovor bo`lgan. Uning ta’limoti bugungi Xitoyda va butun yaqin SHarq mamlakatlarida ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan.

SHunday qilib, Qadimgi Xitoyda estetik fikrlar o`ziga xos tarzda rivojlangan va o`zining rang-barangligi va jozibadorligi bilan butun jahon estetika tarixida muhim iz qoldirgan.

Estetik fikrlarning keyingi rivojlanish jarayonlari Qadimgi YUnonistonda, biroz o`tib esa Qadimgi Rimda davom etgan.YUnonlarning tasavvurida olam avval Xaos (tartibsizlik)dan iborat bo`lgan,Er –Geya deb, vaEr osti olami- Tartar deb atalgan. Geyadan Uran-osmon xudosi kelib chiqqan. Uran bilan Geyadan titan Kronos tug`ilgan va o`z otasi Uranni ag`darib tashlagan. Titanlar – katta xudolar hisoblangan.Kronosdan-Aid, Poseydon, Gestiya, Demitra, Gera va Zevs kabi kichik xudolar kelib chiqqan. Zevs boshchiligida kichik xudolar Titanlarni ag`darib tashlab olamni idora qila boshlaganlar. Zevs bosh xudo, xudolar ajdodi, chaqmoqsochar hisoblangan.Uning xotini Gera – osmon ma’budasi va nikoh xomiysi bo`lgan. Poseydon- dengiz xudosi, Demitra – hosildorlik ma’budasi, Gestiya- uy-ro`zg`or ma’budasi, Aid- er osti olami xudosi hisoblangan. Zevsning boshidan donishmandlik va urush ma’budasi Afina paydo bo`lgan, Apollon – ro`shnolik va san’at xudosi, Artemida - ov ma’budasi, Gefest- temirchilik xudosi, Afrodita –go`zallik va sevgi ma’budasi, Dionis- uzum va musallas xudosi sifatida e’zozlangan. SHuningdek,yunonlar ikkinchi darajali ma’budlarga Nimfa va Kentavrlarga ham sig`inganlar.Go`yoki chakalakzorlarda nimfalar, kentavrlar, dengizlarda esa sirenalar- ayol boshli qushlar yashagan. YUnoniston juda qadimdan afsona va rivoyatlar yurti bo`lib,

adabiyot va san’at rivojlangan. «Prometey», «Gerakl», «Dedal va Ikar», «Argonavtlar», «Odisseya», «Iliada» kabi afsona va dostonlarda qadimgi yunonlarning turmush tarzi va tarixi bayon etilgan. SHulardan «Odisseya» va «Iliada» dostonlarini eramizdan avvalgi YIII asrda yashagan ko`r baxshi Gomer yaratgan edi. Bularning barchasi o`sha davr san’atida – adabiyotlarda, tasviriy san’at asarlarida, haykaltaroshlik asarlarida o`z aksini topgan va keyingi asrlarga tarixiy yodgorlik sifatida o`tib kelgan. Bu o`z navbatida yunonlarning estetikaga bo`lgan munosabatini ham yorqin ifodasi ekanligini ko`rsatadi. Bugungi kunda bu afsonalar har birimizga yunon adabiyoti va san’at asarlari orqali juda yaxshi tanish. Ayniqsa, yunon afsonalari asosida ishlangan kinofilmlar har bir odamda qanchalik his-tuyg`ularni, boy tasavvurlarni hosil qiladi.

SHuni alohida qayd etish lozimki, tabiat va jamiyat hodisalariga ilmiy yondoshuv va ilmiy taxlil qilish jarayoni biroz keyinroq boshlangan. YUnon estetikasining asosida Qadimgi SHarq halqlarining boy falsafiy, ma’naviy va madaniy merosi yotadi. Jumladan yunon estetikasining eng dastlabki namoyondalaridan biri Pifagor (er.av. 6-5 asrlar) Misr mamlakatida bo`lgan va bu erda u juda ko`p narsalar bilan tanishgan, ko`pgina fuzalolar bilan muloqotda bo`lgan, bilmagan narsalarni o`rgangan. Bu haqda tarixiy manbalarda juda ko`p ma’lumotlar berilgan.[1] Pifagor va uning shogirdlari barcha narsalarning mohiyatini raqamlar va ularning o`zaro munosabatlari tashkil etadi, koinot yaxlitligida ham raqamlar aqidasi (g`oyasi) yotadi, deb uqtirganlar. Ular bu qarashlarini estetika olamiga ham tadbiq etib, estetik tafakkurni boyitishga harakat qilganlar. Pifagorchilarning nafosat asoslari, musiqaviy hamohanglik asoslari bilan, ya’ni «xilma-xil ovozli tomonlarning kelishuvi» umumkoinot hamohangligida (bu esa yunoncha garmoniya, deb yuritiladi) ekanligi haqidagi qarashlar va g`oyalar estetika tarixida muhim ahamiyatga ega.

SHu o`rinda buyuk donishmand Pifagor to`g`risidagi A.Navoiyning «Lison-ut-tayr» dostonida keltirilgan ma’lumotlarni keltirish juda o`rinli. Dostonda aytilishicha, Pifagor afsonaviy qush hisoblangan Qaqnus (yunoncha- Feniks) ni kuylaganini eshitgan yagona inson ekan. SHuning uchun ham Pifagor ilk musiqa notalari kashf qilishga muaffaq bo`lgan.

Qadimgi yunon estetik fikrlarining davomchisi Geraklit (er.av.540-480y.) nafosat hamohanglikni anglatadi, hamohanglik esa qarama-qarshiliklar birligini tashkil etadi, deb ko`rsatadi va go`zallikning nisbiyligi to`g`risidagi g`oyani ilgari surgan. Haqiqatdan ham, har bir narsa, har bir predmet, qolaversa insonlar ham vaqt o`tishi bilan o`zining go`zalligini, jozibadorligini yo`qotishi mumkin: masalan, yangi narsa eskiga , yoshlik qarilikka, go`zallik xunuklikka aylanishi mumkin. SHu nuqtai nazardan Geraklitning fikrlari estetika tarixida juda muhimdir.

YUnon estetik tafakkurida Demokrit (er.av.460-370 y) qarashlari ham alohida o`ringa ega. Demokrit go`zallikni hamohanglikda, bo`lak qismlarning to`g`ri mutanosibligida, ya’ni simmetrikligida, deb tushuntiradi va uni me’yor tushunchasi bilan bog`liqligini ta’kidlaydi. U san’at insonning dastlabki ehtiyojlari qondirilgandagina vujudga keladi, deb uqtiradi. Demokrit san’atning mohiyatini voqelikka taqlid qilish (bu esa yunonchada mimesislar, deb yuritilgan) da, deb bilgan.

Estetika tarixida Aflotun (er.av. 427-347y.) qarashlari o`zining falsafiy tomonlari bilan ajralib turadi. Aflotun fikricha, nafosat manbaini avvalo g`oyalar (ideya - g`oya, fikr, orzu,hayol) tashkil etadi. His-tuyg`u beradigan barcha narsalarni abadiy, o`zgarmas g`oya «yoritib turgan»dagina haqiqiy go`zallik kashf etiladi. Uning fikricha, go`zallik o`ta

hissiyotli bo`lgani tufayli uning mohiyatini his-tuyg`u bilan emas, balki aql-idrok bilangina anglash mumkin ekan. Abadiy, o`zgarmas g`oya timsolida Aflotun ilohiy bir narsani nazarda tutgan. O`sha ilohiy narsaning nigohi tushgan erda go`zallik paydo bo`lishi mumkin, deb tushunish lozim.

Qadimgi yunon estetika nazariyasining cho`qqisi va yakuni sifatida Arastu (er.av.384-322y) estetik qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Arastu fikricha, nafosat asosini moddiy dunyodagi narsalar tashkil qiladi, nafosat ana shu narsalarning tartiblilik, muvofiqlilik, aniqlik, uyg`unlik, yaxlitlilik xossalarida namoyon bo`ladi.

Arastu estetik ta'limotida Demokritning voqelikka taqlid qilish (mimesislar) haqidagi g`oyasi yanada rivojlantirildi. Arastu san'atning inson ruhiga o`tkazadigan ta'sir kuchiga alohida e'tibor berib, uning ahloqiy qudratini, olijanob fazilatlar yaratish kuchini, voqelikni anglash xizmatini ulug`laydi. Arastu fojiali voqea-hodisalar zaminida vahima, dahshat, rahm-shafqat orqali **inson ruhini poklantirish** (bu esa yunoncha **katarsislar,** deb yuritiladi) ta'limotini ilgari surgan.

Estetik fikrlarning keyingi rivojlanishi Qadimgi Rimda davom etgan. Rimlik donishmand Tit Lukretsiy Kar (er.av. 99-55y.) «Narsalar tabiati haqida»gi asarida qadimgi Rim estetikasida san'atning «zaruriyatdan» tabiiy kelib chiqqanligini ta'kidlab, uning ma'rifat uchun ahamiyati buyuk ekanligini ko`rsatib bergan.

**O`rta asrlar va yangi davr Evropa estetikasi tarixi.** O`rta asrlar Evropa mamlakatlari tarixida juda muhim va boy o`tmish bilan iz qoldirgan. YI-XYI asrlar fanda o`rta asrlar deyilib, qadimgi va an'anaviy madaniyatlar o`rtasidagi davrni bildiradi. Bu davrda insoniyat o`zining estetikaga bo`lgan munosabatini butunlay diniy dunyoqarash bilan birgalikda to`la namoyon eta boshladi. Bu davrda xristian dini hukmron mafkuraga aylanganligi sababli ijtimoyi hayotning barcha sohalari san'at, adabiyot, ahloq va estetika kabilar ham diniy mohiyat bilan qorishib ketganligini ko`rish mumkin. Qadimgi Misr piramidalarini qurishga qanday kuch va matonat sarf qilingan bo`lsa, bu davrda ham balandligi 150 metr keladigan minora va cherkovlar qurilishiga, ularni san'at asarlari bilan bezatishga juda ko`p moddiy va ma'naviy kuchlar, qolaversa minglagan insonlarning aqliy zakovati, kuch-quvvatlari safarbar etilgan edi. Bu davrda antik davrdan meros bo`lib qolgan cherkovlar atroflarida va devorlariga o`yilib ishlangan fantastik hayvonlar va qushlarning ko`rinishlari endi «Injil»da bayon etilgan voqea-hodisalarga umuman mos kelmasligi o`sha davr insonlarini qoniqtirmay boshladi. Bu to`g`rida cherkov episkopi Bernard Klervosskiy(1090-1153y.y.) shunday deb fikr bildirgan edi: «Nimaga endi monastirlarda o`qiyotgan birodarlarning ko`z oldida bunday kulguli yovvoyilik namoyon bo`lishi kerak? Iflos maymunlar nimaga kerak? YOvvoyi sherlar kimga kerak? Qo`rqinchli kentavrlar yoki yarim odamlar-chi? Nayza ko`targan askarlar-chi, surnay chalib ovga chaqirayotgan ovchilarning tasvirlari nimaga kerak?» B.Klervosskiyning qarashlari o`rta asrlar estetika tarixida juda muhim ahamiyatga ega bo`ldi.

Foma Akvinskiy-(1225-1274) o`rta asrlar faylasufi va iloxiyotchisi, sxolastikaning va uning tomizm oqimining asoschisidir. Estetika sohasida maxsus asarlar yozib qoldirmagan bo`lsada, F.Akvinskiy g`arb o`rta asrlar estetikasida uning asosiy tushunchalariga yakun yasadi. F.Akvinskiy hissiy qabul qilinadigan go`zallikdan tabiiy go`zallikni ustun qo`yib, uni faqat ilohiy go`zallik deb emas, balki o`z xolicha bor bo`lgan go`zallik deb baholagan. Uning fikricha, narsa shunday holda go`zal bo`lib ko`rinishi mumkinki, agarda uning tashqi ko`rinishida mumkin qadar uning tabiiy holati, mazmuni yoki «shakli» namoyon bo`lsa. Go`zallikni u uning ob'ektiv va sub'ektiv tafsilotlarining birligidan kelib chiqib aniqlaydi.

Ob’ektivlikka u mutanosiblik yoki hamoxanglik, aniqlik va birbutunlik yoki mukammallik kabi tushunchalarni kiritadi. Mutanosiblik deganda faqatgina miqdoriy negizlarni emas, balki sifatiy munosabatlarni ham ma’naviy va moddiy, ichki va tashqi, g`oya va shakl kabi uni ifodalaydigan kenglikda tushungan. Go`zallikning sub’ektiv jihatlarini F.Akvinskiy uning bilish faoliyati bilan bog`liqligida ko`radiki, bu ma’naviy qoniqish bilan kuzatiladigan ko`rish orqali amalga oshiriladi. «Go`zallik deb shuni aytish mumkinki, nimaiki o`zi bilan qoniqishni vujudga keltirsa», -deb yozgan edi u, hissiy qoniqishdan(masalan, ovqatlanishda) estetik qoniqishni ( ko`rish va eshitish) va hissiy-estetik qoniqishni (masalan ayollarning taqinchoqlari) ajrata olgan kabi. F.Akvinskiy fikricha, go`zallik ezgulikdan (yaxshilikdan) shunisi bilan farq etadiki, u (go`zallik) – qoniqish ob’ektidir, ezgulik bo`lsa – inson hayotining mazmuni va maqsadidir.

**Uyg`onish davri estetikasi.** Bu davrda Evropa mamlakatlarining barchasida ilm-fanning ko`p sohalari keng taraqqiy eta boshlagan edi. BU taxminan XIY-XYI asrlarni o`z ichiga oladi. Bu davr o`rta asrlar bilan YAngi davrni birlashtiruvchi hamdir. Bu davrning o`ziga xos xususiyatlaridan biri shu ediki, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o`rta asr qoldiqlaridan qutilish va hali rivojlanib ulgurmagan kapitalistik munosabatlar shu paytning badiiy madaniyatiga va estetik fikrlar rivojlanishiga o`z ta’sirini o`tkaza boshlagan edi. Bu davrning estetik va badiiy tafakkur jarayoni antik davr kosmologik qarashlar va o`rta asrlar ilohiyotidan farqliroq ravishda birinchi bor insonning tashqi real dunyoni hissiy qabul qilishiga tayana boshladi.

Renessans davrining odami endi o`z hayotini diniy g`oyalarga asoslab emas, balki o`z shaxsiy tajribasiga, faktlarni va voqea-hodisalarni kuzatib yashashga o`rgana boshlagan edi. U dunyoni xudoning ixtiyori bilan xarakat qilayotganini emas, balki dunyo – bu turfa xil insonlarning qiziqishlari va ehtiyojlarining qarama-qarshiligidan iborat bo`lgan kenglik ekanligini, ularni qondirish zarurligini tushuna boshladi.

Bu davrda ayniqsa tasviriy san’at – musavvirlik keng rivojlana boshladi, realizmga (real mavjud narsalarni tasvirlash) intilish kuchaydi. San’at sohasini o`z tajribasidan kelib chiqib go`zallikni yaratish sohasiga aylana boshlashi bu davrning muhim xususiyatlaridan biriga aylandi. Evropa Uyg`onish davrining buyuk ijodkorlari Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Petrarka, Mikelanjelo, Dyurer, Servantes, SHekspir va boshqalar estetik tafakkur rivojlanishiga ulkan hissa qo`shdilar. Leonardo da Vinchi (1452-1519) italyan musavviri, arxitektor, muhandis, tabiatshunos olim – bu davrning yorqin namoyondasidir. Uning «Madonna Benua», «Gul ushlagan madonna», «Djokonda» kabi rassomlik asarlari butun dunyoga mashhur. Uning estetik fikrlari aks ettirilgan asarlaridan «Musavvirlik xakida kitob»i estetik muammolarga bagishlangan. Uz asarlarida Leonardo da Vinchi musavvirlarga tabiat guzalligini asrashni maslaxat berardi, toki uni eng mukammal paytida xam kuzata olish va undan boshkalar xam baxramand bulishn uchun. Rafael Santining «Monna Liza», «Sikstina Madonnasi» asarlari xam Evropa Uygonish davrining yorkin san’at va estetik boyliklaridandir.

Badiiy asarlar yaratishda bu davrning real xayotiy vokealarini uz asarlarida aks ettirgan buyuk yozuvchilar SHekspir,Servantes,Dyurerlar badiiy adabiyot soxasini rivojlanishiga ulkan xissa kushganlar

XX asr Evropa estetik karashlari. Pragmatizm estetikasi (yunonchadan pragma – ish, xarakat) – garb estetikasida, asosan AKSHda XX asrning birinchi yuzaga kelgan va pragmatizm falsafasiga asoslangan yunalish.

Pragmatizm asoschisi CH.Pirs (1839-1914 y) , tushunchalarning mazmunini uni amalietdagi kullanishi bilan aynanlashtirib kursatishga uringan. Pirs estetika bilan juda kam shugullanganligiga karamay, uning goyalari (estetik belgilarni tasviriy san'atga kiritish, tasvirlanadigan predmetning xakikatdagi emas, balki xaeldagi, tasavvurdagi ifodalanishi va san'atni kadriyatlar sifatida tushunish) semiotik estetikani keyingi rivojlanishiga uz ta'sirini kursatgan.

Pragmatizm falsafasining yana bir namoendasi ruxshunos U.Djemsdir. U «ong okimi» tugrisidagi ta'limotni ilgari surgan, bu esa modernizm san'atida keng kullanilgan. Djems XX asr butun pragmatik estetikasining asosini egallagan printsipni ilgari surdi: insonning xar kanday faoliyatining maksadi « yaxshi tajriba» ga, ya'ni erug va kuchli xaetiy kechinmalarga erishishdir. Oxirgi jumla, Djems fikricha, uziga axlokiy, diniy va estetik kadriyatlarni xam kamrab olgan bulishi kerak.

Pragmatik estetikaning 3-boskichi Dyui va uning izdoshlari faoliyati bilan boglik. Ular kadriyatlar tugrisidagi ta'limotga anik ifodalangan estetik asosni tatbik etdilar: estetik kadriyatlar uzida diniy, ilmiy, axlokiy kadriyatlarni mujassamlashtirgan xolda eng oliy kadriyat deb tushunildi, guzallik esa ichki bogliklik va bir butunlikka erishgan tajribaning sifatiy kurinishi tarzida talkin kilindi.

Estetik tajribada biologik va ijtimoiylik urtasida alokani urnatishga intilish pragmatizm tarafdorlarini san'atning ijtimoiy vazifalariga madaniy-integrativ vokea, ijtimoiy axborot vositasi sifatida e'tibor karatishni yuzaga keltirdi.

Evropa pozitivizmi shakllaridan farklirok ravishda pragmatizmda sub'ektning faolligiga asosiy e'tibor karatiladi. Estetik kabul kilish jaraenida sub'ekt (tamoshabin, ukuvchi , tinglovchi) xar safar unga avtor eki ijrochi tomonidan xavola etilaetgan narsa kursatilaetgan paytda uzining tajribasi bilan solishtirib, birlashtiruv yuli bilan uz san'atini kayta xosil kiladi, deb xisoblaganlar.

Ekzistentsializm estetikasi (ekzistentsiya - lotinchadan bor bulmok, degan ma'noni angltadi.) –XX asrning boshlarida va urtalarida Evropa mamlakatlarida yuzaga kelgan falsafiy-estetik okim. Uning namoyandalari Germaniyada Xaydegger, K.YAspers, M.Buberlar bulsa, ikkinchi jaxon urushi davrida Frantsiyada Sartr, Kamyu, Marsellar tomonidan rivojlantirildi va keyinchalik boshka garb mamlakatlariga, xamda AKSH ga xam tarkala boshladi.Ekzistentsialistlar e'tiborining markazida shaxs munosabatlari, uning dunyoga, boshka insonlarga va iloxiyotga bulgan munosabatlari turadi.Xaydeggerning fikricha, san'at mazmun xosil kilmaydi, balki uni ochadi. Inson emas, balki borlikning uzi san'at asarlarining xakikiy yaratuvchisi, musavvir esa fakat vositachidir deydi. Diniy ekzistentsializm vakillarining fikricha, san'at olamning insoniy mazmunini xosil kiladi va shu bilan birga uziga xos «metafizik yozuv» sifatida bizni trantsendentga, ya'ni xudoga undovchi bulib yuzaga keladi. Xulosa kilib aytganda, ekzistentsializm estetikasi insonning borligi san'at orkali namoyon bulishi va uning iloxiy mazmun bilan korishib ketganligini kursatib berishga uringanlar.

Evropa mamlakatlari estetik tafakkur tarakkiyoti bilan tanishar ekanmiz, xakikatdan xam juda boy va mazmunli tarixga ega ekanliklarining guvoxi bulamiz. Estetik fikrlar tarixini urganar ekanmiz, buyuk xitoy faylasufi Konfutsiyning fikrlarini nakadar tugri ekanligini anglash mumkin. Eskini urganmay, yangini yaratib bulmaydi, degan u. SHuning uchun xam xar kanday fikrlar tarixini urganish foydadan xoli bulmaydi, inson dunyokarashini boyitadi va ular asosida yangi fikrlar paydo bulib boraveradi.

Ўzbek halki Markaziy Osiyodagi boshqa qardosh halklar qatori uzoq tarixga ega.

Uning paydo bўlishi va shakllanishi kishilik jamiyatining eng qadimiy davrlariga borib taqaladi. Markaziy Osiyo halqlari ўzlarining tarixiy taraqqiyoti jarayonida rang-barang va mazmunan boy madaniy meros yaratganlar, ilm-fan va madaniyat sohasida jahon tsivilizatsiyasi xazinasiga beqiyos xissa qўshganlar.

Markaziy Osiyodagi falsafiy va estetik fikrlarning dastlabki kurtaklari qadimiy ertaklar, afsonalar, rivoyatlarda va halq maqollarida ўz ifodasini topgan.Markaziy Osiyo halqlarining qadimiy mif va afsonalari turli mavzularda bўlgan.Bular asosan hayvonlar va qushlar haqidagi miflar, xudolar va afsonaviy qahramonlar haqidagi miflar bўlib, ularda yaxshilik, gўzallik va baxt saodat, quyosh nuri va issiqlik, yomonlik va xunuklik, zulmat va dahshatli sovuqqa qarama-qarshi qўyilgan. Guzallik va xunuklik, yaxshilik va yomonlik kuchlari urtasidagi kurash mifologik obrazlar Mitra,Anaxita, Kayumars, Jamshid, Elikbek kabi obrazlarda aks ettirilgan. Bu afsonalarning barchasi Qadimiy Avestada ўz aksini topgan

Qadimiy Markaziy Osiyo halqlari yaratgan og`zaki adabiyot yodgorliklari ichida qahramonlik eposi katta va muhim ўrin egallaydi. Ularda halqimizning chet el bosqinchilariga qarshi kurash olib borib, qahramonlik kўrsatgan yurtdoshlarimizning oliyjanobligi, vatanparvarligi aks ettirilgan.Bular ichida albatta Tўmaris,SHiroq, Zarina, Rustam, Siyovushlar haqidagi afsonalar to bugungi kunimizgacha etib kelgan va halkimiz bu afsonalarni e’zozlab, esga oladilar.

IX-XIII asrlar Markaziy Osiyoda tarixiy vokealarga g`oyat boy bўlgan davrdir. U Markaziy Osiyo xalqlari moddiy va ma’naviy madaniyatining rivojlanishidagi yorqin sahifalardan biridir. YAqin va Ўrta SHarq mamlakatlarida bu davrni shartli ravishda **“Renessans”** davri deb atashadi. Iqtisod, fan va madaniyatning g`oyat gullab-yashnashi bu davr uchun xarakterli bўlgan. Bu davrda Axmad Al Farg`oniy, Muso Al Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi yuzlab allomalar yashab ijod qilganlar.Buxoro, Samarqand,Urganch, Marv va boshqa shaharlarda madrasalar qad kўtarib, ilm-fan maskanlariga aylangan. SHuni ta’kidlash joizki, bu davrda dunyoviy ilm-fan ilohiyot bilan bog`liq holda ўqitilib, tavhid –Ollohni yagonaligini tanish, uning sifatlarini anglash, ya’ni **“Olloh gўzal, u yaratgan narsalar ham gўzal, u gўzallikni sevadi, shu bois komil insonning hatti-harakatlari ham gўzal bўlishi, inson gўzallikka gўzallik bilan javob berishi kerak” degan aqida asos qilib olingan edi.**

SHarq Renessansi davrining xarakterli xususiyatlaridan yana biri shuki, bu davrdagi yashab, ijod etgan kўpchilik allomalar qomusiy bilim egalari bўlganlar, ya’ni ilm-fanning barcha sohalarini mukammal bilganlar. Ana shunday qomusiy bilim sohiblaridan biri **Abu Nasr Farobiy (872-950)** bўlgan. U tabiiy ilmiy, falsafiy, ijtimoiy siyosiy, ahloqiy masalalar Bilan bir qatorda tilshunoslik, she’riyat, notiqlik san’ati, hattotlik va musiqa nazariyasiga oid kўplab asarlar yaratgan.

Abu Nasr Farobiyning bizgacha etib kelgan asarlardan biri “Baxt saodatga erishuv xakida” (yoki “Fozil odamlar shaxri”) risolasida ***inson gўzallikni samarali idrok etishi uchun unda nozik tabiat va aqliy mukammallik zamini bўlishi kerak, hissiy va aqliy qobiliyatga ega bўlgan insongina dunyoning barcha sirlarini bila olishi mumkin,*** deb ta’kidlaydi. “Inson aql-idroki tufayli haqiqiy insonga aylanadi, bilim insonga baxt va shodlik keltiradi, ***inson bilish orqali ўzida mukammallikni kashf etadi”***, deb uqtiradi. Farobiy odamlarni ilm bilan, san’at bilan shug`ullanishga da’vat etadi va shu tufayli gўzal narsalar tushunarli narsalarga aylanadi, deb kўrsatadi.

Farobiy inson qobiliyatini ikkiga: tug`ma va keyin erishilgan qobiliyatga ajratadi.

Uning fikricha tug`ma qobiliyatga biologik, jismoniy va ba’zi ruhiy xususiyatlar kiradi. Uni kamol toptirish jarayoni esa inson ўz hayoti davomida ilm, hunar ўrganishi, ahloqiy qonun-qoidalarni egallashi va san’atni hayotiy tajribasi bilan boyitishi orqali sodir bўladi. Bunday fazilat, jumladan, estetik fazilatlar inson atrofini qurshagan muhit ta’sirida shakllanadi.

Farobiy insonning ўz-ўzini tarbiyalashida, uni estetik rivojlanishida nazm va musiqaning ўrnini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, san’atning barcha turlari bir-biridan farq qiladi: nazm san’ati sўz bilan, tasviriy san’at esa bўyoqlar bilan ish kўradi, lekin ular insonga bir xil ta’sir kўrsatadi. U Arastu izidan borib, bu san’atlarning har ikkalasi taqlid qilish yordamida kishilarning tasavvuriga va hissiyotiga ta’sir kўrsatishni maqsad qilib qўyadi, deb ta’kidlaydi.

Farobiy san’at ўz mohiyatiga kўra ruhiy hayotning in’ikosi ekanligini yaxshi tushungan. Uning fikricha, musiqaning kishilar tuyg`usiga ta’siri buyukdir. Bu ilm shu ma’noda foydaliki, u ўz muvozanatini yўqotgan (odamlar) hulqini tartibga keltiradi, noqis hulqni mukammal qiladi va muvozanatda bўlgan odamlar hulqining muvozanatini saqlab turadi,deb ta’kidlaydi. U musiqaning shifobaxsh kuchini anglagan xolda, “bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir”, deydi. SHunisi qiziqarliki, Farobiyning ўzi mohir sozanda, bastakor, yangi musiqa asboblarining ixtirochisi ham bўlgan. U musiqaga inson ahloqini tarbiyalovchi, sixat-salomatligini yaxshilovchi tor kashf qilib, uni takomillashtirgan, ovoz imkoniyatini oshirgan.

Farobiyning “Baxt saodatga erishuv haqida” risolasida san’atning ulkan ta’sir kuchi haqida fikr - mulohazalar bayon qilingan. Uning fikricha, san’at insonda gўzal estetik fazilatlarni tarbiyalashga qodir kuchga egadir. Farobiy mazkur risolasida ta’lim - tarbiya masalalariga alohida tўxtalib, yoshlarning ahloqiy fazilati nizomlarini hamda ularning san’atni egallashlari uchun amaliy malakalarini tarbiyalash – tarbiyachilarning muqaddas vazifasi ekanligini kўrsatib bergan.

Farobiy insoniy sifatlarning barchasini odamlar va narsalar gўzalligi tarzida baholab, ularni maqsadga muofiqlik va foydalilik tomonlari bilan uzviy bog`laydi. U badiiy faoliyatni ўziga xos tarzda voqelikka taqlid qilishga qiyos etib, musavvirlik va she’riyat bir - biridan sўz va bўyoq vositalarida ifodalanishi bilan farklangan xolda odamlar tasavvurlariga taqlid orqali ta’sir ўtkazishni maqsad qilib qўyadi, deydi. Bu ta’sir, kuch - tasavvur deyiladi, hamda u tuyg`u va aql - idrok oralig`ida turadi. Farobiy estetik qarashlarida san’at yaratgan qiyofalar aql va umumiy mushohada qabul qilib olgan holda ўzining yakkaligini yўqotib qўymaydi, idrok uchun mumkin bўlgan aniq hissiy shaklini saqlab qoladi.

Markaziy Osiyoning bu davrda yashab ijod etgan qomusiy allomalaridan yana biri **Abu Rayhon Beruniy 973-1048** yillarda yashagan.Uning bizga qoldirgan asarlarida ham “mukammallik” komil inson ma’nosida qўllaniladi.U tabiiy fanlar bilan bir qatorda falsafa, adabiyot, ahloq muammolari bilan xam shug`ullangan, turli halqlarning urf - odatlarini chuqur ўrgangan. Uning “ Qadimiy halqlardan qolgan yodgorliklar”, “ Hindiston”, “Minerologiya” kabi asarlari komil inson aql - zakovati, ma’rifatining yorqin kўzgusidir.

Abu Rayhon Beruniy estetik qarashlarida voqea- hodisalarning ўzaro bog`liqligi va aloqadorlik manbai hamohanglik va uyg`unlikdir, deb kўrsatadi. Beruniy har qanday harakat va undan hosil bўladigan natijalar moddaga taalluqlidir,uning ўzi narsalar, voqea - hodisalarni bir - biriga bog`laydi va ular shakllarini ўzgartirib turadi, demak birlamchi

moddaning ўzi esa yaratuvchiga muhtojdir, degan fikrni ilgari suradi.

Beruniy estetik qarashlarida gўzallikning tabiiy asosi sifatida amal qiladigan hamohanglik (garmoniya) ayrim hodisalarga ham tatbiq etilgan bўlib, gўzallik tabiat va insonga xos bўlgan kamolot, etuklik sifati darajasida baholangan. **Beruniy fikricha, hech nimaga muhtoj bўlmagan narsalarni etuk, mukammal deyish mumkin.**

Markaziy Osiyo Uyg`onish davrining eng mashhur allomalaridan yana biri **Abu Ali ibn Sino (980-1037)** ўzining estetik qarashlarida ўzi yashab ўtgan davri va bizning davr uchun ham ahamiyatli bўlgan fikrlarni aytib ўtgan. U bobokalonimiz Beruniy bilan zamondosh bўlgan. U ўzining estetik qarashlarini ahloq muammolari bilan uzviy bog`lab bayon etgan. Jumladan, “Kitob ush shifo” asarining sўz boshisida musiqaning estetik xususiyati haqida gapirib, bu san’at turining ahloqiy tarbiyadagi ahamiyatiga, she’riyatning kishilarga gўzal fazilatlar singdirishi imkoniyatlariga tўxtalib ўtadi, “she’riyat tasavvurga ta’sir kўrsatuvchi nutqdir” deb uqtiradi.

Ibn Sino yosh avlodni tarbiyalash oila va davlatning muhim vazifasi, jamiyat taraqqiyoti, jamiyatning xўjalik va madaniy yutuqlari bevosita ma’lumotli, madaniyatli kishilarning ўsishiga bog`liq, deb hisoblaydi, **“barcha bilimlarga ega kishilar mukammallikka moyildir” deb ta’lim beradi, “mukammallik” atamasida u insonning ichki gўzalligi va ezgulikka intilishini ifodalaydi.**

Ibn Sino “Musiqa bilimiga oid tўplam” asarida tovushning sezgi organlariga ta’siri, uning yoqimli va yoqimsizligi, tovushni eshitganda lazzatlanish yoki nafratlanish hissining paydo bўlishi kabi masalalarga tўxtaladi. Unda musiqaning kishi hayotiga qanchalik zarurligi va uning paydo bўlishi sabablari haqida mulohaza yuritiladi, chunki inson tabiati yoqimli narsalar orqali engil tortadi, orom oladi, aks bўlsa og`ir tortadi, oromi yўqoladi, nafrat qўzg`oladi. Mana shu mulohazadan keyin Ibn Sino yoqimli va yoqimsiz ovozlarning hayot uchun qanchalik zarurligini ta’kidlaydi. CHunonchi hayvonlar ўzlariga tanish bўlgan ovoz bilan bir - biridan, ya’ni sheriklaridan xabardor bўladilar, shu ovoz bilan bir - birini topadilar, xavf - xatar tug`ilganda shu holatga mos ovoz chiqaradilar, natijada buni eshitganlar darhol ўsha ovoz chiqqan joyga yig`ilishga va dushmanga umumiy hamla qilishga shaylanadilar.

Ibn Sino insondagi til, nutq masalalariga ham tўxtaladi: “Ollohning insonlarga in’om etgan baxtlaridan yana biri inson nutqidir. Inson ўzining ana shu nutqidagi tovush ohanglari orqali ўz hissiyotlarini izhor etadi”, deb ta’kidlaydi.U xattoki shu narsaga ham e’tibor berganki, insonning ovozi ўzgarishi bilan uning nutq mazmuni ham ўzgarar ekan.Masalan, kishilar yalinganda boshqacha ovoz chiqarib gapiradilar, dўq pўpisa qilganda boshqacha va shoshib gapirganda nutq boshqacha bўladi, deb ta’kidlaydi.Buni haqiqatdan ham shunday ekanligini deyarlik har kuni kuzatish mumkin.

Ibn Sino fikricha, inson qalbi ўz tabiati bilan bir -biriga monand bўlgan tovushlar va ritmlarni yoqtiradi.CHunki tovush inson va hayvonlar hayotida eng zarur narsalardan biri, tovush insonni ham, hayvonni ham hayajonlantiradi,biror qўrqinchli hodisa rўy berganda bir - birini chaqirish borasida katta rol ўynaydi. Uning fikriga kўra: “ Inson qalbi har bir yangi va kўngildagidek nag`madan orom oladi. Keyinchalik xuddi shu yoqimli nag`ma g`oyib bўlsa, qalb hayajonga tushadi. Xuddi shu oldingi nag`maga ўxshash ikkinchi nag`maning paydo bўlishi bilan qalbdagi hayajon yўqola boshlaydi”.

Ibn Sinoning qayd qilishicha, ovozning baland - pastligi ham, ularning bir - biridan farq qilishi ham ўziga xos ma’noga ega ekan, ya’ni turli - tuman ovozlarda nazokat bilan ifodalangan ma’lum ma’nolar mavjud ekan.Insonlarning ovozlari biror ma’noni ifodalab,

kishi ruhiga ta’sir etishi mumkin-ki, shundan rang - barang fe’l atvorlar yuzaga kelishi aniq ekan. Olim fikricha, musiqiy ovozning darajasi qanday bўlishligi kishi ruhiga ta’sir etishda muhim ahamiyat kasb etar ekan. Albatta bugungi kunimizda buyuk allomalarimiz fikrlarini zamonaviy fanlar qayta ўrganib, ularning naqadar tўg`ri bўlganligini yana bir bor isbotlamoqdalar.

Markaziy Osiyo madaniyati, ayniqsa estetik tafakkur XY-XYII asrlarda jadal taraqqiy etdi.XII asrda mўg`illar istilosi tufayli Markaziy Osiyoning hunarmandchilik va madaniyat markazlari xonavayron bўlgan edi. Ammo mўg`il istilochiligi Amir Temur boshchiligidagi yirik davlatning tashkil topishi bilan barham topdi. Amr Temur davlatida ishlab chiqarish, savdo sotiq, hunarmandchilik va shaharlar qurilishi rivojlandi. Bu davrda Ulug`bek, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod kabi jag`on fani va madaniyatining buyuk namoyandalari bўlgan bir qancha mutafakkirlar, san’atkorlar yashab ijod etdilar.

XY asr falsafiy, adabiy estetik tafakkuri taraqqiyotini buyuk mutafakkir **Alisher Navoiy**siz tasavvur etib bўlmasa kerak. Alisher Navoiy ўzidan keyingi avlodlarga shunday xazina, gўzallik bilan nurafshon bir meros qoldirdiki, bu meros hali tўlaligicha ўrganilmagan.Navoiyning estetik qarashlarida komil inson tarbiyasi, uning gўzalliklar qurshovidagi hayot tarzi qanday bўlishi kerak, degan masala qўyilgan. Navoiy gўzallikni, nafis san’atni qadrlab, san’at inson ma’naviy olami,kamoli uchun kalit ekanini ta’kidlaydi. Uning yozgan she’rlaridan birining mazmuni bunday: bizga yana bir shifo dorisi berilgan bўlib, uni san’at deb ataydilar, gўzallik yaratuvchi san’atkorlar chizgan rasmlar mў’jizakordir. Ular inson ruhiga mayin ta’sir qilish qudratiga ega.

Navoiy ўzining “Farhod va SHirin” dostonida Farhod devorlarni suratlar bilan bezab, ularda SHirin rasmini chizganligini, ayni vaqtda SHirinning ўzi beqiyos husni bilan ajralib turganligini ifodalagan. Bundan tashqari, Farhodning otasi ўg`liga atab, tўrtta faslni ўzida aks ettirgan saroylar qurdirgani qanday ajoyib ranglarda tasvirlangan.Bu dostonni ўqigan har bir odamda muxabbatning qudrati nimalarga qodir ekanligini kўrsatib turadigan ulug`vor his tuyg`ular paydo bўlishi aniq..

Navoiyning adabiy, tarixiy va falsafiy asarlarida gўzallik, nafis san’at haqidagi fikrlar judayam kўp. Uning estetik qarashlari asosan «Majolis un nafois”, “Mezon ul avzon” va “Mufradot” asarlarida yorqin ifoda etilgan. Uning estetik qarashlarida badiiy adabiyot ma’naviy hayotning muhim bir sohasi bўlib, san’atkor inson ma’naviy ehtiyojiga, insof va adolatning barqaror bўlishiga xizmat qilishi, eng yaxshi insoniy xislat va fazilatlarni targ`ib etishi, kitobxon ongi, hissi va didiga ta’sir kўrsatishi muqarrardir, degan g`oya yotadi. Bundan tashqari, Navoiyning adabiy estetik qarashlari sўz san’ati va estetik tafakkur taraqqiysida muhim ўrin tutadi. Navoiy san’atning hayotni nafislatuv, kishilarni baxt - saodatga erishtiruv yўlidagi foydalarini rўy - rost ochib berdi.

XY asrda kўzga kўringan buyuk allomalardan yana biri **Zahiriddin Muhammad Boburdir.** Uning estetik qarashlarida she’riy san’at, musavvirlik, shaharsozlik, musiqa haqidagi mulohazalari muhim ўrin tutadi.Zahiriddin Bobur shoir, hattot,olim bўlishi bilan bir qatorda musavvirlikka ham nihoyatda qiziqqan. U ўzining shoh asari bўlmish “Boburnoma” da tabiat manzaralarini, odamlar qiyofalarini mohir musavvirlardek nazokat bilan tasvirlagan. “Boburnoma” da hirotlik va samarqandlik musavvirlar Kamoliddin Behzod, SHox Muzaffar Boysunqor mirzo,Haydar mirzolarning nomlari ham tilga olinadi.

“Boburnoma” da adabiyot va san’atda musiqa sohasining ўziga xos ўrniga e’tibor berilgan. Bobur XY-XYI asrda yashagan kamonchi, g`ijjakchi, naychilarning eng atoqli

ustodlari, peshqadamlari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi, ularning musiqanavislik madaniyatimiz taraqqiyotida badiiy adabiyot bilan uzviy hamkorlikda rivoj topib yuksalgani kўrsatilgan.Zahiriddin Muhammad Boburning estetik qarashlari uning “Risolai aruzi” asarida yaqqol ifodalangan. Bu asarida u XY-XYI asr ўzbek poetikasi hamda eski ўzbek tili fonetikasining aruzga munosabati, og`zaki va yozma adabiyot ўrtasidagi ўzaro ta’sir natijasida yuzaga kelgan adabiy janrlar, ba’zi tasvir vositalari, ularning ўziga xos xususiyatlari, shuningdek ўzbek, ozarbayjon, fors tojik adabiyoti namoyandalarining ijodi, asarlari haqidagi fikr mulohazalari mў’jaz qilib ifodalangan.

SHunday qilib, XY-XYI asrlarda mamlakatimiz estetik tafakkur taraqqiyotiga Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzodlardan tashqari boshqa allomalar ham ўzlarining buyuk hissalarini qўshganlar, bu tўg`rida qўshimcha adabiyotlardan ўqib olishlaringizni tavsiya qilamiz.

Markaziy Osiyo estetik tafakkur tarqqiyotini ўrganishning ahamiyati tўg`risida qisqacha tўxtaladigan bўlsak,har bir halq va har bir millat, ayniqsa yosh avlod ўz tarixini bilmasa, asrlar davomida ota bobolari va buyuk allomalar qoldirgan bebaho ma’naviy merosdan bebahra qolsa, milliy an’analari va urf odatlarini ўziga singdira olmasa, ўzining kimligini, ўzligini tushunmay qoladi. Tarixni bilish, undan tўg`ri va xolis xulosalar chiqara olish inson ma’naviy kamoloti uchun nihoyatda muhim.

3. Turkiston ma’rifatchi – jadidlarining estetik qarashlari

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning ilmli, xar jixatdan yuksak axlok-odob egasi bulishlari uchun ziyolilar orasida jiddiy xarakat avj oladi. Zero, oiladagi bola tarbiyasi yani yosh avlod tarbiyasi asosan onalar kulida ekani xammaga ayon bulib koladi. SHu bois ilgor, ziyoli ayollar nafakat kizlar maktablarini ochib, maktabdorlik kilish, balki axlokiy-tarbiyaviy risolalar yozish yuli bilan xam bulajak ziyoli onalarni voyaga etkazishga xissa kushadilar. SHu jixatdan Olimat ul-Banotning Sankt-Peterburgda 1898 va 1899 yillarda ikki marta nashr etilgan "Muosharat odobi" (Turmush odobi) asari uz vaktida katta axamiyatga ega bulgan. "Agar xotun ukigan bulsa, uzining kim ekanligin, vazifasi nimadan iborat ekanligini shak-shubxasiz biladi. Bolalarini esa guzal tarbiya kiladi, eri bilan yaxshi muomalada buladi va nixoyat Ollox Taoloning amriga muvofik xayot kechiradi", - deydi risola muallifi. Unda ayollarning turmushdagi urni, oilaviy vazifalari, er xotin orasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi uy tutish, nikox va muxabbat borasida fikrlar bildiriladi. Ayni paytda, uy xizmatchaliriga munosabatda insof va adolat yuzasidan, ularning xam uy egalariga uxshash inson ekanliklarini xisobga olib, ish kurish lozimlgi ta’kidlanadi, turmushning okilona uyushtirilishi uchun xizmat kiladigan ibratli maslaxatlar beriladi. Boshka bir tatar ziyoli ayoli Faxr ul-Banot Sibgatullox kizining sakson etti sabokdan iborat "Oila saboklari" (1913) risolasi esa tarbiyaning turli tomonlarini bir varaky uz ichiga oladi. Axlokshunos olima uz risolasi moxiyatini kuyidagicha belgiladi: "Oila saboklari xonimlariga, kizlar maktabi shogirdlariga oila vazifalari tugrisida foydali ma’lumot bergani kabi ukuvda tamom engillik va bir tarafdan asosli bir axlok sabigi xamdir". U un ikkinchi sabokda tarbiyani "ilmni axlokning tani, negizi" deb tariflaydi. Asar falsafiy mushoxadalardan kura kuprok amaliy kursatmalardan iborat. Ayni paytda, unda xam ma’naviyatga, xam moddiyatga zamonaviy munosabat masalasi urtaga tashlanadi, yuksak axlokli bolani voyaga etkazishda xar ikki yunalishdagi tarbiyaning muximligi ta’kidlanadi.

XX asr boshlarida amaliy axlok muommalari jadid matbuotida keng urin oladi. "Tarkkiy", "Sadoiy Turkiston", "Ulug Turkiston", "Turon", "Xurshid" singari gazetalarida e’lon kilingan xajviy jurnalistik asarlarda usha davr bayonlarining kalokligi, chor ma’muriyatining turachiligi, paranjining yangi zamonga mos kelmayotgani, talabalarga besh sum iona kilish urniga, besh yuzlab sumni restoranlarda foxishalarga sochayotgan axloksiz sarmoyadorlar kattik tankid ostiga olinadi. Maxmudxuja Bexbudiy, Munavvar kori Abdurashidxonov, Xamza, Ubaydullaxuja Asadullaxujaev, Abdurauf Fitrat, Abdulla Kodiriy, Abdulxamid CHulpon kabi Uygonish davrining buyuk namoyondalari uz badiiy asarlarida axlok muammolarini dadil kutarib chikdilar va ana shu nashrdlarda uz publitsistikasi bilan xam faol ishtirok etdilar. Jadid matbuoti butun kuchini ozodlikni, Vatanni jondan suvuvchi, ilgor, tushungan, xar tomonlama kamol topgan erkin Turkiston fukarosini tarbiyalashni uz oldiga vazifa kilib kuydi. Afsuski, dastlabki fevral inkilobi bergan xurriyat uzokka chuzilmadi. Bolsheviklarning 1917 yilning 25 oktabrida amalga oshirgan davlat tuntarishi tez orada uning yutuklarini yukka chikardi, Lenin boshchiligida ishlab chikilgan yangi mustamlakachilik rejasi asosida barcha taraakkiyparvar kuchlar katagon kilindi. Falsafiy fanlar, shu jumladan, axlokshunoslik xam tarakkiyotdan tuxtadi. Ular mafkuraga buysundirilib, soxtalashtrildi; erkin fikr tag-tugi bilan kuporib tashlandi. SHu sababli jadidchilik uz oldiga kuygan vazifalarini tula ado eta olmadi. Lekin, shunga karamasdan Turkistondagi bu ma’rifatchilik xarakati kiska muddat ichida bulsa xam mazlum xalklarni ma’lum ma’noda uygota oldi.

Asosiy tushunchalar

Nafosat, estetika, go`zallik, mimessis, katarsis, san’at, din, teatr estetikasi, YApon estetikasi, choy taomili estetikasi, toshbog`lar estetikasi, ikebana.

Takrorlash uchun savollar

1. Estetikaning predmeti haqida gapirib bering?
2. Estetik tafakkur paydo bo`lishining bosqichlari haqida gapiring?
3. O`rta asrlar musulmon sharqi estetikasi xaqida gapiring?
4. Jadidchilikning mohiyatan ahloqiy – estetik oqim ekanligini izohlang?

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 2001.
2.Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. T., 1994.
3.Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.,1996.
4.Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. "Fidokor" gaz., 2000 yil, 8 iyun.
5.Umarov E. Estetika. T., 1995.
6.Gulmga A. Printsipn estetiki. M., 1987.
7.Estetika. Slovar. M., 1989.

Katta o`qituvchi Jumaniyozov B.

17. Ma’ruza. Mavzu: Estetik ong va estetik faoliyat. Estetikaning asosiy Tushunchalari (2 soat)

Reja:

1. Estetikaning qadriyatshunoslik tabiati.
2. Estetik faoliyat mehnatning o`ziga xos turi sifatida.
3. Estetikaning asosiy tushunchalari.

1. Estetikaning qadriyatshunoslik tabiati.

Inson ongli mavjudot sifatida ўzini qurshab turgan voqelikka faol munosabatda bўladi, narsa va hodisalarning xossalarini inobatga oladi.SHuning uchun ham inson hayvonlardan farqli ravishda har bir narsaga ўziga xos mezon nuqtai- nazaridan yondoshadi.Agar inson mezon tuyg`usidan mahrum bўlganida vokea- hodisalar, narsalardagi gўzallikni idrok etish qobiliyatiga ega bўlmaganida, uning faoliyati bunyodkorlikka emas, vayrongarchilikka qaratilgan bўlardi.Nafosat qonunlariga rioya qilish, yaratish qobiliyati inson faoliyatining mohiyat va mazmunini tashkil etadi. Asal ari ўzining mum uyasini qura olishi bilan ba’zi me’morlardan ham usta bўlishi mumkin.Lekin eng qobiliyatsiz me’mor ham eng mohir asal aridan shu bilan farqlanadiki, u ўz qurmoqchi bўlgan uyini miyasida qurib qўygan bўladi.

Estetik ong ob’ektiv dunyoga nisbatan bўlgan inson estetik munosabatining sub’ektiv tomonidir. U ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida ahloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy, ekologik va boshqa shu kabi ijtimoiy hodisalar bilan bir qatorda turadi.

Estetik ong - ma’naviy ruhiy vokea - hodisalar majmui bўlib, ular ijtimoiy hayot zaminida vujudga keladigan estetik his tuyg`u, estetik did, estetik baholash, estetik orzu, estetik qarash va nazariyalar tizimini anglatadi.

Estetik ong ijtimoiy hayot zaminida uning bilan mutanosib tarzda ўzgarib, rivojlanib, takomillashib boradi. Ijtimoiy ong dastavval yaxlit, ўzining hozirgi kўrinishi va shakllariga bўlinmagan, ya’ni ishlab chiqarish taraqqiyotining eng past darajasiga mos bўlgan, bugungi davrga kelib esa bir necha shakllarga bўlinib ketgan.

Estetik ong ijtimoiy hayot in’ikosi bўlib,jamiyat hayotiga har tomonlama ta’sir ўtkazadi. Jamiyat taraqqiyotida biror narsa yўqki, ular estetik orzu va estetik qarashlardan xoli bўlsa. Estetik ong moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishning hamma sohalariga iqtisodga, siyosatga,mafkuraga, ahloqga va hattoki dinga, falsafaga, san’atga, fanga bevosita ta’sirini ўtkazadi.

Estetik ong ijtimoiy ongning maxsus shakli bўlib, ong zaminida vujudga keladigan har qanday faoliyatning asosida yotadi. Har qanday faoliyat kўrsatayotgan vaqtda gўzallikka intilib,uning qonuniyatlariga amal qilish va biror narsani hosil qilish har bir insonga xos xususiyatdir.Estetik ong estetik faoliyat mahsulidir.

Estetik ong badiiy ong bilan chambarchas bog`liq. Ular bir biriga yaqin bўlsalar ham, bir xil ma’noni anglatmaydi. Estetik ong voqelikni butun borlig`icha idrok etib, qayta ishlash jarayonida vujudga kelsa, badiiy ong san’at asarini yaratish va idrok etish jarayonida namoyon bўladi. Badiiy ong badiiy asarlar tizimida ifodalansa, estetik ongning aks etish kўlami ancha keng bўlib, u odamlarning mehnat faoliyatida, uning natijalarida, moddiy va ma’naviy madaniyatning barcha turlarida ўz ifodasini topadi.

Estetik ongning ijtimoiy ong shakli sifatidagi kўrinishidan yakka odam estetik ongi farq qiladi. **YAkka odam estetik ongi bu aniq bir shaxs ongi, ma'naviy dunyosining bir qismi bўlib, keng ma'noda u ham ijtimoiy mazmun kasb etadi, ya'ni ijtimoiy hayot jarayonida shakllanib, rivojlanib, takomillashib jamiyat mahsuliga aylanadi.** Estetik ong bilan yakka odam estetik ongi ўz sub'ektlariga qarab farqlanadi. Estetik ongning sub'ekti sifatida ijtimoiy tabaqalar, guruhlar, millatlar, elatlar, xalqlar tushunilsa, yakka odam estetik ongi sub'ekti sifatida muayyan bir shaxs tushuniladi. Inson hayotga qadam qўyar ekan, ўzidan oldin ўtgan avlodlar tomonidan yaratilgan, jamiyat hayotida izchil amal qilayotgan estetik his tuyg`ular, qoidalar,an'analar, didlar, g`oyalar tizimiga duch keladi. SHaxs ўzining estetik jihatdan qaror topishida mazkur tizim bilan hisoblashishi, undan bahramand bўlishi, uni ўzlashtirishi lozim bўladi. SHu ma'noda yakka odam estetik ongi hamma vaqt ijtimoiy estetik ong mahsuli sifatida namoyon bўladi.

Jamiyatning **estetik ongi** murakkab tuzilishga ega bulib, harakatchan, ўzaro uzviy aloqadorlikda bўlgan bir qator **tarkibiy qismlardan** iborat.**Bular estetik his tuyg`ular, estetik did, estetik baho, estetik orzu , estetik qarashlar va nazariyalardir.** Ular bir - birlari bilan shunday bog`langanki, birini ikkinchisidan ajratib bўlmaydi.

**Estetik his- tuyg`ular** ( estetik kechinmalar) inson ongining ajralmas qismi bўlib, estetik ongning poydevori hisoblanadi. Estetik his- tuyg`ular estetik ongning barcha tomonlarini bezaydi va boyitadi. Ular necha ming yillar davomida inson nafosatning tabiiy- ilmiy shart- sharoitlarini ўzlashtirish jarayonida shakllangan. Estetik his- tuyg`ular murakkab ijtimoiy hodisa sifatida nafosat,hamohanglik, ohang, shakllar, uyg`unlik, moslik kabi tushunchalar bilan birga shodlik, hayratlanish, ajablanish, roxatlanish, lazzatlanish, shavq- zavq, nafrat kabi tushunchalarda ifodalanadi.

Nafosat, oliyjanoblik,ulug`vorlik, fojia va kulgu his- tuyg`ulari eng murakkab va turg`un his- tuyg`ulardir. Inson gўzallik, nafosat hissi vositasida voqelikni tabiiy va erkin tarzda idrok etib, uning natijasida alohida shodlik va lazzat tuyg`usiga ega bўladi.**Estetik his- tuyg`ular yakuni - bu estetik ta'sirlanish va lazzatlanishdir.** Estetik his tuyg`ularni qўzg`otadigan voqea va hodisalarni biz tabiatda juda kўplab uchratamiz. Masalan: yog`ayotgan yomg`ir ostida sayr qilish, bahor paytida gullab turgan bog`ga kirib qolish, ertalab qushlarning chug`urlashlari, kўm kўk maysalarning hidi, uzoqlarga uchib ketayotgan turnalarni kўrib qolish va hakazo.

Estetik did - estetik ongning muhim tarkibiy qismidir. Estetik did insonning fikr- mulohazalari, hulq- atvori, hatti- harakatlari moddiy va ma'naviy ijodkorligi orqali namoyon bўladi. Ba'zida "did" tushunchasi odamlarning ayrim sohalarga moyilliklarini ham ifodalashi mumkin.

Estetik did voqea- hodisalarning, narsalarning estetik sifatlarini inson tomonidan idrok etmoq va baholamoq jarayonida olinadigan qoniqish yoki qoniqmaslik tuyg`usi orqali ifodalanadi. Estetik did zaminida gўzallikni xunuklikdan ajrata bilish va undan beg`araz shodlanish, lazzatlanish qobiliyati yotadi. Estetik did his- tuyg`ular bilan ish kўradi, ya'ni hayot gўzalliklari va fojialarini his eta bilish, fojiali tўqnashuvlarni kulguli nomutanosibliklardan farqlay olish qobiliyati orqali namoyon bўladi. Umuman olganda, did tўg`risida bahslashilmaydi, chunki did- bu ўta individual (har kimni ўziga xos) hodisadir, birovga gўzal tuyulgan narsa, birovga shunday bўlmasligi mumkin va aksincha birovga xunuk tuyulgan narsa , birovga shunday bўlmasligi mumkin. Bu

tўg`rida nemis faylasufi I.Kant aniq fikr bildirgan.Uning fikricha, did- bu yakka odamga xos bўlgan tug`ma qobiliyatdir.

Estetik didning cheksiz xilma- xillik manbai- bu voqelikdir. Odamlarning didlarida qandaydir umumiylik bўlsada, ular yakka tarzda namoyon bўladi. Qanday qilib? Estetik did voqelikni hissiy idrok etish bilan boshlanadi. Idrok etish jarayonida mavjud voqelikning hayol bilan ўziga xos tўqnashuvi sodir bўladi, ya'ni inson hayolida biror narsaning gўzallik darajasini belgilaydi.Estetik idrok etilayotgan narsaning orzu qilingan narsaga mos kelishi yoqimli estetik hissiyot - shodlik va qoniqish baxsh etadi,mos kelmasligi esa ranjitadi.Umuman olganda, estetik did asosini orzu umid tashkil etadi.

Estetik baholash – didning aynan ўzi emas, balki uning og`zaki ifodasidir. Inson ma'naviy qadriyatlardan, san'at asarlaridan bahramand bўla turib, u bevosita kўrgan, bilgan va eshitgan narsalariga baho beradi. Biror bir sahna yoki kino asarini tamosha qilib bўlgach, "yoqdi" yoki "yoqmadi", deb xulosa chiqaradi. Bu aynan estetik bahoning ўzidir.Har bir inson estetik bahoni ўzining estetik didi darajasida bera oladi xolos.Narsa
va buyumlarning estetik qiymati tўg`risidagi bahoni, faqat san'atshunos yoki shu sohadagi mutaxassisgina bera oladi, albatta. **Estetik orzu** – estetik ongning muximtarkibiyqismidir.
Ongning boshqa qismlari kabi orzu ham voqelikni in'ikos etish shaklidir.Orzu shunday xususiyatlarga egaki,u faqat mavjud narsalarni tasavvur etish Bilan cheklanib qolmasdan, balki yana nimalar bўlishi kerak va bўlishi mumkinligini ham ifodalaydi.Har qanday orzu ўzida odamlarning hohish istaklarini,intilishlarini, tilaklarini ifoda etadi. Orzu aslida hohish istak bўlib, u barcha odamlarga xosdir.Har qanday orzu belgilari estetik orzuda aks etib, orzu qilingan va amalga oshgan narsalar shaklida moddiy va ma'naviy kўrinishlarda namoyon bўladi. Estetik orzu belgilari insonning hulq atvorida, ishlarida, uning voqelikka bўlgan munosabatlarida aks etadi.

Estetik orzu tushunchasi ahloqiy orzu, siyosiy orzu, huquqiy orzu va ijtimoiy ong shakllari bilan bog`liq boshqa orzular bilan uzviy aloqador. Eng adolatli tuzum ahloqiy orzuda ifodalansa, eng demokratik davlat siyosiy orzuda, huquqlari tўla ta'minlangan jamiyat huquqiy orzuda ifodalanadi.Bir sўz bilan aytganda, estetik orzu barcha orzularni ўzida mujassamlashtiradi, ya'ni bunda kishilar teng huquqli, adolatparvar, demokratik tuzumda yashayotib,mehnatda, atrof muhitda, kishilarning ўzaro munosabatlari gўzal bўlgan eng chiroyli hayot haqidagi orzularni birlashtiradi.

Estetik ongning yana bir tarkibiy qismi **estetik qarashlar va nazariyalar** bўlib, ular estetik ongning g`oyaviy sohasini tashkil etadi va ular tabiat, jamiyat, san'at mohiyati haqidagi fikr- mulohazalar, g`oyalar tizimini anglatadi.Gўzallik, oliyjanoblik, fojiali, kulguli, san'atning mohiyati va burchi masalalarini qamrab olgan estetik qarashlar va nazariyalar estetik ongning barcha qismlariga ўz ta'sirini ўtkazadi. Estetik his- tuyg`ular, didlar, ayniqsa orzular xususiyati kўp jihatdan estetik qarashlar va nazariyalarga bog`liq bўladi.

Estetik qarashlar va nazariyalar u yoki bu estetik hodisalarga taalluqli g`oyalar, tushunchalar va ma'lumotlar kўrinishida namoyon bўladi. Estetik nazariya - bu estetik ob'ektni butunligicha qamrab oladigan tamoyillar, qarashlar, tushunchalar, qoidalar, aqidalar, bilimlar tizimidir. Estetik nazariya mantiqga, tamoyil -tizimlarga, dalil-isbotlarga, falsafiy uslubiyotga asoslanadi.

Estetik ong va estetik faoliyat tushunchalari mohiyat jihatdan ўzaro bog`liq tushunchalar bўlib, estetik faoliyat estetik ong asosida vujudga keladi, shakllanadi.Aniqroq aytganimizda estetik faoliyat estetik ongning amalga oshirilishi va moddiylashtirilishidir.

Estetik faoliyat asosini insonning muayyan talab va ehtiyojlari tashkil etadi. Muayyan talab- ehtiyojlar bўlmasa, inson faoliyatining muayyan shakli ham vujudga kelmagan bўlardi. SHu ma'noda talab- ehtiyojlar insonni faoliyatga undaydi, faoliyat esa yangi- yangi talab- ehtiyojlarni keltirib chiqaradi.

Ruhshunos olimlar estetik ehtiyojlarni inson talab ehtiyojlarining eng oliysi sifatida ta'riflaganlar. CHunki estetik ehtiyojlar barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlar jamlangandir. Dunyodagi eng aqlli mavjudot inson ekan, gўzallikni chuqur anglash ham faqat insonga xosdir. SHu bois inson hamisha gўzallikka tashna bўlib yashaydi. Estetik ehtiyojlar mohiyati esa anna shular bilan izohlanadi. Rivojlangan estetik ehtiyoj hech vaqt tayyor estetik qadriyatlarni iste'mol qilish Bilan cheklanib qolmay, balki yangilarini yaratish, ijod qilishga rag`batni vujudga keltiradi.Inson faoliyatining barcha turlari ijtimoiy hayot jabhalarida namoyon bўladi. Estetik faoliyat inson moddiy yoki ma'naviy faoliyatining ўzagi bўlib, uning barcha shakllari inson kuch qudrati mohiyatining erkin ifodasi bўlib borgan sari estetik mazmun kasb etadi.

Estetik faoliyat moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalarini mehnat sharoitlarini ham, mehnat samaralarini ham qamrab oladi. Bu borada kўplab misollarni keltirish mumkin. Korxona yoki zavoda ishlab chiqarilayotgan mahsulot zamon talablariga, xaridorlar ehtiyojlariga javob bermasa, albatta rivojlanishga ўz ta'sirini ўtkazadi. Natijada ishlab chiqarishni texnikaviy qayta jihozlash va yangi texnologiyalarni joriy etishga tўg`ri keladi.Estetik asos – rivojlanish garovi, desak mubolag`a bўlmaydi.

Mehnatning estetik jihatdan tўlaqonli bўlishi, birinchi navbatda ob'ektiv omillarga, qolaversa ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilarining umumiy va estetik madaniyati darajasiga bog`liqdir. Bu erda mehnat sharoitlari ham muhim ўrin tutadi. "Mehnat sharoitlari" tushunchasiga mehnat jarayonidagi ijtimoiy munosabatlar, mehnat anjomlarining eski-yangiligi, mehnat jarayonida sodir bўladigan voqea-hodisalar muhiti ham kiradi.

Noqulay ijtimoiy sharoitlar mehnatning estetik ijodiy hosil bўlishiga tўsqinlik qiladi.Mehnat insonning jismoniy va ma'naviy kuch qudratining mohiyatini kўproq ifodalasa, uning estetik ahamiyati ham shunchalik kўproq ortib boradi.Zўravonlik kўrsatish, majburlash asosidagi mehnat nafosatdan uzoqlashadi.Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, mehnat estetikasi darajasini oshirish kўp jihatdan mehnat ijodiyligini ta'minlashni, ijtimoiy adolatsizlikni badiiy ijod vositasida bartaraf etishni taqazo etadi. Bir sўz Bilan aytganda ham mehnat estetikasi, ham estetik madaniyat darajasini oshirish bugungi kunimizda mamlakatimiz mustaqil rivojlanayotgan bir paytda juda dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu esa bir vaqtning ўzida estetika fanining ham dolzarb vazifasidir.

Estetik ong va estetik faoliyatning mohiyatini anglash jamiyatning har bir a'zosi uchun juda muhimdir.CHunki ўzimiz yashayotgan jamiyatni ўzimiz farovonlashtirishimiz, uni yanada gўzal bўlishiga intilishimiz zarur. Bunda esa estetik ongning shakllanishi va estetik faoliyatni rivojlanishi estetik madaniyatni ўsishiga olib kelishini unutmasligimiz lozim. YUqorida ta'kidlanganidek, estetik asos – rivojlanish garovi ekan, demak estetik

ongning ўsishi va estetik faoliyatning yanada takomillashuvi, estetik madaniyatning oshishi – mustaqil Vatanimizni jahon tsivilizatsiyasiga tezroq qўshilishiga olib keladi.

2. Estetik faoliyat mehnatning o`ziga xos turi sifatida.

Estetik faoliyat asosini insonning muayyan talab va ehtiyojlari tashkil etadi. Muayyan talab- ehtiyojlar bўlmasa, inson faoliyatining muayyan shakli ham vujudga kelmagan bўlardi. SHu ma'noda talab- ehtiyojlar insonni faoliyatga undaydi, faoliyat esa yangi- yangi talab- ehtiyojlarni keltirib chiqaradi.

Ruhshunos olimlar estetik ehtiyojlarni inson talab ehtiyojlarining eng oliysi sifatida ta'riflaganlar. CHunki estetik ehtiyojlar barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlar jamlangandir. Dunyodagi eng aqlli mavjudot inson ekan, gўzallikni chuqur anglash ham faqat insonga xosdir. SHu bois inson hamisha gўzallikka tashna bўlib yashaydi. Estetik ehtiyojlar mohiyati esa anna shular bilan izohlanadi. Rivojlangan estetik ehtiyoj hech vaqt tayyor estetik qadriyatlarni iste'mol qilish Bilan cheklanib qolmay, balki yangilarini yaratish, ijod qilishga rag`batni vujudga keltiradi.Inson faoliyatining barcha turlari ijtimoiy hayot jabhalarida namoyon bўladi. Estetik faoliyat inson moddiy yoki ma'naviy faoliyatining ўzagi bўlib, uning barcha shakllari inson kuch qudrati mohiyatining erkin ifodasi bўlib borgan sari estetik mazmun kasb etadi.

Estetik faoliyat moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalarini mehnat sharoitlarini ham, mehnat samaralarini ham qamrab oladi. Bu borada kўplab misollarni keltirish mumkin. Korxona yoki zavoda ishlab chiqarilayotgan mahsulot zamon talablariga, xaridorlar ehtiyojlariga javob bermasa, albatta rivojlanishga ўz ta'sirini ўtkazadi. Natijada ishlab chiqarishni texnikaviy qayta jihozlash va yangi texnologiyalarni joriy etishga tўg`ri keladi.Estetik asos – rivojlanish garovi, desak mubolag`a bўlmaydi.

Mehnatning estetik jihatdan tўlaqonli bўlishi, birinchi navbatda ob'ektiv omillarga, qolaversa ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilarining umumiy va estetik madaniyati darajasiga bog`liqdir. Bu erda mehnat sharoitlari ham muhim ўrin tutadi. "Mehnat sharoitlari" tushunchasiga mehnat jarayonidagi ijtimoiy munosabatlar, mehnat anjomlarining eski-yangiligi, mehnat jarayonida sodir bўladigan voqea-hodisalar muhiti ham kiradi.

Noqulay ijtimoiy sharoitlar mehnatning estetik ijodiy hosil bўlishiga tўsqinlik qiladi.Mehnat insonning jismoniy va ma'naviy kuch qudratining mohiyatini kўproq ifodalasa, uning estetik ahamiyati ham shunchalik kўproq ortib boradi.Zўravonlik kўrsatish, majburlash asosidagi mehnat nafosatdan uzoqlashadi.Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, mehnat estetikasi darajasini oshirish kўp jihatdan mehnat ijodiyligini ta'minlashni, ijtimoiy adolatsizlikni badiiy ijod vositasida bartaraf etishni taqazo etadi. Bir sўz Bilan aytganda ham mehnat estetikasi, ham estetik madaniyat darajasini oshirish bugungi kunimizda mamlakatimiz mustaqil rivojlanayotgan bir paytda juda dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu esa bir vaqtning ўzida estetika fanining ham dolzarb vazifasidir.

Estetik ong va estetik faoliyatning mohiyatini anglash jamiyatning har bir a'zosi uchun juda muhimdir.CHunki ўzimiz yashayotgan jamiyatni ўzimiz farovonlashtirishimiz, uni yanada gўzal bўlishiga intilishimiz zarur. Bunda esa estetik ongning shakllanishi va estetik faoliyatni rivojlanishi estetik madaniyatni ўsishiga olib

kelishini unutmasligimiz lozim. YUqorida ta’kidlanganidek, estetik asos – rivojlanish garovi ekan, demak estetik ongning ўsishi va estetik faoliyatning yanada takomillashuvi, estetik madaniyatning oshishi – mustaqil Vatanimizni jahon tsivilizatsiyasiga tezroq qўshilishiga olib keladi.

3. Estetikaning asosiy tushunchalari.

Har bir fan ўzining tushunchalar sistemasiga ega. SHu tushunchalarga qarab, fanning mohiyat - mazmuni belgilanadi. YUqoridagi mavzulardan bizga ma’lumki, ijtimoiy ong shakllari dastlab SHarq mamlakatlarida vujudga kelib, keyinchalik Qadimiy YUnonistonda keng taraqqiy etgan. SHuning uchun ham barcha fanlarga taalluqli terminlar, tushunchalar yunon tilidan ўtib kelgan. Masalan, logiya, kategoriya, etika, estetika, filosofiya va boshqa tushunchalar. SHulardan “ kategoriya” sўzi bir necha ma’nolarda qўllaniladi. Ijtimoiy fanlarga taalluqli qilib ishlatadigan bўlsak, bu sўz “tushuncha” degan ma’noni anglatadi. Masalan, etikaning asosiy kategoriyalari yoki estetikaning asosiy kategoriyalari deganda, biz aynan shu fanlarga taalluqli bўlgan tushunchalarni anglaymiz.

Fanga doir tushunchalarni izohlar ekanmiz, ularning ichida qaysi birlari asosiy va boshqalari ularga tobe ekanligini tushunib olishimiz zarur. SHunday qilib, estetika fanining asosiy tushunchalari bu gўzallik va xunuklikdir. Qaerda biz gўzallikka doir fikr - mulohazalarni uchratib qolsak, demak bu soha - estetika sohasi ekanligini bilib olamiz. Estetika tushunchalari bir vaqtning ўzida chuqur falsafiy ma’noga ham egadir, chunki ular falsafiy qonunlarni ham ifoda etishi mumkin. Masalan, gўzallik ўziga qarama qarshi tomon xunuklikni, fojiaviylik kulgulilikni, oliyjanoblik pastkashlikni , va boshqa shu kabi tushunchalar bir vaqtning ўzida ham birlikni, ham qarama qarshilikni ifodalaydi.

Bundan tashqari estetikada ulug`vorlik va qahramonlik tushunchalari ham keng tadqiq etiladi.Bir sўz bilan aytilganda, nimaiki inson his- tuyg`ulariga ta’sir qilsa, unda turli xildagi his, hayajonlarni qўzg`otsa, demak bu estetika sohasiga taalluqli tushunchalar ekanligini payqash mumkin.

Asosiy tushunchalardan **gўzallik tushunchasi**ga tўxtalamiz. Gўzallik bu asosiy estetik qadriyat bўlib, uni idrok etish qobiliyati estetik sub’ektning asosiy xossasidir. Bu xususiyat estetik ong va uning tarkibiy qismlariga taalluqlidir. Estetik his- tuyg`u, eng avvalo gўzallikni his etish jarayonini anglatadi. Estetik orzu esa gўzallikni inson hohlagan u yoki bu tasavvurlar tarzida ifodalaydi. Estetik did bўlsa, кўp jihatdan shaxs va jamiyat nimani gўzallik sifatida idrok etishida namoyon bўladi, va nihoyat estetik qarashlar gўzallikning tabiati va mohiyati haqidagi fikrlarni anglatadi

Gўzallik tўg`risida juda кўp fikr- mulohazalar, bahslar yuritilgan, har bir faylasuf, har bir donishmand, buyuk yozuvchilar gўzallikka turlicha ta’rif berganlar va izohlaganlar.

Qadimgi yunon faylasufi Platon ilk bor “Nima gўzal?” va “Gўzallik nima?” degan savollarga ajratish bilan falsafa tarixiga gўzallik tўg`risidagi ta’limotning asoschisi bўlib kirgan edi.Uning ta’limotida gўzallik jonli, hissiyotli, ўzgaruvchan narsalar olamidan ajralib qolgan abadiy ruh – g`oya sifatida ta’riflanadi. Uning fikricha, gўzallik vujudga kelmaydi va barbod bўlmaydi, balki u vaqt va makon tashqarisida amal qiladi. Gўzallik haqidagi “Platon yўnalishi” G`arbda F.Akvinskiy, V.Gegel ijodlarida,Islomda esa musulmon madaniyatida davom ettirilib, gўzallik mohiyati yolg`iz Olloh irodasiga bog`liq ekanligi ta’kidlanadi.

Mutloq ruh-g`oya gўzallikning namoyon bўlishidir, deb tushuntiradi Gegel. Uning

fikricha, shunday narsa gўzalki, agar undagi tug`ma belgilar tўla tarzda namoyon bўlsa. SHunday daraxt gўzalki, agar undagi tug`ma belgilari bevosita kўrinsa. SHunday inson gўzalki, agar unda yaxshi insoniy fazilatlar va sifatlar mujassamlashgan bўlsa.

Rus faylasuflaridan F.Dostoevskiy gўzallik tўg`risida noyob va haqiqiy fikrni bildirgan. Uning ta'kidlashicha, gўzallik dunyoni saqlab qoladi. Buni qanday tushunish mumkin? Tasavvur qiling, qaysidir mamlakatda fuqorolar urushi yoki qandaydir tabiiy ofat yuz berdi deylik. Ўsha mamlakat aholisi nochorlikda qoladi, bolalar hayoti og`irlashadi, turli xil kasalliklar tarqaladi va hakazo. SHunday vaqtda boshqa mamlakat odamlari bunga qarab tura olmaydilar, yordam qўlini chўzib, birinchi navbatda bolalarga ma'naviy jihatdan kўmaklashishga harakat qiladilar. Bunday oliyjanoblikni faqat gўzallik qonuniyatlarini tushungan insonlargina qilishlari mumkin.Bundan tashqari gўzallikni chuqur his qila oladigan insonlar har qanday xunuk hodisalardan, hayot qiyinchiliklaridan osonlikcha chiqib olishlari mumkinligini ham, tushunib etish mumkin .

SHunday qilib, **gўzallik – bu voqelik(tabiat, jamiyat, san'at) hodisasi bўlib, biror narsaga his- tuyg`u orqali ta'sir ўtkazish bilan insonda jismoniy va ma'naviy kuchlar oqimining kўpayishiga, shodlik,zavqlanish, ma'naviy qoniqish xolatini vujudga keltiradigan mavjudlikdir.** Gўzallik har bir inson uchun ahamiyatli hodisadir, chunki u hamisha foydalidir. Uning foydaliligi alohida turdagi foydalilik bўlib, u eng avvalo insonga, jamiyatga, taraqqiyotga ma'naviy foyda keltiradi.***Rivojlangan gўzallik his- tuyg`usi inson ma'naviy ravnaqining, demak erkinligining eng muhim kўrsatkichi bўlib xizmat qiladi.***

Gўzallik xilma xil darajada namoyon bўladi. Tabiatdagi gўzallik ijtimoiy hayot gўzalligidan,foydali - amaliy faoliyatdagi gўzallik badiiy ijoddagi gўzallikdan farq qiladi. Lekin gўzallik ўzining xilma- xilligi, rango- rangligi bilan bir- biridan qanchalik farq qilmasin, ularning barchasi qandaydir umumiy belgilarga ega. Ana shu umumiy belgi tufayli hodisalarni gўzallik tarzida in'ikos etamiz. ***Gўzal narsalar inson amaliy faoliyatiga, manfaatlariga mos bўlib, ularni idrok etish kishiga hayrat va quvonch baxsh etadi, shaxsning uyg`un va hamohang rivojlanishiga, unda eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib topishiga kўmaklashadi.***

Inson hamma erda va har qanday darajada mavjud tabiiy hamohanglik bilan tўqnashar ekan, u albatta tabiatning gўzalligidan zavq- shavq oladi, ongli yoki anglanmagan holda sevinadi, ma'naviy boylik orttiradi. Inson tabiat hodisalarini, u yoki bu ijtimoiy davrni, u yoki bu ijtimoiy guruhni gўzallik sifatida baholaydi.

Juda gўzal va gўzal tushunchalari bir biriga yaqindek tuyuladi, lekin bu tushunchalar shunisi bilan farqlanadiki, juda gўzal – bu gўzallikning oliy darajasi hisoblanadi. Gўzallik darajasini bilish uchun biz narsa va hodisalarning shakli va mazmuniga qarab ham ajratimiz mumkin. Masalan, tilla buyum ўta nafisligi, undagi shakllarning murakkabligi, takrorlanmasligi uning shaklini ifodalasa, uning mazmuni tilladan ekanligi,chirimasligi, ifloslanmasligidir.Bu misolimiz "juda gўzal" tushunchasiga tўg`ri keladi.

Gўzallik estetikaning asosiy tushunchasi ekan, u siz har qanday estetik voqeani tushunish va tushuntirish mumkin emas.Gўzallikning ahamiyati qanchalik katta bўlmasin, insonning voqelikka bўlgan munosabati faqat gўzallik tushunchasi bilan ўlchanib qolmaydi, balki hayotda estetik voqealarga bўlgan munosabatimiz xunuklik tushunchasida ham ўz aksini topadi.

Gўzallik singari **xunuklik** ham xilma- xil kўrinishlarga ega. U bezorilik hatti-harakatlarida ham , qўpollikda ham, insonning hayotiy manfaatlarining

chegaralanganida ham kўrinishi mumkin.Masalan, inson qandaydir sabablarga kўra, ikki qўlidan ham ajragan , lekin u yashashda davom etayapti, qўllari bўlmasada, oyog`i bilan asbob- uskunalar tuzatishni ўrganib oladi. Bu manzara insonda xunuk g`alati kayfiyatni hosil qilishi mumkin, lekin bu inson hayotiy manfaatlarining chegaralangani bir tarafdan xunukdek kўrinsa, ikkinchi tarafdan insonning yashash uchun kurashayotganini ifodalaydi. Ijtimoiy hodisalarda insonnning yaramas va qoloq odatlari ham xunuklikning belgisi sifatida idrok etiladi.Masalan, halq og`zaki ijodida ba'zi bir laparlarning kuylanishi, eski sўzlarni ishlatish, televidenie xodimlarining ba'zida sheva tilida gapirishi,ayniqsa toshkent shevasi borovuza, kelavuza kabilarning ishlatilishi, askiya kechalarida bir guruh erkaklarning noma'qul sўzlarni ishlatishlari (vaholangki kechada ayollar, bolalar ham bor) va hakazo misollarni keltirish mumkin. Demak, hayot gўzalligini qaror toptirish uchun kurashni xunuklikning barcha kўrinishlariga qarshi kurashdan boshlash zarur.

SHunday qilib, gўzallik va xunuklik estetikaning asosiy tushunchalaridir. Estetikaning boshqa tushunchalari bu ikkala tushunchaga tobeligini ta'kidlash zarur, chunki ular hayotiy nuktai nazardan ham gўzallik va xunuklikka bўysunadilar. Masalan, fojia inson ruhini tozalashi bilan gўzal, lekin namoyon bўlishda xunuk, kulgu ham gўzal va xunuk bўlishi mumkin. Oliyjanoblik gўzal fazilat, pastkashlik esa xunuk, qahramonlik gўzal oqibat, qўrqoqlik esa xunuklikdir.

Fojialilik va kulgulilik estetik tushunchalari orqali hayot ziddiyatlari va tўqnashuvlari baholanadi.Fojialilik va kulgulilik aslida bir biriga zid tushunchalardir, lekin bu zidlik mutloq emas, chunki ular biri ikkinchisiga ўtib turishi, biri ikkinchisini taqazo etishi ham mumkin.Fojialilik va kulgulilik tushunchalarini san'at yordamida yaxshiroq anglash mumkin.

San'at asarlarida fojialilik va kulgulilik yaxlit namoyon bўladi. Fojiali yoki kulguli holat insonning u yoki bu hatti- harakati natijasida paydo bўladi,bu hatti- harakat turli-tuman hayotiy kuchlar tўqnashuvi jarayonida vujudga keladi va rivojlanadi. SHu tariqa ular voqelik va inson orzulari ўrtasidagi nizoli munosabatlarni ochib beradi.

Fojialilik har doim falsafiy va estetik tafakkur e'tiborini ўziga jalb etib kelgan. Fojialilik tabiati tўg`risida juda kўp mutafakkirlar fikr mulohaza bildirganlar.Qadimgi YUnon faylasufi Aristotel fojianing tomoshabinga hissiy- ruhiy ta'siri, bu ta'sirning tomoshabin va fojia qahramoni ўrtalaridagi ma'naviy- ruhiy yaqinlik bilan bog`liqligi haqida gapirgan edi. Aristotel qarashlargiga kўra, fojiali his- tuyg`u murakkab tarkibga ega bўlib, u achinish, qўrquv va shodlikning ўziga xos qorishmasidan iborat.(Bu estetika tarixida «katarsislar» haqida ta'limot deb yuritiladi).Bu erda qahramon azob- uqubatlariga achinish, uning mudhish taqdiridan qўrquv va nihoyat, ruhiy poklanishdan shodlanish kўzda tutiladi. Agar shunday holat (poklanish) sodir bўlmasa, tomoshabin dilxasta bўlib chiqib ketsa, demak poklanish amalga oshmagan bўladi.

Fojia tomoshabinda qahramonning mashaqqatli azob- uqubatlari bilan bog`lanib, kўpincha uning halokati bilan tugallansa ham, bari bir qayg`u va tushkunlik emas, balki yashash va kurash istagi, bu kurashda ўzining halok bўlishini bilib turgan insonning mag`rur qiyofasi gavdalanadi.Inson ulug`vorligini tarannum etish hammadan ham kўproq san'atning fojia turida ўz ifodasini topadi.SHuni ta'kidlash kerakki, fojialilikda insonning gўzallikka bўlgan munosabati fojiaviy tўqnashuvlar ijobiy qahramoniga "kўz yoshi", hamdardlik va azob chekish orqali namoyon bўlsa,kulgulilikda inson gўzallikni himoya qiladi, unda xunuklikni kulgu orqali fosh qiladi.

Insonning dunyo voqea hodisalariga munosabatlaridan biri **kulgulilik** tushunchasi

bilan izohlanadi. Kulgulilik iqtisodiy- moddiy, ijtimoiy- siyosiy, ma’naviy- ahloqiy hayot jabhalarida doimiy ravishda namoyon bўladi.Voqelikdagi kulgulilik holatiga faqat insongina kulgu bilan javob beradigan qobiliyatga ega, boshqa jonzotlar esa bundan mahrumdirlar.

Kulgu ўz xususiyatiga кўra demokratik mazmunga ega bўlib, u barcha odamlarni birlashtiradi. Ular kulgu vositasida ўzaro tenglashadilar. Kulgu noinsoniy, noahloqiy illatlar bilan kurashning omilkor vositasigina bўlib qolmay, balki insonning kuch- qudrati va ozodligi timsoli hamdir. Kulgu rang- barang va xilma- xil qirralarga ega bўlib, mayin rag`batlantiruvchi, xushfe’l hazil- mutoyiba hissiyotidan tortib, to ayovsiz, achchiq istehzo hissiyoti doirasigacha amal qiladi.

Kulgulilikning har xil кўrinishlari san’atning me’morchilikdan boshqa barcha turlarida namoyon bўladi va komediya shaklida tўla estetik ifodasini topadi. Kulguning badiiy shakllari orasida **masxara (satira)** alohida ahamiyatga ega.Masxara markazida doimo salbiy voqea- hodisalar joylashib, uning butun fosh qilish kuchi ana shularga qarshi qaratilgan bўladi.Masxaradagi fosh etuvchi kulgu qahr- g`azabdan ajralmagan holda namoyon bўladi.Kulguning yana bir turi **hazil- hajv ( yumor)** ham muhim ahamiyatga ega. Hayot ikir- chikirlari, kamchiliklarini tanqid qilayotgan ijodkor hazil- hajv tuyg`usi orqali insonni ma’naviy komillikka erishuviga yordam beradi, unda kulguli jihatlarni кўra bilish qobiliyatini tarbiyalaydi.

Ijtimoiy kulgu - masxara mavzusi, sodda kulgu - hazil- hajv mavzusi bўlsada, hazil-hajv ham hayotdagi salbiy, xunuk hodisalarni masxara kulgusidan kam bўlmagan darajada ochib bera oladi. Hazil- hajv kulguning g`azabli qoralashdan кўra, кўproq yordam кўrsatishga mўljallanishini ta’kidlab ўtish lozim. Kulguning fosh etuvchi xususiyatini ta’kidlar ekanmiz, uning ahamiyati kam bўlmagan boshqa tomonlari - tarbiyalovchi kulgu, кўngilni yumshatuvchi va bўshatadigan kulgu , achinish va mehr- shavqat кўrsatish kulgusi, hayotbaxsh va dўstona kulguni ham borligini unutmasligimiz lozim.

**Ulug`vorlik va qahramonlik , olijanoblik va pastkashlik** tushunchalari ham estetikaning muhim kategoriyalaridan hisoblanadi. Ulug`vorlik кўlami gўzallik кўlamidek cheksizdir.Hattoki, gўzallik mazmuni ulug`vorlik voqea hodisalari bilan qorishib ketganida yanada boyiydi va cheksizlanadi. Ulug`vorlik tabiatda, jamiyatda va inson faoliyatida mavjud bўlib,uning xususiyatiga ega bўlgan barcha narsa va hodisalarda me’yor bўlishi taqazo etiladi.

Tabiatdagi baland tog`lar, qudratli sharsharalar, cheksiz okeanlar, moviy dengizlar, inson oyog`i tegmagan qalin ўrmonlar,yoki bўlmasa engilmas bўron, shamolning beayovligi va boshqa shu kabilar ulug`vorlik timsollari bўlib, ulkanlik, buyuklik, tuganmaslik jihatdan umumiylikka ega. Tabiatdagi ulug`vorlik insonni zaiflikka emas, balki unda tabiat bilan qўshilib ketishga intilish hissini uyg`otadi. Ulug`vorlik hissi ўzicha estetik mazmunga ega bўlmagan quvonch, hayratlanish, tan berish, ehtirom kabi tuyg`ularni qamrab oladi. Bularga ba’zida qўrquv hissi ham qўshiladi. Qўrquv hissi insonni kamsitmaydi, balki tўsiqlarni engib ўtishga turtki bўladi.

Ulug`vorlik hissi umuminsoniy ( ya’ni barcha insonlarga xos) bўlishi bilan birga ijtimoiy hayotda tarixiy taraqqiyotga alohida ta’sir ўtkazuvchi hodisalar va jarayonlarni ham qamrab oladi. Ijtimoiy hayotda ulug`vorlik qahramonlik va mardlik bilan shu qadar qorishib ketadiki, ularni ajrata bilish nihoyatda mushkul bўlib qoladi.

Qahramonlikda ulug`vorlikka xos estetik va ahloqiy sifat tўla namoyon bўladi. Halq fidoyilari,elu yurt jonkuyarlarining qiyofalari bir vaqtning ўzida ham ulug`vorlikni, ham qahramonlikni ifodalaydi. Qahramonlik odatdan tashqari noyob, nodir, kam uchraydigan

hodisadek bўlib tuyuladi. Lekin u kundalik hayotda oddiy sharoitda eng sodda tarzda ham namoyon bўlishi mumkin. Masalan, chўkayotgan odamni qutqarish, olov ichida qolgan gўdakni olib chiqish va hakazo.Qahramonlik timsollari buyuk donishmandimiz Alisher Navoiy asarlarida mardlik, halol mehnat, ahloqiy qoidalarga doim amal qilishda ўz ifodasini topgan.

Tabiat va ijtimoiy hayotdagi gўzallikka **olijanoblik** ham hamohangdir. Aslini olganda, ulug`vorlikning jamiyatdagi, insonlar orasidagi ifodasi olijanoblikning ўzidir.Olijanoblik odatda, hamisha kundalik hayotda kўnikib qolinganlar doirasidan chiqib ketadi, insonga tabiatda va uning ўzida qanday imkoniyatlar mavjud ekanligini kўrsatadi. Ўz kўlami, buyukligi, qudrati bilan boshqalar orasida ajralib turadigan ajoyib voqealar olijanob tuyg`ularni keltirib chiqaradi. Muxabbat va dўstlikning ehtirosli va qudratli tuyg`usi har qanday tўsiqlarni engish hamda har qanday sinovlardan ўtishga qodir, insoniyat haqqi uchun qilingan ishlar qudrati bularning barchasi olijanoblikni ifodalaydi .

Pastkashlik –olijanoblikning qarama qarshi tomonini aks ettiruvchi kategoriyadir. Odatda, estetik adabiyotlarda bu tushuncha haqida juda kam gapiriladi.Ijtimoiy hodisalarda pastkashliklar juda kўp kuzatiladi, shuning uchun bu tўg`rida bilish foydadan xoli bўlmaydi. Pastkashlik insoniyatga xavf tug`diruvchi va salbiy ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi tabiat va jamiyat hodisalarini ўzida aks ettiradi.

Pastkashlik – bu insonning erki chegaralangan soha bўlib,eng yomon estetik illatdir, shu bilan birga xunuklik va yovuzlikning quyi darajasidir.Pastkashlik tushunchasi kўproq insonning ahloqiy hatti harakatlari bilan qorishib ketadi, chunki u ba’zida yovuzlik tushunchasi bilan aynanlashgan holda in’ikos etiladi. Pastkashlik alohidagi insonlar, halqlar, millatlar, qolaversa butun insoniyat uchun tahdid va havf tug`diruvchi veqelik hodisasidir.(Urushlar, fashizm, yadroviy qurollanish va boshqa shu kabilar).SHuningdek, pastkashlik qa’tiyatsizlik, insofsizlik va noinsonparvarlik qilmishlarini amalga oshiradigan kimsalarning odatlarini ham aks ettiradi.

Pastkashlikning san’atda ifodalanishi yovuzlikni tasvirlash orqali amalga oshiriladi.Estetika tarixida birinchi bўlib pastkashlik tushunchasini Aristotel fanga tatbiq etgan. Badiiy adabiyotlarda pastkashlik voqea hodisalari salbiy obrazlarni yoritish orkali namoyon bўladi.Masalan, Ўlmas Koshey,SHum kampir, ajdaho, dev, shayton va boshqa shu kabilar.

Estetikaning boshqa tushunchalari kabi pastkashlik ham san’atning arxitektura turidan boshqa hammasida uchraydi, hattoki musiqa janrida ham.Masalan, D.D.SHostakovichning “Ettinchi simfoniyasi” , Motsart, Betxovenlar asarlarida va xakazolarda . Tasviriy san’atda xunuk va yovuz kuchlarni bўrttirib kўrsatish orqali pastkashlik kengroq aks ettiriladi.

SHunday qilib, estetikaning barcha tushunchalarini ўrganish orqali estetik bilimlarni yanada oshirish mumkin. Barkamol avlodni shakllantirishda estetik tushunchalarning ahamiyati juda kattadir, chunki ular jamiyat hayotining barcha jabhalariga kirib boradi va ularni ma’naviy boyitadi, ijtimoiy ma’naviy ishlab chiqarishning muhim omili sifatida odamlar estetik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy tushunchalar

Estetik ong, estetik ehtiyoj, estetik munosabat, estetik tuyg`u, estetik baho, estetik ideal, estetik qarashlar, estetik nazariyalar, dizayn, nafosat, go`zallik, ulug`vorlik, fojeaviylik.

Takrorlash uchun savollar.

1. Estetikaning qadriyatshunoslik tabiatini izohlang?
2. Estetik ong va uning individuallik xususiyatini tushuntiring?
3. Estetik ongning asosiy unsurlarini izohlang?
4. Nafosat tushunchasini tushuntiring?
5. Estetik kategoriyalari xaqida gapirib bering?

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 2001.
2.Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994.
3.Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.,1996.
4.Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. "Fidokor" gaz., 2000 yil, 8 iyun.
5.Umarov E. Estetika. T., 1995.
6.Gulmga A. Printsipn estetiki. M., 1987.
7.Estetika. Slovar. M., 1989.

Katta o`qituvchi Jumaniyozov B.

18. Ma'ruza. Mavzu: San'atning kelib chiqishi va taraqqiyoti (2 soat)

Reja:

1. San'atning vujudga kelishi va uning mohiyati.
2. San'at turlari va ularning o`zaro aloqadorligi.
3. Badiiy asarni estetik idrok etish va estetik tarbiya

1. San'atning vujudga kelishi va uning mohiyati.

Ijtimoiy ong shakllari orasida san'at soxasi xayotimizdan juda keng urin egallagan. San'atsiz, yaratilgan va yaratilayotgan betakror san'at asarlarisiz xayotni tasavvur etish juda kiyin. San'at inson ruxiy ozukasining spetsifik (uziga xos) shaklidir.Kadimgi davrlarda musika, raks, she'riyatni nafis san'at turlari deb bilganlar. Keyinchalik urta asrlarda san'at tarkibiga tasviriy san'at, kasallarni davolash, xattoki dorishunoslik xam kiritilgan edi. Bugungi kunimizda "San'at" suzi xayotimizda bir necha ma'nolarda kullanib kelmokda:

Bular:

1. "Vokelikni badiiy obrazlarda ijodiy aks ettirish", ma'nosida;
2. "Ishning kuzini bilish va maxorat", ma'nosida;
3. "Xar kanday ishning uzi va talab kiladigan maxorat darajasi" ma'nosida;

Agarda bu ma'nolarni birdaniga tasavvur etsak, san'at inson mexnati, akl idroki bilan yaratilgan, vujudga kelgan bulib, xar bir yaratilgan san'ar asarida shaxsning uziga xos iste'dodi namoyon buladi, va albatta san'at insonning betakror moxarati bilan chambarchas boglanib ketgan buladi.

San'at keng ma'noda san'at asarlari (badiiy kadriyatlar) bilan birga ularni yaratish

(badiiy ijod kilish) va iste’mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini xam kamrab oladi. San’at tarixiy tarakkiyot jarayonida xamisha ijtimoiy extiyojlarni kondirib kelgan. San’at ijtimoiy xayotning murakkab, rang barang munosabatlari bilan alokador bulib, u bir vaktning uzida xam mexnatning aloxida turi, xam ijtimoiy ishlab chikarishning maxsus soxasi,

xam ijtimoiy ongning bir shakli, xam uziga xos bilim soxasi, xam ijodiy faoliyatning bir kurinishi sifatida amal kiladi.

San’at jamiyatning barcha tomonlariga uz ta’sirini utkazadi, ijtimoiy ongning barcha shakllari bilan alokaga kirishadi, xayotning turli jabxalarida odamlar faoliyat olib borishlarini ragbatlantiradi. Xayotning turli soxalarida mexnat kilayotgan insonlarda ma’naviy xordik chikarish yuli san’atdan baxramand bulishdir. Kiskagina musikaviy tanaffus mexnatkashlarni yanada yaxshirok mexnat kilishga undaydi, samaradorlikni oshiradi. Xozirgi ilmiy tadkikotlar shuni kursatyaptiki, san’at xayvonot olamiga xam uz ta’sirini utkazar ekan. Masalan, tovuklar musika sadolari ostida tuxum kuyishlari tezlashar ekan. Demak, san’at bu nafakat inson uchun, balki butun borlik elementlari uchun xam zarur ekanligini takidlashimiz kerak.

San’at ijtimoiy ong shakli sifatida vokelikni badiiy anglash-bilish jarayonida uning vokelikni badiiy tasvirli shaklda anglash manbalaridan biri bulib inson maydonga chikadi. Insonni in’ikos etish (in’ikos-aks ettirish), bilish-anglash masalalari bilan ilm fanning juda kup soxalari shugullanadi, lekin inson muammosiga san’at va fan soxalari turlicha yondashadilar. Tabiiy fanlar insonni biologik mavjudod sifatida urgansa, ijtimoiy fanlar insonni shaxs sifatida taxlil kiladi. San’at uchun esa inson barcha belgi va xususiyatlari bilan birga, yagona, nodir, kaytarilmas shaxs kiyofasida bosh mavzu bulib xizmat kiladi. San’at vokelikni barcha jozibali guzalliklarini, boyliklarini kamrab olishga kodirdir. Vokelik esa shaxs bulib etishgan insonning tub extiyoj va manfaatlarini uzida aks ettirishi lozim.

San’at nafakat insonning uzini, balki uning idrok etishi mumkin bulgan barcha narsalarni, vokea-xodisalarni aks ettirib, xissiy tuygu keltirib chikaradi. San’at insonni bevosita aks ettirmasa-da, biror narsaga inson munosabatini faol ifodalaydi, biror narsani inson mezoni bilan baxolaydi. Baxolashda esa xamisha inson moxiyatini anglashga karatilgan bilish xolati mavjuddir. San’at narsalarda, tabiat xodisalarida inson uchun axamiyatli bulgan ma’no izlaydi, uni kidirib topadi va amalga oshiradi. SHunday kilib, san’at vokelikning xar bir xodisasida ijtimoiy ma’no paydo kiladi va uni ruyobga chikaradi. San’at ijtimoiy ong shakllari ichida shunisi bilan ajralib turadiki, san’at inson xayotining fan kuchi etmaydigan sirli tomonlariga kira olish, inson xulk-atvori sabablari tagiga etish, insonning uziga, odamlarga, tabiatga bulgan munosabatini aniklash kudratiga egadir. San’atning ijtimoiy xayotda tutgan urnini belgilash kup jixatdan uning mafkuraviy tabiatini anglash bilan boglik. Tugri san’at mafkuraga umuman alokador bulmasligi lozim, lekin zamon ruxi shu davrda kechayotgan, xukm surayotgan mafkuraga bevosita boglik buladi. SHu zamonda yashaetgan ijodkor xam uzi yaratayotgan san’at asarida bevosita zamonning ruxini aks ettiradi. Lekin ma’lum bir mafkuraga asoslangan zamon umuminsoniy tamoyillarga asoslangan bulishi zarur. SHundagina san’atkor yoki ijodkor tomonidan yaratilgan asar estetik kiymatga ega buladi.

San’at ma’naviy xayotda sodir buladigan xar kanday uzgarishlarga munosabat bildiradi, davr ma’naviy muxitining xamma tomonlarini ifodalaydi, ijtimoiy tafakkur ruxini uzida aks ettiradi. Tarixga nazar soladigan bulsak, sovet davrida yaratilgan barcha

san’at asarlarida, san’atning kaysi turi bulishidan kat’iy nazar xaykaltaroshlikmi, she’riyatmi, badiiy asarmi, kinofilm yoki teatr saxnalarida kuyilgan asarlardami, barcha-barchasida usha zamon ma’naviy muxiti ifodalangan edi. Bugungi kunimizda Uzbekiston mustakillik mafkurasi bizlar uchun muxim axamiyatga ega. Bugungi yaratilayotgan barcha san’at asarlarida mustakillik ruxi jush urmokda, chunki bu mafkura umuminsoniy tamoyillarga asoslanib, millatning, xalkning yuksalishiga, uning farovonligiga xizmat kiladi. San’at esa uzining yuksak ruxiy ta’sir etish kuchi bilan mustakillikni yanada mustaxkamlashga xizmat kiladi.

San’atga fakat mafkura uz ta’sirini utkazib kolmasdan, balki san’at boshka ijtimoiy soxalar bilan xam xamkorlikda ish kuradi.

San’at jamiyat bagrida amal kilar ekan, u uzining mafkura imkoniyatlarini eng avvalo siyosat bilan xamkorlikda amalga oshiradi. Muayyan jamiyatda siyosiy faoliyat va siyosiy ong muxim urin tutadi. Xattoki, axlok, xukuk va boshka soxalar kup jixatdan siyosat bilan boglik buladi.

Utmish ijodkorlari muayyan ijtimoiy gurux manfaatlari yulida siyosat bilan boglanib kolganlarini uzlari bilmagan xolda asarlar yaratganlar. CHunki, ijodkor asar yaratish jarayonida uz davrining siyosiy xayotidan butunlay xolis bulishi, uzining siyosiy karashlari va goyalaridan mustasno tarzda ijod kilishi mumkin emas edi. Masalan, Xamza, Gafur Gulomning "Boy ila xizmatchi" asarlari va boshkalar bunga misol bula oladi.

San’at va axlok uzaro munosabatlari jamiyat xaeti uchun juda muxim axamiyatga ega. San’atga axlokiylik ruxida yondashuv insonning ma’naviy-ruxiy kamol topishiga xizmat kiladi.

San’at vokelikni aks ettirish jarayonida jamiyatda amal kila yotgan axlokiy munosabatlarni, odob koidalarini, axlokiy goyalar va karashlarni, inson ichki dunyosini, axlokiy kiyofasini xam ochib beradi. SHu bois san’at inson axlok odobining kuzgusidir, desa xato bulmaydi. SHuni aloxida ta’kidlash zarurki, san’at asarlari axlok mazmuniga ega bulmasa, uzining insonparvarlik xususiyatini yukotadi. Albatta, san’atdagi axlokiylik mezonlari SHarkda va Garbda aloxida mazmun kasb etadi, buni xammamiz anglaymiz albatta, chunki turli tarixiy davrlarda yaratilgan Garb san’atkorligida ba’zida axloksizlik namunalarini xam uchratishimiz mumkin. Buning boisi guzallikni kay darajada anglash bilan boglik.

Estetika guzallik konuniyatlarini ximoya etar ekan,sanat guzallikning asl makoni va bu konuniyatlar sanatga xam tegishlidir. San’atda barcha estetik vokea-xodisalar:guzal va xunuk, ulugvor va pastkash, fojiali va kulgili, oliyjanob va kaxramonlik kabilar aks ettirilgan buladi. Bu vokea xodisalar san’atning kaysi turida aks ettirilgan bulmasin, yuksak estetik kiymatga ega buladi, chunki bu jarayon xam insonni kamolotga etaklaydi. Kupgina komediyalarda xudbinlik, lokaydlik, yulgichlik kabi xunuk xislatlarni ochib tashlash orkali guzallik, poklik, rostguylik kabi insoniy fazilatlar shakllanishiga olib keladi. Ezgulik, xalollik, guzallik kabi fazilatlar insonga fakat san’at orkali tula etib boradi. SHuning uchun san’at nafakat axlok, estetika bilan boglik, balki san’at uz navbatida din bilan xam aldokadorlikda buladi. Jaxon dinlari xisoblangan - buddizm, xristianlik, islom va boshka milliy dinlar san’at bilan korishib ketgan. CHunki diniy ibodatlar, marosimlar san’at bilan ifodalanib, inson ongiga, uning xis-tuygulariga kuchli ta’sir utkazadi. Masalan, buddaviylik asori-atikalari, xaykallari, ibodatxonalardagi devorga tushurilgan suratlar, islom masjidlarida Alloxning yagonaligini ifodalaydigan

xattotlik yozuvlari va nakshlar,xristianlikda cherkovlardagi turli tasviriy sanat va musika asarlari, va boshkalar shular jumlasiga kiradi. Lekin shuni aloxida kayd kilish zarurki, din kuprok iloxiylikni targib etsa, san’at kuprok dunyoviylikni aks ettiradi.

SHunday bulsada, san’atkor uchun uning kaysi dinga mansub ekanligi u yaratgan asarlarida namoyon buladi va uzida xam iloxiylikni, xam dunyoviylikni aks ettiradi.

San’atkor ijodga kirishar ekan, uning oldida xayotning ran-go rang, murakkab, ziddiyatli, jozibali va extiroslarga tula manzarasi gavdalanadi. U bu manzarani san’atda ifodalashga intilar ekan, uz davri, uz millati, uz e’tikodining namoyondasi bulib kolaveradi. Badiiy aks ettirishning kulami va mazmuni san’atkor kanchalik xayotni keng va chukur bilishiga, bu bilim uning

fikr-muloxazalari, xis-tuygulariga kanchalik singib ketganligiga boglikdir. Mustakillik sharoitida xalkimiz yaratayotgan san’at asarlari va buyumlarga bulgan e’tibor yanada kuchaytirilmokda. Uzbek xalki insonni lol koldiradigan ajoyib amaliy san’ati, yuksak badiiy didi va maxorati bilan butun dunyoga mashxur bul-

gan. Bugungi kunimizda san’atga bulgan e’tiborning kuchayishi badiiy ijodga bulgan munosabatning uzgarishiga olib kelmokda. Xar bir Uzbekiston fukarosiga uz kobiliyatlarini namoyon etish orkali badiiy ijod kilib, yuksak san’at asarlarini yaratish imkoniyatlari yaratilib berilmokdaki, bu bir tomondan insonning ma’naviy kamolotga ta’sir etsa, ikkinchi tomondan mustakillik ne’matlarini yanada mustaxkamlash uchun xizmat etadi. Darxakikat "Milliy istiklol goyasi" kontseptsiyasida xam san’at soxalaridagi

faoliyatni yanada rivojlantirish vazifasi ilgari surilgan. Unda jumladan shunday deyilgan: "Ijodkorlarni murakkab va shonli ta-

rixiimizning yorkin saxifalarini, bugungi xayot vokeligini, oliyjanob orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musika va tasviriy san’at asarlari yaratishga xar tamonlama ragbatlantirish. YOshlarga ibrat buladigan barkamol insonlar, zamonaviy kaxramonlar timsolini yaratish". 1.

1."Milliy istiklol goyasi:asosiy tushuncha va tamoyillar"
T., Uzb.-2000y 64-b.

Bu vazifalarni ruyobga chikarish Mustakil Uzbekistonni jaxon darajalariga kutarilishida asosiy omil bulib koladi.

2. San’at turlari va ularning o`zaro aloqadorligi.

Vokelik (tabiat,jamiyat,borlik) xodisalarini badiiy idrok etish jarayonida san’atning turli-tuman shakllari vujudga kela boshlagan.San’atning bunday turlarga (shakllarga) bulinib ketish uzok davom etgan tarixiy xodisa bulib,asrlar davomida insonlarning badiiy faoliyat jarayonining kengayib borganligidan darak beradi.Estetik tafakkurning tur xosil kilish manbalari ikki yunalishda vujudga kelgan.Manbaning birinchi yunalishi vokelikning murakkabligi,kup kiyofaliligi,xar tomonlamaligidir.San’atning u yoki bu turining vujudga kelishi uning vokelikning kaysi tomondan aks ettirishga karatilganligidir,ya’ni misol uchun nazm va tasviriy san’at turlarini bir-biri bilan kiyoslab kursak,ularning tasvir vositalaridan kelib chikkanligini anglaymiz.Masalan:tabiat manzarasi nazmda suz bilan ifoda etilsa,tasviriy san’atda

buyoklar bilan tasvirlanadi.San’at turlarining vujudga kelish manbalaridan yana biri bu inson xis-tuygularining boyligi,idrok etish xususiyatlari,inson ma’naviy kobiliyati bilan boglikdir.

San’at turlarining vujudga kelish tarixini taxlil etadigan bulsak,ularning rivojlanishida "notekislik"konuniyatiga buy sunganining guvoxi bulamiz.Turli tarixiy davrlarda,turli xalklar xayotida uz davrining badiiy kiyofasini belgilab beradigan san’atning u yoki bu turi etakchilik kilib kelgan. kadimgi Misrda barcha san’at turlari rivojlangan bulib,ular orasida me’morchilik, Xindistonda musika,Xitoyda rang tasvir,Eron va Turonda xalk amaliy san’ati,YUnoniston va Rimda xaykaltaroshlik kabi turlari keng tarkalgan edi.Asrimizning boshlarida Rim va

Vizantiyada tasviriy san’at,arablarda suz san’ati,keyinchalik ilk Uygonish davrida Italiyada tasviriy san’at,Angliyada teatr san’ati,Germaniyada musika san’ati,Rusiyada badiiy adabiyot kabi turlari xam keng rivojlangan.SHunday kilib,san’at turlari asta sekinlik bilan tarakkiy etib,bugungi kunimizda san’atning juda kup boshka turlari xam vujudga keldi.Bulardan kino,tsirk,televidenie,estrada va boshkalar.

San’at turlarining muxim xususiyatlaridan biri,ular bir-birlarini urnini bosa olmaydi.Ularning xar biri mustakil,uzicha nodir va betakror bulib,vokelikni bir tomonini aks ettiradi,usha tur insoniy xis-tuygularni ifodalashyda boshka turlarga nisbatan ustun buladi va muayyan cheklanganlik xususiyatiga ega buladi.Masalan,badiiy adabiyot xayotni keng aks ettirishda inson ruxiy-akliy tomonlarini ochib berishda tengi yuk san’at xisoblansada,u ma’lum cheklanganlik xossasiga ega.

Badiiy adabiyot inson xis-tuygularini,sezgilarini ifodalashda musikaga yoki kino san’atiga teng kela olmaydi,chunki xar bir san’at turi uziga xos xolatda namoyon buladi.

San’at turlarining yana bir xususiyati shundan iboratki,ularning xar biri aloxida ifodalash vositasiga karab xam farklanadi.Masalan,adabiyotda- suz,tasviriy san’atda-rang,yoruglik,chizik,nur,soya,musikada- oxang,makom,xaykaltaroshlikda-xajm,ulcham,me’morchilikda- mutanosiblik, uygunlik kabi xususiyatlarga amal kilinadi.San’atning turlari badiiy-texnik vositalar orkali fark kilishiga karamay,ular ba’zida umumiy konuniyatlarga xam buy sunadi.Masalan,san’atning ayrim turlarida uning tasviriy-ifodaviy vositalari fizika,tabiat fanlari konunlariga,xaykaltaroshlik ana-tomiya va fiziologiya konunlariga,musavvirlik masofa ulchov konunlari-ga,musikashunoslik ovoz,tovush,tebranish konunlariga buy sunadi.

Badiiy ijod turlarining xilma-xilligi,ular urtasidagi umumiylik va xususiylik ularni turkumlash zaruriyatini tugdiradi.

Turkumlash - san’at konuniyatlarini bilishning va uni urganishning muxim vositasi bulib xizmat kiladi.U badiiy ijodning turli bulaklari urtasidagi alokadorlikni va mavjud farklarni aniklab,ularni bir tizim xoliga keltirishga yordam beradi.SHuning uchun xam san’atni xozir fazoli. vaktli, fazoli-vaktli kurinishlarga bulib urganish an’anaga aylan-gan. Fazoli kurinishga tasviriy san’at, xaykaltaroshlik, chizikli rasm (grafika), amaliy san’at va me’morchilik kiritilsa, vaktli kurinishga badiiy adabiyot va musika, fazoli-vaktli kurinishlarga esa teatr, kino, televidenie, tsirklar kiritiladi.

San’at turlari idrok etilish jixatidan xam xil kurinishlarga ega buladi.Kuz bilan kuriladigan san’at turlariga tomoshali deb aytiladi, bularga tasviriy san’at, xaykaltaroshlik, me’morchilik, badiiy foto asarlari kiradi. kulok bilan eshitiladigan san’at turlariga musika va uning mayda turlari opera, operetta, syuita, klassik kuylar va boshkalar kiradi.Teatr, tsirk, kino san’at turlari esa xam kuriladigan, xam eshitiladigan

turlari kiradi. SHunday kilib, san’at turlari kanchalik keng tarkalgan bulmasin, xar bir san’at turi xayotning bir tomonini kamrab oladi va ayni paytda aloxida axamiyat kasb etadi. CHunki xar bir san’at turi uzicha guzallik yaratadi va bu san’at turisiz xayotni idrok etish kiyin buladi.Bir tasavvur etib kuraylik,xayotda san’atning musika turi bulmasa,yoki badiiy adabiyot bulmasa,yoki kino san’ati. Demak, xar bir san’at turi xayotimizda aloxida axamiyatga ega va xayotimizning muxim bir bulagi,uygunlik va mutanosiblik manbai ekan.San’at turlari inson ma’naviy xayotining manbai,kolaversa guzallik manbai ekanligini aloxida ta’kidlash joiz.

Bugungi kunimizda bir-birisi bilan uzviy boglanib,korishib ketgan san’at turlari xayotimizdan keng urin egallamokda.Bularga teatr,kino,ochik saxna (kontsert),tsirk,"oynai jaxon" (televidenie)kabilar kiradi. korishma san’at turlarining muxim xususiyatlaridan biri shuki,bir san’at turi yana bir birisini xamkorlika chakiradi va natijada ikkala yoki bir nechtasi kushilib korishib ketadi.SHuning uchun korishma san’at tur-lari degan tushuncha xosil buladi.Masalan,teatr san’atida biror bir asar yaratish uchun badiiy adabiyot asari zarur buladi,bundan tashkari saxna asarini musikasiz tasavvur etib bulmaydi.Xuddi shunday kino san’ati xam,bu erda bir necha san’at turlarining kushilmasi kelib chikadi. SHunisi juda muximki,korishma san’at turlarida birorta xamkor san’at turi tushib kolsa,uygunlik buziladi va bu san’at turi estetik jixatdan insonlarni koniktirmasligi mumkin. Masalan, teatr saxnasida aktyorning kuylay olmasligi natijasida boshka ovozda yozilgan fonogrammaning kuyilishi,estrada kontsertlarida fakat xonandaning bir joyda turib kushik aytishi va xakazo misollarni keltirish mumkin.

Korishma san’at turlari ichida kino san’ati biz uchun juda axamiyatlidir.Kino san’ati juda murakkab korishma turini xosil kiladi.Bunda adabiyot asari - kinostsenariyga,teatr - kinoaktyor san’atiga,musika - fil’mning tasviriy kurinishiga,model’erlik - aktyor kiyim kechaklari bilan birgalikda tarixiy davrni ifodalashga xizmat etadi.SHu asnoda kino san’atning bir necha xususiyatlarini bir erga jamlab,yangi sifat darajasini yaratishga kodir buladi.SHuning uchun bugungi kunda yaratilayotgan kupgina kino asarlari insonlarda yuksak estetik ta’sirlanish tuygusini xosil kiladi va XX asr fan-texnik tarakkiyot mu’jizasiga aylandi.Kino san’atining texnik asosini suratga tushirish kameralari tashkil etadi.Ular xayotni xilma-xil kurinishlarini badiiy uzlashtirish orkali kino asarining estetik vazifasini bajaradi.

XX asrning ikkinchi yarmida san’atning "Oynai jaxon"(televidenie)turi ravnak topa boshladi.Televidenie xam ilmiy-texnik inkilob maxsulidir.Televidenie uzining moxiyat jixatidan kengrok mikyosdagi san’at bulib,u siyosiy,ilmiy-texnik,estetik va boshka axborotni tezkor etkazib berishning eng muxim vositasi xisoblanadi."Oynai jaxon"millionlab odamlarning bush vaktlarini uyushtirishga,turmush tarziga aloxida ta’sir utkazishga kodir bulib, u insonlar xayotidan juda muxim urin egallaydi.

"Oynai jaxon" dastlab san’at turlarini ifodalash vositasi tarzida yuzaga kelgan,xozirgi kunda ochik efirga uzatilayotgan kursatuvlarni yuksak maxorat bilan bezatish va kursatishning uzi xam aloxida san’at turiga aylanib bormokda.

San’at turlarining bugungi kunimizdagi rivoji barkamol shaxsni shakllantirishga karatilgan.Zero,mustakil Uzbekiston uz oldiga kuygan maksadga fakat barkamol rivojlangan avlodni shakllantiribgina erisha oladi.San’at turlari xayotimizning rang-barangligini,insonlar ruxiyatlarining turli xillarda namoyon bulishini,olamning turfa xil ekanligini, ranglar fakat ok-kora emas,balki kamalak sifat ekanligini anglatib tu-

radi.±ayotimizni ana shu ranglarsiz,san’at turlarisiz tasavvur etish kiyin va ularsiz xayot mazmunini bezash juda mushkul buladi.SHuning uchun xam bugungi kunda,ya’ni ma’naviy karamlikdan kutilgan bir paytda, san’at turlarini yanada rivojlantirish masalasi davlat mikyosida kurib chikilmokda.Jumladan "Milliy istiklol goyasi: asosiy tushincha va tamoyillar " kontseptsiyasida "Ijodkorlarni murakkab va shonli tariximizning yorkin saxifalarini,bugungi xayot vokeligini,oliyjanob orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot,kino,musika va tasviriy san’at asarlari yaratishga xar tomonlama ragbatlantirish" zarurligi tugrisida fikrlar ilgari surilgan.
Xulosa tarikasida shuni aytish mumkinki,san’at turlari yosh avlodni estetik jixatdan barkamollikka etaklaydi.SHuning uchun xam san’at turlari kuchli estetik tarbiya vositasidir.Uni rivojlantirish shaxsga e’tiborni rivojlantirishdir,bu esa kelajak avlodni ezgulik yulidan rivojlantirishdir.Barkamol rivojlangan shaxs farovon turmushni yaratuvchilaridir.Maksad esi unga sarf kilingan vositalarni doimo oklash xususiyatiga ega.Mustakil Uzbekiston uz maksadiga erishajak,albatta.

3. Badiiy asarni estetik idrok etish va estetik tarbiya

Dastlabki mavzulardan bizga ma’lum buldiki, estetika guzallik konuniyatlarini urganibgina kolmasdan, balki badiiy ijod jaraenlarini xam kengrok tadkik etadi. Estetikada insonning tabiat guzalliklarini uzlashtirishi estetik faoliyat deb yuritilsa, san’atda insonning bu faoliyati badiiy ijod kilish jaraeni deb ataladi.

San’at uz moxiyati jixatidan estetikaning uziga xos konunlaridan foydalangan xolda uzida utmish madaniy merosini, xozirgi kun tajribasini va kelajak tugrisidagi bashoratlarni uygunlashtirgan xolda namoen etadi. Estetika vokea-xodisalarni real olamga muofik keladigan tushunchalar va koidalar orkali ochib bersa, san’at voeka-xodisalarni xael, tukima obrazlar vositasida ifodalaydi.

Borlikni estetik uzlashtirish jaraenida insonda badiiy ijod kilishga extiej paydo bulib boshlaydi. Insondagi tugilgan bu extiej uni tabiat guzalligidan, insoniy munosabatlar guzalligidan baxra olgan xolda biror bir san’at asarini yaratishga undaydi.Borlikni estetik uzlashtirish san’atning asosiy mazmunini, ya’ni uning estetik moxiyatini tashkil etadi. SHuning uchun xam estetika san’atshunoslik soxalari uchun asosiy uslubiy zamin bulib xizmat etadi, zero san’at bilan estetika uzaro chambarchas boglik ekanini shundan xam anglasa buladi.

Vokelik bu bir vaktning uzida guzallik va xunuklik, fojialilik va kulgulilik, ulugvorlik va kaxramonlik, oliyjanoblik va pastkashlik kabilarni xam kamrab oladi. Bu vokea-xodisalarni mazmun jixatidan estetika fani izoxlab bersa, uning xaetdagi aksini san’atshunoslik badiiy obrazlar orkali ifodalab beradi. SHunday kilib, guzallikning xali insonga notanish bulgan kirralari yaratiladi. SHuning uchun xam san’at guzallikning asl makonidir, desak xato bulmaydi. Vokelikdan olinib, bebaxo san’at asariga aylangan narsalar insonda uziga xos estetik xis-tuygularni, zavklanish, xayratlanish va boshka shunga uxshash estetik xususiyatlarni xosil kiladi. Bundan kurinib turibdiki, san’at xakikatdan xam uz moxiyati jixatidan estetikdir.

SHuni aloxida ta’kidlash lozimki, vokelik guzalligi san’atdagi guzallikdan ustun turadi, chunki xaetda guzallik bulmasa, uni san’atda xam ifodalab bulmaydi.Lekin guzallik san’atga kuchgandagina estetik kiymat xosil kila oladi va asrlar davomida ulugvorlik kasb etib, yuksak ma’naviy kadriyatga aylanishi mumkin buladi. SHu

nuktai nazardan karalganda, san’atdagi guzallik xaetdagi guzallik in’ikosi bulib, uning bitmas-tuganmas manbai vokelik ekanligini anglash mumkin, uning eng muxim tarkibi esa guzallikka tashnalik, sezgirlik, sinchkovlikdir. Guzallik yaratuvchi insonlarning boshkalardan farki shundaki, ular guzallikni xamma erda kura olish, sezish, xis kilish kobiliyatiga ega buladilar. SHuning uchun xam oddiy estetik ong bilan yuksak badiiy ong urtasida fark mavjud buladi, ya’ni xar bir insonda estetik ong natijasida narsa va xodisalarga baxo berilsa, yuksak badiiy ong natijasida ijodkor vokelikni in’ikos etibgina kolmasdan, balki kandaydir san’at asarini yaratishga xam muvaffak buladi. Ijodkor biror asar yaratar ekan, u nafosat konunlaridan chekkaga chika olmaydi, u nafosat konunlariga rioya kilgandagina, uning yaratgan asari eng toza pok guzallik kurinishida namoen buladi. SHu ma’noda san’at (badiiy faoliyat) ni vokelikni inson tomonidan estetik jixatdan idrok etilishining eng oliy kurinishidir, desa xato bulmaydi. Xulosa kilib aytish mumkinki, san’at – bu inson tomonidan yaratilgan narsa, buyum, biror kurinishdagi shakl bulsa, estetika – bu mazmun, yaratilgan narsaning, ya’ni san’at asarining moxiyatini xosil kiladi. San’atni estetikasiz tasavvur etib bulmaydi, chunki xar kanday yaratilgan buyum, narsa, asar uzida guzallikni mujassam etgan bulishi kerak. SHuning uchun xam estetika san’at soxalari uchun boshlangich nazariy va uslubiy asos bulib xizmat kilar ekan, u doimo san’atning mazmuni sifatida amal kilib kolaveradi.

Insoniyat azal azaldan estetik boyliklarni yaratib kelgan Er yuzining turli xududlaridagi insoniyat tarakkietining eng kadimgi edgorliklari shundan dalolat beradiki, insonga azaldan uziga uxshash mavjudotlarni estetik idrok etish va yaratish xos bulgan. SHu bilan birga insonning guzallikni anglashi uzgaruvchan bulganligi sababli guzallik xamma vakt insonning ijtimoiy orzulari bilan korishib ketgan. Masalan, patriarxat davrida juda kup bola tugib ustiradigan ael guzallik ramzi sifatida in’ikos etilgan. SHuning uchun bu davr xaykaltaroshlari ael komatini ataylab kingir-kiyshik kiefalarda tasvirlaganlar.

San’at insonning ruxiy kechinmalari asosida yuzaga kelgan estetik boyliklardir. Inson xamma erda va xar kanday darajada mavjud tabiiy xamoxanglik bilan tuknashar ekan, u albatta tabiat guzalligidan zavk-shavk oladi, ongli eki anglanmagan xolda sevinadi, ma’naviy konikish xosil kiladi. Ana shu ma’naviy konikish maxsuli xisoblangan kanchadan-kancha san’at asarlari-yu, kanchadan-kancha buyuk talantlarni etishib chikkanligini xech kim inkor eta olmaydi.Jumladan, Kadimgi SHark mamlakatlarining bizga meros kilib koldirgan ezuv koldiklari, Urxun-Enisey bitiklari, Xorazm alifbosi, Fir’avnlarning asori-atikalari, skiflardan kolgan oltin buyumlar, Doro I tasviri solingan tilla tangalar, ulugvor me’morchilik obidalari (Bobil, SHumer,Misr, YUnon arxitektura edgorliklari), Xindiston va Xitoy xukmdorlari saroylari, ibodatxonalardagi tasviriy san’at va xaykaltaroshlik asarlari – bularning barchasi insoniyat tomonidan yaratilgan san’at asarlari – estetik boyliklar xisoblanadi. Turli tarixiy davrlarda yaratilgan va tarixiy edgorlik bulib kolgan bu ma’naviy boyliklarda insonlarning guzallikni kay darajada in’ikos etganliklarini anglash mumkin.Insoniyat tarakkietida umumbashariy tuygularni gavdalantirgan san’at asarlari xalkchil bulib, xalk orzu-armonlariga mos kelgan. San’atda obrazlar milliy fe’l-atvor, til, an’analar, dunekarash, san’atkorning vokelikka munosabati va boshka mezonlardan kelib chikib yaratilgan.San’atda estetik boyliklarni yaratish rang tasvir, badiiy suz, musika, me’morchilik soxalaridan tashkari xalk amaliy san’ati, xunarmandchiligi, xavaskorlik

ijodietida xam keng amal kilgan.

San’at xaetning bekies boyligini va xilma-xilligini – guzallik va xunuklik, yaxshi va emon xislatlarni aks ettiradi, xamda vazifani anik estetik orzu mavkeidan turib amalga oshiradi. San’atda guzallik kup kirrali bulib, unda estetik orzu muxim axamiyat kasb etadi. San’at guzal va xunuk, fojiali va kulguli, ulugvor va pastkash xodisalarni aks ettirishi mumkin. Lekin san’atning uzi xamma vakt xam guzaldir.CHunki u uz tarkibiga estetik orzu, ya’ni guzallikning zaruriy xususiyatini kamrab olgandir.

San’atda estetik orzuning asosiy mazmunini inson guzalligi xakidagi turli davr odamlari, millatlar, ijtimoiy guruxlar tushunchalari buyicha uni kanday kiefada kurish istaklari mavjudligi tugrisidagi tasavvurlar tashkil etadi.

Kup asrlar davomida san’at estetik orzuni ruebga chikarishning ikki asosiy yunalishini ishlab chikkan: shulardan biri ijobiy kaxramon ramzini yaratish orkali ruebga chikarish yulidir. Ijobiy kaxramon – ijodkorning guzallik xakidagi estetik orzusidir.

Ilgor orzularni ruebga chikarishga karama-karshi xaet xodisalarini tasvirlashning ikkinchi yuli – salbiy kaxramon- guzallikning aksi bulgan xunuklik, yaramaslik ramzi bulib,birinchisidan kam bulmagan estetik axamiyatga ega. Buyuk suz ustalaridan biri «san’at orzudagi odamlarni emas, balki ijodkorning orzusidagi odamlarni aks ettirishni takazo etadi» degan edi. SHunday orzu bulganida eng mudxish, xunuk, pastkash xaet xodisalarini tasvirlash xam san’at asarlarining estetik kiymatini tushirmaydi, balki yanada oshiradi.

Ulugvorlik san’atda xar tomonlama ifodalanadi, chunki u san’atning barcha kurinishlari uchun asosiy mavzudir. San’atning turli shakllarida ulugvorlik xilma-xil tasvirlanadi. Masalan,tasviriy san’atda kuprok tabiat ulugvorliklari, ulugvor insoniy fazilatlar aks ettirilgan bulishi mumkin. Me’morchilikda tarixiy davrlar ulugvorligi aks ettirilgan bulishi mumkin. Xalk dostonlarida insoniy munosabatlar va kaxramonlarning ijobiy fazilatlari ulugvorlik nuktai nazaridan aks ettirilgan bulishi mumkin va xakazo.

San’atda ulugvorlik kupincha fojialilik bilan enma-en namoen buladi. Navoiy va SHekspir asarlari, shoshmakom, guzal me’morchilik obidalari bir vaktning uzida xam ulugvorlik, xam fojialilik ruxi bilan sugorilgan.Bundan fojialilik –ulugvorlik, ulugvorlik – fojialilikdir, degan xulosa kelib chikmaydi, masalan, Xivaning minoralari, eski kuchalari va madrasalar ulugvor bulishi mumkin, lekin xech kanday fojiali xis-tuygu kuzgotmaydi.SHekspirning Otello kiefasi fojiali, lekin ulugvorlik tuygusini kuzgotmaydi.

San’at asarlarida guzallik va ulugvorlik vokea-xodisalaridan tashkari, fojialilik va kulgulilik xam keng urin oladi. Fojia san’ati insoniyatning doimiy xamroxi, umr yuldoshidir, deb aytganlar. Zero, inson orzularini ruebga chikarish uchun bir umr kurashadi va intilib yashaydi. SHu jaraenda xodisalar bilan tuknashib, insoniyat tarakkietining u eki bu boskichlaridan ijtimoiy adolatsizliklar, munosabatlardagi xilma-xillik san’atda fojiali obrazlar tugilishiga sabab bulgan. SHu bois fojia insonga xamroxdir, lekin xakikiy fojia asarini yaratish kamdan-kam ijodkorga nasib kilgan. Bunday ijodkorlardan, shubxasiz A.Navoiy va SHekspirlarni aytib utishimiz mumkin.

San’atda kulgulilikning ifodalanishi orkali san’atning bu soxadagi uziga xos turlari paydo bulgan.Kulgulilikning turli kurinishlari san’atning me’morchilikdan

boshka deyarlik barcha shakllarida namoen buladi va komediya shaklida uzining tulik ifodasini topadi. Komediya mavzuini turli beuxshovliklar, muofiksizliklar, nomutanosibliklar tashkil etadi.Kulgulilikning xilma-xil shaklda namoen bulishi ularning san’atda xam turlicha aks etishini takozo etadi.

Ayni paytda jamiyatdagi sodir buladigan salbiy xodisalar ustidan kulishdan maksad guzallikni karor toptirish ekanligini unutmaslik lozim. Kulguning fosh etuvchi xususiyatini ta’kidlar ekanmiz, uning axamiyati kam bulmagan boshka tomonlari-tarbiyalovchi kulgu, kungilni yumshatuvchi va bushatadigan kulgu, achinish va mexr-shafkat kursatish kulgusi, xaetbaxsh va dustona kulguni xam uz ichiga oladi va shubxasiz san’at asarlarida uz aksini topgan. SHunday kilib, estetikaning asosiy tushunchalari bulgan guzallik, ulugvorlik , fojialilik va kulgulilik kabilar san’at bilan bevosita boglik ekanligini, san’at turlarining paydo bulishiga asosiy turtki vazifasini utaganligini aytib utish lozim. Bu esa san’atning moxiyati xakikatdan xam estetik ekanligini yana bir bor ta’kidlaydi.

Asosiy tushunchalari.

San’at, xayotiy haqiqat, shartlilik, milliy ruh, badiiy obraz, tipiklashtirish, ideallashtirish, sujet, san’at turlari, estetik qobiliyat, estetik tarbiya, ommaviy madaniyat.

Takrorlash uchun savollar

1. San’atning estetik mohiyatini tushuntiring?
2. San’atning boshqa ijtimoiy ong shakllari bilan munosabatini izohlang?
3. San’at turlarini tushuntirib bering?
4. Badiiy qobiliyat, iste’dod va daho tushunchalarini izohlang?
5. Estetik tarbiya va uning usullarini tushuntiring?

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 2001.
2.Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. T., 1994.
3.Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.,1996.
4.Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. "Fidokor" gaz., 2000 yil, 8 iyun.
5.Umarov E. Estetika. T., 1995.
6.Gulmga A. Printsipn estetiki. M., 1987.
7.Estetika. Slovar. M., 1989.